




QADIMGI DUNYO TARIXI XRESTOMATYASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLAGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QADIMGI DUNYO TARIXI XRESTOMATIYASI

O'quv qo'llanma

Toshkent
«ADIB» nashriyoti
2013 yil

UO'K:94(575) 1
KBK:63.3(0)3ya7

O'zbekiston respublikasi oliv va O'rta maxsus ta'llim vazirlagining
2011-yil 17-sentyabrdagi 392-sonli buyrug'iiga asosan nasrga tavsiya etilgan

*Qadimgi dunyo tarixi bo'yicha xrestomatiya: tarix o'qituvchilari,
tarix fakulteti talabalari va maktab o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma.*

Tuzuvchi: Ravshan Rajabov
Taqrizchilar: *t.f.d. G'. Temirov
t.f.n. dots. E. Yusupov
t.f.n. dots. M. Yo'ldosheva*

Rajabov, Ravshan

Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi: o'quv qo'llanma/
Toshkent, «ADIB» nashriyoti, 2013 - 324 b.

*Mazkur o'quv qo'llanma qadimgi dunyo tarixi fani bo'yicha birlamchi
manbalarning saylamma tarjimalari asosida tuzilgan. Qo'llanmada qadimgi Sharq,
Yunon-Rim tarixi bo'yicha yozma matnlar; jumladan, huquqiy hujjatlar; antik
mualliflarning usarlaridan parchalar berilgan va mualliflar tog'risida qisqacha
ma'lumotlar mavjud. Qo'llanma universitet, pedagogika institutlari, 5110600
Tarix o'qitish metodikasi ta'llim yo'nalishi talabalari, o'rta maktab o'quvchilari
va tarix o'qituvchilariga mo'ljalangan bo'lib, tarix fanini o'zlashtirish, hamda
tarixiy ong, tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.*

UO'K:94(575) 1
KBK:63.3(0)3ya7

ISBN 978-9943-4165-1-2

Аннотация

Настоящая хрестоматия содержит некоторые важнейшие источники по соцально-экономической, культурной и политической истории народов древнего Востока, Греции и Рима.

Материалы учебного пособия характеризуют социально-экономические отношения, политический строй, внешнюю политику, культуру народов древнего мира. Пособие содержит опорные слова список литературы.

Пособие предназначено для преподавателей и студентов исторических факультетов университетов и педагогических институтов.

Учебное пособие может быть полезным для учеников, учителей академических лицеев и колледжей.

Summary

The manual is intended for the teachers and students of historical faculties of universities and pedagogical institutes.

The fragments from written sources on a history of Ancient East, antique societies (communities) of Greece and Rome are switched on in the manual. The materials of the manual open a role of geographical environment in development of societies, characterize the socio economic relations, political build, external politics known state figures, culture of the peoples of the ancient world. Contain basic words and tests, list of the literature.

The manual can be useful to the teachers of academic Liceums and colleges.

Kirish

Ushbu qo'llanma hozirgi kunda tarix fanini o'rganishda asosiy muammolardan biri bo'lgan manbalar ustida ishlash yuzasidan zaruriy adabiyot vazifasini bajaradi. Yozma manbalarni tahlil qilish, o'rganish tarix fanini o'rganishda eng asosiy vosita bo'lib, manballardagi dalillar orqali o'tmisht, qayta tiklanadi.

Qadimgi dunyo tarixi bo'yicha juda ko'p va xilma-xil yozma manbalar mavjud. Mazkur yozma manbalar tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilib, ko'pchiligi rus tilida tarjima qilinib, o'qituvchi va talabalar hukmiga havola qilingan. Shu paytgacha yozma matnlar rus tilida majmua – xrestomatiya tarzida bir necha bor nashr qilingan. Bu manbalar matni rus tilida bo'lgani uchun tarix ta'limga o'nalishlari o'zbek guruh talabalari uchun foydalanish imkoniyati cheklangan edi. Bu talabalarni tarix fanini mukammal o'zlashtirishiga to'sqinlik qilar edi. Ushbu qo'llanmada qadimgi dunyo tarixi fani bo'yicha ayrim matnlar rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib berildi. Tarjima jarayonida har bir matn mazmun-mohiyatini aynan saqlab qolishga harakat qilindi. Matnlar qadimgi Sharq, Yunon-Rim jamiyatining ijtimoiy -siyosiy, madaniy hayotini eng asosiy tomonlarini tasavvur qilishga xizmat qiladi. Matnlarda uchraydigan tarixiy atamalarga izoh berilib, antik mualliflar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirildi. Tarjimada imkoniyat darajasida matnda uchraydigan tarixiy atamalar izohi belgilangan qoidalar asosida berildi. Rus tilidan tarjima qilingan matnlar qadimgi sharq, Yunon – Rim tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Matnlarni o'qib, ularni tahlil qilish qadimgi jamiyatlar tarixiy taraqqiyotini to'laqonli tasavvur qilishga, talabalarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllanishiga yordam beradi.

Ushbu qo'llanma universitetlar, pedagogika institutlari tarix fakultetlari talabalari, magistrantlar va maktab tarix o'qituvchilari va o'quvchilariga mo'ljallangan. Qo'llanmada ayrim juz'iy kamchiliklar mavjud albatta. Bu borada fikr-mulohazalar bildirilsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

BIRINCHI QISM

Qadimgi Sharq

1- mavzu. Qadimgi Misr

1-§Qadimgi Misr tarixi yozma manbalari

Qadimgi Misr tarixi bo'yicha yozma manbalar o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Qadimgi Misr yozma manbalarida mamlakat tarixi to'la yoritilmagan. Faqatgina Ellin davrida misrlik kohin Manefon yunon tilida Misr tarixining umumiyligini qissasini eng qadimgi davrlardan o'zi yashagan davrgacha bayon qildi. Misrliklar qadimgi Misr tarixi bo'yicha batafsil tarixiy asarni yozmagani bo'lsalarda, lekin ilmiy jihatdan qimmatli manbalarni yaratdilar.

Dunyoda eng qadimgi yilnomasi "Palermo toshi" deb ataladi. Dunyodagi eng qadimgi yilnomasi bizgacha yetib kelgan. U birinchi besh sulola hukmronlik qilgan davrni qamrab olgan. Bu manba nihoyatda dalillarni asoslashda izchilligi bilan ajralib turadi.

Karnak iboda tixonasi devorlaridagi matnlar Yangi podsholik fir'avni Tutmos III faoliyatini abadiylashtirgan. Ular qisqa vaqtini qamrab olsa-da, statistik ma'lumotlar, podsho va zodagonlarning so'zlari bilan voqealarni batafsilotq bayon qiladi. Bu yo'naliishlarda qandaydir umumlashtirishlar yo'q. Fir'avnning yutuqlari va uning shon-sharafidan guvohlik beradigan voqealar abadiylashtiriladi, muvaffaqiyatsizliklar to'g'risida ma'lumot berilmaydi.

Kamos yozuvlarida giksoslar hukmronligi davri va misrliklarning chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik urushi tasvirlanadi. "Amonga sig'inishni qayta tiklash to'g'risidagi yozuv"da xudosiz podsho (Ex-naton)ning baxtsiz podsholik davri ibodatxonalar va kohinlarning imtiyozlarini qayta tiklagan e'tiqodli fir'avn hukmronligi bilan qaramaga qarshi qo'yiladi.

"Garris katta papirusi" deb ataladigan yozuvning tarixiy qismida XIX sulolaning so'nggi notinch vaqtлari to'g'risida ochlik, suriyalik

Irsu boshechiligidagi chet ellik qullarning qo'zg'oloni, ibodatxona boyliklarining tortib olinishi to'g'risida aytildi va shundan so'ng, e'tiqodli fir'avn davrida qaror topgan tinchlik va farovonlik manzarasi tasvirlanadi.

Misr manbalarida fir'avnlarni ulug'lash, ularning sharafiga hamdu sanolar o'qish odatdagi hol. Misol uchun, Ramses II ning xettlar bilan jangi tasvirida fir'avnni nihoyatda ulug'lash yaqqol ko'rindi. Fir'avn o'tmishdoshlari, zamondoshlariga nisbatan yuqori qo'yildi. Jangning birinchi bosqichidagi muvaffaqiyatsizlik Misr askarlari aybi deb qaraladi. Faqat fir'avnning o'zi xudo Amonning yordami bilan yuzaga kelgan og'ir ahvoldan qutqaradi va dushmanlarni shaxsan o'zi yengadi.

Misr yozma manbalarida yuqori mansabdon shaxslarning hayotini tasvirlash muhim o'rinni tutadi. Manbalarda saroy a'yonlari (Una, Mal), noiblar (Xufxor, Seut monarxlari), harbiy boshliq Yaxmos, me'mor Ineni va shunga o'xshashlarni uchratish mumkin. Ba'zida tarjimayi hol badiiy asar shaklini oladi ("Sinuxet sarguzashtlari"). Qadimgi Misrdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'rganish uchun qator yozma manbalar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, "Ipuser so'zlari". Duaufaning o'g'li Axtoyning nasihatlari va Yangi podsholikning maktab o'gitlarida o'z aksini topgan.

Qadimgi Misrning ijtimoiy hayoti, an'analari to'g'risida ko'pgina ma'lumotlar "Duaufaning o'g'li Axtoyning nasihatlari" va Yangi podsholikning maktab o'gitlarida o'z aksini topgan. Qadimgi Sharq diplomatiyasining eng birinchi va noyob namunasi Misr fir'avni Ramses II ning Xett podshosi Xattusili bilan tuzgan shartnomasidir.

2-§. Misr tabiatи

Sitsiliyalik Diodor. Tarix kutubxonasi

Diodor (er. avv. I asrda yashagan) Sitsiliya orolidagi Agira shahrida yashagan. Tarixchi o'ttiz yil davomida 40 kitobdan iborat "Tarixiy kutubxona" (bizgacha uning 14 ta kitobi yetib kelgan) ustida ishlagan. Ilk kitoblarda Misr, Bobil, Osuriya tarixi bayon qilingan.

30. Misr asosan [shimoldan] janubga yastanib yotadi va ko'p darajada tabiiy mustahkamlangani va mamlakatning go'zalligi bilan [Rim] imperiyasining boshqa joylaridan ortiq. G'arbdan u yovvoyi

hayvonlar to'la bo'lgan, katta kenglikka cho'zilib ketgan Liviya cho'li bilan himoya qilingan. Mamlakatning sharqqa qaragan qismlarida daryo bilan himoya qilingan, boshqalari "tubsiz" deb ataladigan sahro va botqoqli joylar bilan o'ralgan.

31. To'rtinchi tomон, uni himoya qiladigan hech qanday pristanga ega bo'lмаган Misr O'rtayer dengizi bilan butunlay yuviladi. Bu dengiz qирғоqlари bo'yлаб suzish o'ta davomiy, qирғоqqa tushish juda qiyin. Liviyadagi Paretoniyadan Kelesiriyadagi lopigacha deyarli besh ming stadiya masofada Farosdan boshqa xavfsiz gavan yo'q. Bundan tashqari, Misrning deyarli barcha qирғоqlари yonida suvga yashiringan joyni bilmay, suzib keladiganlar ilg'amaydigan yerning tor qumli tasmasi turadi...

Shunday qilib, Misr barcha tomondan tabiatning o'zi bilan mustahkamlangan...

Uning tasviri uzunchoq: u ikki ming stadiyali qирғоq bo'yи yo'lagiga ega. Materik ichkarisiga qariyb olti ming stadiy cho'zilib ketadi. Endi daryoning tabiatini va mamlakatning alohida tomonlari to'g'risida hikoya qilamiz...

32. Nil Misrga kirib, kengligi o'n kenglikga yoki kamroq stadiyaga ega. To'g'ri yo'nalish bo'yicha oqmaydi, har xil burilishlar hosil qilib oqadi, ba'zan sharqqa buriladi, ba'zan g'arbga, ba'zida hatto janubga goho orqaga qaytganday, chunki daryoning har tomonidan tog'lar qирғоq bo'yicha katta masofaga cho'zilib, daralar bilan, jarliklar va tor daralar bilan kesilib, ularga kirib, daryo orqa yo'nalishga tekislik ichidan va yetarlicha janubga oqib, yana tabiiy oqimiga qaytadi.

Bu daryo boshqalardan ancha katta bo'lsa-da, "katarakt" deb atalgandan tashqari, hammasidan tinch va silliq oqadi. Chunki uzunligi o'n stadiya bo'lgan torlikda turgan va qoyalar bilan o'ralgan, hammasi notejis va tik tushgan, shu bilan birga, ko'p katta qoyalarga o'xshash toshlar bo'lgan qandaydir joy bor. Nilning to'la suvligi vaqtida, qachonki, barcha qoyalar va toshli joylar to'la suv bilan yashiringanda, ba'zilar ostona orqali oqim bo'yicha pastga qarama - qarshi shamolni tutib suzadi; oqim bo'yicha yuqoriga hech kim suza olmaydi, qaysiki, daryoning kuchi insonning har qanday kashfiyotini yengadi. Shunday ostonalar ko'p sonli, lekin ularning eng kattalari Iliopiya va Misr chegarasida.

34. Delta tuzilishi bo'yicha Sisiliyaga o'xshaydi. Har bir tomoni

750 stadiya uzunlikga ega, dengiz yuvadigan asosi esa – 1300 stadiya. Bu orol odamlar tomonidan buniyod qilingan ko‘pgina kanallar bilan bo‘linadi va Misrda eng ajoyib joy hisoblanadi. Chunki daryo cho‘kindilaridan hosil bo‘lib, sug‘orilgani uchun u ko‘pgina va turli xil ne‘matlarni ishlab chiqaradi. Har yili toshib, daryo yangi loyqa olib keladi ... Nil tinch oqadi va o‘zi bilan ko‘p turli xil tuproqni olib keladi, shuning uchun past joylarda botqoqliklar va unumdon botqoqlar hosil bo‘ladi...

Nil Misrning quyi qismida ko‘p qismlarga bo‘linib, Delta tasvirini tashkil qiladi. Uning tomonlari daryoning eng chekkalaridagi shoxobchalaridan hosil qiladi, daryo oqimini qabul qiladigan dengiz asos bo‘lib xizmat qiladi. Nil dengizga yetti bosh bilan quyiladi, ulardan sharqqa tomon birinchisi Pelusiy, ikkinchisi Tinit deb ataladi, keyin boshqa quyilishlar boradi: Mendess, Fatniy, Sebennit, Bolbitin va oxirgisi – Kanop (ba’zilar uni Gerak – leotiy deb ataydilar) kabi boshlar mavjud.

36. Nil toshqini ajoyib ko‘rinadi. Chunki boshqa barcha daryolar yozgi quyosh turishi vaqtida qayta boshlaydi, yozning keyingi vaqtida yanada sayozlasha boshlaydi, shunda faqat bitta u ko‘tarila boshlab, kundan kun shunday ko‘payadiki, oxirida deyarli butun Misrni suvga bostiradi. Ana shunday tarzda u eski holatiga qaytadi, o‘zini eski holatiga qaytmagunicha teng vaqtida pasayaveradi. Shunday qilib, mamlakat tekislik xususiyatiga ega va shaharlar va qishloqlar sun‘iy balandlikda yotadi. Bu ko‘rinish Kiklad orollarini eslatadi. Daryo bosib olgan quruqlikdagi hayvonlar halok bo‘ladilar, ba’zilari esa, baland joylarga qochib chiqib, qutulib qoladilar. Mollar toshqin vaqtida qishloq va joylarda oldindan tayyorlab qo‘yilgan ozuqa bilan boqiladi. Toshqin vaqtida yuz beradigan falokatlarning oldini olish uchun podsholar Nilni Memfisdan kuzatishni tashkil qilganlar. Bu ish topshirilgan kishilar suvning ko‘tarilishini aniq o‘lchaydilar va qancha lokot va qancha barmoqda daryo ko‘tarilgani va qachon pasaya boshlaganini ochiq bayon qilib, shaharlarga xabarlar yuboradilar. Bu usul vositasida butun xalq daryoning pasayishi to‘g‘risida xabar topib, tashvishdan xalos bo‘ladi va shu vaqtning o‘zida kelgusi hosilning miqdorini biladi. Bu kuzatishlar ko‘p vaqt davomida aniq yozib borilgan.

1. stadiya -177,6 m

2. Faros-Iskandariya shahri yaqinidagi orol. Bu orolda kemalarga yo'l ko'rsatadigan mayoq bo'lgan.

"Хрестоматия по истории древнего мира". М., 1991. 27-29 сmp

Tayanch iboralar: Diodor, Agira, Misr, Bobil, Osuriya, Rim, Liviya, Paretoniya, Iopi, Iskandariya, Faros, Sitsiliya, katarakti, Nil-Pelusiy, Tinit, Mendess, Fatniy, Sebennit, Bolbitin, Kanop.

3-§. Ijtimoiy hayot Xufxorning hayot tasviri

Qadimgi podsholikning so'nggi davrida (er. avv. XXIV asr) Misrdan mamlakat janubidagi nomarxlar boshchiligidida qullar va o'lja uchun janub tomonga Kushga ko'plab harbiy bosqinlar qilingan. Nomarx Xufxorning hayoti tasviri Elefantina oroli qarshisidagi uning qabr toshida abadiylashtirilgan. Bu yozuvlarda VI sulola fir'avni amri bilan Kushga yurishlari hikoya qilinadi.

Qabrtosh yozushi so'ngida Xufxorga Qadimgi podsholikning yosh fir'avnlaridan biri Piopi II nomidan yozilgan xat matni keltirilgan. Yozuvlar er. avv. III ming yillik o'rtalarida Kush qabilalari, ularning yirik bir qabila birlashmasi to'g'risida qiziqarli ma'lumot beradi.

Kirish

Mahalliy hokim "yagona do'st"¹ xerixeb² imi- iz³ "Nexen qo'riqchisi"⁴, "Nexeb⁵ boshlig'i", Quyi Misr podshosi xazinachisi "yagona do'st", xerixeb, tarjimonlar boshlig'i (?) ... "janub boshlig'i"⁶ning barcha maxfiy ishlarini bajaruvchi, o'z hukmdorining ishonchli vakili Xufxor.

Quyi Misr podshosi xazinachisi "yagona do'st", xerixeb, tarjimonlar boshlig'i (?), o'z hukmdoriga barcha begona mamlakatlardan kerakli narsalarni olib keladigan, podsho bezaklari uchun (barcha begona mamlakatlardan) sovg'alar keltiradigan janub hokimi, barcha begona mamlakatlar boshlig'i, barcha begona mamlakatlarda Xor oldida doimiy qo'rqinch tug'diradigan, o'z xojasi uchun manzur ishlar

qiladigan. Quyi Misr podshosi xazinachisi “yagona do’st”, xerixeb, tarjimonlar boshlig‘i (?), Ptax-Seker⁷ oldida hurmatli Xufxor aytdi:

(Iamga⁸ (mamlakatiga) birinchi yurish)

Merenra⁹ ma’budi, janob oliylari meni otam “yagona do’st”. Iri xerixebi bilan birga Iamga, bu begona mamlakatga yo’l ochish uchun yubordi. Men buni yetti oyda qildim. Men undan har xil ajoyib noyob sovg‘alar olib keldim. Buning uchun men juda maqtaldim.

(Iamga ikkinchi yurish)

Janobi oliylari ikkinchi marta meni yubordi, lekin men bir o‘zim edim. Men Elefantina¹⁰ yo’lidan chiqdim. Men sakkiz oy ichida Irerchet, Axem, Tereres, Irchetga¹¹ tushdim. Men (Misrga) tushdim. Men bu begona mamlakatlardan nihoyatda ko‘p sovg‘alarni yetkazdim, qaysiki ilgari ko‘plar, bunga o‘xshashlarni bu mamlakatga¹² yetkazmagan edilar. Men Sechu va Irerchet¹³ hokimlari uyi yaqinida tushdim, (va) men bu begona mamlakatlarni ochdim. Iamga ilgari chiqqan biror-bir “do’st” yoki tarjimonlar boshlig‘i (bunga o‘xshashni) amalga oshirganini hech qachon men ko‘rmadim.

(Iamga uchinchi yurish)

Keyin janobi oliylari meni uchinchi marta Iamga yubordi. Men Tiniss nomidan¹⁴ oazis¹⁵ yo’li bo‘yicha chiqdim. Samoning g‘arbiy burchagigacha liviyaliklarni yengmoqchi bo‘lgan, liviyalik¹⁶ mamlakatiga borayotgan Iam hokimini topdim. Shunda men ularni ortidan liviyaliklar mamlakatiga chiqdim va tinchlantirdim, u davlat panoh uchun barcha xudolarni sharaflasgin.

(Men) Iam hokimi orqasidan (men liviyaliklar mamlakatiga chiqqanimni) bildirish uchun Iamdan (Xorga¹⁷) hamrohlik qiladiganlarga Merenra hukmdori, janobi oliylariga (yubordim...) O’sha Iam hokimini tinchlantirganimdan so‘ng (men) Irerchetdan janubga va undan shimalga (Sechu?) ga (tushdim). Hokim Irerchet, Seshu va Uauatni¹⁸ bir mamlakatga birlashtirganini (boshqacha aytganda, mamlakatga birlashtirdi) ko‘rdim. Men xushbo‘y moylar, qora daraxtlar, ladan

[...]¹⁹ qoplon terilari, fil suyaklari [...]²⁰ va har xil ajoyib qimmatbaho buyumlar ortilgan uch yuzta eshak bilan tushdim. Irerchet, Sechu va Uauat hokimi men bilan poytaxtga tushgan Iamning kuchi va ko‘p sonli qismlarini va men yuborgan qo‘shinni ko‘rib. shunda bu hokim eshak va hayvonlarni berib, meni Irerchet qoyalari, yo‘llari bo‘ylab o‘tkazdi, chunki bu ilgari Irerchetga yuborilgan boshqa qandaydir “do‘st” tarjimonlar boshlig‘iga (?) qaraganda, men ko‘rsatgan hushyorlik edi.

Men “sadoqatli xizmatkor” shimolga poytaxtga²¹ suzganimda, (mahalliy knyaz?) “yagona do‘st” uni har ikkala hammomning boshlig‘i xurmo vinosi, bo‘g‘irsoq, non va pivo bilan kemalarni kutishga keldi.

Mahalliy knyaz, Quyi Misr podshosi xazinachisi “yagona do‘st”, xerixeb, xudo xazinachisi, maxfiy ishlarni bajaradigan, hurmatli Xufxor.

(Piopi II Neferkaradan Xufxorga xat)

Podshoning o‘z muhri, podsholik qilishning ikkinchi yili, to‘la suvlikning²² uchinchi oy 15-kuni.

“Yagona do‘stga”, xerixebga, tarjimonlar boshlig‘iga (?), Xufxorga podsho farmoni:

Sen Iamdan meni qo‘shinim bilan birga omon-eson tushganiningni “Men saroyda podshoga bildirish uchun sen tuzgan bu yorliqning so‘zlarini bilaman. Sen o‘zingni bu yorlig‘ingda ulug‘ va yaxshi Xatxorga²³ Imemay ma‘budasiga (?), Yuqori va Quyi Misr podshosi Neferkara²⁴ ruhi uchun, u abadiy toabad yashaydi, har xil sovg‘alarni keltirganiningni aytding. Sen o‘zingni bu yorlig‘ingda Isesi²⁵ davrlarida Punt mamlakatidan xudo Bayerded xazinachisi olib kelgan pakanaga o‘xhash Axti mamlakatidan (?), xudoga raqs (uchun) pakanani keltirganiningni aytding. Sen men hazrat oliylariga Iamdan ilgari kelgan biror-bir kishi bunga o‘xhashini hech qachon keltirmaganini aytding. Aytishlaricha, har yil (?) sening xojang sevgan va maqtagan ishni qilar ekansan. Sen tun-u kun menga g‘amxo‘rlik qilib, seni xojang doimo yaxshi ko‘rgan, maqtagan va amr qilgan ishni qilding. Oliy hazratlari seni o‘g‘ling, o‘g‘lingni o‘g‘liga arslarcha yaxshi bo‘lishi uchun seni ko‘p sonli va a‘lo istaklarining bajaradi, qachonki, mening oliy hazratim sen uchun qilganlarni eshitib, barcha odamlar aytsinlar: “Uning” avlodи uchun (qilingan), qachonki, u Iamdan tushganda u namoyish qilgan hushyorlik, “yagona do‘st” Xufxor uchun qilingan.

Hoziroq shimolga poytaxtga bor. (xabar?) jo'nat. Ha, sen Axtiy mamlakatidan olib kelgan bu tirik, butun va sog'lom pakana xudoga raqs tushish, Yuqori va Quiy Misr podshosi Neferkarani ko'nglini ochish uchun, ha u abadiy yashaydi. Agar u sen bilan qayiqqa tushsa,) unda doimo uni orqasida har ikki bortda turadigan a'lo kishilarni tayinla (agar), u suvg'a tushib ketishidan ehtiyyot bo'l. Agar u kechasi uxlasa, yana uning orqasida, chodirga uxlaydigan a'lo odamlarni tayinla. Kechasi o'n marta tekshir. Oliy hazratim bu pakanani Puntdag'i konlarning sovg'alaridan ko'ra ko'proq ko'rishni istaydi. Agar sen poytaxtga yetsang, bu pakana sen bilan tirik, sog'-salomat bo'lsa. oliy hazratim senga Isesi vaqtidagi xudo Baurded xazinachisi uchun qilingandan ko'proq qiladi. mening oliy hazratim bu pakanani ko'rish istagiga binoan" yangi shaharning hokimiga. "do'stga", kohinlar boshlig'iha har bir qo'rg'on uchun undan, qayerda ombor (mavjud), har bir ibodatxonadan ularga imtiyoz bermay, oziq-ovqat olish uchun farmonlar olib kelindi.

Men ularni shimoliy orolga, Ixotep darvozasiga va adolatli Xor atrofiga olib keldim, bu vazifada turib... menga bu (odamlar soni) xabar qilindi: otryadlar (uni) hech qachon boshqa bir xizmatkorga xabar qilmadilar.

1. "Yugona do'st"-unvon
2. Xerixeh-diniy matnlarni o'qiydigan kohin
3. Imi- iz-unvon
4. "Nexen qo'riqchisi"-unvon. Nexen Yuqori Misr podsholarining qadimgi qarorgohi.
5. Naxeb hozirgi Elkab. Yuqori Misrnig qadimgi poytaxti.
6. "janub boshlig'i"-Yuqori Misrning birinchi ostonalardan Asyutgacha janubiy qismi.
7. Ptax-Seker- Menfis shahri xudosi.
8. Iam Kushdag'i uchinchi ostona yaqinidagi viloyat.
9. Merenra - VI sulola fir'avni Merenra I er. avv XXIV asrda hukmronlik qilgan.
10. Elefantina - ko'rinishdan Memfisdan (?), Elefantina orgali.
11. Irchet - Kushdag'i viloyatlar; Iam mamlakatidan shimolroqda.
12. Mamlakat - Misr demoqchi.
13. Sechu va Irerchet - Shimoliy Kushdag'i viloyatlar; ko'rinishdan ikkinchi

ostonadan shimoli-g'arbga tomon.

14. *Tiniss nomi – Tiniss (yoki Abidos) nomi – VIII Misr nomi.*

15. *Oazis – Oazis yo'li – ko'rinishidan El- Xargiyo orqali Nildan g'arbga tomon.*

16. *liviyalik - Liviyaliklar mamlakati – janubiy liviya qabilalarini uchinchi Ostonadan g'arb tomonga tarqalgan viloyati.*

17. *Xor - fir'avn saroy ahliga tomon.*

18. *Uavati – Misrga yaqinroq bo'lgan Shimoliy Kushdagi viloyat.*

19. *[...]/? – so'zni aniq o'qib bo'lmaydi.*

20. *[...]/? – so'zni aniq o'qib bo'lmaydi.*

21. *Shimolga - poytaxtga - Memfisga demoqchi.*

22. *To'la suvlik – qadimgi Misr yilining birinchi vaqtı (taxminan iyul o'rtalaridan noyabr o'rtalarigacha).*

23. *Xatxor – sher boshli urush ma'budasi.*

24. *Neferkara – Merep'a I ning vorisi, Piopi II ning taxtdagi nomi.*

25. *Isesi – V sulola fir'avni.*

Piopinaxt yozuvi.

Zodagon Piopinaxt VI sulola fir'avnni Piopi II ning zamondoshi. U Xufxor kabi o'z faoliyatini Nilning g'arbiy qirg'og'idagi Elefantina oroli qarshisidagi qoyalardagi o'z sog'onasiga yozib qoldirdi. U Kushga qul va qoramol bosib olish uchun qilingan ikki yurishga rahbarlik qildi. O'zining ijrochiligi uchun Piopinaxt "janub odamlari (?)boshlig'i" unvoniga ega bo'ldi. Ko'rinishidan Elefantina nomarxlari va "janub odamlari boshlig'i" Kush va Qizil dengiz havzasida harbiy tadbirlarni amalga oshirish majburiyatini olganlar.

Piopinaxt Sinay yarim oroliga ko'chmanchi osiyoliklarga qarshi jazo ekspeditsiyasiga yuborilgan. Oldimroq bujoyda Punt ekspeditsiyasi uchun kema qurishga rahbarlik qilgan zodagon Ananxet bilan Misr qo'shinlari yanib tashlangan.

Kirish

Bu men, yaxshini so'zlaydigan va sevganni takrorlaydigan. Hech qachon men hukmdorga! biror-bir kishilar to'g'risida yomon gapirmadim, (men qilgan) ezgulik uchun Ulug' xudo oldida suyukli. Men ochga non berdim, yalang'ochni kiyintirdim.

(Qachonki) o'g'il o'z otasining² mulkini mahrum qilganda, men hech qachon ikki kishini bunday holda sud qilmadim. Bu men, o'z otasi yaxshi ko'rgan, o'z onasi maqtagan, aka-ukalari sevadigan.

(Kushga birinchi yurish)

Meni janobi oliylari, hukmdor Uauat va Irchet³ mamlakatini vayron qilishga yubordi va (meni) hukmdorim (meni) maqtashi uchun men (buni) qildim. Men u yerda ko'p sonli [odamlarni] va hokimning bolalarini, saylanma qismlar boshliqlarini yo'q qildim. Men u yerdan ko'p sonli (odamlarni) poytaxtga asir sifatida olib keldim. Men qudratlari va dovyurak qo'shin boshida bo'ldim. Hukmdorim har qanday topshiriq bilan meni yubordi.

(Kushga ikkinchi yurish)

Keyin meni hukmdor, janobi oliylari bu begona yer mamlakatlarini murosaga keltirish uchun yubordi. Va men (buni) hukmdor meni maqtashi uchun qildim. Men bu mamlakatlarning ikki hokimini ko'ngilli taslim bo'lganlar sifatida, boqilgan buqa, shoxsiz buqalar, echkilarni poytaxtga olib keldim.

Ular hokimning bolalari bilan, ular bilan birga bo'lган ikki qism boshliqlari bilan poytaxt uchun yoqimli (?) edilar. Men janub odamlari (?) boshlig'i etib tayinlandim. Chunki men hukmdorim yaxshi ko'rganni ijro etishda yuqori darajada hushyor edim.

(Osiyolik ko'chmanchilarga qarshi ekspeditsiya)

Keyin janobi oliylari, hukmdor meni osiyolik⁴ mamlakatiga yubordi, qaysiki, unga Puntga yuk kemasi qurilishiga bo'lgan "yagona do'st", kemasozlar (boshlig'i) (?), tarjimonlar boshlig'i (?) Ananxetni olib kelishga yubordi. Uni esa, osiyolik ko'chmanchilar u bilan birga bo'lgan qo'shin qismlari bilan birga yo'q qildilar.

[...]⁵ o'sha osiyoliklar [hukmdori] ?

Men ochishgaga majbur qildim, ular bilan bo'lgan qo'shin qismlari bilan ularni orasidagi odamlarni yo'q qildim. Mahalliy knyaz, Quyi Misr podshosi xazinachisi. "yagona do'st", xerixeb, tarjimonlar

boshlig'i (?), boshqa mamlakatlarda Xor oldida qo'rquvga tushadigan Piopinaxt, Neferxe kabi ismli.

-
1. *Hukmdor Piopi II*
 2. *O'z otasini Piopinaxt aftidan odil sud qilganini aytmoqchi.*
 3. *Irchet Kushdag'i viloyat.*
 4. *Osiyolik Sinay yarim oroli aholisi bo'lsa kerak.*
 5. *"Yagona do'st" saroy unvoni*
 - 6 [...] matnni ikki yarim qatori yo'q qilingan va qayta tiklab bo'lmaydi.

Zodagon Unaning hayot tasviri

Zodagon Unaning ieroglif yozuvi Yuqori Misrda Abidosda tosh taxtaga yozilgan bo'lib, hozirgi kunda Qohira muzevida saqlanadi. Uning hayot tasviri marhumming tarjumayi holi shaklida yozilgan. Zamondosh zodagon Una faoliyati orgali Qadimgi podsholikning so'nggi davri (VI sulola fir'avnlari Teti II, Piopi I, Merenra I,) saroy hayoti, ma'muriy, siyosiy-harbiy sohadalar fir'avnlar faoliyati to'g'risida ma'lum bir tushuncha hosil qilish mumkin.

Kirish

(Knyaz, Yuqori Misr boshlig'i), saroyda turadigan, Nexen qo'riqchisi, Naxeb boshlig'i (fir'avnning) "yagona do'sti", o'lganlar boshida turadigan Osiris ixlos qiladigan Una.

[U so'zlaydi:]

(Xizmat faoliyatining boshlanishi)

Janobi oliylari Teti davrida (yetuklik) kamari bog'lagan (men o'smir edim), shuningdek, meni mansabim shenal uyi boshlig'i edim. Men saroy xentiu – she? nazoratchisi edim.

...Janob oliylari Piopi saroyi oqsoqoli. Janob oliylari meni do'st martabasiga va o'z piramidasi qoshida kohinlar nazoratchisi qilib ko'tardi.

(Sudyalikka tayinlanish)

Qachonki, meni mansabim... bo'lganda, u Nexen³ lablari bilan janobi oliylari meni suda etib [tayinladi], chunki u har qanday boshqa

o'zining xizmatkoridan ko'ra menga ko'proq tayandi. Men bosh sudyaloy mansabdor bilan har qanday maxfiy ishni ... ko'rganda yakka tarzda fir'avn nomidan so'roqni olib bordim, podsho xonadoni va olti oliy sud ishtirokchilari nomidan, chunki janobi oliylari menga o'zining boshqa har qanday katta amaldori, boshqa har qanday o'z a'yoni, boshqa har qanday o'zining xizmatkoriga nisbatan ko'proq tayandi.

(Fir'avning, Uni sag'onasini jihozlashi)

Men xo'jaynim, janobi oliylaridan Memfis tosh konlari Ra-audan men uchun ohak tobut yetkazib berishni iltimos qildim. Janobi oliylari buyruq berdiki, ma'bud xazinachisi⁴ amalda (Nil) orqali kema darg'asi (?), uni yordamchisi ishchilar guruhi bilan suzib o'tib, bu tobutni Ra-aydan menga yetkazishga topshiriq berdi.

U (tobut), ular bilan qarorgohga (o'z) qopqog'i, morili tobut plitasi, ruit⁵ ikki gemex⁶ va bir sats⁷ bilan qarorgohga keldi. Hech qachon birorta ham (boshqa) xizmatkorga bunday qilmagan edi. Chunki men janob oliylarining hurmatiga sazovor bo'ldim, shuningdek men janob oliylariga sevimli edim. Shuningdek, janobi oliylari menga tayanar edi.

(Saroy xentiu-shelari boshlig'i etib tayinlanish)

Men sudyaloy bo'lganimda, janobi oliylari Nexen lablari bilan meni yagona do'st va saroy xentiu-shelari boshlig'i etib tayinladi. Men u yerda bo'lgan to'rt xentiu-shelar boshliqlarini chetlashtirdim. Men qo'riqlashni tashkil etib, podshoning yo'lini tayyorlab va manzilgohini tashkillashtirib, shunday harakat qilib, janobi oliylarining ma'qullashiga erishdim. Men hammasini shunday qildimki, meni janobi oliylari buning uchun favqulodda alqadi.

(Podsho Uretxetesning rafiqasiga qarshi protsess (?)

Podsho Urtxetesning (?) xotiniga qarshi ish podsho xonadonida maxfiy olib borildi. Janobi oliylari bir o'zim so'roq olib borishim uchun meni pastga tushishga amr qildi, qaysiki, u yerda mendan tashqari birorta ham bosh sudyaloy – oliy mansabdor, birorta ham (boshqa) mansabdor yo'q edi. Shuning uchunki, janobi oliylariga kerak edim, chunki janobi oliylari menga ishonar edi. Men bir sudyaloy va Nexen lablari bilan yozuvni olib bordim, qaysiki, meni lavozimim (faqtgina) saroy xentiu-shelari boshlig'i edi.

Ilgari hech qachon meni darajamdag'i odam podsho xonadonining

maxfiy ishlarini eshitmagan edi, lekin janobi oliylari menga eshitishga amr qildi. Chunki men janobi oliylarining himmatiga uning boshqa amaldoridan ko‘ra ko‘proq sazovor bo‘ldim.

(Badaviylar bilan urushga tayyorgarlik)

Janobi oliylari osiyolik ko‘chmanchilarning hujumini qaytardi. Janobi oliylari Yuqori Misr bo‘yicha, janubda Elefentinadan shimolda Afreditopol viloyatigacha, Quyi Misrda, ostonaning g‘arbiy va sharqiy yarmigacha ularni butun uzunligida qal’alarda (?), Iyerchet kushitlarida, Mej kushitlari, Ima kushitlari, Uauat kushitlari, Kaau kushitlari, liviyaliklar mamlakatida o‘n minglab qo‘sishin to‘pladi.

(Unn boshchiligidagi yurishga chiqish)

Janobi oliylari meni bu qo‘sishin boshida jo‘natdi. Mahalliy knyazlar Yuqori Misr podshosi xazinachilari saroyning yagona do‘stlari, Yuqori va Quyi Misr boshliqlari va shahar boshliqlari, tarjimonlar boshliqlari Yuqori va Quyi Misr kohinlari boshliqlari va (boshqarma) boshliqlari gesper ularga bo‘ysungan Yuqori va Quyi Misr qishloqlari va bu mamlakatlar kushitlari qismlari boshida turdilar. men ularning ustidan rahbarlik qildim. Shu bilan birga, mening mansabim (faqat) saroy xentiu – shelari boshlig‘i edi, mening o‘rnimga ko‘ra... shuning uchun ulardan birortasi ham boshqasiga yomonlik qilmadi, shuning uchun yo‘lovchidan non va shippagini tortib olmadi, shuning uchun ularning birortasi biror-bir qishloqda kiyim-kechakni tortib olmadi, shuning uchun ulardan biri biror odamdan bitta echkini ham tortib olmadi. Men ularni Shimoliy orolga, Ixotep darvozasi bo‘yicha va adolatli Xor⁸ okrugiga olib keldim, bu lavozimda turib... Menga bu (odamlarni) soni xabar qilindi: qismlarni, (uni) hech qachon boshqa birorta xizmatkorga xabar qilmaganlar.

(Mag‘lublarning qo‘zg‘oloni)

Janobi oliylari meni badaviylar mamlakatiga besh marta (bu) qo‘sinni olib borishga, ular bir necha marta qo‘zg‘olon ko‘targanda bo‘ysundirishga yubordi. Bu qismlar yordamida (?) men shunday harakat qildimki, janobi oliylari meni buning uchun maqtadi.

Janubiy Falastinda badaviylar mamlakatidan shimolroqda Ohular burni mamlakatiga dengiz va quruqlikda yurish

Axborot berdilarki, bu isyonchilar... Ohular burnidagi begona yurtlilar ichida. Men kemalarda bu qismlar bilan suzib o'tdim va badaviylar mamlakatidan shimalroqda, tog'larning baland qiyaliklarida turdim, shu bilan birga, bu qo'shining yarmi quruqlik yo'li bilan (yurdi). Men keldim va ularning barchasini bosib oldim. Ularning ichida barcha isyonchilar yanchib tashlandi.

(Yuqori Misrning boshlig'i etib tayinlanish)

Merachet⁹ va (fir'avn) shippaklarini olib yuruvchi bo'lganimda, Yuqori va Quyi Misr podshosi, mening xojam, u abadiy yashaydi, meni mahalliy knyaz va janubda Elefentinadan shimalda Afrositopol viloyatigacha Yuqori Misr boshlig'i qilib tayinladi. Chunki men janobi oliylarining e'tiboriga sazovor bo'ldim, men janobi oliylariga ma'qul edim, janobi oliylari menga xayrixoh edi.

Qachonki, men achet va (fir'avn) shippaklarini olib yuruvchisi bo'lganimda, janobi oliylari meni hushyorlik uchun va manzilgohda men tashkillashtirgan himoya uchun boshqa amaldorlarini, boshqa har qanday zodagoni, boshqa har qanday xizmatkoridan ko'ra meni maqtadi. Hech qachon bu mansab biror-bir xizmatkorga berilmagan edi. Men quvoneh bilan Yuqori Misrga boshliq bo'ldim, u yerda biror kishi boshqaga yomonlik qilmadi. Men barcha ishlarni amalga oshirdim: men bu yerga, Yuqori Misrda, bu yerdagi qarorgoh foydasiga tegishli barcha majburiyatlarni ikki karra va qarorgoh foydasiga tegishli barcha majburiyatlarni (bajardim). Bu yerda, Yuqori Misrda ikki marta bo'ldim. Men bu yerda Yuqori Misrda amaldor vazifasini namunali bajardim. Hech qachon, ilgari bu yerda, Yuqori Misrda bunday qilinmagan edi. Men barchasini shunday qildimki, bu uchun janobi oliylari meni alqadi.

(O'rta Misrdagi Xatnub alebastr tosh konlariga ekspeditsiya)

Janobi oliylari meni Xatnubga, Xatnub alebastridan katta qurbanlik taxtasini olib kelishga yubordi. Men bor-yo'g'i o'n yetti kun davomida Xatnubda sindirib olingan bu taxtani uning uchun¹⁰ tushirdim. Men uni bu yuk kemasida Nil bo'yicha quyiga jo'natdim: men unga akatsiyadan uzunligi 60 lokt va kengligi 30 lokt yuk kemasini qurdim, shuningdek, qurilish bor-yo'g'i o'n yetti kunni o'z ichiga oldi. Uchinchi yozgi oyda [hali suv cho'kmalarni qoplasmagan bo'lsa-da], va Marhamatli Merenraga piramidasini oldiga omon-eson kelib tushdim. Men tomonidan

barchasi janobi oliylari, xojam bergen buyruq bo'yicha amalga oshirildi.

(Nubiyadagi Ibxat tosh koniga va Elefentinaga ekspeditsiyasi)

Janob oliylari meni Ibxatga "marhamatli Merenra" xonim piramidasini uchun "tirik yashovshi sandig'i" sag'anasinining qimmatbaho va hashamatli qopqog'i bilan birga olib kelishga yubordi.

Janobi oliylari meni Elefentinaga granit taxtani uning satsi nishasi bilan granit eshiklari va ruitni olib kelishga "marhamatli Merenra xonim" piramidasini yuqori xonalari satsi va granit devorlarini olib kelishga yubordi.

Ular men bilan Nil bo'yicha quyiga "marhamatli Merenra" piramidasiga olti yuk va uchta tashuvchi kemalarda sakkiz (?) oy va uch... bir ekspeditsiya davomida suzishdi. Hech qachon va hech qanday vaqt Ipxat va Elefentinaga bir ekspeditsiya davomida bormagan edilar. Janobi oliylari nimaiki buyruq bergen bo'lsa, janobi oliylari nimani amr qilgan bo'lsa, men barchasini og'ishmay bajardim.

(Nil ostonalari uchun Misr janubiga va Nubiyaga piramida qurilish materiallari uchun ikkinchi ekspeditsiya)

Janobi oliylari meni Yuqori Misrga beshta kanal qazish, Uauat akatsiyasidan uch yuk tashuvchi, to'rtta tashuvchi kema qurish uchun yubordi. Shuningdek, Irchet va Mej hokimlari ular uchun yog'och yetkazdilar. Men barchasini bir yilda bajardim. Ular suvga tushirildi va "marhamatli Merenra" piramidasini uchun granit bilan oxirigacha to'ldirilgan edi. Men keyin saroy uchun ... bajardim bu barcha besh kanallar bo'yicha, Yuqori va Quyi Misr xudosi podshosi Merenra qudratli, qaysiki, abadiy yashaydi, ulug'vor... boshqa xudolarga qara-ganda, ko'p darajada haybatli, chunki u bergen buyruq bo'yicha hammasi amalga oshiriladi.

(Xulosa)

Men haqiqatan ham o'z otasi sevgan va o'z onasi maqtagan, o'z aka-ukalari hurmatiga sazovor bo'lgan odam, mahalliy knyaz, Yuqori Misrning oqil boshlig'i, Osiris e'zozlagan Una.

"Хрестоматия по истории древнего Востока.

(Издательство восточной литературы. Москва 1963) asosida tarjima qilindi.

2. Xentiu – she -ehtimol fir 'avn yerlari ijarchilari.
3. Nexen – sudyalik lavozimi.
4. Mabud xazinachisi –mansab.
5. Ruit – ehtimol eshikning qandaydir bir qismi.
6. Gemex – ehtimol eshik tavaqasi.
7. Sats ko'mish taxtasining qismi.
8. Adolatli Xor – ehtimol ostonanining sharqida Sinay yarim orolidan uzoq bo'lмаган joy.
9. Merachet – saroy a'yoni
10. U uchun – Nil qirg'og'idagi tosh konlari bo'lgan tog'dan demoqchi.

Ramses II va Xett podshosi Xattusili o'rtaqidagi tinchlik shartnomasi

Er. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmida Old Osiyoda ta'sir doirasini bo'lib olish uchun ikki qudratli davlat-Misr bilan Xett o'rtaqida harbiy qarama-qarshiliklar uzoq davom etdi. Urush harakatlaridan so'ng, Ramses II va Xett podshosi Xattusili o'rtaqida er. avv. 1280-yil tinchlik shartnomasi tuzildi. Uning ieroglit nusxasi Karnak ibodatxonasi va Fivadagi ibodatxona devorlarida, Xett podsholari arxivlarida saqlanib qolgan. Shartnomaning bobil mixxatida loy taxtachalarga yozilgan nusxalari mavjud.

(Kirish)

Matn boshi Ramses II va uning ajdodlarini sharaflash bilan boshlanadi.

O'sha kun, janobi oliylari "Per-Ramessu" shahrida bo'lganda, o'z otasi Amon-Ra Xoraxtiga, Atumga, Geliopolni ikkala Yerlari hukmdoriga, Amon-Ramses-Meriamonga, Ptash-Ramses – Meriamonga, buyuk kuchga, Setiga Nut o'g'liga,² ular unga bayramlarda toabad va tinchlik yillarda abadiylik beradi, shu bilan birga, barcha yerlar va shu bilan birga, boshqa begona yurt mamlakatlari uning oyog'i ostida abadiy yiqitilgani bilan podsho elchisi va Xettlar [elchisi] Teretsab... va xettlarning ikkinchi elchisi... keldi Xett podshosi Xetesera (Xattusili) [kumush taxtachasi] tinchlik so'rash uchun fir'avnga ha u sog' – salomat

yashaydi, [Yuqori va Quyi Misr podshosi, janobi oliylari Usermaatra] Setependra, “Ra o‘g‘li-Ramses Meriamon”(unga abadiy hayot berilgan, uning otasi Raga o‘xshab.

Kumush taxtacha nusxasi, xettlar hukmdori Xeteser (Xattusili tinchlik so‘rash uchun fir‘avnga har doimo hayot, sog‘-salomat bo‘ladi, [Yuqori va Quyi Misr podshosi Usermaatra-Setependra] Ra o‘g‘li, Ramses – Meriamonga har qanday mamlakatda o‘z xohishi bo‘yicha o‘z chegaralarini o‘rnatadigan hukmdor o‘z elchisi Teretsab va o‘z elchisi Ramos “qo‘li bilan” (ya’ni u orqali) yetkazishga amr qildi.

Preamble

Xettlar hukmdori Xeteser, (Xattusili), Misrning qudratli hukmdori, Menmaatra (Seti I) ning o‘g‘li, qudratli, Misrning buyuk hukmdori Menpextura (Ramses I) ning nevarasi Usermaatra-Setependra uchun qudratli Merser (Mursili)ning o‘g‘li, qudratli, [xettlar hukmdori, Shupilulium)ning nevarasi tomonidan kumushdan taxtachaga tuzilgan shartnomaga [to] abad, osoyishtalikni ta’minlaydigan tinchlik va birodarlikning ajoyib shartnomasi.

Abadiyatga tegishli, Misrning buyuk hukmdori, shuningdek. xettlar hokimi turmush tarziga kelganda. shartnomaga tarzida qilingan, xudo ko‘rsatmasin, ular o‘rtasida dushmanlik tug‘ilmasin.

Mechenra³ vaqtiga kelganda xettlar hukmdori, meni birodarim, u [Ramses-Meriamon] Misrning buyuk hukmdori bilan jang qildi. Kelajakda, bugungi kundan xettlar hokimi Xeteser (Xattusili) borligini belgilaydigan shartnomaga [qildi], Ra va Set Misr uchun, shuningdek, xettlar mamlakati uchun qildilarki, ular o‘rtasida toabad dushmanlik bo‘lmasligi uchun.

Qara, Xeteser (Xattusili) xettlar hokimi. Usermaatra-Setependra, Misrning buyuk hukmdori bilan shartnomaga kirishdi, shu kundan boshlab berish uchun, bizning oramizda tinchlik va ezgu birodarlik abadiy bo‘lishi uchun; u men bilan birodarlikda, u men bilan tinchlikda va men u bilan toabad tinchlikda. Qachonki, Mechenra (Muvatallu) settlar hokimi mening birodarim, o‘z qismatiga ketdi (vafot qildi). Shunda Xeteser o‘z otalari taxtiga xettlar hokimi sifatida o‘tirdi. Qara, men Misrning buyuk hukmdori Ramses-Meriamon bilan birga bo‘lib

qoldim. U (?) [men bilan birga] tinchlik va birodarlikda. Bu ilgari yerda bo'lgan avvalgi tinchlik va birodarliklardan a'llo.

(Shartnomalarning bajarilishi to'g'risida)

Qara, men xettlar hokimi Misrning buyuk hukmdori Ramses-Meriamon, bilan birga ezgu tinchlik va ezgu birodarlikda (bo'laman). Ha, xettlar hokimlari bolalarining bolalari Ramessu-Meriamon, Misrning buyuk hukmdori bolalarining bolalari bilan birodarlik va tinchlikda bo'ladilar. Shu bilan birga, ular bizning birodarlik holatida bizning [tinchlik] holatida bo'ladilar. [Ha, Misr] bizning xettlar mamlakati bilan birga, biz kabi toabad tinchlik va birodarlikda bo'ladi. Va ular orasida dushmanlik yuz bermaydi. Va xettlar hokimi Misr yeriga unda biror nimani bosib olish uchun toabad hujum qilmaydi. Va Usermaatra -Setependra, Misrning buyuk hukmdori [xettlar mamlakatiga biror nimani bosib olish uchun] toabad hujum qilmaydi.

(Shartnomalarning bajarilishi to'g'risida)

Xettlar podshosi Seperera (Shupilulium) vaqtida tasdiqlangan shartnomaga kelganda va Mechendra (Muvatallu) xettlar hokimi mening otam vaqtida shunday tarzda tasdiqlangan (?) shartnomaga kelganda, men unga amal qilaman(?). Qara, Ramses Meriamon, Misrning buyuk hukmdori biz bilan birga, bir vaqtida [unga] amal qiladi. Shu kundan boshlab biz unga amal qilamiz. Biz bu tasdiqlangan (?) faoliyat tarziga mos ravishda harakat qilamiz.

(Tashqi va ichki dushmanlarga qarshi o'zaro yordam to'g'risida)

Agar boshqa dushman Usermaatra-Setependra Misrning buyuk hukmdori yerlariga qarshi chiqsa, u xettlar hokimiga "Men bilan birga yordamga yur, unga qarshi (?)" deb (xabar) yuboradi va shunda xettlar hokimi keladi va xettlar hokimi uning dushmanini yengadi. Agar xettlar hokimining (o'zi) kelishga istagi bo'lmasa, shunda u tezda... o'zining (piyoda) qo'shini va jang aravalari q'oшинини yuboradi va uni (Misrni) dushmanini yengadi.

Agarda Ramses-Meriamon, unga tegishli fuqarolaridan g'azab-lansa yoki ular unga qarshi boshqa ayb qilsa, u ularni bartaraf qilish uchun boradi. Xettlar hokimi [Ramses-Meriamon, Misrning buyuk hukmdori] bilan birga bo'ladi.

[Agar boshqa dushman xettlar hokimi yerlariga qarshi chiqsa, u Misr

hokimiga (?) xabar yuboradi.] Shunda Ramses Meriamon, [Misrning buyuk hukmdori] uning dushmanini yengish uchun unga yordamga (?) keladi. Agarda Ramses-Meriamon, Misrning buyuk hukmdorining o'zi kelishga xohishi bo'l[masa], shunda u [kechiktirmay, o'z (piyoda) qo'shini va o'z jang aravalari qo'shinini beradi va u uning dushmanini yanchib tashlasin?]...

Agar xettlar hokimining fuqarolari unga qarshi chiqsa, shunda Ramses-Meriamon [xettlar hokimi bilan birga bo'ladi?]...

(Qochoqlarni berish to'g'risida)

...[Agar aslzoda odamlar Misrdan] xettlar hokimi [mamlakatiga] qochsa yoki qandaydir qishloq... Ramses-Meriamon, Misrning buyuk hukmdori yerlaridan va ular xettlar hokimiga kelsa, shunda xettlar hokimi ularni olmasligi lozim. Xettlar hokimi ularni Usermaatra-Setependra, Misrning buyuk hukmdoriga, ularning egasiga yetkazishlariga amr qilishi lozim.

Agar odam yoki ikki odam, kimniki bilmaydilar (oddiy odamlar) [Misrdan] qochib ketsalar va ular boshqaning fuqarosi bo'lish uchun xettlar mamlakatiga kelsalar, ularni xettlar mamlakatida qoldirmaydilar. Ramses-Meriamon, Misrning buyuk hukmdoriga yetkazadilar. Agar xettlar mamlakatidan qandaydir aslzoda odam qochib ketsa va [u] Usermaatra-Setependraga, Misrning buyuk hukmdoriga [kelsa] yoki xettlar mamlakatining qandaydir shahar yoki qishloq joyidan va ular Ramses-Meriamon, Misrning buyuk hukmdoriga kelsalar, Usermaatra-Setependra, Misrning buyuk hukmdori ularni xettlar hukmdoriga yetkazishga amr qilishi lozim va ularni qoldirmaydilar.

Shunday tarzda agarda bir odam yoki ikki odam, qaysiki, ularni bilmaydilar (oddiy odamlar), qochib ketsalar va ular Misr yerlariga boshqaning fuqarosi bo'lish uchun kelsalar. Usermaatra-Setependra ularni qoldirishi mumkin emas. Ularni xettlar hokimiga yetkazishga u amr qilishi lozim.

(Sharhnomani bajarish qasami)

Xettlar hokimi Ramses-Meriamon, [Misrning] buyuk hukmdori bilan (shartnomaning?) Bu so'zlarga kelganda kumushdan bo'lgan bu taxtachaga bitilgan. Bu so'zlarga kelganda – xettlar mamlakatining xudo va ma'budalaridan mingta xudolar Misrning xudo va ma'budalaridan mingta xudolar – ular menda (?) guvoh sifatida bu so'zlarni ijro etuvchi (?).

(Keyin matnda guvohlikka chaqirilgan Misr va Xett xudolari ismlari sanaladi)

Xettlar mamlakati va Misr uchun bu kumush taxtachadagi so'zlarga kelganda, agar kimdir ularni bajarmaydigan bo'lsa, xettlar mamlakati mingta xudolari Misrning mingta xudolari bilan uning uyi, uning mamlakati, uning fuqarolarini (undan) mahrum qiladi.

Bu kumush taxtachadagi so'zlarga kimki rioya qilsa, ular xettlar mamlakatidanmi, misrlikmi va ular uni e'tiborga olsa-shunda sog'-salomat bo'lishini, uning uyi bilan birga, uning (mamlakati) bilan birga, uning fuqarolari bilan birga hayot bo'lishlarini beradilar.

(Qochoqlarni berish to'g'risidagi paragrafga qo'shimcha)

Agar bir misrlik, ya'ni ikki yoki uch misrlik qochib ketsa, xettlar hokimiga kelsa, shunda xettlar hokimi ushlab olib va ularni yana Usermaatra-Setependra, Misrning buyuk hukmdoriga yetkazishga amr qilishi lozim.

Ramses-Meriamon, Misrning buyuk hukmdoriga yetkazilgan odanga kelganda, unga qarshi jinoyati to'g'risida ish qo'zg'amaydi va (uni) uning uyidan, xotini, bolalaridan mahrum qilmaydi [va uni o'l-dirmaydi.] Uni ko'zları, uning quloqlari uning og'zi, uning oyoqlariga zarar yetkazmaydi. Unga qarshi [uning qandaydir jinoyatlari to'g'risida ish qo'zg'amaydi].

Shunday tarzda, agar bir, ikki va uch odam xettlar mamlakatidan qochsa va ular Misrning buyuk hukmdori, Usermaatra-Setependraga kelsalar, (ularni) ushlab olsinlar. Ramses-Meriamon, [Misrning] buyuk hukmdori [ularni] xettlar hokimiga yetkazish uchun [amr qiladi] va xettlar hokimi unga qarshi jinoyati uchun ish qo'zg'amaydi va (uni) uyidan, xotinidan, bolalaridan mahrum qilmaydi va uni o'l-dirmaydi va uning quloqlari, uning ko'zları, uning og'zi, uning oyoqlariga zarar yetkazmaydi, uning qandaydir jinoyati uchun ish qo'zg'amaydi. Bu kumush taxtachaning o'rtaida.

(Shartnoma bitilgan kumush taxtachaning tasviri)

Uning old tomonida Xett hokimi tasvirini quchoqlagan chaqmoq xudosining tasviri ko'rinishidagi relyef, so'z bilan o'ralgan(?).

Chaqmoq xudosi, osmon hukmdori muhri, shartnoma muhri. "Xeteser (Xattusili) xettlar hukmdori, qudratli Merser (Mursili) o'g'li, qudratli tomonidan tuzilgan", rel'ef aylanasi o'rtaida xettlar hokimi muhri.

Uning boshqa tomonida xettlar malikasi tasvirini quchoqlab turgan xettlarning buyuk ma'budasi tasviri yozuv bilan o'ralgan: "Irnen [Arinna] shahri quyosh xudosi, zamin hukmdori muhri, xettlar mamlakati malikasi, Kisvadna mamlakati qizi, Irnena shahri egasi, imamlakat egasi, Ishtar fuqarosi [?]."

Relyefning o'rami o'rtasiga Irnena [shahri] quyosh xudosi, butun zamin egasi muhri [turibdi].

1. Meriamon – Per-Ramessu- "Ramses uyi" – Tanis shahri. Ostonuning sharqiy qismida Ramses II Avaris o'rniga qurgan shahar.

2. Nut o'g'li – bu yerda yana umum davlat ma'budlari Amon-Ra va Geliopol ma'budi Xoraxte bilan birga [Geliopoldagi] Atum, Per-Ramessuda e'tiqod qilinadigan Amon va osmon ma'budasi Nut sanab o'tilgan.

3. Muvatalla – Xattusili III ning ukasi.

4. Kumush taxtachaning o'rtasida – qochoqlik podshoga qarshi chiqishga tenglash tirmaslik so'z bormoqda. Bu to'g'risida matn o'rtasida so'z boradi

(Qochoqlarni berish to'g'risidagi paragrafga qo'shimcha)

Duaufaning o'g'li Xetining o'z o'g'li Pepiga nasihatni

Ushbu matn bizgacha (29-30 betlar) Yangi podsholikning ikki papirusida yetib kelgan (Hozir Britaniya muzeyida saqlanadi). Olim-larning fikricha, bu papiruslar O'rta podsholik davrida yaratilgan nasihatnomasi maktab o'quvchilarining ko'chirib yozgan mashqlaridir.

Xeti o'g'li Pepini poytaxtdagi kotiblar maktabiga olib borayotib, yo'l bo'ylab u o'g'liga kotibning mavgeini, boshqa kasblar bilan farqini hikoya qilib boradi. Xeti ishni bilish, kotiblik kashi afzalliklarini to'la ishonch uqtiradi. Uturli xil kasblarning og'ir: mashaqqatli ekani, bu kasb egalarining och-yalang'och hayotini yorqin tasvirlaydi.

Agarda men seni kitoblarni o'z onangdan ko'ra ko'proq sevishga majbur qila olsam edi, agar men ularning go'zalligini oldingda ko'rsata olsam edi. Bu boshqa barcha lavozimlardan yaxshi... [kotib] hali bolaligidan, uni olqishlay boshlaydilar. Uni topshiriqni bajarish uchun yuboradilar va u old matoni kiyish uchun qaytmaydi. Men haykaltarosh

yoki zargarning elchiliginini ko'rmadim. lekin men misgarni uning o'chog'i olovi oldida ishda ko'rdim.

Uning barmoqlari timsohni terisiday edi, u baliq ikrasiday yomon hid chiqaradi. Keskich bilan ishlaydigan har bir hunarmand dehqonga qaraganda, ko'p charchaydi. Uning dalasi-yog'och, uning quroli-metall. Tunda u bo'sh bo'lganda, qo'llari ishlaganidan yana ko'p ish qiladi.

U tunda chiroq yoqadi. Tosh yo'nuvchi har qanday qattiq tosh bo'yicha ish qidiradi. Qachon u tugatsa, uning qo'li holsizlanadi, u charchagan. U qosh qorayguncha shunday o'tiradi, uning tizzalari va yelkasi bukilgan.

Sartarosh kechqurungacha soch oladi... Kimnidir soch-soqolini olish uchun u ko'chadan-ko'chaga sang'iydi. U qornini to'ydirish uchun o'z mehnatini yeydigan asalariga o'xshab qo'liga kuch beradi...

Men senga yana devor quruvchisi to'g'risida hikoya qilaman. U doimo kasal, chunki u shamollarga duch qilingan. U qiyinchilik bilan lotoslarda bog'langan holda qiyinchilik bilan quradi. ...Uni barcha kiyimlari – juldur, u faqat bir marta yuvinadi...

Nonni u uyiga beradi; uning bolalari kaltaklangan, kaltaklangan ... Dehqonda kiyim abadiy. Uning ovozi "abu" qushi kabi baland... U charchaydi. ... u kimdir sher ostida tinch bo'lganida u tinch. U doim kasal bo'ladi... U kechqurun zo'rg'a uyiga qaytadi, unga yana borish kerak.

Tikuvchi – uy ichida, ayloga qaraganda, unga yomon. Uning oyoqlari uning qornida. U havo bilan nafas olmaydi. Agar u bir kunda yetarlicha gazlama ishlab chiqarmasa, u botqoqlikdagi lotosdek bog'langan. U yorug'likni ko'rish uchun xizmatchiga non beradi.

...Qachon chopar begona mamlakatga chiqsa, sherlar va osiyoliklar oldidagi qo'rquv tufayli, o'z mulkini bolalariga vasiyat qiladi. Va u agar Misrga qaytsa, o'z bog'iga zo'rg'a yetsa, o'z uyiga kechqurun zo'rg'a yetib borsa. u yana qayta borishi kerak...

Bo'yoqchingining barmoqlari o'lik baliq kabi qo'llansa, hid chiqaradi, ... uning qo'li tinmaydi.

Etikdo'zga juda yomon, u doim qashshoqlikda. Kimdir o'lik baliqlar orasida tinch bo'lгандек, ham shunday tinch. U terini kavshaydi.

Kir yuvuvchi qirg'oqda timsoh bilan yonma-yon kir yuvadi... Bu mashg'ulot senga tinch emas... Unga aytadilar: Agar •sen keltirishga kechiksang, sen tayoq yeysan...

Men yana senga baliqchi to‘g‘risida hikoya qilaman. Boshqa har qanday kasbga qaraganda, unga yomon. Qara u daryoda timsohlar bilan bir qatorda ishlamaydi...

Qara, hech qayerda ham, kotib lavozimidan tashqari boshlig‘i bo‘lmagan lavozim yo‘q, chunki u o‘zi boshliq.

Lotos – ustunlarning lotos gullari shaklidagi yuqori qismi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 29-30 сmp

Ipuser so‘zlari

Papirus Menfis yaqinidagi Sakkara sog‘anasidan topilgan. Hozir Leyden muzeyida saqlanadi. To‘la saqlanmagan. Tili bo‘yicha uni O‘rta podsholik davriga, yozuv va orfografiysi bo‘yicha Yangi podsholik (er. avv. 1300-yillar atrofida) davriga tegishli deyish mumkin. Olimlar shunga asoslanib, Yangi podsholik kotibi O‘rta podsholik matnidan nusxa olgan deb taxmin qiladilar. Matn adabiy asar; she’riy tarzda yozilgan. Matn mazmuni bo‘yicha olimlar turlicha fikr yuritadilar. Taniqli olim V.V. Struve papirusda O‘rta podsholik so‘ngidagi (er. avv. 1750-yillar atrofi) ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi kurash aks etgan degan fikrni ilgari suradi.

Haqiqatan, barcha osiyoliklar misrliklarga o‘xshadilar, misrliklar (1) yo‘lga chiqarib tashlangan begona yurtliklarga o‘xshash (bo‘ldilar). Haqiqatan: to‘q odamlar qo‘l tegirmonlari ustida ishga qo‘yilganlar. Nafis mato kiyganlar (9), ular tayoqlar bilan kaltaklanadilar. (Yorug‘) kunni ko‘rmaganlar, ular hech qanday to‘siksiz chiqmoqdalar...

Haqiqatan: g‘alla hamma yo‘llarda nobud bo‘lmoqda. Odamlar ko‘ylak, malham va moydan mahrumlar. Hamma (4) aytmoqda: hech nima yo‘q. Ombor buzilgan. Uni qo‘riqchilari yerga yiqitilgan. Bu mening qalbimning baxtsizligi...

Haqiqatan: ajoyib sud palatasi. Uning aktlari o‘g‘ir(6)langan, uning sirlarini saqlovchi joylar o‘z mazmunidan mahrum qilingan.

Haqiqatan: arxivlar ochilgan. Uning o‘lpon deklaratsiyalari o‘g‘irlangan. Qullar qullarning (8) mulkdor egalari bo‘ldilar.

Haqiqatan: (amaldorlar) o‘ldirildi. Ularning hujjatlari olindi.

Haqiqatan: (9) hosilning hisobi bo‘yicha kotiblar, ularning ro‘yxatlari

yo'q qilingan. Misrning g'allasi hammaning mulki bo'lib qoldi.

Haqiqatan: sud palatasining (10) qonunlar bog'lami tashlab yuborilgan, ular bo'yicha chorrahalarda yuribdilar. Kambag'al odamlar ko'chalarda uning (11) muhrlarini sindirmoqdalar...

Haqiqatan: ulug' sud palatasi unga kirib chiqadigan (joy) bo'ldi. Kambag'al odamlar ulug' saroylarga kirmoqdalar va chiqmoqdalar.

Haqiqatan: zodagonlarning bolalari ko'chaga (13) haydalganlar...

(1) Qarang: olov baland ko'tarildi; uning alangasi mamlakat dushmanlaridan kelmoqda. Qaranglar: hech qachon sodir bo'lishi mumkin bo'lmaydi deb ko'ringan ishlar sodir bo'ldi. (2) Podshoni kambag'al kishilar bosib olgan... Qarang: qonunlarni bilmagan ozgina kishilar bilan mamlakatni (3) podsho hokimiyatidan mahrum qilishga kirishilgan edi. Poytaxt bir soat ichida vayron qilingan. Qarang: Misrning (o'zi) suv quya (5) boshladi .

Qarang: bu (endi) odamlar bilan yuz berdi. O'ziga (hatto) kulba qura olmagan kishi (endi) uy egasi bo'ldi. Qarang: saroy a'yonlari podshoning (10) uyidan haydar yuborildilar. Qarang: olijanob ayollar shedu-barjalarda turibdilar. Zodagonlar omborlarda turibdilar. (Hatto) devor yonida uxlamagan (endi) lojaning egasi bo'ldi. Qarang: boylik egasi (II) kechani (endi) chanqovdan azob chekib o'tkazmoqda. Qarang: hashamatli kiyimlar egalari (endi) juldir kiyimlarda. O'zi uchun (12) hech nima to'qimagan, endi nafis gazlama egasi. Qarang: o'ziga hech qachon (hatto) qayiq yasamagan, (endi) kemalarning egalari bo'ldi. Ularning haqiqiy egalari ularga qaramoqda, lekin endi ular unga qarashli emas...

(14) Qarang: o'z mulkiga ega bo'lmagan (endi) boyliklar egasi bo'ldi. (2). Zodagonlar uni maqtaydilar. Qarang: mamlakatning oddiy odamlari boy bo'ldilar. Boylik egalari kambag'al bo'ldilar. [O'zi xabarchi bo'lgan, boshqani yubormoqda. Qarang:] o'z g'allasiga ega bo'lmagan ombor egasi (bo'ldi)... Qarang: mamlakat boshliqlari qochib qutulmoqda, ular (hatto) yo'qchilikdan sadaqa ham topa olmaydilar... Qarang: to'shak egalari yerda uxlamoqdalar, tunni iflos joyda o'tkazganlar, o'ziga charm so'ri tayyorlamoqda. Qarang: olijanob ayollar och, qassoblar esa, o'zi boshqalar uchun suyaklari bilan to'qlar. Qarang: barcha lavozimlar o'z o'mnida emas, go'yoki cho'ponlarisiz qo'rqib qolgan poda

kabi. Qarang: poda har tarafga qochib ketmoqda. Uni (3) yig'adigan hech kim yo'q. Har kim uni o'ziga olib kelib, o'z ismi bilan belgi qo'yamoqda. Qarang: odamni o'z akasi oldida o'ldirmoqda. U o'zini qutqarish uchun uni qoldirmoqda. Qarang: (Hatto) o'z aravasi (2 ho'kizi) bo'limgan podaning egasi bo'ldi. Yer haydash uchun o'ziga ho'kiz topa olmagan kishi katta miqdordagi mollarning egasi bo'ldi. Qarang: o'z g'allasi bo'limgan omborlar egasi bo'ldi. Qarang: (hatto) vaqtinchalik qullarga ega bo'limgan, (endi) merosiy qullar egasi bo'ldi. "Zodagon" bo'lgan kishi, (endi) o'zi topshiriqni bajarmoqda. Qarang: kuchlilarga (zodagonlarga) (6) xalqning ahvoli to'g'risida hisobot berilayotgani yo'q.) (hamma) halokatga yaqinlashmoqda. Qarang: barcha hunarmandlar, ishlamayaptilar. Mamlakat dushmanlari uning hunarlarini o'g'irladilar. (7) Qarang: hosilni yig'ishtirgan uni olmayapti. (O'zi uchun) haydamagan (u hosilni olmoqda). (Hosil) yetilmoqda. (lekin) u to'g'risida (hech kim) xabar qilmayotir. Kotib (8) o'z devonxonasida o'tiribdi, uning qo'li unda harakatsiz qolmoqda.

Boshladi – qullar o'rniغا ozod misrliklar o'z yerlarini sug'ora boshladilar

"Хрестоматия по истории древнего мира". М., 1991. 30-32 срп

Tayanch iboralar: Duaufa, Xeti, Pepi, lotos, tikuvchi, baliqchi, papirus, Ipuser, Sakkara, leyden, V.V.Struve, kanselyariya, Ipuser, Sakkara, Leyden muzeyi, osiyoliklar, sud palatasi, arxiv, mamlakat boshliqlari, omborlar xo'jayini, kotib, tamg'a.

4-§. Istilochilik yurishlari Megiddo yonidagi jang. Tutmos III annallaridan

Tutmos III annallari (er. avv. 1504-1450 yillar) Fivadagi mash-hur ziyyaratgoh devorlarida o'yib yozilgan. Bu ziyyaratgoh hozir Fiva yaginidagi Karnak qishlog'i nomi bilan Karnak ibodatxonasi deyildi. Qadimgi misrliklar uni Ipet-Sut deb ataganlar: Karnak ziyyaratgohi turkibiga xudolar podshosi, Yangi podsholik davrida Misr davlatchiligini bosh xudosi Amon-Ra ibodatxonasi va boshqa xudolar ibodatxonalarini kirgan. Bu yerda ibodatxona kutubxonasi, xazinaxona, kohinlar uyoylari, novvoyxona va ibodatxona ustaxonalarini joylashgan edi. Karnak ziyyaratgohi boshida barcha Misr kohinlarining boshlig'i hisoblangan Amon ibodatxonasini kohini turar edi.

Annalda keltirilgan parchada er. avv. 1482-yilda Megiddo shahrini Tutmos III qo'shnlari qamal qilishi va uni ishg'ol qilishi hikoya qilinadi. Megiddo ostonasida, Misrga qarshi Kadesh shahri hokimi boshchiligidagi Falastin, Finikiya, Suriya shahar-davlatlarining birlashgan qo'shnlari misrliklar tomonidan tor-mor qilinadi. Ular shahar devorlariga qarab qochdilar. Tutmos III o'z askarlariga buyruq berdi. Lekin misrliklar talonchilik bilan shug'ullanildilar. Chekinayotganlar Megiddoga yetib bordilar, lekin shahar aholisi darvozalarni ochmadi va devordan oshib shaharga kirishni taklif qildilar. Ularga yordam uchun arqonlar, kiyimlar tushirildi. Devor tepasida turgan jangchilar ularni tortib oldilar.

Tutmos III shaharni hujum bilan olmoqchi bo'ldi, lekin bunga erisha olmadi. Shunda u qamal boshladi. Misrliklar qal'a atrofini mevali daraxtlardan qilingan chetan to'siq bilan qurshab olib, undan hech kimni o'tkazmadilar. Shaharda oziq-ovqat kam edi. Ochlik va kasalliklar boshlandi. Shu sababli, Megiddo shahri hokimi Tutmosga shafqat qilishni so'rab xabarchilar yubordi. Qal'a darvozalari ochildi. Misrliklar shaharda talonchilikni boshladilar, aholini asirlikka olib ketdilar. Parchada o'ljalar ham sanaladi.

Shunda u yerda janobi oliylarining qarorgohi joylashgan edi. Va barcha qo'shinga ko'rsatma berilib aytildi: "Tayyorlaning, o'z qurolingizni tayyorlang, ertalab o'sha ayanchli dushman bilan jang qilish uchun uchrashamiz..." Qo'shin dozorini joyiga qo'yib ularga aytdilar: - "Tik bo'ling, tik bo'ling, hushyor – hushyor bo'linglar!..

Megiddo yonidagi jang

...Podsho ertalab ko'rindi. Bu paytda barcha qo'shin xabardor qilingan edi..., janobi oliylari o'z jangovar quroli bilan bezatilgan oltin aravada jo'nadi...

O'shanda janobi oliylari, o'z qo'shini bilan ularni yengdi. Va ular janob oliylari, ularni yengayotganini ko'rib, yuzlarida to'la qo'rquv bilan Megiddoga tezlik bilan qochdilar. Ular o'z otlari va oltin kumush aravalari tashladilar va ularni bu shaharga kiyimlari yordami bilan tortib oldilar, odamlar bu shaharni o'z ortlaridan berkitganlardan keyin, ularni tortib olish uchun kiyimlarini tushirdilar. Va mana, agarda janobi oliylarining qo'shnlari dushmanlarni mulkini talon – taroj qilish niyati

ta'sir qilmaganda edi, bu lahzada Megiddoni egallagan bo'lar edilar, qachon kadeshlik ayanchli dushmanni bu shaharni ayanchli dushman (hokimi) bilan ularni shaharga kiritish uchun qiyinchilik bilan yuqoriga tortib oldilar. Janobi oliylari oldida qo'rquinch ularning jismiga kirdi va qo'llarini zaiflashtirdi ... Shunda ularning otlari va ularning oltin, kumush aravalari bosib olindi. Ularning harbiylari yuz tuban tushib yotar edilar, baliqlar (to'r) ning chetidagidek, janobi oliylarini qo'shinlari o'z boyligini sanadi.

Va mana o'sha ayanchli dushmanning chodiri bosib olingan edi ... Butun qo'shin Amonga bu kun o'z o'g'liga g'alabani sovg'a qilgani uchun, shon-sharaf o'qib shod bo'ldi. Ular janobi oliylariga, uning g'alabasini ko'klarga ko'tarib maqtov o'qidilar. Va ular o'zlar olgan o'ljani olib keldilar: qo'llarnil, asirlar, otlar, oltin va kumush jang aravalari.

Qo'shin bo'yicha podsho buyrug'i

Va janobi oliylari o'z qo'shinlariga quyidagicha ifodalarda buyruq berdi: "Siz yaxshigina – yaxshigina changallab olasiz mening g'olib qo'shinlarim!..

Shimoldagi barcha begona mamlakatlarning hokimlari unga berkinib olganlar, Megiddoni olish – bu minglab shaharlarni olishdir. Siz mahkam-mahkam ushlang!

Megiddoni topshirish

Va mana bu mamlakatning hokimlari janobi oliylarining qudratini ziyyarat qilish uchun o'z qorinlari bilan emaklab keldilar, nafas olish uchun, uning kuchi bo'lgani uchun, Amon hokimiyatini boshqa barcha begona yer mamlakatlari ustidan ulug' bo'lgani uchun ... va mana barcha hokimlar u janobi oliylaring oldiga ularni o'lponi kumush, oltin, lazurit, feruza bilan olib kelindi, janobi oliylarining qo'shinlari uchun vino, don, buqalar va mayda hayvonlar olib kelinib, bir qism o'lpon bilan janubga ketdi. Va mana janobi oliylari hokimlarni yangidan tayinladi...

Birinchi yurish o'ljalari

[Janobi oliylari qo'shinlari shahardan olib kelgan o'ljalari qatori]

Megiddo: 340 asir, 83 qullar, 2041 ot, 191 toy, 6 ayg'ir – yosh otlar, jang aravasi oltin bilan ishlangan dushmanning oltinidan (?)

suqliq bilan, [Megiddo] hokimining oltin bilan ishlangan jang aravasi, ayanchli qo'shinining 897 jang aravasi, o'sha dushmanning yaxshi jezsovuti, Megiddo hokimining yaxshi jezsovuti, uning ayanchli qo'shinining 200 sovuti, 502 kamoni, o'sha dushmanning Meri yog'ochidan kumush bilan ishlov berilgan chodirning 7 ustuni. Va mana [janobi olyilarining] qo'shinlari 3872, 1929 ho'kiz, 2000 echki va 20500 qo'ylarni bosib oldi.

Shundan keyin Ienoame, Nuxashe, Xerenkera'dagi dushmanning boyligi, unga bo'ysungan shaharlarning boyliklari bilan birga bosib olingen o'ljaning ro'yxati... ularning 38 pahlavoni, o'sha dushman va hukmdorlarning ular bilan bo'lgan 87 bolalari va ularning 5 pahlavoni, 1796 qul va qul ayollar va ularning bolalari, 103 ta ko'ngilli taslim bo'lgan erkaklar, u dushmanidan ochlikdan chiqqan hammasi bo'lib 2503 ta, qimmatbaho tosh va oltindan jomlar, turli ko'zalar..., Suriya mahsuloti bo'lgan dastali katta ko'za, tuxumsimon (?) ko'zalar, jomlar.., suv ichish uchun har xil ko'z katta qozonlar, pichoqlar... 27 ta, 1784 debenni⁴ tashkil qiladi. Aylana oltin, ustalar qo'lida topilgan va ko'p sonli aylanalarda 966 deben kedet⁵, toblangan kumush haykal... oltin boshi bilan, odam yuz tasviri bilan 2 aso, o'sha dushmanning fil suyagi, oltin bilan ishlov berilgan qora va qimmatli Suriya yog'ochidan 6 kreslosi va ularga 6 skameykacha, 6 ta katta stol, fil suyagi va qimmatli Suriya yog'ochidan loja, oltin va rangli toshlar bilan ishlangan, ... u yerda bo'lgan o'sha dushmanning haykali, qora yog'ochdan, oltin bilan ishlangan, lazuritdan boshi bo'lgan..., jezdan ko'zalar va o'sha dushmanning ko'plab kiyimi.

Bosib olingen Megiddo yonida hosilni yig'ish

Va mana, dalalar ekinzorlarga aylantirilgan edi, shu bilan birga ular saroyning vakolatli kishilariga berilgan edi – ha ulardan hosil olish uchun u yashasin, zarar yetmasin, sog' bo'lsin. Janob oliylariga Megiddo ekinzorlaridan yetkazib berilgan hosil ro'yxati: 207300 qop chorak xekat bug'doy, janobi oliylari qo'shinlari olganidan tashqari.

1. *Qo'llar – misrliklar jasorat belgisi dalili sifatida o'ldirgan dushman qo'llarini chopib olib, o'zlarini bilan olib ketar edilar.*

2. *Qandaydir hayvonlar soni.*

3. *Shimoliy Falastindagi shaharlar.*

4. O'g'irlilik birligi – 91 g.

5. O'g'irlilik birligi – 91 g.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 33-35 сmp

Tayanch iboralar: Fiva, Karnak, annal, Ipet-sut, Amon-Ra, Kadesh, Megiddo, Falastin, Finikiya, Suriya, Ienoame, Nuxashe, Xerenkera, deben kedet, xekat, pahlavon, jom, tuxumsimon ko'za, qul, oltin.

5-§. Diniy e'tiqod. Tibbiyat

Hayvonlarga sig'inish, mo'miyolash

Qadimgi misrliklar u dunyoga ishonganlar va vafot etgan odamlar jasadini mo'miyolaganlar. Qadimgi misrliklarni hayvonlarga e'tiqod qilishlari va ular o'lganda mo'miyolashi to'g'risida yomon tarixchisi, Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug'ilgan Gerodot (er. avv. 484-425 yillarda yashagan) U to'qqiz kitobdan iborat "Tarix" asarida yozgan.

Gerodot Afinadan quvg'in qilingandan keyin (er. avv. 445-yil atrofida) Suriya, Falastin, Bobil va Shimoliy Qora dengiz bo'yiga sayohat qilgan. U sayohat davomida ko'rganlarini sidqidildan qoq'ozga tushirdi, boshqa sayohatchilar to'plamlari, hikoyalari, xalq rivoyatlaridan foydalandi.

11. 65. ... Misr Liviya bilan chegaradosh bo'lsa-da, unda hayvonlar uncha ko'p emas, lekin u yerda bor bo'lgan barcha hayvonlar xonaki hamda yovvoyi, muqaddas hisoblanadi... Har bir turdag'i jonivorlarni parvarish qilish uchun, misrliklarda alohida xizmatchilar, erkak va ayollar belgilangan va bu lavozimlar otadan o'g'ilga o'tadi. Shaharning har bir aholisi quyidagi tarzda muqaddas jonivorlar oldiga o'z iltifotini ko'rsatadi. Ma'lum jonivor bag'ishlangan xudoga ibodat qilib bo'lgandan keyin, ular bolalari sochini to'la yoki yarmini, uchdan bir qismini oladi va keyin sochni kumushga o'lchaydi. Sochlari kumushning qancha og'irligiga tortsa, shunchasini xodimaga beradi, u buning evaziga jonivorlarga yemish uchun baliq kesadi. Bu jonivorlar uchun ovqatlanish shunday usulda. Agar kimdir jonivorlardan qaysi birini ataylab o'ldirsa, uni o'lim bilan jazolaydilar; agar ataylab

bo‘lmasa – kohinlar belgilagan jarimani to‘laydi. Kim agarda ibis yoki kalxatni o‘ldirsa, har ehtimolga qarshi olirilishi lozim.

66. Agar uyda mushuk o‘lib qolsa, uyda barcha yashovchilar faqat qoshlarini qiradilar, agar it o‘lsa, hammalari badanidagi tuklari va boshidagi sochlarni oladilar.

67. Mushuklar jasadini Bubastisga olib boradilar u yerda mo‘miyolab muqaddas joyda dafn qiladilar. Itlarni esa har bir kishi o‘z shahardan muqaddas sag‘analarga dafn qilinadi...

69. Misrning ayrim viloyatlarida timsohlar muqaddas hisoblanadi, boshqa viloyatlarda ular muqaddas hisoblanmaydi, hatto ularga dushman kabi munosabatda bo‘ladilar. Fiva aholisi va Meridov ko‘li viloyati timsohni muqaddas hisoblaydi. U yerda qo‘lga o‘rgatilgan bittadan timsohni saqlaydilar. Bu timsoh qulog‘iga shisha, oltin bilan baldoq taqadilar, oldingi oyoqlariga halqa o‘tkazadilar. Unga alohida belgilangan ovqat beradilar, tirik ekan uni g‘amxo‘rlik bilan parvarish qiladilar, o‘limidan keyin mo‘miyolab, muqaddas joyga dafn qiladilar. Elefantina shahri aholisi aksincha – timsohlarni muqaddas hisoblamaydi va hatto ularni tanovul qilishadi...

Marhumlarni mo‘miyolash

86. Buning uchun alohida ustalar tayinlangan bo‘lib, ular vazifa-si bo‘yicha mo‘miyolash hunari bilan shug‘ullanadilar. Ularga marhumni olib kelganlarida, qarindoshlarga tanlash uchun marhumlarning yog‘ochdan bo‘yalgan tasvirlarini ko‘rsatadilar. Shuningdek, ustalar (uni mo‘miyolashda qo‘llagan) eng yaxshi usulini aytadilar, menha bu holda binoni kim nomini aytish joiz emas. Keyin ular ikkinchi va arzonroq, oddiyroq usul va nihoyat uchinchi – eng arzonni taklif qiladilar. Keyin ular (qarindoshlardan) qanday narxda, (qanday usulda) marhumni mo‘miyolashni so‘raydilar. Agar narx to‘g‘ri kelsa, qarindoshlar uyga qaytadilar, ustalar qoladilar va tezda ishga sinchkovlik bilan kirishadilar. Boshda ular burun orqali temir ilmoq bilan miyaning ajratib oladilar. Bu usul bilan faqat miyaning bir qismini, qolgan qismini dorilarni purkash yo‘li bilan oladilar. Keyin o‘tkir efiop toshi bilan kindikni kesib, butun qorin qismini ichki a‘zolardan tozalaydilar. Ustalar qorin qismini tozalab va uni palma vinosi bilan yuvib, uni yangi ezilgan xushbo‘y moddalar bilan poklaydilar². Nihoyat, qorinni toza

ezilgan mirra³, kasiya⁴ va boshqa xushbo'y moddalar (ladandan boshqa) bilan to'ldirib... (uni) yangidan tikadilar. Shundan keyin jasadni 70 kun natriy eritmasiga soladilar. Biroq 70 kundan ko'p muddat tugashi bilan jasadni yuvib, visson gazlamasidan lentalarga kesilgan bint bilan (uni) o'tab kamyed⁵ surkaladi. Shundan keyin qarindoshlar jasadni qaytarib olib, odam figurasi ko'rinishida yog'och tobut tayyorlab, marhumni unga joylashtiradilar. Tobutga marhumni qo'yib, uni oilaviy sag'anada saqlaydilar, u yerda tobutni devorga tik holda qo'yadilar.

1. *Qolgan qismini – eritadigan.*

2. *Tozalaydilar – marhumning ichki a'zolarini tobutda emas, alohida ko'zalarda dafn qilganlar.*

3. *Mirra – xushbo'y o'simlik qatroni.*

4. *Kasiya – xushbo'y o'simlik.*

5. *kamyed – u yelim o'rnida ishlataladi.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 37-39 срп

Tibbiyot

Bu yerda misrliklarning tibbiyot bo'yicha papirusidan ikki parcha keltirilib, ularda kasalni muolaja qilish va davolash bilan birga, afsun-jodular o'qigani to'g'risida ma'lumot olamiz. Qadimgi misrliklarning tibbiyot sohasidagi yutuqlarini, bizgacha saqlanib qolgan Qadimgi Misr tibbiyot traktatlari orqali bilamiz, shunday papiruslardan biri 20,5 metr uzunlikdagi Ebersning tibbiyot papirusi. Uturli xil xastaliklarga qarshi 900 xil davolash tavsiyalarini o'z ichiga oladi. O'liklarni mo'miyolash tufayli misrliklar odam organizmi tuzilishini, qon aylanish jarayonini yaxshi bilishlari mumkin edi. Natijada qator anatomik atamalarda belgilangan dastlabki anatomik bilimlar paydo bo'ldi. Bir qancha kasalliklar: oshqozon, teri usiti, nafas yo'llari, revmatizm kasalliklari va belgilaring aniq tavsiflanishi tashxis rivojlanganidan dalolat beradi. Misorda nazariy bilimlarni umumlashtirishning birinchi urinishlari ko'rindi. "Yurakdan boradigan 22 qon tomirlari", "Qon aylanishi to'g'risida" gi ta'limotlar ma'lum,

Ba'zi tibbiyot traktatlarida davolashning o'ziga xos usullari beriladi. Tabiblar kasal turlariga qarab ixtisoslashganlar: jarrohlar, ko'z va tish

tabiblari, ginekologlar va boshqalar. Davolashda misrliklar dorivor o'tlat, kukunlar, kastor moyi, turli tuzlardan foydalanganlari qadimgi Misrda farmokologiya rivojlanganligidan darak beradi.

Bola kasaliga qarshi ona afsunidan

Qadimgi misrliklar turli xil kasalliklarni davolashda afsun va jodudan keng foydalanganlar. Quyida ona kasal holasini davolash uchun o'qigan afsundan parcha keltirilgan.

... Izida, qorong'idan keladigan, o'g'rincha kiradigan,
burni uning orqasida, yuzi orqaga qaragan
nima uchun kelgan bo'lsa xato qiladigan!
uni [bolani] jim bo'lishga majbur qilish uchun kelmadingmi sen?
Men senga uni jim bo'lishiga majbur qilishingga yo'l qo'ymayman!
Sen unga zarar yetkazishgga kelmadingmi?
Seni unga zarar yetkazishinga yo'l qo'ymayman!
Sen uni tortib olishga kelmadingmi?
Men senga uni mendan tortib olishingga yo'l qo'ymayman!
Men unga senga qarshi tumor qildim...

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 44 сmp.

Tayanch iboralar: Liviya, hayvonlarga e'tiqod, kumush, jonivor, marhum, Galikarnas, Gerodot, Afina, Bobil, Qora dengiz, Bubastis, Meridor, Elefantina, efiop toshi, mirra, kasiya, ladan visson, kamiyed, natriy eritmasi.

6-§. Me'morchilik

Qadimgi Misrdagi fir'avn saroylari, aholining uy-joylari yodg'ochdan qurilganligi uchun saqlanib qolmagan. Ular to'g'risida biz relyef tasvirlari bo'yicha bilamiz. Misrliklar yerdagi uy-joylari vaqtinchalik, shuning uchun ularga mustahkam materiallar sarflash kerak emas deb, hisoblar edilar. Zodagonlar fir'avnlari o'zlariga mustahkam sag'anular barpo qilib, u dunyoda hayotni davom ettirmoqchi edilar. Sag'anular, ibodatxonalar, ustunlar, ulkan haykallar mustahkam toshdan barpo qilinar edi. Ularni bezatishda oltin,

kumush, mis va boshqa ma'danlar ishlatalgan. Ularning eng kattasi Xufu piramidasi edi. Bu piramida qurilishini Gerodot o'z asarida tasvirlagan.

Piramidalarning qurilishi

124. ...Xeops mamlakatni kulfatlar girdobiga tashladi. Eng avvalo, u barcha muqaddas ziyyaratgohlarni yopishni va qurbanliklar keltirishni taqiladi. Keyin barcina misrliklarni o'ziga ishlashga majbur qildi. Bir xil kishilar Nilga Arabiston tog'laridagi tosh konlaridan xarsanglarini olib kelishlari, boshqalarga esa ularni yana uzoqqa Liviya tog'lari deb ataladigan joygacha sudrab borish buyurilgan edi. Yuz ming kishi bu ishni to'xtovsiz, har uch oyda bir marta almashib bajardi. Xarsang tashilgan bu yo'lni qurishga ezilgan xalq o'n yil sarflashiga to'g'ri keldi. Mening fikrimcha, bu ish piramidanı o'zini qurishdek ulkan emas edi. Axir yo'lning uzunligi 5 stadiya, kengligi o'n orgiy, eng baland joyda 8 orgiy balandlikda, yo'nilgan toshlardan ularga o'yilgan figuralar bilan qurilgan. Bu yo'lni va tepalikda turgan piramidalarning yer osti xonalarini qurish o'n yil davom etdi. Bu xonalarda Xeops tog' Nil kanalini o'tkazib, orolda o'z sag'anasin qurdi. Piramidaning o'zini qurish 20 yil davom etdi. U to'rt tomonli, uning har bir tomoni kengligi plefr⁶ va shunday balandlikda yo'nilgan va bir – biriga puxta o'rnatshirilgan toshlardan qurilgan. Har bir toshning uzunligi kamida 30 fut. Bu piramida shunday qurilgan. Boshda u zinapoya ko'rinishdagi tokchalar bilan boradi, uni boshqalar maydonchalar yoki zinalar deb ataydilar. Birinchi toshlar (asos) qo'yilganidan keyin, qolganlarni (maydonchalarni to'ldirish uchun) qisqa balkalardan qilingan taxta supalar yordamiga ko'tardilar. Yerdan toshlarni birinchi zinaga narvonlar shunday qilib ko'tardi. U yerda toshni boshqa taxta supaga qo'yar edilar, birinchi zinadan ikkinchi zina taxta supa yordamidaga ko'tarar edilar. Qancha qator zinalar bo'lsa, shuncha ko'taradigan qurilmalar bor edi. Biroq faqat bitta ko'taradigan qurilma bo'lgan bo'lishi ham mumkin, toshni ko'targandan keyin qiyinchiliksiz keyingi zinaga ko'chirgan bo'lishlari mumkin. Menga har ikki usul to'g'risida xabar berdilar va shuning uchun men ularni keltiraman. Shunday qilib, boshda piramidaning yuqori qismi tugallangan edi, keyin o'rtá va oxirida yerdagi quyi bosqichlarni qurdilar. Piramidada Misr yozuvlari

bilan ishchilar qancha sholg'om, piyoz, sarimsoq yeganlari belgilangan. Va men juda yaxshi eslayman, menga yozuvlarni o'qigan tarjimon bularning hammasiga 1600 talant' sarflangan deb tushuntirdi. Agar bu to'g'ri bo'lsa, temir quollar, ishchilar uchun non va kiyim uchun pul ketdi, shuningdek, bu inshootlarning qurilishi 20 yil davom etdi. Bundan tashqari, toshlarni sindirish va olib kelishga (sag'ana uchun) yer osti xonalarni qurishga ko'p vaqt kerak bo'ldi.

1. *Xufu – yunoncha – Xeops.*

2. *Tog'laridagi – toshlarni daryo orqali kemalarda olib o'tar edilar.*

3. *Orgiy – I orgiy 1,85 m.*

4. *Xeops – IV sulola fir'avni, er. avv. 2600 – 2450 yillar atrofi.*

5. *Nil kanali – Piramidalar qurish joyiga qurilish materiallari yet-kaziladigan kanal ko'zda tutiladi.*

6. *Plefr – uzunlik birligi – 30 metr*

7. *Bobil talanti – 30,3 kg kumush, Evbey talanti – 26,19 kg.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 40-41 cmp.

Ibodatxonalar qurilishi

Qadimigi Fiva shahri o'rnida hozirgi Karnak va Luksor qo'r-g'onlaridagi ibodatxonalar xarobalariga qarab, ularning ulug'vorligi va go'zalligi to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Ularda ulkan kolonnali yopiq zallar, ochiq kolonnali hovlilar mavjud edi. Karnak ibodatxonasida maydoni 5 ming kv.m 16 qatorda joylashgan 130 kolonnali ulkan zal qurilgan edi. Ibodatxonlarga kirishda ulug'vor minoralar ko'tarilib, u fir'avnlarni hokimiyati ulug'vorligi va donoligi ramzi, sfinkslar xiyoboniga olib borar edi. Ibodatxonalar devorlari fir'avnlarning jasoratlari to'g'risidagi ierogliflar va turfa rangli relyef tasvirlar bilan qoplangan edi.

Amenxotep III er. avv. XIV asr bosqlarida Misr gullab-yashnagan vaqtida hukmronlik qildi. XVIII sulola fir'avnlari Kichik Osivodan Nilning to'rtinchi ostonasigacha bo'lgan hududni egallab oldilar. Istilochilik urushlari natijasida kelgan katta o'ljalari, qullar, qaram o'lkalarining yillik o'lponlari fir'avn hokimiyatini kuchaytirdi. Fir'avn

qo'lida to'plangan ulkan boylikning bir qismi uni ulug'lash maqsadida mahobatli inshootlar barpo qilishga sarflandi.

Amenxotep III ning Fiva g'arbida Memnoniya deb ataladigan ibodatxonasi er. avv. XIV asrda qurilgan. Amenxotep III ning o'limidan keyin, Fiva shahrining g'arbida qurilgan Memnoniya deb atalgan ibodatxona va uning "Memnon kolossi" deb atalgan ulkan haykali, hozir Leningradda Neva qirg'og'ida turgan ikki Sfinks bizgacha yetib kelgan.

Memnoniyani qurilishi

Mana, juda katta (shu bilan birga) qadimgi vaqtlardan har ikki Yerda mavjud bo'Imagan yodgorlikni bunyod qilish bilan janob oliylarining qalbi tinchidi. U bu yodgorlikni Ikki Yerning taxtlari egasi, o'z otasi Amon uchun qurdi: Unga ajoyib Fivani "uning bortida" ibotadxonaning (xudo qo'rg'oni) bunyod qilindi. Yaxshi qattiq jinsdan, oq toshdan abadiy, oltin bilan qoplangan, poli kumush bilan bezatilgan, darvozasi oq oltindan⁴, abadiy obodonlashtirilgan bo'lib, u kengaytirilgan va juda kattalashtirilgan. Bayramona tashkil etilgan bu ulug' yodgorlik, shu bilan birga, hukmdorning Elefantin graniti⁵dan ko'pgina haykallari bilan tanilgan, hayratga soladigan, balandligi osmonga chiqadigan, quyosh shu'lasiga o'xshash, (shu bilan birga) u hukmdorning oltin va ko'p sonli toshlari qo'yilgan hukmdor taxtasi bilan ta'minlangan, uning oldida oq oltin bilan qoplangan machtalar qo'yilgan, u osmonda turadigan, osmon etagiga qiyos qilingan Ra chiqadigan kun ulug' suv bilan to'la baliq va qushlar, toza o'simliklar, shena6 qullar va qul ayollar bilan to'la, har xil⁷ hokimlar bolalari, janobi oliylarining o'ljalari, omborlari sanog'i noma'lum boyliklarni olgan. Shu bilan birga u Suriya shaharlari⁸ bilan o'rالgan, hokimlar o'g'llari bilan ta'minlangan, mollari go'yoki qirg'oqdagi qum kabi; ular son-sanog'siz, burun qanoti – janub yerlari quyruq qanoti – shimol yerlari⁹. Luksor ibodatxonasi¹⁰ qurilishlar Yuqori va Quyi Misrning podshosi, Ikki Yerning hukmdori, Raning vorisi, Raning o'g'li, Amenxotep tojlari egasi, Fiva hukmdori, o'z otasi Amon-Ra, Ikki yer taxtlarining egasi uchun ishlarda tinchlandi, Luksorda oq toshdan yaxshi, mustahkam jinsdan (shu bilan birga) u¹⁰ kengaytirildi va nihoyat kattalashtirildi, sayqal berildi, devorlari oq oltindan, pol kumushdan, barcha darvozalari qoplangan, ustunlari osmonga yaqin,

uning machtalari – yulduzlar o‘rtasida.

1. *Sfinks – odam boshli sher.*
2. *Ikki Yerda – Yuqori va Quyi Misr ko‘zda tutiladi.*
3. *“Uning bortida” – Nilning so‘l qirg‘og‘ida.*
4. *Oq oltin – Qadimgi Misrda oq oltin deb oltinning kumush bilan qo‘silmasini aytganlar.*
5. *Graniti – Smenit.*
6. *Shena – nonvoyxona.*
7. *Har xil – begona mamlakatlar.*
8. *Suriya shaharlari – Memnomiya atrofidagi suriyaliklarning manzilgohlari to‘g‘risida so‘z boradi.*
9. *Shimol yerlari – Qadimda Misrni kemaga o‘xshatganlar; muallif Misrni jamibi va shimoli go‘yoki ibodatxonaga kelib taqaladi deb tasavvur qiladi.*
10. *U – Luksor ibodatxonasi.*

Amonning Karnak ibodatxonasida uchinchi ustunning ko‘tarilishi

Podsho Amonga yodgorlikni qaytardi; Unga Amon-Ra, Ikki Yerning egasi yuzi oldida nihoyatda katta darvoza ni bunyod qilish butunlay oltin bilan qoplangan, (unda) xudoning soyasi (obrazi) Shef qiyofasidagi qo‘y haqiqiy lazar tojlari bilan to‘Idirilgan³, hech qachon bunga o‘xhash amalga oshirilmagan; nol kumush bilan bezatilgan, uning oldida darvoza o‘rnatilgan, har tomonda-bitta yodgorlik toshi; osmonning to‘rt ustuniga o‘xhash ustunlari ko‘kka yaqinlashgan; oq oltin qoplangan machtalari osmonga intilgan. Janobi oliylari ular uchun oltinni Keri tog‘lari⁴ dan birinchi g‘olibona, ayanchli Kush⁵ uchun halokatli bo‘lgan yurishda olib keldi.

-
1. *Katta darvoza – darvoza va ustunlar qo‘silgan butun inshoot.*
 2. *Shef – uzun shoxli qo‘y zoti, hozirgacha yetib kelmagan.*
 3. *To‘Idirilgan – terilgan oltin qoplangan, ko‘p sonli toshlar bilan terilgan.*
 4. *Keri tog‘lari – to‘rtinchi ostona rayonidagi joy.*
 5. *Kush-Kush (Sudan) mamlakatiga Amenhoten III ning yurishi ko‘zda tutiladi.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 42-43 сmp

Tayanch iboralar: Memnon kolossi, XVIII sulolafir ‘avnları, Elefantin graniti,

odam boshli sher, xudo qo'rg'oni, yuqori va quyi Misr. Raning vorisi, Karnak ibodatxonasi, kumush. Keri tog'lari, Kush, Luksor ibodatxonasi, Amenxotep III, Sfinks, Nilning qirg'oqlari, Xeops, orgiy, plesri, fut, Bobil talanti, Ebvvey talanti, piramida, Memnoniya. Shef.

7-§. Adabiyot

Qadimgi misrliklar badiiy adabiyotning (rivoyatlar, ertaklar, qissalar, qo'shiqlar, nasihatnomalar va boshqalar) turli janrlarida asarlar yaratdilar. Bizgacha Misr adabiyotining boy namunalari yetib kelgan. Xalq og'zaki ijodiga saroy kotiblari, ibodatxona kohinlari tomonidan berilgan. Misr adabiyotida ming yillar davomida qadimgi sujetlar, adabiy motivlar, shakllar saqlanib qoladi. Qadimgi Misr adabiyoti din bilan yaqin edi. O'rta podsholik davrida dunyoviy ruhdagi adabiyotlar paydo bo'ladi: sayohatchilarni janubiy hududlar va Osiyo mamlakatlari dagi sarguzashtlari to'g'risida qissa va hikoyalar shular jumlasidandir.

Afsona va ertaklar Dunyoning paydo bo'lishi to'g'risida afsona

Afsona matni 1861-yilda Fiva shahri qarshisidagi Nilning g'arbiy qirg'og'idan topilgan va ikki nusxada Britaniya muzeyida saqlanadi.

Butun dunyo egasining so'zlaridan u qayta mavjud bo'ldi. Men o'sha kim Xepra kabi qayta mavjud bo'ldim va mavjud bo'lganlar qayta mavjud bo'ldilar. Men qayta mavjud bo'lganimdan keyin mavjud bo'lganlar, qayta mavjud bo'ldilar. Ko'pgina mavjudotlar mening og'zimdan chiqdilar.

- Hali osmon mavjud emas edi va yer mavjud emas edi.
- Hali tuproq va bu yerda ilonlar yaratilmagan edi..
- Men ularni Nundan, yo'qlikdan paydo qildim
- O'sha yerda turish uchun o'zimga o'rin topa olmadim.
- Men o'z qalbimda fikrladim, haqiqatga asos qo'ydim.
- Men barcha obrazlarni yaratdim.

Men bitta edim, A men hali Shu3ni Rani o'g'lilari. Shuni tuflamadim, hali Tefnutni4 qo'shmadim va men bilan birga yaratadigan hech kim yo'q edi.

Men o'zimni qalbimga asosni qo'ydim ular tuqqan mavjudotlardan tug'ilgan, va mavjudotlardan ko'p sonli mavjudotlar qayta mavjud bo'ldilar. Men to'kilgan o'z qo'lim bilan birlashdim, o'z soyam bilan bir bo'ldim va o'z og'zimga urug'ni quydim va men Shuni tufurdim va Tefnutni qusdim.

Otam Nun aytdi: "Ha, ulg'aysin ular!"

Va ko'zim ularning orqasida abadiy edi.

Ular mendan, men yagona xudo sifatida mavjud bo'Iganimdan keyin ajraldilar va mana uch xudo men bilan. Men bu yerda edim va Shu va Tefnut ular bo'Igan suvdan xursand bo'ldilar va ular o'zlar bilan menga ko'zimni olib keldilar.

Shundan keyin men hamma a'zolarimni to'pladim va ularni ko'z yoshlarim bilan sug'ordim, ko'z yoshlarimdan odamlar qayta mavjud bo'ldilar.

Va mening ko'zim menga g'azablandi, u keldi va o'z o'rniga boshqasini topdi. Va men uni ilgari yaratgan yorug'ligim bilan bezadim va uni o'z yuzimga o'rnatdim va shundan keyin butun yer ustidan hukmronlik qildi...

Va men har xil ilonlarni va har xil mavjudotlarni ularning yordami bilan yaratdim. Shu va Tefnut |Geba| va Nut⁵, tug'dilar va Geba va Nut Osirisni⁶ Gor Xent-en-Merti⁷, Setni⁸, Isidani⁹ va Neftidani¹⁰ yagona jismdan birini boshqasidan keyin va ular bu yerda ko'p sonli avlodlarni tug'dilar.

1. *Xepra – Quyosh xudosining ismlaridan biri.*

2. *Nun – ilk alg'ov-dalg'ovlik*

3. *Shu – havo xudosi.*

4. *Tefnut – namlik xudosi*

5. *Nut – yer va havo xudolari.*

6. *Osiris – yer osti xudosi.*

7. *Gor Xent-en-Merti -lochin qiyofadagi xudo-podsho hokimiyati homiysi.*

8. *Set – sahroning yovuz xudosi.*

9. *Isida – hosildorlik ma'budasi, oilaviy sadoqat ramzi.*

10. *Neftida- uy ma'budasi. ,*

Odamlarning qirib yuborilishi to‘g‘risidagi afsona

“Odamlarning qirilishi” afsonasi Nilning g‘arbiy qirg‘og‘ida Fiva yonida podsholar vodiysida Seti I va Ramzes III sog‘onalarida o‘yib yozilgan.

Rivoyat odamlarning gunohlari uchun quyosh xudosi Ra, uning qizi Xator-Soxmet tomonidan jazolanishi to‘g‘risida hikoya qiladi. Ma‘buda Xator quyosh xudosi Raning qizi. Ko‘pincha Raning boshqa qizi ma‘buda Soxmetga o‘xshatilgan. Soxmetga ona sher qiyofasida sig‘imilgan. Xator-Soxmet rivoyatning bosh personaji.

Shunda Ra Nunga aytdi: “Oqsoqol xudo, Kundan men paydo bo‘ldim! Xudolar-ajdodlar! Qaranglar odamlar ko‘zimdan yaratilganlar, menga qarshi ular yovuz ishlarni o‘yladilar. Menga ayting, siz bunga qarshi nima qilar edingiz? Mana men kutdim, avvalo siz bu to‘g‘risida nima deyishingizni eshitmasdan turib men ularni o‘ldirmadim.”

Shunda janobi oliylari Nun aytdi: Ra mening o‘g‘lim uni paydo qilgan va uni yaratgandan ko‘ra buyukroq xudo! Sening taxting mustahkam va sendan qo‘rqish katta”. Ha sening “ko‘zing” seni haqorat qilganlarga qarshi borsin!”

Shunda janobi oliylari Ra aytdi: “Qarang, ular sahroga qochdilar va ularning qalblari qo‘rquvda”.

Shunda ular janob oliylariga aytdilar: “O‘z ko‘zingni jo‘nat, ha u senga yovuzlik qiladiganlarni yo‘q qilsin, uning oldida bo‘lishi va unga qarshi turishi uchun qachon u Xator qiyofasiga kirganda.”

Va ma‘buda bordi va u odamlarni sahroda yo‘q qildi.

Shunda bu janobi oliylari aytdi: “Xator bor dunyoda, chunki sen (seni nima uchun yuborganim) o‘shani amalga oshirding (shuning uchun men seni yubordim)! ”

Shunda ma‘buda aytdi: “Sen men uchun hayotsan! Men odamlarni yengdim va yuragimga quvonch!”

Shunda janobi oliylari Ra aytdi: “Men ularni kiritishda kuchliman, ularning ustidan podsho sifatida.”

Va yuz berdi! Soxmet Gerakleopoldan boshlab ularning qonini oqizib kechani o‘tkazdi.

Shunda Ra aytdi: “Menga tez yuguradigan chopalarni chaqiring, ha ular jismni soyasi kabi yugursinlar!”

Shunda bu chopalalar bir zumda olib kelindi.

Shunda xudo janobi oliylari aytdi: "Ha ular Elefantinega yugurmoqdalar, ha ular menga ko'p didi² olib keladilar!"

Unda bu didi olib kelindi.

Shunda xudo janobi oliylari geliopollik tegirmonchiga didini maydalashni buyurdi. Oqsochlар pivo uchun arpa maydaladilar. Shunda didini odamlar qoniga o'xshatib xamirturushga qo'shdilar.

Shunda 7000 ko'za pivo tayyorladilar.

Shunda u Yuqori va Quyi Misr podshosi janob Ra bu xudolar bilan pivoni ko'rishga keldi. Bu kun odamlarni Nil bo'ylab yuqoriga qochgan kunlarida ma'budani odamlarni qirish ertasi edi.

Shunda janobi oliylari Ra aytdi: "O, bu qanday ajoyib, bu bilan men odamlarni qutqaraman".

Shunda Ra aytdi: "Buni oling va u odamlarni o'ldirgan joyga olib boring".

Shunda bu ko'zalarni bo'shatish uchun Yuqori va Quyi Misrning podshosi Ra janoblari kechaning go'zalligidan ko'tarildi;

Va shunda to'rt tomon dalalari bu xudo janob oliylarining xohishi bo'yicha shudring bilan to'ldi.

Va ertalab bu ma'buda keldi va uni to'lган holda ko'rdi va uning yuzi quvonchli edi. Va shunda u icha boshladi va uning yuragi shodlikda edi. Va u mast yurib odamlarni tanimadi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 246-247 сmp.

Mahkum shahzoda to'g'risida ertak

Papirusdagi ertak matni er.avv. XII asrga tegishli deb belgilanadi.

4.1. Bir podsho haqida hikoya qiladilar, uning o'g'li yo'q edi va u o'z yeri xudolaridan o'g'il so'radi.

4.2. Va xudolar amr qildilarki, unga o'g'il tug'ilsin deb...

4.3. Belgilangan muddatlarda uning xotini o'g'il tug'di. Va ma'buda Xatxor I osmon ma'budasi chaqaloqning taqdirini aytishga keldi. Va ular bashorat qildilar.

4.4. "U timsoh, yoki ilon yoki itdan o'ladi. Chaqaloq oldiga qo'yilganlar eshitib janobi oliylariga yetkazdilar. Ha u yashasin, zarar yetmasin va sog' bo'lsin :

4.5. Shunda “Janobi oliylari – ha u yashasin, sog‘ bo‘lsin – qayg‘urdi va yuragi g‘amgin bo‘ldi va shunda janob oliylari: – Ha u yashasin zarar yetmasin! Sahroda tosh uy qurishni va odamlar bilan podsho saroyidan turli ajoyib narsalar bilan to‘ldirishdi. Ha u yashasin, zarar yetmasin, sog‘ bo‘lsin. O’sha uyda uning o‘g‘li yashashi uchun va tashqariga chiqmasligi uchun... buyruq berdilar.

4.7. Chaqaloq katta bo‘ldi va bir kuni uy tomiga chiqdi va yo‘lda odamni va uning orqasida itni ko‘rdi.

4.8. Shunda shahzoda yonida turgan xizmatkoridan so‘radi: “yo‘ldagi odamning orqasidan nima harakat qilmoqda?”

4.9. Xizmatkor aytdi: “Bu it”. Shahzoda aytdi: Menga ham shunaqasini olib kelsinlar”.

4.10. Shunda xizmatkor janobi oliylariga xabar berishga ketdi. Shunda janobi oliylari: “Ha u ýashasin; zarar yetmasin sog‘ bo‘lsin, aytdilar: xafa bo‘lmasligi uchun unga kichkina itvachcha yetkazilsin” va unga kuchuk keltirdilar.

4.11. Va kunlar o‘tdi, Shahzoda butun jismi bilan ulg‘aydi va otasiga aytdi: “Hech qayerga chiqmasdan qamoqda o‘tirishning nima foydasini bor?

4.12. Baribir mening taqdirim bitilgan-ku!

4.13. Menga yuragim amir bo‘yicha ish qilishga ruxsat bersinlar. Hozircha xudo o‘z irodasiga ko‘ra amr qilmagunicha...

5.1. Va shunda unga arava tayyorladilar va har xil qurol bilan ta’minladilar. Xizmatkor berdilar va sharqiy qirg‘oqqa o‘tkazib qo‘ydilar.

5.2. Va unga aytdilar: “O‘z yuraging amri bilan bor va uning iti ham u bilan edi. Va u yuragi amri bilan sahroga jo‘nadi va sahrodagi eng yaxshi parrandalar bilan ovqatlandi.

5.3. Naxarin hokimining yerlariga yetdi. Va Naxarin hokimining qizidan boshqa bolasi yo‘q edi.

5.4. Uning uchun uy qurdilar va derazalari yerdan yetmish lokt balandda edi.

5.5. Va Naxarin hokimi Suriyaning barcha hokimlari o‘g‘illarini chaqirib ularga aytdi.

5.6. “Kim qizimning derazasigacha sakray olsa, unga xotin bo‘ladi.

5.7. Foydasiz urinishlarda ko‘p kunlar o‘tdi. Va mana aravada yosh yigit o‘tib ketaverdi.

5.8. Va “hokimlarning o‘g‘illari o‘smirni o‘z uylariga oldilar va uni yuvintirdilar.

5.9. Va otiga ozuqa berdilar. U uchun qo‘llaridan kelgan hamma narsani qildilar, badaniga moy surtdilar, oyoqlarini bog‘ladilar, xizmatkoriga non berdilar.

5.10. Va suhbatlashib unga aytdilar: “Go‘zal yigit sen qayerdan kelding?”

5.11. U ularga aytdi: “Men Misr yeridan askarning o‘g‘liman.

5.12. Onam vafot etdi, otam boshqa xotin oldi. U meni yomon ko‘rdi, men esa undan qochdim.

5.13. Ular uni quchoqladilar va o‘pdilar. Shundan keyin ko‘p kunlar o‘tdi, u hokimlarning o‘g‘illariga aytdi:

5.14. “Sizlar nima qilasizlar?” [“...”] 3 oy oldin. O‘sha vaqt dan beri biz sakraymiz.

6.1. Kim derazagacha sakrasa, Naxarin hokimi qizini beradi.

6.2. U ularga aytdi: “agar oyoqlarim og‘rimaganida edi, sizlar bilan sakrar edim”.

6.3. Va ular har kungidek sakrashga jo‘nadilar. Yosh yigit esa uzoqdan qarab turdi.

6.4. Hokimning qizi yuzi unga o‘girildi.

6.5. Va shundan keyin u ham boshqalar bilan birga sakrashga bordi.

Yosh yigit sakradi va derazagacha sakray oldi.

6.6. Hokimning qizi uni o‘pdi va uni quchoqladi.

6.7. Va hokimga xabar berishga yubordilar.

6.8. Unga aytdilar: “Bir odam qizing derazasigacha sakradi. Hokim so‘radi: “Qaysi hokimning o‘g‘li bu...

6.9. Unga aytdilar: “Bu qandaydir askarning o‘g‘li”. U Misrdan o‘gay onasidan qochgan.

6.10. Shunda Naxarin hokimining juda jahli chiqdi.

6.11. U aytdi: “Nahot men o‘z qizimni Misrdan kelgan qochoqqa beraman? Ketaversin!” va yosh yigitga aytdilar: “Qayerdan kelgan bo‘lsang, o‘sha yerga ketaver.”

6.12. Va shunda hokimning qizi yigitni quchoqladi, xudoning nomi bilan qasam ichdi: “Xudo Ra Xoraxta abadiy. Bu yigitni mendan tortib olsalar, yemayman, ichmayman, mana shu vaqtida o‘lamana”.

6.14. Shunda u aytgan hamma gap to‘g‘risida otasiga aytishga ketdilar va u odamlarni yosh yigitni joyiga o‘ldirishga yubordi.

6.15. Lekin qizi elchilarga aytdi: “ Ra abadiy, agar uni o‘ldirsalar, quyosh botishidan so‘ng men o‘laman.

6.16. Undan keyin bir daqqa ham tirik qolmayman...”

6.17. Shunda bu to‘g‘risida otasiga aytdilar va u qizi bilan yosh yigitni olib kelishni buyurdi.

7.1. Shunda yosh yigit [...] o‘sha vaqt hokimning qizi ham

7.2. Otasiga kirdi [...] va hokim uni quchoqlab o‘pdi. Va unga aytdi: “O‘zing to‘g‘ringda gapir...

7.3. Sen menga o‘g‘il kabi... Yosh yigit hokimga aytdi: Men Misr yeridagi askarning o‘g‘li, mening onam o‘ldi.

7.4. Otam boshqa xotin oldi, u meni yomon ko‘rdi va men qochib ketdim. Hokim unga qizini xotinlikka berdi.

7.5. U unga dala va uy hamda mol, boshqa har xil boyliklar berdi. Va mana shundan keyin ko‘p kunlari o‘tdi.

7.6. Yosh yigit xotiniga aytdi: “Men uch taqdirga: timsohga, ilonga, itga o‘limga mahkumman”. Xotini unga aytdi:

7.7. “O‘z itingni o‘ldirishga buyruq ber?” U xotiniga aytdi: “Kichkinligida olgan va o‘stirgan itni o‘ldirishga buyruq bermayman”.

7.8. Shu vaqtadan boshlab xotini erini ehtirot qildi va bir o‘zi ko‘chaga chiqishiga yo‘l qo‘ymadi.

7.9. O‘s米尔 Misr yeridan kelgan o‘sha kun uning taqdiridan biri bo‘lgan timsoh yonida suvlikda bo‘ldi.

7.10. O‘sha suvda qudratli suv ruhi bor edi. U ruh timsohga suvdan chiqishga yo‘l bermadi, timsoh ruhni ketishiga yo‘l qo‘ymadi.

7.11. Quyosh ko‘tarilgan paytda ular yakkama-yakka chiqib olishdilar va bir kun emas, to‘la uch oy.

7.12. Va kunlar tugadi va o‘tdi, o‘s米尔 o‘z uyida quvonchli kunini o‘tkazish uchun turdi. Shundan keyin

7.13. tungi shamol kabi o‘s米尔 karavotga yotdi, uyqu butun jismini egalladi. Shunda

7.14. xotini bir ko‘zani to‘ldirdi [] boshqasini pivo bilan. Mana o‘z uyasida o‘s米尔ni chaqish uchun ilon surgalib chiqdi.

8.1. Xotini uning yoniga o‘tirdi, u uxmlamadi va mana [...] ilon. U ichdi, mast bo‘ldi va qornini osmonga qilib uxbab qoldi.

8.2. Shunda xotini chopqi bilan uni bo'laklarga bo'lib chopib tashlashga buyurdi. Shunda erini uyg'otdilar [...]

8.3. Xotini unga aytdi: "Qara, seni ilohing qo'lingga o'z taqdirlaringdab birini berdi. U seni kelajakda ham saqlaydi."

8.4. O'smir Raga qurbanlik keltirdi va uning qudratini har kun maqtadi. Shundan so'ng kunlar o'tdi.

8.5. O'smir [...] o'z yeriga sayr qilishga chiqdi [...]

8.6. Va iti uning orqasidan bordi. Va mana it so'zlay boshladи [...]

8.7. [...] o'smir undan qochdi va suv havzasiga yaqinlashdi.

8.8. Timsoh uni ruhi bo'lgan joyda ushlab oldi.

8.9. Timsoh unga aytdi: "Men seni ta'qib qiladigan taqdiringman. Mana, to'la uch oydan buyon

8.10. Men suv ruhi bilan jang qilaman. Endi men seni qo'yib yuboraman. [...] suv ruhini o'ldir." [...]

8.11. Shundan so'ng yer nurga to'ldi va keyingi kun kirdi, [...] keldi.

Naxarin – hozirgi Suriya hududidagi shahar:

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 47-50 сmp

Tayanch iboralar: badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, Nun, Xepra, Nundan, Shu, Tefnut, Osiris, Gor Xent-en-Merti, Isida, Set, Neftida, Nut, Ra, Soxmet, Nen-nesut, Naxarin, pivo, timsoh, ilon, o'smir, hokim o'g'illari.

2-mavzu. Old Osiyo qadimda. Gerodot

1-§. Qadimgi Bobil podsholigi

Gerodot taxminan er.avv. 485-yilda Kichik Osiyodagi Galikarnas shahrida tug'iladi. Uning otasi anchagina badavlat odam bo'lgan. Gerodot o'z vatamining siyosiy hayotida faol qatnashadi, keyinchalik qandaydir sabab bilan, ona yurtini umrbod tark etib, hayotining ko'p qismimi sayohatda o'tkazadi: Misrni, Eronni, Bobilni, Finikiyani, Qora dengizning shimoliy qirg'og'idagi Yunon koloniyalarini, Skifiyani, Yunon tuprog'idagi boshqa shaharlarni kezadi. Perikl hamda Sofokl bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Er. avv. 444-yili Italiyaning janubidagi Yunon koloniyasi Furiyaga ko'chib ketadi va 425-yilda shu yerda vafot etadi.

Gerodot o'z asarini "Tarix" deb atagan. Keyinchalik, Iskandariya olimlari bu asarni to'qqiz bobga bo'lib, har birini yunon mifologiyasidagi to'qqizta muzanining nomi bilan ataganlar. Uning kitobida Mesopotamiya to'g'risida boy ma'lumotlar mavjud.

Er. avv. XIX asrda Bobil shahri kuchayih ketdi. U savdo yo'llari kesishgan Frot daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Bobil podsholari qulay geografik o'rindan foydalanib, Mesopotamiyani Amoriylar podsho xonadoni hokimiyati ostida birlashtirdilar. Mesopotamiyani birlashtirish er. avv. XVIII asr o'rtalarida podsho Hammurapi davrida tugallandi. Amoriy sulolasining oltinchi podshosi Hammurapi mohir diplomat, kuchli siyosatchi bo'lib, qo'shni shahar davlatlarning o'zaro to'qnashuv va kelishmovchiliklaridan foydalanib ularni bo'ysundirdi. Uning davrida qonunlar to'plami ishlab chiqilib, hayotga joriy qilindi.

195 ... Bobilliklarda kiyim mana bunday, (badaniga) bobillik oyog'igacha kanop xiton (ko'ylak) kiyadi. Keyin uning ustiga yana yupqa oq xilamida. Ularda poyafzal (bu mamlakatda) umum qabul qilgan Beotiya etigiga o'xshash. Bobillliklar uzun soqol qo'yib, boshlariga salsa o'raydilar va butun badaniga mirra (xushbo'y mcy)

surtadilar. Har qanday bobilliklarda muhrli uzuk va mohirona ishlangan hassa bor. Har bir hassada olma, atirgul, nilufar, burgut yoki shunga o'xhash biror nima bor.

197 ...Bobilliklarda yana bir juda aqlli odat bor. Qandaydir bir kasallikdan azob chekadiganni ular bozorga ko'tarib chiqadilar, (chunki ularda tabib yo'q). O'tkinchilar bemorga uning kasalligi to'g'risida maslahat beradilar (agar ulardan kimdir yoki o'zi shunday dard bilan og'igan bo'lsa yoki uni boshqada ko'rgan bo'lsa) kasal odam oldidan jim o'tish ularda taqiqlangan: uning kasali nima deb har kim so'rashi lozim.

200 ...Bobilliklarda shunday odat bor. Ularning ichida yemishi faqat baliq bo'lgan uch qabila bor. Tutilgan baliqni ular quyoshda qoqlaydilar va keyin shunday qiladilar: baliqni havonchaga tashlaydilar va og'ir dasta bilan maydalaydilar, keyin esa dokadan qilingan g'alvirdan o'tkazadilar. Keyin bu xamirdan istasalar ho'l xamir qoradilar yoki non yopadilar.

-
1. *Bobil – Bab- Ali xudo darvozasi*
 2. *Oq xilamida – chakmonga o'xhash*

Историки античности М., 1981. Геродот история. Книга первая 111-112, 114 стр.

Gerodot Bobil to'g'risida

194 ...Pastdan daryo bo'yicha Bobilga suzadigan kemalar mutlaqo dumaloq va to'laligicha teridan qilingan. Osuriyadan yuqorida Armanistonda bobilliklar kemani osti uchun toldan xivich kesadilar, [polni] tashqi tomoni kemaning [aylana] tagiga o'xshatib qalin terilar bilan tortadilar. Ular kemaning burun qismini kengaytirmaydi va burnini o'tkir qilmaydi, lekin kemani qalqon kabi dumaloq qiladi. Keyin kemani somon bilan to'ldiradilar va yuk ortib oqimi bo'yicha suzishga qo'yib yuboradilar. Ular pastdan daryo bo'yicha asosan Finikiya vinosi bilan loy xumlarni tashiydilar. Kemani ikki boshqaruv eshkakchi yordami bilan ikki kishi boshqaradi. Ulardan biri kemani eshkak bilan o'ziga tortadi, boshqasi itaradi. Bunday kemalarni katta va kichikroq hajmda quradilar. Eng kattalariga 5000 talant2 yuk sig'diradilar. Har bir kemada

tirik eshak, kattalarida bir necha [eshak] turadi. Bobilga kelishi bilan savdogarlar o‘z tovarlarini sotadilar, keyin esa ommaviy bozorda kema [to‘qilgan] tagi va somonning hammasini sotadilar. Keyin esa terilarni eshaklarga ortib, Armanistonga qaytadilar. Daryoning yuqorisi bo‘yicha oqimni tezligi sababli suzish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun kema yog‘ochdan emas, terilardan quriladi.

Kemani – yukni o‘rash uchun

2 5000 talant -1,5 tonna.

Историки Античности Том первый. Древняя Греция М. 1989 111-112смр.

Podsho Xammurapi qonunlari

Xammurapi (er. avv. 1792-1750 yillar) amoriylar sulolasining oltinchi podshosi. Uning qonunlari 1901-yilda fransuz arxeologlari tomonidan Elam poytaxti Suzada topilgan. Parijdagi Luvr muzeyida saqlanadi. Qonunlar qora bazalt toshiga o‘yib yozilgan va Bobildan elamliliklar tomonidan o‘lja qilib, er. avv. XII asrda Suzaga olib ketilgan. Qonunlar to‘plami 287 moddadan iborat, lekin ustunda 247 modda saqlanib qolgan, 35 modda ko‘rinishidan Elam podshosi buyrug‘i bilan yo‘q qilingan.

Qolgan moddalar keyinchalik Nineviyada Osuriya podshosi Ashshurbanipal³ kutubxonasidan topilgan. Mixxat matn uch qism: kirish, qonunlar va xulosadan iborat. Birinchi va oxirgi qismlarda Hammurapi o‘zini va o‘z boshqaruvini tavsiflaydi, “kuchli zaifni ezmasligi, yetim va bevagaadolat qilish uchun” qonunlar to‘plami tuzilganini ta‘kidlaydi. Ustuning yuqori qismida Xammurapi quyosh vaadolat xudosi Shamash oldida tiz cho‘kkан holda duo qilib turgani va xudo qonunlarni berayotgani tasvirlangan.

Men Xammurapi, cho‘pon... boylik va mo‘l-ko‘lchilik homiysi. Dunyoning to‘rt tomonini yengan... Aqli podsho, Shamashga bo‘ysunuvchi, qudratli... Mamlakat himoyachisi... podsholar ichida ajdar... Dushmanlar (uchun) tuzoq... Aso va tojga loyiq hukmdor... Harakatchan, komil... Podsholar ichida birinchi, Frot (bo‘yicha) qishloqlarni bo‘ysundirgan. Men g‘amxo‘r, ulug‘ xudolarga

bo'ysunuvchi... Mardukl meni odamlarga adolatli boshchilik qilish uchun va baxt berish uchun yuborganda, mamlakatga haqiqat va adolat berdim va odamlarning ahvolini yaxshiladim.

Xulosa

Men Hammurapi haqiqiy... Men-podsho, podsholar ichida buyuk, so'zlarim a'llo, donoligimning tengi yo'q. Men – Xammurapi, adolat podshosi, menga Shamash haqiqatni tuhfa qildi! Mening so'zlarim a'llo, qudratimning tengi yo'q!

Marduk -Bobilning bosh xudosи

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 58 сmp.

Xo'jalik

7-§. Agar bir odam, odam o'g'li qo'lidan yoki qulning qo'lidan guvohlarsiz va shartnomasiz odamni sotib olsa, yoki kumush yoki oltin yoki qulni yoki qul ayolni, yoki xachirni yoki qo'yni, yoki eshakni saqlashga olsa nima bo'lsa ham, (bu) odam o'g'ri, uni o'ldirish kerak.

53-§. Agar odam o'z dalasi to'g'onini mustahkamlashda dangasalik qilsa va (oqibatda u) mustahkamlanmagan to'g'ondan suv urib ketsa, ishlov berilgan yerni (jamoa) suv bosib ketsa, to'g'onidan suv urib ketgan odam u nobud qilgan g'allani to'lashi kerak.

54-§. Agar u g'allani bera olmasa, ko'chadigan mulkini kumushga berishi kerak va bu kumushni, g'allasini suv olib ketgan jamoa yeriga ishlov bergenlar, o'zaro bo'lib olishlari kerak.

59-§. Bir odam agar boshqa odamning bog'ida, bog' xo'jayini (ruxsatisiz) daraxtni chopsa, shunda u 112 mina² kumush berishi kerak.

229-§. Agar quruvchi odamga uy qurib, o'z ishini mustahkam qilmasa, u qurgan uy yiqilib, uy xo'jayini o'limiga olib kelsa, bu quruvchini o'ldirish lozim.

235-§. Agar kemasoz odamga kema qurib, o'z ishini ishonchksiz qilsa, bu kemadan o'sha yoldayoq suv oqsa (?) (boshqa) kamchilik bo'lsa (shunda) kemasoz bu kemani buzishi kerak, o'z hisobidan kemani mustahkam qurib kema egasiga berishi kerak.

Qarzdorlar ahvoli

Xammurapi davrida Bobil podsholigida qarzi uchun qul qilish kuchayadi. dehqonlar, hunarmandlar Qarzi uchun qaramlikka duchor bo'ldilar. Ular sudxo'rlar; katta yer egalaridan g'allani qarzga olib, foizi bilan qaytarishlari zarur edi. G'alla qarzi uchun 30 % pul qarzi uchun 20 % yillik ustama to'lashlari kerak edi. O'z muddatida qarzini to'lamagan odam qarz beruvchining qarzdoriga aylanar edi yoki unga o'z oilasi a'zosini qaramlikka beradi. Xammurapi ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun qarz beruvchilarning faoliyatini chekladi.

Qarz beruvchilar quyidagilarga majbur edi: 1. Qarzdordan pul qarzi to'lovi sifatida g'alla olishlari kerak edi, lekin qarzdorning omboridan yoki xirmonidan uni ruxsatsiz, o'zboshimchalik bilan g'allani olish huquqiga ega emas edilar; 2. Uch yil tugashi bilan to'rtinchi yilga garovga olinganlarni ozodlikka chiqarishlari kerak edi; 3. Uch yil davomida garovga olingan odam bilan yomon muomalala qilish taqiqlangan edi. Garovga olingan kaltaklashdan yoki yomon muomaladan o'lib qolsa, qasos tamoyiliga binoan qarz beruvchining oila a'zosini⁴ qatl qilar edilar. Bu choralar bilan Xammurapi jamiyat barqarorligini ta'minlashga urindi.

115-§. Agar odam odamga g'alla yoki kumush bilan (qarzi) bo'lsa va uni garovga olib ushlab tursa, garovga olganning uyida o'z ajali bilan o'lsa, bu da'vo uchun asos emas.

116-§. Agar garovga olingan garov olganning uyida kaltaklashdan yoki yomon muomaladan o'lsa, garovga olinganning egasi o'z tamkarini⁴ fosh qilishi kerak, (garovga olingan) kishining o'g'li uning o'g'lini o'ldirishi kerak, agar u odamning quli bo'lsa u 113 mina kumush berishi kerak, hamda unga berilgan (qarz) ni barchasining yo'qotadi.

117-§. Agar odamning qarzi bo'lsa va kumush yoki qarz majburiyatini uchun o'z xotini, o'g'li yoki qizini bersa, ular yoki qarz beruvchining uyida 3 yil xizmat qilishi kerak: to'rtinchi yil ularni ozodlikka chiqarishi kerak.

118-§. Agar u qarz majburiyatiga qul yoki qul ayolni bersa⁵ boshqaga uzatishi mumkin, (uni yoki qul ayolni) kumushga berishi mumkin: (u yoki qul ayol) sud tartibida talab qilinishi mumkin emas.

Qulchilik

Quyida keltirilgan moddalarga ko'ra qullar harbiy asirlar edi. Ba'zida sud hukm qilgan odam ham qulga aylanar edi. Qul to'la o'z xo'jayini ixtiyorida edi. Qulni sotish, merosga berish mumkin edi. Qulni jazolab o'ldirmas, mayib qilmas edilar. Ularni jazolash uchun qulog'ini kesar edilar, bu qulning mehnat qobiliyati yo'qolishiga olib kelmas edi. Qochoq qulni tutib olib o'ldirar edilar, uni yashirgan ham shu jazoga tortilardi.

16-§. Agar odam o'z uyida saroyga yoki mushkenum6ga qochoq qul yoki qul ayolni yashirsa va jarchini qichqirig'iga (ularni) olib chiqmasa, shunda bu uy egasini o'ldirish lozim.

231-§. Agarda u uy egasining qulini o'ldirsa, u uy egasiga qul o'rniqa qul berishi kerak.

282-§. Agar qul o'z xo'jayiniga: "Sen mening xo'jayinim emassan" deb aytsa, (u) o'z quli sifatida uni fosh qilishi va keyin xo'jayin uning qulog'ini kesishi mumkin.

1. *O'g'li – Bobil podsholigining to'la huquqli fuqarosi.*

2. *Mina – 500 gramm og'irlikdagi pul.*

3. *Oila a'zosini – Qizi, o'g'li, xotinini.*

4. *Tamkarini - Podsho xizmatidagi yirik savdogar Shu bilan birga u sudxo'r va qarz beruvchi*

5. *Qul ayolni bersa - shunda tamkar uni yoki ayolni.*

6. *Mushkenum – erkin, lekin to'la huquqli bo'limgan odam.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 58-60 cmp.

Tayanch iboralar: Eron, qonunlar: Bobil, Bab-Ali – xudo darvozasi, Mesopotamiya, Xammurapi, Amoriylar, Frot, Nin, Dajla, Demetra, Sezam, Suza, Luvr, Xammurapi qonunlari, Nineviya, Ashurbanipal, Mixxat, Shamash, Marduk, mina, qul, mushkenum.

Gerodot. Bobilning forslar tomonidan ishg'ol qilinishi (er.avv. 539- yil)

1. 190. ...Yana bahor kirganda, podsho Bobilga yurish qildi. Bobilliklar shahardan qo'shin bilan chiqib, Kayxusravni kutdilar. Podsho shaharga yaqinlashganda bobilliklar jangga tashlandilar, lekin

yengilib shaharga siqib qo'yildilar. Bobilliklarga Kayxusravning endi tinch o'tirmasligini ilgaridan ma'lum edi. Ular fors podshosi birin-ketin xalqlarga hujum qilganini ko'rgan edilar. Shuning uchun ular oziq-ovqatni uzoq yillarga g'amlab, qamalga hech qanday e'tibor bermadilar. Shuningdek, Kayxusrav qiyin ahvolga tushib qoldi, chunki ko'p vaqt o'tsa ham ish (qamal) hech qanday oldinga siljimadi. Axiyri kimdir qiyinchilikda maslahat berdimi yoki Kirning o'zi anglab etdimi, Kayxusrav nima qilishni tushundi. Mana shunday qildi, u shaharga daryo kiradigan joyga o'z qo'shinining bir qismini, boshqa qismini uning quyi oqimi bo'yicha shaharga chiqadigan joyga qo'ydi. Keyin u jangchilarga o'zan qachon o'tishga yaroqli bo'lsa, bu o'zan bo'yicha shaharga kirishga ... buyruq berdi. Fors podshosi kanal yordamida daryoning botqoq bo'lgan ... ko'liga burdi. Shunday qilib, eski o'zan o'tadigan bo'ldi ... Shunday qilib, Bobil birinchi bor olindi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М. 1991. 74-75 срп

2-§. Ikki daryo oralig'i madaniyati Adabiyot

Mesopotamiyaning qadimgi xalqlaridan bizgacha turli adabiy janrlardagi asarlar (afsonalar, rivoyatlar, madhiyalar, ertaklar, dos-tonlar, lirk qo'shiqlar, dialoglar, maruzalar, nasihatnomalar, masallar, maqollar va boshqalar) yetib kelgan. Birinchi adabiy matnlar er. avv. III mingyillikda Shumer tilida, er. avv. II mingyillikning I yarmida Akkad-Bobil tillarida paydo bo'ldi.

Dunyoning paydo bo'lishi to'g'risida afsona

Dunyo qurilishi to'g'risidagi ilk afsona "Qachon tepada" ("Enuma Elish") nomi bilan ataladi. U Osuriyaning mashhur podshosi Ashshurbanipalning kutubxonasida parchalar ko'rinishida topildi. Hozirgi vaqtida afsona mazmuni Osuriyaning qadimgi poytaxti Ashshur shahridagi qazishmalarda topilgan loy taxtachalar asosida to'la qayta tiklangan. Shuningdek, ularning har biriga dunyo qurilishining yetti bosqichlaridan biri to'g'ri keladi. Bu afsonaning

alohida qismlari Shumer davrida yoq yaratilgan edi. Bizgacha yetib kelgan afsona matni Xammurapi davrida tuzilgan. Bobil kohinlari Bobil shahri xudosi Mardukni koinotni yaratuvchisi deb bildilar.

Yuqorida hali osmon nomlanmagan va pastda yer o‘z nomiga ega bo‘limgan vaqtida, boshda Aju barchani paydo qilgan. Mummu va Tiamat birgalikda suvlarini aralashtirganlarida, hali daraxtlar shakllanmagan edi, qamish ko‘rimagan edi, hali xudolardan birortasi paydo bo‘limgan edi, hali ismlar aytilmagan edi, taqdir aniqlanmagan edi, o‘shanda xudolar osmonlar o‘rtasida yaratilmagan edi...

Ular unga ulug‘vor ziyoratgoh qurdilar va u o‘z otalari oldida hukmronlikni boshladi. “Senga ulug‘ xudolar orasida e’tiqod qilinadi qur’angning tengi yo‘q, sening so‘zing-Anu endilikda sening hukming qaytarilmas, ulug‘lash va tahqirlash sening qo‘lingda bo‘lsin. Seni so‘zlarining to‘g‘ri, buyruqlaring yolg‘on emas, xudolar birortasi ham seni chegarangni bosib o‘tmaydi... O Marduk, sen bizni qasoskorimiz, butun dunyo ustidan podsholikni senga beramiz. Yig‘ilishda o‘tirsang-sening so‘zing ulug‘vor, sening qiliching yengilmas, ha u dushmanlaringni yo‘q qilsin. O, hukmdor, kim senga e’tiqod qilsa, uni hayotini qutqar, yovuzlik qilganning esa ruhini yo‘q qil.” Ular o‘z o‘rtalariga kiyimni qo‘ydilar va birinchi o‘g‘il Mardukka aytdilar: “Sening qur’ang hukmdor barcha xudolardan oldinda. O‘lim va tug‘ilishga hukm qil, ha, amalga oshsin! Og‘zingni och, ha kiyim g‘oyib bo‘lsin, yana buyur-ha butunligicha paydo bo‘ldi!” U og‘zi bilan buyurdi-kiyim yo‘q bo‘ldi, u yana buyurdi- kiyim paydo bo‘ldi. Uning otalari xudolar, faqatgina uni og‘zidan chiqqan hukmnинг harakatini ko‘rib xursand bo‘ldilar va maqtadilar: Faqat Marduk-podsho! Ular unga aso, taxt va hukmronlikni topshirdilar va unga dushmanlarni yengish uchun yengilmas qurol berdilar. “Bor sen Tiamatning hayotini ol, shamol uning qonini yashirin joyga olib ketsin”. Uning otalari xudolar unga Enlilning⁴ taqdirini belgiladilar, uni omadli va qulay yo‘lga yubordilar. U o‘z kamonini yasadi, qurolni tanladi, o‘qni ko‘tardi, kamon ipiga qo‘ydi. u nayzani ko‘tardi va uni o‘ngga qo‘ydi. kamon va sadoqni biqiniga osdi. O‘z oldiga chaqmoqni qo‘yib, o‘z tanasini yonayotgan olov bilan to‘ldirdi; u Tiamatni o‘rab olish uchun to‘r tayyorladi, janub va shimolga, sharq va g‘arbda hech narsa chiqib ketmasligi uchun

4 shamolga uni ushslashga buyruq berdi. Biqinidan u otasi Anuning sovg‘asi to‘rni yaqinlashtirdi. U yovuz shamol, bo‘ron, jalani yaratdi. To‘rt shamol yetti shamol, bo‘ronli shamol, tengi yo‘q shamol va u yaratgan yetti shamolni Tiamatni esankiratish uchun qo‘yib yubordi. Ular uning orqasidan bordilar. Hukmdor o‘zining buyuk quroli To‘fonni ko‘tardi, u yengilmas, qo‘rqinchli shamol aravaga chiqdi. U jilovladi va “Halok etuvchi, shafqatsiz, cho‘ktiruvchi, uchib yuruvchi aravani qo‘shdi... U dahshat kiyimiga o‘rangan va uni boshi halokatli yorqinlik bilan belangan. U yo‘lga tushdi, so‘qmoq bo‘yicha yugurib ketdi, g‘azablangan Tiamat unga yuzini qaratdi. Uning otalari xudolar unga qaradilar, xudolar unga boqdilar.

Hukmron yaqinlashdi va Tiamatning bag‘rini ko‘ra boshladи. U uning tur mush o‘rtog‘i Kinga to‘ng‘illaganini eshitdi: u‘ qaradi: uning (Kinga) qarashi xiralashdi. (...faqat) Tiamat bo‘ynini burmadi. Ochiq og‘zi bilan noroziligini sochdi. To‘fon hukmdori o‘zining ulug‘ qurolini ko‘tardi, quturgan Tiamatga (aytishga) yubordi: “Tur! Ha, biz jang uyushtiramiz”. Tiamat buni eshitib, aqlini yo‘qotdi. Tiamat dahshatli va baland guldiradi, oyoqlari tovonigacha qaltiradi, u afsun qaytarib-qarg‘ish tashladi. Urush xudolari esa qurol qayradilar. Tiamat va xudolardan eng donosi Marduk to‘qnashdilar. Ular jangga tushdilar, urushish uchun yaqinlashdilar. Hukmdor o‘z to‘rini yeidi va uni o‘radi, orqada turgan dovulni u oldinga qo‘yordi. Tiamat uni yutib yuborish uchun og‘zini ochdi, Marduk unga shamol yubordi, u og‘zini yopa olmadi; shiddatli shamol uning jismini to‘ldirdi. Uning yuragi ushlab qolgan edi, og‘zi lang ochilgan edi. U o‘q uzdi va uning jismiga sanchdi, uni yengdi, uni halok qildi. U jasadni tashladi va uning ustidan bosdi... Xudolar esa uning yordamchilari tomonida yuradiganlar titradilar, qo‘rqdilar va orqaga qayrildilar, hayotlarini qutqarish uchun ketishga urindilar. Lekin o‘ralib qolgan edilar va qocha olmadilar...

Yengan Tiamatga u orqaga qaytdi, xudo Tiamatning oyog‘ini bosdi, shafqatsiz qilichi bilan u (uning) boshini majaqladi va uning qon tomirlarini kesdi. U shimol shamolini uning qonlarini maxfiy joyga olib ketishga majbur qildi...

Uning otalari buni ko‘rib boshlari ko‘kka yetdi va juda xursand bo‘ldilar va unga sovg‘alar va tortiqlar keltirdilar. Xudo dam ola turib,

uning jasadini ko'zdan kechirdi. Maxluqning jasadini chig'anoqqa o'xshatib, ikki pallaga ajratdi. Uning (bir) pallasini qo'yib osmonni to'shadi, u zanjirlarni tortdi va qo'riqchi qo'ydi, suvlarini chiqarmaslikni unga topshirdi. U osmonni aylanib chiqdi, barcha joylarni ko'rdi, girdob ichidan Nidimmud6ning turar joyiga o'tdi, xudo okeanni va E-sharruni tuzilishini o'rgandi, unga⁷ o'xhash qasr qurdi u. Osmonda bunyod qilgan E-sharru qasriga u Anuni; Enlil va Eani o'z shaharlariga yashash uchun joylashtirdi. U buyuk xudolarga manzilgohlar yaratdi va zodiak yulduzlar turkumiga o'xhash yoritgichlarni joylashtirdi. U yilni belgiladi, uni qismlarga bo'ldi, o'n ikki oyni uch yulduz bo'yicha belgiladi. Shundan keyin, u kunlarning qiyofasini chizdi, hech kim adashmasligi uchun, xato qilmaslik uchun, ularning joylashgan joyini aniqlash uchun u Nibir⁸ manzilgohiga asos soldi. U Enlil va Ea manzilgohlarini bunyod qildi, ikki tomondan u darvozalar ochdi, chapdan va o'ngdan u qulflarni mustahkamladi va uning bag'rida osmonni kuzatuvchi tepasidagi eng baland nuqtasini joylashtirdi. U oyni yoritishga majbur qildi, unga tunni ishondi, kunni bilish uchun u bilan kechani belgiladi, Marduk xudolarning so'zini eshitdi, (shunda) uni qalbi undadi, u dono reja yaratdi. U so'zga og'iz ochdi va Ea aytdi: "Men qon tuflayman va suyaklarni olaman, odamni yarataman⁹- odam (?), odamni yarataman¹⁰, yashash uchun. U xudolarga xizmat qilsin, ular esa¹¹..."

- 1. Tiamat – dastlabki suv xaosi xudolari.*
- 2. Unga – Mardukga.*
- 3. Ami – Osmon xudosisi.*
- 4. Enlil – boshda havo xudosisi, keyinroq yer xudosisi.*
- 5. U – Marduk.*
- 6. Nidimmud – suv xudosisi Eani nomlaridan biri*
- 7. Unga – okeanga.*
- 8. Nibir – Marduk.*
- 9. Yarataman – uning nomi.*
- 10. Yarataman – u yerda.*
- 11. Ular esa – dam olsinlar.*

“Dunyo to‘foni” to‘g‘risidagi afsona

Gilgamesh¹ to‘g‘risidagi Akkad² afsonasi Mesopotamiya afsonalarining eng ajoyiblaridan biri. Gilgamesh to‘g‘risidagi ilk qo‘shiqlar er.avv. III mingyllikda paydo bo‘ldi. Topilgan afsonalur shumer, akkad, xurrit, xett tillarida mixxatda yozilgan. Dostonda Gilgameshning qahramonliklari to‘g‘risida hikoya qilinadi. Gilgamesh do‘sti Enkidu o‘limidan so‘ng, o‘z xalqi uchun abadiy yoshlik gulini topish maqsadida uzoq izlanishlurdan so‘ng, to‘fondan qutilib, xudolar irodasi bilan o‘z xotini bilan abadiy hayotni olgan Ut-napishtim bilan uchrashadi, topgan gulini cho‘milayotgan paytda ilon tortib ketadi. Ut-napishtim to‘fon to‘g‘risida Gilgameshga hikoya qiladi. To‘fon sababi, xudolar g‘azabi deb tushintiradi. Odamlar bo‘ysunmasligidan norozi bo‘lgan xudolar yerga jala yuboradilar. Suv butun mamlakatni bosadi, xudojo ‘y Ut-napishtim va uning oilasidan boshqa hamma halok bo‘ladi.

To‘fon to‘g‘risidagi Mesopotamiya afsonasi suv toshqini mumkin bo‘lgan tabiiy sharoitlarda paydo bo‘ldi. Daryolarning toshqini natijasida ko‘p dalalar suv ostida qoldi. Toshqinlar o‘sha davr odamlari uchun butun dunyoni suv bosganday tuyuldi. Afsona haqiqiy suv toshqini bo‘lgan joy to‘g‘risida hikoya qiladi. Ikki daryo oralig‘i jamubidagi Ur shahrini qazib ochgan ingliz arxeologi Leonard Vulli suv toshqini haqiqatda bo‘lgan joyni isbotlab berdi. U er.avv. III mingyllik boshlaridagi podshoning hashamatli dafnlari ostida madaniy qoldiqlarsiz, sopol parchalari bilan 2,5 metrdan 3,5 metrgacha loyqa qatlamini topdi. “Toza” qatlam “to‘fon” toshqini qoldiqlaridir. Toshqin butun dunyoni suv bosishi emas, Janubiy Mesopotamiyanı suv ostiga goldirgan toshqin edi xolos. To‘fon to‘g‘risidagi afsona boshqa xalqlarda ham, misol uchun, Hindiston, va Xitoyda ham mavjud.

1. Gilgamesh to‘g‘risidagi afsona – er. avv. II ming yillik

2. Akkad – Bobil.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 63 сmp

8. Ut-napishtim unga Gilgameshga xabar beradi:

9. “Men Gilgamesh sirli so‘zni ochaman

10. Va ilohlar sirini senga hikoya qilaman

11. Shurippak, shahrini qaysiki sen bilasan,

12. Frot qirg‘og‘ ida yetgan.
13. Bu shahar qadimgi, yaqin unga ilohlar.
14. Buyuk ilohlarni ularni qalbini to‘fon qilish egalladi.
- 15-16. Ular otasi Anu, ular maslahatchisi qahramon Enlil kengashdilar,
- 17-18. Ularning chopari Ninurta², ular mirobi Ennugi
19. Nurli ko‘zli Ea ular bilan birga ta’zim qildi.
20. Lekin kulbada u ularning so‘zini aytди:
21. Kulba, kulba, devor, devor!
22. Eshit, kulba! Esda tut devor!
23. Shurrippaklik, Ubar-utu o‘g‘li,
24. Uy-joyni yo‘q qil, kema qur.
25. Mo‘l-ko‘lchilikni tark et, hayot to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qil.
26. Boylikdan nafratlan, qalbingni qutqar,
27. O‘z kemangga barcha tiriklarni ort.
28. Sen quradigan o‘sha kema.
29. Tasviridan bo‘ladi to‘rtburchakli,
30. Kengligi uzunligi bilan teng bo‘ladi,
31. Okean kabi uni tom bilan yop!”
32. Men tushundim va hukmdorga Eaga aytaman:
33. “O‘sha so‘zni hukmdor, sen menga aytдин,
34. Men hurmat qilishim kerak, ijro qilaman shunday barchasini.
35. Men shaharga – xalqqa va keksalarga nima deb javob beray?”
36. Ea og‘zini ochdi va so‘zladi,
37. Menga seni qulingga u aytadi:
38. “A sen ularga shunday nutq so‘zla:
39. “Men bilaman, Ellil mendan nafratlanadi,-
40. Men sizning shahringizda boshqa yashamayman,
41. Ellil tuprog‘idan oyog‘imni uzaman men.
42. Okeanga tushaman, hukmdor Eaga!
43. Sizning ustingizdan u, yomg‘irni mo‘l quyadi,
44. Qushlarning sirini, baliqlarning yashirinish joyini bilasiz,
45. Yerda, hamma joyda boy xirmon bo‘ladi,
46. Ertalab jala quyadi, tunda
47. Non yomg‘irini siz ko‘rasiz har joyda”,
48. Zo‘rg‘a tong yorishishi bilanoq.

49. Mening chaqiruvim bilan butun o'lka yig'ildi.
52. Barcha erkaklarni men chaqirdim bo'ysunishga-
53. Uylarni buzdilar, to'siqlarni yo'q qildilar.
Bola smola tashiydi,
54. Kuchli savatlarda narsa olib boradi.
55. Besh kecha-kunduzda asos qurdim:
80. Uning men nimaga ega bo'lsam barchasini ortdim,
81. Menda bo'lgan barcha kumush bilan to'ldirdim.
82. Menda bo'lgan oltin bilan to'ldirdim,
83. Menda bo'lgan barcha tirik zot bilan to'ldirdim,
84. Kemada barcha oilamni va urug'imni oldim,
85. Cho'l mollari va hayvonlarni, barcha ustalarni oldim.
86. Menga Shamash vaqtini belgiladi:
87. Ertalab jala quydi, kechasi esa
87. Non yomg'irini sen kechasi ko'rasan
88. Kemaga kir, uning eshiklarini qatron qil!
89. Belgilangan vaqt kirdi:
90. Ertalab jala quydi, kechasi esa
90. Non yomg'irini ko'rdim haqiqatda.
91. Men tabiatning yuziga qaradim-
92. Ob-havoga qarash qo'rinchli edi.
93. Men kemaga kirdim, eshiklarini smola qildim...
96. Tong yorisha boshlashi bilan,
97. osmon asosidan qora bulut turdi...
106. Nima yorug' bo'lsa-qorong'iga aylandi.
107. Butun yer yorildi, kosa kabi
108. Birinchi kun janubiy shamol quturdi,
109. Tog'larni tez bosib keldi
110. Go'yoki urushday yerga yetib
111. Biri boshqasini ko'rmaydi
112. Va osmondan odamlarni ko'rib bo'lmaydi.
113. To'fon ilohlari g'azablandilar,
114. Ko'tarildilar, Anu³ osmoniga ketdilar
127. Shamol kezadi olti kun, yetti kecha,
128. Bo'ron to'fon bilan yerni qoplaydi.

129. Yettinchi kun kirishi bilan
 129. Bo'ron to'fon bilan urushni to'xtatdilar.
 130. Go'yo qo'shin kabi jang qilganlar,
 131. Tinchlandi dengiz, jala to'xtadi-to'fon tugadi
 133. Men dengizga qaradim-sokinlik turdi.
 134. Barcha insoniyat loyga aylandi!
 135. Tom kabi yassi bo'ldi tekislik,
 136. Men tiz cho'kdim, o'tirdim va yig'ladam
 137. Yuzimdan meni ko'z yoshlari oqdi.
 138. Ochiq dengizda qirg'oqni qidira boshladim.
 139. O'n ikkinchi joyda ko'tarildi orol
 140. Nitsir tog'ida kema to'xtadi.
 141. Nitsir tog'i kemani ushladi, tebranishga qo'ymaydi.
 142. Bir kun, ikki kun Nitsir tog'i kemani ushladi, tebranishga qo'ymaydi
 143. Uch kun, to'rt kun Nitsir tog'i kemani ushladi, chayqalishga qo'ymaydi.
 144. To'rt va besh kun Nitsir tog'i kemani ushladi, chayqalishga qo'ymaydi
 145. Yettinchi kun kirganda
 146. Kaptarni olib chiqdim, qo'yib yubordim men:
 147. Kaptar ketib, orqaga qaytdi:
 148. Joy topmadi, qaytib uchib keldi.
 149. Qaldirg'ochni olib chiqib qo'yib yubordim
 150. Uchib ketib qaldirg'och orqaga qaytdi:
 151. Joy topmadi, qaytib uchib keldi.
 152. Qarg'ani olib chiqdim va qo'yib yubordim men:
 153. Qarg'a uchib ketib, suv pasayganini ko'rди,
 154. Qaytmadi, qag'illaydi, yeysi va axlat tashlaydi.

1. Ninurta - ov va urush xudosisi.

2. Miroi - sug'orish ishlari boshqaruvchisi.

3. Anu - Bobilliklar tasavvuriga ko'ra, bir nechta qattiq osmon bo'lib, ularidan biri Anu osmoni edi.

“Qaytilmaydigan mamlakat”

“Qaytilmaydigan mamlakat” nomli Bobil rivoyatida Mespotamiya aholisining yer osti podsholigi to‘g‘risidagi tasavvurlari aks ettirilgan. Ma‘buda Ishtar’ning yer osti podsholigiga tushishi rivoyat asosini tashkil qiladi.

“Qaytilmaydigan mamlakat” buyuk yerga
Sina²ning qizi Ishtar e’tiborin qaratdi.
Qorong‘ulik uyiga, Irkalla³ istiqomatgohiga
Sinning qizi yorug‘ tafakkurini qaratdi.
U yerga kiradiganga qaytish yo‘q
Yo‘ldan, u yerdan yo‘q qaytish,
Qayerda kirganlar noumid, yorug‘likni kutadi,
Qayerda ularga yemish, qayerda ularga ovqati – loy,
Qayerda yorug‘lik ko‘rmay, qorong‘ulikda yashaydilar,
Qush kabi qanotlar kiyimini kiyganlar,
Eshiklar va qulflarda chang yotadi...

-
1. Sina-oy xudosi.
 2. Ishtar -hosildorlik ma‘budasi.
 3. Irkalla- Shumerdag‘i Nersal yer osti podsholigi xudosi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 66 срп.

Inanna va uning ukasi quyosh xudosi Utu o‘rtasidagi dialog

Dialog ma‘buda Inannaning¹ to‘shagiga yopinchiq tayyorlash to‘g‘risidagi mifologik poemaning bir qismini tashkil etadi. Bu rivoyat shumerlarning to‘qimachilik faoliyati bilan tanishtiradi.

“Opa, men senga sug‘irilgan kanopni keltiraman...”

“Uka sen qachon menga sug‘irilgan kanopni keltirasan?

Kim uni men uchun taraydi...?”

“Opa men senga uni taralgan holda keltiraman.

Kim uni men uchun quritadi...?”

“Opa men senga uni quritilgan holda keltiraman...”

“Uka sen qachon uni quritilgan holda keltirasan,

Kim uni sen uchun to‘qiydi...?”

“Opa men senga uni to‘qilgan keltiraman...”

“Uka sen uni qachon to‘qilgan keltirasan,

Kim uni men uchun asos uchun tortadi...?”

“Uka sen qachon uni men uchun asosga tortilgan holda keltirasan?

Kim uni men uchun to‘qiydi...?”

“Opa men uni to‘qilgan olib kelaman...”

“Uka qachon sen bu to‘qilgan kanopni menga keltirasan,

Kim uni men uchun bo‘yaydi...?”

Opa men senga uni bo‘yalgan keltiraman

1. Inanna-Sevgi va ayollar ma‘budasi, onalik homoysi

Xo‘jayinning quli bilan hayot mazmuni to‘g‘risida suhbati

*Asar umidsizlik ruhida sug‘orilgan bo‘lib, muallif xudoga e‘tiqod,
u dunyoga umid qilish natijasizligi to‘g‘risida gapiradi.*

1-§. Podsho marhamatiga umid behuda. “Qul, mening xizmatimga tayyor bo‘l!” – “Ha, mening egam! Ha”-Menga arava va otni tayyorla. Men saroya aravada yelib bormoqchiman. “Aravaga yelishga imkon ber, mening egam, yelishga ruxsat ber! Podsho... senga xazina beradi (?). Va u seniki bo‘ladi. U ... seni kechiradi! – E qul, men saroya aravada yelib bormoqchi emasman”. Aravaga yelishga ruxsat berma, mening egam! Ruxsat berma! Seni uzoq, borib bo‘lmaydigan joylarga yuboradi. Sen bilmagan mamlakatga seni olib ketishiga buyuradi. Va kunduz va senga azob beradi”.

8-§. Xudo yordamiga umid qilish behuda. “Qul, meni xizmatimga tayyor bo‘l!”. Xo‘p, mening egam, xo‘p !”, “G‘amxo‘rlik qil!. Mening qo‘llarim uchun suv tayyorla! Uni menga ber! Men ilohimga qurbanlik keltirishni istayman” “Keltir egam! Keltir!” O‘z xudosiga qurbanlik keltirgan kishi qalbi quvonchli. “Qarz ustiga qarz qiladi u”. – “O qul! Men o‘z ilohimga qurbanlik keltirishni xohlamayman”, “Keltirma, egam! Keltirma. Sen xudoni itga o‘xshab o‘zi orqangdan yurishga o‘rgatmoqchimisan yoki talab qilmoqchimisan (Sehr bilan) yoki talab qilmasdan (ibodat bilan) yoki u sendan so‘raganni bajarish bilan?”

10-§. O'limdan keyin nukofotning behuda.

“Qul, mening xizmatimga tayyor bo‘l!”, “Xo‘p, egam, xo‘p!”- U aytdi: “O‘z mamlakatimga marhamat qilmoqchiman”. (“Shunday qil, egam! Qilgin. O‘z mamlakatiga marhamat qilgan odam Marduk qa‘rida o‘ziga muruvvat topadi, ehtimol inson taqdiri saqlanadigan joyda”). – “O qul, men o‘z mamlakatimga muruvvat ko‘rsatmoqchi emasman”, “Ko‘rsatma! Vayron bo‘lgan shaharlar tepaliklariga ko‘taril. Qadimiyatning xarobalari bo‘ylab kezgin, ilgari va keyin yashagan odamlar bosh suyagiga qara, ulardan kim yovuzlik hukmdori, kim ezungilik hukmdori bo‘lgan?”

11-§. Hayoti davomiyligiga umid behuda.

“Qul, mening xizmatimga tayyor bo‘l!” “Xo‘p egam, xo‘p!. “Endi nima yaxshi” – “Mening bo‘ynimni va sening bo‘yningni qayirib daryoga tashlash yaxshi. Kim shunday baland osmonga chiqish uchun, kim shunday ulkan “yerni to‘ldirishi uchun?” – “O qul! Men seni o‘ldirmoqchiman va seni meni oldimda yurishga majbur qilmoqchiman”. – Haqiqatan, mening egam mendan keyin “faqat 3 kun yashaydi”

Aynan: “Mening egam”. Haqiqatan mendan keyin faqat 3 kun yashaydi”.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 67-68 срп

Shamashni sharaflaydigan madhiya

Madhiya – tantanali qo‘sinq. Davlat madhiyalari, inqilobiy va diniy madhiyalar mavjud. Mesopotamiyada diniy madhiyalarni qo‘sinqchilar ibodatxonalarda yillik bayramlarda ijro etganlar. Qo‘sinqqa musiqa jo‘r bo‘lgan.

Qudratli tog‘lar nuring bilan to‘la, yorug‘ing barcha mamlakatlarni to‘ldiradi. Sen tog‘lardan qudratlisan, yerni xayol qilasan, yerning chekkalari, osmon o‘rtasida uchasan. Sen butun koinotda yashovchilar ustidan hukmronlik qilasan. Sen kim yovuzlikni o‘ylasa, shoxini sindirasan;adolatsiz sudyani sen zindonga qamaysan, kim pora olsa qatl qilasan; kim pora olmasa ezilganlarga to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilsa, Shamash marhamatli, uning kunlari davom etadi... O Shamash, senga

to‘la qo‘rquv bilan yo‘lovchi, kezib yuruvchi savdogar yoki o‘smir savdogar, oltinli hamyonni olib yuruvchi murojaat qiladi. O Shamash, senga to‘ri bilan baliqchi, ovchi, qassob, cho‘pon... sig‘inadi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 67-68 срп

Shumer mактабида о‘кувчини ахволи

Mesopotamiyada maktablar Shumer davridan ma’lum. Maktablar loy taxtachalar uyi deb atalgan. Chunki ularda o‘кувчилар loy taxtachalarda yozib, ular bo‘yicha o‘qir edilar. Loy taxtachalar uyi bitiruvchilari kotib, merralar bo‘lib ishlaganlar. Aftidan, o‘qituvchilar o‘кувчиларни qattiq nazorat qilganlar. Shumer tilida yozilgan bir taxtachada shunday o‘qiyimiz:

Taxtachalar uyida nazoratchi menga “Sen nega kechikding?” deb tanbeh berdi.

Men qo‘rqdim “Mening yuragim tez-tez dukilladi”,

O‘qituvchiga yaqin kelib yergacha ta’zim qildim.

Taxtachalar uyi otasi mening taxtachamni so‘rab oldi,
– u mendan norozi edi, meni urdi,

Keyin men dars bilan tirishdim, dars bilan qiyndim.

O‘qituvchi tartibni tekshirganda taxtachalar uyida.

Qamish kaltakli menga tanbeh berdi:

“Ko‘chada ehtiyoj bo‘lish kerak: kiyimni yirtish mumkin emas!

– va urdi meni

Taxtachalar uyi otasi oldimga ko‘chirilgan taxtachani qo‘ydi:

Sinf nazoratchisi bizga buyruq berdi: “Ko‘chirib oling”

Men taxtachani oldim qo‘limga, unga yozdim.

Lekin taxtachada men tushunmagan narsa bor edi.

Uni o‘qiy olmadim.

Shunda nazoratchi berdi menga tanbeh:

“Sen nima uchun ruxsatsiz gaplashding?”

– va urdi meni.

Kuzatuvchi aytdi:

“Nima uchun sen ta’zim qilding ruxsatsiz?”

– va urdi meni;

Tartibga qarovchi odam aytdi:
“Nima uchun turding ruxsatsiz?”

– va urdi meni;
Xizmatchi aytdi:

“Nima uchun ketding ruxsatsiz?”
– va urdi meni

Tayoqli odam aytdi:

“Nima uchun qo‘lingni ruxsatsiz ko‘tarding?”

– va urdi meni
– Kotib taqdiri jonimga tegdi?
– Kotib taqdiridan nafratlandim.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 68 сmp

Tayanch iboralar: lirik qo‘shiglar; maqollar; Enima Elish, Ashshur; Bobil, Marduk, Mummu, Tiamat, Anu, Kin, Nidimud, Anu, Enlil va Ea, Nibir; Gilgamesh, Shumer, Akkad, Xett, Enkidu, Ut-napishtim, Ishtar; Sina, Irkalla, Nersal, Inna, Utu, magiya, loy taxtachalar uyi, tartibga qarovchi.

3-§. Qadimgi Osuriya

O‘rta Osuriya qonunlari

O‘rta Osuriya qonunlari (er. avv. Il mingyllikning ikkinchi yar-
mi) qadimgi Ashshur shahri (Iroq hududi) xarobalari 1903-1914 yillar
qazishmalarida topilgan. Oila huquqiga bag ‘ishlangan jadvallar yaxshi
saqlanib qolgan. Qonunlar ko‘rinishidan Ashshur oqsoqollar kengashi
tomonidan tuzilgan. Qonunlar Osuriya ijtimoiy munosabatlari tarixi
bo‘yicha ko‘pgina qimmatli ma’lumotlar beradi. Jinoyat, fuqarolik,
oila huquqi, qarzdorlik majburiyati bo‘yicha aniq ma’lumotlar ko‘p.
Matn O‘rta Osuriya tilida yozilgan.

1. A jadvali

(1§) [Ag]arda ayol-odamning xotini [bo‘l]sa, [ag]arda odamning qizi bo‘lsa ibodatxonaga kirib ibodatxonada [muq]addas joyga [tegishli] [biror] nimani o‘g‘ir [la]sa, [va bu] uning [qo‘lida] ushlab olingen bo‘lsa, qasam bilan ayblaydilar, (shunda) –[uni] iqror qildiradilar-narsani [olishlari zarur], [keyin] xudodan so‘ra [sinlar], [ayolga nima qilish kerakligini] u buyuradi, o‘shanga qilishlari kerak.

(2§) Agar ayol – odamning xotini, odamning qizi bo‘lsa, qattiq gapirsa yoki xudoni haqoratlasa, (shunda) bu ayol o‘z jazosini olishi kerak, uning eri, uning o‘g‘illariga, qizlariga (talablar bilan) yaqinlashmasliklari lozim.

(3§) Agar odam yoki kasal, yoki o‘lgan bo‘lsa, uning xotini, uning uyida biror narsani o‘g‘irlasa va (buni) erkak yoki ayolga yoki boshqa birovga bersa, (bunday holda) odamning xotini, hamda o‘g‘irlikni qabul qilgan o‘ldirilishi kerak.

Agar, er tirik ayol erining uyidan (biror nimani) o‘g‘irladi (va) (buni) erkak yoki xotinga, yoki boshqa biror kishiga bersa. (shunda) odam o‘z xotinini qasam bilan ayblashi va (unga) jazo berishi mumkin, xotin qo‘lidan (o‘g‘irlikni) qabul qilgan, o‘g‘irlikni qaytarib berishi lozim, odam xotiniga bergen jazoga mos (jazoni) (o‘g‘irlikni) qabul qilganga berishi lozim.

(4§) Agar qul yoki cho‘ri odamning xotini qo‘lidan biror nimani olgan bo‘lsa, (shunda) qul va cho‘rining burni va qulog‘ini kesish lozim, (va) o‘g‘irlikni yoki to‘ldirish lozim: odam o‘z xotinining qulog‘ini kesishi lozim.

Agar u o‘z xotinini ozod qilgan bo‘lsa va qulog‘ini kesmagan bo‘lsa, shunda qul va cho‘rini ham kesmaslik lozim, (va) o‘g‘irlanganni ular to‘ldirishga majbur emaslar.

(5§) Agar odamning xotini boshqa odam uyidan qiymati besh mina qo‘rg‘oshindan oshadigan biror nimani o‘g‘irlasa, shunda o‘g‘irlangan narsa egasi qasam ichib aytib “Agar men unga (buni) olishga ruxsat bergen bo‘lsam, menga la‘natlar bo‘lsin”, deb Uyimda o‘g‘irlik (sodir bo‘ldi)” deyishi kerak. Agar uni eri xoxlasa, u o‘g‘irlangan narsani berishi va uni sotib olishi mumkin, (hamda) uning qulog‘ini kesishi mumkin. Agar eri uni sotib olishni istamasa (shunda) o‘g‘irlik narsa egasi uni olishi¹ va burnini kesishi mumkin.

(6§) Agar xotin (uy)dan tashqarida garovga qo‘ysa, (shunda) (garovni) qabul qilgan o‘g‘irlik uchun majburiyatni o‘tashga majbur.

(7§) Agar ayol² erkakka qo‘lini ko‘tarsa va uni qasam bilan (bunda) ayblasalar, (shunda) u o‘ttiz mina to‘lashi va unga 20 marta qamchi urishlari lozim.

(27§) Agar ayol faqat otasi uyida yashasa, uning eri (unga) doim

kelib tursa, (shunda) unga eri bergen nikoh sovg‘alarini uning eri o‘g‘illari olishi mumkin; agar erining o‘g‘illari bo‘lmasa, (unda) faqat o‘zi olishi mumkin. Erining o‘zi qaytarib olishi mumkin, (lekin) otasini uyiga tegishliga (da‘volar bilan) u yaqinlashmasligi lozim.

(28§) [Ag]jar beva odam uyiga kirsa va o‘zi bilan kichkina (?) o‘g‘lini olib kelsa (va) u bilan birga yashovchisi³ uyida ulg‘aysa, lekin uni o‘g‘il qilib olish to‘g‘risida hujjat yozilmagan bo‘lsa (shunda) u o‘gay otasi uyida (meros) ulushi olishi mumkin emas va u qarzlar uchun ma’suliyatga majbur emas, u o‘ziga tegishli (meros) ulushini o‘z ota-onasi uyida olishi mumkin.

(29§) Agar ayol o‘z erining uyiga kelganda, uning sepi va o‘z otasining uyidan olib kelgan hamma narsa hamda u kelganda qaynota bergen narsalar uning o‘g‘illari uchun davolardan holi. Agar eri, uni sig‘dirmasa⁴, ko‘ngliga yaqin bo‘lgan oqillariga berishi mumkin.

(30§) Agar ota o‘g‘lining qaynotasini uyiga to‘lov olib kelsa yoki yuborsa, (lekin) ayol hali o‘g‘liga berilmagan bo‘lsa, boshqa o‘g‘lini xotini o‘z otasi uyiga yashab turgan bo‘lsa, o‘g‘li vafot etgan bo‘lsa, u o‘lgan o‘g‘lining xotinini boshqa o‘g‘liga birga yashovchi sifatida berishi mumkin, qaysiki uning uchun qaynotasini uyiga to‘lov jo‘natgan.

1. Uni olishi - ko‘rinishidan jazoga ko‘ra qullikka olishi mumkin.

2. Ayol - Osuriya qonunlarida ozod ayol ko‘zda tutiladi.

3. Birga yashovchi - beva yoki ikkinchi xotin bilan nikoh ma‘nosida.

4. Sig‘dirmasa - shunda u (buni).

Хрестоматия по истории древнего востока. М., 1991. 249 сmp

Salmanasar III annallaridan

Salmanasar III (er. avv. XI asrning o‘rtalarida podsholik qilgan) annallaridan olingan bu parchada uning Damashq podshosi Gazaelga qarshi harbiy yurishi batatsil yoritiladi.

Hukmronligimning 18-yilida o‘n oltinchi marta Frotdan o‘tdim. Damashqdan Gazael o‘zining ko‘p sonli askarlariga ishondi va ko‘p qo‘sishini chaqirdi. Livan qarshisidagi Sanir tog‘i, tog‘ qoyasini o‘z qal‘asiga aylantirdi. Men unga qarshi jang qildim va unga zarba berdim. Askarlarini qurol bilan yanchdim. 1121 jang aravasini, 470 ottiqlarini

lageri bilan bosib oldim. O'z hayotini qutqarish uchun u [toqqa] ko'tarildi, ortidan men Damashqqa, uning poytaxtiga yurdim, men uni qamadim. Men Xaurani tog'igacha bordim. Son-sanoqsiz shaharlarni vayron qildim, yengdim, olov bilan yoqdim. Ularning o'ljasini hisobsiz taladim. Balirasi tog'igacha, dengiz boshlanadigan yerigacha bordim. U yerda podsholik haykalimni o'rnatdim. O'sha vaqtida men tirliliklardan, sidonliklardan va legu (Isroil podshosi) Omri o'g'lidan o'lpox qabul qildim.

Хрестоматия по истории древнего востока. М., 1991. 220 сmp.

Qarqar yonidagi jang (er.avv 853 yil)

Britaniya muzevida saqlanayotgan monolit toshdagi yozuv. Salamanasar III hukmronligining birinchi yetti yilligi annallarini o'zida aks ettirgan. Monolit Diyorbakirdan janubdagisi Kurxe degan joydan topilgan.

Dayan-Ashshur eponimatining 14-ayyarida Nineviyadan jo'nab ketdim, (bobil-osur kalendar) Frot daryosidan o'tdim va Babil daryosi[dagi] Giammu shaharlariga yaqinlashdim. Ular meni hukmronligim (va) mening qudratli qurolimni yarqirashi vahimasidan qo'rqdilar (va) o'z shaxsiy qurollari bilan Giammuni, xojalarini o'ldirdilar. Men Kitlala va Til-shamaraxi shaharlariga kirdim, ma'bdularimni saroylariga olib kirishni buyurdim (va) saroylarida bayram uyushtirdim. Men xazinani ochdim, xazinalarini ko'rdim, mulkini (va) boyligini bosib oldim va shahrim Ashshurga jo'natdim.

Men Kitlala shahridan jo'nadim va Kar-Salamanasar shahariga yaqinlashdim. Ko'p sonli charm qayiqlarda men ikkinchi bor! Frot daryosini suvi to'laligida kechib o'tdim. Ashshur-Utir-Asbat shahrida Frotning narigi qirg'og'ida Sagur daryosida (joylashgan) va xett mamlakati odamlari Pitru deb ataydilar, men Frotning u qirg'og'idagi podsholardan Sangara karxemishlik, Kundashpi kummuxlik, Arama Gusi o'g'li, Lalli milidlik, Xayani, Gabara o'g'li, Kalparuda xattinlik, Kalparuda gurgumlik: kumush, oltin, qo'rg'oshin, jez, jez qozonlar xiroj qabul qildim.

Men Frotdan jo'nadim (va) Xalmanga yaqinlashdim, ular xalmanliklar jangimdan qo'rqdilar va oyog'imni quchoqladilar. Men

ularning o'lponlarini kumush (va) oltinda qabul qildim va Xalmanliklar Adad oldiga qurbanliklar keltirdim.

Men Xalmandan jo'nadam va xamatlik Irxulenining ikki shahriga – Adinn va Bargaga yaqinlashdim. Men podsholik shahri Arganani istilo qildim, o'ljasini, boyligi va saroy ashyolarini olib chiqishga buyruq berdim va uning saroyiga o't qo'ydim.

Men Argana shahridan jo'nadam (va) Qarqaraga yaqinlashdim. Qarqarani, uning² podsholik saroyini vayron qildim, yengdim (va) yoqdim. 1200 jang aravalari, 1200 otliqlarni, Damashqdan Daddairining 20000 jangchilarini, xamitlik Irxulenining 10000 askarlari, isroillik Axavaning 2000 jang aravasi, 10000 askari, Kuedan 500 askar, misraylilar mamlakatidan 1000 askar, Irkanatidan 10 jang aravasi, 10000 askar arvadlik Matinuba'alaning 200 askari. Usanatadan 200 askar, shianlik Adunuba'aqlaning 30 jang aravasi, 10000 askari, Gindibuarabning 1000 ta tuyasi: Amoniylik Ruxuba o'g'li Basining 1000 (askari?) bu o'n ikki podsholarni³ u (Irxulening) o'ziga yordamga oldi. Ular menga qarshi jangga va urushga kirdilar, Ashshur egam bergen oliv kuchlar yordami bilan va Nergal menga sovg'a qilgan oldimga boradigan qudratli qurol bilan men ular bilan Qarqaradan Gilzaugacha jang qildim va ularga zarba berdim. Ularning 14000 askarlarini qurol bilan yo'q qildim. Men Adadga o'xshab ularga jala quydim⁴, ularning ko'p sonli qo'shinlarini qurol bilan haydadim...⁵ Bu urushda men ularning jang aravalari, ularning otlarini, ularning otliqlarini aravalalarini bosib oldim.

1. Ikkinci bor -birinchi marta Salamanasar III Frot orqali er. avv. 857-yilda kechib o'tgan edi.

2. Uni matnda xato meni.

3. O'n ikki podsho matnda faqat 11 podsho sanalgan.

4. Quydim tarjima noaniq.

5. ... Aslida Qarqara yonidagi jang Salamanasar III ning tasdiqlashiga qaramasdan osuriyaliklar uchun muvafaqqiyatsiz bo'lgan edi. Bu jangdan keyin Salamanasar chekinib orqaga quytishga majbur bo'ldi. Shu vaqtidan boshlab Osuriya va Damashq o'rtaida yuz yildan ortiq davom etgan qattiq kurash boshlandi. Faqatgina er. avv 732-yilda Damashq Osuriya podshosi Tiglatpalasar III (745-727 yillard) tomonidan ishg'ol qilindi.

Хрестоматия по истории древнего востока. М., 1991. 219 сmp

Sinaxxerib annallari

“Annallar” matni tushirilgan olti qirrali prizma er. avv. 691-yilga tegishli bo‘lib Britaniya muzeyiga saqlanadi. Sargon II (er. avv. 722-705-yillar)ning o‘g‘li Sinaxxerib (er. avv. 705-681-yillar) annallariga g‘olibona yurishlarini ta‘riflaydi va o‘zini maqtaydi. Matnda Osuriya qo‘sishlarining Bobil va Elam bilan jangi tasvirlanadi.

Men-Sinaxxerib ulug‘ podsho, qudratli podsho, butun dunyo podshosi, Osuriya podshosi, dunyo to‘rt tomoni podshosi, dono hukmdor, buyuk xudolarga bo‘ysunuvchi, haqiqatni saqlovchi, adolatni sevuvchi, ezgulik qiluvchi, yo‘qsilga yordamga keluvchi, yaxshilikka murojaat qiluvchi, mukammal qahramon, qudratli erkak, barcha hokimlar ichida o‘jarlarni osoyishta qiladigan, xudosizlarni yashin bilan kul qiladigan...

Men sher kabi g‘azabga mindim, qurol-yarog‘ga o‘raldim, jang bezagi qalpoqni boshimga kiydim, baland supostatni ag‘daradigan jangovar aravaga, qalbim shiddati bilan shoshib chiqdim. Ashshur bergen qudratli kamonni qo‘limga olib, hayotlarni uzadigan nayzani qo‘limga changallab yovuz dushmanning barcha qo‘smini ustidan dahshatli dovul kabi qichqirdim, go‘yo Adad² kabi bo‘kirdim. Buyuk iloh, ilohim Ashshur amri bilan qanot va frontga go‘yo janubiy dovulning to‘lqini kabi yopirildim, ilohim Ashshurning quroli bilan shiddatli tazyiq bilan ularni orqaga qaytardim va qochirdim. Dushman qo‘sishini o‘q va nayzalar bilan kamaytirdim, ularni badanini g‘alvir kabi teshdim. Xumbon untashni-Elam podshosi a‘yonini, tajribali harbiyni, qo‘sish yo‘lboshchisini, ulug‘ tayanchini³, boshliqlar bilan birqalikda, bellarida oltin xanjarlar va ularni oyoqlarini ajoyib halqlar chulg‘agan, bog‘langan semiz ho‘kizlar kabi ularni men tezlikda suqdim, ularni tor-mor qildim. Go‘yoki qurbonlik qo‘ylari kabi ularning⁴ halqumini kesdim, ularning qimmatli jonini ip kabi uzdim. Men ularning qonini go‘yoki yomg‘ir mavsumida toshqinidagi suvlardek keng yerga oqishga majbur qildim. Mening aravamning qiziqqon otlari daryoga kirgandek, ularning qoniga botdilar. Jang aravamning g‘ildiraklari yomon va yovuzlikni yo‘q qiladigan qon va axlatlarni sachratdilar. Ularning jangchilari o‘liklari bilan go‘yoki maysa kabi yerni to‘ldirdim. Men ularning soqollarini kesdim va shu bilan sharmanda qildim, men bodringning pishgan hosili kabi ular qo‘llarini chopdim. Men go‘yoki

ularning qo‘lida bo‘lgan oltindan, kumushdan ajoyib halqalarini oldim. O‘tkir qilich bilan ularning kamarlarini chopib tashladim, bellaridagi oltin kumush xanjarlarini oldim.

1. *Supostat-dushmanni*.

2. *Adad – yashin, chaqmoq, yomg‘ir va bo‘ron xudosi*.

3. *Tayanch – boshqa*.

4. *Ular – bo‘ynini*.

Misrning Osuriyaga qarshi qo‘zg‘oloni.

Osuriya podshosi Ashshurbanipalning annallari

Osuriya podshosi Asarxaddon (er.avv. 681-679 yillarda) eramizdan avvalgi 671- yilda Misrni bosib oldi va Misr fir‘avnlarining an’anaviy unvonlarini qabul qildi. Uning davrida Osuriya davlati chegaralari Kavkaz ortigacha, Eron past tog‘ligidan Anatoliyagacha, O‘rtayer dengizidan Fors qo‘ltig‘igacha cho‘zildi. Asarxaddon hukmronligining so‘nggi yillarida mamlakat g‘alayonlar ichida qoldi. Eramizdan avvalgi 670-yildan Misr ham qo‘zg‘olon ko‘tardi. U Misrdagi qo‘zg‘olonni bostirish uchun yurish boshladi, lekin yo‘lda vafot etdi.

Eramizdan avvalgi 669-yilda Osuriya taxtiga o‘z davrining ma’lumotli kishisi bo‘lgan Ashshurbanipal chiqdi. U mixxatni bilar edi. Akkad, shumer tillarini egallagan edi, adabiy qobiliyatga ega edi, me’morchilik san’ati bilan tanish edi, matematik va astranomik bilimlarni oldi, davlat ishlarini o‘rgandi, katta qurilishlari bilan mashhur bo‘ldi. U shiddatli, kuchli hukmdor edi, mohir siyosatchi, shafqatsiz istilochi edi.

Osuriyaning poytaxti Nineyada u o‘ttiz mingdan ko‘proq loy taxtagachaga ega bo‘lgan kutubxona tashkil etdi. Bu loy taxtachalarda afsona, adabiy asarlar, duolar, sehrgarlik yozuvlari, tibbiy va matematik matnlar, geografik va botanik ma’lumotnomalar va lug‘atlar to‘plangan edi. Ashshurbanipal davridan bizgacha batafsil va ajoyib yozilgan yilnomalar yetib kelgan. Parchada uning hukmronligi haqida so‘z boradi. Osuriyaliklar eramizdan avvalgi 667-yildan 660-yilgacha qo‘zg‘olon ko‘targan Misr ustiga yurish qildilar.

...Taxarka Misr va Kush mamlakati podshosi, uni Osuriya pod-

shosi ya'ni otam, Asarxaddon qarindoshi mag'lubiyatga uchratdi va mamlakatni egalladi – u Taxarka Ashshurni kuchini, Ishtar va buyuk xudolarni, mening ilohimni unutdi, o'z kuchlariga ishondi, otam, qarindoshim Misrga qo'ygan noiblarga qarshi bordi ... Chopar Nineviyaga keldi va menga bu to'g'risida xabar berdi. Bu voqealardan qalbim darg'azab bo'ldi, ichim yonib ketdi. Men ... o'zimning ulug'ver jangovar qo'shinlarimni harakatga keltirdim ... Misr va Kush mamlakatiga yurishga yubordim ... Misrdagi podsholar, noiblarga yordam berish uchun, yuzimga qaraydigan qullarga, shoshilinch yurdim... men keng tekislikda uning qo'shinini yengdim. Taxarka Memfisda o'z qo'shinini yengilganini eshitdi... U hayotini saqlab qolish uchun Memfisdan Fivaga qochdi... Misrga otam qo'ygan podsho – hokimlar, noiblarni... qaytardim va ularni yana o'z o'miga qo'ydim. Misr va Kush mamlakatini... yana egalladim. Mo'l talab olingan boylik va og'ir o'ljalari bilan omon – eson Nineviyaga qaytdim ...

Oxir-oqibatda men tayinlagan bu podsholar... ularga qilgan yaxshiligmni unutdilar. Ularning yuragi yovuzlikni o'yladi, xiyonat qilish to'g'risida kelishdilar... Bu hodisalar to'g'risida mening harbiy boshliqlarim eshitdilar, ularning otliqlari va ularning xabarlarini ushlab oldilar va xoinona niyatları to'g'risida bildilar. Ular bu podsholarni ushlab oldilar. Temir zanjirlar bilan ularning qo'l va oyoqlarini kishanladilar... Va Sais, Mendes va Tanis va boshqa shaharlardagi ular tomonda turgan odamlar yovuzlikni fikrladilar, ulug' va kichik odamlarni ular qurol bilan urdilar, u yerda hech kimni qoldirmadilar, jasadlarini qoziqlarga osdilar, terilarini shildilar va shahar devoriga qopladiilar, Osuriya qo'shiniga qarshi yovuzlikni o'ylagan bu podsholarni tiriklayin Nineviyaga, menga keltirdilar. Ular ichidan Nexoni ayadim va unga hayot in'om qildim. Men yana shartnomalarni avvalgidan ko'ra mustahkamladim va ular bilan bitim tuzdim. Men uni olachipor kiyintirdim va uni podsholigining bezagi oltin tojni kiydirdim, qo'llariga oltin halqalarini taqdim. Beldagi temir xanjarga oltin bezaklar bilan o'z ismimni yozdim va unga berdim.

Kush -hozirgi Sudan.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 71-73 срп

Osuriya er. avv. VII asrda

Osuriya va unga qaram hududlar viloyatlarga bo'linib, viloyatlarni noiblar boshqarar edi. Noib lavozimi daromadli edi. Ba'zi viloyatlar ma'lum mansabdorlarga daromad olish uchun mukofot tarzida berilgan edi. Misol uchun "Buyuk to'rton" shimoliy Mesopotamiyadagi boy Xarran shahri boshlig'i edi.

Qo'shining oliy harbiy boshliqlari va amaldorlar qaram yerlardan ulush olar edilar. Bizgacha yetib kelgan bir xat shunday xabar beradi:

"Podshoga, mening egamga – sening quling Mardukshumusur. Mening podshomga, mening egamga tinchlikni bersin!" Xudo Nabu va Marduk podshoni, mening egamni marhamat qilsin! Mening egam podshoning otasi menga ozu uchun Xalaxxu viloyatidan sug'oriladigan yerning berdi, bu yerdan men foydalandim, uni mendan hech da'vo qilmadi. Barxalsu viloyati boshlig'i keldi va mening yerga ishlovchilarimga egalik qildi, uyini taladi, yerni tortib oldi. Podsho, mening egam biladiki, men podshoga qaram bo'lgan, podshoning xizmatini qilaman va saroyni tashlab ketmayman. Mana, yer mendan tortib olingan, men podshoga murojaat qilaman: podsho mening egam, men ochdan o'imasligim uchun menga adolat qilsin.

"Buyuk to'rton"-bosh lashkarboshi.

Древний восток. Книга для чтения М. 2000 срп 117

Osuriyani halokati Gerodot. "Tarix"

Osuriya davlati hududi er. avv. VII asrda bosqinchilik urushlari natijasida Kichik Osiyo tog'laridan Nil vodiysigacha, O'rtayer dengizidan Fors qo'ltig'igacha va markaziy Erongacha cho'zilgan. O'nlab xalqlar va qabilalarni uzoq vaqt qaram qilib, shafqatsiz talagan Osuriya davlati er. avv. VII asrning yigirmanchi yillarida ichki ziddiyatlar va noqulay xalqaro vaziyat natijasida tushkinlikga tushdi. Qaddini tiklagan Bobil va kuchayib borayotgan yosh Midiya davlatlari eski dushmanlari Osuriyaga qarshi ittifoq tuzdilar. Ular birgalashib, Osuriya ustiga yurish qildilar va er. avv. 614-yilda osurlarning

asosiy shaharlaridan biri Ashshurni, er.avv. 612-yilda uning poytaxti Nineviyani bosib oldilar. Qachonlardir qudratli bo‘lgan Osuriya davlati quladi. Midiya va Bobil unga tegishli bo‘lgan hududlarni bo‘lib oldi.

101.... Keyin Fraot Osiyoda xalq orqasidan xalqni bosib ola boshladi (aynan Ninga egalik qilganlar va avval butun Osiyoning hukmdori bo‘lgan edilar. endi esa o‘z ittifoqchilari ajralib ketganidan bir o‘zlar qoldilar; o‘z uylarida ular hali qudratli edilar.) Bu yurishda Fraotning o‘zi 22 yillik podsholikdan keyin halok bo‘ldi va qo‘shinining katta qismi halok bo‘ldi.

103 ..., Fraotning o‘limidan keyin podsholik uning o‘g‘li Demokning nevarasi **Kiaksarga** o‘tdi ...

O‘zining hukmi ostida bo‘lgan barcha xalqlar bilan Kiaksar otasini o‘chini olish va shaharni buzib tashlash uchun Ninga qarshi yurish qildi. Midiya va Bobil qo‘shinlari Nineviyani qamal qilib, daryoni to‘sib, o‘zanini o‘zgartirib, daryo suvini shaharga yo‘naltirdilar. Bir zamondosh keyin nima bo‘lganini shunday hikoya qiladi:

“Osuriya senga buzg‘unchi ko‘tarilmoqda: qal’ani qo‘riqla, yo‘lni poyla, belingni bog‘la, kuchingni to‘pla. Uning qahramonlari qalqoni qizil; jangchilari yorqin kiyimlarda; jangga tayyorlanish kunida jang aravalari olovdek yarqiraydi, nayzalar o‘rmoni to‘lqinlanadi. Ko‘chalar bo‘ylab jang aravalari yeladi, maydonlar shaqirlaydi; ulardan olov kabi yorqin, yashin kabi chaqnaydi. Osuriya podshosi o‘z botirlarini chaqiradi, lekin ular yurishda qoqiladi; shahar devoriga shoshiladi, lekin qamal qilingan edi.

Daryo darvozalari ochiladi va saroy yuvilib ketadi. Qaror qilingan: Osuriya yalong‘och bo‘ladi va asirga olinadi.

U yerda, osuriyaliklarni bartaraf qilganda va Ninni qamalini boshlaganda, podsholigi hududiga podsho Madies, Protafiyning o‘g‘li boshchiligidagi skiflarning katta galalari bostirib kirdi.

— Qamchining vizillashi, aylanayotgan g‘ildiraklarning taqillashi va otlarning kishnashi, chopayotgan jang aravasining taqirlashi eshitiladi. Oqliqlar yeladi, qilich chaqnaydi va nayzalar yarqiraydi; o‘ldirilganlar ko‘pchilik, o‘liklar to‘da; o‘liklarning nihoyasi yo‘q, o‘liklarga qoqladilar.

Va har kim sendan qochib ketadi va aytadi: “Nineviya talon-taroj

qilingan". Kim unga achinadi? Sen uchun men yupantiradiganlarni qayerdan topaman?

...Osuriyaning podshosi avliyolaring uxlamoqda, zodagonlaring dan olmoqda. Xalqing tog'larga tarqalib ketdi, uni yig'adigan hech kim yo'q! Jarohatlaringga davo yo'q, yaralaring og'riqli. Sening to'g'ringda xabar eshitganlarning barchasi qarsak chaladi..."

Frot -Midiya podshosi.

Древний Восток Книга для чтения М. 1958. 124 срп

Tayanch iboralar: Dunyoning to'rt tomoni podshosi, Xett, Turkiya, Adad, annallar; Osuriya, Bobil, Elam, Sinaxxerib, Ashshur; Xumbon, Akkad, Shumer, Kush, Taxarka, Nineviya, Mendes.

"Nineviyaning halokati to'g'risida xronika" dan

Qudratli Osuriya davlati halokati to'g'risida bu manba muhim ma'lumotlar beradi. Manbada o'sha davrda Old Osiyoda eng katta shaharlardan biri Osuriya poytaxti Nineviya qulashi bayon qilinadi. Bobil va Midyaning ittifoqda Osuriyaga qarshi jang harakatlari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Nabopalasar ning 10-yilida, ayor² oyida, u (Nabopalasar) Akkad qo'shinini chaqirdi va Frot qirg'oqlariga yurdi. Suxilar va xindanaylar³ ular bilan jangga kirishmadilar, lekin o'z o'lponlarini keltirdilar.

Ab oyida Osuriya qo'shinlari Kablini shahrida turibdi va Nabopalasar ularga qarshi ko'tarildi va Ab oyining o'n ikkinchi kunida Osuriya qo'shini bilan jang qildi deb xabar berdilar. Osuriya qo'shinlari chekindilar va u ulardan katta o'lja olib, osuriyaliklarga kuchli zarba berdi. Osuriyaliklarga yordamga kelgan mammaliklar va Osuriya zodagonlari asir olindi. O'sha kundayoq Nabupalasar Kablini shahrini bosib oldi.

Ab oyida Akkad podshosi Mane, Saxir, Balix shaharlariga qarshi o'z qo'shinini yubordi; ularni u yerni o'lja oldilar, ko'plarni asir qildilar, ularning ma'budlarini olib ketdilar.

Ulul oyida Akkad podshosi qo'shini bilan orqaga qaytdi, lekin yo'l-yo'lakay u Bobilga Xindanu shahri aholisi va uning ma'budlarini olib ketdi.

Tishrit oyida Misr va Osuriya qo'shnlari Akkad podshosi orqasidan yurdilar va Kablini shaharigacha yetib bordilar, lekin Akkad podshosini uchratmadilar. Ularning orqasidan uning o'zi shoshildi.

Addar oyida Osuriya qo'shini va Akkad qo'shini Arrapxa shahri yonidagi Madani shahrida o'zaro jang qildilar va Osuriya qo'shini Akkad qo'shini oldida chekindi. Ular osuriyaliklarga kuchli zarba berdilar va ularni Zab daryosiga uloqtirib tashladilar. Ularning eshak va otlarini tortib oldilar va ulardan katta o'lja bosib oldilar. Bosib olingan ko'p sonli yuklarni ular o'zlarini bilan Dajla daryosi orqali olib o'tib, Bobilga olib keldilar.

Nabopalasarning 11-yilida, Akkad podshosi o'z qo'shinini chaqirdi va Dajla daryosi qirg'oqlariga yurdi. Ayyor oyida u Ashshur shahri qarshisiga joylashdi. Sivan oyining [...] kunida u shaharga qarshi jang qildi, lekin shaharni bosib olmadi. Osuriya podshosi o'z qo'shinini chaqirdi va Akkad podshosi Ashshurdan siqib chiqarildi. Osuriya shahri Takritaingacha u Dajla qirg'oqlari bo'ylab ularning orqasidan yurdi. Akkad podshosi o'z qo'shinini Takritain qal'asiga kiritdi. Osuriya podshosi Akkad podshosi qo'shnlariga qarshi o'z qo'shini bilan tashlandi, ular Takritain qal'asiga qamalgan edilar. O'n kun ularga qarshi jang qildi. Lekin shaharni ola bilmadi. Qal'aga qamalgan Akkad podshosi qo'shini Osuriyaga katta zarba berdi. Osuriya podshosi qo'shini bilan chekindi va o'z mamlakatiga qaytdi.

Araxsama oyida midiyaliklar Arrapxaga tomon tushdilar va shaharga qarshi jang qildilar.

(Nabopalasarning) 12-yilida Ab oyida midiylilar Nineviya shahriga qarshi[turbanlarida], u (Kiaksar) shoshildi va Nineviya viloyatidagi Tarbiz shahrini bosib oldi. [Keyin] u Dajla qirg'oqlariga tushdi va Ashshurga tashlanib shaharga qarshi jang qildi; shaharni u vayron qildi, jahl bilan uning ulug' odamlariga qarshi qirg'in uyuشتirdi, u yerda o'lja oldi va uni asir oldi. Midiyaliklarga [yordamga] kelgan, Akkad podshosi va qo'shini jangga ulgura olmadilar, shahar [olingen edi].

[Akkad] podshosi va Kiaksar shaharda bir-birovlarini ko'rdilar va o'zaro tinchlik, do'stlik ahdini tuzdilar. [Keyin] Kiaksar qo'shini bilan o'z mamlakatiga qaytdi, Akkad podshosi ham qo'shini bilan o'z mamlakatiga qaytdi.

(Nabopalasarning) [13-yili]da, [Iyyar] oyida suxiylar Akkad podshosiga [qarshi] qo'zg'olon ko'tardilar va dushmanlik harakatini qildilar. [Akkad podshosi] o'z qo'shinini chaqirdi va Suxu mamlakatiga bordi. Sivan oyining 4-kunida u Frot o'rtasidagi Raxi-Ilu, shaharlarga qarshi jang uyuشتirdi va o'sha kun shaharlarni oldi... Annata shahriga qarshi u sharq tomonidan qamal qurollarini tashladi... Devorga qamal qurollarni siljitim, u shaharga qarshi jang uyuشتirdi, lekin shaharni olmadi... Osuriya podshosi o'z qo'shini bilan tushdi, Akkad podshosi esa o'z qo'shini bilan burildi [o'z mamlakatiga qaytdi].

(Nabopalasar)ning [14-yilida] Akkad podshosi o'z qo'shinini chaqirdi, ummanmanlar (midiyaliklar) podshosi esa Akkad podshosiga peshvoz [chiqdi]. [Shaharda... ular] bir-birlari bilan [uchrashdilar]. Akkad podshosi [o'z qo'shini bilan] va Kiaksar [o'z qo'shini bilan] kechib o'tdilar va Dajla daryosi qirg'oqlari... bo'ylab Nineviyaga qarshi yurdilar...

Sivan oyidan Ab oyigacha uchta jang [bo'lib o'tdi]... Ab oyida, [kunida... ular Nineviya shahrini bosib oldilar] va [buyuk odamlar] ga katta [zarba] berdilar. O'sha kundayoq Sin-shar-ishkun Osuriya podshosi... shaharda sanog'iga yetib bo'lmaydigan ko'p sonli asirlar, oldi, shaharni vayronaga va xarobalarga... (aylantirdilar) Osuriya [qo'shnilar] podsho oldida qochdilar, Akkad podshosi qo'shnilar ularni [ta'qib qildi]. Ulul oyining 20-kunida Kiaksar o'z qo'shini bilan o'z mamlakatiga qaytdi. Undan keyin Akkad podshosi... Nasibin shahrigacha bordi. O'lja asirlar va qullarni [...] dan va Rusani mamlakati Nineviyaga Akkad podshosiga keltirdilar.

(Nabupalasar)ning 16-yilida Iyyar oyida, Akkad podshosi o'z qo'shnilarini chaqirdi va Osuriyaga yurdi. [Iyyar oyi] dan Araxsana oyigacha u Osuriya bo'yicha g'olibona yurdi. Araxsana oyida Akkad podshosiga yordamga Ummamalar keldilar..., ularning qo'shnilar o'zaro aralashdilar va Osuriya taxtiga o'tirgan Ashshurballit [orqasidan] Xarran shahriga yurdilar. Dushman oldidagi qo'rquv Ashshurballitni va [unga yordamga] kelgan Misr qo'shinini taslim qildi. Ular shaharni qoldirdilar va [Frotni] kechib o'tdilar. Akkad podshosi Xarran shahrini bo'ysundirdi va (bu shahar)ni oldi. Sanog'iga yetib bo'lmaydigan ko'p sonli asirlarni oldi. Addar oyida Akkad podshosi... o'z mamlakatiga

qaytdi, Akkad podshosiga yordamga kelgan Ummamalar [o‘z mamlakatiga qaytdilar].

1. *Nabupalasar er. avv. VII asr oxirida hukmronlik qilgan Yangi Bobil podshosi.*

2. *Ayyar oyi - Bobil-Osuriya kalendarida (taxminan aprel-may oyi).*

Yana tilga olinadi: Ab(iyul-avgust), Ulul (avgust-sentabr), Tishrit (sentabr-oktabr), Araxsame (oktabr-noyabr), Addar (fevral-mart), va Siman (Sivan: may – iyun).

3. *Suxiyalar va xindanaylar – Bobilga dushman qabilalar; Osuriyaning ittifoqchilari.*

4§ Xettlar

Qadimgi Xett tarixi bo‘yicha birinchi manbalar

Xett mixxat yozuvlari yodgorliklari chex sharqshunosi B.Grozniy tomonidan 1915-1917 yillarda o‘qilgan barcha ma’lum matnlar yangi podsholik (er:avv. XIV-XII asrlar) davriga mansub, lekin ularning ko‘pchiligi Qadimgi podsholik (er: avv. XVII-XVI asrlar) matnlari nusxasidir.

Podsho Anitta yozuvi

Anitta yozuvi yangi xett nusxasida bizga yetib kelgan. Uning asli er. avv XIX asrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Xett davlati poytaxti Qussar edi. Anitta o‘zi ishg‘ol qilgan Nesa shahri to‘g‘risida hikoya qiladi. Boshqa yozuvda Anitta Pitxanning o‘g‘li, Qussar shahri podshosi shunday deydi: “[u(Pitxan)] [samoviy] yashin xudosi (Troxuituga yoqimli) va u samoviy yashin xudosiga yoqimli Nesa shahri podshosi Qussar shahri podshosi[ga]…

Qussar shahri podshosi shahardan pastga o‘zining barcha qo‘shini bilan tushdi va Nesa shahrini tunda qamal bilan oldi. Nesa shahri podshosini u asir oldi, Nesa shahrisi ahordan hech kimga yomonlik qilmadi. U ularning (o‘z) onalari va otalari qildi (ular bilan o‘z ota-onasi kabi muomala qildi).

Va otam Pitxandan keyin o‘sha yil men jang qildim. Qaysi bir mamlakatlar quyosh ma‘budasi tomonidan (ko‘tarilmasin, men ularni yengdim. Bu so‘zlar va yozuv bilan jadvalni men shahar darvozalarimga

[joylashtirdim]. Kelajakda [hech kim (ularni) buzmaydi. Kim ularni buzsa, o'sha uning (podshoning) dushmani bo'ladi. Keyin ikkinchi marta Piyusti, Xatti shahri podshosi keldi]. U olib kelgan yo'ldoshlarini ham yo'q qildim. Butun mamlakatni Salpuvi shahri (dan) dengizlargacha (?) men yanch[dim].

Hgari Uxna, Salpuvi shahri podshosi "ularning xudosini Nesa shahridan Salpuvi shahriga olib keldi. Va keyin men Anitta buyuk podsho, "ularning xudosini Salpuvi shahridan qaytadan Nesa shahriga ko'chirdim. Va [x] Ussiyani, Salpuvi shahri podshosini Nesa shahriga tirik olib keldim. Xattusi shahriga Pi(yuti) [yovuzlik] qildi. Men uni qoldirdim. Keyin Xattusi shahrida ocharchilik boshlanganda va "ularning xudosisi" (bu shaharni) ma'bud Xalmas-[uitte] ga berganda men uni tunda qamal bilan oldim. Va o'rniqa men... Kim mendan keyin podsho bo'lsa, agar u yana Xattusi shahrini qayta tiklasa, uni samoviy yashin ma'budasiga...

Salativare shahriga yuzimni o'girdim.

Salativare shahriga yuzlandim.

Uning qo'shini (shahardan) chiqdi, va uni Nesa shahriga...

Va Nesa shahrida men (turar joylar) qurdim. Shahardan keyin (shahardan tashqarida?) men samoviy yashin ma'budasiga uy va "uning xudosisi"ga uy qurdim.

Men Xalmasuittiga uy, yashin ma'budasiga uy, kohin joyi va "ularning ma'budasasi"ga uy qurdim. Men yurishdan olib kelgan o'sha boyliklarni (u yerga) unga joylashtirdim. Men mabudalarga qurbanlik marosimlarini bajarib, ibodat bilan murojaat qildim va men [dushmaninlarimni] la'natladim. O'sha kuniyoq 2 sher, 70 cho'chqa, 1 to'ng'iz, 120 ayiq yoki qoplolar yoki bo'rilar yoki tog' echkilarini Nesaga, shahrimga keltirdim. Keyingi yil men [Salativare shahriga] yurish qildim. Odam Salativare shahri(dan) o'z fuqarołari bilan ko'tarildi. U [shahardan odam bilan keldi...]. U o'z mamlakati va shahrini qoldirdi va Xulu oqimiga [u o'tdi]. Nesa shahri... O'zining (turar) joylarini u yoqib yubordi. Va ularni shahar ichidan (aholini u...1400 askarlar va (40) jang arava (otlar uprisuskasi), kumush va shahar (undan) qutuldi va u ketdi.

Va men shaharga ketdim...

Va Purusxandan shahridan odam... qanday buyirilgan bo'lsa u menga temir taxt va temir aso keltirdi. Men Nesa shahriga qaytib [bordim], shunda Purusxanda shahridan odamni men (orqaga) o'zim bilan olib ketdim".

Telepin hujjati

Telepin er.avv. XVI asrda Xett davlatini mustahkamlashda muhim o'rin tutgan hukmdor. U taxt vorisligi yangi tartibini joriy qildi, xalq yig'ini Pankusni avvalgi mavqeini tikkadi, qonunlar joriy qildi. Hujjat er.avv. XVI asrda tuzilgan, lekin bizgacha yangi Xett davri nusxasida yetib kelgan. Telepinning hujjati pankus xalq yig'iniga qaratilgan. Hujjatning birinchi qismida Xett davlati tashkil topishi, Xett podsholarining yurishlari tasvirlanadi, ikkinchi qismida qonunchilik yo'l-yo'riqlari bayon qilinadi.

(1§) Tabarna Telepin, buyuk podsho shunday (aytadi). Ilgari Tabarna buyuk podsho bo'lgan edi. Va (shunda) uning o'g'illari, uning aka-ukalari, uning (qayinlari) va uning askarlari birqalikdal to'planishdi.

(2§) Va mamlakat kichkina edi. U qanday yurishga bormasin, dushmanlar mamlakatini kuchli qo'llari bilan bo'ysindirdi.

(3§) Va u mamlakatni talon-taroj qildi, va mamlakatlar... va dengizni ularning chegaralari qildi, uning har bir o'g'li qandaydir mamlakatlardan keldi.

(4§) Xupisna shaharlari, Tuvapuva shaharlari, Nenassau shaharlari, Landa shaharlari, Sallara shaharlari, Lusna shaharlari va ular mamalakatlarni boshqardilar va katta shaharlar bor edi...

(5§) Keyin Xattusilik² podsho bo'ldi va uning oqil o'gillari, uning aka-ukalari, uning qayin ukalari, uning urug'i odamlari va uning askarlari birga to'plandilar. U qaysi yurishga bormasin, bu dushmanlar mamlakatini kuchli qo'li bilan tiz cho'ktirdi.

(6§) Va u mamlakatni vayron qildi, va mamlakatini... va dengizni ularning chegaralari qildi. U yurishdan qaytib kelganda, uning har bir o'g'li qaysidir mamlakatlardan keldi, uning qo'lida katta shaharlar birlashgan edi. (?).

(7§) Knyazlarning qullari ajralib ketdilar (sodiq bo'lmadilar), ularning uylarini yo'q qila boshladilar va o'z xo'jayinlariga qarshi birlashib, ularning qonini to'ka boshladilar.

(8§) Mursili Xattusiga podsholik taxtiga o'tirganda uning o'gillari uning aka-ukalari, uning urug'i odamlari va askarlari birga to'plandilar. Va dushmanlar mamlakatini kuchli qo'li bilan birlashtirdi va mamlakatlar... dengiz ularning chegaralarini dengiz qildi.

(9§) Va u Xalpu shahriga bordi. Xalpu shahrini u vayron qildi va qul harbiy asirlarni (va) Xalpu shahri mulkini u Xattusi shahriga keltirdi. Keyin esa u Bobil shahriga bordi va u Bobil shahrini vayron qildi va xurritlarga u zarba berdi va qullar harbiy asirlar va Bobil shahri mol-mulkini Xattusi shahrida saqladi.

(10§) Xantili oftobachi³ edi. Mursilini singlisi Xarapsili, uning xotini edi.

(11§) ...Va Sidanta Xantili bilan fitna uyushtirdi va ular yovuz [ish] ni sodir etdilar va Mursulini oldilar. Ular qon to'kdilar.

(12§) [Va Xan] tili qo'rqi... .

(18§) Va Xantili keksaydi xudo bo'lishga tayyorlandi, (o'ldi) Sidanta Xantilining o'g'li Pisenini uning o'gillari bilan birga o'ldirdi va birinchi suqarolarini (amaldorlari)ni u o'ldirdi.

(19§) Va Sidanta podsholikga o'tirdi lekin ma'budlar Piseni qoni⁴ uchun [o'ch olish]ga tashna bo'ldilar va ular unga Sidantega uni o'z o'g'li Ammunani dushman qildilar va u Sidanteni o'z otasini o'ldirdi.

(20§). Va Ammuna podsholikka o'tirdi. Lekin mabudlar uning otasi qoni (o'ch olish) uchun tashna bo'ldilar va uning qo'lida ular uni (o'zini) omon-eson qilmadilar, don, ko'kat, uzumzorlar, qoramol, qo'yilar...

(21§) Mamlakatlar esa u bilan yovlashdilar: shahar... Galmiya shahri, Adaniya shahri mamlakati, Arsavili shahri, Salapi shaharlari, Porduvati shaharlari, Axxuli shaharlari. Va (uning) qo'shini qanday yurishga bormasin, ular mutazam muvaffaqiyatsiz qaytdilar. Va qachonki Ammuna xudo bo'lganda (olganda), o'sha kunlari Surmeshedilar ustidan boshliq⁵, o'zining urug'idan (bir kishini) - o'z o'g'li Taxarvallini, oltin nayza odamini yashirincha yubordi va u Titi urug'ini uning o'g'illari (bilan birga) o'ldirdi.

(22§) Va u Taruxsa, choparni yubordi, va u Xantilini uning o'g'illari (bilan birga) o'ldirdi. Va Xussiya podsholigiga o'tirdi. Telepin esa Istapariyani uning katta opasini (xotin) qilgan edi. Xussiya ularni

o‘ldirmoqchi edi, lekin (bu) ish ma’lum bo‘lib qoldi va Telepin ularni haydab yubordi.

(23§) Uning (Xussiyaning) aka-ukalari beshta edi va u (Telepin) ularga uy qurdi. (Va shunday dedi:) “Mayli ular uylariga borsin va ular (yashasin) va ular yeb ichsin” [Telepin] ularga hech qanday yomonlik qilmaydi. Va men doimo (shunday) deyman: “Ular menga yomonlik qiladilar, men esa ularga yomonlik [qilmayman]”.

(24§) Men Telepin, o‘z otamning taxtiga o‘tirganimda Xassuvu shahriga yurish qildim va Xassuvu shahrini vayron qildim. Va o‘shinim Sitsilipeda bo‘ldi va Sitsilipeda jang yuz berdi.

(25§) Men podsho Lavatsantiya shahriga kelganimda, Laxxu menga dushman edi va Lavatsantiyani qo‘zg‘olonga chaqirdi, lekin xudolar uni mening qo‘limga berdilar. Va birinchi (bosh) nazoratchi minglab kishilar ustidan... Karuvu,... ustidan nazoratchi, Inara oftobachilar ustidan nazoratchilar, Killa va Tarxumimma; Tsinvasel va xabarchilar ustidan nazoratchi Lelli ko‘pchilik. Lekin ular yashirinchha Tanuvuga xabarchi yubor[dilar].

(26§) Men podsho bilmadim..[Xu] tsiya va uni aka-ukalari...

Men podsho eshitdim, Tanuvu, Taxarvaili va Taruxsuni olib keldilar va yig‘in (pankus) ularni o‘lim jazosida hukm qilishni taklif qildi. Men podsho esa “nima uchun ular o‘lsinlar? Mayli ularning ko‘zini yumsinlar” (ko‘zlariga mil tortish deb tushunish mumkin). Va men ularni ozod qildim]. Men ularni dehqon qildim, men ularning o‘ng biqinidan qurolni yechdim va ularga bo‘yunturuq berdim.

(27§) Va katta oilaning (podsho urug‘i) qoni va katta oila (qoni oshib) ketdi6 ko‘paydi. Va Istapariya malika vafot etdi. Qayta (hamda Ammun, podsho o‘g‘li (o‘ldi). Va xudoning odamlari (bashoratchilar) (shunday) gapira boshladilar: “Qara! “Xattusi shahrida qon ko‘paymoqda. Va men Telepin, Xattusida kengash (tuliya)⁷ chaqirdim. Shu vaqtidan boshlab Xattusi shahrida (katta) oilani o‘g‘liga hech kim yovuzlik qilmaydi va unga (qarshi) hech kim xanjar yalang‘och[lamaydi].

(28§) Va podsho etib birinchi shaxzoda – podshoning o‘g‘li qo‘yiladi. Agar birinchi shaxzoda bo‘lmasa, shunda ikkinchi o‘rin bo‘yicha o‘g‘il podsho bo‘lsin. Voris – podshoning o‘g‘li bo‘lmasa, shunda podshoning qizi birinchi, uning uchun uyga kiradigan kuyovni olsinlar va u podsho bo‘ladi.

(29§) Shu vaqtdan boshlab kim mendan keyin podsho bo'lsa, (shunda) uning aka-ukalari, o'g'illari, uning qayinlari, uning qondosh qarindoshlari (uning urug'i odamlari) va uning askarlari birga to'planadilar. Va sen (bo'lg'usi podsho) kelasan va dushmanlar mamlakatini kuchli qo'ling bilan bo'ysindirasan, lekin sen shunday dema: :Men jazosiz qo'yib yuboraman”, (agarda) biroq sen hech nimani kechirmaysan, amalda esa siqib qo'yasan. Urug'dan hech kimni o'ldirma. Bu yaxshilikka (olib) bormaydi.

(30§) Va kim keyin podsho bo'lsa, va (agarda u) aka-ukasi (yoki) opa-singlisiga yovuzlik (qilishga) urinsa, shunda siz uning uchun yaqin (pankus) bo'ling va unga to'g'ri ayting! “bu xun ishi” (Mixxat taxtachaga qara: ilgari Xattusi shahrida qon to'kish ko'paydi: va shunda ma'bulular podsho urug'idan oldilar (o'ch oldilar).

(31§) Qaysi (podsho) o'z aka-ukalari va opa-singillariga nisbatan yomonlik qilsa, (u) podsholik boshi bilan javob beradi. Shunda sud yig'ini (tuliya)ni chaqiring. Agar uning ishi (aybi isbotlansa) bo'lsa, boshi bilan aybin yuvsin. Tsuri, Tanuve, Taxarvaili, Taruxsuga o'xhash yashirin oldirmasınlar. Uning uyi, xotini, o'g'illariga yomonlik qilmasınlar. Agarda shahzoda ayb qilib qo'ysa, o'z boshi bilan javob bersin. Uning uyiga va uning o'g'illariga yomonlik qilmasınlar. Qaysi (odam) uchun shahzodalar halok bo'lsa, uyi, dalasi, uzumzorlari, omborlari, qullari, qoramollari, qo'ylarini (yo'q qilish) kerak emas.

(32§) Endi agar shahzoda qandaydir ayb qilib qo'ysa, u o'z boshi bilan javob bersin. Uning uyi, o'g'liga yomonlik qilmang.(O'ch olish) shahzodaning boshi (yoki) mulkini berish ma'qul emas. Kimki bu yovuz ishlarni qilsa, xoh uylar otasi, saroy o'g'illari ustidan boshliq, meshedilar ustidan boshliq yoki bosh chashenosets bo'ladimi..., ular shahzodalar uylarini olishga tashna bo'ladilar, va [shuning uchun] ular aytadilar: “Bu shahar meniki bo'lsin” va ular shahardagi boshliqqa qurshi ig'vo qiladilar.

(33§) Endi, shu kundan boshlab Xattusi shahrida saroy o'g'illari, oltin yurakbardorlar, chashniklar, stolniklar, nonvoylar, choparlar, ming dala boshliqlari- bu ishni oldindan biling. Tanuve, Taxarvaili (va Taruxsa) uning oldingizda belgi bo'lsin: “keyin, qachon kimdir yovuzlik qilsa, uyi otasi yoki saroy o'g'illari boshlig'i, bosh sharobdor, bosh meshedi,

ming dala boshliqlari ustidan bosh... bo'lsa, siz esa- uning a'chun- yiqin (pankus), (uni) ushlang va o'zingizga (sud uchun) ko'tar'ing.

(49§) Xun ishi shunday⁸. Agar kimningdir o'limida kimdir aybdor, shunda so'z xun egasida. Agar u "Mayli u o'lsin deb aytsa, aybdor o'lishi kerak." Agar u "Mayli u (to'lov) bersin" deb aytsa, shunda u ehson berishi kerak. Lekin podshoga hech qanday murojaat bo'lmasligi kerak.

(50§) Xattusi shahrida sehrgarlik bilan bog'liq barcha ishlardan marosim poklanishi qiling.

Kim (podsho) u urug'ida sehrgarlik sirlarini bilsa, siz o'shani (podsho urug'ini) ushlang va podsho darvozalari oldiga keltiring. Kim uni olib kelmasa, (u bilan) quyidagilar yuz beradi: uning uchun va uyi uchun yovuzlik bo'ladi. Telepinning bir jadvali tugadi.

1. *Birgalikda – Birinchi podsholar davrida (so'nggi olag'ovur va to'sto' polonlardan farq qilgan holda) podsho urug'i va harcha erkin kishilarning jipsligi formulasi.*

2. *Xattusilik – Xattusili I.*

3. *Oftobachi – saroy unvoni.*

4. *Piseni qoni – xun olish odati bilan bog'liq qoida.*

5. *Surmeshedilar ustidan boshliq -saroy unvoni.*

6. *Ketdi – Telepinning jinoyatchilarni tinchlantirish uchun qabul qilgan qat'iy chora-tadbirlari natijasida Xattusida qon to'kishga olib kelgan baxtsizliklarga ishora.*

7 *Tuliya – "Telepin hujjati"da yig'inni belgilash uchun ikki atama "pankus" (Xattusili I ning vasiyatida uchraydigan) va "Tuliya" Telepin davrida alohida vakolatlar olgan yig'inni belgilash sifatida ishlatalidi.*

8. *Shunday – xun olish odati bilan bog'langan qoida bayon qilinadi.*

Yangi Xett davri qonunlari bizgacha bir necha nusxada yetib kelgan. Ularning ilk varianti qadimgi Xett davrida tuzilgan deyish mumkin. Qonunlar Xett jamiyatining iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmasini tahsil qilish uchun juda qimmatli manba bo'ladi. Qonunlar chek sharqshunosi F.Groznii tomonidan o'qib tarjima qilingan.

Birinchi jadval

(1§) Agar kimdir janjal (vaqtida) erkak yoki ayolni o'ldirsa, u uning uchun to'lov berishi lozim: (uning uchun (4 kishi berishi lozim). Tegishli ravishda erkak yoki ayol. Mol-mulkni ham u ta'minot sifatida berishi lozim.

(2§) Agar kimdir janjal (vaqtida) qul yoki cho'rini o'ldirsa, u uning

uchun to'lov berishi lozim: (2 kishini berishi lozim). Tegishli ravishda erkak yoki ayol. Mol-mulkni ham u ta'minot sifatida berishi lozim.

(3§) Agarda kimdir ozod ayol yoki erkakka qo'l ko'tarsa va (agarda) u o'lsa, shuningdek, uning qo'li (beixtiyor) yovuzlik qilsa; shunda u uning uchun to'lov berishi lozim. (2 kishi berishi lozim) Mol-mulkni ham ta'minot sifatida berishi lozim.

(4§) Agarda kimdir qul yoki cho'riga qo'l ko'tarsa, va (agarda) u o'lsa, shuningdek, uning qo'li (beixtiyor) yovuzlik qilsa; shunda u uning uchun to'lov berishi lozim. (o'rniga 1 kishi berishi lozim) Mol-mulkni ham ta'minot sifatida berishi lozim.

(5§) Agar kimdir Xett savdogarini o'ldirsa, 100 ming kumush berishi lozim. Hamda mol-mulkni ham ta'minot sifatida berishi lozim. Agarda (bu) Luviya yoki Palal mamlakatida (yuz bergen bo'lsa) shunda 100 ming kumush berishi va uning mol-mulkini qoplashi lozim. Agar (bu) Xatti mamlakatida yuz bersa, shunda ham u savdogar uchun to'lov berishi lozim.

(7§) Agar kimdir ozod kishini ko'r qilsa, yoki uning tishini sindirsa, (shunda) ilgari lmina kumush berar edilar, endi esa u 20 sikl kumush berishi lozim. Mulkini ta'minot sifatida berishi lozim.

(8§) Agar kimdir qulni yoki cho'rini ko'r qilsa, yoki tishini sindirsa (shunda) u 10 sikl kumush berishi lozim. Mol-mulkni ta'minot sifatida berishi lozim.

(9§) Agar kimdir odamning boshini yorsa, (shunda) ilgari odatda 6 sikl berar edilar (undan) jabrlangan 3 sikl olar, saroy uchun odatda 3 sikl olar edilar, endi esa podsho saroy uchun (tegishli ulushni) bekor qildi va (faqat) jabrlangan o'zi uchun 3 sikl kumush olishi lozim.

(11§) Agar kimdir ozod kishining qo'lini yoki oyog'ini sindirigan bo'lsa, shunda u unga 20 sikl kumush berishi lozim. Mol-mulkni ta'minot sifatida berishi lozim.

(12§) Agar kimdir qulning yoki cho'rining oyog'ini sindirsa, shunda u unga 10 sikl kumush berishi lozim. Mol-mulkni ta'minot sifatida berishi lozim.

(19§) Agar qandaydir luviyalik Xattisi shahridan erkak-yoki ayolni o'g'irlab ketsa va uni Artsava² Xattusi shahrida qaysidir xett luviyalikni o'g'irlasa va uni Luviya mamlakatiga olib ketsa, (shunda) ilgari odatda

12 kishi berar edilar, (endi esa) 6 kishi berish lozim. Mol-mulkni ham u ta'minot sifatida berishi lozim.

(20§) Agar qandaydir xett luviya mamlakatidan qul xettni o'g'irlab, Xatti mamlakatiga olib kelsa, uning xo'jayini uni topib olsa (shunda) u unga 12 sikel berishi lozim. Mol-mulkni ham u ta'minot sifatida berishi lozim.

(21§) Agar kimdir Luviya mamlakatidan Luviyaga tegishli qulni o'g'irlasa va uni Xatti mamlakatiga olib kelsa va xo'jayini uni topsa, shunda u qulni o'ziga olishi mumkin; to'lov [esa] yo'q.

(22§) Agar qul qochib ketsa, kimdir uni orqaga qaytarib kelsa, (shunda) u yaqinroqda qulni ushlasa (xo'jayin) unga poyafzal berishi lozim. Agarda bu tomonidan (u qulni ushlasa), u 2 sikel kumushni unga berishi lozim, agar (qulni daryoni u tomonidan ushlasa), 3 sikel kumushni unga berishi lozim.

(30§) Agar erkak qizni hali o'ziga olmagan bo'lsa va undan voz kechsa, (shunda) u uchun (to'lagan) to'lovni yo'qotishi mumkin. Hech kim uning ijtimoiy ahvolini o'zgartirishi mumkin emas.

(34§) Agar qul ayol uchun (nikoh to'lovi berib va uni o'ziga xotin qilib olsa, shunda hech kim uning ijtimoiy ahvolini o'zgartirishi mumkin emas.

(38§) Agar odamlar sud uchun ushlangan bo'lsa va kimdir (ularga yordamga), yordamchi sifatida kelsa va agarda sud bo'yicha (ularning) raqiblari jahlg'a mins'a va (ulardan kimdir) yordamchini ursa va u o'lsa (shunda) to'lov yo'q.

(39§) Agar qishloqda yashovchi boshqa (odamning) dalalarini egallasa, shunda u (shu dalalarga egalik bilan bog'liq) majburiyatlarni o'tashi lozim. Agar (bu) dalalarni u qarovsiz qoldirsa, shunda boshqa odam dalani (o'ziga) olishi mumkin. Lekin u uni sotishi mumkin emas.

(42§) Agar kimdir odamni yollasa va u urushga borib o'lsa, (shunda) agar to'lov berilgan bo'lsa to'lov yo'q. Agar uning to'lovi (hali) berilmagan bo'lsa, (shundan) u bir odamni va to'lovni 12 sikel kumush (hajmida) berish lozim va u 6 sikel (hajmida) to'lov berishi lozim.

(43§) Agar odam odatdagiday o'z ho'kizi bilan daryoni kechib o'tayotganda va (agar) boshqa kishi uni itarib va ho'kizning dumidan ushlab daryo orqali o'tsa, ho'kizning egasini daryo oqizib ketsa, shunda aynan shu odamni ular ushlashlari lozim.

(44§ a) Agar kimdir odamni olovga itarsa va u o'lsa, shunda u unga yigitni berishi lozim.

(45§) Agar kimdir buyumni topib olsa, shunda u uni xo'jayiniga qaytarishi lozim, u uni mukofotlashi lozim. Agarda uni bermasa, shunda u o'g'ri bo'ladi.

(47§ a) Agar kimdir dalaga podsho sovg'asi sifatida egalik qilsa, (shunda) u xizmat o'tashi lozim emas. Podsho dasturxonidan non oladi va unga beradi.

(47§ b) Agar kimdir hunarmandning butun dalasini sotib olsa, shunda u xizmatni o'tashi lozim. Agar u (faqat) dalaning katta qismini sotib olsa, shunda u xizmatni o'tashi lozim emas. Agar (unga hunarmand dalasini kesib bersalar yoki qishloq aholisi unga ularni bersa, (shunda) xizmatni o'tashi lozim).

(48§) Jamoachi (xippara)3, xizmatni o'tasa, lekin hech kim jamoachi bilan savdo shartnomasi tuzishi mumkin emas. Hech kim uning o'g'lini, dalasini yoki (uning uzumzorini) sotib olishi mumkin emas. Kim jamoachi bilan shartnoma qilsa, (to'lagan) narxni yo'qotishi lozim. Jamoachi nimani sotgan bo'lsa ham, u buni qaytarib olishi lozim.

(49§) Agar jamoachi o'g'irlasa, (shunda) to'lov yo'q. Agarda u aybdor deb topilsa, shunda u tegishli bo'lgan birlashma to'lov berishi lozim. Agar bular (barchasi) o'g'rilikda ayblansa, agar ularning haimmasi yolg'onchilar bo'lsa, yoki (barchasi) o'g'riga aylangan bo'lsalar (agar) bu odam (ulardan) birini ushlasa, o'sha (odam) (ulardan) boshqani ushlasa, shunda (shu) bilan ular podsho sudini buzadilar.

(52§) Podsho mavzoleyi quli, podsho o'glining quli va suppatu (ustidan) boshliq, ular hunarmandlar (dalasi) o'rtasida dalaga ega bo'lsalar, xizmatni o'tashlari lozim.

(92§) Agar kimdir 2 asalari uyasi yoki 3 asalari uyasini o'g'irlasa, (shunda) ilgari uni (aybdorni) asalarilarga yeyishga berar edilar. Endi esa 6 sikl kumush berishi lozim. Agar kimdir asalari uyasini o'g'irlasa, unda asalari bo'lnasa, (shunda) u 3 sikl kumush berishi lozim.

(93§) Agar ozod odamni u hali uyga kirishidan oldin ushlab olsalar, (shunda) u 12 sikl kumush berishi lozim. Agar qulni uyga kirishidan oldin ushlasalar, u 6 sikl kumush berishi lozim.

(98§) Agar ozod odam uyni yoqib yuborsa, (shunda) u yangidan

uy qurishi lozim. U uyda nima yo'qolgan bo'lsa qisman odam, yirik qoramol yoki qo'yalar bo'lsa ham, uni qoplashi lozim.

(100§) Agar kimdir bostirmani yoqib yuborsa, shunda u (zarar ko'rganning molini boqishi lozim, keyingi bahorda esa u to'lov berishi lozim. U shuningdek bostirmani qaytarib berishi lozim. Agar unda somon bo'lmasa, u faqat bostirma qurishi lozim.

(152§) Agar kimdir ot, xachir (yoki) eshakni yollasa, (unga to'lov sifatida) bir oy uchun 1 sikel kumush berishi lozim.

(176§ b) Agar kimdir hunarmandni – kulol, temirchi, duradgor, charmgar, tikuvchi. to'quvchini sotib olsa yoki kaballi kiyimi tayyorlovcchini sotib olsa, (shunda) u 10 sikel kumush berishi lozim.

(177§ b) Agar kimdir ta'llim olgan (?) qush ovlovchini sotib olsa, shunda 25 sikel kumush berishi lozim. Agar u (bu hunarga) to'la o'r ganmagan erkak yoki ayolni sotib olsa, (shunda) u 20 sikel kumush berishi lozim.

1. *Pala – Xett davlati asosan uch qismidan iborat bo'lgan. Nettlar viloyati (Xatti) Luviya va Pala mamlakati.*

2. *Artsava Kichik Osiyoning janubi-g'arbidagi mamlakat*

3. *Xippara – atama kelib chiqishi ho'yicha jamoani yoki qishloqni xettha atalishi bilan bog'langan.*

Xattusili III tarjimayi holi

Xett podshosi Xattusili III tarjimayi holi (er. avv. XIII asr) Qadimgi Xett davlati va jamiyati to'g'risida qimmatli tarixiy manba hisoblanadi. Matnda yangi Xett davri siyosiy hayotining o'ziga xos tomonlari, taxi uchun kurashlar to'g'risida ma'lumot beriladi. Matn olim Tetse tomonidan o'qib tahlil qilingan.

(1§) Shunday deydi Tabarna Xattusili buyuk podsho, Xatti mamlakati podshosi, Xatti mamlakati podshosi Mursili¹ning o'gli buyuk podsho, Xatti mamlakati podshosi Suppilulium² ning nevarasi, Qussar podshosi Xattusili³ ning avlodи.

(2§) Men Ishtarning ilohiy hokimiyati to'g'risida gapiraman⁴. Ha, u to'g'risida insoniyat eshitsin va kelajakda quyoshim xudolari orasida, o'g'lim, nevaram va quyoshim avlodи o'rtasida Ishtarga hurmat bo'ladi.

(3§) Mening otam Mursili bizni – to'rt bolani dunyoga keltirdi:

Xalpasuli, Muvatalli, Xattusili va qiz. Ularning barchasi ichida men eng kenjası edim va men hali bola va otboqar bo'lganimda, Ishtar mabudam otamga tush' vositasida Muvatallini yubordi (aytdi): "Xattusili yillari qisqa: u yashay olmaydi. Uni menga ber va u mening kohinim bo'ladi. Va shunda u yashaydi". Va otam hali bola bo'lgan meni olib, ma'buda xizmatiga berdi. Va xudoga kohin sifatida xizmat qilib men qurbanliklar keltirdim. Va Ishtar, mening egam qo'llarida ezgulikni ko'rdim. Ishtar mening egam qo'limdan ushladi va u menga o'zi ilohiy hokimiyatini ko'rsatdi.

(4§) Otam iloh bo'ldi (vafot qildi) va akam Muvatalli otamni taxtiga o'tirdi, men akam oldiga harbiy boshliq bo'ldim. Va akam meni meshedilar ustidan boshliq qildi va menga boshqaruvga Yuqori mamlakatni berdi. Va Yuqori mamlakatni men boshqardim. Mendan oldin uni Armadatta, Tsidini o'g'li boshqardi. Ma'buda Ishtarni menga homiyligi tufayli akam Muvatalli meni yaxshi ko'rdi; odamlar mening egam Ishtarni emgan homiyligi va meni akam yaxshi ko'rshini ko'rib menga hasad qila boshladilar. Va Armandatta, Tsidini o'g'li, keyin boshqa odamlar menga qarshi fisq-fujur qila boshladilar. Ular menga yovuzlik tiladilar va akam Muvatalli meni parchinlashga hukm qildi... Mening dushmanlarimni, menga hasad qilganlarni Ishtar, mening egam, qo'limga berdi va men ularni to'la yo'q qildim.

(5§) Akam Muvatalli gap nimadaligini va menda hech qanday ayb qolmaganini ko'rgach, umeni qaytariboldi. U qo'limga Xatti mamlakatlari piyodalari va jang aravalarini berdi va men Xatti mamlakatining piyoda (qo'shnları) va jang aravalari ustidan boshliq bo'ldim...

(9§)...Misrdan qaytish yo'lida bo'lganimda, men ma'budaga qurbanlik qilish uchun Lavasantiga jo'nadim va ma'budaga ibodat qildim. Va ma'budaning amri bo'yicha men xotinlikka Puduxepu, kohin Pentipsarri qizini oldim. Va biz nikohga kirdik, iloh bizga er-xotinlik muhabbatini berdi. Va biz o'g'illar va qizlarni dunyoga keltirdik...

(10§)... [Va akam vafot qildi]... Shu vaqtida akamning hali qonuniy o'g'li bo'lmagani uchun men Urxitessupaning ikkinchi xotini o'glini oldim va uni [Xa] tti [mamlakati] hukmdori qilib qo'ydim va barcha qo'shinni uning qo'liga berdim. Va Xatti mamlakatlarida u buyuk podsho bo'ldi. Men esa Xakpisse viloyatiga podsho bo'ldim...

(11§) Urxitessupa ma'budaning mena shunday muhabbatini ko'rganda, u hasad qila boshladi. U mena qarshi fisq-fasod qila boshladi. U barcha fuqarolarimni tortib oldi va Samuxu6 ma'buda Ishtar e'tiqodi markazi shahrini mendan tortib oldi... U mendan Xakpissu va Nerikuni oldi. Va shunda men unga bo'ysunmay qo'ydim va men unga qarshi urusha boshladim. Lekin qachonki men u bilan dushmanlik qila boshlaganimda meni bulg'aydigan⁸ muqaddas hech narsa qilmadim.

(12§)... Men shunda Ishtarning ilohiy hokimiyatini uning ko'p sonli ko'rinishlarida ko'rdim. O'shanda ilgari vaqtarda u Urxitessupani nazardan qoldirmagan edi, (endi) bu qo'radagi cho'chqadek uni Samuxe shahriga qamadi. (Xettlarning shimoliy qo'shirlari Xett shaharlariga bosqin qilib turgan) ilgari men bilan yovlashgan kaska qabilasi odamlari endi meni qo'llab-quvvatladir.⁹ Va barcha Xattusi meni qo'llab quvvatladi. Lekin akanga to'la hurmat bilan men (unga) hech nima qilmadim⁹. Va men Samuxi shahridan orqaga Urxitessupu bilan birga qaytdim va uni asir sifatida olib keldim...

(13§) Men shahzoda edim, bosh meshedi bo'ldim. Keyin men meshedilar ustidan boshlab Xakpissa podshosi bo'ldim. Keyin men, Xakpissa podshosi, buyuk podsho bo'ldim. Shu bilan birga, ma'budam Ishtar meni hasadchilarim dushmanlar va sud bo'yicha raqiblar qo'liga berdi... Va Ishtar mening egam menga Xatti mamlakati ustidan podsholik hokimiyatini berdi va men buyuk podsho bo'ldim.

1. Mursili II- Xett podshosi, o'z yurishlari batafsil tasvirlangan annallar qoldirgan.

2. Supgilium (er. avv. XV asr oxiri)- Xett podshosi, Xett davlati quadratini qayta tiklagan.

3. Xattusili - Xattusili I.

4. Gapiroman - tarjimayi holda Xattusili III homiysi deb Xurrit ma'budasi Ishtar e'lon qilinadi. Ma'buda Ishtarga e'tiqod qilish xettlar tomonidan er. avv II ming yillik o'rtalarida Old Osiyoda quadratli bo'lgan xalq Xurritlardan o'zlashtirib olingan. Xurritlar xett madaniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdilar.

5. Tush-Xett dinida tush ma'budlar bilan mulogotni asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

6. Samuxa - Xurrit ma'budasi Ishtar e'tiqodi markazi.

7. Bulg'aydigan - Xattusili III hatto qonuniy podshoga qarshi chiqqanda ham din tomonidan muqaddaslashtirilgan normalarni buzmaganligini tasdiqlaydi

8. Qo'llab-quvvatladi kaska qabilalari Xett shaharlariga talonchilik urushlari qilgan xettlarning shimoliy qo'shnilarini.

9. Qilmadim -Xattusili III vafot etgan akasiga hurmat yuzasidan o'z dushmani – Urxitessupa bilan olijanob muomila qildi. Bu yerda podshoning o'z qarindoshlariga nishbatan yomonlik qilishini taqiqlovchi qadimgi Xett huquqi normalari o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xett jamiyatি

1906-yil arxeologlar tomonidan hozirgi Turkiyada Bo'g'ozqoya qishlog'i yaqinida qadimgi Xett poytaxti – Xattusi shahri qoldiqlari qazib ochilgan. Podsho saroyi xarobalari qazishmasi payti, mixxat bilan qoplangan o'n minglab taxtacha topilgan. 1916-yilda chex olimi Grozniy bu yozuvlarni tadqiq qilib, o'qishga muvaffaq bo'ldi.

Shunday yozuvlardan birida er. avv. XIII asr o'rtaida hukmronlik qilgan xett podshosi Arnuvandashaning zodagon ayloga sovg'a qilgan qo'rg'oni va boshqa narsalar sanab o'tiladi:

“26 erkak, 16 bola, 4 kichik bola, 30 ayol, 11 qizcha, 2 kichkina qizcha, 1 qari erkak, 1 qari ayol, jami 91 kishi; ular ichida – 6 qurolsoz, 2 oshpaz, 1 tikuvchi, Famorey kiyimini tikuvchi kishi, 1 charmgar, 1 temirchi. Erkaklar, ayollar, bolalar”. Keyin poda, yer ulushi sanab o'tiladi va xulosada bir oila “Tivatapara uyi” nomma-nom tarkibi beriladi. “1 erkak – Tavatapar, 1 bola – Xaruvanduli, 1 ayol – Atsiya, 2 qiz – Annitis v a Santaviya, jami 5 kishi”.

Er. avv. XV asr oxirida hukmronlik qilgan podsho Suppilulium g'olibona yurishlarini shunday tasvirlaydi:

“Akiyani, Araxati podshosini va jangchilarini ularning mulklari bilan birga asir oldim va Xett mamlakatiga olib ketdim. Men Nuxashish mamlakatiga yurish qilganimda, barcha mamlakatini egalladim. Podsho o'ldirildi, onasi, akalari, o'g'illarini asir oldim va Xettlar mamalakatiga olib ketdim ...”

Kadesh podshosini o'g'li, jangchilarini, akalari va barcha mulki bilan asirga oldim va Xettlar mamlakatiga olib ketdim ... Tushratining mag'rurligi uchun bir yil davomida bu mamlakatlarni taladim va Xettlar mamlakatiga olib ketdim”.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991.70-71 сmp

5-§. Suriya, Finikiya

Suriya hokimlarining Exnatonga xati

Tunipdan xat

Xat buzilgan Bobil tilida

Misr podshosiga, bizning xojamizga, sening qullaring, Tunip shahrining aholisi shunday deydi. Ha, senga tinchlik bo'lsin, biz xojamizning oyog'iga yiqilamiz.

Mening xojam! Sening quling, Tunip shahri shunday deydi: "Kim ilgari Tunipda joylashgan edi? Manaxperiya (ammativush)² unga joylashmagan edimi? Uni, Misr podshosini, mening xojamni, ma'budlari va dar[axtlari] "mutash" (naprillan) Tunipda yashagan edilar. Bizning xojamiz o'z keksalaridan (ammati) biz qachonlardir xojamiz, Misr podshosiga tegishli emasmidik, deb so'rasiplar.

Hozirc-hi, mana 20 yil biz podshoga xojamizga yozamiz. Bizning choparimiz (endilikda) podsho, bizning xojamiz oldida turibdi!

Hozir bizning xojamiz, podshodan iltimos qildik, o'g'li A [k]i – Teshupani³ xojamiz bizga berishi uchun va xojamiz Misr podshosi⁴ Aki-Teshupani bersin. Nima uchun podsho⁵, xojamiz, uni yo'ldan qaytardi?

Endi esa Aziru⁶ ularni⁷ sening qulingdan, sening bog'boningdan orqavarotdan eshitdi va ularni ... Xatti mamlakatida bosib oldi.

Va uning⁸ qo'shini va jang aravalari ushlanib qoldi, (shunda) Aziru Ni shahri bilan qanday qilgan bo'lsa, bizni ham shunday qiladi.

Agar biz tiyilib tursak, va Misr podshosi bu ishlar bo'yicha tiyilib tursa, Aziru bizni bosib olmoqchi bo'layotganda, shunda u bizning xojamizga qarshi o'z qo'lini cho'zishni istab qoladi.

Agar Aziru Simirga kirsa, shunda Aziru bizga nisbatan yuragi istagi bo'yicha podshomiz uyida xojamizga⁹ chora qo'llaydi. Va bunday ishlarga nisbatan bizning xojamiz tiyilib turadi!

Endi esa Tunip, sening shahring yig'lamoqda, va uning ko'z yoshlari to'kilmoqda, uning qo'lini¹⁰ ushlaydigan hech kim yo'q.

20 yil biz podshoga, xojamizga, Misr podshosiga yozamiz, lekin xojamizni biror bir javob so'zi bizgacha yetib kelmadni.

1. Tunip-Shimoliy Suriyadagi shahar

2. Manaxperiya-Tutmos III ismining ("Menxeperra") Bobil tilida buzilgan

ko'rinishi Ammativush- mitanni (xurrit) so'zi . Ko'rinishidan u "sening bobong" degan ma'noni bildiradi.

3. *Aki-Teshup -Tunip shahzodasi*
4. *Misr podshosi-Amenxotep III.*
5. *Podsho-ko'rinishidan Ammenxotep IV-(Exnaton)*
6. *Aziru-Oront daryosidan g'arb tomonda joylashgan Ammurru davlati hokimi.*
7. *Ular-Tunip aholisi demogchi?*
8. *Uni-Misr podshosi demogchi.*
9. *Xoja-Misrga qaram hududda.*
10. *Qo'l- "Yordamga hech qanday umid yo'q" ma'nosida.*

Shashximi shahar hokimi Abdimulkning Misr fir'avniga xati

Podshoga, mening xojamga, ayt – Abdimulk, Shashximi shahridan odam, sening quling. Yetti marta va yetti marta podshoning, mening xojamning oyoqlariga yiqilaman.

Qo'shin uchun (hammasini) tartibga keltirish uchun sen yozgan eding. Va mana men jangchilarim va jang aravalaram bilan podsho, mening xojam qo'shini oldida, u qayerga borsa, (borishga tayyorman).

Quddus hokimi Abdixibaning Misr firavni Exnatonga xati

Podshoga, mening xojamga ayt – Abdixiba shunday deydi: sening quling. Yetti marta va yetti marta mening xojam podshoning har ikkala oyog'iga yiqilaman.

Qandaydir sehrgarlar podshoga, mening xojamga meni to'g'rimda xabar berdilar, podsho mening xojam oldida, menga tuhmat qildilar: "Abdixiba podshodan o'z xojasidan ajralib ketdi"? Qara, bu o'ringa otam va onam o'tqazmagan. Podshoning qudratli kuchi (?) meni otamni uyiga olib kirdi! Nima uchun, men podshoga qarshi, xojamga qarshi jinoyat qilaman? Podsho, mening xojam toki hayot ekan, men podshoning, xojam[ning] noibiga aytaman: "Siz nima uchun xabirulni yaxshi ko'rasiz va oqsoqollarni² yomon ko'rasiz?" Haqiqatan ular menga podsho, xojam qarhisida tuhmat qildilar.

Ular haqiqatan podsho, xojamga meni yomonladilar, men shunday deyman: "Podshoning, xojamning mamlakati halok bo'lmoqda". Ha podsho, xojam bilsin, podsho, meni xojam qo'riqchi qo'yganidan

keyin, Eyenxamu uni, butun... Misr... podshoni, xojamni bosib oldilar. Qo'riqchi yo'q, podsho o'z mamlakatiga g'amxo'rlik qilsin. Podshoning, xojamning barcha mamlakatiga ajralib ketdilar. Ilimilku' podshoning barcha mamlakatini halok qildi. Va podsho, egam o'z mamlakati to'g'risida g'amxo'rlik qilsin.

Men o'zimga aytaman: "Men podshoga, i xojamga borar edim va podsho, xojamni ko'rар edim". Biroq dushmanlarim kuchli va podshoga, xojamga bora olmayman. Mayli podshoga qo'riqchi yuborish to'g'ri ko'rinsin va men borar edim va podshoga, xojamga nazar tashlar edim. Hozircha, podsho, xojam hayot ekan, hozircha no[iblik] mayjud bo'lar ekan, men aytaman: podshoning mamlakati halok bo'lmoqda, lekin siz meni eshitmaysiz. Barcha oqsoqollar halok bo'lmoqda. Podshoda, xojamda endi oqsoqollar yo'q. Podsho o'z nazarini qo'shinga yo'naltirsin va podshoning, xojamning qo'shinlari yurishga chiqsin. Podshoda mamlakat qolmadı. Xabiru podshoning barcha mamlakatini talamoqda. Agar bu yil qo'shin bo'lsa, podshoning, xojamning barcha mamlakati butun bo'ladi. Agar qo'shin bo'lmasa, (shunda) podshoning, xojamning mamlakati ha[lok] bo'ladi. Pod[sho] ning, xojamning koti[bi]ga, sening quling Abdixaba aytadi: Mening ochiq so'zlarimni podshoga, xojamga yetkaz: "Podshoning, xojamning [ba]rcha mamlakatlari halok bo'l_moqda".

1. Xabiru -yahudiy qabilalari

2. Bu holatda Misrga bo'ysunadigan Suriya va Falastin shaharlarining qaram hokimlari.

3. Eyenxamu va Ilimilku – ko'rinishidan xabiru yo'lboshchilar.

Hamat va Lu'ash podshosi Zakar yozuvi

Xamat' va podsho Zakar yozuvi 1904-yil Suriyaning Xalab shahridan 40 km janubiy-g'arbdagi Afis qishlog'idan topilgan. Yozuvda er avv. IX asrning II yarmida Xamat podsholigining tobora kuchayib borayotgan Damushq podsholigiga qarshi kurashi tasvirlanadi.

Men Xamat va Lu'ash podshosi Zakar bu lavhani (stelani) [o'z otamga] bunyod qildim. Men Zakar Xamat va Lu'ash podshosi- past tabaqadan kelib chiqqan odam va Samo hukmdori [men]i oldi va menga

yordamga turdi va meni Samo hukmdori [Ha]zrakda podsho qildi va Bar-Xadad, Xazael o‘g‘li (Damashq podshosi) Aram podshosi o‘n yetti podsholarni menga qarshi qo‘ydi: Bar-Xadad va qo‘smini, Bar-Gush va qo‘smini, podsho Kue va qo‘smini, Amka vodiysi podshosi va qo‘smini, podsho Gurgu[ma] va [qo‘]shini, Samala podshosi va qo‘smini, Meliz podshosi [va] qo‘[shini], Karxemish podshosi va qo‘smini, barcha podsholar o‘n yettita, ular va ularning qo‘smini va bu podsholarning barehasi Xazrakni qamal qildilar. Xazrak devoridan balandroq devor qurdilar va ular xandag‘idan ko‘ra chuqur xandaq qazdilar va men Samo hukmdoriga qo‘limni ko‘tarib yolvordim, va Samo hukmdori meni eshitdi. [Va] Samo hukmdori oldindan ko‘radiganlar va bashoratchilar orqali meni chaqirdi va Samo hukmdori menga aytdi: “Qo‘rqima, chunki men seni podsho qildim, va men senga yordam beraman va men bu barcha podsholarni sendan ozod qilaman, ular seni qamal qilgandilar!” va Samo hukmdori menga aytdi: “Bu barcha podsholarni, seni qamal qilgan, halok qilaman, ular Xazrakka qarshi [bunyod qilgan devorni buzaman!”].

1. Xamat-er.avv IX asrning II yarmida Damashq o‘z qudratining yugori cho‘qqisiga chiqdi va hukmronligi ostida butun Suriya va Falastinni birlashtirishga harakat qildi. Ushbu matnda tasvirlangan Xamat davlatining o‘z mustaqilligini saqlab qolish uchun Damashq tazyiqiga qarshi mivafaqqiyatlari qarshiligi tub burilish lahzasi bo‘ldi. Xamat podshosi Damashqning bosqinchilik harakatiga qarshi harakatini tavsiflaydi.

Danuniitlar podshosi Azitavaddi yozuvi

Danuniitlar podshosi Azitavaddi yozuvi 1947-yil Qoratepedan (Turkiya) topilgan bo‘lib, ikki tilda (Finikiya va Xett) yozilgan. Matn er. avv. IX asrning so‘nggi choragida tuzilgan.

Men – Azitavaddi, Vaal yorlaqagan, Vaalning quli, qudratli erkak, danuniitlar podshosi. Vaal meni danuniitlarga ota va ona qilib qo‘ydi, men danuniitlarni jonlantirishim uchun men Adan Vodiysi yerlarini quyosh chiqishidan uning botishigacha kengaytirish uchun va mening vaqtimda danuniitlarda har qanday faravonlik, mo‘lko‘llik va to‘kinlik bo‘lgan edi. Va men Paxridagi buzilganlarni qayta tikladim va otlarga, qalqonlarga qalqon, qo‘sning qo‘sini

qo'shdim – Vall va ma'budalar marhamati bilan men dimoqdirlarni yanchdim, mamlakatda bo'lgan yovuzlikni yo'q qildim, va hukmronlik uyim farovonligini ta'minladim... Va men otam taxtiga o'tirdim va podsholar menga qarshi dushmanlik qilsalar-da – odilligim, donoligim va qalbimning ochiqligi bo'yicha barcha podsholar bilan tinchlik tuzdim. Va men barcha chekkalarda, chegaralarda kuchli mudofaa inshootlari qurdim, yovuz odamlar, qismlar boshlig'i bo'lman joyda Mopsha Uyiga qaram bo'lmanlar o'z oyog'im ostiga tashladim. Va joylarda danuniitlar tinch yashashi uchun qishloqlar qurdim va mengacha o'tgan barcha podsholar bo'ysundira olmagan g'arbdagi kuchli mamlakatlarni men bo'ysundirdim. Men Azitavaddi ularni qaram qildim, aholisini esa sharqdagi chegaralarimga, danuniitlarni esa yerga ko'chirdim. Va ular danuniitlar mening kunlarimda Adana Vodiysining barcha joylarida quyosh chiqqan tomonidan u botgan joygacha yashadilar. Hatto ilgari xatarli bo'lgan, odamlar yurishga qo'rqqan yo'llarda mening kunlarimda... Vaal va ma'budlar marhamati bilan va barcha kunlarimda mo'l-ko'ichilik va shukronalik va to'kinlik va danuniitlarda va barcha Adan Vodiysida tinchlik bo'ldi. Va men bu shaharni qurdim va unga Azitavaddi nomini berdim, chunki Vaal va Reshef meni qurishga yubordilar va men Vaalning sharofati bilan va Reshefning sharofati bilan mo'l-ko'ichilikda, shukronalikda, to'kinlikda, tinchlikda qurdim, Adan vodiysi va Mopshaning tayanchi bo'lib xizmat qilishi uchun, mening kunlarimda Adan vodiysi mamlakatida mo'l-ko'ichilik va rohat-farog'at bo'lgan edi va mening kunlarimda danuniitlarda toliqqan odam yo'q edi. Va bu shaharni qurib, unga Vaalni joylashtirdim. Barcha ma'budlar tasviriga qurbanliklar majburiyat: har yillik buqalarni qurbanlik keltirish, qo'yni yerni shudgorlash vaqtida keltirish, o'rim paytida keltirish va Vaal Azitavaddiga hayot bilan yorlaqaydi va ko'p yil va yaxshi podsholik, barcha podsholar ustidan kuchli hokimiyat bilan yorlaqaydi – Vaal va shaharni barcha mabudalari Azitavaddiga uzoq kunlik va ko'p yillik va ezgu podsholik qilish, barcha podsholar ustidan kuchli hokimiyat bersin. Va bu shahar non va vino bilan mo'l-ko'l bo'ladi, unda yashaydigan xalq yirik qoramol va qo'ylarga, non va vinoga egalik qiladi; va soni ko'payib ishlaydi(?) Soni ko'payib Azitavaddiga va Mopsha uyiga. Vaal va ma'budlar uchun

xizmat qiladi. Agar qandaydir podsho va podsholardan, zodagon va zodagonlardan yoki qandaydir odam bu lavhalardan Azitavaddi ismini o'chirib o'z ismini yozsa yoki bu shaharni istab va Azitavaddi qilgan bu lavhalarni yo'q qilsa va boshqa lavhalarni qilsa va o'z ismini ularga yozsa, u ochko'zligidan, nafratlanib yoki achchiqlanib lavhalarni olib tashlasa. uning tangrining o'g'illarini, butun urug'ini, o'sha podsholik qiladiganni va o'sha podshoni va o'sha odamni kim bo'lmasin yerni va abadiy quyoshni yaratgan Samo hukmdori va el yo'q qilsin. Azitavaddi ismi esa quyosh va oy ismi kabi toabad saqlanadi.

Gezer dehqonchilik kalendari

Bu yozuv 1908-yil Quddusdan 25 km shimoli-g'arbda Gezerdan topilgan bo'lib, er. avv. Xasrga taalluqli deb taxmin qilinadi.

Ikki oy - hosilni yig'ish [sentabr – oktabr]. Ikki oy – ekish [noyabr, dekabr]. Ikki oy – kechki ekish – [yanvar, fevral]. Oy – boshqa hammasini ochish [may]. Ikki oy – uzumzorni kesish [iyun, iyul], oy – yozgi hosillar (Falastinda tariq va kunjut yozgi hosil sanaladi) [avgust].

Samala podshosi Barrakib yozuvi

Samala podshosi Barrakib yozuvi 1891-yil Zanjirli tumanidan (Turkiya) topilgan. U er. avv. 730-yil atrofida bitilgan.

Men – Barrakib Panamuvi o'g'li Samala podshosi yerning to'rt qismi egasi Tiglatpalasarning xizmatkori. Otamni haqiqatgo'yligi va mening haqiqatgo'yligim sababli mening xojam Rekubel va egam Tiglatpalasar meni otamning taxtiga o'tqazishdi. Otamning uyi boshqlardan ko'ra katta darajada edi, va men xojam, Osuriya podshosi g'ildiragi yonida, ulug' podsholar, kumush egalari, oltin egalari orasida yugurdim. Men otamning saroyini oldim va shunday qildimki, u har qanday ulug' podsholar saroyidan a'lo bo'ldi va mening birodarlarim – podsholar saroyimning hashamatiga havas qildilar. Meni ajdodlarimda, Sam'ala podsholarida esa yaxshi saroy bo'limgan edi; ular bu Kilamuvi saroyidan foydalandilar; u ular uchun qishki saroy bo'lib xizmat qiladi, u yana yozgi saroy bo'lib xizmat qiladi. Men esa bu saroyni qurdim.

Gerodot finikiyaliklar to‘g‘risida

Finikiya dengizchilari

IV. 42. ... Liviya, ko‘rinishidan Osiyoga tutash joyidan tashqari dengiz bilan qurshalgan. Menga ma`lum bo‘lishicha, buni birinchi bo‘lib Misr podshosi Nexo¹ isbotladi. Nildan Arabiston qo‘ltig‘igacha kanal qurilishi to‘xtatilgandan so‘ng, podsho finikiyaliklarni kemalarda jo‘natdi. Orqaga qaytish yo‘lni ularga Gerakl Ustunlari² orqali chiqib yurib Shimoliy dengizga³ chiqmaguncha Misrga qaytmaslikni buyurdi. Finikiyaliklar Qizil dengizdan chiqib, janubiy dengiz bo‘ylab suzdilar. Kuzda ular qirg‘oqqa tushdilar va Liviyaga qaysi joyga tushmasinlar, hamma joyda yerga ishlov berdilar; keyin yig‘im-terimni kutdilar va hosilni yig‘ib olgach, yana oldinga qarab suzdilar. Ikki yildan keyin uchinchi yilda finikiyaliklar Gerakl Ustunlarini aylanib o‘tdilar va Misrga keldilar. Ularning hikoyalariiga ko‘ra⁴, Liviya atrofida suzgan vaqtlarida quyosh ularni o‘ng tomonida turaverdi.⁵

43. Liviya dengiz bilan qurshalgani birinchi bor shunday isbotlandi. Keyinchalik karfagenliklar ham Liviyani aylanib o‘tganlarini tasdiqladilar.

1. Nexo- Er. avv. 610- 595 yillar XXVI sulola fir ‘avnni.

2. Ustun -Gibraltar bo‘g‘ozи.

3. Shimoliy dengiz – O‘rtayer dengizigacha.

4. Hikoyalarga ko‘ra – men bunga ishonmayman, kim xohlasa ishonsin.

5. Turaverdi – hozirgi astronomlar joylashgan finikiyaliklar janubiy yarim sharda bo‘lgan, ekvator ulardan o‘ng tomonda, shimolga bo‘lgan deb hisoblaydilar.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 69-70 срп.

Finikiya yozuvi

V. 58. Finikiyaliklar Kadmo¹ bilan Elladaga kelib, ular orasida yuqorida eslatilgan gefireylar ham bor edi² bu yerga o‘rnashdilar va ellinlarga fan va san’atni olib keldilar va shuning bilan birga ilgari ellinlarga noma'lum bo‘lgan yozuvni olib keldilar. Kadmeylar yozuv finikiyaliklardagidek boshqa edi. Keyinchalik til o‘zgarishi bilan astasekin harflar shakli ham o‘zgardi.

O‘sha vaqtda ularning qo‘snilari elli qabilalaridan ioniylarning

ko'pchilik viloyatlari edi. Ular finikiyaliklardan yozuvni oldilar, o'zlaricha harflar shaklini ozgina o'zgartirdilar va yozuvni Finikiyaniki deb atadilar³. Ioniylar ham qadimdan kitoblarni charm deb ataydilar, chunki papirus yo'qligi sababli, ular echki va qo'y terisiga yozdilar. Hozir ham varvar xalqlari shunday terilarga yozadilar.

1. Kadmo yunon afsonalari qahramoni, singillarini izlab Yunonistonga kelib, Fiva shahriga asos solgan.

2. Bor edi Gefireylar qadimgi Finikiya urug'i, qadimdan Yunonistonga ko'chib kelgan.

3. Atadilar bu mutlaqo adolatli edi, chunki finikiyaliklar uni Elladaga olib keldilar.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 70 срп

Kvint Kursiy Ruf Makedoniyalik Iskandar tarixi

Tir shahri

19. Avlodlar xotirasida ulug' shahar Tir taqdir azali bilan qamalning yettingchi oyida olindi. U Agenor tomonidan asos solinib, uzoq vaqt yaqin dengizlarda emas, faqat flotiliyasi kirgan joyda hukmronlik qildi va ovozalarga qaraganda, Tir xalqi yoki yozuvni kashf qildi yoki ularni birinchi bo'lib tarqatdi.

20. Uning koloniyalari dunyoning deyarli barcha hududlarida joylashdi: Karfagen Afrikada, Fiva Beotiyada, Gades okeanda. Mening fikrimcha, ular o'zlarining ko'p sonli yoshlariga boshqalar uchun notanish bo'lgan joylarni tanladilar, yoki ular ochiq dengizlar bo'ylab suzib, teztez u yerga bordilar yoki ularning dehqonlari ko'p yer qimirlashlaridan azob chekib – bu haqda yana gapirilgan edi – begona joyda o'zlarini uchun quroq bilan yangi koloniyalarni izlashga majbur edilar.

Историки Античности Там первый Древняя Греция М; 1989 540 срп

Tayanch iboralar: Liviya, Osiyo, Nexo, Arabiston, Gerakl, Gibraltar, Liviya, karfagenliklar, finikiyaliklar, Kadmo, Tir shahri, koloniyalar, ellinlar, Gades, Ellada, Gefirey, kadmeylar, ioniyalar, varvar

3-mavzu. Er. avv. I mingyillikda Qadimgi Eron va O'rta Osiyo

1-§. Midiya. Er. avv. VI asr oxiri – V asr boshlarida Ahmoniyalar Eroni davlati

Midiyani yuksalishi va halokati

Midiyaning yuksalishi va halokati. Gerodot.

96. Osuriyaliklar yuqori Osiyoda 520 yil davomida humkronlik qildilar. Birinchi bo'lib ulardan midiyaliklar ajralib chiqdilar. Ular osuriyaliklar bilan ozodlik uchun kurashdilar va qullik zulmini ag'darib, ozodliklariga erishib, jasorat ko'rsatdilar.

101. Deiok midiya xalqini birlashtirdi va ular ustidan hukmronlik qildi. Midiya qabilalari oltita: Buslar, Paretakenlar, Struxatlar, Arizantlar, Budilar, Maglar. Shu qabilalardan midiya xalqi tashkil topgan.

102. Deiokning Fraort nomli o'g'li bor edi, 53 yil podsholik qilgan, otasi o'limidan keyin podsholik hokimiyatini meros qildi. Fraort podsho bo'lgach, birgina midiyaliklar ustidan hukmronlik bilan qanoatlanmay, forslarga hujum qildi. Ular uning hujumiga birinchi uchragan va bo'ysindirilgan edilar. Keyin ikkovi ham kuchli, xalqlarni o'z hokimiyati ostida tutib, u Osiyoning boshqa xalqlarini birin-ketin bo'ysindira boshladi. Nihoyat, aynan Ninda yashagan va ilgari barcha ustidan hukmronlik qilgan osuriyaliklarga qarshi urushga bordi. Barcha ittifoqchilar osuriyaliklardan ajralib ketgan va ularni yolg'iz qoldirgan bo'lsalarda, lekin umuman osuriyaliklar yaxshi ahvolda edilar. Ularga qarshi yurish vaqtida 23 yil podsholik qilgan Fraort halok bo'ldi; va u bilan birga qo'shinining katta qismi nobud bo'ldi.

103. Fraortning o'limi bilan hokimiyatni Deiokning nevarasi Kiaksar meros qildi. Aytishlaricha, u ajdodlaridan ham jangariroq edi va Osiyoning bo'ysindirilgan xalqlarini birinchi bo'lib, quroq usuliga ko'ra, alohida harbiy qismlarga bo'ldi: nayzachilar, kamon otuvchilar va suvoriyalar; ilgari bularning barchasi farqsiz aralashgan edi. U kuntu2 bilan almashganda lidiyaliklar bilan urushdi, u boshchiligidida butun yuqori Osiyo Galis daryosini u tomonigacha birlashdi; keyin o'ziga qaram barcha xalqlarni to'pladi va otasi uchun o'ch olish va bu shaharni bosib olish uchun Ninga qarshi urushga bordi. Osuriyaliklar

ustidan g`alabadan so`ng, Kiaksar Ninni qamal qildi; Protofining o`g`li podsho Madiya boshchiligidagi katta skif qo`shini paydo bo`ldi. Skiflar Osiyoga o`zlar Yevropadan haydar yuborgan kimmeriylardan keyin bostirib kirdilar; qochayotgan kimmeriyarlarni ta`qib qilib, ular Midiya yeriga kirdilar.

104. Midiyaliklar skiflar bilan urushdilar, lekin yengildilar, Osiyo ustidan hukmronlikni yo`qotdilar, skiflar uni egallab oldilar.

106. Skiflar Osiyo ustidan 28 yil davomida hukmronlik qildilar, o`z isrofgarchiliklari va buzg`unchiliklari bilan butun Osiyon xonavayron qildilar va taladilar. Bundan tashqari, ular har bir xalqdan tegishli xiroj oldilar, skiflar bosqin qildilar va u yoki bu xalqning mol-mulkini taladilar. Kiaksar va midiyaliklar bir kuni ularni bazmga taklif qildilar, mast qildilar va yo`q qildilar. Midiyaliklar podsholikni ana shunday qutqardilar va ilgari o`zlarida bo`lgan hokimiyatga yana ega bo`ldilar, bundan tashqari ular Ninni bo`ysindirdilar va osuriyaliklarni o`zlariga qaram qildilar. Bobil viloyati bundan mustasno.

107. Qirq yil podsholik qilib, Kiaksar vafot etdi, bunga skiflar hukmronligi ham qo`shiladi, undan keyin hokimiyatni Kiaksarning o`gli Astiag meros qildi.

127. O`zlariga yo`lboshchi topgan forslar ozodlikka erishishga tayyor edilar, chunki ular midiyaliklar hukmronligidan anchadan buyon azob chekar edilar. Kirning bunday tayyorgarliklarini bilib, Astiag uni xabarchi orqali o`ziga chaqirdi; lekin Kir Astiag istagidan ilgariroq oldiga kelishini xabarchi orqali podshoga e`lon qilishni buyurdi. Bu javobni eshitgan Astiag Garagni lashkarboshi etib tayinlab, barcha midiyaliklarni qurollantirdi. Yurishga chiqgan midiyaliklar forslar bilan uchrashdilar, jangda ularning faqat bir qismi, aynan fitnada bo`Imaganlar ishtirok etdi, boshqalar forslar tomoniga ochiq o`tdilar; ko`pchilik jang qilishni xohlamadi va qochdi.

128. Faqat shunda Astiag Midiya qo`shini sharmandali yengilgani to`g`risida bildi va dahshatli hayqirdi: “Kir yaxshilik kutmasin!”. Keyin shu lahzada bashoratchilarni chaqirdi, ular unga Kirni qo`yib yuborishni maslahat bergen edilar, ularni parchinlashga amr qildi, keyin shaharda qolgan midiyalikni o`smir va keksalarni qurollantirdi. Ular bilan yurishga jo`nab, forslar bilan jang qildi, u yengildi, o`zi tirik

asir tushdi, u bilan birga bo'lgan midiyaliklar jangda halok bo'ldilar.

130. O'ttiz besh yil davom etgan Astiag podsholigi shunday tugadi. Midiyaliklar Astiagning shafqatsizligi oqibatida forslarga bo'ysundilar. Midiyaliklarning Galis daryosi u tomonida – Osiyo ustidan hukmronligi 128 yil davom etdi, lekin skiflar hukmronligi vaqtini hisoblash kerak emas. Keyinchalik ular afsus qildilar. Doroga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar, lekin jangda yengildilar va yana qaram bo'ldilar. Astiagga Kir hech qanday zarar yetkazmadi va uni o'z oldida o'limigacha saqladi.

1. 520-yil-Gerodotning yil hisobi asosi aniq ma'lum emas.

2. Kun-tun er:avv. 585 yil 28-may.

Gerodot

Fors davlati er. avv. VI asr o'rtalarida Mesopotamiyadan sharqda to'rt tomoni tog'lar bilan qurshalgan, Eron yassi tekisligida tashkil topdi. Ahmoniylar urug'idan bo'lgan Kayxusrav II (er.avv. 558-530 yillar). Midiya, Lidiya va Bobilni bosib oldi. O'rtayer dengizi sharqiy qirg'og'i shahar-davlatlari Kayxusrav IIga ko'ngilli ravishda bo'ysundilar. Kayxusrav Quddus shahrini qayta qurdi. Yahudiylarni Bobil usirligidan qaytardi. Yangi Bobil podsholigining eng mashhur podsholaridan biri Navuxodonosor II (er.avv. 605-562 yillar) Quddusni vayron qilib, er. avv. 586-yil yahudiylarni asirga olib, Bobilga haydalab ketgan edi. Finikiya shaharlarini qayta qura boshladi. Kayxisrav II Misrni bo'ysundirishga tayyorlana boshladi. Lekin uning bu niyati amalga oshmadi. Er. avv. 530- yilda u O'rta Osiyoga qo'shin tortdi, shu vaqtgacha hech kimga bo'ysunmagan erksevar sak va massaget qabilalari fors bosqinchilarini tazyiqiga qarshi kurash boshladilar. Massagetlar malikasi To'maris Kayxisrav II ni erksevar xalqlarni bo'ysundirish fikridan qaytarishga urindi. Ammo, Kayxisrav II malikaning o'g'lini makr-hiyla bilan qo'lga tushirdi va massagetlar ustiga qo'shin tortdi. Erksevar massagetlar To'maris boshchiligida fors qo'shinlarini ochiq jangda yanchib tashladilar. Kayxisrav II jangda o'ldirildi. Uning o'g'li Kambiz (er.avv. 530-522 yillar) Misrga yurish qilib, er.avv. 525- yilda uni bo'ysundirdi.

Doro I (er.avv. 522-486 yillar) davrida Fors davlatining sharqiy

chegarasi Hind daryosi orqali o'tdi. G'arbda u Kirenaika¹, Samos² orolini, Frakiya va Makedoniyanı bo'y sundirdi.

1.Kirenaika - Afrika.

2.Samos- Egey dengizida.

Kambizning Misrga yurishi va uning o'limi

II. 1. Kayxusravni o'limidan keyin podsholikni Karxusrav Farnaspning qizi Kassandanning o'g'li... Kambiz meros qilib oldi... Kambiz ioniyalar va eoliylarni o'z merosiy fuqarolari deb hisoblar edi. Shuning uchun Misr yurishiga tayyorlana turib, boshqa etatlар qatorida bu ellinlarni ham o'zi bilan oldi.

III. 17. Forslar suvsiz sahro orqali o'tib, misrliklar yaqinida ular bilan jang qilish uchun qarorgoh qurib turdilar.

13. Misrliklar o'sha jangda mag'lubiyatga uchrab, tartibsiz qo-chishga o'tdilar. Ularni Memfisga siqib chiqardilar va Kambiz o'sha yerga fors xabarchini daryoni yuqorisi bo'ylab Mitilen kemasiga taslim bo'lish taklifi bilan yubordi. Misrliklar Memfisga kirib kelayotgan kemani ko'rib, shahardan olomon bo'lib chiqdilar, kemani cho'ktirdilar, odamlarni chopib burdalab, ularning jasadlarini shaharga sudrab ketdilar. Keyin shaharni qamal qildilar va misrliklar uzoq qamaldan keyin taslim bo'lishga majbur bo'ldilar. Misrga qo'shni liviyaliklar esa boshlariga Misrni qismati tushishidan qo'rqib, qarshiliksiz forslarga bo'ysundilar, o'zlariga xiroj belgilab, podshoga sovg'alar yubordilar, liviyaliklardek qo'rqib, kirenaliklar va barkiyalar ham shunday qildilar...

61. Kayxusravning o'g'li Kambiz Misrda turgan vaqtida, aqlsiz ishlarni qildi, maglar² qabilasidan ikki aka-uka isyon ko'tardilar. Ulardan birini Kambiz Forsda o'z uyi boshqaruvchisi qilib qoldirgan edi. Bu odam Smerdisni o'limini maxfiy tutib turganlarini, Forsda bu haqda ayrimi kishilargina ma'lum ekanligini, ko'pchilik Smerdis hayot deb o'ylashini yaxshi bilar edi. Ana shu asosda mag podsho hokimiyatini bosib olish rejasini tuzdi. Men aytganimidek, u bilan birga isyon ko'targan akasi bo'lib, tashqi ko'rinishi bilan Kambiz buyrug'i bilan o'ldirilgan.

Smerdisga juda ham o'xshash edi. U nafaqat Smerdisga o'xshash

edi, hatto uning ismi ham Smerdis edi. Bu odamni, akasini mag Patizeyfes uning uchun hammasini to'g'rillashga ishontirib, uni "taxtga o'tirishga taklif qildi. (Akasini) taxtga o'tqazib, Patizeyfes (Fors davlatining) turli viloyatlariga hamda Misrga qo'shinga (xabar bilan), endilikda Kambizga emas, Kayxusravning o'g'li Smerdisga bo'y sunish lozim deb jarchilar yubordi.

64. Kambiz Smerdis nomini eshitganda, unga hammasi tushunarli bo'ldi... Kambiz otga sakrab mindi va tezda Suzaga magga qarshi yurishga qaror qildi. Podsho otga sakrab chiqqanda, qilichining qini tushib ketdi va yalang'och qilich sonini kesdi. Yara o'sha joyda, u ilgari o'zi Misr xudosi Apisga³ jarohatga yetkazgan joyda edi...

66. ...Shundan so'ng Kayxusravning o'g'li Kambizning suyagi quruq gangrena bilan kasallanganib, soni⁴ jonsizlanib vafot etdi. Qizi ham, o'g'li ham, umuman bolalari yo'q edi.

1. Keyin forslar

2. Maglar Midiya va Fors kohinlari.

3. Apis Qadimgi Misr mifologiyasida muqaddas buqa xudo Ptaxning yerdagi qiyofasi, boshda barcha mavjudotning yaratuvchisi.

4. Soni shishib ketishidan.

Хрестоматия по истории древнего мира.

М., 1991. 77-79 сmp

Nildan Qizil dengizga kanal qurilishi

Doro I er. avv. 522-486-yillar hukmronlik qilgan Ahmoniyalar Eroni hukmdori. Misrning Eron bilan aloqasini yanada yaqinroq qilish maqsadida er. avv. 600-yillar atrofida Misr fir'avni Nexo boshlagan Nil daryosidan Qizil dengizga o'tadigan, chala qolgan kanalni qazishni tugalladi. Hozirgi Suwaysh kanali chegarasida qo'yilgan toshda Doro I o'z yozuvini goldirgan.

"Men fors, Erondan... Misrni ishg'ol qildim. Pirava (Nil) deb atladijan, daryodan Misrda oqib, Forsdan keladijan dengizga quyiladijan bu kanalni qazishga qaror qildilar. Keyin bu kanal men qaror qilganday shunday qurildi va kemalar bu kanal bo'yicha Misrdan Forsga suzdilar, mening irodam shunday edi".

В. Н. Абдюев. История древнего

Востока 1965. 556 сmp.

Doro I kumush taxtachadagi yozuv bilan o'z davlati chegaralari to'g'risida qisqacha ma'lumot beradi

"Doro, buyuk podsho, podsholar podshosi, mamlakatlar podshosi, Gistaspning o'g'li, Ahmoniy, podsho Doro so'zlaydi: "Bu podsholikni, – Skifiyadan, So'g'diyonadan orqada Kushgacha (hozirgi Efiopiya), Hindistondan Sardgacha bo'lgan yerlarni menga xudolardan eng buyugi Ahuramazda berdi. Meni va uyimni Ahuramazda himoya qiladi."

В. Н.Абдиеев. История древнего

Востока 1965. 555 сmp

Doro I ning Behistun yozuvida qaram mamlakatlar qo'zg'olonlar bostirilgani to'g'risida shunday yoziladi:

"Men Bobilda bo'lgan vaqtimda, quyidagi viloyatlar mendan ajralib ketdilar: Fors, Elam, Midiya, Osuriya, Misr, Parfiya, Marg'iyona, Sattagidiya, Skifiya. Mana men Ahuramazdaning irodasi bilan bir yil davomida shunday ishlarni qildim. Men podsho bo'lganimdan keyin, 19ta urush qildim. Ahuramazda irodasi bilan men tor-mor qildim va 9 podshoni asir oldim."

В. Н.Абдиеев. История древнего

Востока 1965. 542 сmp

Doro I tomonidan boshqaruv tizimining qayta qurilishi Ma'muriy, soliq islohotlari

Gerodot

Er. avv. 522-521-yillarda Doro I (er. avv. 522-486-yillar) davlat boshqaruvini markazlashtirish maqsadida qator islohotlar o'tkazdi.

III. 89. ...Doro fors davlatini 20 provinsiyalar (okruglar)ga bo'lidi, u forslarda satraplik deb ataladi. Okruglarni tashkil etib, ularga hokimlarni tayinlab, podsho qabilalar bo'yicha soliqlarni belgiladi. Ko'pgina qo'shni elatlar bir satrapiyaga birlashtirilgan edilar, ba'zida yaqin qo'shnilaridan tashqari unga boshqa uzoq satrapiyalardagi xalqlar birlashtirilar edi. Satrapliklar taqsimoti va yillik xirojlarni u quyidagi tarzda taqsimladi: kim kumush bilan xiroj to'lsasa, podsho to'lovni Bobil talanti og'irligi bo'yicha, oltin bilan to'laydiganlarga Yevbey

og‘irligi bo‘yicha belgiladi. Bobil talanti og‘irligi 78 Yevbey minasiga to‘g‘ri keladi. Kayxusrav va Kambiz podsholiklari davrida aniq xiroj belgilanmagan, lekin faqat ko‘ngilli sovg‘alar bunday ulkan soliq va boshqa shunga o‘xhash tadbirlar tufayli Doro savdogar edi, Kambiz hukmdor, Kayxusrav ota edi der edilar, chunki Doro butun davlatni savdogarlarcha qurdi; Kambiz shafqatsiz va takabbur edi, Kayxusrav marhamatli bo‘lganligi barcha yaxshiliklari uchun hamma minnatdor edi.

96. Bu xirojlar Doroga Osiyodan va (mamlakatning) katta bo‘limgan qismi Liviyadan tushar edi. Keyinchalik ellin orollari va Yevropa xalqlaridan to fessaliyaliklarga xirojlarni olib kela boshladilar. Podsho bu o‘z xazinasini mana shunday tarzda saqlar edi: metallni eritib, sopol ko‘zalarga quyishni buyuradi. Ko‘za to‘lsa, uni sindiradilar. Qachon pul zarur bo‘lsa, podsho shuncha kerakli oltinni chopib olishni buyurar edi.

97. Okruglar va xirojlar hajmi shunday edi. Fors yerini men xiroj solingan yerlar qatoriga esladim, chunki forslar xirojlardan ozod mamlakatda yashaydilar...

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 79-80 срп

Harbiy islohot

Ksenofont qadimgi yunon tarixchisi, (er. avv. 430-yil-er. avv. 355-yillar atrofi) “Ekonomika” asarida Eronning harbiy-ma’muriy tizimi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan.. U shahzoda kichik Kayxusrav qo‘sishnida (er. avv. V asr) yollanma askar bo‘lib xizmat qildi. Shahzoda o‘z akasi Artakserks bilan taxt uchun kurashdi. Tarixchi Ahmoniyalar davlatida harbiy ish qanday yo‘lga qo‘yilgani to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Fors podshosi harbiy ish to‘g‘risida o‘ta g‘amg‘o‘rlik qilishiga biz rozmiz: u o‘lpon yig‘adigan har bir xalqni hokimiga qancha otliqlar, kamonchilar, o‘q otuvchilar va qalqon bilan qurollanganlarni saqlash lozimligiga ko‘rsatma berdi, qo‘l ostidagilarni boshqarish uchun ular qancha kerak, dushman bostirib kirganda mamlakat himoyasiga ular qancha ushlab turilishi kerakligiga ko‘rsatma berdi. Bundan tashqari, u akropollarida garnizonlarni saqlab turadi, ularni topshiriq berilgan

hokim saqlab turadi, podsho esa har yili to'la qurol-anjomda bo'lishiga ko'rsatma berilgan yollarma askar va boshqa qo'shirlarni ko'rigini o'tkazadi. U garnizonlardan tashqari, barchani yig'ilish o'tkazish belgilangan bir joyda yig'adi. Qarorgohda yaqin turganlarni o'zi, uzoqda yashaydiganlarni ko'rish uchun ishonchli kishilarni yuboradi. To'la anjomda va yaxshi otlar va qurol bilan qo'shinni taqdim eta bilgan komendant va xiliarxlardan yoki satraplardan yuqori lavozimga ko'tariladi, qimmatli sovg'alar bilan taqdirlanadi. Podsho garnizonlarga nisbatan uquvsiz yoki ta'magirligi uchun noinsof deb topilganlarni, og'ir jazolarga duch qiladi va boshliqlikdan chetlatib, boshqalar bilan almashtiradi. Uning harbiy ishga bunday munosabati, shubhasiz g'amxo'rligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, mamlakatining bir qismini o'zi aylanib chiqadi va ko'radi, bir qismini yuboriladigan ishonchli odamlar orqali va agar hokimlar yerni yashnagan, ishlov berilgan va o'ziga mos mo'l-ko'l daraxt va mevalar bilan ko'rsatsa, unga (yana) viloyatlarni qo'shib beradi, sovg'a va faxriy egarlar bilan mukofotlaydi. Agar yerga ishlov berilmagani, ularning qattiq qo'lligi tufayli aholi kamligi uchun, og'ir xulq-atvori yoki beparvoligini ko'rsalar, ularni jazolaydi va vazifasidan olib boshqa hokimlarni tayinlaydi... Ular tomonidan ikki vazifaga tayinlangan boshliqlar bir o'zлari aholi va ishlayotganlar ustidan boshchilik qiladi, soliqlarni yig'adi; boshqasi qurolli garnizonlarga rahbarlik qiladi. Agar qo'mondon mamlakatni yetarlicha himoya qilmasa, aholi boshlig'i va ishlov berish mudiri qo'riqlash yo'qligi sababli mehnat qilish mumkin emas deb, zimdan xabar beradi; agar komendant tinchlikni ta'minlamasa, yerga ishlov berish boshlig'ida yerga aholi kam joylashgan bo'lsa va ishlov berilmasa bu haqda zimdan xabar beriladi.

Xрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 80-81 сmp.

Fors qo'shinining yurish tartibi

Kvint Kursiy Ruf. Iskandar tarixi. III. 3, 8-25

Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf 10 jildli "Iskandar tarixi" asarini yozgan. Ushbu asarning 1-2 jiddlari bizgacha yetib kelmagan. Kvint Kursiy Rufning yashagan yillari aniq emas (taxminan er.avv. I asr yoki

eramizning I asrlari). Lekin ko'pchilik olimlarning fikricha, u Rim imperatori Klavdiyning (eramizning 41-54 yillari) zamondoshi bo'lgan. Tarixchi asarida qadimgi fors qo'shinlariga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.

3. ... (8) Qadimgi odatga ko'ra, forslarda yurishni chiqish faylat quyosh chiqishidan boshlash qabul qilingan edi. Yorug' kun boshlanishi bilan podsho chodiridan yurishga chiqishga burg'u bilan belgi berar edilar. Podsho chodiri ustidan tog' billuri o'matilgan quyosh tasviri yaraqlar edi. Bu tasvir shunday o'rnatilgan ediki, hamma tomondan ko'rish mumkin edi. (9) Fors qo'shining tartibi quyidagicha edi: oldinda kumush mehrobda olovni olib borar edilar, uni forslar muqaddas va abadiyl deb, e'tiqod qilar edilar. Bevosita mehrobning orqasidan qadimiyl madhiyani kuylagan kohin borar edi. (10) Muqaddas olovga qizg'ish yopinchiq kiygan 365 o'smir kohin hamrohlik qilar edi. Ular soni yildagi kunlar soniga teng kelar edi, chunki forslarda yil rimliklarnikiga teng edi. (11) Keyin oq otlar axuramazda (Yupiter) ning muqaddas aravasini olib borar edi. Bu otlar orqasidan misli ko'rilmagan kattalikdag'i otni olib borar edilar. Otlarni olib boradigan odamlar oq kiyingan edilar va oltin qamchilarga ega edilar. (12) Ulardan uzoq bo'lmanor orqada ko'p miqdor va kumush o'yma bezaklar bilan qoplangan 10 arava borar edi. (13) Aravalor orqasidan 12 qabilaning bir-biridan qurol-yarog'i va tashqi ko'rinishi bilan farq qiladigan otliqlar borar edi. Keyin forslar "o'lmaslar" deb nomlanganlar borar edi, ular 10 ming atrofida edi. Ular o'zlarining varvar hashamlari bilan ajralib turar edi; ulardan birlari oltin zanjir taqib olgan, boshqalari oltin bilan bezatilgan kiyim va hatto marvarid tikilgan, uzun yengli tunika kiygan edilar. (14) Ulardan uncha uzoq bo'lmanor masofada 15000 kishidan tarkib topgan podsho qarindoshlari deb ataladigan qism borar edi. Bu ayollarga yaqin bezangan olomon yarog'lari chiroyligidan ko'ra, kiyimi hashamati bilan o'ziga tortar edi. (15) Ularning orqasidan borayotgan qism "Doriforlar" nomida edi. Ular odatda, podsho kiyimini olib yurar edilar va barcha ustidan ko'tarilib turadigan podshoning o'zi yuradigan arava oldida yurar edilar. (16) Uning aravasi ikki tomoni oltin va kumushdan quyilgan xudolar tasviri bilan bezalgan edi. Bo'yinturuq qimmatbaho toshlar bilan qoplangan edi; undan uzunligi

lokot bo‘lgan ikkita oltin haykal ko‘tarilib turar edi. Ulardan biri Ninni, boshqasi Belani tasvirlaydi. Bu ikki tasvirlar o‘rtasida qanotlari yoyilgan, go‘yoki parvozga tayyor turgan muqaddas oltin burgut turar edi. (17) Podshoning kiyimi hatto umumiy hasham ichida ham ajralib turar edi; uning qizil tunikasi o‘rtasi oq bilan tikilgan edi; oltin bilan tikilgan mantiyani, bir-birini cho‘qiyotgan oltin kalxatlar bezar edi. (18) Ayollarga o‘xshab bog‘langan oltin belbog‘da aqinak osilgan edi, qini qimmatbaho toshlar bilan qoplangan edi. (19) Podsho tojini forslar kidara deb atar edilar. Tojning usti oq yo‘lli ko‘k belbog‘ bilan bog‘langan edi. (20) Podsho aravasi orqasidan 10000 nayzabardorlar borar edi. Ular uchlari oltin bilan kovsharlangan kumush bilan bezalgan nayzani olib borar edilar. (21) Podsho aravasining chap va o‘ng tomonidan yuradigan, uni yaqinlaridan 200 tacha zodagon‘ podshoga hamrohlik qilar edilar. Ular kolonnasini 30000 piyoda tugallar edi, uning orqasidan podshoning 400 otlari borar edi. (22) Nihoyat, bir stadiya masofada arava yurar. unda Doroning onasi Sizigambani olib borar edilar. Podsho xotini boshqa aravada edi, ikki malikaga hamrohlik qilgan ko‘pgina ayollar ular orqasida otlarda borar edilar. (23) Ular orqasidan (forslarda) armamaks deb ataladigan 15 yopiq arava² borar edi. Ularda podshoning bolalari, tarbiyachilar, bu xalqlarda hech ham tahqirli jonzot hisoblanmagan haram og‘alari olomoni borar edi. (24) Keyin podsholarcha kiyangan va bezangan 365 podsho joriyalari borar edi. Ularning orqasida 600 xachir va 300 tuyalarda podsho xazinasini olib borar edilar. Unga kamondan o‘q otadigan o‘qchi qo‘riqchilar hamrohlik qilar edi. (25) Bevosita bu kolonna orqasidan podshoning do‘stlari va yaqinlarining xotinlari hamda savdogarlar olomoni va oboz xizmatchilari borar edilar, so‘ngida yengil qurollanganlarning aryergardi – qo‘shtini to‘zib ketmasligi uchun belgilangan har bir qism harbiy boshlig‘i boshchiligidagi borar edi.

1. Abadiy-otashparastlik dinida quyosh va olov iloh Axuramazdaning mujassamligi sunalar edi.

2. Arava- kibitka

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 196-197 срп.

Pul islohoti

Doro I mamlakat uchun "yagona tilla tanga - darikni joriy qildi. Pul islohoti o'tkazish orqali turli xil pul birliklari o'rniga yagona pul tizimini yaratish va bu bilan mamlakat viloyatlari o'rtasida iqtisodni kuchaytirish va savdoni jonlantirishni ko'zлади.

Tanga zarb qilishni Doro I Lidiya podsholigidan o'zlashtirib oldi. Islohotga ko'ra, Doro I satraplarga faqat kumush tanga zerb qilish huquqini berdi, lekin ular buni podsho ruxsati bilan qila olar edilar.

IV. 166. ... Doro tanga zerb qilish uchun imkoniyat darajasida eng sof oltinni eritishni buyurdi. Misr satrani bo'lgan Ariand ham kumush tanga bilan shunday qildi. Shuning uchun ham, Ariand kumushi hozir ham eng toza, Doro buni bilib qolib, unga boshqa ayblov qo'yib, u qo'zg'olon ko'tarishni o'ylamoqda deb, uni o'ldirishga buyurdi.

Yo'l qurilishi

Fors podsholari viloyatlar o'rtasida aloqalarni yengillashtirish uchun tosh yotqizilgan yo'llar qurdilar. Ulardan eng kattasi 3 ming km uzunlikdagi "Podsho yo'li" deb atalib, Suzadan Efesgacha borar edi. "Podsho yo'li" otliqlar piketlari bilan estafeta tuzilishida xizmat qilar edi. Yo'llar yaxshi saqlanib, a'lo darajada qo'riqlanar edi. Yo'llarda yo'lovchilar uchun karvonsaroylar qurilgan edi.

V. Bu yo'l bilan Suzada ish shunday yo'lga qo'yilgan. Yo'Ining barcha qismida podsho bekatlari va a'lo karvonsaroylar bor, barcha yo'llar aholi bo'lgan va xavfsiz mamlakat bo'ylab o'tadi. Lidiyan dan Frigiyagacha $94 \frac{1}{2}$ farsang masofadagi yo'lda 20 ta shunday bekat joylashgan. Frigiyadan yo'l bevosita Galis daryosiga boradi ...bu yerda tog'lik o'tish mavjud bo'lib, daryodan kechib o'tish uchun darvoza orqali o'tish lozim. (Darvoza)dan o'tishda kuchli himoya bilan qo'riqchi istehkomi turadi. Daryodan keyin, Kappadokiya bo'lib, u bo'yicha 104 farsang masofada Kilikiya chegarasigacha 28 bekat turadi. Bu chegarada ikkita o'tish orqali ikkita qo'riqchi istehkomini bosib o'tish kerak; Kilikiya orqali o'tadigan yo'lda 3 bekat 15,5 farsang masofada, Kilikiya va Armaniston o'rtasidagi chegarani kema yuradigan Frot nomli daryo tashkil etadi. Armanistonda 56,5 farsang davomida 15 manzilgoh karvonsaroylari bilan turadi. (Armaniston)dan yo'l Matienaga² boradi; (bu yerda) 136 farsang masofada 14 manzilgoh.

Bu mamlakatda to'rtta kema yuradigan daryolar oqib o'tadi.

53. Agar bu podsho yo'li farsanglar bilan to'g'ri o'lchangan bo'lsa, agar farsang 30 stadiyaga teng bo'lsa, Sarddan Suzadagi podsho saroyigacha 13500 stadiy, yo'l 450 farsangda 150 stadiyaga hisoblansa, barcha yo'lga 90 kun to'g'ri keladi.

Fors davlatida aloqa xizmati

VIII. 98. ...Dunyoda bunday tez choparlardan boshqa yo'q: forslarda pochta xizmati ana shunday aqli tashkillashtirilgan! Hikoya qilishlaricha, butun yo'l davomida odamlar va otlar qo'yilgan, har bir kun yo'lda alohida ot va odam to'g'ri keladi, qor ham, jala ham, issiq ham, hatto kechasi ham har bir otliqqa belgilangan yo'lning qolgan qismini shitob bilan bosib o'tishga hech nima xalaqt bermaydi. Birinchi chopar ma'lumotni ikkinchisiga, u uchinchisiga beradi. Shunday qilib, xabar manzilga yetmaguncha qo'lidan-qo'lga o'tadi...

1. *Suzadan Efesgacha Egey dengizining sharqiy qirg'og'i. Suvaysh kanalidan topilgan yozuvlar Doro I dengiz yo'llariga g'amxo'rlik qilgani to'g'risida ma'lumot beradi.*

2. *Matiena Lidiyaning shimoli-g'arbiy qismi.*

3. *Farsang 30 stadiyaga teng aslida shunday.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 82 cмр.

Tayanch iboralar: Gerodot, maglar, Kayxusrav II, Quddus, yahudiylar, Navuxodonosor II, massagetlar, To'maris, Kirenaika, Samos, Frakiya, Kassandan, Mitilen, Smerdis, Patizeyfes, Apis, Ptax, gangrena, provinsiya, komendant, pul islohoti, podshoh yo'li, farsang.

2-§. Er. avv. I mingyllikda O'rta Osiyo xalqlari Gerodot. Skiflar

Gerodot Kayxusravning urushlari haqidagi qissani davom ettirib, Bobilning zabit etilishi va nihoyat, Kaspiy dengizining sharq tomonida, Sirdaryo va Amudaryo o'rta sidagi bepoyon sahroda yashovchi ko'chmanchi massagetlar bilan urushda Kayxusravning halok bo'lганligini hikoya qiladi.

Gerodotning skiflar haqidagi ma'lumotlari biz uchun, ayniqsa,

juda ham ahamiyatlidir: mamlakatimizning – janubi-g'arbida, Dnepr hamda Don daryolari sohillarida. Qora dengiz qirg'oqlarida yashagan eng qadimgi xalqlar to'g'risida gapirganimizda, avvalo ulug' yunon muarrixining shahodatlariga murojaat qilamiz. Doroning skiflarga qarshi urushi munosabati bilan Kichik Osiyo xalqlari, ayniqsa, yunon qabilalari o'rtasida Eron hukmronligiga qarshi kuchli ozodlik urushlari boshlanadi. Vatanimiz tarixini o'rganish borasida Gerodotning asari, ayniqsa, juda muhim o'rinn tutadi. Muarrix bu zaminga oyoq bosmag'an bo'lsa ham, yurtimizning uzoq o'tmishi haqida to'g'ri ma'lumotlар beradi. Uning aytishicha, Kaspiy dengizining sohillaridan boshlab, Sirdaryoning o'rtalariga qadar cho'zilib horadigan keng sahroda massaget deb atalgan ko'chmanchi qabilalar yashagan, ular hech qanday ekin ekmasdan, faqat chovrachilik bilangina kun kechirgan, ovqatlari mol go'shti hamda daryodan ovlanadigan baliq bo'lgan, ular temirni bilagan, hamma asboblarni va qurol-aslahalarni misdan yasagan; ayollar erkaklar bilan bir qatorda janglarda qatnashar va hatto qabilia boshlig'i bo'lib saylanar edi. Adabiyotimizning eng qadimgi yodgorliklaridan biri bo'lgan "To'maris" qissasi faqat shu tarixchi tufayli bizning zamonga qadar yetib kelgan. Chetdan bostirib kelgan dahshatli Eron bosqinchilariga qarshi malika To'maris rahbarligida massagettarning mardonavor kurashlari, dushmani tor-mor keltirib, podsho Kayxusravni qatl etganlari hali ham bizni hayajonga soladi, asirlikdan o'limni afzal ko'rib, o'zjoniga qasd qilgan shahzoda Sparangizingning jasorati g'urur-iftixor tug'diradi.

Gerodot skiflar taomiga ham qiziqish bilan qaraydi. Oltmish birinchi hikoyatda bu haqda shunday deyiladi: "Jonliqning go'shtini suyagidan ajratadi-da, qozonga soladi. Suyagini o'choqqa qalab yoqadi va shu bilan qozonni qaynatib, go'shtni pishiradi.

Mabodo qozon topolmasa, go'shtni jonliqning qorniga soladi-da, suv quyadi. Tagiga suyak qalab yoqadi. Suyak juda yaxshi yonadi. Suyakdan tozalangan go'sht tez pishadi. Taom tayyor bo'lgach, qassob bir bo'lak go'shtni va pishirilgan qorinni xudo yo'liga bag'ishlaydi. Uy hayvonlarining hammasini ham qurbanlik qilaverish mumkin, ayniqsa, otini qurbanlik qilish alohida buyurilgan.

Xudoga ishonuvchi skiflarning hammasida ham shunday qurbanlik odati bor. Ayniqsa, Arey sharafiga qurbanlik qilish alohida odatga

aylangan. Har bir skif shohligi Arey sharafiga alohida chiroq yoqadi. Uzunligi 3 stadiy keladigan uzun xodalarni qalab, uncha baland bo'lmagan qo'rg'on yasaydi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М. 1991. 74-75 срп

Gerodot. Massagetlar.

215. Massagetlar skiflardek kiyinib, ularga o'xshab hayot kechiradilar. Ular otda va piyoda safda ham jang qiladilar. Ularda odatta kamon, nayza va jangovar cho'qmorlar bor. Lekin nayzalar, kamon o'qlari va jangovar cho'qmorlarning metall qismlarini misdan yasaydilar, bosh kiyimlari, kamar va belbog'larni tilla bilan bezaydilar. Shuningdek, otlarga ham ko'kraklik sifatida missovutlarni yopadilar. Uzangi, yugan va bezaklarni oltin bilan ziynatlaydilar. Temir va kumush ularning kundalik hayotida yo'q, chunki bu metallar bu mamlakatda umuman uchramaydi. Oltin va mis u yerda mo'l-ko'l.

216... Ular odam hayoti uchun [hech qanday] chegara belgilamaydilar. Agar ulardan kimdir juda keksa yoshgacha yashasa, barcha qarindoshlari qariyani qurbanlik keltiradilar, go'shtini esa boshqa qurbanlikka keltirilgan jonliqlar bilan birga pishiradilar va yeydilar. Shunday o'lish – ular uchun eng ulug'vor lazzat, marhamat. Biron kasallik bilan vafot etganlarni yemaydilar, lekin yerga dafn qiladilar. Shu bilan birga vafot etganlarni yoshi bo'yicha qurbanlikka keltirish mumkin, bo'limasa baxtsizlik hisoblanadi. Massagetlar don ekmaydilar, lekin chorvachilik va baliq ovi bilan yashaydilar (Araks daryosida baliq favqulodda mo'l-ko'l) hamda sut ichadilar. Ular sig'inadigan yagona xudo bu – quyosh. Ular quyoshga otlarni qurbanlikka keltiradilar, bu qurbanlikni eng tezkor xudoga dunyodagi eng tez chopadigan jonivorni qurbanlikka keltirish kerak deya izohladilar.

Историки Античности. Геродот. История. Том первый. М. Издательство Правоа .1989. срп 119-120.

Gerodot. Massagetrarning ozodlik kurashi

204. G'arbdan Kaspiy dengizi, Kavkaz bilan chegaradosh, sharqda esa quyosh chiqish tomonda unga cheksiz ko'z ilg'amaydigan

tekislik tutashadi. Bu ulkan tekislikni ko'pchilik qismini tilga olingen massagetlar egallaydi, ularga qarshi Kayxusrav urush qilishni o'yladi. Kayxusravda bu yurishga undaydigan juda muhim sabablar bor edi. Eng avvalo, o'zini odamlardan yuqori deb bildi, keyin unga barcha urushlarda baxt kulib boqdi. Axir Kayxusrav qarshi borgan hech bir xalq o'z halokatidan qochib qutula olmadı.

205. Massagetlar malikasi marhum podshoning rafiqasi edi. Uni To'maris deb atar edilar. Unga Kayxusrav elchilarni sovchilik bahonasi bilan go'yoki uni o'ziga xotin qilish maqsadida jo'natdi. Lekin To'maris Kayxusrav unga uylanish emas, massagetlar podsholigi ilinjida ekanini tushundi va uni rad qildi. Shunda Kayxusrav ayyorlik bilan maqsadiga erisha olmagani uchun massagetlarga qarshi ochiq urush bilan keldi. Qo'shinni o'tkazish uchun podsho Araks daryosiga ponton ko'priklar qurushni, ko'priklar turgan kemalarda esa minoralar ko'tarishni buyurdi.

206. Kayxusrav qo'shini bu ishlar bilan band ekan, To'maris chopar orqali Kayxusravga mana buni aytishga buyurdi: midiyaliklar podshosi o'z niyatidagi qayt. Axir sen oldindan bilmaysanku, bu ko'priklarni qurush sen uchun yaxshilikka xizmat qiladimi-yo'qmi, qo'y buni, o'z davlating ustidan podsholik qil va biz o'z-o'zimizga hokim bo'lganimizga hasad qilma...

214. To'maris Kayxusrav uni so'ziga e'tibor bermaganini bilib, barcha qo'shini bilan forslarga hujum qildi. Bu jang bilishimcha, varvarlar o'rtasidagi eng shafqatsiz janglardan biri bo'ldi. Aytishlaricha, raqiblar bir-birovlariqa qarama-qarshi turib, uzoqdan kamonlardan o'q yog'dirganlar. Keyin o'q zaxirasini tugatib, xanjar va nayzalar bilan qo'lma-qo'l jangga tashlandilar, raqiblar uzoq urushdilar, hech kim chekinishni istamadi. Nihoyat, massagetlar yengdilar. Deyarli barcha fors qo'shini jang maydonida qoldi, Kayxusrav o'zi ham halok bo'ldi. To'maris esa sharob meshini odam qoniga to'ldirdi, keyin o'lgan forslar ichidan Kayxusravning jasadini topishni buyurdi. Kayxusravning jasadini topganlarida, malika boshini meshga tiqishni buyurdi. Keyin marhum ustidan mazax qilib, shunday deya boshladı: Sen baribir meni halok qilding, men tirik qolib, seni jangda yengan bo'lsam-da, ayyorlik bilan o'g'limni bosib olding. Shuning uchun, mana endi seni qon bilan to'ydiraman: Kayxusravning o'limi to'g'risida ko'p hikoyalarni ichidan taxminimiga ko'ra, eng ishonchlisi shu.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 74-75 срп

Doro Ining saklar ustiga yurishi

Eronning Kirmomshoh shahri yaqinidagi Behistun qoyasidagi yozuvlarda, Doro I saklar ustiga qilgan yurishi to'gr 'isida hikoya qiladi.

Vatanimiz hududida yashagan saklar Doro Iga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatganlar, forslar katta qiyinchilik bilan ularning bir qismini bo'y sundirgan.

"Doro, podsho so'zlaydi: Men qo'shin bilan birga saklar, dengiz ortida bo'lgan saklar mamlakatiga yurdim, ular cho'qqi qalpoq kiyadilar. Keyin men kema ko'prigini dengiz yaqinida uning o'rniqa qayta qurdim. Bu kema ko'prigidan mamlakatga o'tdim va men saklarni tormor etdim, bir qismini men bosib oldim, boshqa qismi menga keltirildi va ularni bosib oldilar, ularning eng kattasi bog'langan Skunxa nomi bilan menga keltirdilar. U yerda men boshqasini boshliq qildim, mening irodam shunday bo'ldi. Keyin mamlakat meniki bo'ldi."

B. П.Абдиеев. История древнего
Востока 1965. 555 cnp

Tayanch iboralar: Sirdaryo, Amudaryo, Gerodot, Kaspiy dengizi, skiflar; stadiy, To'maris, Yevbey minasi, midiyaliklar; xanjar, Ksenofont, Ekonomika. Ahuramazda, maglar; satrap, darik, Efes, Kappadokiya, Matienga.

"Ilk xan sulolasi tarixi"dan

("Syan Xan Shu")

"Ilk xan sulolasi tarixi" 58-85 yillarda yozilgan ilk Xan sulolasining (er. avv. 206-yil eramizning 24-yili) hukmdorligi davri voqealari bayon qilinadi. Asar mualliflari Ban Byao-ota, Bangu-o'g'li, Ban Chjao-qizi. Asar Sima Syanning "Tarixiy yozishmalari" namunasida yozilgan. Manbada bu davrda xitoylik sayohatchi Chjan Syanning Xitoydan g'arba, O'rta Osiyoga qilgan sayohati va xunmlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

"Chjan Syanning hayot tasviri"

Er. avv. II-I asrlarda yashagan sayohatchi va davlat arbobi Chjan Syan faoliyati tasviri.

Imperator Udi davrida Syanyuan (er. avv. 140-135 yillar) boshqaruvi

yillarida u (Chjan Syan) imperator soqchiligidagi xizmat qildi. Bu vaqt达a asir xunnlar yuechji qabilasi yo'lboshchisini yenganlari, uning kalla suyagidan ichimlik idishni yasaganlarini hikoya qildilar. Qochib ketgan yuechjilar xunnlardan o'ch olishni istar edilar, lekin ularda hujum qilish uchun ittifoqchilar yo'q edi. Shu vaqt达a Xan sulolasi imperatori xunnlarni yo'q qilishga tayyorlandi va bu to'g'risida bilib qolib "Men (yuechji) bilan aloqa qilmoqchiman, lekin ularga yo'l xunnlar orqali o'tadi" dedi. Kim elchi bo'lishi mumkinligini izlay boshladilar (Chjan) Syan soqchilar zeboti sifatida yuechji qabilasiga, Tani urug'iga tegishli qul Ganfu bilan borishga istak bildirdi.

Ular birgalikda Shensi provinsiyasidan chiqdilar va to'g'ri xunnlarga tushdilar. Xunnlar ularni ushlab oldilar va o'z yo'lboshchilariga kuzatdilar. Yo'lboshchi "Yuchejilar mendan shimolda yashaydilar, xanlar ularga elchi yuborishga qanday jur'at qiladilar? Men seni Xan imperatoridan kechishingni istayman. Sen menga bo'ysinishni istaysanmi?" dedi. U (Chjan) Syanni o'z oldida qoldirdi. (Chjan) Syan xunnlarda o'n yil yashadi, yo'lboshchi unga xotin berdi, u ayoldan o'g'il ko'rdi. Lekin (Chjan) Syan hamma vaqt Xan imperatorining elchilik hassasini saqladi, uni yo'qotmadi. U xunn yerlarini g'arbida yashadi va o'zi bilan yuborilganlar bilan qochdi.

Bir necha o'n kun ular g'arbga yuechji qabilalari tomon qochdilar va Dovonga keldilar. U yerda Xan boyliklari to'g'risida ilgari eshitgan edilar va ular bilan aloqa o'matmoqchi edilar, lekin qila olmadilar. Ular (Chjan) Syanga xursand bo'ldilar va u nima istashini so'radilar. U Xan imperatori tomonidan elchi qilib yuechji qabilasiga jo'natilgani, yo'lda xunnlar bosib olgani va keyin ozod bo'lgani to'g'risida ularga hikoya qildi...

Ular tarjimonni (Chjan) Syanni kanszyuy qabilasida kuzatib borishga yubordilar. Kanszyuy uni katta yuechji qabilasiga jo'natdilar. Lekin katta yuechji hokimi xunnlar tomonidan o'ldirilgan edi, taxtga uning vorisi chiqdi, u dasya qabilasini bo'ysundirdi va ular ustidan podsholik qildi. Yerlar hosildor edi, u oz-oz qaroqchilik qildi, huzurhalovat va tinchlikka intildi. shu sababli, uzoq Xitoydan uzoqlashdi va xunnlardan qasos olish niyatini umuman unutdi. Shunday qilib, yuechjilardan eng muhimiga erisha olmay, (Chjan) Syan Dasyaga bordi va u yerda bir yildan ko'proq qoldi. Orqaga Syan qabilasi mulklari orqali

qaytishni o'ylab, u Nanshan orqali yurdi va yana xunnlar tomonidan ushlab olinib, u ularda bir yildan ortiqroq qoldi.

Bu vaqtida xunnlar yo'lboshchisi o'ldi, mamlakatda ola-g'ovur ko'tarildi va (Chjan) Syan xunn qabilasidan bo'lgan xotini va Tani urug'dan qul bilan qochdi. (Chjan) Syan qaytganidan so'ng, imperator unga amaldor unvoni, Tani urug'idan bo'lgan qulga elchining xizmatchisi unvonini berdi. (Chjan) Syan qat'iy marhamatli va sodiq odam edi. Barcha varvarlar uni yaxshi ko'rdilar. Tani urug'idan bo'lgan qul varvar edi va mohir o'quzar edi. Og'ir vaqlarda u qush va hayvonlarni ov qildi, o'q otib ozuqa topdi.

(Chjan) Syan sayohatga jo'naganda, u bilan yuzdan ko'proq odam ketdi, o'n uch yildan keyin faqat ikki kishi qaytdi. (Chjan) Syan Dovonda katta yuechjilar, Dasyada, kanszyuylarda bo'ldi, va bundan tashqari hikoyalardan ularning yonida yana besh yoki olti katta davlatlar borligini bildi. U imperatorga bu barcha yerlar to'g'risida va yerda bor narsalar to'g'risida, g'arbiy o'lkada nima eshitgan bo'lsa hammasini hikoya qildi.

(Chjan) Syan aytди: "Men Dasyada bo'lganimda, u yerda uzun bo'g'inlari bilan bambukdan hassalarni va Shudan keltirilgan nozik surjni ko'rdim". Men so'radim: "ularni qayerdan oldingiz"? va dasiyalik odam menga "bizning savdogarlarimiz ularni sotib olish uchun Shendu mamlakatiga boradilar. Shendu mamlakati Dasyadan bir necha ming li janubi-sharqda turadi, ularda o'troq yashash odat. Joylar ham Dasyadagidek: pastlik, nam va juda issiq. Xalq yerda fillarda jang qiladi. Bu davlat dengiz yaqinida joylashgan" dedi. (Men), (Chjan) Syan Dasya Xitoydan janubi-g'arbda o'n ikki ming li turadi, Shendu mamlakati esa Dasyadan bir necha ming li janubi-sharqda turadi. U yerda Shendu tovarlar bor, demak Shendu uzoq emas. Bu safar men Dasyaga syan qabilasi orqali bordim, bu xafvli. Syan bizni ko'ra olmaydi va ularidan ozgina shimalroqda men xunnlar tomonidan ushlab olingan edim. Shu orqali yo'l to'g'riroq va qaroqchilar yo'q".

Imperator eshitdiki, Dovon, Dasya, Ansi kabi shunday katta mamlakatlarda ko'pgina qimmatbaho buyumlar bor, odamlar u yerda o'troq hayot kechiradilar, ularning odatlari xitoyliklarga o'xshash, lekin qo'shin zaif, ular Xitoy boyligini qadrlaydilar. U bildiki, ularidan

shimolda shunday qabilalar katta yuechji va kansuyu jangchilar kuchli. Shuning uchun, u sulolaga foyda keltirish uchun, ularga sovg'a yuborishga qaror qildi. Va shunda ularni urushsiz bo'ysindirish mumkin bo'ladi. U yerlari o'n ming kilometrga kengayishi, uning shon-shuhratni turli xalqlar orasida tarqalishi to'g'risida o'yladi va (Chjan) Syanning so'zlariga quvonch bilan ishondi. Shu orqali yo'l tezroq bo'lgani uchun, u ayg'oqchilarni bir necha yo'llar bilan yuborishga buyruq berdi.

Ular man, syu, si va bo qabilalari orqali yurdilar, lekin faqat bir yoki ikki ming li yo'l bosib o'tdilar. Kim shimolga yurgan bo'lsa, yo'lni di va syu qabilalari to'sdilar; kim janubga yurgan bo'lsa suy va kunmin yo'lni to'sdilar. Kunmin kabi qabilalar hukmdorsiz yashaydilar, qaroqchilik qilishni yaxshi ko'radilar va tez-tez o'ldiradilar. Lekin ulardan ming lidan ko'proq g'arbda fillarda yuriladigan mamlakat mavjudligini, u Dyanyue deb atalishini, Shu savdogarları ba'zida u yerda tovarlar bilan o'tishni eshittdilar.

Imperator ilgari ham Dyan mamlakati bilan Dasyaga yo'l topish uchun aloqa o'rnatishni boshlagan edi. Dastlab, u elchilarni janubig'arbga I qabilasi orqali yuborishga qaror qildi, lekin katta xarajatlardan keyin, bu niyatidan qaytdi. (Chjan) Syan Dasya bilan aloqa o'rnatish mumkinligini hikoya qilganda, u janudi-g'arbda I qabilasi bilan yangidan ish olib bordi.

(Chjan) Syan harbiy komissar, bosib olingen mamlakatlar bosh-qaruvchisi vakolati martabasida lashkarboshiga hamkorlik qilishga jo'nadi. Xunnlarga zarba berildi. (Chjan) Syan o't va suvli joylarni bilar edi, shu sababli yetishmovchilik bo'lmadi. (Chjan) Syanga Bovan knyazi unvoni berildi. Bu Yuanshu (er. avv. 123 y) boshqaruvining oltinchi yilda yuz berdi. Bundan keyingi, ikkinchi yilda (Chjan) Syan saroy qo'riqchilari boshlig'i sifatida Li Guan bilan birga yurishga chiqdi. Yubeyinda ular xunnlarga hujum qildilar. Lekin xunnlar lashkarboshi Lini qurshab oldi, qo'shin katta yo'qotishlarga uchradi va (Chjan) Syan o'lim hukmini kuta boshladi. Jazo uchun uni oddiy odamga tushirdilar, o'sha yil eng kuchli lashkarboshi xunnlarni Shimoliy chegarada tor-mor qildi. Bir necha ming kishini yo'q qilib, u Tyanshangacha bordi. O'sha kuzda xunnlar yo'lboshchisi Xunya o'z xalqini olib keldi va Xitoya bo'ysindi. Xunnlar Szinchendan ... Yanzegacha yo'q bo'ldi. Boshida

xunnlardan elchilar tez-tez keldi, keyin esa yanada siyrak ikki yildan keyin Xitoy qo'shini xunnlar yo'lboshchisini sahro shimoliga haydadi.

Imperator bir necha marta Chjan Syandan Dasya kabi mamlakatlar to'g'risida so'rab surishtirdi. U knyaz unvonini yo'qtganda, u hikoya qildi: men xunnlarda yashaganimda, usun qabilalarining Kunmo nomli knyazi to'g'risidagi hikoyalarni eshitdim. Uning otasi Nandouma Tyanshan va Dunxuan oralig'ida katta yuechji qabilasi bilan birga yashadi. Katta yuechjilar usunlarga hujum qildilar, Nandoumani o'ldirdilar va uning yerlarini bosib oldilar. Uning xalqi xunnlarga qochib keldi. Buszu martabasidagi va Lin knyazi mansabidagi amakisi yangi tug'ilgan Kunmoni olib ketdi va u bilan birga cho'lga qochdi.

Bir kuni u ozuqa topishga ketdi va qaytib kelganda ona bo'ri Kunmoni sut emizayotganini, qarg'a ular yonida tumshug'ida go'sht bilan uchayotganini ko'rdi. U buni mo'jiza deb qabul qildi va bola bilan xunnlarga bordi. Xunnlar yo'lboshchisi bolani yaxshi ko'rib qoldi va uni tarbiyaladi. Kunmo ulg'ayganda, yo'lboshchi otasining xalqini unga berdi va uni qo'shinga yo'lboshchilik qilish uchun yubordi. Kunmo bir necha marotaba g'alabalarga erishdi. Bu vaqtda xunnlar tormor qilgan katta yuechjilar shimolda se qabilasiga hujum qildilar. Se uzoqqa janubga ketdilar, yuechjilar esa ularning yerlariga o'rnatishdilar. Kunmo kuchli bo'lganda xunnlar yo'lboshchisidan otasi uchun qasos olishga ruxsat so'radi. U katta yuechjilarga g'arbdan hujum qildi. Ular yana ketdilar va Dasya yerlariga ko'chib bordilar. Kunmo ularning xalqini boshqara boshladи va jangchilarga dam berish uchun u yerda qoldi. Bu vaqtda yo'lboshchi vafot etdi va Kunmo xunnlarga boshqa xizmat qilishni xohlamadi. Xunnlar unga qarshi askarlarini yubordilar, lekin ular uni yengga olmadilar va uning ilohiy kuchiga yana kuchli ishonib qaytib ketdilar.

Hozir xan qo'shini xunnlar yo'lboshchisini yana bostirdi, Kunmo yeri bo'sh yotibdi. Varvarlar ona yurtini yaxshi ko'radi, shu bilan birga xan buyumlarini istaydi. Haqiqatan shunday vaqtda Usun qabilalariga mo'lko'l sovg'alar yuborish kerak, ularni sharqda eski joylariga ko'chishga tortish va Kunmoning ukasiga xotinlikka malikani yuborish kerak.

Shunda u xan imperatori hokimiyatiga bo'ysinishi kerak bo'ladi. Bu xunnlarda o'ng qo'lni chopishni bildiradi. Agar biz usunlar bilan

birlashsak, shunda g‘arbda tashqi xiroj to‘lovchilar sifatida Dasya kabi shunday davlatlarni tortamiz.

Imperator (Chjan) Syanning hisoblarini to‘g‘ri deb tan oldi va uni saroy qo‘mondoni mansabiga ko‘tardi. Unga 300 ta odam, har biriga bir justdan ot, 10 minglab sigir va qo‘y berdi, sovg‘aga oltin va bir necha ming bo‘lakgacha gazlamalar, 10 mingdan ko‘proq temir yubordi.

U (Chjan) Syanga elchi yordamchisi unvonida alohida elchilik xususiyatli yordamchilar berdi, bo‘linish mumkin bo‘lishi va ularni boshqa mamlakatlarga yuborish uchun.

Ular usunlarga kelgach, (Chjan) Syan ularga imperator farmonini taqdim qildi, lekin ulardan qaror ola bilmadi... shunda u yordamchilari bilan ajraldi va ularni Dovonga kanszylarga Yuechji va Dasyaga yubordi.

Usunlar ularni kuzatdilar va yo‘lni ko‘rsatdilar. (Chjan) Syan usunlardan elchi bilan birga va bir necha o‘nlab odamlar, otlar bilan, Xitoyni ko‘rsinlar va uning qudrati va ulkan hududini bilishlari uchun imperator tashakkur uchun orqaga qaytdi. (Chjan) Syanga buyuk arbob unvoni taqdim qilindi. Bir yildan ko‘proq vaqt o‘tgach, u vafot qildi.

Bir yildan ko‘proq vaqt o‘tdi. Ular yuborgan yordamchilar Dasya va boshqa mamlakatlar bilan aloqani o‘rnatdilar va u yerdan ko‘p odamlar bilan qaytdilar. Va shunda shimoli-sharqiy mamlakatlar Xan imperiyasi bilan aloqa boshladilar. Lekin ularga yo‘lni (Chjan) Syan ochdi. Keyin barcha elchilar knyaz Bovan martabasi bilan nomlandilar, chunki u boshqa qabila mamlakatlari ishonchi garovi edi...

“Yuya xronikasi” da Xuanxe balandligi ikki yarim ming lidan ko‘proq Kunlun tog‘idan oqib keladi deb aytildi. Bu tog‘ ortidan go‘yoki navbat bilan quyosh va tog‘ bizga yorug‘lik berib yashirinadi. Chjan Syan Dasyaga elchi bo‘lib borganda, u daryo boshigacha yetdi, lekin Kunlun deb nomlangan tog‘ni u ko‘rdimi? Shuning uchun “Rivoyatlar kitobi”da aytilgan to‘qqiz viloyat, tog‘lar, daryolar (haqiqatga) yaqin, “Yuya xronikasi” va “Tog‘lar kitobi” da uydirmalar.

Li Guanli hayot tasviri (er. avv 40 yil atrofida o‘lgan)

Bu tarixiy manbada eramizdan avvalgi I asrda Xitoy qo‘sishlarining Farg‘ona vodiysiga harbiy yurishlari va erksevar ajdod-

larimizning bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi bat afsil bayon qilinadi.

Li Guanlining kichik singlisi – Li fujen imperator Udinig yaqinlaridan edi... Taychu boshqaruvining birinchi yilda (er.avv 104 yil) lashkarboshi (Li) Guanli Dovon davlatiga, qaram qabilalardan olti ming otliqlar va Xitoyning turli viloyatlaridan bir necha o'n ming bekorchi yoshlarni olib bordi. U Ershi shahriga ajoyib otlar uchun bordi, shundan keyinchalik Ershi lashkarboshisi ... laqabini oldi. Qo'shin g'arbda Yanshuydan o'tdi. Qo'shin yo'li o'tgan kichik davlatlar, mustahkamlandilar, o'zlarini himoya qildilar, unga ozuqa berishni istamadilar. (Li) Guanli qamal qildi, lekin hamma vaqt ham shaharni egallay olmadi. Agar hujum muvafaqqiyatli chiqsa, u ozuqa topar, agar birdan shaharni egallay olmasa, shunda bir nech kundan keyin ketar edi. U Yuychen shahriga yaqinlashdi. Shu vaqtga kelib, ochlikdan bir necha ming jangchi safdan chiqdi. Yuychen hujumni qaytardi. Li Guanlida juda ko'p o'lansar va yaradorlar bor edi.

Lashkarboshi ahvolni muhokama qilish uchun yaqinlarini ken-gashga chaqirdi: qo'shin Yuychengacha yetib keldi, lekin uni egallay olmadi. Qanday qilib, u poytaxtgacha borishi mumkin? Orqaga qaytishga qaror qilindi.

Yurish ikki yil davom etdi, Dunxuangacha har o'nta askardan bir yoki ikki askar yetib bordi. Li Guanli imperatorga ma'lumot bilan elchi yubordi, unda xabar qildi "yo'l uzoq, ko'p holda biz oziq-ovqat yetarli emasligidan qiyaldik. Askarlar jangda halok bo'lmadi, ochlikdan o'ldi. Dovon shahrini egallah uchun odamlar yetarli emas. Men vaqtinchalik yurishni to'xtatmoqchiman, ko'p qo'shin to'plab, yurishni yangidan boshlash kerak.

Bunday xabarlar imperatorning jahlini chiqardi. U xabarchini Yuymen zastavasiga yubordi va qo'shinni yo'lini to'sish va kim askarlar bilan zastavaga kirishga jur'at etsa, o'ldirishga buyruq berdi. Lashkarboshi imperatorning qahri kelishidan qo'rqi va Dunxuangaga qarorgoh qurdi.

O'sha yil yozda xunnlar bilan jangda yigirma mingdan ko'proq qo'shin halok bo'ldi... zodagon va amaldorlar imperatorga Dovonga ekspeditsiyani tugatishni va barcha kuchlarni xunnlarga qarshi

tashlashni maslahat berdilar, lekin imperator Dovonga qarshi qo'shin yuborib bo'lgan edi va agar u bu kichik davlatni yenga olmasa, Dasya kabi katta mamlakatlar Xitoyni mensimay qo'yar edilar, shunda dovondan ajoyib otlarni olib bo'lmay qoladi. Luntay shahrida Usunlar xan elchilariga azob beradilar, boshqa barcha davlarlar Xitoyning ustidan kula boshlaydi. Va u Dovonga yurish e'lon qildi.

...Imperator jinoyatchilarni afv qildi va ularni qo'riqchilar sifatida yubordi. U tayinsiz yoshlar va chegara otliqlarni to'pladi. Dunxuandan bir yildan ko'proq o'tganda, shaxsiy zambilkash va xizmatkorlarni hisobga olmaganda, oltmish ming kishi yurishga chiqdi. Ular bilan yuz ming ho'kiz, o'ttiz ming ot, o'ng minglab eshak va tuya bor edi. Qo'shining oziq-ovqat, qurol va askarlar bilan ta'minlanishi juda yuqori edi. Butun Osmon mamlakati Dovonga yurish to'g'risida ovozalar tarqatib hayajonga tushdi...

Dovon shahrida quduqlar yo'q edi, suvni shahar ortidagi daryodan olib kelar edilar. Shuning uchun, qo'shin bilan sug'orish ustalarini jo'natdilar ular shahardan suvni chetlashtirishlari, devor ortidan o'ra qazishlari zarur edi. Szyusyuan va Chjani shaharlaridan shimolga o'n sakkiz ming sovtillarni Szyusyuanga himoya sifatida, Szyusyuan Syutu qal'alari qurilishi uchun yubordilar. Yetti daraja jinoyati bo'yicha hukim qilinganlarning barchasini Ershi qo'shini uchun ozuqa tashishga yubordilar. Dunxuangacha yuk tashiydigan odamlar va jinoyatchilar cho'zilib ketdi. Dovon olingandan so'ng, yaxshi otlarni tanlash uchun ot o'rgatuvchilardan ikkitasini boshliqlikka ko'tardilar va Ershi ikkinchi marta yurishga jo'nadi. Qo'shin o'tgan ko'pgina kichik davlatlar uchun ozuqa chiqardilar. Lekin Luntay shahri taslim bo'lindi. Bir necha kundan keyin uni qamal qilib tashladilar. Bu yerdan Dovongacha tinch bordilar. O'ttiz ming askar yetib bordi. Dovondan qo'shin chiqdi va xan askarlariga hujum qildi. Lekin ular ham o'qchilaridan yengildilar. Shunda dovonliklar shaharni mudofaa qilishga kirishdilar. Ershi Yuyen shahriga hujum qilishni o'yladi, lekin Dovon qamalini kechiktirishdan va shu bilan raqibni qandaydir hiylaga majbur qilishdan cho'chidi. U Dovonga yaqin keldi va shahardan suvni chetlashtirdi.

Suvdan mahrum bo'lish aholiga katta azoblar keltirdi. Shaharni qamal qilish va hujumlar 40 kundan ko'proq davom etdi. Dovonning

zodagonlardan biri taklif qildi “Knyaz Umu” ajoyib otlarni yashirdi va Xan elchisini o‘ldirdi. Agar biz knyazni o‘ldirsak, ajoyib otlarni bersak xan qo‘smini qamalni tugatadi. Agar u qamalni tugatsa, hali o‘lishgacha jang qilishga ulguramiz”. Barcha zodagonlar bu fikrni to‘g‘ri deb topdilar, birgalikda knyazni o‘ldirdilar. Bu vaqtida tashqi devor buzilgan edi va zodagonlarning eng jasur boshlig‘i Szyan Mi asir olindi. Shaharda (Li Guanli qo‘sminini ichki shaharga bostirib kelishdan xavfsiradilar va kengashdan keyin unga) xabar berdilar “Xanlar Dovonga knyaz Umu uchun hujum qildilar. Biz lashkarboshi Ershiga knyazning boshi bilan kelishishga elchi jo‘natamiz; xanlar bizga boshqa hujum qilmasinlar, biz qanday otlarni istasangiz beramiz va qo‘sminni oziq- ovqat bilan ta’minlaymiz. Agar rozi bo‘lmasangiz biz barcha otlarni yo‘q qilamiz va Kanszyuydan yordam olamiz; shunda biz ichki shaharda urushamiz kanszyuy esa sizga tashqaridan hujum qiladi. Qanday yo‘lni tanlaysiz bizga xabar bering”. Bu vaqtida kanszyuylar kutib turdilar. Xan askarlari hali kuchli ekanini ko‘rib, ular yaqinlashishga botina olmadilar.

Ershi bildiki, shaharda sir olingen xitoyliklardan quduq qazishni o‘rgandilar va u yerda oziq-ovqat ko‘p. Qo‘smin bu yerga bosh aybdor-knyaz Umuni jazolash uchun keldi. Endi jinoyatchining boshini unga keltirdilar. Agar ularning taklifiga u rozi bo‘lmasa, ular joni boricha o‘zlarini himoya qiladi. Shunda xan askarlarining charchashini konszyuylar kutib turadi, dovonliklarni qutqarishga keladilar va qo‘smini yanchib tashlanadi. Barcha harbiy boshliqlar Ershi bilan rozi bo‘ldilar va Dovon bilan shartnoma qabul qilindi.

Xitoyliklar o‘zlariga eng yaxshilarini tanlab olishlari uchun shahar otlarni hozirladi va qo‘smin ta’minti uchun ko‘p ozuqa berdi. Xan qo‘smini bir necha o‘nlab eng yaxshi otlardan uch mingdan ko‘proq ayg‘irlar va o‘rta va yomonlardan biyalardan tanlab oldi. Ershi Dovonga knyaz qilib, zodagon Motsayni qo‘ydi, u ilgari xitoyliklarga yaxshi munosabatda bo‘lgan edi, u bilan ittifoq tuzdi va qo‘sminni olib chiqdi. Shunday qilib, oxir-oqibatda qo‘smin ichki shaharga kirmadi. Qo‘sminni orqaga qaytarib, Ershi Dunxuanga g‘arbdan yo‘naldi. Unda odamlar ko‘p edi va uning yo‘lidagi davlatlar boqa olmas edilar. (Li Guanli) uni janubiy va shimoliy yo‘llar bo‘yicha jo‘naydigan bir necha qismlarga bo‘ldi.

Mingdan ortiq odam harbiy boshliqlar van Shen'shen, Gu Xunlu, Xu Chungo bilan birga Yuychengacha alohida yurdilar. Shaharlar ulardan o'zlarini himoya qildilar va ozuqa berishni istamadilar.

Van Shenshen bosh qo'shindan 200 liga uzoq ketdi. U mag'rurlandi va dushmanni mensimay Yuychenga hujum qilishga shoshildi, lekin shaharda uning qo'shi kamligini bilib oldilar. Tongda uch ming odam unga hujum qildi. Van Shen'shenni va boshqalarni o'lindirdilar. Faqat bir necha odam tirik qoldi, ular Ershi qo'shinigacha yetib bordilar.

Lashkarboshi harbiy boshliq Shanguan Szega Yuychenga hujum qilishga buyruq berdi. Shahar yengildi. Uning knyazi Kanszyuya qochib ketdi. Shanguan Sze uni Kanszyugacha ta'qib qilib bordi. U yerda xitoyliklar Dovonni tor-mor qilganini va Yuychenga qarshi chiqqanini eshitgan edilar; shuning uchun knyazni xitoyliklarga berdilar. Shanguan Sze 4 otliqqa knyazni bog'lashni va qo'riqchi ostida bosh lashkarboshiga yetkazishni buyirdi. Yo'lida bu 4 otliq yuychenliklarni yomon ko'rishlari, asir tufayli muhim ishlardan chetda qolayotganlari to'g'risida suhbatlashdilar. Ular uni o'lirmoqchi bo'lilar, lekin hech kim birinchi bo'lib zarba berishga botinmadi. Shunda Shanguydan bo'lgan otliq Chjao Di qilichni sug'urib, knyazni chopib tashladi. Ular lashkarboshiga yetib olishga shoshildilar.

Dastlab unga aytdilar keyin imperatorga xabar berdilar, hamda usun qabilalariga elchi jo'natdilar. Dovonga qarshi katta qo'shin chiqqanda usunlar ikki ming otliqni yubordilar. Lekin qaysi tomonga qo'shilishni bilmadilar va jang qilishni istamadilar. Ershi qo'shini orqaga yurish qilganda, uning yo'liga kichik davlatlarning knyazlari Dovonni yengilganini eshitib, qo'shin bilan birga xiroj to'lash va imperatorni ko'rish uchun o'z o'g'illari va kichik ukalarini yubordilar. Ular garovga olindilar.

Yuuning zastavasiga o'n ming kishidan ko'proq odam va o'n mingdan ko'proq otlar kirdi. Orqaga qaytishda ular ochlikdan qiy-nalmadilar va jangdagi yo'qotishlar uncha katta bo'lmadi, lekin ochko'z askarboshilar va kotiblar askarlarni yaxshi ko'rmas edilar, ularga chigirtka kabi tashlandilar va shuning uchun o'lganlar ko'p bo'ldi. Bu o'n ming li uzunlikdagi yurish uchun imperator ularning barcha jinoyatlarini kechirdi. U buyruq berdi: "Xunnlar uzoq vaqt bizga

zarar keltirdilar va ular sahro shimoliga ko‘chgan bo‘lsalarda, boshqa davlatlar bilan ittifoq tuzdilar...

LashkARBOSHI Ershi (Li) Guanli g‘arb knyazi martabasiga ko‘tardi, sakkiz ming oiladan foydalanishga berdi.

Knyaz Yuychenni chopib tashlagan otliq Chjao Dini Sinchji knyazi martabasi bilan taqdirladi. Katta harbiy xizmatlari uchun sardor Chjao Shini amaldor martabasiga, dushman hududi ichkarisiga botirlik bilan kirgan Shanguan Szeni davlat mulklari nazoratchisi lavozimiga ko‘tardi. Taktikada o‘zini ko‘rsatgan Li Chenni Shandan viloyati hokimi etib tayinladi. Harbiy boshliqlardan 3 tasi amaldorlar lavozimlarini oldilar, yuzdan ortiq kishi – knyaz unvoni va ikki mingdan g‘alla ish haqi bilan viloyat hokimi, mingdan ortiq kishi mingdan kamroq ish haqi bilan (lavozimlar) oldilar. Ko‘ngillilar ular kutgandan ko‘ra kattaroq mansablar oldilar, kim mahkum sifatida yurishga borgan bo‘lsa, harbiy xizmatlari uchun ulardan barcha jinoyatlari olib tashlandi. Har bir askarga qirq ming tangagacha hadya qildilar. Ular Dovonga ikki marta yurish qildilar va yurishni to‘rt yil ichida tugatdilar.

O‘n bir yildan keyin Chjenxe boshqaruvining uchinchi yilida (er. avv. 90 yil) Ershi yana Uyuanga xunlarga hujum qilish uchun 75 ming otliq bilan chiqdi. U Chjiszyuy daryosi orqali o‘tdi, lekin uning askarları yengilib, xunnlarga taslim bo‘ldi, uning o‘zi ularning yo‘lboshchisi tomonidan o‘ldirildi. Bu haqda xunnlar hayoti tasvirida aytildi.

4-mavzu. Qadimgi Hindiston

1-§. Hindistonning tabiiy boyliklari Sitsiliyalik Diodor. Tarixiy kutubxona

II. 35. Hindistonda turli mevalar beradigan har xil daraxtlar o'sgan katta tog'lar bor, ko'plab daryolar kesib o'tgan chiroy bilan ajralib turadigan ko'p hosildor tekisliklar bor.

Hind yerlarining katta qismi sug'oriladi va shuning uchun yilda ikki marta hosil beradi. Hindiston qushlar kattaligi va kuchi bilan ajralib turadigan turli xil hayvonlarga boy. Hind yeri ko'p sonli va juda katta fillarni yetishtiradi, ularga mo'l-ko'l xashak berilgani uchun hind fillari o'z kuchi bilan Liviyada yashaydiganlardan ancha yuqori turadi. Shu sababli, hindlar ko'pgina fillarni ushlab olib, harbiy janglarga tayyorlaydilar, ba'zi paytda ular g'alabani ta'minlaydi.

II. 36. Shu tarzda odamlarga yegulik bo'ladigan mevalarning mo'l-ko'lligi, odamlar bo'yи balandligi va savlatli bo'lishiga yordam beradi. Bunga yana qo'shimcha qilish kerak, ular san'atda yetakchi bo'lishlariga sabab, toza havodan nafas oladilar, tarkibi o'ta nozik suv ichadilar.

Yerlarida mevalar mo'l-ko'l bo'lishi bilan birga ko'plab ma'dan konlarini o'z ichiga oladi: taqinchoqlar, kundalik iste'mol bugunlari va harbiy anjom uchun kumush, oltin, ko'pgina mis va temir, qo'rg'oshin va boshqa metallar mavjud.

Demetra mevalaridan tashqari, Hindistonda daryo namligi bilan sug'oriladigan tariq o'sadi, har xil dukkakli hamda sholi va bospor ataladigan, oziq-ovqat uchun foydali boshqa ko'pgina narsalar. Va bularning ko'p qismi yovvoyi holda o'sadi...

Shuning uchun, aytishlaricha, Hindiston ochlikni bilmas edi yoki yemish uchun umumiyligi yetishmovchilik yo'q edi. Chunki har yili u yerda ikkitadan yomg'irli mavsum biri qishki, boshqalarda bug'doy ekish bo'lganda, boshqasi yozgi-bu vaqtida sholi va bospor, hamda sezam va tariq ekiladi.

Hindlarda qonunlar ham, hech qachon ovqat yetishmovchiligi bo'lmasligiga yordam beradi. Chunki, boshqa yurtlarda dushmanlar qishloq joyiga zarar yetkazib, uni dehqonchilik uchun yaroqsiz qiladi.

Hindlarda esa dehqonlar muqaddas va daxlsiz sanalganlari uchun, jang qilayotganlar yaqinida dehqonchilik bilan shug‘ullanadilar. Ularga hech qanday zarar yetkazmaydilar, chunki ular hamma uchun marhamatli hisoblanadilar, dushmanning yerini yong‘in bilan ham, daraxtlarni chopish bilan halok qilmaydilar.

11.37. Hindlarni yerlarida boshlanishi tog‘da bo‘lgan, shimolda joylashgan katta va keima ishiga yaroqli daryolar ko‘p. Tekislik bo‘yicha tarqab oqib, ularning ko‘pchiligi bir-biri bilan birlashib, Gang deb ataladigan daryoga quyiladi.

I. Bospor – tariqning bir xili.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 83-84 сmp

Ijtimoiy tuzum

Qadimgi hind jamiyatining erkin aholisi to‘rt umumhind toifasi-varnalarga¹, varna ichida ko‘pgina mahalliy yopiq kasta² yoki jati³ga bo‘linar edi. Varnalarga mansublik tug‘ilish bilan belgilanar va merosiy edi. Toifaviy tuzilish boshqa qadimgi jamiyatlarga ham bor edi, lekin qadimgi Hindistonda unga mustahkamlik, xos edi.

Varna ijtimoiy muassasa sifatida kastaga qaraganda, ancha oldin kelib chiqqan, varnalarning paydo bo‘lishi Shimoliy Hindiston hududida oriylarning joylashuvi va ularda ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, zodagonlar, kohinlarning ajralib chiqishi bilan bog‘liq. Varnaga mansublik orqali aholini qaram qilishga urinilgan.

Varnalarga bo‘linish din tomonidan e’tirof etilar edi. Varnalarni yaratilishing xudo Braxmaning amri deb ko‘rsatilar edi. Varnalar huquq va majburiyatlarda farqlanar edilar. Har bir varnaga mansub an‘anaviy mashg‘ulotlar ko‘rsatilgan edi: braxmanlar uchun kohinlik majburiyatları, kshatriylar uchun harbiy ish va boshqaruv, vayshilar uchun savdo-hunar, dehqonchilik, shudralar uchun ucholiy varnalarga xizmat qilish. Kastalar mamlakatni notejisij ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti sharoitida, aholini etnik va diniy bir-biridan ajralishidan kelib chiqdi. Ijtimoiy ahvoli, mashg‘ulotlari, kasblari ma’lum etnik, ba’zida diniy birliklarga uyushgan kishilar guruhlari kastalarga ajraldilar. Jatilar asosan vayshi va shudralar doirasida paydo bo‘ldilar. Ular yopiq

jamoa ko'inishida bo'lib, boshqaruv organlariga ega edilar. Ba'zi jatilar juda past o'rими egallaganlari uchun biror varnaga kirmas edilar, ular "tegib bo'lmaydiganlar" edi.

Manu qonunlari

"Manu qonunlari" majburiyat to'g'risidagi ko'rsatmalar to'plami, xususiy va ijtimoiy hayotda yurish-turish qoidalari hamda davlat boshqaruvi va sud ishlari bo'yicha yo'riqlardir. Uning tuzuvchisi olamning afsonaviy asoschisi Manu hisoblanadi. Aslida esa, bu to'plam braxman ilmiy maktablaridan birida bir necha asr davomida yaratildi. To'plam er. avv. I asr boshlarida paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. To'plamda 4 varna tuzilishi tasvirlangan.

1-31. Dunyo gullab-yashnashi uchun u (Braxma) o'z og'zi, qo'li, (tegishli) soni va tovonlaridan braxmanni, kshatriyni, vayshi va shudrani yaratdi.

X-4. Braxmanlar, kshatriylar va vayshilar ikki marta tug'ilganlarning uch varnasi, to'rtinchisi shudralar-bir marta tug'ilganlar, beshinchisi yo'q.

1-87. U yaraqlagan bu barcha koinotni saqlab qolish uchun o'zini og'zi, qo'li, soni va tovonidan tug'ilganlar uchun alohida mashg'ulotlar belgiladi.

Braxmanlar

Braxmanlar alohida mavqega ega edilar. Hech qaysi qadimgi Sharq mamlakatida kohinlar Hindistondagi kabi imtiyozli mavqega ega emas edi. Kohinlar har qanday majburiyatlar, soliqlar, tan jazosidan ozod qilingan bo'lib, yerdagи xudo deb e'lon qilingan edi. Qadimgi Hindistonda diniy marosimlarga sehr kuchi berilib, urf-odatni sirlarini egallagan kohinga bo'ysundirilgan edi.

I-88. O'qitish, Vedalarni o'rganish, o'zi uchun qurbanlik keltirish va boshqalar uchun qurbanlikni, xayr-ehsonni tarqatish va olishni⁴ u braxmanlar uchun belgiladi.

I-100. Dunyoda nima mayjud bo'lsa, braxmanning mulki; tug'ilish bo'yicha oliyligi uchun aynan braxman barcha huquqqa ega.

II - 135. O'n yoshli braxman va yuz yoshli pogshoni ota va o'g'il deb hisoblash kerak va ulardan – ota braxman.

IX – 371. Braxman – o‘lim yoki o‘lim bo‘lмаган – buyuk iloh, buyuk ilohga teng va olov va^s foydalanilmagan.

X – 81. Agar braxman yuqorida aytilgan mashg‘ulotlari bilan kun ko‘ra olmasa, u kshatriyning dxarmalaridan (foydalanish) bilan yashashi mumkin, chunki kshatriy uning orqasidan bevosita boradi.

Kshatriylar

1.89. Fuqarolarni himoya qilish, (xayr-ehson) tarqatish, qurbonlik keltirish (Vedalarni) o‘rganish va dunyoviy zavqlarga ixlos qilmaslikni u⁶ kshatriy uchun ko‘rsatdi.

X-118. Kshatriy eng majbur vaziyatlarda⁷ to‘rtinchi qismini oluvchi, fuqarolarni bor kuchi bilan himoya qiluvchi gunohdan ozod qilinadi.

X- 119. Uning¹ dxarmasi – g‘alaba; u qo‘rqib chekinmasligi kerak; u vayshilarni qurol bilan himoya qilib, qonuniy soliq to‘lashiga majbur qilishi mumkin.

X- 120. Xalqqa (soliq) sakkizdan bir g‘allada, soliq – yigirmadan bir (lekin) karshapana²; shudralar hamda hunarmandlar va badiiy hunarmandchilik bo‘yicha ustalar³ ish bajaradilar.

Vayshilar

I – 90. Mol boqish hamda (xayr-ehson) tarqatish, qurbonlik keltilish, (Vedalarni) o‘rganish, savdo, sudxo‘rlik va dehqonchilik – vayshilar uchun.

X – 98. O‘z dxarma⁴sinii (bajarish bilan) tirikchilik qila olmagan vayshi shudra turmush tarzi bo‘yicha yashashi mumkin, lekin (unga) taqiqlangan ishlarni (bundan) imkoniyat darajasida hazar qilib bajarmaydi.

Shudralar

Shudralar jamoa a’zolari hisoblanmas edi. Shudralar mulkij va ijtimoiy ziddiyatlar natijasida jamoa bilan aloqasini yo‘qotgan. Shudralar varnasi o‘z urug‘ – qabilasi bilan aloqasini yo‘qotganlar hisobidan to‘ldirilgan. Shudralar yerga ega bo‘lмаганлари sababli braxman, kshatriy va vashiyalar xizmatini qilib tirikchilik o‘tkazishga

majbur bo'lganlar. Shudraning hayoti qonun bilan zaif himoyalangan edi. Shudralar davlat boshqaruviga, birinchi uch varna a'zolari ma'lum yoshga yetgandan keyin o'tadigan "ikkinchi tug'ilish" ga bag'ishlov marosimiga qo'yilmas edilar (braxmanlar 8 – 16 yoshdan, kshatriylar 11 – 22 yoshdan, vayshiyalar 12 – 24 yoshdan). Marosim ibtidoiy jamoaning bag'ishlov marosimi inisiatsiya (initiation-lotin tilida bag'ishlov): o'smir va qizlarning balog'at yoshga yetishi munosabati bilan o'tkazilar edi.

1-91. Iloh faqat bir mashg'ulotni shudralar uchun ko'rsatdi bu – varnalarga itoat bilan xizmat qilish.

X-99. Shudra ikki marta tug'ilganga xizmatni qila olmasa, uning o'g'li va xotiniga o'lim xavf solsa, u hunarmandchilik bilan yashashi mumkin.

X- 100. (U) shunday hunarlarga amal qilishi lozimki, bu bilan ikki marta tug'ilganlarga xizmat qilinsin.

XII- 13. Shudra uchun xotin- shudra, vayshi uchun – (shudra ayoli) va o'z (varnasi), kshatriy uchun – o'sha (ikki) va o'z (varnasi), braxman uchun- o'sha (uch), hamda o'z (varnasi) ko'rsatilgan.

Tegib bo'lmaydiganlar

Hech qanday varnaga kirmagan, aholining eng quyi huquqsiz tabaqasi "tegib bo'lmaydiganlar" chandallar yoki shvapachlar deb atalar edi. "Tegib bo'lmaydiganlar" tushunchasining paydo bo'lishi tabu kuchayishi bilan bog'liq edi. Keyinchalik ijtimoiy tengsizlik bilan hukmron sinftegib bo'lmaydiganlar tushunchasini o'z manfaatlarida ishlatdi. Misol uchun braxmanni o'ldirish, toifaviy-kasta ko'rsatmalarini buzish ba'zi ishlarni bajarish: axlatlarni, o'liklarni yig'ish, tozalash makruhlikka olib keladi deb hisoblana boshladi. "Tegib bo'lmaydiganlar" qishloqdan tashqari yashashlari lozim edi va umga fayat kunduzi kiyimlarida alohida belgi bilan kirishlari mumkin edi.

Ular eng og'ir ishlar jumladan axlat tozalash, o'lik yig'ish bilan shug'ullanar edilar. Ular suvni harom qiladilar deb, quduqlarga yaqinlashitirilmas edi. Ularga qoloq ovchi, baliqchi qabilalar kiritilar edi. Tegib bo'lmaydiganlar qul emas edi, lekin qonun ularni himoya qilmas edi.

X-51. Chandal va shvapachlarning turar joylari qishloqdan tash-

qarida (bo‘lishi lozim), ular foydalangan idish – tovoqni (boshqalar) tashlab yuborishi kerak, ularning mulki faqat itlar va eshaklar (bo‘lishi mumkin).

X-52. Kiyimlar – o‘liklarning kiyimlari, ovqatlar siniq idishda (berilishi kerak), ularning bezaklari temirdan (bo‘lishi kerak), ular muntazam ko‘chib yurishlari lozim.

X-53. Dxarma5ni bajaradigan odam, ular bilan muloqot qilishi mumkin emas, ularning ishi o‘zları orasida6; nikoh va hokazo.

X-54. Ularga ovqatlar siniq idishda berilishi lozim, tunda ular qishloq va shaharlar bo‘ylab daydib yurishlari mumkin emas.

X- 55. Kunduzi ular podsho buyrug‘i asosida belgilangan ramzlar bilan (u yerga) yumushni bajarishlari mumkin va qarindoshlari bo‘limgan o‘liklarni olib ketishlari mumkin; tartib shunday.

X- 56. Ularga podsho buyrug‘i bilan o‘limga hukm qilinganlarning kiyimlari, krovat va bezaklarini olishlari mumkin.

Qulchilik

Hindistonda qulchilik manbai urushlar, qarzdorlik, jinoyati uchun qul qilish, o‘zini qullikka sotish edi. Qullar sotilar, sovg‘a qilinar va merosga berilar edi. Qarzdor qulning ahvoli, uning qaysi varnaga tegishli ekanligiga bog‘liq edi. Qulchilik patriarchal ko‘rinishda edi.

VIII-415. Bayroq ostida bosib olingen qul, saqlash uchun, uyda⁷ tug‘ilgan qul, sotib olingen, sovg‘a qilingan qul, merosga qolgan qul va jazolash kuchidagi qul-qullarning yetti toifasi shunday.

VIII-177. Qarzdorga qarz beruvchi uchun⁸ teng ishni bajarishi kerak bo‘ladi, (agar u) kelib chiqishi teng yoki past tabaqadan, lekin u yuqoriroq bo‘lsa, u asta-sekin qaytarishi mumkin.

IX-229. Jarima to‘lay olmagan kshatriy, vayshi va shudra qarzdan ish evaziga ozod qilinadi; braxman (qarzini) asta-sekin qaytarishi mumkin.

1. podshoni

2. karshapan - soliq o‘rniga.

3. Usta -oltin va moldam

4. O‘z dxarmasi - majhuriyatlar.

5. Dxarma odamning o‘z ijtimoiy o‘rniga ko‘ra yurish-turish qoidasi.

6. Ularning ishi o'zлари орасида ячилishi kerak.

7. Uy – qul ayol tuqqan.

8. Beruvchi uchun – qarzga.

Mulk

IV.201. Hech qachon begonaning hovuzida cho'milish mumkin emas; u cho'milganda, hovuzni qurban (odam) gunohining bir qismi bilan bulg'anadi.

IX.276. Podsho tunda (uy devoriga) tuynuk qilib, o'g'rilik qilgan o'g'rilarning ikki qo'lini kesib, ularni o'tkir qoziqqa o'tkazish lozim.

IX.277. Birinchi o'g'rilikda o'g'rining – ikki barmog'ini, ikkinchisida-qo'li va oyog'ini kesishga buyruq berish kerak, uchinchisida u o'lim jazosiga loyiq.

IX.278. (O'g'rilariga) olov, ovqat, qurol, qo'noq beradiganlarga, o'g'rilikni yashiradiganlarga hukmdor o'g'ri sifatida jazo berishi lozim.

XI.115. Mulk olishning yetti qonuniy usul mavjud: meros olish (sovg'a tarzida ya'ni topib olish), sotib olish, egallash, sudxo'rlik qilish hamda saxiylardan (ehson) olish.

X.116. Tirikchilik qilishning o'n vositasi (mavjud) – bilim, hunar, haq uchun ishlash, xizmat qilish, chorvachilik, savdo, dehqonchilik, (ozga) qanoat, xayr-ehson, sudxo'rlik.

Qarz huquqi

VIII.48. Qarz beruvchi o'z mulkini qanday vositalar bilan olishi mumkin bo'lsa, (podsho) o'sha vositalar bilan qarzdorlarni to'lashga majbur qilsin.

VIII.49. Dxarma bilan, sud ta'qibi bilan, ayyorlik bilan, majburlash bilan va beshinchi-kuch bilan (qarzga) berilgan buyumni olish mumkin.

VIII.50. O'sha qarz beruvchi, o'zi qarzdorlardan buyumini qaytarib olsa, podsho tomonidan ta'qib qilinishi mumkin emas.

VIII.166. Agar qarzdor vafot etsa, xarajat oilasi uchun amalgaloshirilgan bo'lsa, (qarz) qarindoshlar tomonidan to'lanishi lozim, hatto bo'lingan (ularga tegishli) mulkdan.

Podsho va davlat boshqaruvi

VII.3... Podshosi bo'Imagan odamlar boshboshlikdan har tomonga tarqalib ketganlarida, xudo bu (dunyoni) qo'riqlash uchun podshoni yaratdi.

VII.4. Indra, Anila, Yama, Quyosh, Agni, Varuna, Oy va Boyliklar ilohini abadiy zarralarini ajratib olish.

VII.5. Podsho bu xudolardan eng yaxshi zarralarini olib yaratilgani uchun, u o'zining hashami bilan barcha tirik mavjudotlardan yuqori turadi.

VII.6. Quyosh kabi u ko'z va qalblarni kuydiradi va yerda hech kim unga hatto qarashi mumkin emas.

VII.20. Agar podsho unga loyiq bo'lganlarga jazo bermasa, kuchlilar sixdag'i baliq kabi zaiflarni pishirar edilar.

VII.22. Butun dunyo (faqat) jazo vositasida bo'ysinadi, chunki toza odamni topish qiyin; axir faqat jazolanishdan qo'rqib, butun dunyo o'ziga tegishli vazifani ijro qiladi.

VII.25. Qayerda jinoyatchilarni yo'q qiladigan qora, qizil ko'zli jazo, yo'lboshchi yaxshi kuzatsa, u yerda fuqarolar norozi bo'lmaydi.

VII.111. Podsho o'z mamlakatini o'ylovsiz, aqlsizlarcha amal qilsa, tezda qarindoshlari bilan mamlakat va hayotidan mahrum bo'ladi.

VII.114. Ikki, uch, besh hamda yuzlab qishloqlar o'rtasida (askarlar qismini) joylashtirib mamlakatni bo'ysundirishni ta'minlash lozim.

VII.115. (Har bir) qishloq uchun oqsoqol, o'n qishloq uchun boshqaruvchi, yigirma va yuz uchun boshqaruvchi hamda mingni boshqaruvchini tayinlash lozim.

VII.123...(Xalq) himoyasi uchun tayinlangan podsho xizmatkorlari, ko'p hollarda buzuq, begona mulkni bosib olishga intiladigan bo'ladi. Ulardan xalqni himoya qilish kerak.

VII.218. (Podsho) o'zining barcha buyumlarini zaharni yo'q qiladigan dorivorlar bilan tozaletasini va hamma vaqt ehtiyyot uchun o'zida zaharlarni yo'q qiladigan qimmatbaho toshlarni saqlasin.

IX.288.Barcha qamoqxonalarni bosh ko'cha yaqinida joylashtirish lozim, u yerda azoblangan, badbashara bo'lgan jinoyatchilarni barcha ko'rishi mumkin.

Soliqlar

VII.127. Sotish va olishda (bahoni) ko'rib, yo'l uzunligi, ovqatga, ziravorga va mulk himoyasiga sarfni ko'rib chiqib, podsho savdogarlarni soliq to'lashga majbur qilsin.

VII.128. Podsho mushohada qilib, mamlakatda hamma vaqt soliqlarni shunday belgilashi lozimki, podsho ham, ishni bajaruvchi ham mevadan foydalansinlar.

VII.129. Buzoq va asalari ovqatni oz-ozdan yutganidek, podsho ham mamlakatdan yillik soliq olishi lozim.

VII.130. Podsho tomonidan chorva, oltinning elliginchi qismi hamda g'allaning sakkizinch, oltinchi yoki o'n ikkinchi qismi olinishi mumkin.

VII.131. U yana shuningdek yog'och, go'sht, asal, sigir moyi, xushbo'y moylar, dorivor o'tlar, sharbatlar, gullar, ildiz va mevalarning oltinchi qismini olishi mumkin.

VII.138. Podsho o'z mehnati bilan yashaydigan barcha hunarmandlarni va shudralarni har oyda bir (kun) ishni bajarishga majbur qilishi mumkin.

Urush

VII.87. Xalqni qo'riqlaydigan podsho teng, kuchliroq yoki zaifroq (dushman bilan jangga) chaqirilgan bo'lsa, kshatriy draxmasini bajarib, jangdan bosh tortmasin.

VII.89. Bor kuchi bilan va o'girilmaydigan yuz bilan jang qiladigan, janglarda o'zaro bir-birini o'ldirishni istagan podsholar samoga boradilar.

VII.96. Kim (shaxsan jang aravasi, ot, fil, soyabon, pul, don, chorva, ayollar, har xil buyumlar va qimmataho metallni bosib, olsa bu – uniki.

VII.97. (Askarlar) eng yaxshi ulushni podshoga bersinlar. Vedada shunday deyilgan: alohida bosib olinmagan (o'lja) podsho tomonidan barcha askarlar o'rtasida taqsimlanishi lozim.

VII.102. Doimo urushga tayyor turish, hamma vaqt kuchni aniqlash, sirlarini ochish, dushmanni zaifligini qidirish lozim.

VII.103. Butun dunyo urushga doimo tayyor bo'lgandan qo'rqadi, shuning uchun barcha tirik jonlarni aynan kuch bilan bo'ysundirish lozim.

VII.106. (Podsho) turna kabi ishlarini o'ylaydi. Quyon kabi-chetga qo'chadi, bo'ri kabi (o'ljani) ushlaydi va sher kabi- kuchini ko'rsatadi

VII.192. Tekislikda jangda jang aravalarini va oqliqlarni suvlik joyda

qayiq va fillarni, daraxt va butazorlar bilan qoplangan joyda – kamonni, tepalik joyda-qilich, qalqonlar, (boshqa) qurolni ishlatish lozim.

VII.195. Dushmanni qamal qilib, to'xtash kerak va uning mamlakatini talon-taroj qilish kerak; hamma vaqt uni yem-xashagi, oziq-ovqati, suv va yoqilg'isini yo'q qilish kerak.

VII.198. Dushmanlarni tinch muzokaralar bilan sotib olish bilan, ajratib tashlash yo'li bilan – (bu vositalarning) hammasi bilan, yoki har birini alohida – bartaraf qilishga urinish kerak va qurol yo'lidan ehtiyyot bo'lish kerak.

VII.199. Jang qilayotganda (har ikki tarafga oxiri)- g'alaba yoki mag'lubiyat- noma'lumi, shunda jangdan voz kechish kerak.

VII.201. G'alaba qilib, (yengilgan mamlakatning) xudolari va ezgu braxmanlarini hurmat qilish zarur, imtiyozlar hadya qilish va xavf yo'qligini e'lon qilish lozim.

VII.202. Barcha yengilganlar istaklariga to'la ishonch bildirib (taxtga yengilgan podshoni), qarindoshini o'tkazish va shartnoma tuzish kerak.

VII.210. Donolar aqli, nasabli, botir, qobiliyatli, saxiy, oljanob va qat'iy (dushmani) eng yomon dushman deb e'lon qildilar.

Oila va nikoh

III. 20. To'rt varna uchun nikohning o'limidan so'ng va bu dunyoda ezgu va ezgu bo'Imagan qisqacha sakkiz (shakli)ni biling.

III. 28. Bezatilgan qizni qurbanlik keltirish bilan sidqididan mashg'ul kohinga berish, u marosimni bajarsa, dayva dxarmasi deyiladi.

III. 29.(Ota) dxarmaga mos ravishda kuyovdan ho'kiz yoki sigirni yoki ikki juftni olib, qizini qoida bilan uzatsa, bunday dxarma arsha deyiladi.

III. 30. (Otasi) "ikkalangiz birgalikda dxarmani bajaring" deb aytganidan va (kuyovga) hurmat ko'rsatgandan (so'ng) qizini berish pradjapatya marosimi deyiladi.

III. 31. (Kuyov) qarindoshlarga va ko'ngilli ravishda qalliqqa qancha narsa berishi mumkin bo'lsa, qizni berish asura draxmasi deyiladi.

III. 32. Qiz va kuyovning chin sevgi xohishidan kelib chiqadigan ko'ngilli ittifoqi ganxarva deyiladi.

III.33. Uydan qichqirayotgan, yig‘lagan qizni kuch bilan, o‘ldirishlar, yaralashlar va buzishlar hamrohligida o‘g‘irlash rakshasa marosimi deyiladi.

III. 24. Donolar braxmanlar uchun to‘rt birinchini, bitta-rakshasa-kshatriy uchun, asura- vayshi va shudra uchun qoida deb biladilar.

III. 25. Lekin besh (oxirgi)dan uchtasi-draxmaga to‘g‘ri keladi: payshacha va asura hech qachon qilinmasligi kerak.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 80-81 срп

Tayanch iboralar: daryolar, hind fillari, hosildor tekisliklar, tog‘lar, toza havo, yomg‘irli mavsum, dehqonchilik, Demetra, kasta, kshatriy, braxman, shudra, varna, jati, vayshi, Manu qonunlari, veda, chandallar, shvanpach, draxma.

Ashoki yozuvlari

Ashoki yozuvlari Hindistondagi aniq sanalar bilan belgilangan eng qadimgi epigrafik yodgorliklardir. Ular tosh, ustun va g‘orlarda bitilgan podsho Ashoki (er.avv.272-232 yillar) farmonlaridan iborat. Ashoki o‘zini Priyadasi (“Ko‘rinishdan yoqimli”) va Devanampiya (“Xudolarga yoqimli”) deb ataydi. Yozuvlar Maurilar sulolasiga davri (er. avv. IV-II asrlar) Hindistonda davlat boshqaruvi, ijtimoiy hayot, siyosat, din va madaniyat to‘grisida ma‘lumot beradi. Farmonlar uchtasidan tashqari (Hindistondagi Taksiladan, Afg‘oniston va Erondon topilgan ikkita oromiy tilida, biri yunon tilida) o‘rta hind tillarida yozilgan. Yozuvlar XIX asrning 30 yillarida ilk bor D.Prinsen tomonidan o‘qilgan.

№1 Katta qoyatosh ediki

Bu yozuv dxarma to‘g‘risida xudolarga yoqimli podsho Priyadasi buyrug‘i bo‘yicha yozildi.

Bu yerda hech qanday tirik mavjudot (ularga) qurbanlik keltirish uchun o‘ldirilmasligi lozim hamda samadja bayrami o‘tkazilmasligi lozim.

Axir Samadja bayramini (tashkil etishda) xudolarga yoqimli podsho Priyadasi, katta gunohni ko‘radi, lekin ba’zi bayraimlar bor, ularni xudolarga yoqimli podsho Priyadasi ezgulik deb qaraydi.

Ilgari xudoga yoqimli Priyadasi oshxonasida har kuni kerri tay-yorlash uchun yuz minglab tirik mavjudotlar o‘ldirilar edi.

Endi esa, dxarma to‘g‘risida bitilgan bu yozuvga ko‘ra, kerri tayyorlash uchun uch tirik mavjudot ikki tovus va bir antilopa o‘ldiriladi. Va shunda ham antilopa doimiy emas. Keyinchalik hatto bu uch tirik mavjudot ham o‘ldirilmaydi.

№2 Katta qoyatosh edikti

Xudolarga yoqimli Podsho Priyadasi, imperiyasining hamma joyida hamda Choda (Chola), Pada (Pandya), Satyaputa (Janubiy Hindistonda), Keralaptya (Malabar qirg‘og‘ida), Tambanannida (Seylon), (shunday) mamlakatlarda va Antiyaka (Antiox) nomli yunon podshosi mamlakatida hamda o‘scha Antiyaka bilan chegaradosh boshqa podsholarda-hamma joyda podsho Priyadasi tomonidan davolanishni ikki turi tashkil etilgan: odamlar uchun tibbiyot va veterinariya. Va odamlar va chorva uchun foydali bo‘lgan dorilar, qayerda meva va ildizlar bo‘lmasa, olib kelish va o‘tqazish buyurilgan edi. Yo’llarda daraxtlar o‘tqazish va odamlar va chorva uchun quduqlar qazishga buyruq berilgan edi.

№3 Katta qoyatosh edikti

Zudolarga yoqimli Podsho Priyadasi, shunday aytdi:

(Toj kiygandan keyin) “o‘n ikki yil o‘tgach, buyruq berdi: Mening imperiyamning hamma joyida amaldorlar, radjuklar, okrug boshliqlari har besh yildan keyin mahalliy amaldorlar faoliyatini tekshirish uchun taftish safari qiladilar.

Aynan bu maqsad uchun hamda boshqa ish uchun dxarmada bu yo‘riqlar tuzilgan: Ota – onalarga qulq solish. Do‘stlarga, qarindoshlarga va tanishlarga, braxmanlarga, shramanlarga (budda monaxlariga) saxiylik. Tirik mavjudotlarni o‘ldirmaslik. Xasislikdan, isrofgarlikdan saqlanish.

Podsho vazirlari yig‘ini bu majburiyatlarni (bajarishni) batafsil yozadi, bajarilmagan holda sababini tushuntirishlari lozim.

№8 Qoyatosh edikti

O‘tmishda podsholar ko‘ngil ochish uchun safar qilardi. Bu yerda ov, boshqa shunga o‘xshash ko‘ngilochishlar bo‘lar edi. O‘n

yil o'tgach, (taxtga chiqishdan keyin) xudolarga yoqimli Priyadasi Budda nurlangan joyga Sambodxiga sayohat qildi. Bu axloqiy sayohat. Sayohat vaqtida shramanlar, braxmanlarni ko'rish va ularni taqdirlash yuz beradi, avliyolarni ko'rish va ularni oltin bilan ta'minlash, viloyatlar aholisini ko'rish va uni draxmaga topshirish hamda (ular bilan) draxma to'g'risida suhbat qilish.

Buning natijasida xudoga yoqimli podsho Priyadasining (podsho-ligining ikkinchi yarmida) katta quvonch mavjud.

№9 Qoyatosh edikti

Xudolarga yoqimli Podsho Priyadasi, shunday aytdi: "Odamlar turli xil bayramlar uyuştiradilar: kulfatda, o'g'lini uylantirishda, qizni turmushga berishda, chaqaloq tug'ilganda, sayohatga chiqqanda. Odamlar shunga o'xshash, va boshqa har xil bayramlar uyuştiradilar.

Juda ko'p arzimaydigan ma'nosiz bayramlarni ayollar uyush-tiradilar. Mayli bayramlar bo'lsin, lekin ular o'z mazmunga ega bo'lsin. Faqat katta foyda keltiradi, axloqiy bayramlardan olijanob amal yo'q.

Qullar va xizmatkorlarga yaxshi munosabat, o'qituvchilarga hurmat, tirik mayjudotlarga zarar yetkazmaslik, shraman va brax-manlarga saxiylik: bu va boshqa axloqiy bayramning (mazmuni xuddi shundan iborat bo'ladi). Ota, o'g'il, aka, xo'jayin, do'st, qarindosh va hatto qo'shni tomonidan quyidagi tarzda aytilishi lozim: bu yaxshi, bu qilinishi lozim: (bu bayram), maqsadga olib boradi. (Maqsadga) erishish uchun men bunga rioya qilaman". Axloqiy saxiylik va axloqiy yaxshilikdan olijanob amal yo'q. Do'st, ezungulik tilovchi, qarindosh yoki o'rtoq shunday tushuntirishi lozim. "Har bir holatda bu bajarilishi lozim, bu yaxshi, buning yordamida samoga yetish mumkin".

Buning yordami bilan samoga yetishdan ko'ra, yana nima yaxshi ish qilish mumkin? Bu axloqiy bayramlar vaqt bilan bog'lanmagan. Va agar bu maqsad bu dunyoda erishilmasa, boshqa dunyoda cheksiz savoblar tug'iladi.

Agar bu maqsadga erishsalar, shunda ikkala (maqsadlar) savobga erishib bo'ladi: Bu dunyoda – maqsadlar, u dunyoda nihoyasiz ezungulik.

№2 Kichik ustun ediki

Xudolarga yoqimli (podsho) shunday aytdi:

“Ota-onalarga qulq solish kerak! “Aynan shu tarzda odamlar orasida hurmat mustahkamlanadi. Haqiqatni gapirish kerak! Bu qadimgi qoida abadiy bo‘lsin va o‘qituvchi chegaradosh mamlakatlar aholisi tomonidan e’zozlansin va yaqinlari orasida uning (vasiyatlariga) loyiq amal qilsinlar. Bu qadimgi qoida uzoq yashasin. Bu yerda toshtarosh Padi yozgan.

№2 Katta ustun ediki

Xudolarga yoqimli Podsho Priyadasi, shunday aytdi:

Dxarma-yaxshi, lekin nima u dxarma? Ko‘p ishlar gunohsiz: saxovat, sadaqa, haqiqat, tozalik. Men turli tarzda oldindan ko‘rish qobilyatiga egaman. Men tomondan ikki oyoqli, to‘rt oyoqli, qushlarga va suvda yashovchi (mavjudotlarga) nisbatan turli yaxshilik ko‘rsatilgan. Men tomondan hayotning eng asoslariga (ta’sir qiladigan) ko‘p boshqa ishlar qilingan. Shu maqsad uchun bu yozuvni yozishga amr qildim.

Shunday harakat qilsinlar.

Va bu (yozuv) abadiy bo‘lsin!

Kim shunday tarzda harakat qilsa, ezgu ish qiladi.

№4 Katta ustun ediki

Xudolarga yoqimli Podsho Priyadasi, shunday aytdi: Men dxarma to‘g‘risidagi bu yozuvni (taxtga chiqqan kunimdan) 26 yil o‘tishij bilan yozishni buyurdim. Men radjuklarni ko‘p yuz ming tirik mavjudotlar ustidan tayinladim va ularni mukofotlash va jazolash faqat mening ixtiyorimda. Bu shuning uchun qilinganki, radjuklar ta’masiz va qo‘rquvsiz o‘z vazifalarini bajarsinlar va mamlakat xalqini ezunglik va baxtga yo‘naltirsinlar va uni (bu yo‘lda) rag‘batlantirsinlar.

Ular (radjuklar) baxt va baxtsizlikning (sababini) biladilar va draxma yordamida mamlakat xalqini bu va u dunyoda baxtini ta’minalash uchun ilhomlantiradilar. Radjuk‘lar menga hamda mening xohishimni biladigan maxsus amaldorlarga bo‘ysunishlari lozim.

Axir o‘z bolasini aqlli enagaga topshirgan (odam) tinch bo‘ladi va o‘ylaydi: “Aqlli enaga bolamga baxt istaydi.” Shu fikr bilan men

radjuklarni shuning uchun tayinladimki, ular o‘z majburiyatlarini qo‘rquvsiz, ta‘masiz va to‘siksiz mamlakat farovonligi va baxti uchun bajarsinlar. Shuning uchun men shunday tashkil qildimki, rajukni jazolash va taqdirlash faqat menga bog‘liq bo‘lsin.

Men sud ishida va jazolarda odillik bo‘lishini istayman. Buyrug‘im men o‘limga hukm qilganlarga, jazo olganlarga 3 kunda men bergan kechiktirishgacha ijro etiladi. Yaqinlari yoki yana kimdir ular uchun harakat qilsinlar; kim bo‘lsa ular uchun harakat qilsin, shunda ular sovg‘alarni tarqatadilar va u dunyoda (baxtga erishish) uchun ro‘za tutadilar.

Men istaymanki, (buning yordami bilan) o‘lim vaqtida u (dunyoda) baxtga erishsinlar, ana shu bilan xalq orasida turli ko‘rinishdagi fazilat, o‘zini tutish, hadyalar tarqatish ko‘paysin.

Nº6 Ustun ediki

Xudolarga yoqimli podsho Priyadasi shunday aytadi:

Men dunyoning faravonligi va baxti uchun draxma to‘g‘risida bitikni o‘yishga buyruq berganimdan 12 yil o‘tdi.

Kim (uni) buzmagan bo‘lsa, axloqi yaxshilandi.

Va men dunyoni farovonligi va baxti uchun e’tibor beraman.

Men qancha imkonim bo‘lsa, yaqinlarimga (yonimda turganlarga) ham va uzoqda bo‘lganlarga ham, baxt keltiraman. Xuddi shunday odamlarning barcha toifalariga e’tibor beraman. Barcha sektalar men tomonimdan e’tiqodning turli ko‘rinishlariga sig‘iniladi. Lekin ular (e’tiqod)dan asosiysi shaxsiy e’tiqod deb hisoblayman.

Men dxarma to‘g‘risidagi bu yozuvni (men toj kiygan lahzadan) 26 yil o‘tgandan so‘ng yozishni buyurdim.

Sanchadagi kichik ustun ediki

Ha, (budda) jamoasi parchalanib ketmaydi. Bu jamoa rohib va rohibalar uchun yaratilgan va mening o‘g‘illarim va nevaralarim davrida quyosh va oy hozircha nur sochib tursa (u saqlanadi). Rohib va rohibalardan kimki bu jamoaning (birligini) parchalasa, oq kiyim kiydirib quvib yuborish lozim. Jamoa va uning yo‘li abadiy bo‘lishini istayman.

• *I.Radjuk -viloyat noiblari*

2-§. Adabiyot

Mahabborata yoki Bharata avlodlari jangnomasi

Bu doston hind adabiyotining eng nodir yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Qorong'i zulmat ichida Duro'dho'naning oldiga murabbiy Dro'naning o'g'li, yosh jangchi Ashvatthaman pusib keldi. Yaqindagina qudratli hukmdor bo'lgan kishining qonga belangan holda yerda yotganini ko'rib u yig'lab yubordi, boshini mag'lub podshosining oyoqlariga qo'ydi.

– Ey ulug' zot, – dedi Ashvatthaman, – nahotki, yer yuzida o'zgar maydigan narsa bo'lmasa? Odamning ikkidan biriga hukmdorlik qilgan senday podsho shaqol va sirtlonlar qurshovida g'arib ahvolda o'layotirsan. Qo'shinlaring qani? Yengilmas harbiy sarkardalaring-chi? Ukalaring, o'rnbosarlaring qayerda? Hammasi, hammasi o'lim xudosi yo'lidan ketdi. Yoningda hech kim yo'q. Hech kim senga so'nggi marta bo'lsa ham loyiq hurmat ko'rsatmayotir, hech kim sen uchun o'ch olmayotir. Ashvatthamanning faryodi Duro'dho'naning jonini o'lim uyqusidan uyg'otib yubordi. Duro'dho'na mag'lubiyatga uchraganiga alam bilan yig'layotgan bu yigitga murojaat qilib dedi:

– Men o'zim uchun g'am chekmayman. Ertami, kechmi barcha tirk jonning boshida qazo bor. Men jangchiga munosib o'lim bilan ketayotganimdan xursandman. Seni sog'-salomat ko'rganimga ham xursandman. Sen hamisha mard va matonatli eding. Bundan keyin ham shunday bo'l. Menga alam qiladigan joyi shuki, qo'shinim butunlay yakson qilindi, dushman qo'shinida esa sog'-salomat qolganlar ko'p.

– Ey podshohim, – deb qichqirdi Ashvatthaman – bu fikrlar seni izardibga solmasin! Hayotim haqqi qasamyod qilamanki, ko'p o'tmay dushman askaridan bitta ham qolmaydi. Meni kut. Bu haqdagi xabarni senga o'zim keltiraman.

Ashvatthaman shunday deb, qiziqqonlik va jaholat bilan jangga chanqoq holda Pandavlar qarorgohi tomon chopdi.

Bu hodisa ulug' jang tamom bo'lgandan keyingi birinchi kechada bo'layotgan edi. Horigan jangchilar dong qotib uxlashardi. Atrofda birorta chiroq ham ko'rinas, sado ham eshitilmasdi.

Ashvatthaman dushman qarorgohiga yashirinib kirib, kattakon banan daraxti tagiga berkindi va qanday qilib hamma jangchilarini

mahv qilish haqida o'ylay boshladi. U bitmas tiganmas alam bilan o'ch olmoqchi bo'lib kelgan, lekin yolg'iz edi. Uni bu yerda o'limdan boshqa nima ham kutar edi.

Shu qayg'uli o'ylarga borib, nima qilishini bilmay, daraxt tagiga o'tiraverdi. To'satdan qorong'ida uning oyog'i tagida shamol to'kkan mevaday bir narsa to'p etib tushdi. Keyin yana tushdi. Atrofidan shunaqangi to'ppillagan ovozlar tez-tez eshitila boshladi. U qo'lini uzatib, yonida hozirgina tipirchilab jon bergen qushni ushladi. Ularninig ba'zilari boshsiz, ba'zilari ko'ksi majaqlangan, ba'zilari esa patsiz edi.

Ashvatthaman tun sukunatida bu qushiarni kim o'ldirayotganligini bilolmay bananning qalin yaproqlari orasiga qaradi. To'satdan uning boshi ustidan keng yoziq qanotlari bilan osmondag'i yulduzlarni to'sib, bahaybat bir boyqush uchib o'tdi. Shu payt uning miyasiga o'z raqiblarimni ochiq jangda emas, balki hozir, tunda g'aflatda o'ldirishim kerak, degan fikr keldi. Ular shu qushlar singari uxbab yotgandagina hammasini yo'q qilish mumkin. Tong otib qolsa, unda kech bo'ladi. U qat'iy qaror bilan sapchip o'rnidan turdi-da, qoplon singari yerga qapishib, pisib boraverdi va charchab dong qotib uxlayotgan Pandav jangchilarining soyalarini ko'rdi.

"Uyqudagilarni o'ldirish nomardlik bo'lmasmikin? – deb u to'satdan o'ylanib qoldi. – Jangchilarining or-nomusi qonuni, urf-odatini buzish qanday bo'larkin?" – U dushmanga qo'l ko'tarishga jur'at qila olmay ikkilanganicha to'xtab qoldi.

Keyin o'z qo'shinining harbiy sarkardalaridan ko'p eshitgan quyidagi so'zlarni eslab, shubhalarni quvdi:

*Raqibni o'ylamay mahv etmoq darkor,
Qaramay jarohat yo charchog'iga.
U yo g'aflatdami, yo 'ldami, aslo
Parvo qilma 'ochlik yo changog'iga.*

*Dushmaning jon bersin azob-dahshatda,
Sen o'z raqibingni o'ldir, albatta,
Bahona ma'zurga sabab bo'lolmas,
Raqibni o'ylamay mahv uylasung bas.*

U or-nomus qalqonini ming bo'lakka bo'lib, qo'liga xanjarini ushlab, uyqudag'i jangchilarga zaharli ilonday ovoz chiqarmay

tashlanib, zarba bera boshladi. U achinmay rahmsiz ravishda ularni chavaqlayverdi, jangdan sog' qolganlarning hammasini qirib tashladidi. O'layotgan jangchilarning ingrashidan uyg'onib ketganlar esa dushmanni ko'rmasdan xavf qayoqdan kelayotganini bilmay bir-birini dahshat ichida o'ldirib yuborishdi.

Faqat o'sha kuni qarorgohda bo'limgan Pandavlarga bu halokatdan qutulib qoldilar.

Ashvatthaman askarlarning hammasini chavaqlab, qarorgohdag'i chodirlarga o't qo'ydi-da, qanday kelgan bo'lsa, xuddi shunday shov-qinsiz o'zini qorong'ilikka urdi. U o'layotgan Duro'dho'naning oldiga shoshilib keldi, ustiga engashib, tashvishlanib so'radi:

– Ey sherdil inson, gapimni eshitiyapsanmi? Agar joning chiqmagan bo'lsa, seni xursand qiladigan gaplarimni eshit. Dushmanning hamma qo'shinlarini o'z qo'lim bilari qirib tashladim. Tiriklardan faqat aka-uka Pandavlalar bilan Krishna, bizdan esa men bilan yana ikkita mard jangchi qoldi, xolos. Osmonda mening otamni, shu jangda shahid bo'lganlarni ko'rganiningda ular uchun men qasos olganimni aytib qo'y. Shuni bilki, ey shahanshoh, sen uchun ham qasos oldim.

Duro'dho'na oxirgi kuchini to'plab turib dedi:

– Qo'shimidan birorta ham jangchi qilolmagan ishni sen qilding. Yaxshi qol. Endi men tinchgina o'laman.

Umrining oxirigacha yaxshilik va haqiqat yo'liga tusha olmagan bu podsho so'zlarni aytib jon berdi.

Donishmand Yudhishtira o'z qo'shining halokatini eshitgach, shunday dedi:

– Ajabo, ko'pincha yengilganlar g'olib chiqadi, yengganlar esa mag'lub bo'lishadi. Kechasi hamma jangchilar bizning aybimiz bilan halok bo'lishdi. Biz qarorghohni tashlab ketmasligimiz lozim edi. Chindan ham biz okeandan suzib kelib, daryoga cho'kib ketgan kemaga o'xshaymiz. Bo'lar ish bo'libdi, endi g'am chekishning foydasi yo'q. Biz endilikda mamlakatni yomonlikdan butunlay xalos qilish hamda xalq farovonligi haqida o'ylashimiz kerak.

Shunday deb, bu adolatparvar podsho ukalari bilan ko'r podsho Dhritarashtraning poytaxtiga qarab jo'nadi.

Janglar qissasi. Mahabhorata yoki Bharata avlodlari jangnomasi. T. 1988. 144-146 betlar

Hinduizm xudolari

...Osmon hukmroni Indra, o't xudosi Agni, suv hukmdori Vatuna hamda ajdodlar mamlakati podshosi Yamalalar o'zlarining samoviy aravalarini Damayantining mamlakati tomon haydabdilar. ...

Janglar qissasi. Mahabborat yoki Bharata avlod uru jangnomasi. T. 1988. 156-bet

Oltin asr to'g'risida rivoyat

Oltin asr to'g'risidagi rivoyatni oriyalar yaratdilar. Hindistonga kirib borgancha, ular chorvachilik bilan mashg'ul bo'lib, ko'chmanchi hayot kechirganlar. O'sha vaqtida, ularda toifaviy bo'linish, boy, kambag'al bo'limgan. Oriylar rivoyatlarda bu davrni "Oltin davr" deb goldirdilar. Quyida eramizning I asrida mavjud bo'lgan "Shamol xudosining qadimgi rivoyati" dan parcha keltiriladi.

U odamlar nimani istasalar shuni qildilar va ular baxtli edilar. Ularda na qonun na qonunsizlik bor edi va kastalar aralashuvi bo'limgan edi. O'sha vaqtarda odamlar o'z faoliyatlarida bir-birlariga muhabbat bilan yoki nafrat bilan rahbarlik qilmas edilar. Ular tug'ilganda bir xilda go'zal va uzoq umrli edilar, zodagon va pastlarga bo'linmas edilar, baxtli edilar va g'amni bilmas edilar.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 90 сmp

To'fon to'g'risida rivoyat

To'fon to'g'risidagi rivoyat taxminlarga ko'ra, Mesopotamiyaning shu haqdaki rivoyati ta'siri ostida yaratilgan.

1. Bir kun ertalab Manuga tahorat uchun suv keltirdilar. U

2. Baliq aytdi: "Meni katta qil, men seni qutqaraman". – "Meni nimadan qutqarasan?" – "To'fon bo'ladi, u barcha mavjudotni o'zi bilan olib ketadi. Shundan seni qutqaraman." "Seni qanday katta qilaman?"

3.U javob berdi: "Hozircha kichkina bo'lganimizda, bizga hamma joyda o'lim taxdid qiladi, baliq baliqni yeydi. Meni boshda suvli ko'zaga joylashtir, qachon u menga tor bo'lib qolsa, chuqr qazib meni unda saqla. U ham menga tor bo'lib qolsa, meni dengizga qo'yvor". Shunda menga hech qanday xavf bo'lmaydi.

4. Tez orada u o'sdi va ulkan baliq bo'ldi, chunki u juda tez o'sdi. U aytди: "Shunday vaqt, shunday yil to'fon bo'ladi. Shuning uchun kemani tayyorla va meni kut. To'fon boshlansa, kemaga chiq va men seni qutqaraman.

5. U qanday aytgan bo'lsa, Manu uni shunday o'stirib dengizga qo'yib yubordi. Aytgan o'sha yilda u kemani jihozladi va uni kuta boshladi. To'fon boshlanganda Manu kemaga chiqdi va shunda baliq unga suzib keldi. Uning shoxiga kemaning arqonini bog'ladi va baliq uni Shimoliy toqqa olib keldi.

6. Baliq aytди: "Men seni qutqardim. Endi kemani daraxtga bog'la; tog'da bo'lganiningda qara suv yuvib ketmasin. Faqat suv pasayganda, uning orqasidan bor." Va mana Manu qadam-ma qadam pastga tushdi... Shu vaqt ichida to'fon barcha tirik mavjudotlarni o'zi bilan olib ketdi, Manu yerda o'zi qoldi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 90-91 сmp

Panchatatra

"Panchatatra" I (aynan tarjimasi – "Besh kitob") hikoyalar to'plami. "Pachatatra" ning har bir kitobi, alohida qissadan iborat.

1) "Do'stlarning ajralishi"; 2) "Do'stlar orttirish"; 3) "Qarg'alar va boyqushlar to'g'risida"; 4) "Orttirilganni yo'qotish"; 5) "Aqlsiz qilmishlar". Kitobning birinchi varianti eramizning IV asrida paydo bo'ldi. Hikoyalar ancha oldin paydo bo'lgan. Ular og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tdi, to'plamda proza she'r bilan birga keladi. Aforizm ruhidagi bu she'rlar donolik va ahmoqlik, boylik va kambag'allik, yovuzlik va ezbilik bilan sug'orilgan. Ular nasihat qiladi, maqtaydi, qoralaydi. Kitob aforizm – she'r, muxtasar masallar, qissalar, ertaklardan iborat. Hind an'anasi "Panchatatra" ni donolik uchun nasihatlar, shahzodalar uchun darsliklar bo'limiga kiritadi.

Qayerda kimdir senga
Sababsiz yo'lni tekislasa
Seni g'amxo'rlik bilan qurshab;
Hushyorlikni unutma.

Hech kim hali bir qudratli kuch bilan
Buyuk bo‘lmadi va tahqirlanmadı.
Axir bu dunyoda odamlarning ishlari
Faxr yoki nafratga olib boradi.

Toqqa yukni ko‘tarish qanday og‘ir!
Tog‘ ostiga esa – dumalab ketadi.
Bizning xizmatimiz sekin yuqoriga tortadi,
Ayblarimiz pastga turtadi.

Faqat kim hissiyotini bo‘ysundirish kuchiga ega bo‘lsa,
Kim faqat yaxshilikni eslasa, yovuzlikni unutsa,
Do‘sst uchun hayotini berishga tayyor tur,
Shunda haqiqatda yuqori ko‘tariladi!

Kim toza bo‘lsa, baxtsizlikdan saqlanadi,
O‘z g‘ururini yovuzlikdan
Mayli olov chig‘anojni kuydirsin
U avvalgidek oq.

Qachon maslahatchilar poraga uchmasa,
Aqli, sadoqatli, o‘z mamlakatiga sodiq –
Hokimga shunda hech qachon dushmanidan qo‘rqishga hojat qolmaydi.
U hatto urushsiz g‘olib!

Harakatlarni birlashtirib
Mana to‘qli kaptarlar olib ketmoqdalar!
Men faqat g‘olib bo‘lardim,
Qachonki ular janjal qilsalar...

Qayerda bizga peshvoz chiqmasalar,
Qayerda samimiyl so‘zlar bo‘lmasa,
Seni o‘zing ham paydo bo‘lma
Va u yerga do‘srlaringni kiritma!

Bizning o‘z sidqidil mehnatimiz
Bizga oziq-ovqat keltiradi –
Va agar qo‘l olmasa
Og‘izga ushoq ham tushmaydi.

O'ylanganda inson erishadi
Jasorat va bo'y sunmas kurash bilan.
Yerda taqdir deb atalgan
Odamlar qalbiga ko'r inmas solingan.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 92-93 стр

Ertak Roja va qayiqchi

O'tgan zamonalarda Hindistonda boy va qudratli roja yashar edi. Bir kun roja og'ir kasal bo'ldi. Buyuk mamlakatning turli tomonlaridan saroya mashhur tabiblar kelishdi, lekin hech kim rojaga yordam qila olmadi. Kasal kundan-kunga o'zini yanada yomon his qila boshladi.

Bir kun saroya bir qariya kelib rojaga dedi: – Men seni davolashim mumkin, lekin sen menga eng og'ir filing qancha vaznda bo'lsa, shuncha oltin berasan. Roja qariyaga o'zi sog'ayib ketgach, eng katta fili qancha og'irlilikda bo'lsa, shuncha miqdorda oltin berishga qasam ichdi.

Bir necha kundan keyin roja sog'ayib ketdi. Qariya bilan hisob-kitob qilish kuni keldi. Rojada eng katta filini o'lchash uchun shunday katta tarozini qayerdan olish kerak, keyin shuncha oltinni qanday tortib berish kerak degan savol tug'ildi.

Rojaning buyrug'i bilan Hindistonning hamma tomonidan donolar va olimlar to'plandilar, roja eng katta filni va oltinni o'lchaydigan tarozini o'ylab chiqadigan odamga katta mukofot va'da qildi.

Dono va olimlar uch kecha-yu uch kunduz o'yladilar va hech nimani o'ylab topa olmadilar. To'rtinchchi kuni saroya qandaydir kambag'al kelib, uning bitta o'zi hech qanday tarozisiz har qanday filni va oltinni o'lhashi mumkinligini rojaga aytishlarini so'radi.

Saroy qo'riqchilar kambag'al odamni kaltaklab darvozadan chiqarib yubordilar. Saroy olimlari va donolari hech chora topa olmaganalardan keyin, bu iflos gadoy nima qilishi mumkin deb o'yladilar qo'riqchilar. Roja shovqinni eshitib, saroy qo'riqchilar boshlig'ini chaqirib, nima uchun saroya shovqin – deb so'radi? – O buyuk roja, dedi qo'riqchilar boshlig'i-hozirgina qandaydir iflos, aqsliz sizning eng katta filingiz

va keyin shuncha oltinni tarozisiz o'lchay olishini aytdi. Lekin biz uni saroydan haydab chiqardik. Roja tezda bu odamni qaytarishni va oldiga olib kelishni so'radi. Buyruq shu ondayoq bajarildi. Roja kambag'al odamni yaxshi kutib oldi va unga nima kerakligini so'radi. Men qayiqchiman, – deb javob berdi notanish odam. O'z qayig'imda odamlarni muqaddas Gang daryosiga bir qirg'oqdan boshqa qirg'oqga o'tkazib, oilamga ozgina yemish topaman. Katta filingizni va keyin shuncha oltinni yengil va oddiygina o'lchash mumkin.

– Qanday qilasan ? – dedi sevinib ketgan roja.

Buyuk roja - javob berdi qayiqchi – hozir siz hammasini ko'rasiz. Faqat katta filingizni qayig'im bog'liq turgan daryo qirg'og'iga keltirishni buyuring. Uning o'zi olim va donolar hamrohligida bu odatdan tashqari tomoshani ko'rish uchun yo'naldi.

Mana, filni daryo qirg'og'iga olib keldilar, qayiqchi uni qayiqqa chiqarishni so'radi. Fil qayiqqa chiqqanda, qayiq filning ulkan og'irligi ostida chetlarigacha suvga botdi. Qayiqchi bo'rnning oldi va suvga tushib, qayiqning tashqi bortida suv tekkan joyni belgiladi. Keyin filni qayiqdan qirg'oqqa chiqardilar va qayiqchi aytdi:-Endi oltinni qayiqqa ortishni buyuring.

Oltin quymalarini qayiqqa tashiy boshladilar va qayiqda qo'yilgan oq belgi suvga botguncha, oltinni tashladilar.

– Mana oltin ham fil qancha og'irlilikda bo'lsa, shuncha bo'ldi, – dedi qayiqchi. Buni ko'rgan barcha kishilar kambag'al qayiqchining aqliligi va topqirligidan hayratda qoldilar. Buyuk roja esa, o'z xazinachisiga qayiqchiga o'n ming oltin rupiya berishni buyurdi va uni saroya taklif qildi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 93-94 срп

Tayanch iboralar: *Mahabhorat, Bharata, Duro'dho'na, Dro'na, yengilmas harbiy sarkardalar, Ashvatthama, Pandavlar, qushlar, Yudhishtира, Dhritarashtra, Damayanti, oriylar, Krishna, Manu, Panchatatra, aforizm, Gang, roja.*

5-mavzu. Qadimgi Xitoy

1-§. Xan sulolasi davrida Xitoy

Xitoy tarixi haqida boy ma'lumotlar.

Xitoyning qadimgi adabiy yodgorliklaridan biri "Qo'shiqlar kitobi" beradi. Qo'shiqlardan birida er. avv. 822-yilda Chjou podsholigi hududiga ko'chmanchi syunnu qabilalarining bostirib kirgani va poytaxtni bosib olgani tasvirlanadi.

Oltinchi oyda qanday rahima!

Jang aravalari turibdi tayyor,

Har biriga qo'shilgan to'rt kelishgan ot.

Ular shaylangan, bu odatda qilinganday.

Syunnular shiddatli yopirildilar,

Shuning uchun biz

shoshilinch chiqishimiz kerak.

Podsho buyruq berdi yurishga,

ozod qilish uchun poytaxtni...

Biz yengdik syunnu,

ko'rsatib buyuk jasorat...

Syunnu yomon hisobladilar

Syao va Xuṇni egallab,

Szin daryosining shimol qismigacha borib,

Bizning bayroqlar, qushlar tasviri bilan bezalgan,

hilpiradi o'zining oq qatlari bilan,

O'n jang aravasi yeldi oldinda...

Biz g'alaba qildik syunnu

Bu misol o'n ming mamlakat uchun.

Xan davri

Xitoyda boshqa qadimgi Sharq mamlakatlaridan farq qilgan holda, xalq qo'zg'olonlari tez-tez bo'lib turgan. Ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi, dehqonlarning ommaviy yersizlanishi, turli xil soliqlarning oshib ketishi, yerning sudxo'rlar, katta yer egalari qo'lida to'planib qolishi, harbiy va mehnat majburiyatining o'sib ketishi dehqonlarning qo'zg'olonlariga sabab bo'ldi. Qadimgi Xitoydagagi eng kuchli ikki

qo'zg'olon: "Qizilqoshlilar" (eramizning 18-25 yillari) va "Sariq peshonahog'lilar" (184-207 yillar).

Dehqonlarning xonavayron bo'lishi, ijtimoiy tabaqalar o'rtaida keskinlikni kuchayishi mamlakatda islohotlar o'tkazish orqali ularni yumshatish zaruratini tug'dirdi. Shunday islohotlardan birini, ilk Xan sulolasi taxt vorisi, shahzodaning regentil, katta amaldor Van Man o'tkazdi. U eramizning VIII asrida ilk Xan sulolasi hukmronligiga chek qo'ydi va 9 yilda o'zini imperator deb e'lon qilib, yangi Sin sulolasiga asos soldi. Yangi imperator (eramizning 9-23 yillarida) qator islohotlarni e'lon qildi. Barcha yerlar imperatorning mulki deb e'lon qilindi, xususiy qullar – "xususiy qaram" deb, ya'ni ular davlat qullariga aylantirildi, lekin ular xususiy kishilarga qaram bo'lib qoldilar. Yer va qul oldi-sottisi taqiqlandi. Van Man yersiz dehqonlarni yer bilan ta'minlashga, hamma uchun teng yer ulushi ajratishga va'da herdi, lekin bu amalga oshmadidi. U davlat daromadlarini oshirish uchun sudxo'rlikka qarshi kurash bahonasida sudxo'rlik operatsiyalarini davlat qo'l ostida toplashga urindi. Bir necha marta pulni o'zgartirdi, soliqlarni oshirdi. Islohotlarga yirik yer egalari qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Van Man 12 yilda yermi qayta bo'lish va xususiy qulchilikni bekor qilishga majbur qildi. U eramizning 17-yilida har bir qul uchun 3600 tanga hajmida bir yillik soliq joriy qildi. Eramizning 18-yilida mamlakatda ochlik boshlandi. Eramizning 11-yilida Xuanhe oqimini o'zgartirdi. Mamlakatda 14-yilda qurg'oqchilik boshlanib, chigirkta bosdi. Hokimiyatdan chetlashtirilgan Xan sulolasi tarafdarları Van Manni ochlikning aybdori deb bildilar. G'alayonlar kuchli xalq qo'zg'oloniga aylanib ketdi. Bu voqealar eramizning 58-75 yillarida saroy tarixchisi Ban Gu otasi Ban Byao va singlisi Ban Chjao bilan birga yozgan "Ilk Xan tarixidan" kitobida yoritilgan. Eramizning V asrida Fan. E. tomonidan yozilgan "So'nggi Xan tarixi" asarida ham eramizningi 25-220 yillaridagi voqealar qamrab olingan.

Er. avv. II – I asrlarda dehqonlarni ahvoli

...Dun Chjun-shu (er. avv. II asrda U di davrida davlat arbobi, olim) imperator (er. avv. 140- 87 yillar)ga qiyidagi mutq bilan murojaat qildi... Sin sulolasi davrida hammasi boshqacha bo'ldi. Shan Yan1 islohotlarini qo'llaganlarida, qadimgi podsholar tizimini o'zgartirdilar, quduqli2

dalalar tizimini o'zgartirdilar. Xalq yerni sotishi va sotib olishi mumkin edi. Boylarning dalalari eni va bo'yiga cho'zilib ketdi, kambag'allarda esa, bigiz sanchishga joy qolmadi. Bundan tashqari, ularda (boylar) daryo va ko'llardan foyda, tog' va o'rmonlardan boylik... Kambag'al odam qanday azob chekmisin? ...Harbiy va mehnat majburiyatları qadimgiga qaraganda, o'ttiz marta ko'p, yer va jon soliqlari, tuz va temir uchun yig'imlar qadimgidan ko'ra, yigirma marta ko'p, ba'zilar yirik yer egaralining yerlarida hosilning yarmi uchun ishlaydilar. Shuning uchun, kambag'al xalq doimo hayvon terilarini qiyadi, it va cho'chqalar ovqatini yeysi. Bu yana shu bilan kuchayadiki, ochko'z va shafqatsiz amaldorlar o'zboshimchalik bilan hukm qiladilar va ularni o'ldiradilar. Azoblardan zada bo'lib, tayanchga ega bo'Imagan xalq qaroqchi bo'lish uchun o'rmon va tog'larga qochib ketadi. Yarim yalang'ochlarni yarim yo'lida turmaga hukm qiladilar. Bir yilda ular soni ming, o'n ming kishiga yetadi. Xan sulolasi hokimiyat tepasiga kelganda, u saqlanib qoldi va o'zgarmadi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 96-97 срп

Dehqon oilasi byudjeti. "Ilk Xan tarixi"dan parcha

... Aytaylik, dehqon 5 jondan iborat oilaga ega bo'lib, 100 mu3 hisobida dalaga ishlov beradi. 1,5 dan⁴ hosil bo'lganda bir mudan 150 dan don bo'ladi. Agar bu yerdan hosilning o'ndan bir qismini tashkil etadigan yer solig'i to'lovi uchun 15 dan chiqarilsa, 135 dan qoladi. Odam ovqat uchun bir oyda 1,5 dan don sarflaydi, 5 kishi esa, bir yilda hammasi bo'lib 90 dan don. 45 kun qoladi. 1 don uchun 30 tanga bo'lganda, bu 1350 tangani tashkil qiladi. Agar bu yerdan yer mehrobiga qurbanlik keltirish va ajdodlar ibodatxonasida har yili bahor va kuzdag'i marosimlarga xarajatlarni qoplash uchun 300 tanga chiqarib tashlansa, 1050 tanga qoladi.

Kiyimga odam o'rtacha 300 monet, 5 kishi bir yilda – 1500 tanga sarflaydi. 450 tanga yetmaydi. Kasallik, o'lim va dafnlar bilan bog'liq kutilmagan sarf-xarajatlar hamda jon solig'i va boshqa yig'imlar hali bu yerda hisobga olinmagan. Mana dehqonning doimiy kulfatlarini sababi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 97 срп

Qul savdosi. “Ilk Xan tarixi” dan parchalar

I.[Sin sulolasi davrida] qul va cho'rilar savdosi uchun bozorlar tashkil etilgan edi, ularni eshak va otlar bilan bir qo'raga joy lashtirar edilar...

Odamlarni, ayollar va bolalarni o'g'irlar va sotar edilar.

II. Bir necha yillar davomida hosilsizlik bo'ldi, xalqdan chiqqan odamlar rang'ni sotdilar, bolalarini garovga qo'ydilar va shu bilan kiyim va ozuqaga (vosita) topdilar. [Ju Chun sharhi]⁶ Xuay-Xay⁷ tumanida bolalarni qullikga sotish odati mavjud edi. Bu bolalarni garovga qo'yish deb atalar edi, agar ota-onas uch yildan keyin (bolani) qayta sotib olmasa, u (qul) bo'lib qolar edi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 97-98 сmp

Van Man islohotlari. “Ilk Xan Tarixi”dan

Van Man aytdi: Qadimgilar sakkiz kishiga quduqli dalalar belgiladilar. Bir er va xotinga yuz mu yer bo'lishi kerak edi. Hosilning o'ndan birini soliqlarga to'lar edilar. Davlat to'kinchilikda, xalq boy edi va madhiya aytar edi... Sin sulolasi... o'z foydasiga soliq va yig'implarni oshirdi, o'zining haddan tashqari istaklari bilan xalq sillasini quritdi. Ular yerkarni bosib olish uchun, dono tizim quduqli dalalarni bekor qildilar, ochko'zlik, pastkashlik paydo bo'ldi. Kuchlilar dalani mingga o'lehadilar, zaiflarga bigiz sanchish uchun joy yo'q edi. Qullar va cho'rilar bozorlarini sigir va otlar bilan bir qo'rada tashkil qildilar. Fuqarolarni boshqara turib, ular hayotlariga butunlay egalik qildilar, buzuq va jinoyatkor odamlar bundan boyidilar. Ish shungacha yetib bordiki, odamlarni, ayollar va bolalarni o'g'irladilar va sotdilar, osmon irodasiga xiyonat qildilar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni buzdilar, odam hammasidan ulug' degan, osmon va yer tamoyilini soxtalashtirdilar... Xan sulolasi yer solig'ini o'ttizdan birigacha pasaytirdi, lekin harbiy soliqni⁸ hamma vaqt, hatto keksalar ham to'ladilar. Kuchlilar dalalarni zo'ravonlik va aldov bilan bosib oldilar: so'zda soliq o'ttizdan birga teng, amalda esa hosilning yarmi. Otalar, bolalar, erlar va xotinlar yerda yil bo'yi ishlaydilar: ular oladiganlari ovqatga yetmaydi. Shuning uchun, boylarning it va otlaridan tariq va no'xat ortiqchasi qoladi, kambag'allarga esa, kepak va yuvindi tegmaydi, ular

kambag‘allikdan jinoyat qiladilar. Ularning barchasi, kambag‘allar va boylar jinoyatlarga botib qoldilar, jazo esa qo‘llanilmaydi. Men hali taxtga o‘tirmasdan oldin, yerlarni umumiy bo‘lish va quduqli yerlarni jon boshi bo‘yicha taqsimlashga farmon chiqardim. O‘sma vaqtida baxtli nishona sifatida mo‘l-ko‘l hosil bo‘ldi. Lekin bu qaroqchilik va xiyonatlar sababli to‘xtab qoldi.

Hozir men nomlarni quyidagi tarzda o‘zgartiraman: imperianing barcha yerlari podsho yerlari, qullar va cho‘rilar xususiy qaram deb ataladi. Ularning barchasini (yer va qullarni) sotish ham, olish ham mumkin emas. Agar erkaklar sakkiztadan kam bo‘lsa, yer ularda ko‘p bo‘lsa, ortiqcha yerlar to‘qqizinch bo‘g‘ingacha bo‘lgan qarindoshlarga, qo‘shnilarga yoki hamqishloqlarga beriladi. Barcha yersizlar hozir yerni qonun bo‘yicha olishlari kerak. Quduqli dalalar dono tizimini buzganlar, ommani yo‘ldan uruvchilar chegaraga tog‘lik shaytonlardan mudofaa uchun surgun qilinadilar...

...Ikkinch yilda (eramizning 10-yilida) kimki tanga quyish bilan noqonuniy shug‘ullanishga jur’at qilsa ...mulki musodara qilinadi va, bu to‘g‘risida bilib turib xabar bermaganlari uchun to‘rt qo‘shnilari bilan davlat qullariga aylanadilar...

Tanga zarb qilish to‘g‘risidagi taqiqni buzgan odamlar, besh qo‘shni oilalar jumlasidan qamoqqa duchor etildilar, mulki musodara qilinib, davlat qullariga aylanadilar. Yuz minglab erkaklar, jinoyatchilar uchun qafaslarda, o‘zları, xotin va bolalari bo‘yinlarida zanjirlarini shaqirlatib piyoda yurdilar va tanga quyishga mutasaddi amaldorlarga berildilar. U yerga ular yetkazilganlaricha, xotinlar va erkaklar almashdilar, g‘am va azobdan o‘ntadan olti-yettitasi halok bo‘ldi...

Bozorni boshqaradiganlar yilning o‘rta oyida o‘zları mutasaddi mahsulotlarga yuqori, o‘rta va past narxlarni belgilaydilar.

Ularning har biri boshqa sohalarga aralashmasdan o‘z bozorida teng-lashtirilgan baholarni qo‘llaydilar...

Agar xalqda qurbanlik keltirish yoki dafn uchun mablag‘ yo‘q bo‘lsa, xazina savdogarlar va hunarmandlardan soliq summalaridan foizsiz qarz beradi. Qurbanlik keltirish uchun qarz o‘n kundan ko‘p bo‘Imagan muddatga beriladi, dafn marosimlariga uch oydan ko‘p bo‘Imagan muddatga beriladi. Agar kimdir xalqning ichidan muhtojlikda qolsa va

o'z ishlarini hal qilish uchun qarz olmoqchi bo'lsa, uni har kim olishi mumkin. Uni boqish uchun zarur bo'lgan mablag'dan tashqari, qolgan suminadan bir yilda undan oshmaydigan foiz olinadi...

...Va shunda dehqonlar va savdogarlar ishsiz qoldilar, oziq-ovqatlar va mahsulotlar g'oyib bo'ldi, xalq bozorlar va yo'llarda yig'ladi. Zodagonlardan, xizmatdagi odamlardan va oddiy xalqdan yerlarni, qu'llarni sotgani va tanga quygani uchun hukm qilinganlarni sanash imkon oyoq edi...

...Uch yildan keyin (eramizning 12-yili) imperator farmon chiqardi: yeyishga berilgan podsho yerlari, xususiy qaram (qu'llar) qonun bilan cheklanmagan holda sotilishi va sotib olinishi mumkin edi.

-
1. *Shan Yan – Sin podsholigi davlat arbobi, islohotchi er. avv. IV asr o'rtalari.*
 2. *Quduqli – an'anaga ko'ra, jamoa yer egaligi tizimi.*
 3. *100 mu – 0,047 ga.*
 4. *1.5 dan suyuqlik o'chovi- 35 l.*
 5. *Rang zodagonlik darajasidan pul mukofoti evaziga voz kechish.*
 6. *Ju Chun sharhi – Ban Guning "Xan tarixi"ga sharh yozgan III asrdagi olim.*
 7. *Xuay-Xay - Xuanxe daryosini quyi oqimidagi tuman, Sharqiy Xitoy.*
 8. *Soliq – harbiy xizmat majburiyatdan ozod bo'lish uchun to'lov.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 101-103 сmp

Tayanch iboralar: Chjou podsholigi, Syunnu qabilasi. Xan davri, "Qizilqoshlilar", "Sariqpeshonabog'lilar", Van Man, Xuanxe, Fan E., Dun-Chjan, Shan Yan islohotlari, Sin sulolasi, Xuay-Xay, Ban Gu, mu, dan. rang, Xan, Sin,

2-§. Xalq qo'zg'olonlari

"Qizilqoshlilar" qo'zg'oloni" (eramizning 18 -25 yillari)

"Ilk Xan tarixi" dan

Van Man islohotlari ijtimoiy qarama – qarshiliklarni kuchaytirdi. Uning qomumini buzgan kishilar nafaqat o'zlarini va oilalari bilan, balki to'rt qo'shni oilalari bilan qulga aylantirildilar. Hosil bo'lмаган yillarda ochlik boshlanib, minglab odamlar qirilib ketdi. Kuchli xalq qo'zg'olonlari yuz berdi. Qo'zg'ololnarga cho'ponlar; qochoq askarlar; kambag'al dehqonlar boshchilik qildilar. Qo'zg'olonchilar shahar-qishloqlarni, oziq-ovqat zaxiralarini bosib olar edilar. Ulardan birinchi eng kuchlisi

“Qizilqoshlilar” qo’zg’oloni edi. Qo’zg’olon rahbari kambag’al Fan Chun edi. Qo’zg’olon Xitoyning sharqiy qismini to’la qamrab oldi.

Lyu Syuan tarjimai holidan

(Lyu Syuan Van Man eramizning 8 yilida ag’dargan Xan sulolasini vakili, qo’zg’olonchilarga qo’shilgan va eramizning 23-yilida Genshi nomi bilan imperator deb e’lon qilingan, keyin taxtdan tushirilgan va qo’zg’olonchilar tomonidan eramizning 25-yilida qatl qilingan.)

...Van Man hukmronligining oxirida hosilsizlik bo’ldi. Odamlar olomoni dala va botqoqliklarga ketdilar, yemish uchun ildizlar qazdilar va bir-birlaridan uni tortib oldilar...

Lyu Pinszi tarjimai holidan

(Lyu Pinszi – Van Man ag’dargan Xan sulolasining avlodni, qo’zg’olonchilarga qo’shilgan. “Qizilqoshlilar” tomonidan Lyu Fandan keyin taxtga chiqarilgan ikkinchi Xan sulolasining imperatori Lyu Syu tomonidan ag’darilgan).

O’sha zamonlarda Sin, Syuy viloyatlarida dahshatli ochlik boshlandi. Qaroqchilar go’yoki asalarilar galasi kabi paydo bo’ldilar. Fan Chun dovyurak edi va omma unga qo’shildi.

...Van Man ularga hujum qilishga yuborganda, Fan Chun va uning tarafдорлари jangga tayyorlana turib, o’zlarinikini Van Man qo’shinlaridan ajratish uchun qoshlarini qizil rangga bo’yadilar ...

Lyu Yan tarjimai holidan

(Lyu Yan – Lyu Bo-shen-Lyu Syuning dahshatli akasi qo’zg’olonchilar tomonidan o’ldirilgan.)

Qo’zg’olonlar bir necha yil davom etadi. Hamma joyda urush chiqadi. Bu – dunyoning tugashi ...

Van Man tarjimai holidan

Tyan’fin (eramizning 17-yili) boshqaruvining to’rtinchı yilida Guantyan I va boshqalar qaroqchilikka ketdilar; ular Kuyszi va Chanjou joylariga tayandilar.

Lanya2dan bir ayol, Lyuyaning onasi ham qo’zg’olon ko’tardi. Uyezd boshlig’i uning aybsiz o’g’li-uyezd amaldorini qatl qildi. Uning onasi o’zining butun mulkini vino va qurolga sarfladi va maxfiy ravishda atrofiga yuzdan ortiq kambag’al yosh kishilarni to’pladi. Ular bilan uyezd shahriga hujum qilib, o’g’li qabriga qurbanlik qilish uchun uyezd

boshlig'ini o'ldirdi. Xuayga yo'l olishda uni qismini soni o'n minggacha yetdi. Van Man qaroqchilarga afv taklifi bilan elchi jo'natdi. Elchi qaytib keldi: qaroqchilar tarqalib ketdilar va keyin yana tezda to'plandilar deb aytdi. Van Man hodisa sababini so'radi. Elchi unga javob berdi: Hamma aytmoqda, turli xil taqiqlarning ko'pligidan azob chekmoqdalar, ulardan qo'lni qimirlatish ham mumkin emas. Ishdan olingan (oylik) soliq va yig'imlarni to'lashga ham yetmaydi. Odamlar eshiklarini yopadilar, hech kim bilan gaplashmaydilar va baribir besh qo'shnining bir kishi jinoyati uchun bir-biriga kafilligi to'g'risidagi qonunga ko'ra, tanga quyish va mis saqlashda go'yoki sherikdek baribir turmaga tushadilar. Amaldorlar xalqni qiyab yubordilar. Kambag'allikdan barcha qaroqchilikka ketadi.

O'sha yil (eramizning 18-yili) hosilsizlik va ochlikdan Lanyada Liszi Du³, Fan Chu va boshqa "Qizilqoshlilar" qo'zg'olon ko'tardilar. Ular shaharlarni egallab, taladilar. Ular o'n ming kishi edi. Okrugdan yuborilgan qo'shinlar ularni eplay olmadidi...

Oltinchi yilda (eramizning 19-yili)... Guandunda bir necha yil davomida qurg'oqchilik va ochlik davom etdi. Liszi Du va "Qizilqoshlilar"ning boshqa qismlariga yanada ko'proq xalq oqib kela boshladи. Lashkarboshi Lyan Danchjouga hujum qildi, lekin g'alaba qila olmadidi... Si Shushi va Sun Si⁴ qaroqchilardan daryo va ko'llarni tozalay boshladilar.

Van Man o'limga hukm qilinganlar va qullar, amaldor va xalqning katta yig'inini e'lon qildi. U bu qo'shinni "to'ng'izning tashlanishi", "botir to'ng'izlar" deb atadi.

Dixuan (eramizning 21-yili) boshqaruvinining ikkinchi yili... O'sha vaqtida janubda "Yashil o'rmonda" Chjan Ba, Szyan Sya, qo'y boqar Van Kuan va boshqalar ko'tarildilar. Ular "daryoning quyi oqimidagi" qo'zg'olonchilar deb ataldilar. Ularning soni o'n mingdan oshdi... Daryo va ko'llarda o'zini knyaz Fan deb atagan qaroqchi faoliyat ko'rsatdi. Lyu urug'idan⁵ o'ng minglab ularga odamlar qo'shildilar...

Qaroqchilar go'yoki nashaga o'xhash o'sib ketdilar. Qaroqchilarni ushplash uhun komendantlar belgilandi, sud vakolatlari bilan amaldorlarga buyruqlar berildi...

Qaroqchilar dastlab ochlik va qashshoqlikdan qo'zg'olon ko'tardilar. Ular hosil bilan o'z qishloqlariga qaytishlari mumkin deb o'yladilar.

Lekin, ular soni asta-sekin bir necha o'n mingga yetdi... To'rtinchi oyda Van Man astrolog Van Kuan va lashkarboshi Lyan-Danni sharqqa yubordi... Ularda yuz ming kishilik tanlangan qo'shin bor edi.

Uchinchi yil (er. 22 yili) ...“Qizilqoshlilar” bosh astrolog Szin Shanni o'ldirdilar. Guandunda odamlar bir-birlarini yedilar. To'rtinchi oyda: Sharqda shunday gap tarqaldi: “lashkarboshi Lyan Dan bilan uchrashgandan ko'ra” “Qizilqoshlilar” bilan uchrashgan ma'qulroq. “Lashkarboshi ning qo'lidan hech ish kelmaydi; lekin Van Kuan barchani yo'q qiladi...” Yozda sharqda hasharotlar ko'tarildi, ular osmonni qopladi.

– Yuz minglab qochoqlar zastavaga keldilar. Lekin ularni boqishga tayinlangan amaldorlar, vakillar, nazoratchilar va mayda xizmatchilar omborlardan oziq-ovqatlarni o'g'irladilar va har o'n qochoqdan yetti-sakkiztasi ochlikdan o'ldi...

...Hamma joyda o'n minglab qaroqchilar shaharlar va mulklarga hujum qildilar. Ular ikki mingga yaqin amaldorni o'ldirdilar. Astrolog Van Kuan va boshqalar janglarda mag'lubiyatga uchradi...

...Bo'lg'usi imperator Guan U^o katta akasi knyaz Si U, tog'asi Li Tun va boshqalar bilan bir necha ming kishini olib bordi... Ular Sin'shi va Pinlindan Chju Bاليقني، Chen cho'ponni va boshqa qo'zg'olonchilarini chaqirdilar va ular bilan birga Sziyanⁿ ni egalladilar.

...Bir necha ming qo'zg'olonchilar tarqalib ketib Nan'yan^s hududiga kirdilar...

To'rtinchi yil (eramizning 23 yili) birinchi oyida Xan sulolasi tarafdarlari qo'shnlari Van Chan va boshqa “Quyi oqim qo'zg'olonchilar” yordamida Chjen Lyan va Syu Si ilg'or qismlariga hujum qildilar. Askarboshilarining boshini kesdilar va o'n minglab askarlarni chopib tashladilar...

...Van Man dahshatga tushdi. U... Van Man bilan birga barcha viloyatlardan million askar boshchiligidagi Shandunni^o tinchlantirishga yubordi. Qo'shin “yo'lbars tishi” laqabini oldi. Van Man Van Ini jo'natish uchun xazinani bo'shatdi, u ta'minotini mo'l-ko'lligi bilan Shandunni qo'rqtishga harakat qilib, ko'p xazina va yovvoyi hayvonlarni jo'natdi... Van I bo'lsa aytdi: millionli qo'shin o'z yo'lida hammasini yo'q qilishi lozim. Bu shahar (Kun'yan)ning aholisini qirib tashlaymiz, qon daryosi bilan oldinga yuramiz...”

Bu vaqtida bo'lg'usi imperator Yan va Dinlindan bir qancha qo'zg'olonchilar bilan Kunyanga qutqarishga keldi... Xan askarlari yengildilar ... Kunyandan askarlar chiqib, Xanlar bilan bir qatorda urushdilar. Van I qochdi, Van Man qo'shini taraddudlanib qoldi ... Yo'lbars va qoplolar g'azablandilar. Askarlar qochib ketdilar va o'z viloyatlariga qaytdilar... Poytaxt qaltirab qoldi.

Yaqinda turgan qo'zg'olonchilar poytaxtga tomon oqdi...

Van Man poytaxtning barcha qamoqxonalariday jinoyatchilarga qisman amnistiya e'lon qilish, quroq tarqatish uchun choparlar yubordi... Lashkarboshi Shi Chen Vey daryosidagi ko'priidan o'tmoqchi bo'lganda, butun qo'shin qochib ketdi. Shi Chen bir o'zi qaytdi. Qo'zg'olonchilar Van Man oilasi qabrini ochdilar: bolalari, xotini, otasi, bobosi va ularning tobutini, to'qqiz ibodatxonalarini, Mintan saroyi va imperator maktabini yoqdilar. Shafaq butun shaharni yoritdi...

To'qqizinchi oyda qo'zg'olonchilar shaharga shimoldan Syuanpin darvozasi orqali kirdilar. Chjan Xan darvozalarda har bir qo'zg'olonchini o'ldirdi. Van I, Van Lin, Van Syun va boshqalar o'zaro askarlarni bo'lib olib, saroyning shimoliy darvozalarini himoya qildilar. Xan tarafdarlari askarlar unvon olish uchun Van Manni ushlab olishni orzu qildilar. Yetti mingdan ortiq askar favqulodda jasorat bilan jang qildi. O'sha kun kechqurun vazirliklar va saroylardan hamma qochib ketdi...

Yong'in ichki saroya yaqinlashdi... Van Man yong'indan Syuanshii saroyini oldingi zalida qutuldi. Olov unga yetdi. Saroy ayollari "Biz nima qilishimiz kerak?" deb qichqirdilar... Van Man aytdi: "Osmon menga hokimiyatni berdi, Xan askarlari menga zarar yetkazishi mumkinmi?"

Van Man ovqatsiz qoldi, uning kuchi kam edi. Uchinchi kun tongda amaldorlar uni oldingi zaldan olib chiqdilar... Hovuzning suv to'sig'idan foydalanishini o'ylab va aravada Szyantayga olib keldilar...

Van Manning orqasidan mingdan ortiq amaldor va haram og'alari keldi. Van I kunduzi va kechasi jang qildi va juda charchadi. Deyarli barcha o'ldirildi yoki yaralandi...

Qo'zg'olonchilar saroya "Xoin Van Man qani?" deb bostirib kirdilar. Shu vaqtida, xonadan go'zal ayol chiqib "Szyantayda" dedi. Qo'zg'olonchilar u yerga shoshildilar, saroyni bir necha halqa bilan

o'rab oldilar, kamonlar va arbaletlardan ot ochdilar. Van Manning himoyachilari sekin – asta yiqildilar, ularda o'qlar tugadi, otishga hech narsa yo'q edi. Yuzma – yuz to'qnashuvlar boshlandi. Van I uning o'g'li va boshqalar halok bo'ldi. Savdogar Di Van Manni o'lirdi va uning kamari va muhrini bilan oldi... Barcha viloyatlar va uyezdlar taslim bo'ldi. Osmon mamlakati Xan sulolasiga tegishli bo'ldi.

Ikkinci yil (eramizning 24-yili) imperator Genshi poytaxt Channa keldi va umumiyligi amnostiya to'g'risida farmon berdi; undan Van Manning bolalari mustasno edi.

Bir yildan ko'p vaqt o'tdi. Imperator Genshi boshqaruv ishlari bilan shug'ullanmadı. Keyingi yilning yozida bir necha yuz ming "Qizilqoshlilar" Fan Chun boshchiligidagi zastavaga kirdilar va Lyu Pinszini imperator deb e'lon qildilar. Genshiga hujum qilganlarida, u taslim bo'ldi. "Qizilqoshlilar" poytaxtning saroy qismini yondirdilar va Genshini o'lirdilar.

Ochlar bir-birlarini yedi. O'ladirilganlar bir necha yuz mingni tashkil qildi. Poytaxt xarobaga aylandi.

1. *Fan Chun* – "Qizilqoshlilar" qo'zg'olonining boshchilaridan biri.
2. *Lan* – ya hozirgi Shan'dun provinsiyasidagi joy nomi.
3. *Liszi Du* – qo'zg'olonchilar boshliqlaridan biri.
4. *Sun Si* – Van Manning lashkarboshisi.
5. *Lyu urug'i* - Van Man ag'dargan Xan sulolasi urug'i.
6. *Guan U* - Lyu Syu 25-27 yillar.
7. *Sziyan* – Xubey provinsiyasidagi uyezd.
8. *Nan'yan* – Xenan provinsiyasidagi shahar.
9. *Shandun* – "Qizilqoshlilar" harakat qilgan tuman.

Xрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 103-108 сmp

"Sariq peshonabog'lilar" qo'zg'oloni (eramizning 184- 207 yillari)

"So'nggi Xan sulolasi tarixi"dan

"So'nggi Xan sulolasi tarixi"ni Fan. E. (er. V asri) tuzgan. Uning asari 25-220 yillar voqealarini o'z ichiga oladi.

"Sariq peshonabog'lilar" qo'zg'oloni o'n yil davomida olim va tabib Chjan Szyao boshchiligidagi yashirin Dao jamoasi tomonidan

tayyorlandi. Qo'zg'olon 184-yilda boshlandi. Qo'zg'olon arafasida hukumat ularni rejasidan xabar topib, Chjan Szyao tarafdorlarini ushlab, qatl qila boshladi.

"Sariq peshonabog'lilar" qo'zg'oloni bilan bir vaqtida Guandun, Sichuan va boshqa joylarda g'alayonlar boshlandi. Hukumat qo'zg'oloni shafqatsiz bostirdi, ko'plab qo'zg'olonchilar yoppasiga qirg'in qilindi. Poytaxtning janubiy tomonida qatl etilgan qo'zg'olonchilar boshlaridan minora ko'tarildi. Mamlakat aholisining sezilarli qismi qirib tashlandi. Loyan, Chanan kabi yirik shaharlar xarobaga aylandi, sug'orish tizimi izdan chiqdi, ichki va tashqi savdo tushkinlikga yuz tutdi. Kuchli qo'zg'olonor Xan imperiyasini qulatdi. 221-yilda imperiya uch mustaqil Vey, Shu, U davlatlariga bo'linib ketdi.

Imperator Pindi boshqaruvi xronikasi (168-169 yillar)

...Chjunpin boshqaruvingin birinchi yilida (184-yil) ikkinchi oyda (Xubey provinsiyasidagi Szyuyl uyezdida) da tug'ilgan, Chjan Szio o'zini "Sariq osmon" deb atadi. Unga uch yuz oltmis ming kishidan iborat qo'shin bo'yusundi. Ularning hammasi sariq peshonabog' o'rav, bir kunda qo'zg'olon ko'tardilar. Ularning chaqirig'iga javoban Anpin (Xubey provinsiyasidagi u'yezd) va Gan'lin (Xubey janubidagi uyezd) da aholi o'z knyazlarini ushlab oldi. Uchinchi oyda lashkarboshi Xe Szin Xenan provinsiyasi hokimini bosh qo'mondon etib tayinladi. Shahar minoralari yonida qo'shin to'plandi. Sakkiz muhim zastavalarga komendantlar belgilandi. Qamoqqa olingan odamlarga katta amnostiya e'lon qilindi, surgun qilinganlarni barchasi qaytarildi. Faqat Chjan Szio amnostiya olmadi. Barcha zodagon va a'yonlarga otlar va o'q otuvchi qurollarni quyish, askarboshi va amaldorlarning jang taktikasini biladigan o'g'llarini ko'tarish va askar oladigan amaldorlarga yuborish farmoni e'lon qilindi. Lashkarboshi Lu Chji Chjan Szioga qarshi yurishga yuborildi. Lashkarboshilar Xuanfu Sun va Chju Szyun Inchuan (Xenan provinsiyasi) viloyatiga "Sariq peshonabog'lilar" ga qarshi yurishga jo'nadilar (184 – yil boshida qo'zg'olonchilar muvaffaqiyatli harakat qildilar. Ular viloyat hokimlarini o'ldirdilar, lashkarboshi Chju Szyunni tor-mor qildilar. Keyinchalik, qo'zg'olonchilar yengila boshladilar. Chjan Szio qo'zg'olon boshlanganidan yarim yil o'tgach, vafot qildi. Uning aka-ukalari 184-yil oxirida halok bo'ldilar).

... Xuanfu Sunga Chjan Syoga qarshi piyoda borish farmoni berildi.

Qishda, o'ninchi oyda Xuanfu Sun “Sariq peshonabog‘lilar” bilan Guanszunda urushdi. Chjan Szioning kichik ukasi Chjan Lyanni qo‘lga oldi. Kasallikdan vafot qilgan Chjan Szioni boshini kesdilar. Xuanfu Sunni suvoriyarning katta lashkarboshisi unvoniga ko‘tardilar. O‘n birinchi oyda Xuanfu Sun yana “Sariq peshonabog‘lilar”ni Syasyuyyan (Xubey provinsiyasi)da tor-mor qildi. Chjan Szioning kichik ukasi Chjan Baoni qatl qildi. O‘lja yuz ming boshdan ko‘proqni tashkil qildi. Xuan Fu ulardan shahar janubida minora qurdi. Chju Szyun Van (Xubey provinsiyasi) shahrini bosib oldi va “Sariq peshonabog‘lilar” yana bir qo‘mondoni Sun Syaning boshini kesdi.

Chjunin (188-yil) bovhqaruvining ikkinchi yilida ikkinchi oyda “Sariq peshonabog‘lilar”dan qolgan qaroqchi Go Da boshqalar bilan birga Sixe (Shansi provinsiyasi)da “Oq to‘lqinlar” vodiysida ko‘tarildi.

Imperator Syandu boshqaruvi xronikasi (190-219-yillar)

... Chupin (190-yil) boshqaruvining birinchi yili birinchi oyida “Oq to‘lqinlar” qaroqchilari Dun viloyatini taladilar.

Ikkinci yil (191-yil) o‘n birinchi oyda Sinchjoudan “Sariq peshonabog‘lilar” Tayshan (Shandun provinsiyasidagi viloyat) ni taladilar. Tayshan hokimi In Shao ularni tor-mor qildi. “Sariq peshonabog‘lilar” Boxay (Xubey va Shandun provinsiyalaridagi viloyat)ni talashga ketdilar. Gunsun Szyan Dunguan (Xubey provinsiyasidagi uyezd)da ular bilan jang qildi va ularni yanchib tashladi.

Uchinchi yil (192-yil) birinchi oyda Sinchjoudan bo‘lgan “Sariq peshonabog‘lilar” Dunpinda Yanchjou (Xubey provinsiyasi) hokimi Lyu Dayni o‘ldirdilar. Dun viloyati hokimi Sao Sao Shouchjanda (Shandun provinsiyasidagi uyezd nomi) “Sariq peshonabog‘lilar”ni qaqqhatqich mag‘lubiyatga uchratdi va ular taslim bo‘ldilar.

O‘ninchi yil (205-yil) birinchi oyda Sao Sao Sinchjouda Yuan Tanni yengdi va uni qatl qildi. Yozda to‘rtinchi oyda “Qora tog‘lar” qaroqchilari lashkarboshisi Chjan Qaldirg‘och o‘z qo‘shinlarini olib keldi va taslim bo‘ldi...

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 108-111 сmp

Tayanchiboralar: Van Man, Fan Mun, Lyu Syuan, Genshi, Lyu Pinszi, Lyu Syu, Sin, Fan Chun, Tyanfin, Liszi du, Chanhan, Qizilqoshlilar, Sariqpeshenabog‘lilar; Pindi, Xubey, Xuanfu, Chjunxin, Sixe (Shansi provinsiyasi), Syandu, Chupin, Boxay, Gun sun, Yanchjou, Lyu Dayni Dunpin.

3-§. Qadimgi Xitoy adabiyoti

Konfutsiy aforizmlari

Konfutsiy (*xitoycha Kunszi*) (er. avv. 551-479-yillar atrofida yashagan) diniy-axloqiy ta'limot asoschisi. Konfutsiychilik er. avv. II asrda 1913-yilgacha Xitoyning rasmiy mafkurasi bo'ldi. Xan imperiyasi davrida konfutsiylik diniy-falsafiy tizinga aylandi. Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, ijtimoiy tuzilma abadiy va o'zgarmasdir. Osmomonning irodasi bilan har bir kishi bu dunyoda qat'iy belgilangan o'rinni egallaydi. Hokim hokim, ota ota, o'g'il o'g'il bo'lishi kerak. Osmomonning irodasi bilan odamlar "boshqaruvchilar" "oliy janoblar"ga va "boshqariluvchi odamlar" bo'linadi. Tug'ilishidan, boshqariluvchilar jismoniy melmat bilan shug'ullanishi, zodagonlarni "boqish va va ularga xizmat qilish" yuqoridan belgilab qo'yilgan. Konfutsiy boshqaruv qadimgi usullari va urf-odatlarini qayta tiklashga chaqirdi va yozma huquqning kiritilishiga qarshi chiqdi. Konfutsiy ta'limotida umuminson axloqi tamoyillari bayon qilingan. U insonparvarlikni, odamlarning jamiyatda va oilada o'zaro munosabatlarini oliy qonun sifatida targ'ib qildi va inson ezgu tug'iladi, lekin hayot qiyinchiliklari uni yo'lidan ozdiradi deb ishonar edi.

Konfutsiy asarlari bizgacha yetib kelmagan, faqat uning o'quvchilari Qadimgi Xitoy hokimlari va amaldorlari (rivoyatlarga ko'ra ular uch mingta bo'lgan) bilan suhbatlarining qisqacha konspektlari saqlanib qolgan.

Konfutsiy o'z ta'limotini og'zaki suhbat tarzida bayon qildi. Aforizmlar Konfutsiy uchun g'oyalarini ifodalash vositasi edi. Konfutsiyning aforizmlari shogirdlari tomonidan yozib olingan. Uning ta'limoti asoslari "Lun Yuy" ("Suhbatlar va fikrlar") traktatida bayon qilingan. Kitob Konfutsiyning shogirdlari va izdoshlari tomonidan uning o'limidan keyin tuzilgan. Ko'p asrlar davomida "Lun Yuy" traktati Xitoy maktabalarida boshlang'ich ta'limning asosini tashkil qildi va o'quvchilardan uni yoddan bilish talab qilindi.

Odamlar seni bilmaganidan xafa bo'lma,
O'zing odamlarni bilmaganingdan xafa bo'l.

Tafakkursiz o'qish behuda,
O'quvsiz fikr xavfli.

Nimani o'qisang, shuni bilasan.
Bilmaslikni bilmaslik deb bil.

Bu - bilim demakdir.

Xalqni bo'ysunishga majbur qilish mumkin,
Lekin uni bilimga majbur qilib bo'lmaydi.

Qachon sen o'zingni to'g'ri tutsang,
Ortingdan buyruqsiz ham ergashadilar.

O'zingni no'jo'ya tutsang,
Buyruq bersang ham senga quloq tutmaydilar.

O'rgatilmagan odamlarni jangga olib borish,
Ulardan voz kechish demakdir.

O'zingga nimani tilamasang.
Boshqaga ham buni ravo ko'rma.

Odam yo'lni buyuk qilishi mumkin,
Lekin yo'l od'amni buyuk qilmaydi.
Xato-faqat tuzatilmaydigani.

Tabiat birini boshqasi bilan yaqinlashtiradi,
Odat esa ularning barchasini bo'lib tashlaydi.

Jahl chiqishidan o'z jismingni va o'z ota-onangni unutishing,
Xato emasmi?

So'zga yengil bo'lma,
Ruxsat etilmaganni gapirma.

Tilingni hech kim ushlagmaydi,
So'z o'lishi mumkin emas.

Javobsiz so'z yo'q.
Tashakkursiz yaxshilik yo'q.

Daryoga o'xshab ketadiganlar,
Kunduzi ham, kechasi ham to'xtamaydilar.

Tuhmatchilar to‘g‘risida oda

Qadimgi Xitoyda va Sharqning boshqa mamlakatlurida tuhmat qoralanib, tuhmatchilar qonun bo‘yicha jazolanar edi.

I

Ajoyib to‘lqinlanadi, go‘zal to‘qima,
Chig‘anoq bilan to‘qilib chiqadi parcha
Qarayman, sizga men tuhmat ustalar!
Allaqachon siz tikuvg‘i san’atidan o‘zib ketdingiz!

VI

O sen, tuhmatning va yolg‘onning ijodkori
Kim kengashda boshliq, ayt?
Tuhmat qiluvchini, yolg‘onni aytuvchini ushlardim men o‘zim.
Va shafqatsiz sherlarga, tashlar edim bo‘rilarga;
Agar sherlar va bo‘rilar ularni yeya olmasa
Shimolga haydar edim men ularni, yerning chekkasiga;
Agar qorong‘i shimolga qabul qilmasa o‘lkalar,
Ulug‘ osmonga ularni uloqtirar edim men!

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 113 сmp

Yuefu

“*Yuefu*” – *Xan davridagi xalq qo‘schiqlari to‘plami*. *To‘plam Xan sulolasi imperatori U – di*, (er. avv. 140-87 yillar) tomonidan ta’sis qilingan. “*Yuefu*” – *musiqa palatasi nomi*. Palata eramizning VII asrigacha mavjud bo‘lgan. *Uning vazifasiga xalq qo‘schiqlari asosida marosim qo‘schiqlarini tayyorlash kirar edi*. Maxsus amadorlar mamlakatning barcha okruglar bo‘yicha qo‘sinchilarni to‘plib, “*Yuefu*”ga yuborar edi. “*Yuefu*” qo‘schiqlari qadimgi Xitoy adabiyotining ikkinchi “*Qo‘schiqlar kitobi*” hisoblanadi. *U xalq musiqaasi, oddiy kishilarning mehnati, urushlar davrida dehqonlarning ahvoli to‘g‘risida tushuncha hosil qilishga yordam beradi*.

Shahardan janubda

Urush yillarida qaram kishilarni haydaydi
Shimoldan, janubdan og‘ir ishlar uchun,
Bug‘doy yetiladi va ochlik keladi

Burchimizni tayyormiz vijdonan o'tashga
Dono hokim, o'yla, biz haqimizda!
Qo'shinni tezda chaqirib olib yurtidan
Ko'p kishilarni halokatdan qutqargan bo'larding sen!

Sharqda shafaq

(*Imperator U – dining janub xalqlariga qarshi yurishlari to'g'risida qo'shiq*)

Nimadan sharqda shafaq,
Sanuda (Guansu provinsiyasidagi hozirgi Uchjou shahri)
qorong'i, yana qorong'i
Ko'karmoqda g'alla va tariq zaxiralari, esiz
Va qo'shin uchun don befoya chiriydi.
Tong saharda tumanda bormoqdamiz, biz yurishga
Begona yurtda jangchiga qayg'urish bitilgan.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 143 срп

"Qo'shiqlar kitobi" da boy odamning ixtiyorida bo'lgan pomeste mana bunday tasvirlangan:

Bu yerda xo'jayin va uning to'ng'ich o'g'li,
Kichiklari va barcha bolalari,
Zabardast xizmatkorlaru yordamchilar.
Go'sht yeishar dasturxonda, shovqin-suron ko'tarib!
(Erlari) ovqat ketirgan xotinlarin eslar muhabbat-la,
Xotinlari qoladi erlar qoshida.
So'ngra, janub tomondagi yer bo'laklarin
O'tkir tishli omochlar hayday boshlaydi asta-asta.
Ekadilar donning xilma-xil navin
Har bir donda hayot o'sadi, shunda,
Urug'lar nish otib ko'tarilar tekis qator-la,
Don to'la boshqolar o'sar barq urib...
So'ng kelar o'roqchilar to'p-to'p bo'lishib.

Абдисев В.И. "Қадимги шарқ тарихи". Т., 1964.

Xalq qo'shiqlari.

Siz ekmaysiz, siz o'rmaysiz,
Uch xo'jalikdan daromadni qanday qilib olasiz?
Ovda mehnatni siz qilmaysiz,
Hovlingizda osilib turgan bo'rsiq terilarin qayerdan oglansiz?
Siz ekmaysiz, siz o'rmaysiz,
Tog'-tog' g'aramlarni qanday oglansiz?

Ey, bahaybat kalamush-sichqonlar,
Tarig'imizni yeb ketmanglar.
Uch yil bo'ldi ishlaymiz sizga,
Siz bo'lsangiz hech qilmaysiz g'am,
Bizning og'ir mehnatimizdan.
Tashlab ketarmiz abad sizni
Topmoq uchun joy o'zimizga.
Baxt beruvchi porloq yerlardan.

Yuragim g'ash, o'ylayman hamon
Qora qismatim haqda.
Qilinarmiz barchamiz birdan:
Birovlarga qarol, birovlarga qul.
Sho'rim qursin! Qanday izlay endi madadni?

Ko'chmanchi Syunnu qabilasining eramizdan avvalgi 822-yilda Chjou podsholigiga bostirib kirib, poytaxtni egallagan tasvirlangan qo'shiq:

Olti oy bo'lganda alg'ov-dalg'ovga!
Jang aravalari turar shaylanib,
To'rttadan arg'umoq har aravaga
Qo'shilgan, ularning quroli ham shay.
Qahr-la Syunnu elimiz bosdi,
Shul sabab shoshilinch ro'baro' chiqdik.
Poytaxtni... qutqarmoq uchun otlaning,
Dedi shohimiz, biz yo'lga chiqdik.
Ko'rsatdik mislsiz mardlik, jasorat...
Syunnu yengildi, biz g'olib chiqdik.
Syaov va Xuni qo'lga kiritib,
Xao va Fenni ham istilo qilib,

Szin daryosin shimoligacha
Yeta olgan Syunnu rosa yanglishdi,
Rejalari ham xo‘p puchga chiqdi
Qushlar tasvirlangan bayrog‘imizda
Hilpirar edi u baquvvat qo‘lda.
O‘nta jang aravasi oldida uchar...
Omonsiz yengdik Syunni biz,
O‘n minglab ellarga bu namunamiz.

Masallar

Omad kimni chetlab o‘tadi

Qadimgi Xitoy masallari mehnat, dovyuraklik, to‘g‘rilikni sharaflaydi va yalqovlik, yolg‘onchilik, ochko‘zlik, takabburlik ustidan kuladi.

Dehqon Sunda uncha katta bo‘lмаган poliz bor edi. Sun o‘z polizida mehnat qilar edi. Shuning uchun har kuzda yaxshi hosil olar edi. Sun bozorda rediska, no‘xat, bodring, loviya sotar edi va zo‘rg‘a kun o‘tkazar edi. Bir kuni Sun o‘z jo‘yaklarini begona o‘tlardan tozalayitganda, butalar ichidan katta quyon otilib chiqdi, daraxtchaga yugurib borib urildi va Sunning oyoqlariga o‘lik bo‘lib yiqildi.

Mana omad! – quvonib ketdi Sun. – Hech qanday mehnatsiz go‘sht va teri oldim. Go‘shtni yeyman, terini esa sotaman va o‘zimga guruch olaman. Sun quyon terisini sotish uchun bozorga yugurdi. Ertalab Sun yana polizga keldi. Bu safar u o‘z jo‘yaklarini yaganalamoqchi va sug‘ormoqchi emas edi. U kichik to‘nkaga o‘tirdi va butalar orasidan yangi quyon otilib chiqib, oyoqlariga yiqililishini kutib o‘tirdi. Sun kechqurungacha o‘tirdi, lekin quyonni ko‘rmadi. Shu kundan boshlab Sun polizni esdan chiqarib, har kuni ertalab daraxt ustiga o‘tiradi va quyonni kutadi. Polizni begona o‘t bosib ketdi, ekinlar suvsiz qurib qoldi, Sun esa o‘tirdi va quyonni kutdi. Lekin quyonlar uning poliziga boshqa kelmadilar. Kuzda, qo‘snilalar mo‘l hosilni yig‘ishtirganlarida, Sun o‘z juyaklaridan shumg‘iya va qichitqini sug‘urib oldi. Qo‘snilarning hosiliga qarab, u achchiqlanib dedi: – Adolatsizlik! Qo‘snilarga xudolar omad yubordi, meni esa chetlab o‘tdilar. Sun bir narsani bilmas edi: ishlamagan tishlamaydi.

Dononing javoblari

Dono Konfutsiyning uch mashhur shogirdi bor edi: Gun, Lu va Chjan. Bir kun sayoq monax donodan so'radi:

– Siz o‘z o‘quvchingiz Gun to‘g‘risida nima deysiz?

Dono javob berdi:

– Hamma Gunning aqlidan hayratda qoladi!

– Luda qanday fazilatlar bor?

– Uning dovyurakligi mashhur jangchilar jasoratidan ustun turadi.

– Uchinchi o‘quvchingiz qanday?

– Chjanning mehnatsevarligi maqtovga loyiq.

Dononing so‘zlarini eshitib, monax hayron qoldi:

Gun shunday aqli bo‘lsa, Chjan mehnatsevar bo‘lsa, Lu shunday dovyurak bo‘lsa, ular sizdan yana nimani o‘rganadilar?

Javobimni eshit dedi Konfutsiy – Gun aqli, lekin yalqov. Lu dovyurak, lekin aqli emas. Chjan mehnatsevar, lekin hasadgo‘y. Gun aql dangasaga baxt olib kelmasligini bilmaydi. Lu dovyuraklik ehtiyyotkorliksiz halokat olib kelishini bilmaydi. Bular nimaligini shogirdlarim bilmaydi. Va ular bu haqiqatni anglab yetmas ekanlar, men ularning ustozi bo‘laman, ular esa so‘zimni ikki qilmaydigan shogirdlarim bo‘ladi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 115 срп

Kimning tasvirini chizish qiyin

Bir kuni rassomdan so‘radilar:

– Kimni chizish qiyinroq?

Rassom javob berdi:

– Xo‘rozni chizish qiyinroq.

– Kimning rasmini chizish osonroq?

– Xudo yoki ajinani chizish osonroq.

Odamlar ajablandilar:

– Bu qanday bo‘ldi? Xo‘rozni chizish qiyin, xudo yoki ajinani esa oson?

Rassom aytdi:

– Chunki xo‘rozni odamlar doimo ko‘radilar. Rassom uni tojisiz

yoki dumsiz, shoxlar bilan yoki uch oyoqda chizib qo'ysa, rassom chizishni bilmaydi deb hamma e'tiroz bildiradi. Lekin xudo va ajinani hech kim ko'rmagan va ko'rmaydi ham. Va shuning uchun ularni chizish yengil va oddiy. Hech kim rassom bunday chizolmabdi deb aytmaydi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 116 сmp

Qul xarid qilish to'g'risida shartnoma

Qul xarid qilish "shartnomasi" Van Bao (?-er. avv. 61-yil) tomonidan yozilgan. Bu hajviy hikoyani hujjatli guvohlik deb hisoblash to'g'ri emas. Lekin muallif o'z zamonasining odami bo'lib, unga zamondosh jamiyatning tamoyillari bilan fikrlaydi va o'z asarida aniq tarixiy hodisalardan foydalanib, o'sha davrning ijtimoiy vogeliklarini tasavvur qilishga yordam beradi.

Van Szi-yuan (er. avv. I asrdagi qadimgi Xitoy adabiyotshunosi Van Baoning ikkinchi ismi) shu okrugda [istiqomat qiluvchi] Szyanga (joy nomi) ish bo'yicha keldi, beva Yan Xoyning uyiga bordi, [uning] Byan - lyao nomli [uning yeridan qolgan] quli bor edi. [Van - Szi-yuan] [uning uchun] [qul] borib vino sotib olib kelishini istadi. Byan-lyao katta tayoqni olib [Yan Xoyning marhum eri] qabri tepasiga chiqib oldi va "xo'jayinim Byan-lyao ni sotib olganda, kontraktda [u] [faqat] qabrni qo'riqlashni belgilagan va [meni] begona erkak uchun vino sotib olishimni talab qilmagan" – dedi.

Van-Szi-yuan qattiq g'azablandi va so'radi: "nahotki [siz] [bunday] qulni sotishni istamaysiz?". "Xo'jayin javob berdi, bevani odamlarga berishga [urindim], [lekin] hech kim uni istamadi". Va Van-Szi-yuan tezlik bilan Byan-lyao ni sotib olish uchun kontrakt tuzishga qaror qildi. Shunda qul aytdi: "[Siz] [meni] nima ishlarni [bajarishga] majbur qilmoqchi bo'lsangiz, hammasini kontraktga kiriting. Kontraktda [nima] bo'lmasa, Byan-lyao qilmaydi?" "Rozi-man" – javob berdi Van-Szi-yuan.

Shartnoma matnida aytildi:

"Shen-szyue (er.avv. 61-yildan 68-yilgacha davom etgan imperator Syuan-dining boshqaruv erasi, Syuan-di er.avv. 73-49 yil-

larda hukmronlik qilgan) hukmronligi erasining o'n beshinchi kuni, birinchi oyida Van-Szi-yuan, Szichjun (uyezdidan) erkak Yan Xoy Chendu (shu okrugidagi uyezd) uyezddagi Anchjili jamoasidan ayol Yan Xoydan, uning marhum eridan qolgan soqolli qul Byan-lyaoni sotib oldi. U o'n besh ming tangaga sotiladi deb kelishildi.

Qul bo'ysunishga [majbur], ishlarning barcha turlarini bajarishi va [buyruqlar bo'yicha] bahslashmasligi lozim. [U] tongda turishi [va ertalabki] tozalashi, [binoga] suv sepishi; ovqatdan so'ng, idish-tovoqni yuvishi; doimo [qo'lida] [donni] tuyishi lozim; supurgi bog'lashi; [yog'och] tovoqlar o'yishi; quduqlarni qazishi; suv chiqarishi; yiqilgan [bambuk to'siqni] bog'lashi; bog'ni chopiq qilishi; yo'laklarni tekislashi; [yer maydonlari atrofida] to'siqlar qilishi; katta zanjirlar kesishi; bambukni bukishi va [undan] xaskashlar yasashi; quduq qopqoqlarini tozalashi va yamashi [kerak].

[Unga] ruxsat etilmaydi: otda yoki aravada [xo'jayinning qo'r-g'onidan] chiqish va [unga] qaytish, oyoqlarini chalkashtirib o'tirish va baland qichqirish, krovatdan turayotganda, boshini chayqash, [to'la uyg'onish uchun]; keyin esa, uni [sekin] pastga egish. [U] baliq tutishga [majbur]; o't o'rish; qamish [dan bo'yra] to'qish; [kanopni] tarash va to'qish. Unga mast qiladigan ichimlik ichish man qilinadi ... [U] [gazlama] to'qishi [va undan] oyoq kiyim [tikishi]; [hamda] [boshqa] dag'al oyoq kiyimi qilishni; [xodalar yordamida] yelim surtilgan tuzoqlar bilan qushlarni ushlashni; to'rlar to'qishni va baliq tutishni; kamondan bog'langan o'qlar bilan yovvoyi g'ozlarni otishni, yovvoyi o'rdaklarni esa – arbaleteddan shariklar bilan; bug'ularni tutish uchun tog'larga chiqishni; toshbaqalarni tutish uchun suvga kirish; boqqa suv o'tkazishni, [u yerda] baliq va yuzdan ko'p yovvoyi g'ozlar va o'rdaklarni urchitish uchun [hovuz qurishni]; boyqush [va boshqa yirtqich] qushlarni haydashni; qo'lida kaltak bilan cho'chqalarni boqishni; imbir o'stirishni; qo'ylarni o'stirishni; cho'chqacha va otlarga yem berishni; axlatni tozalashni va doimo tozalikni [saqlashni]; otlar va sigirlarga yemish berishni; do'mbiraning to'rt [zarbasi] chalinganda, turishni va ularga yarim qo'shimcha kechalik xashak berish.

Ikkinchi oyda, bahorgi teng kunlikda, [u] [dalalarni] o'rab tura-

digan to'siq va tuproq ko'tarmalarni yamash; tut daraxtlarini [quruq shoxlardan] tozalash] [va oqlash] hamda palma daraxtlaridan po'stloqni chipta kavush uchun shilish: qovoq qilish; baqlajon urug'larini [ekish uchun tanlab olish] hamda piyoz ekish; yer [hosildorligini] tiklash uchun [qurigan va so'ligan] o'simliklarni yoqish; [kulni] to'dalash va [yer] kesaklarini maydalash va qoq yarim kunda narsalarni quyoshda quritishga majbur. [U] xo'roz qichqirig'i bilan uyg'onishi va kelida don tuyishi kerak; ot va eshaklarni ko'zdan kechirishi va davolashi [lozim]. halda [ularning tuyog'i qattiq bo'lishi uchun] kuydirishi; buni uch marta qaytarib, [agar] uyda mehmon bo'lsa, [qul] ko'zani olishi va vinoga borishi [lozim]; [quduqdan suv chiqarishi va kechki ovqat tayyorlashi; idish yuvishi, dasturxon yozishi; boq'chadan sarimsoq yulishi; rezavorlarni maydalashi va quritilgan go'shtni kesishi; [toza] go'shtni chopishi va shirin kartoshkadan sho'rva [tayyorlashi], baliqni mayda kesishi va toshbaqalarni qovurishi, kechki ovqat tugaganidan [keyin], qolgan yemishni] o'rab qo'yishi va yashirishi, darvozalarni yopishi va omborlarni qulflashi; cho'chqalarga yemish berishi va itlarni yechib yuborishi lozim.

U qo'shnilar bilan yoqalashishi yoki tortishishi [mumkin] emas. Qul faqat loviya yeyishi va suv ichishi mumkin, vino ichishga o'rganib qolishi mumkin emas. [Agarda u] yaxshi vino ichimoqchi bo'lsa, faqat og'zi va labini ho'llashi mumkin, [lekin unga] kosani bo'shatishi yoki qadahni tubigacha bo'shatishi mumkin emas. [Unga] kun chiqishi bilan chiqib ketish va kechasi qaytib kelishiga yoki aloqalar o'rnatish va ulfatchilik qilishga ruxsat berilmaydi.

Uy orqasida daraxtlar mavjud. [Qul] ularni chopishi va qayiq yasashi kerak, Szyanchuga (joy nomi) ko'tarilishi [mumkin bo'lsin]. Okrug amaldorlari uchun pul topish [shu bilan birga] buzilgan yoki [tangalarning] to'liq bo'limgan bog'lamlarini tashlab yuborish. Myantanda [u] buyralar sotib olishi va Du va Lo (joy nomlari) oralig'ida yurib, kichik bozorlarda ayollar qidirib yuradigan moy va pomadalarni sotishi [lozim]. Duga qaytib, [u] [tayoqqa] kanopni ko'tarib borib [sotish uchun] yo'l chetiga qo'yishni; [sotishga] itlarni arqonda yetaklab borishi va g'ozlar bilan savdo qilishi [lozim]; Uyanda choy sotib olishni va Yan oilasi hovuzidan lotoslar olib

kelishni; [u] bozorni aylanib yurganda [yoki undan qisilib o'tganda] [u] aldamchi va o'g'rillardan ehtiyot bo'lishi [lozim]. [U] bozorga borganda, [unga] varvarlardek] tizzalab o'tirishi; yo'l chetida yastanib yotishni; yomon so'zlarni [aytishni] va uyatsiz so'kinishni [mumkin emas].

[U] katta miqdorda kamon va pichoqlar tayyorlashi, ularni Ichjouga olib borishi va sigir va qo'ylarga almashtirishi [lozim].

Qo'lida boltasi bilan [u] toqqa chiqishi va yozuv uchun taxtachalar tayyorlashi va shoti toqisini kesishi kerak. Material qoldig'idan qurbanlik va odatdag'i stolchalar qilishi, yog'och boshmoqlar va cho'chqalar uchun tog'ora o'yishi kerak. Kulbalar qurishni va uy tomini yopishni; hujjatning... (Xitoyda hujjat matnlari, kitoblar yog'och yoki bambuk taxtachalarda tush bilan yozilgan. Matnni o'zgartirish zarur bo'lsa, belgi pichoq bilan qirilgan). Quyosh botishida [uyga o'rmondan qaytishda u] ikki-uch bog'lam quruq o'tin olib kelishi kerak.

To'rtinchchi oyda [qul sholi] o'tqazishi lozim; beshinchchi oyda – hosilni yig'ishi; o'ninchidan loviyani yig'ishi lozim. U ko'p miqdorda qamish va rami (rami yoki xitoy krapivasi - gazlama tayyorlash uchun foydalaniladigan ko'p yillik tolali o'simlik) va [ulardan] ko'p arqon va kanat qilishi lozim.

Yomg'ir yog'ib turganda, [qulga] hech ish bo'limganda, [u] o't va bambukdan (ehtimol, o'tdan oyoq kiyimi -sandal, bambuk-bo'yra, Xitoy uylarida, asosan yozda eshiklar o'rnida ishlataladigan parda) qilish, shaftoli, nok, xurmo va tut daraxtlari o'tqazish va o'stirish, bir daraxt [boshqasidan oralig'i] uch chjon oraliq [ajratsin]; bir qator [daraxtlar oralig'i boshqasidan] sakkiz chi (Chi – uzunlik o'lchovi – 27,65sm) (er.avv. 206 yildan eramizning 8-yiligacha). Mevalar pishganda, [qul ularni yig'ishtirishi [lozim], [lekin shu bilan birga unga] [ularni] so'rish yoki mazasini totib ko'rishga ruxsat etilmaydi.

[Agar tunda] itlar hursa, [qul] turishi lozim: qo'shnilarni ogohlantirishi, darvozalarни, eshiklarni qattiqroq yopishi va [qo'riqchi] minorasiga chiqishi, [bong] nog'orasiga urishi. [shu bilan birga u] qo'lida qalqon ushlashi, nayza bilan qurollangan bo'lishi kerak. Pastga tushib, [u o'g'rilar yoki qaroqchilar yo'qligini tekshirish uchun] atrofni aylanishi kerak.

[U] harakatchan bo‘lishi va tez ishlashi [lozim]. [Unga] ishsiz sanqib yurishga ruxsat berilmaydi. Qul keksaysa va kuchi tugasa, [u] qamishni ko‘paytirishi va bo‘yra to‘qishi [lozim]. U ishni tugatsa va dam olmoqchi bo‘lsa, [shunda u] yana bir dan [don] tuyishi lozim. Kech tushganda, [agar unga] boshqa ishlar bo‘lmasa, [u] kiyimni yuvishi [lozim], [u shunday] oq bo‘lsin.

Agar shaxsiy jamg‘arma mavjud bo‘lsa, [uning] xo‘jayini [ularni o‘z] mehmonlariga sovg‘a qilishi [mumkin]. Qulga g‘irrom yoki xususiy ishlarni olib borishga ruxsat berilmaydi; [uning] barcha ishlari [xo‘jayinga] ma’lum bo‘lishi kerak. “Agar qul yo‘riqlarga bo‘ysunmasa, – yuz tayoq bilan jazolanishi lozim”. Sharhnomal matnini o‘qish tugatildi. Byao- lyao [qo‘rquvdan] tili aylanmadidi, [tilini tishladi va lablarini mahkam qisdi. [Keyin u] qo‘llari bilan o‘zini ura boshladi. Uning ko‘zlaridan yosh oqdi...

[U aytdi: “Agar hammasi] shunday bo‘lishi kerak bo‘lsa, janob Van aytganidek, yaxshisi tezroq sariq yerga qaytish kerak va [mayli] yerdagi qurtlar [mening] peshonamni kemirsin. [Men] bularning hammasini ilgari bilganimda edi. [Men] albatta janob Vanga vino sotib olar edim. Haqiqatan shunday yomon ishga jur’at qilmagan bo‘lar edim”.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 98-101 сmp

Tayanch iboralar: Konfutsiy, Kunszi, rasmiy mafkura, rivoyat, “Lun Yiy”, traktat, “Yuefu”, U-di, Palata, Xitoy adabiyoti, shafaq, Sun, poliz, Gun, Lu, Chjan, xo‘roz, Van Szi-yuan Xan, Sun, shumg‘iya.

Qadimgi Sharq metrologiyasi

Qadimgi Misr og‘irlik o‘lchovlari, pul birlklari
deben – 91 g
kedet – 9,1 g
xekat – 4,785 l

Qadimgi Misrning uzunlik o‘lchovlari

stadiya – 177,6 metr

orgiy – 1,85 metr

plefr – 30 metr

podsho tirsagi – 54 sm

Qadimgi Bobilning pul birliklari

mina – pul hisobidagi og‘irlik o‘lchovi – 0,5 kg atrofida

she – eng kichik og‘irlik o‘lchovi – 0,05 g

Bobil kumush talanti – 30,3 kg

Qadimgi Eron uzunlik o‘lchovi

farsang – 8 km atrofida

Qadimgi Eron pul birligi

Darik – oltin tanga

Qadimgi Xitoy og‘irlik o‘lchovlari

Dan – 35 litrga teng

Qadimgi Xitoy yer o‘lchovlari

mu – 0,047 ga teng maydon

Qadimgi Xitoy uzunlik o‘lchovlari:

Chi – 27,65 sm (er. avv. 200-yildan – eramizning 8 – yiligacha)

IKKINCHI QISM Qadimgi Yunoniston

1-mavzu. Krit jamiyati

1-§. Krit davlat tuzumi va jamiyati

Fukidid. Minos to‘g‘risida

Fukididning hayoti to‘g‘risida ma‘lumotlar kam saqlangan. U taxminan er.avv. 460-451 yillar atrofida tug‘ilib er.avv. 396-yillar atrofida vafot etgan. Uzodagon oilasidan bo‘lib, ajdodlari shimoliy Yuno-nistondagi Frakiya viloyatidan, kelib chiqishi Frakiya podshosi Olorga borib taqaladi. Fukidid Afinada Perikl boshliq demokratik doiraga kirdi va Afina siyosiy hayotiga faol qatnashdi. U strateg lavozimiga saylanib. Frakiyaga – Afina kolonniyasi Amfipolga yuboriladi. Fukidid harbiy boshliq sifatida o‘zini oqlay olmadi. Spartaliklarga Amfipolni bosib olishga yo‘l qo‘yib bergenlikda ayblanib, er.avv. 423-yilda umrbod quvg‘in qilindi va taxminlarga ko‘ra, Frakiyada quvg‘inda bo‘lgan paytda, “Tarix” asarini yozadi. Bu asar sakkiz kitobdan iborat. Tarixchi asarni yozishda qarorlar, shartnomalaridan foydalangan va voqealarni xronologik tartibda bergan. Fukidid tarix fanida ilk bor ilmiy – tanqidiy metodni qo‘llagan tarixchi hisoblanadi.

I. 4. Rivoyatdan bizga ma‘lumki, Minos1 hukmdorlardan birinchi bo‘lib, slot qurdi va hozirgi Ellin2 dengizi katta qismi ustidan hukmronlikka erishdi. U Kiklad orollari hokimiga aylandi, koloniyalarning birinchi asoschisi bo‘ldi va kariylarni³ haydab yuborib, u yerda o‘z o‘g‘illarini hokim qilib qo‘ydi. U kuchi yetgancha, o‘z boyligini oshirish maqsadida dengiz qaroqchilarini yo‘qota boshladi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 119 сmp

Qadimgi Yunoniston. Krit yozuvlari (er.avv VI-V asrlar). Latosiya aholisi to‘g‘risida Gortina qarori

Gortinaliklar ezungulik uchun qaror qabul qildilar. Kim e’lon qilsa, ozoddir. Latosiyada uy xo‘jayini bo‘lib yashasa, bunday odamni hech

kim qul qilmaydi va talamaydi. Agar u qul qilinsa, kosma- kseniyalar chetda turmaydi. Agar talasalar, titlar har bir buyum uchun 100 stater jarima to'lagsin.. O'g'irlangan har bir buyum qiymatini ikki barovar to'lab qaytarsin.

Agar titlar bu ishani qilmasalar, bu qarorda yozilgani bo'yicha shikoyatchiga barcha buyumlar qiymatini ikki barobar qilib shaharga jarima to'lasinlar.

Ritimna fuqarolari to'g'risida Gortina qarori.

Ilohlar!

Quyidagi shartlarda ritimniyaliklar, gortinaliklar o'z qonunlari bo'yicha boshqarilsinlar va o'z sudlariga ega bo'lsinlar. Har uch yilda Biduga qurbanlik (jonivorlar) 350 staterga keltirsinlar. (Ular qurbanlik keltirishda ishtirok etsinlar).

Agar kim u yerda uy qursa va daraxtlarni o'tqazsa, uy qurgan va daraxt o'tqazgan bularning barchasini qurbanlik qiladi va (xudolarga) beradi.

Bu kun summadan katta jarima solinmasin yoki hukm qilinmasa, uni chet elliqlar sudi sud qilsin. Agar ayblanuvchi mulk bo'yicha ishni yutqazib qo'ysa, dastlab yozib qo'yilgan oddiy zararni qoplashni ikki baravar hajmda taklif qilsin. Ritimnalik kosma to'lagsin. Agar kosmalar to'latmasa, Ritimna oqsoqollari to'latishlariga qo'yib berilsin.

Kosmalar to'g'risida qaror

Agar kimdir 10 yil kosma bo'lsa, u boshqa kosma bo'lmasin. Agar u kosma bo'lsa, sud qilgan paytda o'ziga o'zi ikki barobar hajmda jarima to'lashga hukm qilinsin. Uning kosma sifatidagi barcha qarorlari hech nimaga arzimasin. Har qaysi kosma, shahar fuqarolari o'zları bilganicha uni jarima qilsinlar deb qasam ichsin.

Gortinaning jamaoa ovqatlanishi uchun to'lovlar to'g'risidagi qarori

Ikki o'ichov toza anjir, 3 yillik vino, kimki hammasini bera olmasa, yarmisini bersin. Agar garopogastlar yashirib qo'yilgan yoki taqsimlanmagan mevalarni topsalar, ularni olsinlar, ular bu uchun jazolanmaydilar. Aybdor mevalar qiymatini va jarimani yozilganidek to'lasin.

Aristotel

Kritning davlat qurilishi haqida

1. Krit davlat qurilishi lakedemonlarga yaqin. Uning ba'zi belgilari yolg'on emas, ko'p qismi esa, ozroq san'at bilan yaratilgan. Ehtimol – bu rivoyatlar bilan tasdiqlanadi. Lakedemon davlat qurilishida Krit davlatiga taqlid qilingan. Ma'lumki, ko'p hollarda eski muassasalar keyingilarga qaraganda, kamroq ishlangan bo'ladi.

Rivoyatlarga ko'ra, podsho Likurg Xarill ustidan homiylikdan bosh tortgandan keyin, sayohatga jo'nab, qarindosh bo'lgani uchun ko'p vaqtini Kritda o'tkazadi. Likta aholisi Lakedemon kolonistlari edi; ular koloniyalar barpo qilishga borib, mahalliy aholidan ularda mavjud bo'lgan qonunlarni qabul qildilar.

Hozir ham perieklar birinchi bor Minos o'z qonunlarida o'rnatgan qoidalar bo'yicha boshqariladilar.

2. Krit oroli tabiatan Yunoniston ustidan hukmronlik qilishga qulay. Uning geografik joylashuvi ajoyib, dengiz bilan tutashgan, atrofida barcha yunonlar o'z manzilgohlariga ega. Bir tomondan, u Peloponnesdan, boshqa tomondan Osiyodan, aynan Trioniya hududi va Rodosdan uzoq bo'Imagan oraliqda turadi. Mana shu sababli, Minos orollardan birini o'z hokimiyatiga bo'ysundirdi, qolganiga aholini joylashtirdi, oxirida Sitsiliyaga hujum qilib, Kamika yonida vafot etdi.

3. Krit va Lakedemon tartiblari o'rtasidagi o'xshashlik quyidagicha: spartaliklar uchun perieklar ishlaydilar. Spartalik va kritliklarda sissitiyalar mavjud. Ilk vaqtda lakedemonlarda kritliklardi kabi fiditiya emas, andriya deyilgan. Yana siyosiy tuzum. Kritliklarda kosma deb ataladiganlarga tegishli hokimiyatga eforlar ham ega. Farqi shundaki, eforlar soni- beshta, kosmalar- o'nta. Gerontlar kritliklar kengash deb ataydigan gerontlarga to'g'ri keladi. Qadimda podsho hokimiyati mavjud edi. Lekin kritliklar uni bekor qildilar. Urushda yo'lboshchilik qilish ularda kosmalarga tegishli.

4. Xalq yig'inida barcha qatnashadi, lekin xalq yig'ini biror-bir mustaqil qaror chiqarish huquqiga ega emas, faqat geront va kosmalar qarorlarini tasdiqlaydi. Kritliklarda sissitiya lakedemonlarga qaraganda, yaxshi ahvolda. Lakedemonlarda har bir kishi tegishli to'lovnii amalga oshirishi kerak, aks holda qonun uni fuqarolik huquqididan mahrum

qiladi. Bu to'g'rida yuqorida aytilgan edi. Kritda sissitiyalar umumxalq jihatiga ega. Barcha hosildan, barcha mevadan, davlat oladigan barcha daromadlardan, perieklar to'laydigan badallardan, diniy marosim va umum davlat xarajatlariga bir qism, boshqa qism sissitiyalarga ajratiladi. Shunday qilib, hamma ayollar, bolalar va erkaklar davlat hisobidan ovqatlanadilar.

Qonunshunos o'z foydalariga xarajatni kamaytirish uchun ko'p chora tadbirlarni o'yADI. Ayollar ko'p bola tug'masligi uchun, ayollarni erkaklardan ajratish uchun, erkaklarning erkak bilan yashashini kiritdi, bu ish yomonmi, yomon emasmi muhokama qilish uchun qulay payt keladi.

5. Sissitiya kritliklarda lakedemonlarga qaraganda, yaxshi ekanligi aniq. Aksincha, ularning kosmalari bilan ishi Sparta eforlariga qaraganda, yanada yomon ahvolda. Eforlar muassasasiga xos bo'lgan salbiy xususiyatlar kosmalarga ham tegishli, ularning safiga tasodify odamlar tushib qoladi. Bu yerda davlat tuzumi uchun foydaning topa olmaymiz. U yerda eforlar jamoa ichidan saylanadi, shu bilan xalq olyi hokimiyatga ega bo'ladi, mayjud davlat tartiblarini saqlashni istaydi. Bu yerda esa, kosmalar jamoadan saylanmaydi, faqat ma'lum bir ulug'lardan, gerontlarni esa avval kosma bo'lganlardan saylaydi.

6. Ular to'g'risida ham, Lakedemon gerontlari to'g'risidagilar haqida aytilishi mumkin. ularning mas'uliyatsizligi va almashtirilmasligi, yuqori faxr kuzatiladi. Bu boshqaruvning to'g'riliqidan dalolat bermaydi. Eforlardan aksincha, kosmalarни sotib olib bo'lmaydi, chunki ularni sotib olishi mumkin bo'lganlar uzoqda, orolda yashaydilar. Kritliklar xatolarni tuzatish uchun foydalanishga urinayotgan vositalar esa, politiya tuzumi uchun yaroqli bo'lmay, sulola tuzumi uchun yaroqlidir.

7. Aynan ko'p hollarda, kosmalarga qarshi ularning o'z hamrohlari yoki xususiy kishilar qarshi chiqib, ularni haydab yuboradilar hamda kosmalarning o'ziga o'z vazifalarini bajarayotgan vaqtida, undan voz kechishga ruxsat beradilar. Albatta, bularning barchasi odamlar nuqtai nazaridan emas, qonuniy asosda yuz bersa, yaxshi bo'lar edi, chunki bu tadbir xavfsiz emas. Eng yomoni tartibning to'la bekor qilinishi ehtimoli mavjudligidir. Bu o'zlariga tahdid solayotgan sudga bo'ysunishni istamagan qudratli kishilar tomonidan tez-tez amalga oshiriladi. Shundan yaqqol ko'rindiki, Krit tuzumi politiyadan ko'ra,

farqli jihatga ega, ammo bu politiya emas, balki suloladir. Zodagonlari odatda, xalq va do'stlarini o'zlariga ergashtirib anarxiyani yaratadilar, o'zaro kurash va nizolarni keltirib chiqaradilar.

8. Bunday holat davlat hayotining vaqtinchalik to'xtalishidan umuman nima bilan farq qiladi? Bu bilan davlat muloqoti buzilmaydim? Davlat yuqorida bayon qilingan ahvolda tursa, katta xavf tug'iladi. Kim istasa, unga hujum qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, bu tuzum davlatning geografik joylashuvi tufayli qutulib qoladi; uzoqda joylashganlik chet elliqlarni haydab yuborishiga qaratilgan tadbir-oqibatlarga olib keladi. Shu sababli, kritliklarda perieklar tinch turadilar, shu bilan birga ilotlar tez-tez qo'zg'olon ko'taradilar. Kritliklar o'z orollaridan tashqarida mulkka ega emaslar, faqat yaqinda ularga begona yer ulushi yetib bordi. Bu mahalliy qonunlar zaifligini ko'rsatdi. Davlat qurilishi to'g'risida aytilganlar yetarli deb hisoblayman.

9. Kritda bir necha shahar bor: eng katta va mashhurlari uchta: Knoss, Gortina va Kidoniya. Ayniqsa, Knossni Gomer "Buyuk Minosning poytaxti" deb aytadi hamda keyingi davr yozuvchilari ko'klarga ko'taradilar. Haqiqatan ham, shahar uzoq vaqt orolda qadrati bo'yicha birinchi edi. Keyinchalik, u ko'pgina qonuniy afzalliklaridan mahrum bo'lib, o'z ahamiyatini yo'qotdi, uning shuhrati Gortina va Liktaga o'tdi.

10. Kritga kelganda qadimda orol yaxshi qonunlarga ega edi, yunonlarning eng yaxshisi birinchi navbatda, lakedemonlar bu munosabatda uning taqlidchilari edilar. Platon "Qonunlar"ida hamda Efor "Yevropa" asarida uning davlat qurilishi to'g'risida bayon qiladi. Oqibatda Krit qonunlari salbiy tomonga o'zgardi. Haqiqatan ham, boshqalardan ko'ra bosqinlari bilan "bizning dengizni" ko'p bezovta qilgan tirrenlardan keyin, dengiz qaroqchiligi mashg'ulotini meros qilib oldilar.

11. Knossdan keyin mening fikrimcha, ahamiyati jihatidan ikkinchi shahar Gortinalik deb o'ylayman. Amalda bu ikki shahar sirtdan harakat qildilar, ba'zida ular boshqalarni bo'ysundirib turdilar, ular arazlashganda, oroldagi barcha ishlar yomonlashdi. Kidoniya qaysi tomonga qo'shilgan bo'lsa, o'sha tomon boshqalardan keskin yuqori bo'ldi. Gortinaliklar shahri tekislikda yotadi, qadimda u Gomerni aytishicha, devorlar bilan o'rabi olingan.

12. Devorlar bilan mustahkamlangan Gortina (il. II. 646). Keyinchalik esa, shaharning devorlari asosigacha buzib tashlandi va umrbod devorsiz qoldi. Ptolemy Filopator devor qurilishini yangidan boshlagan bo'lsa-da, faqat 8 stadiy atrofida yetkazishga ulgurdi. Shahar qo'rg'oni qachonlardir aylanasi 50 stadiy atrofidagi maydonni egallagan edi. Liviya dengizidan Lebengacha uning savdo porti-shahar 90 stadiyda turadi. Yana boshqa 130 stadiydagi Matal gavani bor. Lefey daryosi butun shahar orqali oqib o'tadi.

13. Minos tomonidan bir metropoliyaga birlashtirilgan uch shahar dan oxirgisi Fest edi. Gortinaliklar uni buzib tashladilar. Fest Gortinadan 60, dengizdan 20, Matal kema bekatidan 40 stadiyada turadi. Shahar hududiga endilikda uni buzgan gortinaliklar egalik qiladilar...

14. Efor tasvirlagan kritliklarning davlat qurilishiga kelganda, eng muhimlariga to'xtash yetarli. Eforning so'ziga ko'ra, qonunshunos erkinlik barcha davlatlar uchun oliy baxt ekanini qoida asosida qabul qiladi. Kim erkinlikka ega bo'lsa uni himoya qilishi lozim. Yana kelishuv g'arazli manfaat va hashamatdan kelib chiqadigan kelishuvchiliklar bartaraf qilingan joyda paydo bo'ladi. Haqiqatan agar fuqarolar mo'tadil va oddiy hayot kechirsalar, ularda hasad ham, dimog'dorlik ham o'ziga teng bo'lganlarga nisbatan nafrat ham bo'lmaydi. Shu sababli, qonunlarda aytilganidek, o'smirlar "qismlar" deb ataladiganga, kattalar umumiy ovqatlanadigan "andriya" deb ataladiganga to'plansinlar, jamoa hisobidan ovqatlanadigan kambag'allar boyalar bilan teng ulushga ega bo'lsinlar. O'smirlar dovyurak, qo'rkoq bo'lmay yetishishlari, ular issiq va sovuqni, toshloq, og'ir yo'llarni mensimaslikni va safda kurashni o'zlashtirishlari uchun, bolaligidan quroldan foydalanishga va og'ir mehnatga o'rgatar edilar. Ular nafaqat kamondan o'q otish mashqlari, shuningdek harbiy raqs mashqlarini o'rgandilar. Keyinchalik, uni tartibga solgan kishi nomi bilan raqs pirrixa degan nomda ham mavjud edi. Shunday qilib, hatto ularning o'yinlari ham urush uchun foydali bo'lgan mashqfardan xoli emas edi, qo'shiqlarda ham Falet tomonidan kashf etilgan qahramonlik Krit ohanglariga uyg'unlashishi kerak edi... Ular harbiy ko'ylik va poyafzal kiyishga majbur edilar, ular uchun eng qimmatli sovg'a qurol edi.

15. Eforning aytishiga ko'ra va ba'zilar tasdiqlashicha, kritliklarniki deb sanalgan ko'pgina odatlar kelib chiqishi lakedemonlarnikidir.

Aslida esa, ularni birinchi bo'lib kritliklar kiritdilar. Spataliklar esa, takomillashtirdilar. Krit shaharlari, asosan knossliklar shahri bosqinga uchragach, ular harbiy ishni tashlab qo'ydilar. Knossliklarning ba'zi qoidalari o'zlaridan ko'ra liktiyaliklar, gortinaliklar va boshqa bir necha shaharchalarda saqlanib qoldi. Haqiqatan ham, Lakon qonunlarini eng qadimgi deb tasavvur qilib, liktiyaliklar odatlarini dalil qilib ko'rsatadilar. Shuning uchun, liktiyaliklar kolonistlar sifatida metropoliya urf-odatlarini saqlab qoldilar...

16. Eforning tasdiqjashi bo'yicha bu notog'ri, bir tomondan hozirgi mavjud holatlар asosida ularning qadimgi tarixi to'g'risida xulosa chiqarish kerak emas. Misol uchun, avvalgi vaqtlar kritliklar dengizda hukmronlik qildilar. "Kritlik dengizni bilmaydi" degan gap yurar edi. Biroq endilikda ular dengizchilik ishini tashlab qo'ydilar. Boshqa tomondan albatta Kritda Sparta urf-odatlarini saqlab turish kerak degani emas. Ko'pincha koloniysi o'z vatanlari urf-odatlarini saqlab qolmaganlar. Sparta koloniyalari bo'Imagan Kritdag'i boshqa ko'pgina shaharlar u bilan o'xshash urf-odatlarga ega.

17. Keyin Efor hikoya qiladi: Likurg Kritda koloniya barpo qilgan Alfemendan beshinchi avlod spartalik qonunshunos. Tarixchilarning xabar berishicha, Prokl Spartani yangidan aholi bilan to'ldirgan bir paytda, Argosga asos solgan Kissning o'g'li Alfemen edi. Likurg boshqalar tan organidek, Proklning oltinchi avlod edi. Nusxalar aslidan, yangi eskidan oldin bo'lmaydi. Lakedemon odatlaridan bo'lган raqs, qonun bo'yicha ijro etiladigan ohang va peanlar va ko'pgina boshqa urf-odatlar, go'yoki Kritda paydo bo'lган. Spartaning ba'zi oliy davlat lavozimlari Kritdagidek boshqaruv va nomlarga ega, misol uchun "oqsoqol" va "suvoriylar" lavozimlari. Kritda "suvoriylar" haqiqatda otlarga ega. Shundan xulosa kelib chiqadi-ki, Kritda "suvoriy" lavozimi qadimiyoq. u o'zining haqiqiy nomini saqlab qoldi. Sparta "suvoriylari" ot saqlamaydilar. Biroq Sparta eforlari Krit kosmalari bilan bir xil funksiyalarni bajarsalar-da, boshqa nomga ega. Kritliklarda umumiy ovqatlanish hozir ham "andriya" deb nomlanadi, ammo spartaliklarda avvalgi nom saqlanib qolmagan.

Bazm va bayramlarda...

Andriyalarda hamtovoqlar o'ttasida pean qo'shig'i aytilishi kerak.

19. Kritliklar aytadilar, keyin Efor davom ettiradi. Likurg ularga quyidagi sabab bo'yicha keladi. Likurgning Polidekt nomli katta akasi bor edi. U vafot etgach, homilador xotini qoldi. Likurg akasidan keyin, bir qancha vaqt taxtni egalladi, lekin bola tug'ilgach, unga podsho hokimiyati o'tishi kerak edi, u vorisning homiysi bo'ldi. Bir kuni kimdir Likurgning ustidan kulib, unga yaxshi ma'lum Likurg qachondir, podsho bo'ladi deb aytdi. Shunda, Likurg bu so'zlar uchun go'dakka qarshi yomon niyati bor deb, yolg'on ayblovga duchor bo'lishi mumkinligini o'yladi. Dushmanlar bolaning tasodifiy o'limi uchun unga ayb qo'ymasliklari uchun, u Kritga jo'nab ketdi. Likurgning sayohati sababi shunday bo'lgan deb aytishadi. Kritga kelib, u qonunlarni tushunadigan Falet bilan tanishdi. Undan Likurg, avval Radamanf, keyin Minos o'z kishilari ichidan go'yoki Zevsdan chiqadigan qonunlarni tarqatish usuli to'g'risida bildi.

21. Kritliklar 10 arxonnti saylaydilar. Eng muhim ishlarda ular geront deb ataladigan maslahatchilar yordamidan foydalaniladilar. Gerontlar kengashiga "kosma" unvoniga ega bo'lganlar va umuman sinalganlar tayinlanadi. Kritning davlat qurilishi o'ziga xosligi va mashhurligi uchun yozishni lozim ko'rdim.

Krit bazmlaridan

22. Dosiad "Krit tarixi" da kritliklarning jamoa ovqatlanishlari to'g'risida so'zlaydi. Har bir kritlik o'z daromadlarining o'ndan bir qismini o'z geteriyalari va davlat daromadlariga ajratadi, keyin belgilangan kishilar har bir uy bo'yicha taqsimlaydilar. Lekin, hamma qullar har bir boshdan ekin stateri bo'yicha ajratadilar. Fuqarolar andriya deb ataladigan geteriyalarga bo'linadilar. Umumiyligi ovqatlanishga g'amxo'rlik qilish ayol kishiga topshiriladi. U oddiy xalqdan uch-to'rt erkakni oladi. Ularning har birini o'tin olib keladigan ikki xizmatkori kolosor deyiladi. Kritda hamma joyda ovqatlanish uchun ikki uy ajratiladi, ulardan biri "erkaklarniki", boshqasi chet elliklar qabul qilinadigan joy2 deb ataladigan ovqatlanish zaliga kiradi. Mehmon uchun ikki stol qo'yiladi. ularga chet elliklar o'tqaziladi, keyin boshqa ovqatlanadiganlar o'tqaziladi, har biriga teng ulush ajratiladi, lekin yoshlari go'shtni yarim hissasini olib, boshqa ovqatlardan hech narsa olmaganlar. Stolga kuchli aralashtirilgan vino qo'yiladi. undan stol

atrofida o‘tirganlarning hammasi ichadilar. Utugagach, ikkinchi beriladi. Bolalar uchun suv qo‘shilgan, bitta umumiy crater quyiladi, kattalar ko‘proq ichishlari ham mumkin. Ovqatlanish boshlig‘i hammaning ko‘z oldida har qanday stoldan eng yaxshi taomlarni olib, urush yoki kengashda o‘zini ko‘rsatgan kishilarni oldiga qo‘yishlari mumkin. Ovqatlanishdan keyin, ularda jamoat ishlarini muhokama qilish rasm bo‘lgan, keyin ular harbiy jasoratlarini eslab, mardlik ko‘rsatganlarni maqtab, yoshlarni faxrli ishlarga undaydilar.

Pirgeonning “Krit urf-odatlari” uchinchi kitobida shunday deyiladi: Kritliklar jamoat bilan ovqatlanadilar. Yetimlar ovqatni ziravorsiz yeysi, eng kichiklar stol oldida turib xizmat qiladi, xudolarga so‘zsiz taom bag‘ishlangach, qo‘yilgan barcha noz-ne’matlar teng taqsimlanadi, otalar oyog‘i ostida o‘tirgan o‘g‘illarga kattalarning yarim ulushi, yetimlarga kattalarni to‘la ulushi, lekin odat bo‘yicha ziravorsiz beriladi. Mehmonlar uchun maxsus kursilar, o‘ng tomonda andreyondagi uchinchi stol ajratilib, "Mehmondo‘st Zevs stoli" yoki mehmonxona deb atalgan.

Tayanch iboralar: Aristotel, Krit, Minos, Ellin, Kiklad, Gortina, Xarill, Kamika, Lakedemon, Efor, Knoss, Gomer, Rittiy, Fest, Kiss, Alfemon, Sparta, Polidekt, kosma, andriya, geront, kolofor, sissitiya, metropoliya, stadiya.

2-mavzu

Er. avv. VIII – IV asrlarda yunon polis-davlatlari

1-§. Sparta davlati va jamiyati

Strabon (er. avv. 64/63 yil - eramizning 23-yillari) yunon geografi. "Geografiya" asarida tabiat – daryolar, dengizlar, tog'lar haqidagina emas, balki turli mamlakatlarda yashaydigan xalqlar va ularning tarixi to 'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ilotlarning kelib chiqishi

VIII. 4. Efor (er. avv. IV asrda yashagan tarixchi) ma'lumot beradi: Geraklidlar-Yevrisfen va Prokl Lakonikani bosib olib, uni 6 qismga bo'ldilar va bu viloyatda shahar va davlat hayoti asoslarini qo'ydilar... Barcha perieklar¹ spartaliklarga bo'ysundirildi, lekin umumiyligida qoidalardan foydalandilar, davlat ishlari va tashkilotlarida ishtirok etdilar. Yevrisfenning o'g'li Agis² ularni huquqlarda tenglikdan mahrum qildi va Spartaga xiroj to'lashga buyruq berdi. Barcha perieklar bu qonunga bo'ysundilar, gelielar³ qo'zg'olon ko'tardilar; ilotlarni bosib olib, ularni qullarga aylantirdilar, lekin ayrim cheklanishlar bilan: ilotning egasi uni ozod qilishi ham, chet elga sotishi ham mumkin emas edi. Bu urush ilotlarga qarshi urush deb ataldi. Ilotiyani Agis va uning yaqinlari qurdilar va u Rim bosqinlarigacha mavjud bo'ldi. Spartaliklar ilotlar qiyofasida jamoa qullari urug'iga ega bo'ldilar, ularga yashash joyi ajratdilar va majburiyatlarni belgiladilar.

1. Periek -spartaliklar tomonidan qaram qilingan Lakonika aholisi.

2. Agis -afsonaviy Sparta podshosi, er. avv. VIII-VII asrlar ashodollar sulolasidan.

3. Gelie -ilotlar:

Xрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 149 сmp

Likurg islohotlari. Plutarx. Likurg, V

Rim davri yunon adabiyoti vakillaridan biri Plutarx (er.avv. 46-eramizning 120-yillar atrofida) Beotiyadagi Xeroneya shaharchasida tug'ilgan. U zodagon oilasidan bo'lib, Afina va Iskandariyada tahsil oladi. Bir necha marta Rimga safar qilib, taniqli davlat arboblari va ijod ahli bilan uchrashadi.

Plutarx 225dan ortiq asar yozgan va bizgacha ulardan 150 tasi

yetib kelgan. Bu asarlar axloqiy, falsafiy, va tarixiy mavzularda. Uning eng mashhur tarixiy asarlaridan biri "Qo'shaloq hayotnomalar" dir. Unda Yunon va Rimning 50 ta tarixiy shaxslari hayot faoliyati bayon qilingan. Bu asarning tarixiy ahamiyati shundaki, mashhur siyosat va jamoat arboblaring faoliyati orqali, qadimgi Yunon-Rim jamiyatining siyosiy-ijtimoiy hayoti to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olamiz.

...Likurgning ko'p sonli islohotlaridan birinchi va eng asosiysi oqsoqollar kengashi edi. Platonning so'zlari bo'yicha, eng muhim ishlarni hal qilishda qiziqqon podsholik hokimiyati bilan, teng huquqli ovozga ega bu kengash farovonlik va tinchlik garovi bo'ldi. Davlat tomondan-tomonga tebranib, ba'zida podsholar g'alaba qilganda tiraniya, ba'zida olomon g'alaba qilib, to'la demokratiya qaror topganida, kema tryumfidagi ballast kabi o'rtaliqda turib, oqsoqollar hokimiyati kuchlar tengligi, barqarorlik va tartibga ega bo'ldi: 28 oqsoqol podsholarni muntazam qo'llab-quvvatladi, gohida demokratiyaga qarshilik ko'rsatdi, lekin shu bilan birga ularni ayrimlari vatanni tiraniyadan saqlashga yordam berdi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 149 срп

Kriptiya Plutarx. Likurg, XXVIII

...Kriptiyalar mana shunday o'tar edi: vaqtı-vaqtı bilan hokimlar eng tushunadigan deb hisoblangan yoshłarni kalta qilichlar bilan qurollantirib, eng zaruriy oziq-ovqat zaxirasi bilan atrof-tevaraklarni o'rganishga yuborar edi. Kunduzi ular pana-past damda yashirinib, dam olar edilar, tunda yotgan joylarini tashlab chiqib, yo'llarida ushlab olgan barcha ilotlarni o'ldirar edilar. Ko'pincha ular dalalarni aylanib, eng kuchli ilotlarni qatl qilar edilar. Fukidid "Peloponnes urushi"da hikoya qiladi: spartaliklar alohida dovyurakligi bilan ajralib turgan ilotlarni va ozod bo'lish olish uchun boshida gulchambar bilan ibodatxonalarni aylanib yurgan ilotlarni tanlar edilar, birmuncha muddat o'tgach, ularning barchasi yo'q qilinar edi, shu vaqtida ham, ular ikki mingdan ortiq edi-shundan keyin ham, ular qanday halok bo'lganini hech kim aytalmas edi. Aristotel eforlar hokimiyatni qabul qila turib, ilotlarni o'ldirishni qonunlashtirish maqsadida, eng avvalo, ilotlarga qarshi urush

e'lon qilganlar deb alohida to'xtalib o'tadi. Umuman, spartaliklar ular bilan qo'pol va shafqatsiz muomala qildilar. Ular ilotlarni vino ichishga majbur qilar edilar va keyin mastlik nima ekanligini yoshlarga ko'rsatish uchun ularni umumiyl ovqatlanishlarga keltirar edilar. Ularni bo'limg'ur qo'shiqlar aytishga, kulgili-raqslarni ijro etishga majbur qilar edilar, erkin kishilarga xos ko'ngil ochishlarni ularga taqiqlar edilar.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 150 срп

Spartaliklarning tarbiyasi Plutarx. Likurg. XVI

Yolg'izlikdan enagalar g'amxo'r va aqlli edilar, chaqaloqlar sog'lom o'sishi gavdasi a'zolariga erkinlik parpech qilmas edilar, ularni chidamli, ovqat tanlamaydigan, qorong'ulik yoki qo'rqlmaydigan, yig'i nimaligini bilmaydigan qilib tarbiyalar edilar. Shu sababli, hatto begona yurtliklar ham Lakoniyadan bo'lgan enagalarni sotib olar edilar... Shu bilan birga Likurg spartalik bolalarni pulga sotib olingan yoki pul uchun yollangan tarbiyachilar qaramog'iga berishni taqiqladi, ota o'g'lini o'ziga ma'qul darajada tarbiyalay olmas edi. Bolalar 7 yoshga yetar-yetmas, Likurg ularni ota-onalaridan tortib olardi, ular birga bo'lishlari, birga yashashlari, birga ovqatlanishlari, o'ynashlari, mehnat qilishlari, bir-birlari yonlariga bo'lishlari uchun qismlarga tarqatar edi. U qism boshida boshqalardan fahm-farosati bilan ustun, janjallarga boshqalardan ko'ra dovyurak bo'lgnarni qo'yar edi. Qolganlar unga tenglashishga harakat qilar edilar, buyruqlarini bajarar va jazoga so'zsiz chidar edilar. Buning natijasida bo'ysunish ko'nikmasi shakllanardi. Bolalarning o'yinlarini keksalar ko'proq kuzatar, ularni muntazam janjal qilishga majburlashar, urush chiqarishga harakat qilar edilar, keyin esa bola dovyurakmi, janjallarga chidamlimi, ularning har birini kuzatar edilar. Savodxonlik juda past darajada edi, tarbiya esa asosan so'zsiz bo'ysunish, har qanday yo'qchilik, qiyinchilikka chidash, raqib ustidan g'alaba qilish talablariga bo'ysundirilgan edi. Ulg'ayish bilan yanada qattiqroq talablar qo'yilar edi: bolalarning sochi qisqa olinar edi, ular yalangyoq yugurar edilar, qipyalang'och o'ynashga o'rgatilar edilar. 12 yoshda ular xitonsiz yurar edilar, 1 yilda 1 marta gimatiy olar edilar, iflos, qarovsiz ahvolda edilar, hammom va badaniga turli yog'lar

surtish ularga notanish edi. Bir yilda bor-yo‘g‘i bir necha kun ular bu rohatdan foydalanan edilar. Ular qismlar bo‘yicha bo‘lingan holda, Evrot daryosi qirg‘oqlaridagi qamishlarni qo‘llari bilan sindirib, o‘zlarini uchun tayyorlagan to‘saklarida birgalikda tunar edilar.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 150-151 сmp

Ksenofont. Sparta klarning turmush tarzi to‘g‘risida.

Ksenofont. Lakedemonlar davlati

Afinalik Ksenofont taxminan er. avv. 430-yillar atrofida tug‘ilib, er. avv. 360-yildan keyin vafot qilgan. U zodagon oilada tug‘ilib, juda chuqur bilim olgan. Faylasuf Sugrotning shogirdlaridan biri edi. Ksenofont er. avv. 401-yilda Kichik Kayxusravning yurishida yollanma yunon qismlaridan hirining rahbari bo‘lib ishtirok etdi. Shundan so‘ng, u Sparta qo‘siniiga xizmatga kirdi va podsho Agesilaynning yaqin do‘stiga aylandi. Afina uni xoin deb e‘lon qildi. Ksenofont “Sugrot to‘g‘risidagi esdaliliklar”, “Sugrot apologiyasi”, “Bazm”, “Anabasis” va “Yunon tarixi” asarlarining muallifidir.

5. Likurg har bir spartalik uchun qanday turmush tarzi belgilagani to‘g‘risida yetarlicha aytilgan. Endi men u Sparta fuqarolariga qanday turmush tarzi belgilagani haqida hikoya qilishga urinaman. U boshqa elliňlar kabi spartaliklarda mavjud bo‘lgan turmush tarzi beg‘amlik va zaiflashishga olib borayotganini ko‘rdi. Likurg birgalikda ovqatlanishni joriy qildi. U barchani ko‘z oldida ovqatlanishga majbur qildi, buning natijasida qonunlarni buzish kamroq bo‘ladi deb o‘yladi. U shunday miqdordagi oziq-ovqatni belgiladiki, bu isrofgarchilikka ham, yetishmovchilikka ham olib bormasligi kerak edi. Bunga ko‘pincha ov o‘ljalarini qo‘silar edi. Boylar ba’zida nonni bug‘doyga almashtirar edilar. Shunday qilib, birgalikda chodirlarda spartaliklar ovqatlanar edilar, ularda dasturxon hech qachon noz-ne’matsiz ham, qolmaydi, hashamatli ham bo‘lmaydi. Ichkiliklarga kelganda esa, Likurg haddan tashqari ruh va jismni, zaiflashtiradigan ichkilikbozlikni taqipladi. Spartaliklarga chanqoqni qoldirish uchun ichishga ruxsat berdi, bu vaqtida ichimlik zararsizroq va yoqimli deb hisoblardi. Birgalikda ovqatlanishda o‘ziga va o‘z xo‘jaliklariga mast-alastlik bilan, haddan ko‘p ovqat yeyish bilan zarar yetkazish mumkin edi. Boshqa davlatlarda

esa, odamlar o'z tengqurlari bilan ko'p vaqtlarini o'tkazar edilar... Likurg esa, Spartada yoshlar kattalardan ko'p narsani o'rganishlari mumkin deb, barcha bosqichlarni qo'shib tashladi. Fiditiyalarda davlat uchun ko'rsatilgan qahramonliklar to'g'risida hikoya qilish qabul qilingan edi. Spartada dimog'dorlik, mast-alast chiqishlar, obro'ni to'kadigan qilmishlar va haqoratomuz so'zlar haddan tashqari kam uchraydi. Uydan tashqarida ovqatlanish yana shunday foyda keltiradi: uyga qaytayotgan odam sayr qilishga majbur, mast bo'lib qolmasligi to'g'risida o'ylashi lozim, qayerda ovqatlangan bo'lsa, u yerda qolishi mumkin emasligini bilar edilar. Ma'lum muddat qorong'ida yurishga to'g'ri keladi, kunduzgidek, chiroqsiz, kim harbiy xizmatni o'tayotgan bo'lsa, u ham mash'ala yorug'ida borishi mumkin emas.

Likurg jamoaviy ovqatlanganda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan kishilar yuzi tiniqligi, o'sishi va gavda tuzilishi, sog'lomligiga e'tibor berdi, bekorozlar esa, shishinquiragan, zaif va badbashara bo'lar edilar. Buni ham Likurg e'tiborsiz qoldirmadi; u yana kim o'z xohishi bilan va huzh ila mehnat qilsa, sog'lom tanga ega bo'lismiga e'tibor berdi. Shuning uchun u gimnasiyda turgan boshliqqa gimnasiyga boradiganlarning mashqlari hamma vaqt ularning ovqatlariga mos bo'lismini tayinladi. Mening o'ylashimcha, bu masalada u xato qilmagan.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 166-167 сmp

**Er. avv. 464-459-yillarda ilotlar qo'zg'oloni
Diodor tarix kutubxonasi. XI, 63-64**

Sparta Lakoniyaning g'arbidagi viloyatni bosib olib, aholisining bir qismini qirib tashladiva qolgan qismini qaramoq qildi. Ilotlar spartaliklar uchun ularning yerlarida ishlar edilar. Ular spartaliklarning zulmiga qarshi tez-tez qo'zg'olonlar ko'tarib turganlar.

Spartada kuchli zilzila yuz berdi va lakedemonlarning uylarini asoslarigacha vayron qildi, 20 mingdan ko'p kishi halok bo'ldi. Shahar uzoq vaqt davomida beto'xtov silkinib turdi, uylarning devorlari buzildi va ularning qoldiqlari ostida tirik odamlar halok bo'ldi; yer qimirlashi uylarda to'plangan ko'p miqdordagi mol-mulkni yo'q qildi. Bu kulfatni ular g'azablangan xudoning jazosi deb qabul qildilar, lekin shu bilan birga ular odamlar tomonidan boshqa kulfatlarga ham duchor etildilar.

Aynan lakedemonlarga qarshi dushman kayfiyatda bo'lgan ilotlar va messenlar² Spartaning qudrati va kuchidan qo'rqib tinch turdilar. Yer qimirlashni ularning katta qismini halok qilganini ko'rib, tirik qolganlari ozchiligiga mensimay qarab, o'zaro birlashdilar va lakedemonlarga qarshi urush boshladilar. Lekin lakedemonlar podshosi Arxidam ehti-yotkorligi sababli ko'pgina fuqarolarni vayronalar ostidan qutqardi va hujum qilganlarga dovyuraklik bilan qarshi chiqdi. Shahar zilzila dahshati bilan chulg'anganda, u barcha lakedemonlar ichida birinchi bo'lib, qurolni olib, shahardan ochiq joyga qochib chiqib, fuqarolarga ham shunday qilishni buyurdi. Unga quloq solgan spartaliklar xavfdan xoli bo'ldilar va tirik qoldilar. Podsho Arxidam ularni harbiy safga yig'ib, qo'zg'olonchilarga qarshi urushga tayyorladi.

Messenlar ilotlar bilan birgalashib, dastlab Spartaga tomon yurdilar, himoyachilari kam qolganligidan foydalaniib bosib olmoqchi bo'ldilar. Ular podsho Arxidam bilan yer qimirlashdan qutilib qolganlarini harbiy safga tizilgani va vatan uchun kurashga tayyorliklarini eshitib, dastlabki niyatlaridan qaytdilar. Lekin Messeniya³ mustahkamlangan joyni egallab, Lakoniyan talon-taroj qila boshladilar. Sparta⁴liklar afinaliklardan yordam so'radilar va undan yordamchi qo'shin oldilar. Shunday tarzda boshqa ittifoqchilardan ham harbiy yordam olib, o'z kuchlarini raqib kuchlari bilan tenglashtirdilar. Boshda ular hatto o'z kuchlari bilan baland keldilar, afinaliklar messenlarga yon bosayotganidan shubha tug'ilganda, xavfni qaytarish uchun boshqa ittifoqchilar yetarli deb afinaliklar yordamidan voz kechdilar... Shunday qilib, lakedemonlar o'shanda o'z ittifoqchilari bilan Messeniya⁵ga bostirib kirdilar va Itomani⁶ qamal qildilar. O'shanda ilotlar to'la tarkibda lakedemonlardan ajralib chiqdilar, messenlar bilan harbiy ittifoq tuzdilar va urushda ba'zida g'alaba qildilar, ba'zida esa yengildilar. Raqiblar hamma vaqt bir-birlariga zarba berdilar, raqiblar urushni cho'zib yubordilar va o'n yil davomida tugata olmadilar.

1. Qaram -ilot.

2. Messen - Peloponnesning Lakoniyadan g'arb tomonidagi viloyatida ilotlar kabi qaramlikda bo'lgan aholisi.

3. Itoma-Messeniya⁷dagagi tog'.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 152-154 сmp

Pilosni yo‘qotishdan keyin spartaliklarning ilotlarni yo‘q qilishi

Fukidid. Tarix

Fukidid yunon tarixchisi er. avv. VI-asr oxiri – V asr boshlarida yashagan Gerodotning zamondoshi.. U ilk bor tarix bo‘yicha ilmiy asoslangan “Tarix” asari yozdi..

IV. 80 (1). Haqiqatan ham, lakedemonlar eng avvalo afinaliklarning Peloponnes va Lakoniya viloyatlariga hujumlaridan qutulish uchun. Afina ittifoqchilariga qo‘sishin yuborib, afinaliklarga javob qaytarishga umid qildilar. (2) Shu bilan birga spartaliklar Pilos¹ dushman qo‘lida bo‘lganligi sababli ilotlar qo‘zg’olon ko‘tarishni o‘ylamasligi uchun ularning bir qismini mamlakatdan chiqarib yuborishdek kutilgan bahonaga ega bo‘ldilar. (3) Chunki lakedemonlarning ko‘pchilik tad-birlari avvaldan ilotlarni qaramlikda ushlab turishga mo‘ljallangan edi. Ko‘p sonli ilot yoshlarining chiqishlaridan qo‘rqqan lakedemonlar shunday tadbirni qo‘lladilar. Ular harbiy ishga eng qobiliyatli deb hisoblagan ilotlarni ma’lum bir qismini ularga ozodlikni va’da qilib tanlab olishni taklif qildilar². (4) Shunday qilib, 2000 atrofida ilotlar tanlab olindi, ular boshlarida gulchambar bilan (go‘yoki ozodlik olganlar) ibodatxonalarini aylanib chiqdilar. Oradan ko‘p vaqt o’tmay, lake-demonlar bu ilotlarni qirib tashladilar, ular qachon va qanday halok bo‘lgan to‘g‘risida hech kim hech narsani bilmaydi. (5) Shu sababli lakedemonlar endilikda Brasid bilan goplitlar sifatida 700 ilotni yuborish imkoniyatidan foydalandilar.

1. Pilos -er. avv. 425-yilda afinaliklar Messeniyyadagi Pilos shahrini bosib oldilar va spartaliklar hududi ichiga kirdilar.

2. Taklif qildi -amalda esa, lakedemonlar ozodlikka intilganlar o‘zligini anglab o‘z xo‘jayinlariga hujum qilishlari mumkin deb taxmin qilgan holda, ilotlarni sinab ko‘rmoqchi edilar.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 154-155 сmp

Tayanch iboralar: Geraklidlar; Prokl, Lakonika, Yevrisen, Agis, Gelielar; Likurg, Plutarx, Ballas, Kriptiyalar; Evrot, Fiditiylar; Diodor, Arkidom, Messeniya, Itoma, goplit, zilzila Arxidam.

2-§. Buyuk yunon kolonizatsiyasi

Er. avv. VIII-VI asrlarda yunonlar materik Yunonistonidan omma-viy ravishda boshqa joylarga ko'chib borib, koloniylar' barpo qila boshladilar. Bu tarixda buyuk yunon kolonizatsiyasi deb ataladi. Yunon kolonizatsiyasining asosiy sababları quyidagicha edi: ekin yerlari taqchilligi, aholi sonining o'sib ketishi, oziq-ovqat taqchilligi yunon polislaridagi siyosiy kurash hamda savdo aloqalarini kengaytirish zaruriyatları. Yunon kolonizatsiyasi er. avv. II mingyllik oxirlarida Kichik Osiyoning g'arbiy qismiga ko'chish bilan boshlangan edi. Bu yerga alohida qabila guruhlari- ioniyalar, axeylar, eoliylar kelib joylashdilar. Endilikda alohida polislar koloniyalarning asoschilari bo'lib chiqdi. Kolonizatsiya ba'zida u yoki bu sabablar bilan vatanni tashlab ketishga majbur bo'lgan aholining alohida guruhlari tashabbusi bilan ham amalgamoshirildi³, ba'zida esa maqsadli yo'naltirilgan davlat siyosatiga aylandi³.

Odatda, yangi yerlarga borishni istagan odamlar birlashar va rahbar-Oykistni saylab, kemalarda koloniyalarni barpo qilishga jo'nab ketar edilar. Bir qancha qiyinchiliklar: dengiz dovullari, mahalliy qabilalarning dushmanlik munosabatlарини boshdan kechirar edilar. Ular asos solgan koloniylar, mustaqil shahar-davlatlarga aylanar edi.

Dastlab O'rtayer dengizi qirg'oqlari bo'ylab Pireney yarim oroli, Afrikaning shimoliy qirg'oqlari, Egey dengizining shimoliy qirg'oqlari, Marmar va Qora dengiz shimoli qamrab olindi. Misr hududida Navkratis, Shimoliy Qora dengiz bo'yida Tira, Olviya, Feodosiya, Xersones, Pantikapey, Fanagoriya, Tavrida va boshqalar, Apennin yarim oroli va Sitsiliyada Tarent, Sirakuza, Gerakleya, Neapolis, Janubiy Fransiyada Massiliya kabi koloniylarga asos solindi.

Koloniylar aholisi yunon shahar-davlatlari ijtimoiy-siyosiy hayoti tarzini qabul qildi. Koloniylar savdo-hunarmandchilik, tranzit savdo, dehqonchilik bilan shug'ullanar edilar. Ular yunon turmush tarzi, urf-odati, diniy rasm-rusmlarini saqlab qoldilar. Yunon kolonistlari mahalliy aholi bilan yaqin aloqalarni o'rnatgan bo'lsalarda, ammol o'zlarini yunon me'morchiligi namunalariida qurgan alohida shaharlarda yashadilar.

1. Koloniya-manzilgohlar:

2. Amalga oshirildi -arganavtlar afsonasini eslang.

3. Davlat siyosatiga aylandi -Korinf polisi Kerkiyani kolonizatsiya qilib, g'arb bilan o'z savdosini ta'minlashga harakat qildi

Fukidid. Ellin kolonizatsiyasi sabablari to‘g‘risida

I. 2. (5). ... Attika tuprog‘i juda kambag‘al bo‘lsa-da, uzoq vaqt fuqarolarning o‘zaro kelishmovchiliklari bo‘lmadi. Bu mamlakatda hamma vaqt bir xil aholi yashar edi. Elladaning boshqa viloyatlarida aholining ko‘chishi natijasida Attikaga nisbatan aholi soni tarzda o‘sdi: Elladaning barcha joylaridan quvg‘in qilinganlar Afinaga oqib keldi, bu yerga ular o‘zlarini xavfsiz his qildilar. Fuqarolik huquqini olgan holda, kelgindilar shahar aholisini qadim davrdan shunday ko‘paytirdilarki, keyinchalik afinaliklar hatto Ioniyaga (Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘og‘i) manzilgohlarni ko‘chirdilar, negaki Attika bunday ko‘p sonli xalqni joylashtirishga kichiklik qilardi.

I. 12 (3). Faqat asta-sekin, uzoq vaqt davomida mustahkam tinchlik o‘rnatildi, majburan ko‘chirish to‘xtadi va ellinlar dengizorti mamlakatlarga kolonistlarni jo‘nata boshladilar. Afinaliklar Ioniya va ko‘pgina orollarni egalladilar. Italiya va Sitsiliyaning katta qismini hamda Elladaning qolgan ba’zi viloyatlarini peloponnesliklar egalladilar. Bu manzilgohlarning barchasiga Troya urushidan keyin asos solindi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 155-156 срп

Olviya va Miletning o‘zaro munosabatlari

Shimoliy Qora dengiz bo‘yidagi Olviyaga Milet shahri asos solgan edi. Bu er. avv. 334-325-yillarga to‘g‘ri keladi.

Olviyalik va miletliklarning azaliy odatlari quyidagicha: miletlik Olviya shahrida olviyalik kabi aynan o‘sha mehroblarda qurbanlik keltiradi, aynan o‘sha olviyalik kabi ziyoratgohlarga kirish imkoniyatiga ega, miletliklarning soliqlardan ozodlik huquqi avval bo‘lganidek o‘sha asoslarda bo‘ladi. Agar u davlat lavozimlarini egallahni xohlasa, kengashga keladi va bu yerda ro‘yxatdan o‘tadi (u mansablarni bajaradi) va u boshqa fuqarolar kabi soliq to‘lashga majbur bo‘ladi...

Agar miletlikning Olviyada sud ishi bo‘lsa, u adolatli suddan foydalanadi va sudi bo‘limida 5 kunlik muddatda qarorni oladi. Boshqa shaharda fuqarolik huquqiga ega bo‘lganlardan tashqari miletliklar xirojlardan ozod bo‘ladilar va boshqaruv sudlarida ishtirot etadilar. O‘sha (shartlarda) olviyaliklar Miletda soliqlardan ozod bo‘ladilar

va olviyaliklar Miletda, miletliklar Olviya shahrida boshqalar bilan shunday tartibda muomalada bo‘ldilar.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 156 сmp

Tayanch iboralar: kolonizatsiya, argonavtlar; Korinf kongressi, Tira, Olviya, Feodosiya, Xersones, Tarent, Sirakuza, Puntikapey, Massiliya, Attika, Milet, axey, ediyl, ko‘chirish, ijtimoiy norozilik, yer taqchilligi, sud ishi.

3-§. Afina davlati va jamiyatি

Attikaning tabiatи

Ksenofont. Daromadlar to‘g‘risida

1-bob. ...Bu mamlakat tabiatan shunday joylashganki, juda katta daromadlar keltirishi mumkin. So‘zlarim haqiqatligini isbotlash uchun, men dastlab Attikaning tabiiy sharoit to‘g‘risida hikoya qilaman. Bu erda iqlim yumshoqligi sababli, yer bosildi. Ko‘pgina joylarda o‘smyadigan daraxtlar bu yerda meva beradi. Mamlakat qirg‘oqlarini qurshagan yer dengizga o‘xshab oliy darajada mahsuldor. Va umuman xudolar odamlarga yilning har xil vaqtlarida yuboradigan barcha ne’matlar bu yerda erta paydo bo‘ladi va eng oxirida tamom bo‘ladi. Biroq bu mamlakat nafaqat yil davomida pishib etiladigan ne’matlar bilan mo‘l-ko‘l, abadiy ne’matlarga ham ega. Chunki tabiatan unda tosh’ ko‘p undan muazzam ibodatxonalar, go‘zal mehroblar, xudolarning ajoyib haykallari qilinadi. Unga varvarlarning katta ehtiyoji bor. Bu yerda hosil bermaydigan shunday yer ham bor, agar u qazilsa, g‘alladan ko‘ra ko‘proq daromad keltiradi. Shubhasiz, u xudoning inoyati bilan kumushga ega. Har qalay² qo‘slni hududda joylashgan shaharlarning ko‘pchiligida, quruqlik va dengizda ham kumush rudasining hatto eng kichik zarrasi ham uchramaydi... Afinaliklar mamlakati barcha tomonlardan dengiz bilan yuvilmasa-da, u orolga o‘xshab, har xil shamollar yordami bilan kerakli barcha narsani olib keladi, nimani xohlasa, shuni olib chiqadi, har ikki tomondan u dengiz bilan o‘rab olingan, quruqlikdan ham savdo tufayli ko‘p mahsulot oladi; chunki u – materikda. Nihoyat, boshqa ko‘p shaharlarga ularning yonida yashagan varvarlar ko‘p tashvish tug‘diradi. Afinaliklarning qo‘snilari esa shunday shaharlarki, varvarlardan uzoqda joylashgan.

3-bob. Endi men afinaliklarning shahari savdo bilan mashg‘ul bo‘lishi, qanday imtiyoz va foyda berishini hikoya qilaman. Eng avvalo, u kemalar uchun eng yaxshi va mustahkam gavanlarga ega; ularda yashirinish va bo‘ronli ob-havoni tinch o‘tkazish mumkin.

4-bob. Hisoblashimcha, agar kumush konlariga tegishli tarzda ishlov berilsa, birgina ulardan katta miqdorda pul tushadi.

1. Tosh – Pentelikon va Gimettadagi tog' yonbag'irlaridagi marmar ko'zda tutiladi.

2. Hur qalay -Attika bilan.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 142-143 срп

Er. avv. VII asrda ijtimoiy kurash va Attikaning davlat qurilishi

Demosning zodagonlar bilan kurashi va uning g'alabasi

Yunon yozuvchisi va faylasufi Plutarx (eramizning 46 yillar atrofi – 127 yillarri) "Qiyosiy tarjimai hollar" asarini yozdi. Tarixiy manbalar asosida Yunon va Rim siyosiy arboblarini bir-biriga qiyoslab, ularning hayot faoliyatlarini tasvirladi.

Plutarx. Solon

XIII. Barcha oddiy xalq boylardan qarz bo'lgan edi: ba'zilar yerga ishlov berib boylarga hosilning oltidan bir qismini to'lar edilar, ularni gektemorlar¹ va fetlar² deb atar edilar, boshqalar boylardan o'zlarini garovga qo'yib, qarz olar edilar, qarz bergenlar ularni qul qilish huquqiga ega edilar, shuningdek birovlar o'z vatanlarida qul bo'lib qolar, boshqalar begona yurtlarga sotilar edi. Ko'p kishilar o'z bolalarini sotishga majbur edi³ va qarz beruvchilarni shafqatsizligidan o'z vatanidan qochishga majbur bo'ldi.

1. Gektemor- olti ulushchilar.

2. Fet-yollanib ishlovchi batraklar

3. Majbur edi -hech qanday qonun buni taqiqlamas edi.

Сравнительные жизнеописания в 3-х томах. М., 1961.

Plutarx. Solon

XIII. ...Lekin ko'pchilik, shu bilan birga, jismoniy kuchli bo'lgan odamlar yig'ilib, bir-birlarini loqayd tomoshabin bo'lmashlikka undadilar, o'zlariga ishonchli yo'lboshchi saylash, to'lov muddatini o'tkazib yuborgan qarzdorlarni ozod qilish, yerni qayta taqsimlash va davlat tuzumini mutlaq o'zgartirishga qaror qildilar.

XIV. Shunda Afinadagi mushohadali odamlar Solon aybisiz, boylarning hamtovog'i bo'lmagan, ularning jinoyatlarida sheriklik qilmagan yagona odam ekanligi, shu bilan birga, kambag'allar kabi muhtojlikda ezilmaganligini ko'rib, uni davlat ishlarini o'z qo'liga olish va kelishmovchiliklarga chek qo'yishini iltimos qila boshladilar.

XV... Uning davlat faoliyati birinchi akti bu qonun edi, uning kuchi asosida mavjud bo'lgan qarzlar kechirildi, kelajak vaqtida "o'z tanini garovga qo'yish" evaziga qarz berish taqiplandi.

Lekin ko'pgina mualliftar tasdiqlaydiki, sisaxtiyal barcha qarz majburiyatlarni yo'q qilish orqali amalga oshdi. Solonning she'reni buni tasdiqlaydi. Solon faxr bilan ilgari garovga qo'yilgan yerni u

Qo'yilgan toshlarini ko'plab oldi;

Ilgari qul bo'lganlar endi ozod va qarzi uchun qul qilinganlardan birlarini begona yurtdan qaytardi,

Attika tilini unutganlarni Go'yoki ko'p marta sayohat qilgan, Qulchilikning og'ir uyatini boshdan kechirganlar uni so'zlari bo'yicha ozod bo'ldi.

XVI... Solon hech kimni qoniqtirmadi: qarz majburiyatlarini yo'q qilish bilan boylar noroziligiga sabab bo'ldi, ni yana ko'proq "Likurg" namunasida kambag'allar umid qilgan yerning qayta taqsimotini amalga oshirmadi, hayot sharoitlari tengligini to'la ta'minlamadi.

1. *Sisaxtiya -majburiyatni olib tashlash.*

2. *"Likurg -Sparta qonunchisi.*

Afina xalq yig'ining demokratik tuzumni himoya qilish bo'yicha qarori

Andokid. Misteriyalar to'g'risida

Andokid (er. avv. 440-390-yillarda yashagan) "O'n Attika notiqlari"i orasida tartib bo'yicha ikkinchi notiq hisoblanadi. "Misteriyalar to'g'risida" nutqida u Afina xalq kengashining uch qaroridan parcha keltiradi. Demokratik tuzumni himoya qilishga qaratilgan qaror er. avv. 410-409 yillardagi "To'rt yuzlar" hukumatining ag'darilishidan keyin qabul qilingan.

Qonun. Kengash va xalq qaror qildi... Agar kim Afinada demokratiyani ag'darsa yoki demokratiya ag'darilganidan so'ng, qandaydir

vazifani bajarsa u Afina dushmani deb hisoblansin va u hech qanday sudsiz o'ldiriladi, uning mulki musodara qilinadi va o'ndan biri qismi ma'budaga¹ ajratiladi. Kim bunday jinoyatchini o'ldirsa va kim (buni qilishga) maslahat bersa, u jinoyatchi sanalmaydi. Barcha afinaliklar fillar va demlar bo'yicha qilingan qurbanliklariga shunday jinoyatchini o'ldiraman deb qasamyod qilsinlar. Qasam shunday bo'lsin: har qanday kishini, kimki Afinada demokratiyani ag'darsa yoki demokratiya ag'darilganidan so'ng qandaydir vazifani bajarsa hamda kim tiran bo'lishni ko'zlasa yoki tiran bo'lishga yordam bersa, men uni so'z bilan, ish bilan va ovoz berish bilan va o'z qo'lim bilan o'ldiraman. Agarda jinoyatchini boshqa biror o'ldirsa, Afina dushmanini o'ldirgan kishi xudolar o'dida begunoh deb hisoblayman va men o'ldirilganning mulkini sotishni uyushtiraman va uning yarmini o'ldirgan kishiga beraman va undan hech narsani yashirmayman. Agar kimdir jinoyatchilarning birini o'ldirsa yoki shu yo'lda halok bo'lsa, o'zini bolalarini xuddi Garmodiy, Aristogiton² va ularning avlodlari kabi hurmat qilaman. Ular faqat Gipparxni o'ldira oldilar, uning qo'riqchilari esa suiqasd qilingan joyda Garmodiyni o'ldirdilar. Aristogiton qochdi, lekin ushlandi va qatl qilindi. Keyinchalik Afinada ularga haykal qo'yildi va "tirnlarni o'ldiruvchi" deb sharaflandi va avlodlari kabi o'zimni xayrli ishlarim bilan duo qilaman. Afinada, qo'shinda yoki boshqa joyda Afina xalqiga qarshi keltirilgan barcha qasamlarni bekor qilaman va buzaman.

1. *Ma'buda-Afinaning muqaddas xazinasi.*

2. *Garmodiy, Aristogiton-Pisistratlar tiraniyasiga qarshi fitnaga boshchilik qilgan zodagon afinaliklar.*

Xрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 177-178 сmp

Afinaliklarning fuqarolik qasami

(Odatda, afinaliklar 18 yoshga to'lganlarida ushbu ontni ichganlar)

Stobey. Antologiya. L. XIII. 48

Stobey-eramizning V asridagi faylasuf va yozuvchi. Makedoniyadagi o'zi tug'ilgan Stoba shahri nomi bilan atalgan. U to'rt kitobdan iborat ("Antologiya") o'quv qo'llanmasini chop qildi, bu kitoblarga qariyb 500 yunon faylasuflari, shoirlari va yozuvchilarning asarlari kirgan. Stobeyning bu asarida yo'qotilgan matnlarning qimmatli parchalari.

Men muqaddas qurolni bulg‘amayman, safda birga boradigan o‘rtog‘imni tashlab ketmayman, ibodatxona va ziyoratgohlarni o‘zim va boshqalar bilan birgalikda himoya qilaman. O‘zimdan keyin yurtimni o‘zim meros qilib olgan vaqtan ko‘ra past emas, baland darajada qoldiraman. Va men muntazam mavjud hokimiyatga bo‘ysunaman, qonunlar hamda xalqning hukmiga ko‘ra belgilangan yangi qonunlarga itoat etaman. Agar kimdir bu qonunlarni bekor qilsa yoki ularga bo‘ysunmasa men bunga yo‘l qo‘ymayman, ularni o‘zim va boshqalar bilan birgalikda himoya qilaman. Men vatanimdagи ziyoratgohlarni muqaddas deb bilaman. Aglavr¹, Enaliy-Ares. Zevs, Fallo, Avkso, Gegemon buning guvohlari bo‘ladilar.

1. Aglavr- Attikaning afsonaviy podshosi Kekropning qizi: Avkso, Fallo va Gegemon- mevalarni o‘sishiga yordam beradigan farishtalar; Enaliy- bu yerda xudo Aresning laqabi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 178 сmp

Afina davlati fuqarolarining huquqi

Plutarx. Solon

XVII. Shunday qilib, Drakonning Solon qotillik to‘g‘risidagi qonunlardan boshqa barcha qonunlarini bekor qildi; jinoyatchikarning shaf-qatsizligi uchun jazolarni kuchaytirdi: barcha jinoyatlar uchun bir jazo-o‘lim jazosi belgilangan edi; shunday qilib, bekorchilik uchun hukm qilinganlar ham o‘lim jazosiga duchor qilinar edilar va sabzavot yoki mevalarni o‘g‘irlaganlar ham shu jazoni tortar edilar, odam o‘ldirganlar ham, dinsizlar ham. Shuning uchun keyinchalik Demadning¹ “Drakon qonunlarni siyoh bilan emas, qon bilan yozdi” degan iborasi mashhur bo‘ldi. Drakondan nima uchun u jinoyatlarning katta qismi uchun o‘lim jazosini belgiladi deb so‘raganlarida mayda jinoyatlar bu jazoga loyiq, kattasi uchun esa katta jazoni topa olmaganini aytdi.

XVIII. Ikkinchidan, avval bo‘lganidek barcha oliy mansablarni boylarga qoldirish uchun, oddiy xalq bajarishda ishtirot etmagan boshqa mansablarga qo‘yish uchun, Solon fuqarolar mulkini baholash tartibini kiritdi. Kim mahsulotlarni quruq va suyuq holda 500 hajmda ishlab chiqarsa, uni birinchi qilib qo‘ydi va ularni “Pentakosiomedim”lar², ikkinchi qilib, otni boqa oladigan yoki 300 hajmda

ishlab chiqaradiganlarni qo‘ydi; ularni “suvoriy larga mansublar” deb atadilar; “zevgitlar” deb uchinchi senz odamlari ataldi, ularda u yoki bu mahsulotlar 200 hajmda bor edi. Qolganlarning hammasi “fet”lar deb ataldi; ularga u hech qanday mansablarni bajarishga ruxsat bermadi; ular xalq kengashida ishtirok etishlari bilan va sudya bo‘lishlari bilan boshqaruvda qatnashdilar. Oxirgisi hech nimani bildirmaydigan huquq bo‘lib ko‘rinsa-da, keyinchalik katta ahamiyat kasb etdi, chunki muhim ishlarning katta qismi sudyalarga to‘g‘ri keldi. Hatto Solon u yoki bu ishlar bo‘yicha hukmlar mansabdor shaxslarga berdi, hamda sudda appelyatsiya qilishga imkon berdi. Aytishlaricha, qonunlar matnida ko‘p sonli qarama-qarshiliklar, ba’zi noaniqliklar bo‘lsa-da. Solon sudlar ahamiyatini oshirdi: Shuning natijasida munozarani qonunlar assosida hal qilish mumkin bo‘limgan vaqtida, hamma vaqt sudyalarga ehtiyoj tug‘ildi va ma’lum ma’noda ular qonunlar ustidan hokimlar edilar.

XIX. Solon har yili almashadigan arxontlardan Areopag kengashini tuzdi; o‘zi ham sobiq arxon sifatida uning a’zosi edi. Lekin qarzlar yo‘q qilinishi bilan xalqda tug‘ilgan dimog‘dorlik va keskin niyatlarini ko‘rib, u har bir 4 fildan 100 kishi saylanadigan ikkinchi kengashni ta’sis qildi. U bu kengashga xalqdan oldin ishlarni muhokama qilishni topshirdi va hech bir ishni oldindan muhokama qilmasdan xalq yig‘iniga kiritishga yo‘l qo‘ymaslikni joriy etdi. “Yuqori kengashga”¹ hamma narsa ustidan nazorat qilish, qonunlarni himoya qilishni topshirdi: u ikki kengash asosida idora etilgan – davlat kamroq tebranadi va xalqqa ko‘proq tinchlik beradi deb hisobladi.

1. Demad- er. avv. IV asrdagi Afina notig‘i va siyosatchisi.

2. “Pentakosiomedim”- er. avv. 594-yildan har yili 500 medim bug‘doy yoki moy olgan afinaliklar. Medimn-52,5 litr atrofida.

3. “Yuqori kengash”-aeropag.

H. H. Трухина. История древнего Рима. М., 1996. 146-147 сmp

Ostrakizm

Ostrakizm¹ xalq kengashining qarori bo‘yicha alohida fuqarolarni sopol parchalari bilan ovoz berish orqali quvg‘in qilish². Bu Klisfen tomonidan Afinada tiraniyaning paydo bo‘lishiga qarshi joriy qilingan

chora edi. Ovoz berish huquqiga ega bo'lgan har bir fuqaro sopol parchasiga xalq uchun xavfli bo'lgan u yoki bu kishining ismini yozar edi. Ostrakizm er. avv. VI-V asrlarda Afina va Argosga mavjud edi. Plutarkx fikri bo'yicha, ostrakizm hech qachon kambag'allarga nisbatan qo'llanilmadi, faqatgina boy va aslzoda kishilarga nisbatan amal qildi.

1. Ostrakizm -yunoncha sopol parchasi.

2. Quvg'in qilish - odatda 10 yil muddatga.

Aristotel. Afina politiyasi

Aristotel (384-322 yillar) Makedoniyaning Stagira shahrida tug'ilgan. Uning otasi Makedoniya podshohining tabibi bo'lgan, o'zi ham yoshligida otasining hunarini qilib, tibbiyot va boshqa tabiiy bilimlar bilan shug'ullanadi. Keyin Afinaga kelib, taxminan yigirma yil davomida Platonga shogird bo'ladi. 342-yilda podsho Filippning taklifi bilan Makedoniyaga qaytib, uch yilgacha Iskandarning tarbiyachisi bo'lib xizmat qiladi. Iskandar taxtga chiqqach, yana Afinaga qaytib, bu yerda "Litsey" nomi bilan shuhrat qozongan xususiy maktabini ochadi. 323-yilda Aleksandr o'lgach, Makedoniya hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olondan keyin, Afinani tashlab ketishga majbur bo'ladi va bir yil o'tgach, Evbey orolidagi Xalkida shahrida vafot etadi. Qadimgilarning aytishlariga qaragunda, Aristotel mingga yaqin asar yozgan. Ana shu buyuk merosdan bizga qadar faqat qirq yettitasigina yetib kelgan. Bular orasida "Metafizika", "Politika", "Etika", "Ritorika", "Fizika", "Poetika", "Jon haqida", "Hayvonlar haqida" degan asarlar bor.

22. Bu o'zgarishlar natijasida davlat tuzumi Solonnikidan ko'ra yanada demokratik bo'ldi. Bu tushunarli edi: Solon qonunlarini tiraniya bekor qildi, ulardan foydalanilmadi, shu bilan birga Klisfen xalq manfaatlari yo'lida yangi qonunlar chiqardi. Shu jumladan ostrakizm to'g'risidagi qonun qabul qilingan edi.

Аристотел. Афинская полития. -М.; Л., 1936.-С. 51.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 147 сmp

Plutarkx. Aristid VII

Sud odatda shunday o'tar edi. Har bir kishi sopol parchasini olib, Afinadan quvg'in qilinishi kerak deb hisoblagan fuqaro ismini yozar

edi, keyin esa maydondagi hamma tomoni o'rab olingan, belgilangan joyga tashlar edi. Boshda arxontlar qancha sopol parchalari yig'ilganini hisoblar edilar: agar ular 6 mingdan kam bo'lsa, ostrakizmga hojat yo'q deb tan olinar edi. Keyin barcha ismlar alohida-alohida ajratib qo'yilar edi, kimning ismi ko'p marta takrorlangan bo'lsa, mulkini musodara qilmasdan, 10 yilga quvg'in qilingan deb e'lon qilinar edi.

Hikoya qilishlaricha, sopol parchalarini yozgan paytlarida bir savodsiz dehqon o'ziga birinchi duch kelgan Aristidga¹ sopol sinig'ini uzatib, Aristid nomini yozib berishni iltimos qiladi. U hayron bo'lib "Aristid biror nima bilan xafa qildimi?" deb so'radi. "Yo'q" deb javob berdi dehqon, men hatto bu odamni tanimayman ham, lekin har qadamda "Adolatli" yana ham "Adolatli" deb eshitish jonimga tegdi... Aristid hech nima demadi, o'z ismini yozib sopol parchasini qaytardi.

I.Aristid -er. avv. 540-460-yillarda yashagan afinalik siyosiy arbobi

Filoxor 30-raqamli fragment (parcha).

er. avv. IV asrdagi yunon tarixchisi.

.....Xalq 8-pritaniya oldidan "sopol parchasini berish" kerakmidegan savol bo'yicha ovoz berar edi. Agar bu zarur deb topilsa, bozor maydoni "Agora"ga 10 ta kirish qoldirilib, taxtalar bilan o'rab olinar edi; har bir kirishdan har bir fil alohida kirar edi. Sopol siniqlari yozuvni pastga o'girilib uzatilar edi. Buning ustidan 9 arxont va kengash kuzatar edi. Keyin sopol siniqlari sanalgan, kimga ko'p ovoz berilgan bo'lsa, 6 mingdan kam bo'limgan, u 10 yilga (keyinchalik 5 yilga) shahardan chiqib ketishi lozim edi. Bundan oldin u 10 kun davomida o'z shaxsiy ishlari bo'yicha boshqalarga va o'ziga javob olishi kerak edi; u daromadlardan foydalanish huquqini saqlab qolar edi, lekin Ebveyadagi Gerest qo'ltig'i chegarasiga yaqinlashish huquqidan mahrum edi.

Taniqli bo'limganlardan faqat bir kishi Giperbol tiraniyaga intilganiga shubha qilganlari uchun emas, qallobligi uchun ostrakizm vositasida quvg'in qilingan edi. Shundan keyin bu odat tugatildi, bu Klisfen qonunchiligidan boshlangan edi, Klisfen tirnlarni quvg'in qildi, hamda ularning do'stlarini ham quvg'in qilmoqchi edi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 148-149 сmp

Tayanch iboralar: Attika, Pentelikon, demos, Plutarx, Gektemor, fet, Solon, Andokid, MISTERIYA, Stohey, Antologiya, Zevs Fallo, Gegemon, Aglavr, Demad, Drakon qonunlari, zevgitlar, Areopag, Klisfen, tiraniya, fragment, ostrakizm, qarzi uchun qul qilish.

4-§. Yunon-fors urushlari

Gerodot. Tarix

VII. 145. Barcha ellenlар umumellin ishida “yaxshi ulushni” tangananlar bir joyga to’plandilar. Kengash qurdilar, eng avvalo dushmanlik va o’zaro urushlarni to’xtatishga ahd qilib, qasam ostida ittifoq tuzdilar... Ular imkoniyati bo’lsa, barcha ellenlarni birlashtirish va umumiyy xavf oldida birgalikda harakat qilishga undashni istadilar.

VII. 104. Lakedemonlar bilan ish shunday kechdi: ular yakkamay akka olishuvda boshqa xalqlar kabi dovyuraklik bilan kurashadilar, ularning barchasi jangda dunyodagi barcha xalqlardan a’lo. Haqiqatan ham, ular erkin, lekin barcha munosabatlarda emas. Ularda hukmdor bor-bu qonun, undan ular xalqing sendan (Kserks) qo’rqqandan ko’ra ko’proq qo’rqadilar. Qonunning amri hamma vaqt bitta va o’zgarishsiz: qonun jangda dushmanning har qanday harbiy kuchi oldida safda qolib yengish, yoki o’zi halok bo’lishni buyuradi...

VIII. 26. ...“Eh, Mardoniy! Sen bizni kimga qarshi bizni jangga boshlab bormoqdasan? Axir bu odamlar pul uchun emas, sharaf uchun bellashadilar!

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 157-158 сmp

Marafon jangi

Gerodot Marafon jangi bataysil hikoya qiladi va Fermopil darasidagi yunon va forslar jangini yorqin tasvirlaydi.

VI. 102. Eretriya¹ bo’ysundirgandan keyin forslar u yerda bir necha kun turdilar va afinaliklar eretriyaliklarga o’xshab harakat qiladilar deb o’ylab oraliqqa haydadilar. Attikada oqliqlar harakati uchun eng qulay joy Marafon edi, shu bilan birga Eretriya ga hammadan yaqinroq edi. Ularni u yerga Pisistrat o’g‘li Gippiy² boshlab bordi.

103. Buni Afinaliklar eshitib, Marafonga yurdilar. Ularning qo’shin-

lari boshida o'n strateg³ turar edi. O'ninchi Miltiad edi...

105. Hali yurish davom etayotganda strateglar eng avvalo Spartaga jarchi qilib Filippidni jo'natdilar, u chopar edi ...

106. Shunday qilib, strateglar Afinadan yuborgan Filippid (uning aytishicha, yo'lida unga Pan⁴ ko'ringan) ikkinchi kun Spartaga keldi. U yerda hokimlar oldida mana shunday dedi: "Lakedemonliklar! Afinaliklar sizdan Elladaning qadiimgi shahrini varvarlar bosib olishga yo'l qo'ymaslikda ularga yordam berishni iltimos qilmoqdalar. Axir Eretriya qullik sirtmog'ida qolmoqda va Ellada bitta mashhur shaharga kamaydi". Filippid shunday qilib unga berilgan topshiriqni bajardi; Lakedemonlar afinaliklarga yordam berishga qaror qildilar. Biroq ular buni birdaniga qila olmas edilar... Bu oyning birinchi yarmining to'qqizinchi kuni edi, to'qqizinchi kun – deyishdi ular, agar oy to'la bo'limasa, yurishga chiqish mumkin emas...

108. ...Afinaliklarga – Geraklning muqaddas tepaligiga o'zining barcha ko'ngillilari bilan plateyaliklar⁵ yordamga keldilar...

109. Shu orada Afina strateglarining fikri bo'lindi... ayrimlari Midiya qo'shinlari bilan jangni yoqlamadilar chunki afinaliklar juda kam edi, boshqalar esa⁶ aksincha jangni qabul qilishni maslahat berdilar ...

112. ...Afinaliklar berilgan ishora bilan, varvarlarga tomon yugurdilar. Ikki raqib o'rtasidagi masofa 8 stadiydan kam emas edi. Dushmanlarning tez yurib kelayotganini ko'rghan forslar hujumni qaytarishga tayyorgarlik ko'rdilar. Afinaliklarning xatti-harakati forslarga aqlsizlik va hatto fojia bo'lib ko'rindi, chunki dushmanlar ozchilik edi. Va shu bilan birga ular suvoriy va kamonchilarning himoyasisiz yugurib forslarga tashlandilar. Varvarlar shunday o'yladilar. Afinaliklar dushmanlarga zinch qatorlar bilan qo'lma-qo'l va qahramonona urushdilar. Axir ular menga ma'lum bo'lgan barcha ellinlar ichida birinchi bo'lib, midiyyacha kiyingan jangchilardan qo'rqedilar. Haligacha hatto midiyaliklarning nomiyoq ellinlarni qo'rquvga solar edi.

113. Marafon yonidagi jang uzoq davom etdi. Jangovar chiziq markazida forslarning o'zi va saklar⁷ turgan joyda varvarlar ustun edi. Bu yerda g'oliblar afinaliklarning qatorlarini buzdilar va ularni to'g'ri mamlakat ichkarisiga tomon ta'qib qila boshladilar. Lekin har ikki qanotda afinalik va plateyaliklar ustun keldilar. G'alabadan keyin afinaliklar qocha boshlagan dushmanni ta'qib qilmadilar, lekin ikki

qanotni birlashtirib, markazga buzib kirgan dushmanlar bilan jang qildilar. Bu yerda ham afinaliklar yengdilar. Keyin ular dengizga yetguncha qochayotgan forslarni ta'qib qila boshladilar va chopib tashladilar. Bu yerda ular kemalarga hujum qilishga va ularni yoqishga intildilar.

115. Afinaliklar shu tarzda yettita kemanı bosib oldilar. Boshqalarida varvarlar yana dengizga chiqdilar. Keyin Eretriya da orolda qolgan asirlarni o'zları bilan olib, Suniyni⁸ aylanib o'tib, Afinaga Afina qo'shinidan ilgari etib kelishga harakat qildilar. Afinaliklar forslar bu (manyovrni) Alkmeonidlar⁹ning makkaronna shipshitishlari bo'yicha o'ylab topdilar deb guman qildilar: aytishlaricha, Alkmeonidlar forslar bilan kelishib, forslar kemalarga chiqib olishlari bilan, qalqon bilan ularga ishora bergenlar.

116. Forslar Suniyni aylanib o'tguncha, afinaliklar yana shaharlarini himoya qilishga shoshildilar va u yerga varvarlardan oldin kelishga ulgurdilar. Va ular Marafondagi Gerakl ziyoratgohidan kemalar bilan Kinosargdagi boshqa Gerakl ziyoratgohiga qarorgoh qurdilar. Varvar floti Falera¹⁰ qarshisida turdi. Keyin Falera yuqorisida ochiq dengizda yakorda turib, varvarlar orqaga Osiyoga suzib ketdilar.

1. Eretriya- Evbey orolidagi shahar; er. avv. 790 yilda forslar bosib olgan.

2. Gippiy- Afinada ag'darilgan tiran, forslar xizmatiga o'tgan.

3. Strateg -o'n strateg harbiy qo'mondonlar.

4. Pan- iloh.

5. Plateya- Marafon jangida afinaliklarga yordamga kelgan birdan-bir yunon shahri.

6. Boshqalar esa -jumladan Miltiad.

7. Saklar- qadimgi O'rta Osiyoda yashagan jangovar xalq.

8. Suniy-Attika janubiy qismidagi burun.

9. Alkmeonid-Attikadagi zodagon urug'.

10. Falera -o'shanda afinaliklarniki edi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 158-159 срп

Fermopil yonidagi jang

VII. 212. Bu olishuvlar vaqtida podsho, hikoya qilishlaricha, jang borishini kuzatdi va o'z qo'shinidan xavotirlanib, uch marta taxtidan sakrab turdi. O'sha kun ular shunday urishdilar va keyingi kun ham varvarlarga omad keltirmadi. Dushmanlar kamsonli, ularning barchasi yarador bo'ladi va qarshilik ko'rsata olmaydi deb hisoblab varvarlar

hujum qildilar. Ellinlar esa qabilalar va qurol turlari bo'yicha jangovar safga turdilar va fokiyaliklardan boshqa hamma, bir-birlarini almash-tirib jang qildilar. Fokiyaliklar esa toqqa, tog' so'qmog'ini himoya qilish uchun yuborildilar. Forslar ish yaxshi bormayotganini ko'rib yana chekindilar.

213. Shu bilan birga podsho nima qilishni bilmay qoldi. Shunda unga maliyalik qandaydir Evridemning o'g'li Epiatl keldi. Podshoning buyuk hadyasiga umidvor bo'lib, tog' orqali Fermopilga boradigan so'qmoqni forslarga ko'rsatdi va shu bilan u yerda bo'lgan ellinlarni halok qildi...

219. Ellinlarga esa Fermopilda tongda bo'lajak halokatni birinchi bo'lib bashoratchi Megistiy qurbanlik hayvonining ichki a'zolariga qarab aytdi. Keyin qochoqlar, forslarning aylanib o'tishi harakati xabari bilan keldilar. Bu yana kechasi yuz berdi. Oxirida, tongda balandlikdan (shunday xabar bilan) "kunduzgi xabarchilar" yugurib tushdilar. Shunda ellinlar kengash qurdilar, ularning fikrlari bo'lindi. Birovlar o'z postidan chekinmaslikni yoqladilar, boshqalar esa e'tiroz bildirdilar. Shundan so'ng qo'shin bo'lindi: uning bir qismi tarqab ketdi, shu bilan birga har kim o'z shahriga qaytdi; boshqalar esa, Leonid' bilan qolishga qaror qildilar.

220. Yana hikoya qilishlaricha, go'yoki Leonidning o'zi o'limdan saqlab qolish uchun, ittifoqchilarni jo'natib yuboradi. Uning o'ziga va spartaliklarga himoya qilishga yuborilgan joyni tashlab ketish to'g'ri kelmaydi deb hisobladi...

222. Shunday qilib, qo'yib yuborilgan ittifoqchilar Leonidning buyrug'i bo'yicha ketdilar. Faqat birgina fespiyaliklar va fivaliklar lakedemonlar bilan qoldilar... Keyin esa ellinlar daraga o'tishdan tashqarida qo'l jangiga tashlandilar va bu jangda minglab varvarlar halok bo'ldi. Forslar qatorlarining orqasida qism boshliqlari qo'llarida qamchilar bilan, jangchilarni yana oldinga va oldinga haydar edilar. Ko'p dushmanlar dengizga quladilar va halok bo'ldilar. Lekin yanada ko'p, o'zlarini o'zlarini toptaldi. Halok bo'layotganlarga hech kim e'tibor bermadi. Ellinlar tog'ni aylanib o'tgan o'lim tahdidi solayotganini bilar edilar. Shuning uchun ular buyuk jangovar qahramonlik ko'rsatdilar va dushman bilan jon-jahdlari bilan mardona bilan urushdilar.

224. Ko'pchilik spartaliklar nayzalarini sindirdilar va forslarga

qilich sancha boshladilar. Bu olishuvda jasoratli qarshilikdan keyin Leonid u bilan birga boshqa ko'p zodagon spartaliklar halok bo'ldi. Ularning ismlari maqtovga sazovor bo'lgani uchun ham men bildim. Men shuningdek, barcha uch yuz spartalik ismlarini bildim...

225. ...Leonidning jasadi uchun forslar va spartaliklar o'rtaida jasur ellinlar uni dushmanlar qo'lidan tortib olmaguncha (shu bilan birga ular dashmanni to'rt marta qochishga majbur qildilar), qo'lma-qo'l qizg'in olishuv boshlandi. Jang forslarning Epialt bilan kelguniga qadar davom etdi. Forslarning yaqinlashganini ko'rib, ellinlar urush uslubini o'zgartirdilar. Ular daraga chekina boshladilar va devordan o'tib, fivaliklardan boshqa barcha hammalari tepalikda joy egalladilar. Bu tepalik kirishda turibdi². Bu yerda spartaliklar, qilichlar bilan himoyalandilar, keyin varvarlar ularga o'qlar yo'ng'iriyoqtirmagunicha qo'llari va tishlari bilan himoyalandilar, shu bilan birga ayrimlari ellinlarni oldindan ta'qib qilib, ularga devorni ag'dardilar, qolganlar esa barcha tomonidan qurshadilar.

228. Ular halok bo'lgan joylarida dafn qilinganlar. Tosh yozuv Leonid ittifoqchilarni qo'yib yuborguncha. Halok bo'lganlar xotirasiga qo'yilgan:

Bu yerda uch yuz miriadga qarshi qachonlardir urushdilar
Peloponnes erlari faqat qirqta, bor yo'g'i yuzta.

Bu yozuv barcha halok bo'lgan jangchilar sharafiga yozilgan, lakedemonliklarga alohida:

Yo'lovchi, borgin Lakedemondag'i bizning fuqarolarga xabar qil, ularning vasiyatlariga sodiq qolib, biz bu yerda jonimizni fido qildik.

1. Leonid -Sparta podshosi.

2. Turibdi -u yerda hozir ham Leonid sharafiga tosh sher turibdi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 160-161 сmp

Afina dengiz ittifoqining davlatga aylanishi Fukidid. Tarix, I

96. Shunday qilib, ittifoqchilarning taklif bilan (ularning Pavsa-niyga¹ nafrati tusayli) yo'lboshchi bo'lgan afinaliklar varvarlar bilan urushda qaysi shaharlar pul berishlari, qaysilari kemalarni ekipaji bilan qo'yishini aniqladilar². O'shanda afinaliklar birinchi bor ellinotamiylar lavozimini ta'sis qildilar, ular "foros"³ni qabul qilar edilar. Birinchi foros

460 talant miqdorida belgilangan edi. Xazina saqlanadigan joy Delos edi, bu ibodatxonada ittifoqchilarning delegatlari yig‘ilishi bo‘lar edi.

97. Endi men afinaliklar harbiy va siyosiy ishlarda Midiya va bu urushlar⁹ oralig‘idagi davrda, mustaqil ittifoqchilar¹⁰ va varvarlar bilan o‘zlaridan ajralib ketgan o‘z ittifoqchilari bilan va har qanday qulay holatda afinaliklar ishiga aralashadigan peloponnesliklar bilan qanday urushganini hikoya qilaman...

98. Boshda afinaliklar Miltiadning o‘g‘li Kimon boshchiligidagi Strimondagi Eyon¹¹ni qamal qilib bosib oldilar, o‘shanda u midiyaliklar qo‘lida edi, aholisini qul qilib sotib yubordilar.

(2) Keyin ular Skiros¹²ni bosib oldilar, aholisini qul qilib sotdilar va o‘z kolonistlarini joylashtirdilar.

(3) Keyin Evbeydagagi karistliklar¹³ bilan¹⁰ urush boshlandi; oxir-oqibatda afinaliklar karistlarni ma’lum shartlarga taslim bo‘lishga majbur qildilar.

(4) So‘ng qo‘zg‘olon ko‘targan naksoslар bilan urush chiqdi va qamaldan keyin ular taslim bo‘lishga majbur bo‘ldilar. Bu mavjud ittifoq shartnomasiga zid ravishda ittifoqchi shaharni mustaqilligidan mahrum qilishni birinchi voqeasi edi. Keyinchalik bunday holga navbatи bilan boshqa shaharlar ham duchor bo‘ldilar.

99. Ittifoqchilarni qo‘zg‘olonlariga¹⁴ bahona bo‘lib asosan o‘lpon to‘lash va kemalar yetkazib berishda, qarz qoldig‘i va ba’zida harbiy xizmatdan bo‘yin tov lash edi. Haqiqatdan, afinaliklar majburiy choralarни qo‘llagan holda, qarzlarni qat’iy undirdilar.

(2) Shu sababli afinaliklar hokimiyati tazyiqlarga o‘rganmagan va ularni boshdan kechirishga ko‘nikmagan odamlarga og‘irlilik qildi. Umuman afinaliklar hukmronligi endilikda ilgarigidek populyar emas edi. Birgalikdagagi yurishlarda afinaliklar ittifoqchilarga o‘zlariga teng sifatida muomala qilmadilar, agarda ulardan kimdir qo‘zg‘olon ko‘tarsa, qo‘zg‘olonchilarni qiyinchiliksiz yana bo‘ysundirdilar. (3) Shuningdek, bunga ittifoqchilarni o‘zları aybdor edilar. Haqiqatdan, ularni harbiy xizmat oldida (faqat uydan uzoqda turmaslik uchun) qo‘rroqlik qilishlari, ularni ko‘pchilagini o‘zlariga soliq og‘irligini yuklashga va kemalar yetkazishga, tegishli pul mablag‘larini yetkazishni afzal ko‘rdilar. Shunday tarzda afinaliklar ittifoqchilar mablag‘lari hisobidan

o‘z flotlarini ko‘paytirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar, ittifoqchilar esa har safar qo‘zg‘olon boshlab urushga tayyorlanmagan va himoyasiz bo‘ldilar.

1. Pavsaniy -- Spartaliklarning podshosi er:avv. 479-yilda Plateya yonidagi jangda yunon qo‘sishinlarining qo‘mondoni

2. uniqladi -bahona varvarga u keltirgan kulfatlari uchun, fors yerlarini talon-taroj qilish istagi edi.

3. ellinotamiy-Ellin ittifoqi xazinachilarini.

4. “foros”-pul badali to‘lovi shunday deyilar edi.

5. urushlar -er: avv. 431-404-yillardagi Peloponnes urushlari .

6. ittifoqchi -umumittifoq yig‘ilishida ovoz berish huquqi bilan.

7. Eyon- Egey dengezining shimoliy Frakiya qirg‘og‘idagi shahar

8. Skiros -uning aholisi forslar tarafida edi.

9. karistik- Evbey oroli Karist shahri aholisi.

10. bilan- boshqa evbeyliklar ishtirokisiz

11. qo‘zg‘olon -boshqalari bilan birga.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 175-176 cmp

Tayanch iboralar: ellinlar, Pan (iloh), Mardoniy, Gippiy, Ellada, Filippid, varvarlar, Leonid, manevr, Megistiyl, kunduzgi xabarlar, o‘lpon, ittifoq shartnomasi, harbiy xizmatdan bo‘yin toplash, saklar, Garmodiy.

5-§. Qadimgi yunon madaniyati. Me’morchilik, haykaltaroshlik

Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi tasviri

Pavsaniy. Elladaning tasviri, V, X, 2-3. XI, 1-2,5

Pavsaniy eramizning II asridagi qadimgi yunon yozuvchisi. Uning “Elladaning tasviri” asari qadimgi Yunonistonning me’morchiligi va san’atining eng mashhur namunalari bo‘yicha o‘ziga xos yo‘l ko‘rsatgich vazifasini o‘taydi.

2. Zevs ibodatxonasi va haykali eleyliklar urushda Pisani bosib oldilar va hamda pisaliklar bilan ulardan ajralib ketgan atrofdagi o‘sha manzilgohlarni bosib olishdan tushgan o‘ljadan qurilgan edi.

Bu haykalni yaratuvchisi Fidiy ekanligi Zevsniga oyog‘idagi: “Xarlendning o‘g‘li Fidiy afinalik, meni yaratdi” degan yozuv guvohlik beradi.

Ibodatxona doriy uslubida qurilgan va peristik mavjud. U mahalliy tosh – porosdan bunyod qilingan. Balandligi frontongacha³ 68

fut4. Uning quruvchisi mahalliy aholidan Libon (tomdag) chereptsa pishirilgan loydan emas, pentelikon marmaridan chereptsa shaklida ishlangan... Olimpdagi ibodatxona tomining har ikki tomonida oltin suvi yogurtirilgan jomlar turadi. Olimpdagi butun ibodatxona atrofi bo'yicha friz'ning tashqi tomonida urushda axeylarni yengan, Korinfni olgan va u yerda yashagan doriylarni haydab yuborgan rimlik lashkarboshi Mummiyga bag'ishlangan, soni 21 ta bo'lgan tilla suvi yuritilgan qalqonlar osilib turadi. Frontonlarga kelganda, oldida Pelops va Enomay jang aravalari musobaqaga tayyorgarlik ko'rayotgan va har ikki tomondan bu poygaga tayyorgarlik tasvirlangan. Zevsning tasviri aynan frontonlar o'tasida amalga oshirilgan; Zevsdan o'ngga Enomay, uning boshi qalqon bilan himoyalangan; uning yonida xotini Steropa, u Atlantaning qizlaridan biri edi; otlarni oldida Enomayning haydovchisi bo'lgan Mirtil o'tiribdi; otlarning soni 4 ta; Mirtilning orqasida ikki kishi ismlari noma'lum, albatta ular Enomay ham otlarga qarashga buyruq bergen kishilar. Bu tomonda eng chetga Kladey?; eleyliklar tomonidan Alfeydan tashqari boshqa barcha daryolarga nisbatan e'tiqod qilinadi. Zevsdan o'ng tomonda Pelops va Gippodamiya tasvirlangan. Keyin Pelopsning aravasi va uning otlari; bular ham Pelopsning otboqarlari. Va bu yerda fronton chetida qisqaradi, shuning uchun bu yerda ham Alfey tasvirlanadi.

Olimpda Geraklni qahramonliklarini katta qismi tasvirlangan. Ibotatxonaning oldingi eshiklari ustida arkadiya to'ng'iziga ov, Geraklning Frakiyalik Diomed, Erifeyadagi Gereon bilan olishuvi tasvirlangan.

3. Agar mis eshiklar orqali kirilganda, o'ngda kolonnalar oldida Ifit (argonavtlardan biri) uni gulchambar bilan ayol bezamoqda. Ularda distix shaklida yozuv "murosa" degan ma'noni bildiradi. Ibotatxonaning ichida ham kolonnalar bor. Ibotatxonaning har ikki tomonida baland va ularni ichida galereya bor, ular orqali haykalga yaqinlashish mumkin. Shu yerda tomga chiqish uchun quyma zinapoya bor.

XI. 1. Taxtda xudo o'tiribdi, uning gavdasi oltin va fil suyagidan yasalgan. Uning boshida go'yoki zaytun novdalaridan gulchambar, o'ng qo'lida u G'alaba ma'budasini ushlab turibdi, u ham oltin va fil suyagidan yasalgan, uning boshida belbog' va gulchambar.

Xudoning chap qo'lida turli rangli metallar bilan ranglangan asoda o'tirgan qush-bu burgut. Xudoning oyoq kiyimi va yopinchig'i oltindan, va yoping'ichiga hayvonlar tasvirlangan, gullardan dala nilufari.

II.Taxt oltin, qora daraxt va fil suyagi bilan bezatilgan. Unda

hayvonlar rel'ef shaklida va rasm tasvirlari ko'rinishida. Taxning har bir oyog'ida raqsga tushayotgan figurada to'rt "G'alaba", boshqa ikkitasi pastga har bir oyog'larda tasvirlangan. Oldingi oyoqlarning har birida Sfinks'lar o'g'irlagan fivalik bolalar yotadi, sfinkslar ostida Apollon va

O'z bolalari bilan g'ururlangan faqat ikki bolani – Akallan va Artemidani tuqqan ma'buda Letani ustidan kulgan. Haqoratlangan Leta qasos olishga chanqoq bo'ldi. Apollon o'z o'qi bilan Niobani barcha o'g'illarini, Artemidani o'z o'qi bilan uning barcha qizlarini o'ldirdi.

Artemida kamon o'qlari bilan Niobanining bolalarini o'ldirmoqda. Haykal oldida pol oq emas, qora marmar bilan qoplangan. Bu qora kenglikni bu yerga quyiladigan moyni ushlab turadigan paross marmaridan bir oz ko'tarilgan yo'lak o'rabi turadi. Moy Olimpdagi haykal uchun juda foydali: bu moy fil suyagini Altis¹⁰ botqoqli havosi keltirishi mumkin bo'lgan buzilishdan saqlash vositasi bo'lib xizmat qrladi.

1. *Eleya - Peloponnesdag'i Elida viloyutidagi shahar*
2. *peristl - uni o'rabi turadigan kolonnada.*
3. *fronton - inshootni tugallangan qismi.*
4. *68 fut - uzunlik birligi, Rim futi, 0,2963 m, kengligi 95, uzunligi 230.*
5. *friz - inshootlarning yuqori qismi.*
6. *ko'rạyotgan - Pelops va Enomay afg'onaviy qahramonlar.*
7. *Kladey - daryo xudosi*
8. *Pelops va Gippodamiya - uning qizi.*
9. *Sfinks - ayol yuzli, gavdasi she'r, qush qanotli maxluq.*
10. *Altis - Olimpdagi Zevs ziyyoratgohining qadimgi nomi.*

Xрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 180-183 срп

Fidiy

Plutarx. Perikl

XIII. ...Shu oraliqda, Fidiy ma'budani oltin haykali ustida ishladi va marmar taxtada uning ijodkori deb u aytilgan...

XXXI. ...Yuqorida aytiganidek haykaltarosh Fidiy haykalni tayyorlashga kirishdi, u Periklini do'sti bo'lgani va uning oldiga katta obro'ga ega bo'lgani uchun, uning ko'pgina shaxsiy dushman va hasadgo'yłari bor edi; boshqalar unga xalqni kayfiyatini sinab ko'rishni xohlar edilar, agar Perikl ustidan sud bo'lsa, xalq qanday

qaror qabul qiladi? Ular Fidiyni yordamchilaridan biri Menonni maydonchaga o'girib, duo qiladigan ko'rinishda Fidiyga nisbatan jazosiz, chaqimchilik qilish va uni ayblashga ruxsat berishni so'rashga ko'ndirdilar, xalq chaqimchilikni yaxshi qabul qildi. Xalq kengashida bu ish ko'rilmaga, o'g'rilikka dalil topilmadi: Periklni maslahati bilan Fidiy boshdan haykalga tillani shunday yopishtirdiki, uni barchasini yechib olib o'g'rilibini tekshirish mumkin edi, bunday holatda Perikl ayblovchilarga l taklif qildi...

Shunday qilib, Fidiy turmaga olib borildi va u yerda kasallikdan, ayrim mualliflarni guvohlik berishicha, Periklni dushmanlari jamoatchilik fikrida unga zarar yetkazish uchun bergen zahardan o'ldi.

XXXII. Shu vaqt² Aspasiyaga³ qarshi axloqsizlikda ayblanib sud jarayoni qo'zg'atildi...

Aspasiyaga kelganda, Perikl unga shafqat qilishni so'rab oldi, Esxilni aytishicha ishni ajrim qilish vaqtida, uning uchun ko'p ko'z yoshi to'kdi va sudyalardan iltimos qildi.

1. *Ayblovchi tillani yechib olib o'lchashni.*

2. *Shu vaqt – er: avv. 432-yillar atrofida bo'lishi mumkin.*

3. *Aspasiya Periklning ikkinchi xotini.*

Xрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 174-175 сmp

Tayanch iborulur: Zevs, Pavsaniy, Olimpiya, Pisa, peristil, Pelops, Steropa, Kladey, Alfey, Gippodamiya, Diomed, Gereon, Ifit, Apollon, Nioba, Leta, Artimeda. Perikl, Fidiy, Aspasiya, Zevs haykali, fronton, su.

3-mavzu Makedoniyalik Iskandar davlati. Ellinizm

1-§. Makedoniyalik Iskandar davlatining tashkil topishi

1. Yunonistonning tushkunligi va uni Makedoniya tomonidan bo'ysundirilishi

Lisiy, VII, 4-6, 9

Lisiy (er. avv. 445-380 yillar) – qfinalik notiq. Lisiyning nutq parchalariga ko'ra, Peloponnes urushi davrida Attikani xo'jaligini vayron qilinishi (Attikada zaytun daraxtlari davlat homiyligi ostida edi. Undan zaytun moyi olinar edi. Zaytun daraxtini chopish quvg'in qilish, mulkni musodaror qilish bilan jazolanar edi.) yerni oldi-sottisi, ijaraga

berish to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin edi. Uning ham asl vatani Sitsiliyadir. Notiqning otasi Periklning taklifiga binoan, Afinaga kelib, shu yerda o'rashib qoladi. Lisiylar oilasi shaharning anchagini davlatmand xonardonlaridan hisoblansa ham, uning a'zolari metek, ya'ni kelgindi bo'lganliklari sababidan Afina fuqarosi qatoriga kirolmaydilar. Peloponnes urushida Afinaning mag'lubiyatga uchrashi natijasida, demokratiyaning tarafdoi sifatida Lisiyning akasi qatl qilinadi, uning o'zi arang qochib qutiladi. 403-yilda demokratiya tartiblari yangitdan tiklangach, Lisiy yana Afinaga qaytib, muttasil logograflik kasbi bilan shug'ullana boshlaydi.

Qadimgilarning shahodatiga quraganda, Lisiy hammasi bo'lib uch yuzga yaqin nutq yozgan. Shu katta adabiy merosdan bizga qadar, faqat o'ttiz to'rtasi yetib kelgan. Ularning barchasi, asosan sud nutqlaridan iboratdir. O'z faoliyatini logograflik kasbiga bag'ishlagan. Lisiy dastavval sud ahllarining va sudga ishi tushgan kishilarning tabiatini chuqur o'rghanishga tirishadi. Qadimgi sud qoidalariga ko'ra, sudlashuvchilarning nutqi asosan, uch qismidan iborat bo'lgan. Birinchi kirish qismida - davogar ham, gunohkor ham - sud hay'atiga murojaat qilib, uning iltifotini qozonishga urinadi, butun nutqning markazi hisoblangan ikkinchi qismda, o'tgan voqealarning tafsiloti hikoya qilinadi va nihoyat, nutqning xotimasi hisoblangan uchinchi qismda, aytilgan so'zlar va keltirilgan dalillarning to'g'riliqi isbotlanadi, raqibning dalillarini puchga chiqarib, o'zini mumkin qadar badnom qilishga tirishiladi.

Lisiydan oldingi va hatto undan keyin o'tgan logograflar asosiy kuchni nutqning kirish qismiga va xotima bobiga berib, bayonot qismiga unchalik ko'p e'tibor bermaganlar. Lisiy esa, bu qismlarga ortiqcha to'xtamasdan, o'zining butun iste'dodini va yozuvchilik mahoratini ishning tafsilotini hikoya qilishga sarflaydi. Qadimgilarning aytishicha, bayonotning nafisligi jihatidan kamdan – kam yozuvchilar Lisiy bilan tenglasha olganlar. Bu odam sud ishiga aloqador bo'lgan voqealarni gapirganda, ularni nihoyatda oddiy so'zlar bilan qisqa-qisqa hikoya qiladi, yo'l-yo'lakay dalil va da'volarni shu bayonotga yedirib yuboradi. Shu tarzda to'qilgan nutq naqadar sodda bo'lmasin, bu soddalik ostida yashirinib yotgan chinakam tabiiylik va ajoyib

samimiyat sud hay'atining diligiga darhol yetib boradi va gunohkorga nishbatan uning xayrixohligini orttiradi. Lisiy faqat notiqqina emas, shuningdek yunon badiiy prozasiga katta hissa qo'shgan va o'zidan keyingi notiqlarga g'oyat kuchli ta'sir o'tkazgan chinakam ulug' yozuvchi hamdir.

(4) Bu yer maydoni Pisandrga tegishli edi. Pisandrni mulki musodara qilinganda, bu maydonni xalqdan Megaralik Apollodor sovg'aga oldi. U hamma vaqt unga ishlov berdi; "O'ttizlar"ni hukmronligi boshqaruvidan sal oldinroq undan buni Antikl sotib oldi va ijara berdi; men esa Antikldan bu yerni tinchlik vaqtida sotib oldim.

(5) Shuning uchun, Kengash a'zolari, men bu maydonni olganimda unda shikast yetmagan birorta ham butun zaytun daraxti bo'limganligini isbotlashni o'z vazifam deb hisoblayman. Avvalgi vaqtga kelganda esa, meni o'yashimcha, meni jazolash adolatsizlik bo'lar edi, agarada avvalgi vaqtida u yerda ular butun bir mingta bo'lsa edi; agar ular meni aybimsiz qo'parib tashlangan bo'lsa, meni boshqalarni jinoyati uchun javobgar sifatida sudga tortmasliklari lozim.

(6) Siz barchangiz bilasiz, bizga turli xil kulfatlar keltirgan urushning sababi, mamlakatni chekka qismlarini spartaliklar g'arot qilgani, yaqin joylarini esa o'zimiznikilar talaganlari edi. O'shanda, davlatga yetkazilgan zarar uchun endi menga jazoni o'tash adolatdanmi? Shuningdek urush vaqtida musodara qilingan bu maydon, uch yildan ko'proq vaqt sotilmay qoldi, (7) qachonki biz o'z xususiy mulkimizni himoya qilish kuchiga ega bo'lganimizda, unda muqaddas zaytunlarni chopilgani hech nima emas. Lekin, siz Kengash a'zolariga ma'lumki, ayniqsa sizlarni oralariningizdan shunday maydonlar ustidan nazoratga ega bo'lganlar o'sha vaqtida ko'pgina joylarda xususiy va muqaddas, butun bir zaytunzorlar bor edi; endi ularning ko'p qismi chopib tashlangan va yer bo'm-bo'sh turibdi. Agar tinchlik va urush vaqtida ham bu yerkarni egasi o'sha odamlarni o'zi bo'lsa, chopishni boshqa kishilar amalga oshirgani tufayli siz jazolashni noqonuniy deb hisoblaysiz. (8) Lekin agar siz hamma vaqt yerga egalik qilgan yer egalarini aybdor deb tan olmasangiz, tinch zamonda yerni sotib olgan yer egalarini jazolamasligingiz lozim.

(9) Ilgari, nima bo'lGANI haqida, Kengash a'zolari men ko'p gapi-

rishim mumkin, o'ylaymanki men yetarlicha aytdim. Qachon men bu maydonni o'zimni mulkim qilganimda, sotib olganimdan besh kun o'tmasi Pifodor arxonligi yilida Kallistratga ijara berdim. Kallistrat unga ikki yil ishlov berdi, lekin unda bitta ham, na xususiy, na muqaddas, na butun, na shikastlangan zaytun yo'q edi. Uchinchi yilda unga shu yerda turgan Demetriy ishladi, to'rtinchi yil uni Antisfenning ozod qo'yilgan quli Alkiyga ijara berdim, qaysiki u hozir hayot emas; keyin shunday ahvolda Protey uch yil davomida ijara ushladi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 184-185 сmp

Yirik yer egaligining o'sishi

Demosfen, nutqlari XXVII, 4-5, 9-11

Demosfen (er.avv. 384-322 y.) afinalik mashhur notiq, siyosiy arbob, demokratiyani mafkurachisi. U Afinada boy qurolsuz usta oilasida tug'ildi. Afinaning Makedoniyanı bosqinchilik siyosatiga nisbatan befarrq munosabatini keskin tanqid qildi. O'z nutqlarida yunon davlatlari ittifoqini tashkil qilish, hamda Philipp II ga qarshi urushga tayyorlanishga chaqirdi. Er. avv. 323-yilda Iskandarning o'limidan keyin, Afinaga tantanali qaytib keldi va Makedoniyaga qarshi kurashga chaqirdi. Er. avv. 323-322 yillardagi Lamiya urushida yunonlarning yangi mag'lubiyatidan keyin, dushmanlar tomonidan ta'qib qilinganda, zuhar ichdi. Bizgacha Demosfendan oltmish bir nutq, ellik olti chiqish, olti xat yetib kelgan.

Otam, janob sudyalar, har biri uncha kichik ishlab chiqarish bo'l-magan ikki ustaxonani, 5 va 6 min turadigan 32 yoki 33 qurolsuzlik ustalarini va 3 mindan kam bo'l-magan, bir yilda 30 min sof daromad beradigan boshqalarni, yana soni 20 ta bo'l-gan krovat ustalarini, unga 40 min uchun garovga berilgan, 12 min sof daromad beradigan, bundan tashqari bir draxma hisobidan ssudaga berilgan talant atrofida kumush, shunday qilib bir yilda 7 mindan ko'proq foiz hosil bo'ldi. Va qachon u o'z mulkini qoldirganda, aynan shunday daromad keltirdi, buni o'zlarini ham tasdiqlaydi. Bu 4 talant va 5000 draxm asosiy kapitalni tashkil qiladi, ulardan foiz har yili 50 min. Bundan tashqari, ishlovga berilgan fil suyagi va temir, va qiymati 80 mingacha krovat yog'ochi, siyoh yong'og'i va mis 70 minga sotib olindi; keyin 3000 draxm qiyamatdagi

uy, ko'chadigan mulk, qadahlar, oltin va ko'ylaklar, onamning kiyimlari, jami umumiy qiymati 10 min draxmgacha, uydagi kumush 80 min. Va bularni hammasini u uyda qoldirdi, dengiz korxonalarida Ksufga qarzga berilgan 70 min; 2400 draxm Pasiondag'i ovqatlanishga, Piladdagi ovqatlanishga 600, Demonning o'g'li Demomelga 1600, turli kishilarga qarzga tarqatilgan 200 va 300 draxmdan, umuman talant atrofida. Va bu pullar jami bo'lib 8 talant va 50 mindan ko'proq. Baribir, agar tadqiq qilsangiz, 14 talantgacha topasiz.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 185-186 сmp

Afinani Filipp bilan urushga kirishi

Didim. Demosfenning X va XI nutqlariga sxoli (sharhlari)

Iskandariyalik Didim (er. avv. I asr- eramizning I asri) antik asar-larga sharhlari ni yozgan. Demosfenning nutqlariga sharhlari 1901-yilda Misrdan topilgan. Parchada afinaliklarning er. avv. 339-yilda Filipp bilan urushga majbur qilgan sabablar to 'g'risida so 'z boradi.

Afinaliklarni makedonlarga qarshi urushini chiqishining sababi Filippni Afinaga yomonlik qilgani, shu bilan birga, u go'yoki tinchlik saqlash niyatida deb o'zini tutdi. Lekin urushning asosiy sababi podshoni Vizantiy va Perinfga² yurishi edi. Filippning yurishining maqsadi bu shaharlarni ikki sababga ko'ra taslim bo'lishga majbur qilish edi. Eng avvalo, afinaliklarga g'alla yetkazib berishdan mahrum qilish, shuningdek urush vaqtida dengiz qirg'og'idagi shaharlar Afina harbiy dengiz flotiga, ular bilan urush vaqtida mustahkam yashirinadigan joylarni bera olmasliklari uchun edi. Shunda Filipp savdogarlarning Gieronda turgan kemalarini bosib olib, noqonuniy ish qildi: Filoxorning guvohligi bo'yicha – 230, Feopompning³ guvohligi bo'yicha – 180. Bu kemalarni sotishdan u 500 talant oldi. Buni u ilgari amalga oshirdi⁴.

1. *sharhlar - sxol.*

2. *Perinf Frakiyadagi yunon shahri.*

3. *Feopomp – er. avv. IV asrdagi yunon tarixchisi.*

4. *amalga oshirdi – afinaliklar Filippga urush e'lон qilishlaridan oldin.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 186-187 сmp

Xeroneya (er. avv. 338-yil) jangi arafasida Afina davlati va Makedoniyaning kuchlari

Demosfen. Nutqlar, XVIII

(234) Bizni davlatimiz kuchiga kelganda uni orollar aholisi tashkil qilar edi-hammasi emas, eng zaiflari, chunki Xios ham, Rodos ham, Kerkira¹ ham biz bilan emas edi, bizda pul o‘lponi 45 talantgacha yetdi, ha u oldindan yig‘ilgan edi; goplitlar ham va suvoriyalar bizni o‘zimiznikidan tashqari bitta ham yo‘q edi. Biz uchun eng dahshatlisi, dushmanlarga qo‘l keladigani bu odamlar² bizga aynan megaraliklarga, fivaliklarga, evbeyliklarga nisbatan do‘stona tuyg‘usidan ko‘ra dushmanlik tuyg‘ularini uqtirdilar.

(235) Bizni davlatimizning ishlari shunday ahvolda edi, hech kim bunga e’tiroz bildira olmas edi. Qarang, biz bilan urush olib borayotgan Filippda qanday edi. Birinchidan, u o‘z qo‘l ostidagilarga to‘la qonli hokimlik qildi, bu urush ishlarida hammasidan eng muhimidir. Keyin uning odamlari, o‘z qo‘llaridan qurolni qo‘ymaydilar. Keyin pul mablag‘lari unda mo‘l-ko‘l edi va u lozim topgan ishni qildi, shu bilan birga bu to‘g‘risida oldindan e’lon qilmadi... qonunga xiloflik uchun ayblov bo‘yicha sudlashmadni, hech kimga hisobot berishi kerak emas edi, o‘zi hammani ustidan hukmdor, bir so‘z bilan aytganda yo‘lboshchi, xo‘jayin edi.

(236) Men esa, unga qarshi yakkama-yakka qo‘yilib (va buni ham adolatli ajrim qilish kerak), kimni ustidan hokimiyatga ega edim? Hech nimani ustidan? Axir, eng avvalo, nutqlar bilan xalq oldiga chiqish huquqi, mening ixtiyorimda bo‘lgan yagona edi bu, siz menga buni unda maosh oladigan kishilar bilan bir xil darajada berdingiz, ular mendan yuqori bo‘lishga erishdilar, (bunday hodisalar har qanday munosabat bilan tez-tez bo‘lar edi), buni siz, o‘z dushmanlaringiz foydasiga Yig‘ilishdan tarqalish oldidan qaror qildingiz. Lekin, baribir bizning ahvolimizdagи bunday noqulayliklarga qaramay, men evbeyliklarni, axeylar, korinfliklar, fivaliklar, megaraliklar, levkadlarni, kerkiralarni siz bilan ittifoqqa tortdim-ularning barchasidan, fuqaro kuchlaridan tashqari umuman o‘n besh ming yollanma askarlar va ikki ming otliqlarni to‘plash mumkin bo‘ldi. Pulni ko‘proq to‘plashga harakat qildim.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 187-188 срп

Filippning yunon shaharlari bilan tinchlik shartnomasi (er. avv. 337-yil)

Marmar taxtada barcha yunon shaharlari³ Korinf kongressi ishtokchilarini delegatlarining qasam matni. Yunonlar o'zaro urushlar olib bormaslik, mavjud davlat tuzumini o'zgartirmaslik majburiyatini oldilar. Ittifoqchi kengash boshchiligidagi yunon shaharlari ittifoqi tuzildi. Yunonistonning tashqi siyosatini rahbari deb Filipp e'lon qilindi.

Afina Akropolidagi marmar taxtadagi yozuv

Qasam. Men Zevs, Geya, Gelios, Poseydon, Afina, Ares, barcha xudolar va ma'budalar bilan qasam ichaman. Men tinchlikka sodiq qolaman va makedoniyalik Filipp bilan tuzilgan shartnomani buzmayman.

Men quruqlikda ham, dengizda ham yurish bilan chiqmayman, kim qasamlarga sodiq qolsa unga zarar yetkazmayman.

Men tinchlik shartnomasi ishtirokchilariga tegishli bo'lgan shaharlarni ham mudofaa inshootlarni ham, gavanlarni ham, qandaydir bir ayyorlik yoki bahona bilan harbiy maqsadlar uchun bosib olmayman.

Men Filippning va uning avlodlarini podsholik hokimiyatiga hamda tinchlik to'g'risida qasam keltirilgan har bir davlatda mavjud bo'lgan davlat qurilishiga tajovuz qilmayman.

Meni o'zim bu shartnomaga qarama-qarshi bo'ladigan hech narsa qilmayman va kuchimga yarasha boshqa hech kimga ham yo'l qo'yayman. Agarda kimda-kim tinchlik to'g'risidagi bu shartnomani buzadigan biror nima qilsa, kimga zarar yetkazilgan bo'lsa, men ular so'rangan shunday yordamni ko'rsataman. Men ittifoq kengashi va yo'l boshchining⁴ buyrug'iga muvofiq umumiyligini tinchlikni buzuvchiga qarshi urushaman va qoldirmayman... (matn uziladi).

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 189 сmp

Yunonistonni Makedoniyalik Filipp tomonidan birlashtirilishi Yustin, IX, 5-6

Yustin eramizni II asridagi Rim yozuvchisi. Eramizning I asri oxirida yashagan rimlik tarixchi Pompey Trogning "Filipp tarixi" asarini qisqartirilgan bayonini muallifi hisoblanadi. Parchada Filipp II hukmronligining so'nggi yillaridagi voqealar bayon qilinadi.

Filipp (er. avv. 382-336-yillar) Yunonistonda ishlarni uyuştirib, bu vaziyatga shaklni ishlab chiqish uchun barcha davlatlardan elchilarни Korinfga to'plashga buyruq berdi. Bu yerda u alohida davlatlarni xizmatiga mos butun Yunoniston uchun tinchlik shartlarini belgiladi. Yagona senatdek bor kuchi bilan umumiy kengashni sayladi. Birgina lakedemonlar podshoga va uning shartlariga mensimaslik bilan qaradilar, shaharlarini o'zini manfaatidan kelib chiqmaydigan, g'olib sovg'a qiladigan o'sha shartlarni tinchlik emas, qullik hisobladilar. Keyin har ehtimolga qarshi, alohida shaharlarni yordamchi qo'shinlari ro'yxatga olinadi, har ehtimol uchun agarda bu qismni kimdir hujum qilgan taqdirda podshoga yordamiga yuborish maqsadida yoki podsho boshchiligidagi urushga borish kerak bo'lsa. Bu tayyorgarliklar fors davlatiga qarshi yo'naltirilganiga hech qanday shubha yo'q edi. Barcha ittifoqchi qo'shinalar 200 ming piyoda, 15 ming otliq edi. Bu songa makedon qo'shini ham, bo'ysundirilgan qo'shni varvar qabilalari ham kirmas edi. Bahor boshlanishi bilan Filipp forslar hokimiyyati ostida bo'lgan Osiyoga¹ oldinga uch lashkarboshi Parmenion, Aminta va Attalni yubordi. Shu vaqtدا, Yunonistondan qo'shin to'planayotgan paytda, u qizi Kleopatrani o'zi Epir²ga podsho qilgan Iskandar bilan to'yini o'tkazdi. Bu kun uchun qizini turmushga berayotgan va xotin olayotgan ikki podshoni qudratiga mos hashamatli tayyorgarliklar qilingan edi. Ajoyib o'yinlar tashkil etilgan edi, lekin Filipp qo'riqchilarsiz, ikki Iskandar, o'g'li va kuyovi o'rtasida, bu o'yinlarga shoshildi. Hech kimda shubha uyg'otmagan zodagon makedon o'smiri Pavsaniy, tor joyda turib, o'zini yonidan o'tayotgan vaqtда, Filippni o'ldirdi va xursandchilik belgilangan kunni, tobut ustidagi yig'i kuniga aylantirdi.

1. Kerkira er. avv. 357-355 yillardagi ittifoqchilik urushidan keyin Afina Xios, Rodos, Kos va Kerkiraning mustaqilligini tan olishga majbur bo'lgan edi.

2. bu odamlar Filipp tarafдорлари.

3. yunon shaharlari Spartadan tashqari.

4. yo'lboschi Filipp.

5. Osiyo Kichik Osiyo.

6. Epir Makedoniyadagi janubiy-g'arbidagi kichik podsholik.

Plutarx. Iskandar

IV. Bolalik yillarida uning kamsuqumligi aniq bo'ldi: qolgan hamma narsada g'ayratli, qaytarib bo'lmaydigan shijoat, u dunyoviy quvonchlarga loqayd edi va ularga juda mo'tadil berildi; Iskandarning shuhratparastligi shunga olib keldiki; uning mushohada tarzi yoshiga nisbatan jiddiy va yuqori edi. O'zini chiroyli so'zlari bilan maqtanadigan sofistdek, Olimpiyada o'z aravalarni g'alabasini tangalarda abadiylashtirgan Filippga o'xshab, har qanday shuhratni yoqtirnadi va uni har qayerdan qidirmadi. Bir kuni oyoqlarini tezligi bilan ajralib turadigan Iskardardan yaqinlari so'rashdi: Olimpiya o'yinlarida yugurishda bellashuvni u istamaydimi, u javob berdi: "Ha agar meni raqiblarim podsholar bo'lsa". Umuman, Iskandar ko'rinishidan, atletlarni yoqtirmas edi; u tragik shoirlarni, fleytachilarni va kifared, rapsodlarni ko'pgina bellashuvlarini, hamda turli ov musobaqalarini, kaltakda jang qilish musobaqalarini uyuشتirdi, lekin musht janglariga yoki pankratiyalarga hech qanday qiziqish bildirmadi va ularni ishtirokchilariga hech qanday mukofotlar belgilamadi.

V. Filipp bo'lmaganda, Makedoniyaga fors podshosi elchilari kelganda, Iskandar o'zini yo'qotib qo'ymay, ularni do'stona qabul qildi; u elchilarni o'zini do'stona munosabati va biror-bir bolalarcha yoki ahamiyatsiz savol bermasligi bilan o'ziga mahliyo qildi, u yo'llarni uzunligi tog'risida, Eronning ichiga sayohat qilish usullari to'g'risida, podshoning o'zi to'g'risida, dushmanlar bilan kurashda u qandayligi hamda forslarni kuchlari va qudrati qandayligi to'g'risida so'rab-surishtirdi, ular juda ko'p hayron bo'ldilar, ular Filippning dong'i ketgan qobiliyatları, bu bolaning maqsadi va intilishlari oldida xiralashib qoladi degan xulosaga keldilar. Ammo hamma vaqt Filipp qandaydir mashhur shaharni bosib olgani yoki shonli g'alabasi to'g'risida xabar kelganda, Iskandar xafa bo'lar edi, buni eshitib, u o'z tengqurlariga: "Bolalar otam hamma joyni bosib olishga ulguradi, menga sizlar bilan birgalikda buyuk va ajoyib ishlarni qilish imkonim bo'lmaydi" der edi. Huzur qilish va boylikka emas, shon-sharaf va shuhratga intilib, Iskandar otasidan qancha ko'p narsa olsa, o'zi shuncha kam qilishi mumkin deb hisoblar

edi. Makedon qudratini o'sishi Iskandarda xavfsirashni tug'dirdi. Had-dan ko'p hashamatli, ko'ngil ochishlar va boyliklar bilan bo'lgan hokimiyatni emas, janglar, urushlar va shon-shuhrat uchun kurash bilan hokimiyatni merosga olishni istadi. Albatta Iskandarni ta'limi bilan ko'p sonli tarbiyachilar, maslahatchilar va o'qituvchilar shug'ullandi. Ularning boshida Olimpiadaning qarindoshi qattiqqa'l Leonid turar edi; Leonidni o'zi tarbiyachi va otaliq unvonidan uyalmasada, bu unvon loyiq va ajoyib bo'lsada, lekin unga va uning qarindoshlik aloqalariga hurmat yuzasidan, hamma uni Iskandarning rahbari va tarbiyachisi deb aytar edilar. Unvoni va o'z o'rniغا ko'ra kelib chiqishi akarnalik bo'lgan Lisimax otaliq edi. Bu kishida hech qanday noziklik yo'q edi, faqat o'zini Feniks, Iskandarni Axill, Filippni Peley deb atadi, uni tarbiyachilar orasida yuqori baholadilar, u tarbiyachilar o'rtasida ikkinchi o'rinni egalladi.

VII. Filipp ko'rdiki, Iskandar tabiatan o'jar, jahli chiqsa zo'rvonlikda hech kimga yon bermaydi, lekin aqli so'z bilan aqlli qaror qilishga yengil ko'ndirish mumkin edi; shuning uchun otasi buyruq berishdan ko'ra, ko'proq ishontirishga urinar edi. Filipp o'g'lini ta'lim va tarbiyasini umumiyligi ta'lim doirasiga kiradigan musiqa va boshqa fanlar o'qituvchilariga topshirishga jur'at qilmadi. Bu ish favqulodda murakkab deb hisobladi. Sofokl ayganidek:

Bu yerda qattiq qo'l va mahkam jilov zarur.

Shuning uchun podsho yunon faylasuflaridan eng buyugi Aristotelni chaqirdi, o'qitgani uchun ajoyib va loyiq tarzda unga haq to'ladi: o'zi vayron qilgan, kelib chiqishi o'sha yerdan bo'lgan Aristotelni Stagira shahrini qayta tikladi va u yerdan qochib ketgan yoki qullikda bo'lgan suqarolarni qaytardi. U mashg'ulot va suhbatlar uchun Iskandarga Mieza yaqinidagi nimfalarga bag'ishlangan daraxtzorni ajratdi, hozir ham u erda Aristotel o'tirgan tosh o'rindiqlarni, o'z o'quvchisi bilan sayr qilgan soyali joylarni ko'rsatadilar. Ko'rinishidan Iskandar nafaqat axloq va davlat to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirdi, balki "sirli", yanada chuqurroq bilimlarga daxldor bo'ldi, qaysiki faylasuflar ularni "og'zaki" va "yashirin" deb atadilar, keng oshkor qilmadilar. Osiyoda turgan Iskandar Aristotelni bu ta'limotlarni ba'zilarini kitoblarga e'lon qilganini bilib qolib, falsafa himoyasiga bag'ishlab, unga ochiq xat

yozdi: matnda shunday aytildi: Iskandar Aristotelga baxt-saodat tilaydi! Sen faqat og'zaki o'qitishga mo'ljallangan ta'limotni e'lon qilib, xato qilding. Biz tarbiyalangan o'sha ta'limotlar umum boylik bo'lib qolsa, biz qolgan odamlardan nima bilan ajralib turamiz? Men boshqalardan nafaqat qudratim bilan, balki oliv narsalar to'g'risidagi bilimim bilan baland bo'lmoqchi edim. Sog' bo'll! "Iskandarni shuhratparastligini kamsitilgani uchun tinchlantirib, Aristotel bu ta'limotlar e'lon qilingan bo'lsada, shu bilan birga go'yoki e'lon qilinmagan deb tasdiqlab o'zini oqladi. Aslida tabiat to'g'risidagi to'plam boshidan ma'lumotli kishilarga mo'ljallangan bo'lib, o'qitish uchun ham, mustaqil o'rganish uchun ham yaramaydi.

VIII. Iskandarga tabiblikni sevishini Aristotel singdirdi. Podsho bu fanning boshqa tomonlarini emas, amaliy tomonlariga qiziqdi, uning xatlaridan xulosa chiqarish mumkinki, kasal bo'lgan do'stlariga yordamga kelib, turli xil davolash usullari rejimini belgiladi. Umuman Iskandar fanlarni o'rganish, kitoblarni o'qishga tabiatan qobil edi. "Iliada"ni o'rganish harbiy shuhratga erishishning eng yaxshi vositasi deb hisobladi va bu to'g'risida tez-tez gapirar edi. "Sandiqchadan Iliada" nomi bilan ma'lum bo'lgan Aristotel tuzatgan "Iliada" ro'yxatini doimo o'zida bor edi, uni xanjar bilan yostiq ostida saqlar edi deb xabar beradi Onesikrit². Chunki Iskandar Osiyoning ichkarisida boshqa hech qanday kitoblarga ega emas edi. Garpal podshoning buyruqlari bilan Filistning to'plamlari, Evripid, Sofokl, Esxilning tragediyalaridan ko'pchiliginini va hamda Telest va Filoksennenning difirambalarini yubordi. Iskandar boshda Aristoteldan hayratlandi, ustozni otasidan kam bo'limgan darajada sevdi, uning o'z so'zlariga ko'ra: Filippga yashagani uchun qarzdor ekanligi, Aristotelga esa, loyiq yashagani uchun qarzdor ekanini aytadi. Keyinchalik podsho Aristotelga gumonsirab qaray boshladi, lekin unga qandaydir zarar yetkazmaydigan darajada, ammo uning faylasufga muhabbat va bog'liqligini zaiflashuvi begonalashuvni guvohi edi. Unga falsafaga bolaligidan tug'ma intilish va qiziqishni singdirilishi Iskandarning qalbida o'chmadi...

1. pankratiya-ko'p kurashning bir turi.

2. Onesikrit -Iskandarning yurishlarini yozgan uning yo'ldoshi

Хрестоматия по истории древнего мира М., 1991. 191-193 сmp

Kvint Kursiy Ruf

Makedoniyalik Iskandar tarixi

Rimlik tarixchi Kvint Kursiy Ruf taxminan eramizning I asrlarida yashaga. Farazlarga ko'ra, 40-yillarda "Makedoniyalik Iskandar tarixi" asarini yozadi. Rufning usari o'n kitobdan iborat bo'lib, beshinchi, oltinchi, va o'ninchи kitoblar bir necha uzelishlar bilan bizgacha yetib kelgan. Kvint Kursiy Ruf boshqa antik mualliflarga o'xshab, Iskandurni faoliyatini ko'klarga ko'tarib tasvislamaydi, aksincha tarihiylik, xolisiylik nuqtai nazaridan tasvirlaydi. Muallif Iskandarni o'ch olish, gumonsirash kabi shafrqatsiz sifatlarini ta'kidlaydi. Iskandarni faoliyatiga xolisona baho berib uni bosqinchilik, talonchilik deb xulosa chiqaradi. U Iskandar yurishlaridagi yutuqlarni omad kulib boqqani natijasi deb tushuntiradi.

Kursiy Ruf qadimgi ajdodlarimiz baqtriyaliklar, saklar jasoratiga xolisona baho berib, ularni qahramonligini chugur hurmat bilan tasviflaydi.

VI. – Doro o'z elchilari orqali tinchlikka erishish niyatida umidini uzib, yana urushni boshlash uchun o'z jangovar kuchlarini faol qayta qura boshladi.

2. U qismlar yo'l boshchilariga Bobilga to'planishga, hamda baqtriyaliklar qo'mondoni Bessga qancha bo'lsa ham ko'p qo'shin to'plab kelishini buyurdi.

3. Baqtriyaliklar bu qabilalar ichida eng jangovar va chidamli, o'z axloqlari bilan nozik forslarga hech ham o'xshamas edilar; ular talonchilikka odatlangan va hamma vaqt qurol bilan kezib yuradigan o'ta jangovar skiflarga yaqin yashar edilar.

4. Makkorlikda shubha qilingan Bess, shubhasiz norozilik bilan ikkinchi rollarda turar edi, baribir podshoga qo'rqinch tug'dirar edi. Chunki u podsho hokimiyyati ilinjida edi, lekin xoin bo'lishdan qo'rqrar edi, faqat shunday maqsadiga yetishi mumkin edi.

O'rta Osiyo xalqlarining Spitamen boshchiligidagi yunon-makedonlarga qarshi ozodlik kurashi

Arrian. Iskandarni yurishi, IV, 5-6, 16, 17

Kvint Enniy Flaviy Arrian – Kichik Osipyoning Vifiniya viloyatida, taxminan eramizning 90 -95 yillari orasida tug'ilib, 175-yilda vafot

etgan. Arrian eramizning 112-116 yillarida zamonasining atoqli faylasut Epiktet qo'lida tahsil oladi. U eramizning 131-yilida Rim imperatorining topshirig'iga binoan, Qora dengiz qirg'oqlari bo'ylab ekspeditsiyaga yuboriladi. Senator darajasiga ko'tarilganda, Arrian eramizning 116 -yilida davlat ishlari yuzasidan Yunonistonga boradi. Arrian Rim davlatining chegaralariga oid qimmatli ma'lumotlarni to'playdi. "Imperatorning elchisi" degan faxriy nom oladi. Arrian 131-137 yillarda Kappadokiya viloyatiga hokim etib tayinlanadi.

Arrian Iskandariyadagi mashhur kutubxonada Iskandar hayotiga bag'ishlangan juda ko'p ma'lumotlarni to'plab, o'zining mashhur "Iskandarning yurishi" asarini yozdi. Asarning uchinchi va to'rtinchi kitoblarida qadimgi O'rta Osiyo hududi, jumladan, O'zbekistonning qadimgi davri to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Vatanimizning erksevar aholisini Iskandarga qarshi ozodlik kurashini batatsil tasvirlaydi.

...Marakanda² qo'rg'onida qoldirilgan makedon garnizoni unga Spitamen hujum qilganidan keyin chiqib, ularni barchasini qaytarib, shu bilan birga bir nechasini o'ldirdi va o'zi hech qanday yo'qotishsiz qal'aga qaytdi. Qachonki Spitamen Iskandar yuborgan yordam Marakandaga etib kelish arafasida ekanini bilib, qal'ani qamal qilishni to'xtatdi va So'g'diyonani poytaxtiga ketdi. Farnux³ va u bilan birga bo'lgan lashkarboshilar uni So'g'diyona chegarasidan to'la haydab yuborishga shoshildilar va chekinishda ta'qib qildilar va kutilmaganda skif ko'chmanchilarga ducli keldilar. Shunda Spitamen 600 ga yaqin skif suvoriyalarini o'ziga qo'shib oldi va skiflar yordamida ruhlanib makedonlarni hujumini kutishga qaror qildi...

Marakanda yaqinida⁴ makedonlar barcha tomondan qisilgan edilar va daryodagi kichik orolga qochdilar. Bu yerda skiflar va Spitamenning otliqlari ularni o'rabi oldilar va qirib tashladilar; faqat ozginasini asirga oldilar va yo'q qildilar.

Aristobul hikoya qiladi,⁵ qo'shinni katta qismi pistirmada yo'q qilingan edi, chunki skiflar o'rmonlarda yashirindilar, u yerdan jang paytida makedonlarga hujum qildilar... Qachon Iskandarga bu to'g'rida xabar yetib borganda... U Spitamenga qarshi borishga qaror qildi...

Spitamen o'z odamlari bilan, Iskandarni yaqinlashganini eshitib shaharni tashlab chiqdi va qochdi. Iskandar uni uzliksiz ta'qib qildi...

Plutarx. Iskandar. LX

Por bilan jang to'g'risida Iskandar o'z xatlarida batafsil hikoya qiladi. U dushman qarorgohlari o'rtasida Gidasp daryosi oqib o'tadi deb xabar beradi. Fillarni oldinga qo'yib. Por kechish joyi ustidan muntazam kuzatib bordi. Iskandar lagerda varvarlar unga o'rganishi uchun har kuni kuchli shovqin ko'tarishni buyurdi. Bir kuni oysiz kechada Iskandar piyodalarni bir qismi va tanlangan otliqlarni o'zi bilan olib, dushmanlardan uzoq ketib, uncha katta bo'limgan orolga kechib o'tdi. Shu vaqtida jala yomg'ir boshlandi, bo'ronli shamol esdi, lagerda yashin chaqnab turdi. Iskandarni ko'z oldida bir necha jangchilar yashin bilan o'ldirib kul qilindi, baribir oroldan suzib ketib qarshidagi qirg'oqqa turishga urindi. Ob-havo yomonligi uchun Gidasp toshib ketdi va qutirdi, ko'p joylarda qirg'oq yemirildi va u yerga suv shiddatli oqim bilan yugurdi, quruqlikka yaqinlashish mumkin emas edi. chunki oyoq ko'pirgan daryo sirpanchiq tubiga tura olmas edi. shunda hikoya qilishlaricha, Iskandar shunday hayqiradi: "Afinaliklar, bilasizmi, sizni maqullashingizga sazovor bo'lish uchun qanday xavf-xatarga duchor bo'layapman?". Onesikrit shunday deydi, Iskandarning o'zi ham xabar beradi, ular sollarni qoldirdilar va ko'kraggacha suvga tushib, qo'llarida quroq bilan kechuvga tomon harakat qildilar. Qirg'oqqa chiqib, Iskandar otliqlar bilan piyodalardan 20 stadiyga o'zib ketib, oldinga yugurdi. Iskandar faraz qildiki, agar dushmanlar otliq jang boshlasa, ularni u yengil g'alaba qiladi, agar ular piyodalarni oldinga chiqarsa, uning piyodasi o'z vaqtida unga qo'shilishga ulgu-radi. Bu taxminlarni birinchisi amalga oshdi. Mingta otliqlar va olti yuz jang aravalari unga qarshi chiqdilar, u qochishga majbur qildi. Barcha aravalarga ega bo'ldi, otliqlardan to'rt yuz kishi halok bo'ldi. Por tushundiki, Iskandar daryodan kechib o'tdi, qolgan makedonlarga xalaqit berish uchun joyida faqatgina uncha katta bo'limgan qismni qoldirib, o'zining butun qo'shini bilan unga qarshi chiqdi. Fillarni ko'rinishi va dushmanni ko'p sonligidan qo'rqqan Iskandarning o'zi chap qanotga hujum qildi, va Kenga? o'ng tomonga hujum qilishni buyurdi. Dushmanlar har ikki qanotda titradilar, hamma vaqt ular fillarga chekindilar, u yerda yig'ildilar va u yerdan hujumga jipslashgan

saf bilan yana hujumga tashlandilar. Shuning uchun jang o'zgaruvchan muvaffaqiyat bilan bordi va faqatgina sakkizinchis soatda dushmanlarni qarshiligi sindirildi.

-
1. *skiflar – saklar.*
 2. *Marakanda – hozirgi Samarqand.*
 3. *Farnux – Iskandarning ikkinchi durajali saroy a'yonlaridan.*
 4. *Marakanda yaqinida – Zarafshon qирг'оqlarida*
 5. *Aristobul hikoya qiladi – Iskandarning yo'ldoshlaridan biri. Keyinchalik Iskandar faoliyatini tasvirlagan.*
 6. *Por – Panjobdag'i kichkina qadimgi hind davlatining podshosi. Er. avv. 326-yilda Gidasp daryosi bo'yidagi jangda yengildi. Por to'qqiz joyidan yaralanib, Iskandar tomonidan asir olingan edi.*
 7. *Ken – Ken yoki Koynos – Iskandarni lashkarboshilaridan biri.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 198-199 сmp

Tayanch iboralar: Pisandi; Apollon, Antikl, Demosfen, Didim, Vizantiy, Perinf, Gieron, Xios, Rodos, Kerkira, goplit, Korinf, Epir; Iskandar, Parmenion, Aminta, Attal, Marakanda, skif, Spitamen, So'g'diyona, Aristotel.

2-§. Ellin davlatlarining tashkil topishi. Ellinizm madaniyati

Iskandarning o'limidan keyin podsho saylovi va uning davlatini parchalanishini boshlanishi

Kvint Kursiy Ruf, Iskandar tarixi, X7-10

Kvint Kursiy Ruf Rim tarixchisi. Er. avv. I asr-eramizning II asri. 10 jildli "Iskandar tarixi" asarini muallifi.

7. ...Askarlar qonuniy vorisdan boshqa hech qanday podshoni qabul qilmasliklarini aytib, o'jarlik bilan qichqirdilar va Arrideyni taklif qilishni talab qildilar.

(7) Perdikkagal dushmanlik kayfiyatida bo'lgan Meleagr Arrideyni2 saroya shosha-pisha olib keladi va askarlar uni olqishlab, Filipp ismi bilan podsho deb e'lon qildilar,

(8) Biroq, bu oddiy xalq ovozi edi, yo'lboshchilar boshqa fikrda edilar...(12) Uzoq vaqt aniq bir qaror qabul qila olmadilar: goh o'z niyatlaridan tovba qildilar, goh o'z tovbalaridan afsus qildilar. Oxir-oqibatda podshoga sodiqlik g'olib chiqdi va uning avlodи foydasiga qaror qabul qildilar. (13) Arridey zodagonlarning obro'yidan qo'rqib

ketib, yig‘ilishdan chiqib ketdi, askarlarning ko‘tarinki kayfiyati tushdi, lekin zaiflashmadi. Shu sababli uni yangidan taklif qildilar. Arridey akasini taxtga qo‘yilgan o‘sha kiyimini kiydi. (14) Yangi podshoning qo‘riqchisi Meleagr sovutni kiyibb qurolni oladi. Uning orqasidan hech qanday huquqqa ega bo‘lmay, podsho hokimiyatiga ilinji bo‘lganlarni qoniga tashna bo‘lgan, qalqonga nayza bilan taqillatib falanga yurdi... (16) Perdikka qo‘rqib Iskandarning jasadi yotgan xonaga berkinishni buyuradi. Perdikka bilan amalda o‘z botirligini ko‘rsatgan 600 kishi bor edi. Unga Ptolemey va o‘smirlarning “podsho kogortasi”³ qo‘shildi. (17) Lekin askarlarning ko‘p ming kishilik olomoni qiyinchiliksiz, berkitilgan eshiklarni sindirdi. Olomon bilan birgalikda yotoqxonada Meleagr boshchiligidagi qo‘riqchilar to‘dasi bilan qurshalgan podsho bostirib kirdi. (18) G‘azablangan Perdikka Iskandarni jasadini himoya qilmoqchi bo‘lgan kishilarni chaqirib oldi. Shunga qaramay bostirib kirganlar Perdikkaga nayza ota boshladilar. Ko‘plarni yaraladilar. Oxiri keksaroqlar yaxshiroq tanilishlari uchun qalpoqlarini yechib, Perdikkani izdoshlariiga kelishmovchilikdan voz kechishni, podsho va ko‘pchilikka yon berishni iltimos qildilar. (19) Perdikka birinchi bo‘lib qurolini qo‘ydi, qolganlar unga ergashdilar...

8. ...Podsho saroyi o‘zini eski qiyofasini saqladi, podsho elchilarni qabul qildi, uning oldida harbiy boshliqlar turdilar, kirishda qo‘riqchilar va askarlar to‘da bo‘lishdi. (9) Ammo chuqur og‘irlik ahvolni umidsizligini bildirar edi...

9. Taqdir makedonlarni o‘zaro urushlarga tortdi, chunki ko‘plar podsho hokimiyatiga intilar edi... (7)...Perdikka o‘zini qutilishini faqat Meleagrni halokatida ko‘rdi... (11) Ajodolar odatiga ko‘ra qo‘shinni poklashga qaror qilindi, voqelik qulay ko‘rindi, chunki kelishmovchiliklar to‘xtatilgan edi. (12) Askarlarni poklash marosimini o‘tkazishni makedon podsholari quyidagi tarzda amalga oshirar edilar. Qo‘shin chiqarilgan dalada, uning har ikkala chetida chopib tashlangan itni ichak-chavoqlari tashlanar edi, tashlangan ichak-chovoqlar oralig‘ida askarlar qo‘yilar edi: bir tomondan suvoriyalar, ikkinchi tomondan falanga. (13) Belgilangan bu muqaddas marosim kunida podsho otliqlar va fillar bilan Meleagr qo‘mondonlik qilgan piyodalar qarshisida turdi... (15) Qo‘shin to‘plandi, ikki frontni ajratgan oraliq uncha katta emas edi. (16)

Bu yerda podsho bilan Perdikkani gij-gijlashi bilan otliqlar qismi piyodalar oldiga chopib kelib kelishmovchilik sababchilarini o'lim hukmiga berishni talab qildi, qaysiki o'zi ularni himoya qilishi kerak edi. Agar bosh tortilgan taqdirda podsho piyodalar ustiga otliqlar va fillarni tortishi bilan dag-dag'a qildi. (17) Piyodalar kutilmagan baxtsizlikdan qotib qoldilar. Meleagr izdoshlariga o'xshab, o'zini yo'qotib qo'yib, jasorat uni tark etdi... (18) Shunda Perdikka, hayratga tushganlari va mutlaqo o'zlarini yo'qotib, qo'yganlarini ko'rib 300 kishini qolganlardan ajratib fillarni oldiga qo'ydi. Bular Iskandarni vafotidan keyin askarlarni birinchi yig'inini u Meleagr tark etganda, Meleagrga ergashganlar edi. Ularni barchasini fillar toptadilar, shu bilan birga Filipp buni ta'qiqlamadi ham, rag'batlantirmadi ham.... (20) Keyinchalik Perdikkani makkorligini anglab yetgan Meleagr o'shanda safga xotirjam qoldi, chunki bevosita zo'ravonlik unga qarshi qaratilmagan edi. (21) Tezda, qutilib qolishdan umidini uzib, o'zi podsho qilib ko'targan kishini nomi bilan dushmanlar unga halokat tayyorlayotganini ko'rib, Meleagr ibodatxonaga qochdi. Va u yerda o'ldirildi...

10. Qo'shinni shaharga qaytarib, Perdikka yo'lboshchilarni ken-gashga chaqirdi, bu yerda podsho oliv hokimiyatga ega bo'lishi uchun, davlat boshqaruvini shunday taqsimlashga qaror qildilar, Ptolemey Misr satrapi etib tayinlandi va Afrikani qaram qabilalarini boshqardi; (2) Laomedontga Suriya, Finikiya bilan berildi, Kilikiyaga Flot tayinlandi, Antigonda Likiyani, Pamfiliya, Buyuk Frigiya bilan egallah topshirilgan edi; Kariyaga Kassandr yuborildi, Lidiyaga-Menandr; Gelles-pontga tutashgan Kichik Frigiyan Leonnatga boshqaruvga berdilar. (3) Kappadokiya, Paflagoniya bilan Yevmenga o'tdi; unga bu mamlakatni Trapezuntgacha himoya qilish va Ariarat⁴ bilan urush olib borish topshirildi, oxirgi faqat birgina u bo'ysunishdan bosh tortdi. (4) Pitonga Midiya topshirildi, Lisiimaxga Frakiya va u bilan qo'shni Pont viloyatlari. Hindiston, Baqtriya, So'g'diyona xalqlari hamda okean va Qizil dengiz qirg'oqlari avval kim boshqargan bo'lsa, bu viloyatlarni o'sha oldi. Perdikka podsho oldiga turib podshoga hamirohlik qiladigan qo'shinga qo'mondonlik qildi.

(5) Ba'zilar viloyatlarni bunday bo'linishini Iskandar vasiyat qilgan deb taxmin qildilar, lekin bu ma'lumotlar olimlardan kelib chiqsada, bizga ma'lumki hech nimaga asoslanmagan.

(6) Davlat bo'linishidan keyin har kim o'zi aqlan o'z qudratini mustahkamlashi mumkin edi, agarda tiyilmagan hissiyotlar chegaralari qachonlardir mavjud bo'lsa edi... (8) Tasodif bergen narsaga qanoat qilish qiyin edi: katta narsaga umid qilishda erishilgan narsa juda kam tuyuladi. Shuning uchun hamma avvalo o'z podsholigini olishdan ko'ra, o'z podsholigini yanada kengaytirish o'ziga tortganday ko'rindi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 199-202 срп

Misr Iskandariyasi

Strabon. Geografiya, XVIII, 7-9

Er. avv. 332-331-yillarda makedoniyalik Iskandar Misrning O'rtayer dengizi qирг'ог'ида Iskandariya shahriga asos soldi. Iskandariya Ptolemeylar davrida (er. avv. 305-300-yillarda) Misrning poytaxti, ellinizm madaniyati o'chog'i, port, O'rtayer dengizi sharqiy qирг'ог'идаги савдо макази бо'лди.

...Gavanga har ikki tomondan keltiriladigan boyliklardan tashqari, bu yerda viloyatni ikki dengiz bilan yuvilishi va Nilning hayotbaxsh quyilishi oqibatida bu yerda havoning yumshoqligi ajoyib; shu bilan birga ko'llarda bunyod qilingan boshqa shahrlar yozgi issiqda og'ir va bug'adigan havoga ega; chunki ko'llar chetida quyosh issiqligi bilan bug'lanishlar oqibatida botqoqlar vujudga keladi; botqoqliklardan iflos namlik ko'tariladi, odamlar yuqumli kasalliklar tug'diradigan, buzilgan havo bilan nafas oladilar. Iskandariyada esa, aksincha, Nil yoz boshida to'lib, zararli bug'lanishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan botqoqliklarni paydo bo'lishiga yo'l qo'ymay ko'lni to'ldiradi. Shu bilan birga u yerda shu vaqtida iskandariyaliklar yozni juda yoqimli o'tkazadilar... Butun shahar otliq va ekipajlar uchun qulay bo'lgan ko'chalar bilan bo'lingan; ikkita yuz futli eng keng ko'chalar biri ikkinchisini to'g'ri burchak ostida kesib o'tadi. Shaharda, shahar egallagan bo'shliqni to'rt, hatto uch qismini qamragan eng go'zal jamoa ziyoratgohlari va podsho saroylari bor. Haqiqatdan, har bir podsho jamoa yodgorliklariga qandaydir bezak qo'shishga harakat qildi va bir vaqtini o'zida ungacha mavjud bo'lganlarni sonini ko'paytirib, o'zi uchun alohida saroy qurdi... Barcha saroylar o'zaro gavan bilan va oxirisidan tashqari hammasi bilan birlashtirilgan. Podsho inshootlarini

bir qismini sayr qilish uchun joy, kengashlar uchun zal va Museydagi olimlarni ovqatxonasi bo'lgan Musey5 tashkil qiladi. Bu kollegiya davlat ta'minotidan foydalanadi va kohinga, qachonlardir podsho endi Sezar tayinlaydigan Musey boshlig'iiga ega. Podsho saroyining boshqa bo'limi Sema deb ataladigan podsho sog'onalarini va Iskandar uchun bino tashkil qiladi. Iskandarni o'ligini Ptolemy Iskandariyaga olib keldi, uni o'sha tobutda bo'lmasa ham, hozir yotgan joyida dafn qildi; hozirgi tobut shishadan, Ptolemy uni oltin tobutga qo'ydi... Katta gavanga kirish oldida o'ng tomondan orol va Faros minorasi, boshqa tomondan suv osti qoyalari va podsho qal'asi bilan Loxiada burni turadi. Gavanga kiradiganlar uchun chap tomondan Loxiada burni bilan birlashadigan ichki podsho istiqomatgohi, ularda esa turli xil istiqomat xonalari va bog'lar bor; ulardan pastda podsholarning mulki, qazilgan yopiq gavan, va podsho saroyi va uncha katta bo'limgan gavan bo'lgan Antirodis orolchasi yotadi. Orolchani bunday aytishini sababi, u go'yoki Rodosning raqibi edi. Uning ustida teatr binosi turadi, keyin (Sezar ibodatxonasi) deb aytiladigan Emporiydan boradigan Poseydon ibodatxonasi bilan Poseydiy burmasi turadi... Keyin Sezariy, Emporiy va mahsulot omborlari turadi; buning orqasidan keyin Geptastadiygacha kema verflari joylashadi.

1. *Perdikka -Iskandarning shaxsiy qo'riqchisi va harbiy boshlig'i, er. avv. 323-321-yillar Makedoniya regenti.*

2. *Arridey - Iskandarni o'gay ukasi.*

3. *"podsho kogortasi" - Iskandarni qo'riqchilarini.*

4. *Ariarat - Kichik Osiyoni shimoli-sharqiy qismidagi fors satrapi.*

5. *Musey-yunon tilida-museion-muzalar ibodatxonasi, ilmiy va o'quv muassasalari to'plami; fan va madaniyat o'choqlaridan biri. Er. avv. III asr boshlarida asos solingan. Eramizning III asrida imperator Avrelian tomonidan tugatilgan. Bu yerda mashhur olimlar va shoirlar ishlagan. Uning oldida qadimda eng katta kutubxona bo'lgan.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 202-203 сmp

Tayanch iboralar: Kvint Kursiy Ruf, Makedoniya regenti, qo'riqchi, Strabon, "Geografiya", Baqtriya. So'g'diyona, Perdikka, Arridey, Meleagr, Ptolomey, Ariarat, Kilikiya, Pamfiliya, Lisimax, Musey, kollegiya, Sezar, Sema, Rodos.

Qadimgi yunon metrologiyasi

Yunon uzunlik o'chovlari

duktil - 18,5 mm.

plefr - 29,6 m.

Attika stadiysi - 177,6 m.

Olimpiya stadiysi - 192,27 m.

Yunon pul birliklari

oltin stater - 8,4 g.

Attika mini - 341,2 g.

draxma - 4,366 g.

(Attika) kumush talanti - 26,196 kg.

kotila - 0,274 l.

obol - 1/6 draxma - 0,728 g.

Uchinchi qism

Qadimgi Rim

1-mavzu. Rim davlatining tashkil topishi

1-§. Rim shahrini barpo qilinishi to‘g‘risida afsonalar

Gay Sallyustiy Krisp. “Katilina fitnasi to‘g‘risida”

Gay Sallyustiy Krisp (er. avv. 86-35-yillar) Rim tarixchisi. Yuliy Sezar boshliq bo‘lgan populyarlar partiyasiga mansub bo‘lgan Gay Sallyustiy Krisp bir qancha davlat mansablarini egallagan. U Sezarni o‘limidan keyin siyosatdan chetlashdi va o‘zini adabiyotga bag‘ishladi. Uning “Katilina fitnasi”, “Yugurta urushi” asarlari saqlanib qolgan, “Tarix” asari parchalarda yetib kelgan. Sallyustiy asarlari o‘scha davr Rim jamiyatini hayotini tasavvur qilishga yordam beradigan tarixiy mumba hisoblanadi.

6. (1) Menga ma’lum bo‘lishicha, Rim shahriga dastlab troyliliklar asos soldilar va joylashdilar, qaysiki Eney boshchiligidagi o‘z vatanlaridan qochib ketib, bir joydan ikkinchi joyga sarson-sargar-don bo‘ldilar, ular bilan qonunlarni ham,davlat hokimiyatini ham bilmaydigan, erkin va hech kim tomonidan boshqarilmaydigan² tub joy aholi, yovvoyi qabilalar.

(2) Qachonki ular shahar devorlari atrofida³ birlashganlarida, ular bilan kelib chiqishlari bir xil bo‘lmadasa, turli tillarda so‘zlashadigan, har biri o‘z odatlari bilan yashaydiganlar, baribir yengillik bilan birlashdilar, buni tasavvur qilish qiyin: <shunday qisqa vaqtida, turli xil va shu bilan birga daydib yuradigan olomon murosa natijasida fuqaro jamoasiga aylandi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 204-205 сmp

Tit Liviy. Shaharga asos solinishidan Rim tarixi

Tit Liviy er. avv. 59-yil – eramizning 17-yili. Mashhur Rim tarixchisi, Sitseron, Sallyustiy va Vergiliy kabi o‘z davrining taniqli arboblarning kichik zamondoshi edi. Liviyning mashhur tarixiy asari “Shaharga asos solinishidan Rim tarixi” 142 kitobdan iborat edi. Undan bizgacha 35 kitob: birinchidan o‘ninchigacha va yigirma birinchidan qirq beshinchi

jildigacha yetib kelgan. Tarixchi bu jiddlarda er. avv. 293-yilgacha va er. avv. 219-yildan er. avv. 167-yilgacha bo'lgan voqealarni aks ettirgan. Liviy Rim tarixinining shaharga asos solinishi afsonasidan boshlab, fuqarolar urushigacha va imperiyaning o'rnatilishigacha bo'lgan davrni yoritdi. Ushbu tarixiy asar Rim respublikasi tarixi bo'yicha eng asosiy tarixiy manbadir.

Lekin kuch otasini irodasidan va kattalik huquqidan yuqori bo'ldi; akasini haydab, Amuliy podsholikga o'tirdi; akasini o'g'lini o'ldirib, bir yovuzlikka boshqasini qo'shdi; akasini qizi Reya Silviyani go'yoki faxr- hurmat ma'nosida uni vestalka⁴ qilib, avlodga umiddan mahrum qildi.

Lekin, meni o'ylashimcha, qudrati bilan faqat xudolarga yon beruvchi, shunday kuchli shahar va davlat o'zini paydo bo'lishi taqdirni irodasiga majbur edi. Qachon ... vestalka egizaklarni tuqqanda, u bu noma'lum avlodni ularni otasi Mars deb e'lon qildi, yoki bunga ishondi, yoki xudoni faxrlisiz o'z jinoyatini aybdori qilib qo'ydi. Lekin xudolar ham, odamlar ham uni bolalarini podshoni shafqatsizligidan himoya qilish kuchiga ega emas edilar: kohina kishanlarda turmaga tashlandi, bolalarni daryoga tashlab yuborishga buyruq berildi.

Lekin taqdirning irodasi bilan Tibr qirg'oqlaridan chiqdi va botqoqlik hosil qildi, hech qayerda uning haqiqiy o'zaniga yaqinlashib bo'lmas edi; shu bilan birga yuborilganlar, bolalar turg'un suvda cho'kadilar deb ishondilar. Shunday qilib, ular o'zlarini podsho amrini ijro etgan hisoblab, ular bolalarni yaqin ko'lmaqga tashladilar, qaysiki endi bu yerda Ruminal⁵ anjirzori mavjud⁶. O'shanda bu joylarda keng bo'shliqlar bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, bolalar tashlangan suzayotgan tog'ora, suv pasaygandan so'ng, quruq joyga qoladi; atrofdagi tog'lardan kelayotgan ona bo'ri bolalarni yig'isiga boradi; beozorlik bilan ularga yopishib, ko'krak suti bilan emizadi; rivoyatlarga ko'ra, podshoni Faustul deb atalgan bosh cho'poni, uni bolalarni yalayotgan paytda topadi. Faustul ularni uyga keltiradi va o'z xotini Larensiya tarbiyasiga beradi...

Ular shunday tug'ildilar va shunday tarbiyalandilar; qachonki ular katta bo'lganda cho'ponni kulbasida yoki podani yonida ishsiz qolmadilar, ular ov qilib, o'rmon kezib yurdilar. Shunday mashg'ulotlar

ichida tan va ruhlari bilan baquvvat bo'lib, ular faqatgina yovvoyi hayvonlarni taqib qilmadilar, qaroqchilarga hujum qildilar, tushgan o'ljalarni, o'zlarini talagan o'ljalarni cho'ponlar o'rtaida taqsimladilar, kundan-kun ko'payib borayotgan to'da bilan yumish va ko'ngil ochish bilan shug'ullandilar... va mana ular o'yinga berilgan paytlarida o'ljani yo'qtganlardan jahli chiqqan qaroqchilar ularga pistirma uyushtirdilar; Romul qutulib chiqdi, Remni ular bosib oldilar, tezda uni podsho Amuliyga keltirdilar va yana o'zlarini uni ayblay boshladilar. Aka-ukalar Numitorning dalalariga dushman kabi hujum qiladilar va yoshlari to'dasi bilan u yerdan mollarni haydab ketadilar deb asosiy ayb qo'yildi. Shuning uchun Rem jazolash uchun Numitorga berildi. Faustul eng boshdan o'zida podsho bolalarini tarbiyalanmoqda deb gumon qilar edi; ular podshoni buyrug'i bilan tashlab ketilganini bilar edi; u bolalarni topib olgan vaqt ham mos kelar edi; lekin to'la ishonchga ega bo'Imagani uchun, agar biror hodisa yoki zaruriyat majbur qilmasa, u buni ochishni istamadi. Zaruriyat erta keldi. U qo'rquv ta'sirida Romulga barchasini ochdi. Numitor ham tasodifan Remni qamoqda ushlab, aka-uka egizaklar to'g'risida eshitib, ularni yoshi va asirni qulga hech o'xshamagan xarakterini taqqoslاب, nevaralari to'g'risida esladi. So'rovlari yo'li bilan shu xulosaga keldi va deyarli Remni tan oldi. Shunday qilib, podsho'ga qarshi har tomondan makr-hiyla ishlatish boshlandi. Romul kuch bilan ochiq harakat qilish mumkin emas deb hisoblab, o'smirlar to'dasi bilan podshoga hujum qilmadi, har bir cho'ponga ma'lum bir vaqtda o'zini yo'li bilan saroyga kelishga buyurdi. Rem esa, boshqa to'dani tayyorlab, Numitorni uyi tomonidan yordamga keladi.

Ular podshoni shunday o'ldirdilar. Alg'ov-dalg'ov boshida Numitor shaharga dushmanlar yopirilib, saroyga hujum qildilar deb, alban yoshlari akropolni himoyasi uchun chaqirdi; qachonki aka-ukalar podshoni o'ldirib, unga tabrik bilan kelayotganliklarini ko'rib, shu ondayoq yig'ilish chaqiradi, unga qarshi ukasini jinoyati to'g'risida xabar qiladi, nevaralarini kelib chiqishini ko'rsatadi, ular qanday tug'ildilar, qanday tarbiyalandilar, qanday tanildilar, keyin tiran qanday o'ldirilganini aytadi va buni aybdori o'zi ekanini e'lon qiladi. O'smirlar yig'ilishni o'rtaida saflanib chiqib, bobolarini podsho deb e'lon qildilar, keyin olomonning birdamlik bilan olqishlashi ularni podsho unvoni va hokimiyatini mustahkamladi.

Numitorga alban podsholigini berib, Romul va Rem o'zlarini tashlab

yuborilgan va tarbiyalangan joylarda shahar buniyod qilishni istadilar. Shu bilan birga alban va latin aholisi keragidan ortiq edi; ularga cho'ponlar qo'shildi, bularni hammasi birligida, tabiiyki Alba va Laviniy asos solinadigan shahardan ko'ra kichik bo'ladi, degan umid paydo bo'ldi. Keyin bu ishga boboning yovuz zararli ta'siri podsho hokimiyatiga intilish oqibatida uncha muhim bo'limgan kichik sabab bo'lgan sharmandali jang bo'ldi. Aka-ukalar egizak bo'lganlari uchun yoshi kattaga afzallik berish asosida ishni hal qilish mumkin emas edi. Xudolar o'sha joyni yangi shaharga kimni nomini berish va uni kim boshqarishini belgilar bilan ko'rsatishi uchun fol ochishga Romul Palatinni, Rem esa Aventin tepaligini tanladilar.

Hikoya qilishlaricha, bu alomat 6 kalxat ilgari Remga keladilar, u avval xabar qilingan edi, Romulga ikki baravar son keladi; mana uni va boshqasini o'tab olgan olomon podsho deb olqishladi; birovlar vaqtga asoslanib⁸, boshqalari ularni soniga qarab o'z yo'lboshchilariga podsholik hokimiyatini talab qildilar. Shovqin-suron ko'tarildi, kelib chiqqan g'azablanish, to'qnashuvga olib keldi va shu vaqtida olomonda Rem o'ldirildi. Yanada ko'proq tarqalgan rivoyatga ko'ra Rem akasini ustidan kulib, yangi devorlar ustidan sakrab o'tadi; bundan jahli chiqqan Romul "Meni devorim orqali sakrab o'tsa, har qanday kishi bilan shunday bo'ladi" deb qichqirib uni o'ldiradi. Shunday tarzda, Romul bir o'zi podsholikni egalladi, asos solingan shahar asoschisi nomi bilan ataldi.

1. Eney – rimliklarning afsonaviy ajdodlari.

2. boshqarilmaydigan - Sallyustiy Rim shahri Troyadan kelib chiqqanlarning tub joy aholisi bilan qo'shilishi natijasida asos solingan degan an'anuga riosa qiladi.

3. atrof - an'anuga ko'ra shahar devorlarini podsho Serviy Tulliy qurgan.

4. vestalka Vesta - uy o'chog'i va olov xudosi. Ma'buda Vesta kohinalari turmushga chiqmaslik ahdini berar edilar. Ular Vesta ibodatxonasida abadiy olovi saqlab turishga majbur edilar.

5. Ruminal – yosh podalar homysi bo'lgan xudo.

6. anjirzor aytishlaricha, u Romulniki deyiladi.

7 podsho – Amuley.

8. birovlar vaqtga asoslanib - qushlarni paydo bo'lishi.

I. Rim shahri o'zining buyuk va barcha xalqlarga yetib borgan nomini kimdan va qanday sababga ko'ra olganiga, yozuvchilarni fikri bir xil emas. Bir xillar pelasqlar butun dunyonи kezib chiqib va yer yuzasini deyarli barcha xalqlarini bo'ysundirib, u yerga ko'chib kelib o'z qurollarini kuchi1 sifatida shaharni ataydilar. Boshqalarni tasdiqlaricha, Troya olinganidan so'ng kemaga chiqishga ulgurgan kam sonli qochoqlar shamol bilan Etruriya qirg'og'iga yetib keladilar va Tibr daryosi yuqorisida langarda turadilar. Ayollar katta qiyinchilik bilan suzishni o'tkazdilar va juda azob chekdilar va mana ko'rinishidan boshqalardan urug'i, aslzodaligi, aqli bilan dugonalaridan ustun bo'lgan qandaydir Roma kemalarni yoqish fikrini berdi. Ular shunday qildilar: boshqa erlar g'azablandilar, lekin keyin ko'nishga majbur bo'ldilar va Pallantiy yaqinida o'rnashdilar, tezda ular kutganidan hammasi yaxshi bo'ldi-tuproqni hosildorligi ma'lum bo'ldi, qo'shnilar ularni do'stona qabul qildilar, ular Romani hurmatni barcha belgilari bilan hurmat-izzat qildilar, shuningdek shaharni uning nomi bilan atadilar, unga asos solishning sababchisi u edi. Aytishlaricha, o'sha vaqtan ayollarga qarindoshlari va erlarini lablaridan o'pish odat tusiga kiradi, shuning uchun ular kemalarga olov berib, erlaridan g'azabini kechirimga almashishlarini yolvorib so'rab, aynan shunday o'pib, o'z erlarini suydilar.

II. Shunday fikr ham bor, go'yoki shaharga nomni Italaⁿi qizi² va Eneyga tur mushga chiqqan Levkariya³ Roma bergan. Boshqalarni fikricha, Odissey va Kirka⁴dan tug'ilgan Roman asos solgan, boshqalar Diomed⁵ tonionidan Troyadan jo'natgan Emation⁶ning o'g'li Rom, boshqalar qachonlardir Fessaliyadan Lidiyaga, u yerdan Italiyaga ko'chib kelgan etrusklarni haydab yuborgan... Latinlarni tirani Romis asos solgan deb aytadilar. Hatto shahar Romul sharafiga asos solingan deb to'g'ri fikrlaganlar ham uni kelib chiqishi to'g'risida turlicha fikrlaydilar. Birovlar u Eney va Forbant⁷ning qizi Deksiteyni o'g'li, o'z ukasi Rom bilan kichik bolaligidan Italiyaga kelib qolgan deb fikrlaydilar. Daryo bo'lingan joyda, bolalar bo'lidan boshqa barcha kemalar halok bo'ladi, bolalar bo'lidan kema sekin qirg'oqqa taqaladi, kutilmagan omon qolgan bu joyni Rim deb ataydilar. Boshqalarning aytishicha, Romulni yuqorida so'z yuritilgan Troyankaning qizi Roma,

Telemaxning o'g'li Latinning xotini tug'adi. Odissey va Kirkaning o'g'li; Italiya an'anasi bo'yicha, Favn⁸ va nimfa Marikani o'g'li xotini Roma tug'adi. Uchinchilar, u Eney va Laviniya⁹ning qizi Emiliyaning Ares¹⁰dan paydo bo'lgan o'g'li edi.

Nihoyat, uning tug'ilishi to'g'risida o'ta afsonaviy hikoyalar mavjud...

III. Eng haqiqatga to'g'ri va eng ko'pdalillar bilan mustahkamlangan farazlarni uni asosiy belgilari bilan birinchi bor yunonlarga Peparetosdan Diokl¹¹ taklif qildi. Uni hech qanday o'zgarishsiz Fabiy Piktor¹² qabul qildi, ular o'rtasida ba'zi kelishmovchiliklar bo'lsada, ularni hikoyasining mazmuni quyidagicha: Albada Eneyning avlodlari podsholik qiladi va vorislik qilish tartibi ikki aka-uka Numitor va Amuliyni hokimiyatga keltiradi.

1. *Itala – Sikul (sitsiliyaliklarni) – afsonaviy podshosi, Italiyaga ko'chib kelganlar:*

2. *qizi – boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Geraklni o'g'li Telefa.*
3. *Levkariya – boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Eneyni o'g'li Askaniyga.*
4. *Kirka – Eya orolidagi yunon sehrgari Odisseyni ushlab turgan.*
5. *Diomed – Argoslik qahramon, Etoliya podshosi Tideyni o'g'li.*
6. *Emation – tongi shafaq ma'budasi Eos va Troya podshosi Luomedontning o'g'li.*
7. *Forbant – Rodoss ertaklari qahramoni.*
8. *Favn – o'rmon, dalalar xudosisi.*
9. *Laviniya – Latsiyada shahar barpo qilgan podsho Latin va Amataning qizi.*
10. *Ares – yunon urush xudosisi.*
11. *Diokl – yunon tarixchisi er. avv III asr.*
12. *Piktor – er. avv II asrdagi Rim annalchisi*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 207-208 сmp

Qadimgi Rimda boshqaruvin Gay Sallyustiy Krisp. "Katilina fitnasi to'g'risida"

6.(6). Ularda hokimiyat qonunlarga asoslangan, boshqaruvin tarzi podsholik deb ataladi. Yillar o'tishi bilan, jismi zaiflashgan lekin o'z donoligi oqibatida aqlan kuchli bo'lgan, saylangan erkaklar davlatni gullab – yashnashi uchun g'amxo'rlik qildilar. Ularni yoshi yoki majburyatlarini o'xshashligi uchun otalar deb atadilar.

(7) Keyinchalik, boshda erkinlik va davlatni kengaytirishga xizmat qilgan podsho hokimiyati dumog'dor o'zboshimchilikga aylandi, boshqaruv tarzi o'zgarganidan so'ng, hokimiyatning bir yillik muddati belgilandi va ikki hokim l saylandi, bizni ajdodlarimiz bu tufayli kishi o'zini cheksiz hokimiyati bilan mag'rurlanishi mumkin emas deb hisobladilar.

1. Ikki hokim – dastlab ular pretor – oldinga yuruvchi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 209 срп

Tayanch iboralar: Gay Sallyustiy Krisp, Yuliy Sezar; Eney, uy o'chog'i, olov, Amuley, kalxat, ramz, Etruriya, Diomed, Rem, Romul, Tibr, latin, Telemax, Odissey, ikki hokim.

2-§. Er. avv. V-I asrlarda Rim respublikasi

Patritsiylar va plebeylar

Galikarnaslik Dionisiy. Rim qadimiylari. II, 9-10, 14, 74

Galikarnaslik Dionisiy yunon tarixchisi, Tit Liviiyning zamondoshi, 10 jildli "Rim qadimiylari" asari muallifi. Dionisiy afsonaviy davrlardan er. avv. 264-yil biringchi puni urushigacha bo'lgan vaqtgacha bo'lgan Rim tarixi to'g'risida ma'lumot berishga urinadi. Uning asarini ahamiyati shundaki, avvalgi tarixchi annalchilarni asarlarida Liviy ma'lumotlaridan farq qilgan holda foydalandi.

"Romul quyilarni oliylardan ajratib, qonunlarni berdi va ulardan kim nima ish qilishini ko'rsatdi: patritsiylar²ga magistratura³ va ko-hinlik lavozimlarini bajarishga, plebeylarga⁴ yerga ishlov berish, mol boqish va daromad keltiradigan hunarlar bilan shug'ullanish. U patritsiylarga xalqni topshirdi, har bir kishiga kimni o'ziga patron⁵ qilib tanlashga ruxsat berdi, buni patronat deb atadi. U patronatni quyidagi huquqlarini belgiladi: patritsiylar o'z klientlariga⁶ qonunlarni tushuntirishlari lozim, agar ular ayblansalar vaadolatsizlikka duch kelsalar sudda qatnashib, ularga yordam berishlari lozim. Klientlar esa patronlarga o'z qizlarini turmushga chiqargan paytda yordam berishlari lozim, agar ularni o'zlari yoki bolalari asirga olinsa, ota-onalarini mablag'i yetmasa, ularni dushmanidan to'lov to'lab qaytarib olishga, yordam berishlari hamda ular uchun xususiy ajrimlar zararlarni.

agar ular hukm qilingan bo'lsalar, daylatga jarimalarini to'lashlari lozim. Umuman olganda, ilohiy va inson huquqlari bo'yicha ular yoki boshqalar bir-birlarini ayblastish, bir-birlariga qarshi guvoh sifatida chiqish yoki (ular va boshqa targa) qarshi qaratilgan qarorlarga ovoz berishlari mumkin emas. Agar kimdir bunday jinoiy harakatga aralashib qolgan bo'lsa, shunda Romul sanksiya bergen xoinlik to'g'risidagi qonun bo'yicha, u javobgar bo'lishi lozim va hukm qilinganda, yer osti Zevsiga bag'ishlangan sifatida har qanday kishi uni o'ldirishi mumkin.

Romul podshoga shunday huquqlar berdi: u ibodat qilish va qurbanlik keltirishga boshchilik qilsin, qonunlar va otalarning axloqini saqlasin, eng muhim bo'lgan jinoyatlarni o'zi ajrim qilsin, yengilroqlarini senatga topshirsin; senatni yig'sin va xalqni chaqirsin va urush vaqtida oliy hokimiyatga ega bo'lsin. Senat yig'ilishiga shunday hokimiyatni berdiki, qaysiki u podsho aytgan har qanday ish bo'yicha muhokama qilsin va ovoz bersin. Xalqqa esa u bu uch (huquqni) berdi: magistratlarni saylash, qonunlarga sanksiya berish va podsho unga murojaat qilganda, urush to'g'risida qaror qabul qilish. Lekin ovozni birdan barcha xalq emas, kuriyalar bo'yicha bersin.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. №99-210 сmp

Plebeylarning birinchi sesessiyasi va xalq tribunligini

(er. avv. 494 yil plebeylarni "Muqaddas toqqa" an'anaviy chiqib ketishi.) o'rnatilishi

Tit Liviy "Shaharga asos solinishidan Rim tarixi. II, 23-24, 32-33

Er. avv. V asrda plebeylar Rim qo'shinining asosiy qismini tashkil qilar edilar. Siyosiy huquqsiz bo'lgan plebeylar, Rimdan chiqib ketish va yangi shahar harpo qilish bilan tahdid qilib, o'z huquqlari uchun kurashdilar. Rimdan plebeylarni ketishi sesessiya. Rim shahri uchun jiddiy harbiy xavf-xatar tug'ilganda, plebeylar patritsiylarga o'z talablarini qo'yib, "Muqaddas toqqa" chiqib ketar edilar.

...Lekin, bir tomonidan, volsklar bilan urush xavfi, boshqa tomonidan davlat ichida asosan qarz majburiyatları bilan bog'liq patritsiy va plebeylar o'rtasidagi murosasiz nafrat oqibatidagi kelishmovchilik hukm surar edi. Qolganlar begona yurtlarda hokimiyat va ozodlik uchun kurasha turib, ular ham o'z hamyurtlari-fuqarolarda asirlikda va zulm

ostida turibdilar, plebeylarning ozodligi urushda va dushmanlar o'rtaida tinchlik vaqtidan ko'ra kamroq xavfda, deb qattiq norozi bo'ldilar; va bu g'azablanish har bir lahzada o'z-o'zidan portlab ketishga tayyor edi, bir odamni eng baxtsiz ahvoli o't yoqdi. Uni azob-uqubatlari ko'rinish turgan qandaydir qariya forumga tashlandi; kiyimi loy bilan iflos bo'lgan edi, uning gavdasi yanada ayanchli ko'rinishda edi, oqarib ketganligi va ozg'inligi bilan skeletga o'xshagan; o'sib ketgan soqol va sochlari uni yuz ifodasini yanada yovvoyi qildi. Lekin shunday ayanchli holda uni tanish mumkin edi; uni rota komandiri bo'lganini aytdilar, uni boshqa harbiy namunalari to'g'risida esladilar, uni o'zi bir necha faxrli janglar to'g'risida guvohlik beradigan ko'kragidagi yaralarni ko'rsatdi, uni o'rab turgan olomon xalq yig'inida juda o'xhash bo'lgan bu kiyim va badbashara ko'rinish qayerdan ekanini so'radi, sabin urushida qatnashib qarzdor bo'lGANI, dala toptalgani uchun hosilni yo'qotgani, buni ustiga yong'in uni uyini yo'q qilgani, barcha mulki o'g'irlangani, moli haydar ketilgani va bu vaqtda harbiy ehtiyojlar uchun badal talab qilinganini aytdi. Foizlardan o'sib ketgan qarz boshda uni ota va bobosini yeridan, keyin qolgan mulkidan mahrum qildi, oxirida hasharot kabi qismigacha bordi: qarz beruvchi nafaqat uni qullikka oldi, yer osti ishlariga yubordi va qyinoqqa duch qildi. Shu bilan birga u yaqinda olgan zarbalardan iz qolgan momotaloq bo'lgan yelkasini ko'rsatdi. Buni ko'rib va uni hikoyasini eshitgan xalq baland qichqiriq ko'tardi. Bu shovqin forum bilan cheklanib qolmay, butun shaharga tarqaldi. Kishanli va kishansiz qarzdorlar hamma joydan ko'chaga yopirilib chiqib, kviritlarni himoya-ga chaqirdi. Hamma joydan isyonchilar orqasidan ergashishga tayyor kishilar keldi; ko'p sonli olomon barcha ko'chalar bo'yicha qichqirib, forumga yugurdilar, tasodifan forumda bo'lgan senatorlar katta xavfga duchor bo'lib, bu olomonga tushdilar, agarda konsullar P. Serviliy va Ap. Klavdiy bu isyonni bostirishga shoshilmasalar, u qo'llarga erk berishi mumkin edi. Shunda olomon ularga murojaat qildi va o'zlarini kishanlari va ayanchli qiyofalarini ko'rsata boshladilar; turli joylarda harbiy xizmat qilishlari oqibatida, shunday ayanchli ahvolga kelib qolganlarini aytdilar. Iltimos qilishdan ko'ra, tahdid qilib, senatni chaqirishni talab qildilar, jamoa kengashiga o'zlarini rahbarlik qilish va qaror qilishga tayyorlanib, Kuriyani o'rab oldilar.

Faqat ozgina, tasodifan duch kelgan senatorlarni konsullar to'pladilar; boshqalari nafaqat kuriyada, forumda ham ko'rinishdan qo'rqdilar va senatni kam sonligidan hech qanday kengash bo'lishi ham mumkin emas edi. Shunda xalq o'zini ustidan mazax qilinib, ish cho'zilmoqda degan qarorga keldi: bu yerga senatorlarni ishtirok etmasligi tasodif emas, qo'rqishdan emas, aksincha ishni cho'zish uchun; konsullarni o'zi shubhasiz ularni qashshoq ahvolini mazax qilib, o'zlarini chetga olmoqdalar. Va ish shunga yaqin ediki, hatto konsullarning yuqori unvonlari ham olomonni g'azabini ushlab tur'a olmadi, va niroyat konsullarni o'zi nima xavfiroq: paysalga solishmi yoki borish kerakmi bilmay qoldilar; va niroyat ko'p kishili kuriya yig'ini bo'Iganda, senatorlar ham, konsullar ham o'zaro kelisha olmadilar: Qaysar tabiatli bo'Igan Appiy konsul hokimiyatini ishga solish kerak deb o'yaldi, yumshoq choralarga moyil bo'Igan Serviliy ko'tarilgan xalqni majaqlab tashlash emas, tinchlantirish, xavfsizlantirish ma'qul deb hisoblar edi.

Shu orada boshqa katta tahdid paydo bo'ldi: latin suvoriyları, volsklar qo'shin bilan shaharni qamal qilishga kelmoqda, degan dahshatli xabar bilan yugurib keldilar. Bu xabar patritsiy va plebeylarga mutlaqo qarama-qarshi ta'sir qildi: kelishmovchilik bir davlatni ikki partiyaga shunday bo'lib tashladi. Plebeylar xudo patritsiylar g'ururini jazolovchi bo'lib kelmoqda deb quvondilar, bir-birlarini qo'shinga yozilmaslikka undadilar, bitta-bittadan ko'ra birgalikda o'Igan afzalroq, patritsiylar xizmat qilaversin, qurollanaversin, faqat o'sha kishilargina urush xavfiga duch kelsinlar va undan foyda ko'rsinlar. Shuningdek, ham fuqarolar tomonidan, ham dushmanlar tomonidan ikki xavfdan g'amga botgan va qo'rqib qolgan senatorlar xalq bilan yaxshi murosa qila oladigan Serviliydan shunday katta xavfga qolgan davlatni qutqarishni so'ray boshladilar. Shunda konsul senatni tarqatib, xalq yig'iniga keldi, bu yerda u senat xalqni ahvolini yaxshilash tashvishiga tushgan deb xabar berdi; masalani muhokama qilishga katta bo'lsada, davlatni qismi to'g'risida, butun davlat uchun qo'rqish xalaqit berdi. Ha, dushman deyarli shahar darvozasi oldida turganda, urushdan oldin biror narsaga urinish mumkin emas; shu bilan birga agarda shu tomonidan qandaydir yengillik bo'limganda edi, plebeylar uchun ham, ular va vatan uchun qurol ko'tarishlari faqat mukofot olganliklari uchun faxrli bo'lmash edi, patritsiylar uchun o'z fuqarolarini

og'ir ahvoli uchun g'amxo'rlik qilish ko'ngilli ravishda emas, qo'rquv ostida bo'lish, patrisiyalar uchun ham to'g'ri kelmas edi.

U hech kimni Rim fuqarosini kishanda yoki hibsda saqlashni, shu bilan uni konsullarda qo'shinga yozilish imkoniyatini yo'q qilish va ta'qiqlash, qarorgohda turgan vaqtida harbiyni mulkiga egalik qilish, yoki sotish yoki uni bolalari, nevaralarini bezovta qilish ediki bilan o'z nutqiga ishonishga chaqirdi. Bu qaror e'lon qilinishi bilan, sobiqlar ham shaxsan qo'shinga yozildilar, shaharni barcha joylaridan qasamyod qilish uchun forumga yugurdilar, uydan qochib chiqqan mahbuslar qaysiki qarz beruvchilardan, ularni ushlab turish huquqi tortib olingan edi. Shunday tarzda katta qism tuzildi va volsklar bilan urushda, uning jasorati va qunt qilishi boshqalardan ajralib turar edi. Konsul qo'shinni dushmaniga qarshi qo'ydi va undan uncha uzoq bo'limgan masofaga qarorgoh qurdi...

Keyin patritsiylarni qo'shin tarqatilgan holda, yana maxfiy yig'i-lishlar va kengashlar boshlanib ketmasin degan qo'rquv egallab oldi. Va askarlar konsullarga qasamyod qildilar, (askarlikka) olishni diktator qilgan bo'lsada, bu ular uchun hozir ham majbur deb o'yladilar, ular ekvlar bilan urush harakatlari qayta boshlangani bahonasi bilan qo'shinni shahardan tashqariga olib borishga buyruq berdilar. Bu qaror isyonni tezlashtirdi. Va birinchidan aytishlaricha, qasamdan ozod bo'lishlari uchun konsullarni o'ldirish to'g'risida so'z borgan; lekin hech qanday diniy majburiyat, jinoyat bilan yo'qotilmasligini bilib, ular Sitsiniy degan kimsani maslahati bilan konsullarning ruxsatisiz Muqaddas toqqa ketdilar⁹, bu yerda hech qanday yo'lboschchisiz qarorgohni to'siq va xandak bilan mustahkamlab, (dalalardan) ovqat uchun eng kerakligini olib, ular bir necha kun tinch turdilar, hech kim ularga, ular hech kimga tegmadilar. Shaharda kuchli vahima tarqaldi va har ikki tomonning vahimasi barchani keskinlikda ushlab turdi, o'zlariniki tashlab ketgan plebeylar patritsiylarni qahr-g'azabidan xavfsiradilar, patritsiylar shaharda qolgan plebeylardan qo'rqdilar, nimadan yaxshilik kutishni bilmay, ular qolsinlarmi yoki ketsinlarmi? Ketgan olomon uzoq vaqt tinch bo'ladimi? Yana keyin nima bo'ladi? Agarda shu vaqtida qandaydir tashqi urush bo'lsa? Bu yerda albatta, fuqarolarni kelishuviga umid qoladi! Tog'rimi-noto'g'rimi uni qayta tiklash kerak. Bu qarorga ko'ra, plebeylarga so'z boyligiga ega bo'lган

va plebeylarga yoqimli bo'lgan, o'zi plebeylar ichidan kelib chiqqan Meneniy Agrippani vositachi qilib jo'natishga qaror qilindi... Odam gavdasi a'zolarini norozi bo'lganligini, plebeylarni patritsiylarga qarshi g'azablanishiga o'xshatib taqqoslab, u odamlarni kayfiyatini o'zgartirdi. Keyin murosaga kelish to'g'risida muzokaralar boshlandi va plebeylar qo'ygan shartlarga rozilik berildi, ularda o'z "daxlsiz"¹⁰ magistratlari bo'lishi kerak, ular konsullarga qarshi yordam berish huquqiga ega bo'lishlari kerak, patritsiylardan hech kim bu lavozimni egallashi mumkin emas. Shunday qilib, ikki xalq tribuni G.Litsiniy va L.Albin saylandilar. Ular o'zlariga uch o'rtoqlarini sayladilar; ularni ichida plebeylarni (Muqaddas toqqa) chiqib ketish aybdori Sitsiniy ham bor edi; qolgan ikkitasi kimlar edi, bu to'g'risida kelishmovchiliklar mavjud. Ba'zilar tasdiqlaydiki, Muqaddas tog'da faqat ikki tribun saylangan edi va u yerda ularning daxlsizlik to'g'risidagi qonun o'tka-zilgan edi.

1. "Rim qadimiyyatlari" – bizgacha birinchi o'ntasi yetib kelgan, qolganlari parchalarda mavjud.

2. patritsiy – imtiyozli toifa.

3. magistratura – Rim shahrini boshqarish uchun saylab qo'yiladigan lavozimlar:

4. plebey – ilk Rim respublikasida bo'ysundirilgan latinlar va shaharga ko'ngilli ravishda qo'shni hududilardan ko'chib kelganlar. Ular rimliklarni urug'chilik tashkilotlariga dastlab kirmadilar va boshda siyosiy huquqsiz edilar.

5. patron - homiy, himoyachi. Ilk respublika davrida uning himoyasi ostida ayrim plebeylar, so'nggi respublika davrida butun provinsiyalar va viloyatlar turar edi.

6. klient - sodiq, patronqa qaram kishilar. Patron urug'iga kirib, patronlarning foydasiga turli xil majburiyatlar va xizmatlarni o'tashlari shart edi.

7. Sesessiya – sesessio – lotincha ketish, tark etish.

8. Kvirit – Rim fuqarolari.

9. Muqaddas toqqa ketdilar – u Anien orqasida, shahardan 300 qadam uzoqda; Bu rivoyat Aventin tepaligiga ketildi degan. Pizon ma'lumotidan ko'ra ko'proq tarqalgan.

10. "Daxlsiz" – tribunga daxl qilgan o'zining barcha mulki bilan yer osti podsholigiga bag'ishlangan hisoblanadi; qonun homiyligidan tashqarisida qolib u har qanday kishi tomonidan jazosiz o'ldirilishi mumkin edi.

XII jadval qonunlari

Qadimgi Rimda plebeylarni patritsiylar bilan kurashi keskin va qonli bo'lib, uzoq davom etdi. Plebeylar Rimdag'i jamoa yerlaridan foydalanish huquqini olishga harakat qildilar. Eravv. V asr o'rtilarida plebeylar tazviqi ostida sud qarorlarini yozib borish uchun patritsiylar 10 kishi l'dan iborat komissiya tuzishga majbur bo'ldilar. Shu vaqtgacha Rimda mansab dor kishilar sud ishlarini ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladigan eskirib qolgan odatlarga asoslanar edilar. Shu bilan birga magistrat patritsiylar hech qayerda yozib qo'yilmaydigan va tekshirish mumkin bo'lmasan odatdag'i huquqqa tayanib, sudsarda suiste'molga yo'l qo'yar edilar.

Desemvirlar komissiyasi yozma qonunlarni ishlab chiqishga kirishdilar. Lekin uning a'zolari ish jarayoni o'zlarini olgan cheklammagan hokimiyyatni suiste'mol qila boshladilar. Bu plebeylarni noroziligidiga olib keldi va ular yana Muqaddas toqqa' chiqib ketdilar. Patritsiylar yon berishga majbur bo'ldilar. Qonun qabul qilinib, o'limga hukm qilingan har bir Rim fuqarosi xalq yig'iniga himoya so'rab, murojaat qilishi mumkin edi. Bir vaqtin o'zida yozma qonunlar e'lon qilindi. Ular XII mis taxtachalarda yozilib, hamma ko'rishi uchun Rim forumiga qo'yildi. "XII Jadval qonunlari" Rim jamiyati va huquqini keyingi taroqqiyotiga katta ta'sir qildi. Eski urug'chilik urf – odatlariiga asoslangan sud bekor bo'ldi, xususiy mulk, qulchilik va tengsizlikni mustahkamlaydigan yozma huquq yuzaga keldi. Xususiy mulkka har qanday daxl qilish qattiq jazolandı va hatto o'limga hukm qilindi.

"XII Jadval qonunlari" da patritsiy va plebeylarni huquqiy farqlari belgilab berildi. Plebeylar uchun qarz foizlari cheklandi. Patritsiylar esa, qonunlar matniga o'zlariga foydali bo'lgan bir necha qonunlarni jumladan, plebeylarni patritsiylar bilan nikohi ta'qigi, klientlar to'g'risidagi qonunlarni kiritdilar.

I Jadval.

1. Agar (kimdir) sud ajrimiga chaqirilsa, (chaqirilgan) borsin. Agar (u) bormasa, (kim chaqirgan bo'lsa) (o'z chaqiruvini) guvohlar bilan tasdiqlasın, keyin esa uni majburan olib borsinlar.

2. Agar (chaqirilgan) (bormaslik uchun) bahona qilsa, yoki yashirinishga urinsa, (kim uni chaqirgan bo'lsa) uni joniga qasd qilsin.

3. Agar (sud ajrimiga chaqirilgani uchun) uni kasalligi yoki keksaligi to'siq bo'lsa, (chaqirgan) unga yuk hayvonni bersin (jumentum). Agarda aravani istamasa, berish shart emas.

4. O'z xo'jaligi bilan kun kechiradiganga (sud ajrimiga), o'z xo'jaligi bo'lган kishi kafolatchi bo'lsin. O'z xo'jaligiga ega bo'lмаган fuqaroga, kim xohlasa, o'sha bo'lsin.

7. Agarda (da'volashayotgan tomonlar) kelishuvga kela olmasalar, (ular) kun yarmigacha tortishish uchun forumga yoki komisiumga kelishsin. Har ikki ishtirokchi tomonlar navbat bilan (o'z ishlarini) himoya qilsinlar.

8. Kun yarmidan keyin (magistrat) sud ajrimiga ishtirok etayotgan tomonning talabini tasdiqlasın.

9. Agar (sud ajrimida) ikki tomon ishtirok etayotgan bo'lsa, quyosh botishi sud ajrimi uchun oxirgi muddat bo'lsin.

II jadaval. I. Gay. Institutsiyalar. IV. 14: 1000 va undan ko'p ass da'volar bo'yicha sud garovi3 (500 ass miqdorida) undiriladi, oz summa-50 assga da'volar bo'yicha. XII jadval qonunlari bo'yicha shunday belgilangan. Agar tortishuv qandaydir odamning ozodligi to'g'risida borsa, hech bo'lmasa uni bahosi eng oliy bo'lsa, o'sha qonun bilan belgilangan ediki, ajrim kafolat to'g'risida borishi uchun (ozodligi faqatgina 50 assga teng bahslashilgan odam to'g'risida bo'lsa).

III jadval. 1. (Qarzdorga) (u) qarzni tan olganidan keyin yoki (unga qarshi) sud qaroridan keyin, 30 imtiyozli kun (qarzdorlarga berilsin).

2. (Ko'rsatilgan muddat tugashi bilan) (davogar) (qarzdor) joniga qasd qilsin. Uni (qarorni bajarish uchun) sudga olib borsin.

3. Agar (qarzdor) (ko'ngilli ravishda) sud qarorini bajarmasa va hech kim uni sud ajrimida javobgarlikdan ozod qilmasa, (da'vogar) uni o'z uyiga olib borib, unga kunda yoki agarda o'zi istasa, 15 funtdan kam yoki ko'p bo'lмаган kishan solsin.

4. (Qarzdor qamoqda bo'lган vaqtida) agar istasa, o'z hisobidan ovqatlansin. Agar u o'z qaramog'ida bo'lmasa, (kim uni qamoqda ushlab turgan bo'lsa) bir kunda 10 funt, agar xohlasa, ko'proq bersin.

5. Avl Gellyi. Attika kechalari. XX. I. 46: Shu muddat ichida qarzdor (qamoqda turgan vaqtida) u (da'vogar bilan) kelishuv huquqiga ega edi. Lekin agarda (tomonlar) kelisha olmasalar, shunda (bunday

qarzdorlar) qamoqda 60 kun qoladilar. Bu muddat davomida ularni uch marta ketma-ket bozor kunlari pretorga komisiumga keltiradilar va (shu bilan birga) ularda hukm qilingan pul miqdori e'lon qilinar edi. Uchinchi bozor kuni ular o'llim hukmiga berilar edi yoki chet elga, Tibr ortiga sotishga qabul qilinar edi.

6. Uchinchi bozor kuni qarzdorni chopib, bo'laklarga bo'lib tashlasinlar, agarda kam yoki ko'p chopsalar, ularga bu uchun (ayb) qo'ymasinlar.

7. Xoinga qarshi da'vo (o'z) kuchini abadiy saqlab qolsin.

IV jadval. I. (Sitseron.) Qonunlar to'g'risida. III. 8. 19: Favqulodda badbasharaligi bilan (ajralib turgan) go'dak, shunday yengillik bilan4 hayotdan mahrum qilinar edi.

2. Agar otasi uch marta o'g'lini sotsa, o'g'il otasini (hokimiyatidan) ozod bo'lsin.

3. Sitseron. Filippiklar. II. 28. 69: XII jadval qonunlari qaroridan (foydalanib), o'z xotiniga o'ziga tegishli narsalarni olishni buyurdi va (undan) kalitni tortib olib, (uni) quvib yubordi.

4. Avl Gellyi. Attika kechalari. III. 16. 12: Menga ma'lum (qachon) ayol... erini o'llimidan keyin o'n birinchi oyda tug'di, (bundan) ish paydo bo'ldi, go'yoki u eri o'lganidan keyin bolani paydo qildi, chunki detsemvirlar odam o'n birinchi oyda emas, o'ninchisi oyda tug'iladi deb yozdilar.

V Jadval. I. Gay. Institutsiyalari. I. 144-145: (Bizni) ajdodlar hat-to ulg'aygan ayollar o'zlariga xos bo'lgan yengil tabiatliklari bilan homiylik ostida bo'lishlari lozim... Bundan mustasno bo'lishlari mumkin, faqat vestalka ayollar, qaysiki qadimgi rimliklar ularni kohinlik unvonlari uchun homiylikdan ozod qildilar. XII jadval qonuni bo'yicha shunday qaror qabul qilingan.

2. Gay. Institutsiyalar. II. 47: Agnatlar (katta ota oilasini a'zolari, oila boshli'gi hokimiyati ostida turgan hamda uning ota-bobo bo'yicha qanday qarindoshi) homiyligi ostidagi ayloga tegishli bo'lgan res mancipi (ko'chmas mulk, qullar, yuk tortuvchi hayvon) muddati o'tgan deb hisoblanmaydi.

3. Agarda kimki o'lib qolgan taqdirda, o'zini uy mulki yoki (o'z hokimiyati ostidagi odamlarga) vasiylikka tegishli topshirig'i buzilmasin.

4. Agar kimda o'z hokimiyati ostida odamlar bo'lmasa (agar uni

to‘g‘ri merosxo‘rlari bo‘lmasa), merosi to‘g‘risida topshiriq qoldirmay vafot etsa, uni xo‘jaligini eng yaqin (uni) agnat olsin.

5. Agar (o‘lgan odamda) agnatlar bo‘lmasa, (undan keyin qolgan) xo‘jalikni (uning) qarindoshlari olsin.

6. Gay. Institutsiyalari. I. 155: XII jadval qonunlari bo‘yicha, vasiyat bo‘yicha vasiy belgilanmagan kishilarga, vasiy ularni agnatlari bo‘ladi.

7a. Agar odam aqldan ozib qolsa, uni o‘zi ustidan va uni xo‘jaligi ustidan hokimiyatni uni agnatlari yoki uning qarindoshlari olsin.

7b. Ul’pian I. I pr. D. XXVII. 10:XII jadval qonunlariga ko‘ra, isrofgarga tegishli mulkni boshqarish man qilingan.

Ul’pian. Lib. sing. regul. XII.2: XII jadval qonunlari aqldan ozgan va isrofgarga ularni mulkiga ta’qiq qo‘yilgan, ular agnatlari vasiyligida turadilar.

.8a. Ulpian. Lib. sing. regul. XL..I: XII jadval qonunlari bo‘yicha Rim fuqarosidan keyin, ozod qo‘yilgan qullardan qolgan meros, agar mulk egasining o‘z hokimiyati ostida odamlari bo‘lmasa (bevosita merosxo‘rlari bo‘lmasa), vasiyat qoldirmay vafot qilsa, patronga meros beriladi.

9b. Diokletian. I.26. s. II. 3: XII jadval qonuniga ko‘ra, vafot etganni qarzi bevosita (uning merosxo‘rlari o‘rtasida) (ular) olgan merosning hajmiga qarab bo‘linadi.

VI. Jadval. I. Agar kim o‘zini garovga qo‘yish yoki buyumni begonalashtirishga (5 guvoh va tarozibon ishtirokida) ahd tuzsa, bunda aytildigan so‘zlar buzilmasin.

2. Sitseron. Majburiyatlar to‘g‘risida. III. 16: XII jadval bo‘yicha ahdni (tuzishda) aytilganlarga yetarli guvohlik berilsa, o‘z so‘zidan tongan ikki baravar jarimaga mahkum.

3. Sitseron. Top. IV. 23: Yer ulushiga nisbatan egalikni eskirgani ikki yilga (belgilangan edi), boshqa barcha buyumlarga bir yil.

4. Gay. Institutsiyalari. I. 3. XII jadval qonunida aniqlangan edi, agar o‘zi ustidan erini (u bilan ilgaridan yashab turgani dalili bilan) hokimiyatini o‘rnatalishini istamagan ayol, har yili o‘z uyidan uch kecha chiqib ketishi lozim va shunday tarzda, erining bir yillik (unga) xo‘jayinligini uzadi.

1. 10 kishi - decem viri - o'n erkak.
2. Muqaddas toqqa - er. avv. 449-yil ikkinchi ketish.
3. Sud garovi - pontifiklar kassasiga
4. Yengillik XII jadval qonunlaridagi

Xрестоматия по истории древнего Рима. М., 1991. 25-29 сmp

Tayanch iboralar Dionisiy, plebeylar, patritsiylar, konsul, pretor, diktator, xalq yig'ini, xalq tribuni, volsklar, Serviliy, Klavdiy. VII jadval qonunlari, desemvirlar, qarzdor, Sitseron, agnat, vasiy, kvirit.

3-§. Rim respublikasining ijtimoiy-siyosiy hayoti

Tit Liviy Gannibal to'g'risida

Tit Liviy . Shaharni boshlanishidan Rim tarixi

Er. avv. III asr o'rtalarida G'arbiy O'rtayer dengizi havzasasi uchun ikki qudratli davlat - Karfagen va Rim o'rtaida kurash boshlandi. Bu Puni urushlari deb atalgan uch urushni keltirib chiqardi. Birinchi Puni urushi (er. avv. 264 yil), ikkinchisi (er. avv. 218-201 yillar). Ikkinchi Puni urushi o'z hajmi, keng qamrovi va tarixiy ahamiyati bilan qadimgi dunyoni eng katta urushlaridan biri edi.

Tit Liviy Karfagen qo'shini bosh qo'mondoni Gannibalga yorqin tavsif beradi, karfagenliklarni Alp orqali mashhur 33 kunlik o'tishi. Kanna (er. avv. 216 yil) yonidagi qadimgi dunyoning eng mashhur janglariidan birini batafsil tasvirlaydi. O'rtayer dengizi havzasida yuz yil davomida olib borilgan urushlar natijasida qudratli Karfagen yanchib tashlandi, Rim bu havzadagi eng kuchli davlatga aylandi.

XXI. I. Hikoya qiladilar, hatto Gamil'kar Afrika urushini tuga-tib, Ispaniyaga qo'shinni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rayotib, xudo-larga qurbanlik keltirayotgan paytda, uning to'qqiz yoshli o'g'li Gannibal bolalik erkaligi bilan otasiga uni o'zi bilan birga olishni so'ray boshlaydi: aytishlaricha, shunda, Gamil'kar unga qurbanlik keltiriladigan joyga yaqin kelishni va unga qo'lini qo'yib, qachonki yoshi yetishi bilan Rim xalqini dushmani bo'laman deb qasamyod qilishga buyruq beradi ...

3. Gasdrubal² ning vorisi kim bo'lishi to'g'risida hech qanday shak-shubha yo'q edi. Uning o'limidan keyin, jangchilar o'z tashab-

buslari bilan yosh Gannibalni bosh qo'mondon chodiriga olib borib, uni lashkarboshi deb e'lon qildilar; bu tanlov barcha ishtirokchilarni baland ovozda yoqlashlari bilan kutib olindi, keyinchalik xalq uni ma'qulladi.

4. ...Shunday qilib, Gannibal Ispaniyaga yuborildi. Birgina o'zini paydo bo'lishi bilan qo'shinni e'tiborini o'ziga qaratdi, keksa askarlarga o'zining eng yaxshi yillarda bo'lgan Gamil'kar go'yoki qaytib keldi; o'sha kuchli so'z, o'sha buyruqomuz qarash, o'sha ifoda, o'sha yuz belgilari! Lekin u tezda qo'shirlarni unga moyil qilgan otasiga o'xshash qilgan sifatlarni ko'pchiligidagi erishdi. Hali hech qachon bir kishini ko'ngli, har ikkala turli xil majburiyatlarga buyurish va bo'yсинishga bir tekisda majbur bo'lman edi; shuning uchun kim lashkarboshini yoki qo'shin uni qadrladimi, buni ajratib olish qiyin edi. Gasdrubal botirlik va qahramonlik talab qiladigan ishga qism boshlig'i qilib, chin ko'ngildan hech kimni tayinlamagan edi: lekin askarlar ham uning rahbarligi ostida yanada o'zlariga ishonadigan va yanada botirroq bo'lar edilar. U xavf-xatarga tashlanar ekan, u botir bo'lar, xavfga nisbatan ham hushyor edi. Hech qanday mehnat yo'q ediki, qaysiki u tani va yoki ruhi bilan horisa va issiqqa ham, sovuqqa ham bir tekis chidamli edi. Huzur qilish uchun emas, tabiat qancha talab qilsa; shuncha yeb- ichar edi. Vaqtini kun va tunga e'tibor bermay, uyg'oq bo'lish va uyquga ajratar edi; ishdan bo'sh qolgan soatlarni dam olishga ajratdi; shu bilan birga u yumshoq to'shakdan foydalanmadni va oson uyquga ketish uchun tinchlikni talab qilmadi, uni harbiy yopinchiqqa o'ranib, qorovulda yoki piketda (soqchilar qismi) turgan askarlar orasida yotganini tez-tez ko'rар edilar. Kiyimlari bilan u tengqurlaridan hech qanday farq qilmas edi; saqat qurollangani va otiga ko'ra uni tanish mumkin edi. Oqliqlar ichida ham, piyodalar orasida ham u boshqalarni ortda qoldirar edi; jangda birinchi oshiqar, jang oxirida dalani so'nggi bo'lib tashlab chiqar edi. Lekin bu yuqori xislatlar bilan u bir qatorda, dahshatli kamchiliklarga ham ega edi. Uning shafqatsizligi, uning makkorligi dong'i ketgan "puni" makkorligidan oshib ketar edi. U haqiqatni ham, ezgulikni ham bilmas edi, xudolardan qo'rqmas edi, qasamga riosa qilmas, ziyoratgohlarni hurmat qilmas edi. Bu yaxshi va yomon xislatlarga ega bo'lib, u Gasdrubal boshchiligidagi

uch yil xizmat davomida, hammasini nima unda buyuk lashkarboshi sifatini rivojlantirishi mumkin bo'lsa, barchasini jon-jahdi bilan bajardi va barchasi ustidan kuzatdi.

1. *Gamil'kar Barka - Karfagerning mushhur lashkarboshisi va diplomati, I- Puni urushi davrida Sitsilya mudofaasiga rahbarlik qilgan, er: avv. 225-yilda Ispaniyada iberlarga qarshi urushda halok bo'lgan*

2. *Gasdrubal – Gamil'karning kuyovi, karfagenlik lashkarboshi, Gamil'karning o'timidan keyin Ispaniyani bosib olishni davom ettirdi.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 218-219 сmp

Er. avv. II-I asrlarda Rimda xo'jalikni tashkil etilishi va qul mehnatidan foydalanish

Plutarx. Katon Senzorning hayot tasviri

Katonning obro'si nihoyatda oshdi, ko'plar uni rimlik Demosfen deb atadilar, ammo u o'zining hayoti bilan yana yuqori nomga va yana baland shon-sharafga ega bo'ldi. Chunki so'z san'ati barcha rimlik yoshlari uchun o'ziga tortadigan tuzoq edi, lekin bu odam ajdodlar namunasidan borib, o'z quli bilan mehnat qilishni davom ettirdi, oddiy ovqat, sovuq nonushta, arzon kiyim, oddiy uy bilan qanoatlandi, chunki bunday odam topilmas edi. Rim davlati kengayib va mustahkamlanib, endi ilgarigi axloqni pokligini saqlab qolmadi. Ajablanish lozimmi-rimliklar agarda Katondan hayratratlansalar, ba'zilarni azob-uqubat bukib tashlar, ba'zilarni kayf-safo qilish nozik qilib qo'ydi va birgina uni u va boshqalar yenga olmadilar. Katonning o'zi hech qachon 100 dinoriydan qimmat bo'limgan ko'ylakni kiyganini aytar edi. O'zining preturasi va konsulligi davrida o'z ishchilari ichadigan vinoni ichar edi, bozorda yemish bor-yo'g'i 30 assga xarid qilinar edi. Bir vaqt rangli Bobil gilamini meros olib, shu paytni o'zida uni sotdi, uning birorta ham qishloq uyi suvoq qilinmagan edi, biror marta ham u qulni bir ming besh yuz dinordan qimmat olmadi, chunki u unga noziklashgan go'zallar emas, ishlaydigan kuchli, ishlaydigan odamlar- otboqarlar va ho'kiz boqarlar kerak der edi. U g'alla ekish, mol boqish mumkin bo'lgan yer ulushlarini sotib olishni ma'qul ko'rар edi.

[Nutqlarda] u bir vaqtini o'zida yumshoq va dahshatli, mehribon va qo'rqinchli, hazilomuz va keskin bo'lishni bilar edi. Aniq va keskin

gapishtini bilar edi. Bir vaqt Rim xalqi bemahal non tarqatilishini talab qilgan paytda, Katon ham fuqarolarini bu niyatlaridan qaytarish maqsadida, o‘z nutqini shunday boshladi: “Kviritlar, qulog‘i bo‘limgan qorin bilan gaplashish og‘ir masala”. Doimo mansablarni egallashga urinayotganlarga u shunday der edi: Mumkin ular yo‘lni bilmaydilar, adashib qolishdan qo‘rqib, liktorlar bilan yurishga harakat qiladilar.

II. II. Трухина. История древнего Рима. М., 1996. 175-176 срп

Mark Portsiy Katon. Dehqonchilik

Mark Portsiy Katon (er. avv. 234-149-yillar) -taniqli davlat arbobi, notiq, “Boshlang‘ich” tarixiy asari va “Dehqonchilik” traktati muallifi, bu asarlar bizgacha to‘liq yetib kelgan. U Rim fuqarolari uchun eng faxrli kasb qishloq xo‘jaligi deb hisobladi. U “Dehqonchilik” traktatida markaziy Italiyaga xos bo‘lgan o‘rta kattalikdagi namunaviy villani tasvirini berdi, xo‘jayinni boyitadigan xo‘jalik yuritishning yangi vositalarini, maslahatlarni qullar va vilikni qanday ishlatishni ko‘rsatdi.

Qachonki u ko‘rdiki, pomestega qanday ishlov berilgan, qanday ishlar bajarilgan, qaysilar bajarilmagan, u keyingi kun vilikni bilan mashg‘ul bo‘lishi lozim. Agar u ishlarni ko‘rmasa va vilik qullarni qolganini, ular majburiyatini bajardilar deb gapirsa, qachon u bu va ko‘pgina sabablarni aytsa, uni ishlar va kunduzgi darslar hisobiga qaytar. Agar yomg‘irli ob-havo tursa, mana jalada qilinadigan ishlar: doliy2larni yuvish, ularni smola qilish, qo‘rg‘onni tartibga keltirish, g‘allani tashish, mol go‘ngini tashqariga chiqarish, go‘ng to‘dasini qilish, donni tozalash, arqonni yamash, yangilarini o‘rash; qullarga shu vaqtini o‘zida o‘z ko‘rpa va yoping‘ichlarini yamash bilan mashg‘ul bo‘lish lozim bo‘ladi. Bayramlarda eski kanallarni tozalash, jamaa yo‘llarini yotqizish, tikanli butalarni kesish, tomargani qazish, o‘tloqlarni o‘rish, supurgi kesish, tikanli o‘tlarni yulish, polbani yanchish, tozalik qilish...

Qachonki xo‘jayin to‘la osoyishtalik bilan hammasini bilib olgach,

u qolgan ishlarni bajarilishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozini: pul, mol, molga tayyorlangan yem-xashak, vino, moy hisob-kitobini chiqarishi; u nimani sotdi, nima undirildi, nima qolyapti, sotishga nima bor? Mustahkam ta'minotni mustahkam sifatida qabul qilishi kerak; boshqa hammasini ochiqqa olib kelish kerak. Yil uchun nima yetishmaydi, nima sotib olinadi: nima ortiqcha bor, uni sotish, pudrat bilan nima qilish kerak, nimani topshirish kerak. Xo'jayin qaysi ishlarni o'z kuchlari bilan qilishi mumkin, qaysilarini pudratga topshirish mumkinligiga qaror qilib, yozuv qoldirish lozim.

U mollarni ko'zdan kechirishi lozim; sotuvini amalga oshirishi; agar narxida bo'lsa, moyni sotish; vino, ortiqcha g'allani sotish, qarigan xachirlar, buzilgan mollar, buzilgan qo'ylar, jun, terilar, eski arava, temir metall, qari qulni, kasalmand qulni umuman hamma ortiqcha narsani sotishi kerak. Xo'jayin sotib olishi emas, sotishi yaxshi.

5. Mana vilikni majburiyati. U yaxshi tartib o'rnatishi, bayramlarga rioya qilishi zarur; begona narsani qo'liga olmasligi; o'zinikini nihoyatda himoya qilishi zarur. U qullarni bahslarini hal qiladi: agar kimdir ayb qilib qo'ysa, qilmishiga qarab aybdorni jazolaydi.

Qullarga yomon bo'lishi mumkin emas: ular sovqotmasliklari va och qolmasliklari kerak. Vilikda ular doimo ishda; u shunday qilib yomonlik va o'g'rilikdan yengilroq ushlab turadi. Agar vilik qullar o'zini yomon tutmasin deb istasa, qullar o'zlarini yomon tutmaydilar. Agar u bunga chidasa, xo'jayin uni jazosiz qoldirmasligi kerak. Ularni xizmati uchun u tashakkur bildiradi, qolganlarga o'zlarini to'g'ri tutishlarini istashlari uchun. Vilik ishsiz tentirab yurmasligi lozim; u doimo xushyor va hech qayerga tushlikka bormaydi. Qullar unda doimo ishda; u xo'jayin buyrug'ini bajarilishini kuzatib turadi. U o'zini xo'jayindan aqli deb hisoblasin. Xo'jayinni do'stlarini o'zini do'stlari deb hisoblaydi; qurbanlik keltirishni u faqat Kompitaliya'da, chorrahada yoki o'choqda amalga oshiradi. Xo'jayinning buyrug'isiz u hech kimga qarz bermaydi, xo'jayin berganni u talab qiladi, ekish uchun urug'likni, oziq-ovqat mahsulotlarini, polbani, vino va moyni hech kimga qarz bermaydi. Unga ikki-uch xo'jalik bor: qayerdaki u o'ziga kerakli bo'lgan narsani so'rashi, o'zi qarz berishi mumkin, lekin boshqa hech kim...

Agar u ishlaydigan bo'lsa, qullarni ongida nima borligini biladi va

ular ishga berilgan bo'ladilar. Agar u shunday qilsa, u ishsiz tentirashni istamaydi; u sog'lomroq bo'radi va yaxshiroq uxtaydi. U to'shakdan birinchi turib, oxirgi bo'lib to'shakka yotadi. Dastlab qo'rg'on berkmi, har kim o'rnidami, mollarga yemish berilganmi deb qaraydi...

1. *Vilik pomesti boshqaruvcisi.*

2. *Doliy vino uchun qovoqsimon katta xum*

3. *kompitaliya - diniy bayramlar:*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 227-229 сmp

Qullara ta'minoti. Qullarga payok (ulush)

Kim dalada ishlasa: qishda 4 modiy' bug'doy, yozda esa 4 1/2; vilikga, kalitdorga, nazoratchiga, ovcharga-3 modiyidan. Oyog'iga kunda urilgan bandilarga qishda-4 funt non; yozda tokzorni qazish paytida 5-uzum mevasi paydo bo'lishigacha. Shunda yana 4 funga qayt.

Qullarga vino. Uzumni yig'ishni tugallanishi bilan ular uch oy opoloski¹ ichsinlar; to'rtinchisi oyda ular bir kunda gemin'oladilar: beshinchi, oltinchi, yettinchi va sakkizinchi (oy) bir kunda sekstariy² yoki oyida 5 kongiy³, to'qqizinchi, o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkinchida kunda 3 gemin, yoki bir oyda amfora⁴ oladilar. Buning ustiga Saturnaliy⁵da va Kompitoliyda⁶ har bir kishiga 3,5 kongiyidan. Jami vino yiliga har bir kishiga yiliga 7 kvadrantal⁷, bandilarga ulami ishiga qarab qo'shimcha qo'shgin, ularni har biri bir yilda 10 kvadrantaldan ichsa, bu juda ham ko'p emas.

Qullarga issiq ovqat. Zaytun mevalar kuydirilgan, imkoniyat dara-jasida ko'proq tayyorla. Keyin eng kam moy olish mumkin bo'lgan yetilganlarini tayyorla. Ularni asra, qaysiki ular uzoq cho'zilsin. Qachon zaytun mevasi yeb bo'lingach, hallex⁸ va uksus ber. Moyni har oy har bir kishiga sekstariyidan ber; bir yilda har bir kishiga modiy tuz yetadi.

Qullarga kiyim. Tunika (ko'ylak) 3 1/2 funt⁹ og'irlikdag'i va yoping'ich bir yildan keyin. Hamma vaqt qachon tunika yoki yoping'ichni bergen vaqtingda, oldin eski kiyimni quroq ko'rpa uchun ol. Yaxshi yog'och boshmoqni bir yildan keyin berish kerak.

1. modiy - 8,75 ga teng o'lchov birligi.

2. opoloski - uzumdan tayyorlangan ichimlik.

3. *gemin* - 0,274 litr
4. *sekstariy* - 0,547 litr.
5. *kongiy*-3,283 litr.
6. *amfora* - 8 kongiyga teng.
7. *Saturnaliy-Ekinlar xudosi Saturn sharafiga Rim bayramlari. Rimliklar Saturn dehqonchilik, vinochilikni kiritdi deb hisoblaganlar. Saturnning oltin asri umumiy tenglik mo'l-ko'lchilik vaqt. Bu kunlar 17 dekabrdagi ishlar to'xtaydi. Qullar va xo'jayinlar bir stol atrofida to'planganlar*

8. *Komipoliy-diniy bayramlar*

9. *kvadrantal* - 1 *kvadrantal*-0,136 litrga teng.

10. *hallex* - *baliqni suvi*.

11. 3,5 funt -1 Rim funti- 327,45 grammga teng.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 229-230 cмр

Rimda agrar masala. Tiberiy va Gay Grakxlar tavsifi Plutark. Tiberiy Grakx

II... Bu yoshlar birdek dovyurak, tiyilgan, beg'araz, chiroyli so'zli, oljanob, o'z harakatlari va bosqaruv ishlarida to'la ochiqlikda har xilliklarni ko'rsatdilar, boshlanishda menimcha aytish ortiqchalik qilmaydi. Birinchidan, Tiberiyda yuz ifodasi, qarashlar va imoishoralar, yumshoq va bosiqlik, Gayda esa keskin va qizg'in edi, Tiberiy nutq bilan chiqqanda, bir joyda kamtarona turar edi, Gay esa rimliklarni ichida birinchi bo'lib notiqlik balandligida yurib turadigan, afinalik Kleon kabi yelkasidan togani yulib tashlaydigan bo'ldi... Yana, Gay dahshatli va ehtiros bilan yondirib gapirar edi, Tiberiyni nutqi yoqimli eshitilib, rahmdillikka yengil chaqirar edi. Nihoyat, Tiberiyda bo'g'in sof va qunt bilan ishlov berilgan edi, Gayda esa o'ziga tortadigan hashamatli edi, turmush tarzida ham ular shunday ajralib turar edilar: Tiberiy oddiy va kamtarin yashadi, Gay esa boshqalar bilan qiyoslaganda, sabr-qanoatli, qattiq intizomli ko'rinar edi, akasini yonida esa yengil tabiatli, isrofgar edi ...

Nutqlardagi o'xshamaslik axloqiy farqlarga mos edi: biri muruvvatli va yumshoq, boshqasi tikanli va shunday badjahl ediki, ko'pincha nutq so'zlash davomida o'z ustidan hokimiyatni yo'qotib, g'azabga minib, qichqirishni boshlab, haqoratlarni yog'dirib, oxir-oqibatda chalkashar va jim bo'lib qolar edi. Ofatdan qutilish uchun u zehni o'tkir qul Lisiniyning xizmatidan foydalandi. Musiqa o'qituvchisi ishlatadigan asbobni qo'liga olib, Lisiniy hamma vaqt, qachon

Gay so'zga chiqsa, uni orqasida turar edi va u ovozini ko'tarib, jahli chiqishga tayyor turganini ko'rib, tinch va mayin tovushni olar edi, unga javob qaytarib. Gay kuchi va hissiyoti va ovozini pasaytirar, o'ziga kelib tinchlanar edi.

III. Aka-ukalar o'rtasidagi farqlar ana shunday edi, raqib oldidagi jasoratga, qo'l ostidagilarga adolat, xizmatga ochlik, huzurlanishda mo'tadillik... ular bir qadar ham uzoqlashmadilar. Tiberiy to'qqiz yosh katta edi, shuning uchun ular davlat xizmatiga alohida-alohida chiqdilar, bu ularni kuchiga katta zarar keltirdi, chunki turli vaqtida ularni har biri o'z cho'qqisiga chiqdi, ular o'z kuchlarini birlashtira olmadilar, bunday birgalikdagi kuch ulkan va yengib bo'lmaydigan bo'lar edi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 230-231 срп

Tiberiy Grakx islohotlari

VII... Tiberiy mana bu sabablarga ko'ra o'z islohotlarini taklif qildi.

VIII. Qo'shni xalqlardan bosib olingan yerlarni rimliklar bir qismini sotdilar, bir qismini davlat mulkiga aylantirdilar va kam mulkli fuqarolarga uncha katta bo'Imagan haq evaziga foydalanishga tarqatdilar. Boylar ijara haqini oshirib, shu tarzda kambag'allarni yerlaridan siqib chiqarganlarida, hech kimga 500 yugerdan ortiq yerga ega bo'lish va foydalanishga ruxsat bermaydigan qonun chiqarilgan edi. Bu qonun ma'lum vaqtga qadar boylarni g'arazli intilishlariga chek qo'ydi va kambag'allarga o'zları ijaraga olgan yerlarda qolishga va birinchi yig'im vaqtida, ular egalik qilgan ulushlarini saqlab qolishga imkon berdi. Lekin tezda boylar soxta kishilar orqali ijarani o'zlariga ko'chirdilar, yerlarni katta qismini ochiq o'zlariga berkitdilar. Uchastkalardan siqib chiqarilgan kambag'allar harbiy xizmatni o'tashni xohlamatdilar, o'z bolalarini o'stira olmadilar, shunday qilib tezda Italiyada erkin fuqarolar soni qanday kamayib borayotgani, aksincha fuqarolardan tortib olingan yerlarni boylar uchun ishlov beradigan qul – varvarlarni soni o'sib borayotgani sezilarli ko'rindi ...

Uni ukasi Gay o'z yozuvlarida, Tiberiy Numansiyaga jo'nab ketayotganda, Etruriya orqali o'tib ketayotib, birgina chet elliklar va varvarlar yerga ishlov berib, poda boqilayotgan bo'm – bo'sh mam-

lakatni ko'rganini eslatadi. O'shanda unda o'sha siyosiy rejalar tug'iladi; qaysiki uni amalga oshirilishi aka – ukalarga qancha kulfat keltirdi. Lekin haqiqatdan unga kuchli shuhratparastlik intilishlarini, qat'iyatni eng avvalo Rim xalqini o'zi davlat yerlarini boylardan tortib olib, ularni yo'qsillarga tarqatish uchun, Tiberiyni portiklardagi, devorlardagi, yodgorliklardagi chaqiriqlar uyg'otdi.

IX. ... Shu bilan birga o'sha kattaadolatsiz va ochko'zlikka qarshi qaratilgan qonunni o'zi yumshoqlik va mo'tadilligi bilan ajralib turar edi, qonunlarga bo'y sunmagani uchun odamlarni sudga berish kerak edi va noqonuniy bosib olingan mulkdan jarima solish bilan mahrum qilish lozim edi, Tiberiy qonuni kambag'al fuqarolar soydasiga to'lov sharti bilan faqatgina noqonuniy mulkdan voz kechishni buyurar edi. Bu islohot mo'tadil bo'lishiga qaramasdan, xalq undan qoniqishga va o'tmishni unitish, kelajakda o'ziniadolatsizliklardan saqlash uchungina tayyor edi. Lekin boylar va yirik mulkdorlar g'arazli mansaftalaridan kelib chiqib, qonunchini o'ziga qarshi qat'iy turib, g'azablanish bilan qonunga qarshi yopirildilar ... Ammo bu bilan ular hech nimaga erishmadilar. Tiberiy ezgu va adolatli ishni shunday chiroyli so'zlash bilan himoya qildiki, yomonni ham foydali ko'rinishda ko'rsatishi mumkin edi. Qachonki uning tribunasi atrofida to'plangan xalq oldida yo'qsillar himoyasi uchun so'zlaganda, dushmanlar uchun u qo'r qinchli va yengilmas ko'rindi. Italiyada yovvoyi hayvonlar o'zlarini yashirinishi mumkin bo'lган makon va uyalariga ega – dedi u. Italiya uchun urushayotgan va o'layotgan odamlar esa, havo va yorug'likdan boshqa hech vaqoga ega emas, uyidan mahrum bo'lib, xotin va bolalari bilan ko'chmarchiga o'xshab, har yerda daydib yuradilar. Lashkarboshilar jang maydonlarida dushmanlardan sog'ona va ibodatxonalarini himoya qilishga chaqirib, askarlarni aldaydilar. Axir ko'pgina rimliklarda otasini mehrobi ham, ajdodlarni sog'onalarini ham yo'q, ular begona hashamat, begona boylik uchun jang qiladilar va o'ladilar. Ularni dunyoni egasi deb atadilar, lekin ularda bir parcha yer ham yo'q.

X. Mana shunday to'lqinlanib, haqiqiy alanga bilan aytilib, xalq olqishlab qabul qilayotgan so'zlarga raqiblardan birortasi ham e'tiroz bildira olmadи. Lekin, munozaralardan voz kechib, boylar tribunlardan biri, o'zini kamtarona hayoti va qat'iy axloqi bilan ma'lum bo'lган yosh

kishi Mark Oktaviyga murojaat qildilar. Oktaviy Tiberiyning o'rtog'i va do'sti edi va boshida unga hurmat yuzasidan kurashdan bosh tortdi. Lekin keyin ko'pgina obro'li kishilar tomonidan qat'iy iltimoslar tazyiqi ostida, u zo'ravonlikka yon berib, Tiberiyga qarshi chiqdi va qonunni rad qildi. Tribunlar kollegiyasida doimo qarshi ovoz beradiganni fikri hal qiluvchi bo'ladi. qolgan hammani roziligi hech qanday kuchga ega emas. Omadsizlikdan jahli chiqqan Tiberiy o'zini mo'tadil loyihasini qaytarib oldi va xalq uchun qulay, jafokorlar uchun qattiq bo'lgan boshqasini kiritdi; yangi qonun ular eski qonunlarga zid ravishda egalik qilgan yerlarini tezda bo'shatib berishni buyurdi. Bu har kuni Tiberiy bilan Oktaviy o'rtasida trubinada, har kuni yangidan boshlanayotgan kurashga olib keldi, va lekin keskinlashayotgan kurashning eng qizig'ida ham ular bir-birlariga biror-bir keskin so'z aytmadilar; tug'ma halollik va yaxshi tarbiya aqllarni jilovlab turadi, ko'rinish turadiki, nafaqat vakx organlarida va yana shuhratparastlik va g'azab toshganda. Tiberiy ko'rdiki, yangi qonun katta davlat yerlariga ega bo'lgan Oktaviyni shaxsiy manfaatlariiga tegishi mumkin emas. u o'z raqibiga munozaradan voz kechishni iltimos qilib murojaat qildi va shuningdek uni yerlarini qiymatini o'zini uncha katta bo'limgan mablag'laridan qoplashga tayyor ekanini bildirdi. Oktaviy bu taklifga ko'nmadи.

XI... Qachonki Xalq yig'ini kuni kelganda, Tiberiy xalqni ovoz berishga chaqirdi, barcha saylov qutilarini boylar o'g'irlagani bilinib qoldi, bu hodisa katta sarosimaga olib keldi... Va Tiberiy boshqa usul bilan o'z qonunini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lmay, nomunosib va noqonuniy usulda murojaat qiladi, aynan Oktaviyni hokimiyatdan chetlatishni. Biroq, u ko'ndirishdan boshladи: uni qo'liga do'stona tegib, u Oktaviydan xalqning adolatli talablariga yon berish va qondirishni so'radi, qaysiki o'zining buyuk mehnatlari va boshdan o'tkazgan xavflari uchun shunday kichik mukofot bilan qoniqadi. Lekin Oktaviy, rad javobini berdi va shunda Tiberiy bir xil hokimiyatga ega har ikki tribun muhim masalalarda qarashlarda kelisha olmasa, bu ish qurolli kurashsiz hal bo'lmaydi va qiyinchilikning yagona yo'li, ulardan biri hokimiyatdan mahrum qilinishi kerak deb aytdi; mayli Oktaviy birinchi bo'lib uni Tiberiyni almashtirishni ovozga qo'ysin va u shu soatdayoq hayotga xususiy kishi bo'lib qaytadi, agar xalq

shuni xohlasa. Oktaviy bu taklifni ham qaytardi, shundan so'ng Tiberiy bunday holda, agar u o'ylab ko'rib qarorini o'zgartirmasa, Oktaviyni almashtirish to'g'risidagi masalani ovozga qo'yishini aytdi va shundan keyin yig'ilishni tarqatdi.

XII. Keyingi kun xalq to'planishi bilan, Tiberiy tribunaga ko'tarildi va yana Oktaviyni ishontirishga urindi, lekin u qat'iy qolaverdi. Shunda Tiberiy Oktaviyni tribunatdan chetlatish to'g'risidagi qarorni taklif qildi va shu yerdayoq bu masalani ovozga qo'ydi. Trib Rimda 35 ta edi, ulardan 17 tasi Oktaviyga qarshi ovoz berdilar, agar ularga hech bo'lmaganda, yana bir trib qo'shilganda edi, Oktaviyga xususiy hayotga qaytishga to'g'ri kelar edi. Shunda Tiberiy ovoz berishni to'xtatishga buyruq berdi va Oktaviyga murojaat qilib, xalq oldida uni o'pdi va o'zini sharmanda qilishga yo'l qo'ymasligini so'rab, uzoq yolvordi, uni Tiberiyni qattiq va eng oxirgi choralar ko'rishga majbur qilmaslikni so'radi. Aytishlaricha, Oktaviy bu iltimoslarni o'jarlik va qat'iyatni bildirmay eshitdi; uni ko'zлari yoshga to'ldi va uzoq jum bo'ldi; lekin qachonki uni nigohi, to'da bo'lib turgan boylar va mulkdorlarga tushganda, u ko'rinishda nyalib va ularni oldida sharmanda bo'lishdan qo'rilib, barchasiga oxirigacha chidashga qaror qildi va Tiberiy u bilan nima istasa, shuni qilsin deb aytdi. Shunday qilib, qaror qabul qilindi va Tiberiy o'zining ozod qo'yilgan qullaridan biriga2 Oktaviyni kuch bilan tribunadan olib ketishni buyurdi...

'XV. Shunday qilib, u bu safar ham yig'ilishni tarqatdi; lekin uni Oktaviyga nisbatan qilgan harakatiga nafaqat zodagonlar va xalq ham haddan tashqari zo'r berishni ko'rinishini ko'rdi deb his qildi, u xalqqa so'z bilan murojaat qildi, undan uni so'zlarini ishonchli va mazmunli ekanligi tushunchasini beradigan ba'zi isbotlarni keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Xalq tribuni, - dedi Tiberiy, - muqaddas va daxlsiz shaxs, chunki uning faoliyati xalqqa va uning manfaatlarini himoya qilishga bag'ishlangan. Lekin agarda tribun xalqdan yuz o'girib, unga zarar keltirsa, uni hokimiyatini kamitsa, uni ovoz berishiga to'sqinlik qilsa, shunda u o'z majburiyatini bajarmagani uchun o'z vazifasidan o'zini mahrum qiladi. Mayli u Kapitoliyni buzib tashlasin edi, Arsenalni yoqib yuborsin edi va bunday tribunga oxir-oqibat chidash mumkin edi. Shunday qilib, u yomon tribun bo'lishi mumkin

edi; kim agar xalq hokimiyatini inkor qilsa, u tribun emas. Chidab bo‘ladimi, tribun hatto konsulni quvg‘in qilishi mumkin, xalq esa tribunni hokimiyatdan mahrum qilishi huquqiga ega emas, qaysiki u xalqqa zarar qilib, uni suiste’mol qiladi. Axir xalq konsul va tribunni saylaydi... Shunday qilib, xalqqa qarshi gunoh qilgan tribunni, xalqni o‘zidan olingen o‘z daxlsizligini saqlashi mumkin emas, chunki u o‘zini ko‘targan o‘sha kuchni buzadi. Agar tribun uchun ko‘pchilik triblar o‘z ovozlarini bergen bo‘lsalar, u tribunatni adolatli oladi demakdir; undan tribunatni tortib olish yanada adolatli bo‘lmaydimi, agar unga qarshi barcha triblar ovoz bergen bo‘lsa... Va xalq tribun hokimiyatini bir kishidan boshqasiga o‘tkazish huquqiga ega... Bu hokimiyat daxlsiz va almashmaydigan hisoblanishi mumkin emas: axir unga ega bo‘lgan odamlar ko‘p hollarda undan voz kechadilar.

XVIII. Keyin Mutsiy yana ovozlarni triblar bo‘yicha yig‘ishga kirishdi. Lekin hech nima qila olmadi, raqiblar oldinga surilib, tartibsiz aralashib, birovlarini siqib va siqilib g‘oyatda tartibsizlikni keltirib chiqardilar. Bu vaqtida senator Fulviy Flakk shovqin-suronda eshitilishiga qaramay, ko‘rinadigan joyda turib, qo‘li bilan ishora qilib, bu bilan Tiberiyga hali bir nima xabar qilmoqchi ekanligini ko‘rsatdi. Tiberiy olomonga tarqalishni buyurdi va Flakk qiyinchilik bilan turib, Tiberiyga yaqin kelib, senat majlisida boylar o‘z tomonlariga konsulni og‘dirib olishga muvaffaqiyatsiz uringanlaridan so‘ng, uni Tiberiy ni o‘ldirishga o‘zaro til biriktirganlari va buning uchun katta miqdorda tayyor qurollangan qullar, do‘satlari borligini xabar qildi.

XIX. Tiberiy bu fitna to‘g‘risida o‘ziga yaqin turganlarga xabar berishi bilan, ular shu ondayoq togalarini bog‘ladilar, xodalarni sindirib, ularni yordamida liktorlar olomonni siqib qo‘ydilar va bu sindirilgan xodalar bilan qurollanib, hujum bo‘lgan taqdirda himoyaga tayyorlana boshladilar. Orqa qatorda odamlar bo‘layotgan narsalarga hayron bo‘lib qaradilar va nima gap deb so‘radilar. Shunda Tiberiy, uni ovozini eshita olmas edilar, unga xavf tahdid solayotganini tushuntirish maqsadida qo‘li bilan boshini ushladi. Lekin dushmanlar bu ishorani ko‘rib, shu ondayoq senatga yugurib, go‘yoki Tiberiy taxt talab qilmoqda deb xabar qildilar; boshga tegizish bunga haqiqiy belgi deb aytdilar. Hamma sarosimaga tushib qoldi va Nazika konsuldan

Rimni qutqarishni, tiranni o'ldirishni talab qila boshladi. Lekin konsul yumshoq javob berdi, u zo'ravonlikni boshlab bermaydi, fuqarolarni birortasini ham sudsiz o'limga bermaydi, agar xalq Tiberiyni e'tiqodiga yon berib, yoki uni tomonidan zo'ravonlik bilan qandaydir qonunga qarshi qaror qabul qilsa, u konsul bunday qarorni tasdiqlamas edi. Shunda Nazika o'rnidan sakrab turib shunday dedi: "Hokimiyatning oliv vakili respublikaga xoinlik qilayotgani uchun hammaga taklif qilaman, kim menga qonunchilikni saqlab qolishga yordam bermoqchi bo'lsa, meni orqamdan ergashsin". Shu so'zlar bilan Nazika kiyimini chetini ko'tarib, u bilan boshini yopib, Kapitoliyga yugurdi. Uning orqasidan boshqalar shoshilib, qo'llarini toga bilan o'rav, uchraganlarni turtib o'tdilar; bunday zodagon odamlarga barcha yo'lni bo'shatib berdi va bir-birini turtib tarqalib keta boshladi.

Senatorlarni o'rav olgan odamlar, uydan olib kelgan tayoqlar bilan, senatorlarni o'zi olomon sindirgan o'rindiqlarni qoldiqlari va oyoqlari bilan qurollandilar va ularni barchasi uni himoya qilganlarga zarba berib, Tiberiya tomon bostirib bordilar; bu yerda kaltaklash va yoppasiga qochish boshlandi. Tiberiy ham yugurdi, lekin kimdir uni kiyimiga yopishdi; u esa togani tashlab, birgina xitonda yugurdi, lekin qoqlilib ketib, ilgari yiqilgan odamlar ustiga yiqildi, qachon u ko'tarilganda, tribunlardan biri Publiy Saturey hammani ko'zi oldida, birinchi bo'lib o'rindiqni oyog'i bilan boshiga urdi. Ikkinci zarbani Lyisiy Ruf o'ziga yozdi, qandaydir ajoyib qahramonlikdek bu bilan maqtandi. Hammasi bo'lib tayoq va toshlar bilan uch yuzdan ortiq kishi o'ldirildi, temir bilan esa – bitta ham o'ldirilmadi.

XXI. Baribir xalq Tiberiyni o'limidan hali qayg'uda edi, ko'rinish turardiki, u o'ch olish uchun faqat qulay paytni kutayotgan edi.

1. Trib - hududiy okrug.

2. Qullaridan biriga – u doimo bu odamlardan liktor sifatida foydalananar edi.
Хрестоматия по истории древнего мира. V, 1991. 231-236 срп

Gay Grakx islohotlari Plutarx . Gay Grakx

V. Gay kiritgan qonunlardan xalqning foydasiga va senatni hokimiyatini zaiflashtirish uchun yer to'g'risidagi bir qonun, eng kam-

bag' al fuqarolarni yer bilan ta'minlashga qaratilgan edi, boshqasi harbiy, buyurdiki birinchidan, askarlarni, ularni ish haqini kamaytirmasdan davlat hisobidan kiyim bilan ta'minlash, ikkinchidan o'n yetti yoshga yetmagan fuqarolarni askarlikka kiritmaslik, uchinchi qonun ittifoqchilarga tegishli edi va barcha italiyaliklarga Rim fuqarolari bilan bir qatorda ovoz huquqini berdi, to'rtinchi, non (qonuni) kambag' al fuqarolar uchun non narxini pasaytirdi va nihoyat beshinchi qonun, sud ishlariga tegishli bo'lib, senatorlarni kuchini katta qismidan mahrum qildi. Senatorlar barcha sud ishlarini olib borib, xalq va suvoriyatlarni qo'rquvda tutgan edilar. Gay esa senator-sudyalarga, ular uch yuzta edi, yana shuncha suvoriyatlarni qo'shdi va shu tarzda olti yuz sudyadan iborat umumiy sudni ta'sis qildi. Aytishlaricha, qonunni o'tkazishga Gay alohida ahamiyat berdi: ungacha barcha notiqlar yuzlarini senatga va komisiya deb ataladiganga qaratib gapirar edilar, Gay esa o'shanda birinchi bo'lib senatga orqasini qilib, yuzini maydonga qaratib gapira boshladи, shu vaqtan, hamma shunday qildi. Gay faqat oddiy bir burilish bilan muhim ishni amalga oshirdi: u shu bilan aristokratik tuzumga demokratik tus berdi, notiqlarni senatga qarab emas, xalqqa qarab murojaat qilishga majbur qildi.

VI. Keyin u tomonidan koloniylar chiqarish, yo'llar qurilishi va g'alla uchun jamoa omborlari qurish to'g'risidagi qarorlar ishlab chiqildi. Bu ishlarni barchasiga rahbarlik qilish va boshqarishga u o'zi kirishdi, shuningdek qancha muhim tashvishlar ichida tetiklikni yo'qotmadи, qanday tezlik va mehnatga qobililik bilan har qanday ishni epladi, bu uni yagona tashvishiday eplaganidan har kim hayratga tushar edi. Unga nafrat va yoki qo'rquv bilan qaragan odamlar ham, uni uddaburonligi va aqliga qoyil qolar edilar. Xalq esa, uni pudratchilar, hunarmandlar, elchilar, magistratlar, askar va olimlar olomoni qurshovida ko'rib, qachon u har biri bilan do'stona gaplashib, o'zini bor tavozesi, shu bilan birga o'z shaxsiy g'ururini saqlab qolishidan hayratga tushar edi; u har kim bilan gaplashishni bilar edi va bu bilan. u kim unga xavfli, doimo qurol, zo'ravonlikka qobil kishi deb, u to'g'risida gapirganlar qanday tuhmat qilganlarini ko'rsatdi. Tribunadan so'zlanadigan nutqlardan ko'ra, odamlar bilan muloqotda

va amaliy ishlarda u yana kuchliroq xalq yo'lboshchisi edi.

XIV. Shunda senatorlar kuriyaga qaytdilar va qaror qilib, konsulga shaharni har qanday choralar bilan qutqarish va tiranlarni qirib tashlashga topshiriq berdilar. Topshiriqni qabul qilib, Opimiy senatorlarga qurollanishni buyurdi va suvoriylargaga keyingi kuni kun chiqishi bilan, ularni har biri o'zi bilan ikki qurolli qullarni olib kelishni xabar qildi. Fulviy o'z navbatida himoyaga tayyorlandi va o'z atrofida ko'p sonli olomonni to'pladi, Gay maydondan ketayotib, o'z otasini haykali oldida to'xtadi, uzoq va jim unga qaradi va achchiq ko'z yoshi to'kib, us tortib ketdi. Uni ko'rgan ko'plar uning g'ami bilan chuqur ta'sirlandilar va shunday odamni tashlab ketganlari va unga xiyonat qilganlari uchun o'zlarini koyiy boshladilar, keyin Gayni ortidan unj uyigacha borib, uning eshigi oldida tunda qo'riqchilikka turdilar ...

XV. Gay qurollanishni istamadi va odatda qilganidek, forumga bora turib, belida kichik xanjar bilan togani kiydi. U chiqayotgan vaqtda, xotini eshikda uning oldida tiz cho'kdi, bir qo'li bilan uni, boshqasi bilan kichkina o'g'lini quchoqlab: "Avvalgidek men seni Gay tribunaga kuzatayotganim yo'q, – dedi u, – sharafti yurishga emas, qayerda sen boshqalar bilan bir qatorda halok bo'lising mumkin edi va menga yupanch uchun faxrli ta'ziya qoldirishing mumkin edi; Tiberiyni qotillari qo'liga o'zingni topshirayapsan, o'zingni haqligingni his qilib, birovga qo'l ko'tarishdan ko'ra, hammasiga chidashga tayyorsan. Lekin seni o'liming seni vataningga hech qanday foyda keltirmaydi. Yovuzlik baland keldi va temir va zo'ravonlik bilan sud qilmoqda. Agar sening akang Numansiya dalalarida halok bo'lganida edi, dushmanlar tinchlik shartnomasini tuzib, bizga uni jasadini berar edilar. Menga esa, qaysidir daryo yoki dengizga ular yashirgan seni jasadingni berish uchun toat- ibodat qilish bitilgan bo'lsa kerak. Tiberiyni o'limidan keyin qonunlar va xudolarni o'zlariga tayanib bo'ladimi?" Lisiniya ko'z yoshlari bilan shunday gapirdi, Gay uni qo'lini chetga olib, do'stlari hamrohligida jimgina chiqdi. Uni kiyimini chetidan ushlab qolishga urinib, Lisiniya yerga yiqildi, uzoq vaqt yig'isini yutib jim yotdi, xushsiz yotgan uni qullar ko'tardilar va akasi Krassga olib bordilar.

XVI. Hech kim Gay jang qilganini ko'rmadi. U chuqur ta'sirlanib, Dianal ibodatxonasiga ketdi. U o'zini o'ldirmoqchi bo'lganda, uning sodiq do'stlari Pomponiy va Lisiniy bunga xalaqit berdilar, qaysiki uni qo'lidan qilichni tortib olib qochishga ko'ndirdilar. Shunda aytishlaricha, Gay tiz cho'kib, ma'budaga qo'lini cho'zib, Rim xalqi yaxshilikni bilmagani va xoinligi uchun abadiy qullik bilan jazolashini undan yolvorib so'radi, chunki xalq jazolanishdan ozod bo'lgani bilan, ochiqdan – ochiq unga xiyonat qildi.

XVII. Dushmanlar qochib ketayotgan Gayni taqib qildilar, unga yog'och ko'prikda yetib oldilar, o'sha ikki do'st uni qochishga majbur qilib, o'zлari dushmanga yuz o'girib, ular bilan jangga kirishdilar, ularni ko'prik oldida ikkalasi ham halok bo'lib, qulaganlaricha tutib turdilar. Gayning Filokrat ismli quli u bilan birga qochdi, yo'lda ularga uchragan odamlar qochoqlarni qandaydir musobaqada bo'lgani kabi faqat dalda berdilar, lekin unga hech nima bilan yordam berishga urinmadilar va hatto dushmanlar unga yetib olayotganini ko'rib, Gay juda iltimos qilib so'rasada, ulardan hech kim Gayga ot bermadi. Nihoyat, Gay Furiya²ga bag'ishlangan uncha katta bo'lmagan daraxtzorga qochib kirdi va u yerda sodiq quli Filokrat qo'lidan ko'ngilli ravishda o'limni qabul qildi, u xo'jayinini o'ldirgach, o'zini hayotdan mahrum qildi. Lekin boshqalarni hikoya qilishicha, go'yoki ular hali hayotliklarida dushman qo'liga tushadilar, shunda Filokrat xo'jayinini shunday mahkam quchoqlaydiki, hujum qilganlardan hech kim uni qulini o'ldirmasdan, Gayni o'ldira olmaydi. Yana hikoya qilishlaricha, qandaydir odam Gayni boshini nayzaga ildirib, ko'tarib borayotganda, Opimiyni og'aynisi, qandaydir Septimuley hali jang boshlanguncha, e'lon qilingan, kim agarda Gay va Ful'viyning boshini olib kelsa, ularni o'girligiga teng oltin olishi to'g'risidagi konsulning va'dasini eslab, uni tortib oldi. Gayning boshi nayza uchida Opimiya olib kelindi. Taroziga qo'yilib, u 17 1/2 funtg'a yetdi, Septimuley bu yerda ham yolg'onchilik qildi, boshdan miyani chiqarib, unga qo'rg'oshinni qo'ydi. Lekin Ful'viyni boshini olib kelgan odamlar (ular oddiy xalqdan edilar) hech nima olmadilar.

Gay va Ful'viyning jasadlari boshqa murdalar bilan – o'ldirilganlar uch mingtagacha yetdi- daryoga tashlab yuborildi; ularning mulklari

davlat xazinasi foydasiga musodara qilindi; ularning xotinlariga motam rasim-rusumini o'tkazish ta'qiqlandi, buning istiga Lisiniyadan sepini tortib oldilar....

XVIII. Xalq esa, bu voqealar yuz bergan vaqtida tahqirlanib, bostirilgan edi, Grakxlar o'limi to g'risida u qanday chuqur motam tutdi va ular to g'risidagi xotira qanday qimmatli ekanini tezda vaqt ko'rsatdi. Shaharning eng yaxshi qismlaridan birida, aka – ukalarga haykallar qo'yildi, ular halok bo'lgan joy ziyratgohga aylandi, u yerda xalq yil vaqtlariga qarab birinchi mevalarni olib kelib, ularni xotirasini esga oldi, ko'plar ularga qurbanlik keltirdilar, xudo ibodatxonasiga kelgandek yuz tuban yiqildilar.

1.Diana - yorug'lik va hayot ma'budasi.

2.Furiya - qasos olish ma'budasi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 236-238 срп

Tiberiyning o'g'li G. Semproniy qonuni bo'yicha yer ulushlarini Rim fuqarolariga xususiy egalik qilish to g'risida

1. P.Mutsiy va L.Kalpurniylar (er.avv 136-y) konsulligi davrida plebsga Tiberiyning o'g'li G.Semproniy taklif qilgan. Rim xalqini jamoa yeri.

2. Tiberiyni o'g'li G.Semproniy qonuni bo'yicha berilgan yer ulushlariga Rim fuqarolarini xususiy mulkchilik huquqlari to g'risida.

Aytilgan yer ulushi va qo'rg'oni oldi – sottisi boshqa xususiy yer ulushi va qo'rg'onlar oldi – sottisi kabi bo'lsin. Agarda kim senzor bo'lsa, aytilgan yer ulushi, qo'rg'on ushbu qonun bo'yicha xususiy mulk qilinsin. Boshqa xususiy yer va qo'rg'onlar kabi senzga kiritilsin. Senzor ko'rsatilgan yer ulushi va qo'rg'oni kimga tegishli bo'lsa, boshqa xususiy yer ulushlari kimga tegishli bo'lsa, o'shang a buyruq bersin (xususiy egalik sifatida).

7. Bu qonun yoki plebistsit bo'yicha yer ulushi yoki qo'rg'on kimga tegishli bo'lsa, ularga o'z mulki sifatida egalik qilib, ko'rsatilgan yer ulushi va qo'rg'onidan daromad olsin. Hamda bu takliflarga nisbatan hech kim o'z vakolati kuchi bilan senatga o'z taklifi bilan qonun yoki plebistsitga bu yer ulushi va qo'rg'onga egalik qiladiganga qarshi taklif bermaydi.

Hech kim undan mulkini uning irodasiga qarshi, uning o'limidan keyin, uni merosxo'rлari irodasiga qarshi, hech kim harakat qilmaydi.

Tiberiyning o'g'li, G. Semproniy yo'llar o'tkazish vaqtida qonuni bo'yicha berilgan yer ulushlari to'g'risida

Italiyada bo'lgan Rim xalqining aytilgan jamoa dalasidan yer ulushlariga S.P.Mutsiy va L.Kalpurniy konsulligi davrida aynan o'sha yer ulushlari triumvirlarning taqsimlashi bo'yicha va yer ulushlariga egalik qilish bo'yicha biriktirdilar. Italiyada yashab turgan qishloq aholisi yo'llarni ijadorlariga yoki yo'llarni ijara qo'shishga oluvchilarga, ko'rsatilgan kishilarga o'zini mulki sifatida daromad olsin, ega bo'lsin, agarda ko'rsatilgan mulkdor boshqa kishiga yer ulushi va qo'rg'onini sotmasa, yon bermasa, plebsga Tiberiy o'g'li G.Semproniy plebey tribuni tomonidan qonun yoki plebitsitga muvofiq bo'lishi mumkin bo'lmagan ko'rib chiqilgan yoki aniqlangan dala bundan mustasno, hamda bu qonun asosida sotish, berish yoki qaytarish mumkin.

Agar yer ulushi yoki qo'rg'on senat qarori bo'yicha, kimga egalik qilishga berkitilgan, berilgan yoki qoldirilgan qishloq aholisi yo'llarni ijarchilari yoki yo'llarni ijara qo'shishga oluvchilar tarkibiga kirishi lozim yoki majbur, bu qonun asosida aytilgan yer ulushlari yoki qo'rg'on xususiy mulk bo'lsin deb talab qilmasin va kim senzor bo'lsa, belgilangan yer ulushi senzorga kiritilsin, yoki belgilangan yer ulushi hozirgidan mavjud bo'lmagan boshqa asoslarda berilsin.

IV. Bu qonunga ko'ra xususiy mulkga o'tadigan jamoa yer ulushlari hajmi to'g'risida

P.Mutsiy va L.Kalpurniy konsulligida Italiya yerida bo'lgan Rim xalqining jamoa yeriga nisbatan G.Semproniy qonuni yoki plebitsit bo'yicha plebsga taklif qilgan daladan mustasno, ko'rib chiqilgan yoki aniqlangan, qaysiki u bo'linishi mumkin emas, hamda eski mulk egasi qonun yoki plebitsitga ko'ra, bir kishiga ruxsat berilgan yerdan katta bo'lmagan yer bundan mustasno, ko'rsatilgan jamoa yeri u yoki boshqa eski yer egasi, qachonki bu qonun taklif qilinganda: bu dalada 30 yugerdan ko'p bo'lmagan yer ulushiga egalik qilishga va ishlov berishga ega bo'ladi, bu jamoa dalasi xususiy mulk bo'lsin.

V. Birgalikda molni o'tlatishga belgilangan dalalardan foydalaniш to'g'risida

Molni birgalikda o'tlatishga ajratilgan dalada, kim uy hayvonini 10 boshdan ko'p bo'lmagan miqdorda, shuningdek ulardan tug'ilganidan

bir yilga yetmagan, kam bo'Imagan va agarda u yerda u o'tlatsa, mayda uy hayvonini bo'lmaydi. Bu uy hayvonini o'tlatgani uchun xalqqa va soliqchiga hech qanday soliq yoki to'lov berishga majbur emas, hech kimga shu bilan bog'langan sudga hech qanday qoniqtirish va pul berilmas.

VI. Rim fuqarolarini sud kafolatlari to'g'risida

IX. Koloniyalar barpo qilish uchun triumvirlarga o'z yerlari berilgan Rim fuqarolari va ittifoqchilarining mulkiy huquqlarini sud kafolatlari to'g'risida

18. Triumvir, Rim xalqini sobiq jamoa yerlari hisobidan yer ulushlari tarkibidan yer ulushi va qo'rg'onlariga nishbatan qaytardi, biriktirdi.

X. Rim xalqining jamoa yeri to'g'risida

20. Yuqorida yozilgan yer ulushida bu qonun qabul qilinganidan keyin, ilgari jamoa foydalanishiga berilgan yoki ommaviy ijaraga berilgan yerdan tashqari, Rim xalqining jamoa mulki bo'ladi. Shunday tarzda: shu dalada kim xohlasa, molini o'tlatsin.

21. Bu dala bir jamoani o'tlog'i bo'lib qolmasin, hech kim bosib olmasin va kim molni o'tlatmoqni xohlasa, to'siqlik qilishga urinmasin.

22. Agar kimdir buni qilsa, necha marta buni qilsa, bu uchun u qachon buni qilsa, har bir yuger bosib olingan yer, kim bu jamoa mulkini band qilsa, foydalanishi uchun yoki ijaraga olingan, yoki ketma-ket davomida har bir yuger bosib olingan yer uchun 50 sesterti to'lasin.

23. Ho'kizlar, otlar, xachirlar, eshaklarni o'sha yer ulushida, bu qonun qabul qilingandan so'ng, ma'lum miqdorda o'tlatishga ruxsat beriladi. Bu uchun hech kim hech qanday soliq yoki o'tlatish uchun haq to'lamasin.

24. Har kim, kim uy hayvonini tor o'rmon so'qmog'i yoki jamoa yo'lliga bo'lган yerda o'tlatsin. U o'sha hayvon uchun aynan o'sha so'qmoqqa o'tish uchun haydalgan xalqqa ham, soliqchiga, otkupshikga ham hech qanday to'lov to'lanmaydi.

XI. Xususiy dalani jamoa yeriga almashtirganlarni xususiy mulkchilik huquqlarini kafolatlari to'g'risida

25. P.Lutsiy va L.Kalpurniyning konsulligida Italiya yeridagi jamoa dalasidan yer ulushini, aynan o'sha jamoa ulushi bu daladan

qaysiki xalq xususiyga almashtirib, bu ulushni o'rniga tegishli jamoa egaligiga almashtirilgan jamoa yer ulushi, uni egalarini xususiy yer egaligi bo'ladi. U ularni shubhasiz xususiy mulki bo'ladi.

26. O'sha xususiy dala, agar u P.Lutsiy va L.Kalpurniy konsulligida Rim xalqini jamoa yeri bo'lsa, jamoa yeriga almashtirilgan xususiy dala jamoa dalasining tegishli qismi o'rniga beriladi.

XIII. Jamoa yo'llari to'g'risida

Duumvir, P.Mutsiy va L.Kalpurniy konsulligi davrida mavjud bo'lган jamoa yo'llari erkin bo'lsin va ochiq bo'lsin.

XVI. Bu qonun asosida xususiy mulkga o'tgan yer ulushlariga nisbatan ishlarni sudda ko'rib chiqish to'g'risida

35. P.Muntsiy va L.Kalpurniy konsulligi davrida; agarda Italiya yerida Rim xalqiga tegishli bo'lган qandaydir jamoa yer ulushiga taalluqli qonun bo'yicha yoki plebitsit bo'yicha (aynan) yoki bu qonun asosida xususiy mulk bo'lsa, aynan shu yerga nisbatan yaqin mart idalarigacha sud ajrimi bo'lsa, kim konsul yoki pretor vazifasini egallasa, bu ish bo'yicha sud operatsiyasini o'tkazish uchun sudya va rekuperatorlarni sud beradi.

36. ...va hech qanday mansabdor kishi yoki kimdir mansabdor huquqida bu ish bo'yicha sud ajrimi, bu yer ulushiga nisbatan sud qilmasin yoki rekuperatorlar, konsul yoki pretor sifatida.

37. Agar, bu ish yuzasidan javobgar va jabrlanuvchi sudga kelishiga va'da bersa, bu qonun asosida aytilgan mansabdor shaxslarga hech nima bu ishni hal qilishga to'siq bo'lmasinlar.

XXIII. Rimda ommaviy sotilgan Afrikadagi yer ulushi sotib oluvchini xususiy mulki to'g'risida

55. Rimda ommaviy sotilgan Afrikadagi yer ulush xaridorga tegishli bo'lsin va bu yer ulushi soliq to'laydigan xususiy mulk bo'lsin. Bu yer ulushining boshqa qismi Italiyadan tashqarida turadi.

56. Ittifoqchilardan kimdir yoki latin huquqi ittifoqchilari, qaysiki toga kiyadiganlar ro'yxati bilan Italiya yerida harbiy buyruq ostida turganlar va Rim xalqi yoki bu yer ulushidan daromad qiladigan, egalik qiladigan har kim yoki bu mulk ustidan nazorat qilish maqsadida bo'ladi, ularni hech qanday qora niyatsiz bu yer ulushiga kiritadi.

XXIV. Afrikadagi yer ulushini xaridorga yoki otkupshikka berish tartibi to'g'risida

57. Afrikada bo'lган qandaydir yer ulushi, aynan shu yer ulushini

o'sha qismi, bu sotib olingen yer ulushi teng asoslarda agarda Rimda sotilgan yoki otkupga topshirilgan bo'lsa, egalik qilsin, undan daromad olsin.

Yerni ishlash qobiliyatiga ega bo'lmanan kolonistlardan boshqa Rim fuqarolari foydasiga yerni begonalashtirish to'g'risida.

Agar, qandaydir prefect yoki harbiy bu provinsiyaga yuborilgan bo'lsa (agar yer ulushi), kolonga yoki kolonlar tartibiga yozilganlarga berilgan yoki (ularga) ulush sifatida egalik qilish uchun boshqa Rim fuqarolariga biriktirilgan bo'lsa, ishlanadigan yer sifatida duumvir g'ainxo'rlik qilsin.

Tayanch iboralar: Eney, Serviy Tulliy, Tit Liviy, Amutiy, Reya, vesta, Mars, Numitor, Rem, Romul, Palatin, Aventen, Alba, Laviniy, Etruriya, Tibr, Elatiya, Telefu, Emation, Rodoss, Telemax, Odessey.

2-mavzu. Rim respublikasining qulashi. Rim imperiyasi

1-§. Respublikaning tushkunligi

Provinsiyalarni talanishi

Mark Tulliy Sitseron. Gay Verresga qarshi nutq

Mark Tulliy Sitseron (er. avv. 106-43-yillar) ajoyib notiq, huquqshunos, er. avv. 66 yil pretor, er. avv. 65-yil konsul. Uning nutqlari, xatlari, traktatlari Rim davlati va jamiyatining turli sohalarini o'rganish uchun, Rim respublikasining qulashi davrining fojiali voqeulari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Sitseronning Gay Verresga qarshi nutqi er. avv. 73-71 yillarda Sitsiliyada noibligi davrida, uning provinsiyani boyish maqsadida surbetlarcha talaganini fosh qiladi. Mark Tulliy Sitseron er. avv. 106-yilda Rimga yaqin Arpin shahrida tug'iladi. Uning ota-onasi shahar fuqarosining badavlat suvoriyalar toifasiga mansub kishilar edi. Sitseron o'z faoliyatini Sulla hukmronligi yillarda (81 yil) boshlaydi. U birinchi martu Publiy Kvintsiy degan oddiy bir dehqonning g'ayri qonuniy yo'l bilan tortib olingen yeri to'g'risidagi da'vo yuzasidan himoyachi sifatida so'zga chiqib, ishning muvaffaqiyatli tugallanishiga erishadi.

Sitseron falsafa hamda notiqlik san'atimi chiqurroq o'rganish bahonasi bilan, Yunoniston safariga jo'naydi va bu yerda o'tkazilgan ikki yillik sayohat davomida Afina bilan tanishadi. Kichik Osiyoning

turli shaharlarida bo'ladi va nihoyat, bir qancha vaqt Rodosda yashab, mashhur faylasuflardan, ulug' notiqlardan ta'lim oladi.

Verres ustidan qozonilgan g'alaba, xalq o'rtasida Sitseronning mavqeini g'oyat darajada oshirib yuhoradi va bundan buyon uning davlat mansablarida tobora yuqori ko'tarilishiga keng yo'l ochadi. Sitseron nihoyat, 63-yilda eng oliy davlat lavozimi konsullikka saylanadi va shu kundan boshlab, Rim jamiyati davlatmand doiralarining rahnamosiga, demokrat guruhlarning ashaddiy dushmaniga aylanadi.

44-yil Sezar o'ldirilganidan keyin, respublika tuzumining yangitdan tiklanishiga chuqur umid bog'lagan Sitseron, yana siyosiy faoliyatga qaytadi. Antoniyga qarshi avoysiz kurash boshlaydi; Antoniyga qarshi yozilgan va Demosfenga taqlidan "Filippiklar" deb atalmish o'n to'rtta maxsus nutqda yangidan bosh ko'tarib kelayotgan istibdod da vogarining kirdikorlarini va yoruz niyatlarini fosh etadi. Shu nutqlar uchun Sitseronning nomi proskripsiya ro'yxatiga kiritilib, er avv. 43-yilda Antoniy odamlari tomonidan kallasi kesiladi.

Qadimgi zamonalarda Sitseronning 150 ga yaqin mutqi nashr etilgan bo'lsa, bizga qadar shulardan 58 tasi yetib kelgan. Bulardan tashqari, falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar, notiqlik nazariyasini va tarixiga doir 7 ta risola va 800 ga maktub asrlar to'foniga chap berib, omon qolgan.

IV. ... U eng ko'p sonli va o'zining ayblarining eng muhim dalillari va izlarini Sitsiliya provinsiyasida qoldirdi, qaysiki u uch yil davomida shunday qiyndi va talon-taroj qildiki, uni avvalgi holatida qayta tiklash mutlaqo mumkin emas edi va uni faqat ko'p yildan keyin sotilmas pretorlar yordami bilan biroz qayta tiklash mumkin. (13) Verres pretor bo'lган vaqtida, sitsiliyaliklar uchun ularni o'zlarini qonunlari ham, bizni senatni qarorlari ham, umuminsoniy huquqlar ham yo'q edi. Sitsiliyada har bir kishiga bu odamning cheksiz ochko'zligi va suiste'molidan chetda qolgan narsagina tegishli, - shuning uchunki, buni u ko'rmadi, yoki u to'ygan edi.

4. To'rt yil davomida biror-bir sud ishi, uni qosh qoqishisiz hal qilinmadi: ota yoki bobodan meros qolgan biror-bir mulk yo'qki. Verresning amri bilan sud hukmi bilan begonalashtirilmagan bo'lsa. U tomonidan joriy qilingan yangi jinoiy qoidalar asosida, yer egalaridan katta miqdorda pullar undirildi; bizning eng sadoqatli ittifoqchilarimiz

dushmanlar qatoriga kiritildi, Rim fuqarolari go'yoki qullar kabi qyinoq va o'lim hukmiga duchor qilindilar; eng jinoyatkor odamlar sud javobgarligidan pul uchun ozod qilindilar, ... hurmatli, beg' araz kishilar ish ko'rilmasdan, sirdan hukm qilindilar va quvg'in qilindilar; ajoyib mustahkamlangan gavanlar va ulkan yaxshi himoyalangan shaharlar, piratlar va qaroqchilarga oolib qo'yildi: sitsiyalik matroslar va askarlar, bizning do'stlarimiz va ittifoqchilar oechdan o'limiga mahkum qilingan edilar; bizga o'ta kerakli bo'lgan ajoyib flot, Rim xalqining buyuk sharmandaligi uchun biz tomondan yo'qotilib, yo'q qilindi.

(14) Bu mansur pretor qadimgi barcha yodgorliklarni bitta qolmay taladi, ularni bir qismi shaharlarni bezatishni istagan boy podsholardan olingan edi, bir qismi bizning imperatorlarimizdan o'z g'alabalaridan keyin yoki sovg'a qildilar yoki ularni Sitsiliyani shahar jamoalariga qaytardilar. U buni faqatgina shahar jamoalariga tegishli bo'lgan haykallar va bezaklargagina nisbatan amalga oshirmadi; u muqaddas marosimlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan barcha ibodatxonalarini taladi; u agarda uning fikricha, yetaricha mohirona, shu bilan birga qadimgi ustani qo'li bilan qilingan bo'lsa, ma'budlarni biror-bir tasvjrini sitsiliyaliklarga qoldirmadi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М.; 1991. 226-227 сmp

Appian. Fuqarolar urushlari, I , 116 – 120

Appian (eramizning 90 – yillarida tug'ilgan). Iskandaryalik yunon, Rim fuqarosi, suvoriyalar tarkibiga kiritildi va yirik amaldorga aylandi. U keksayganda, "Rim tarixi" asarini yozdi. Bu asarda Rim tarixini shaharga asos solinishidan eramizning II asrigacha bayon qildi. Uning "Rim tarixi" o'ziga xos qurilgan. Uning 24 kitobidan har biri biror-bir xalq tarixini aks ettiradi. Bizgacha 1-7 kitoblar etib kelgan: Appian Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'olonini Rim davlati uchun jiddiy xavf tug'dirganini aytadi. Spartakni harbiy qobiliyati va dovyurakligini ta'kidlaydi.

...Shu vaqt Italiyada Kapuyada teatr tomoshalari uchun o'rgatilayotgan gladiatorlar orasida frakiyalik Spartak bor edi. U ilgari rimliklar bilan jang qilgan, asirga tushib, gladiatorlikka sotilgan edi. Spartak o'zini yetmishga yaqin o'rtoqlarini ozodlik uchun tavakkal

qilishga, teatrda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘ygandan ko‘ra, yaxshi ekanligini ularga ko‘rsatdi. Qo‘riqchilarga hujum qilib, ular ozodlikka chiqdilar va shahardan qochdilar. Tasodify yo‘lovchilardan tortib olingen tayoq va xanjarlar bilan qurollanib, gladiatorlar Vezuviy tog‘iga yashirindilar. Shu yerda to‘da tarkibiga ko‘plab qochoq qullarni, qishloqdagi erkin ishchilardan ba’zilarini qabul qilib, Spartak atrof-tevarakga xuruj qila boshladi. Unga gladiatorlar Enomay va Kriks yordamchi edi. Spartak o‘ljani hamma bilan teng bo‘lishgani uchun, tezda unda ko‘p xalq to‘plandi. Boshida unga qarshi Variniy Glabr, keyin Publiy Valeriy yuborildi. Ularda qo‘sish fuqarolardan emas, balki har xil tasodify kishilardan yuzaki va yo‘l-yo‘lakay olingani uchun, rimliklar hali bu haqiqiy urush emas, oddiy qaroq-chilik bosqinlari deb hisobladilar – Rim lashkarboshilari qullar bilan uchrashuvda yengildilar. Variniydan hatto otni Spartakni o‘zi tortib oldi. Rim lashkarboshisi shunday xavfga qoldiki, sal qolsa gladiatorlarga asir tushar edi. Shundan keyin Spartakga yana ko‘p xalq qochib keldi, uni qo‘smini 70 000 gacha yetdi. Isyonchilar qurollarni tobladilar, oziq – ovqat, aslaha to‘pladilar. Rimliklar ularga qarshi konsullarni ikki legion bilan jo‘natdilar. Ulardan biri Gargan tog‘lari yonida 30 ming kishilik qo‘sninga boshchilik qilgan Kriks tor – mor qilindi. Kriksni o‘zi va qo‘sminini uchdan ikki qismi jangda halok bo‘ldi. Spartakni o‘zi Apennin tog‘lari orqali Alpga, u yerdan kel’tlarga qarab tez harakat qildi. Konsullardan biri uni orqasidan quvib yetdi. Shunda Spartak ularga yakka-yakka hujum qilib, ikkalasini ham tor – mor qildi. Konsullar to‘la tartibsizlikda chekindilar, Spartak halok bo‘lgan Kriksga 300 asir rimlikni qurbanlikka keltirdi, 120 000 piyoda bilan shoshilinch Rimga yurdi. U yurishni yengil bo‘lishi uchun ortiqcha yukni yoqishga, barcha asirlarni o‘ldirishni va yuk hayvonlarini so‘yishni buyurdi. Unga kelgan ko‘plab qochoqlarni qabul qilmadi. Pisenda konsullar yana qarshilik ko‘rsatishga urindilar. Bu yerda ikkinchi katta jang yuz berdi, rimliklar yana yengildilar. Lekin Spartak Rimga yurish qarorini o‘zgartirdi. U hali o‘zini rimliklarga teng kuchga ega emas deb hisobladi, chunki uning qo‘smini yetarlicha jangovar tayyorgarlikka ega emas edi: birorta ham Italiyadagi shahar isyonchilarga qo‘silmadi; bular qullar, qochoqlar, qalang‘i-qasang‘ilar

edi. Spartak Fury³ atrofidagi tog'ni va shaharni o'zini egalladi. U o'zini odamlari bilan savdo qiladigan savdogarlarga kumush va oltin bilan to'lashni, o'zinikilarga esa qabul qilishni ta'qiqladi. Isyonchilar faqat temir va misni qimmat narxda oldilar, ularni keltirganlarni esa xafa qilmadilar. Bunday zarur materiallarni olib, isyonchilar yaxshi qurollandilar va tez-tez talonchillikka chiqdilar. Yana rimliklar bilan jang qilib, ularni ustdan g'alaba qildilar va o'ljalarini ortib, o'zlariga qaytdilar.

Bu dahshatli urush uch yil davom etdi, boshida kuldilar va gladiotorlar bilan urush deb birinchi payt mensimadilar. Lisiniy Krass⁴ o'zini kelib chiqishi, boyligi bilan rimliklar ichida taniqli odam qo'mondonlikni qabul qilmaguncha, qachonki Rimda boshqa lashkarboshilarni saylovlari belgilanganda, hammani qo'rqinch ushlab turdi va hech kim o'z nomzodini qo'ymadidi. U olti legion bilan Spartakga qarshi yurdi. Joyga yetib kelib, Krass o'z qo'shiniga ikki konsul legionini qo'shib oldi. Bu konsullarni askarlari o'rtasida bir necha marta yengilganlari uchun, u tezlik bilan qur'a tashlashga buyruq berdi va o'ninchi qismini o'limga hukm qildi. Boshqalar ish shunday bo'limgan edi deb taxmin qiladilar, barcha legionlar birlashtirilgandan keyin, qo'shin mag'lubiyatga uchradi, shunda Krass qur'a tashlash bo'yicha, har o'ninchi legionerni o'limga hukm qildi, o'ldirilganlarni sonidan hech qanday qo'rwmadi, o'ldirilganlar soni 4000 ming kishi atrofida ekani ko'rindi. Nima bo'lganda ham, o'z askarlari uchun Krass o'zlarini yengilgan dushmanidan ko'ra qo'rqinchli bo'ldi. Tez orada, u o'z qo'shinlaridan qayergadir alohida lager bo'lib turgan 10 000 spartakchilar ustidan g'alaba qildi. Ularni uchdan ikki qismini yo'q qilib, Krass Spartakni ustiga dadil yurdi. Uni ham tor-mor qilib, Sitsiliyaga o'tib ketish maqsadida, lagerga qochgan isyonchilarini favqulodda qulay ta'qib qildi. Ularga yetishib, Krass Spartak qo'shinini xandak, to'siqlar va qo'ra devorlar bilan kesib qamadi. Qachonki Spartak Samnium⁵ga yo'l ochish uchun urinib ko'rishga majbur bo'ldi. Krass tongda dushmanni 6000 ga yaqin kishisini, kechqurun ham taxminan shunchasini yo'q qildi, shu vaqtida Rim qo'shinlaridan faqat uch kishi o'ldirildi va yetti kishi yarador bo'ldi. Krass joriy qilgan intizom oqibatida, qo'shinda shunday o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar unga g'alabaga ishoch tug'dirdi. Spartak

esa, qayerdandir unga kelgan otliqlarni kutib, barcha qo'shini bilan jangga bormadi, lekin qamal qilayotganlarni kichik to'qnashuvlar bilan tez-tez bezovta qilib turdi; u doimo va kutilmaganda ularga hujum qildi, xandakka o'tin bog'lamlarini tashlab, ularni yoqdi, shu yo'l bilan qamalni favqulodda qiyin qildi. U asir rimlikni har ikki qo'shin o'rtasidagi oraliq yo'lakda osishni buyurdi va bu uni qo'shini yengilgan taqdirda, nimani kutayotganini ko'rsatar edi. Rimda qamal to'g'risida eshitib va uni sharmandalik deb hisoblab, agar gladiatorlar bilan urush cho'zilib ketsa, endigina Ispaniyadan qaytgan Pompeyni ikkinchi bosh qo'mondon etib sayladilar. Rimliklar Spartak qo'zg'oloni og'ir va jiddiy ekaniga endigina ishonch hosil qildilar. Bu saylov to'g'risida eshitib, Krass g'alaba shuhrati Pompeyga nasib qilishidan xavfsirab, ishni har qanday qilib tezlashtirishga harakat qildi va Spartakga hujum qila boshladi. Spartak ham Pompeyni kelishidan ogohlantirish maqsadida Krassga muzokaraga kirishni taklif qildi. Qachonki u bu taklifni mensimay rad qilganda, Spartak tavakkal qilishga qaror qildi va unga endi yetarli otliqlar bo'lgani uchun butun qo'shnlari bilan okoplar (chuqur) orqali Brundiziy yo'nalishi bo'yicha yugurdi, Krass uni orqasidan tashlandi. Lekin Spartak Brundiziyda Mitridat ustidan g'alabadan keyin qaytgan Lukull turganini bilib, barchasi halok bo'lganini tushundi va Krassga qarshi o'sha vaqtda katta bo'lgan o'z qo'shini bilan bordi. Katta miqdordagi odamlarni qamrab olgan umidsizlikni favqulodda qattiq oqibati ulkan jang bo'ldi. Spartak drotik (kalta nayza) bilan sonidan yarador bo'lgan edi; tizzalab o'tirib, o'z oldiga qalqonini qo'yib, hujum qilayotganlarni ko'p sonli o'zini o'rab turganlar bilan birgalikda halok bo'lmaguncha qaytarib turdi. Uni qolgan qo'shnlari to'la tartibsizlikda bo'lib, yanchib tashlandi. Aytishlaricha, o'lganlarni sonini aniqlash mumkin bo'lmadi. Rimliklardan 1000 ga yaqin kishi o'ldi. Spartakni jasadi topilmadi. Spartakchilarni ko'p qisimi jangdan keyin qochib tog'larga yashirindi. Krass ularga qarshi yurdi. To'rt qismga bo'linib, barchasi halok bo'lmaguncha, ular hujumni qaytarib turdilar. 6000 bundan mustasno, qaysiki ular ushlab olinib, Kapuyadan Rimga boradigan yo'l bo'ylab osildilar.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 239-242 срп

Plutarx. Pompey

XXI ... Biroq taqdir Pompeyni qandaydir darajada bu g'alanbing (Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni ustidan) ishtorokchisi qildiki, jang maydonidan besh ming qochoqlar uni qo'liga tushdi. Barcha asirlarni o'llimga hukm qilib, Pompey shoshilinch senatga yozdi, Krass gladiatorlarini ochiq jangda tor-mor qildi, u, Pombey esa, urushni ildizi bilan sug'irib oldi.

1 *Gargan tog'lari yonida Apuliya viloyati.*

2. *Pisen - O'rta Italiyadagi viloyat.*

3. *Furiy - Italiyanı janubi.*

4. *Lisiniy Krass - suvoriy. Rimning eng boy odami. er: avv. 72-yilda konsul, er: avv. 55-yilda triumvir.*

5. *Samnium O'rta Italiyadagi tog'li viloyat.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 239 сmp

Tayanch iboralar: Sitseron, Publiy Kvintsiy, Gay Verresga qarshi nutq, Sezar, Antoniy, Sitseronning 150 ga yaqin nutqi, Sitsiliya, provinsiya, pretor, Appian, Kapuya, Variniy, Spartak, Furiy (Italiya), Gay Svetoniy, Ptolomey, plehey, Gay Kassiy, Martida.

2-§. Hokimiyat uchun kurash. Imperiyaning o'rnatilishi Sezarni Rimda hokimiyatni bosib olishi

Plutarx Sezar to'g'risida

III ... Sezar, xabar berishlaricha, va tabiatan ham davlat ishlarida oliy darajada qobiliyatlarga va chiroqli so'zlashga ega edi, o'z qobiliyatlarini sidqidildan mashq qilar edi, so'zsiz unga bu san'atda ikkinchi o'rinn tegishli edi; hokimiyat va qurol kuchi bilan birinchi bo'lish uchun ko'proq g'amxo'rlik qilib, biroq chiroqli so'zlashda birinchi bo'lishdan bosh tortdi; harbiy va fuqarolik ishlari bilan mashg'ul bo'lib, ularni yordami bilan u o'ziga davlatni bo'ysundirib, notiqlik san'ati unga tabiat ko'rsatgan chegaragacha bormadi ...

IV. ... Rimni o'zida Sezar sudlarda o'zining ajoyib himoya nutqlari bilan yorqin yutuqlarga erishdi, o'zining xushmuomalaligi, yumshoq mulozamati bilan oddiy xalqni yaxshi ko'rishiga erishdi, chunki uning yoshidan kutilgandan ko'ra, har bir kishiga e'tiborli edi. Ha, uning ziyofat, bazmlari va umuman yorqin turmush tarzi davlatda

uni ta'sirini sekin - asta o'sishiga olib keldi. Boshda Sezarning xasadchilari mablag'lari tugashi bilan birdaniga unitiladi deb, bunga e'tibor bermadilar. Faqat kech bo'lganda, bu kuch shunday o'sib, unga qarshi biror nimani qarshi qo'yish qiyin bo'lganda va mavjud tuzumni inkor qilishga yo'nalganda, ular tushundilar, har qanday ishda boshlanishni ahamiyatsiz deb hisoblash mumkin emas. Boshlanishda yo'q qilinmagan narsa tez o'sadi, chunki o'ziga e'tiborsizlikka to'siqsiz rivojlanishga shart - sharoit topadi. Sitseron, ehtimol Sezarni faoliyatini shubhali xavf tug'diradigan deb hisoblagan birinchi odam edi, u tashqi ko'rinishi bo'yicha sokin dengizga o'xshab, osoyishta bo'lgan bu kishida yumshoqlik va quvnoqlik niqobi ostida dadil va qat'iy xarakterni ko'rdi. U Sezarning barcha fikr o'ylari, faoliyat tarzida tiranning niyatlarini ko'rayotganini aytgan edi. "Lekin, - qo'shib qo'ydi u - uni sochlari puxta yotqizilgani va u boshini bir barmog'i bilan qashib qo'yishini ko'rib, menga bu odam shunday jinoyatni Rim davlat tuzumini yo'qotishni o'ylamaydi" deb doimo fikrlayman. Lekin bu to'g'risida keyinroq.

XI. ... Hikoya qilishlaricha, Sezar Alp orqali oshib, juda kam sonli varvar aholisi bo'lgan kambag'al shaharcha yonidan o'tayotganda, uni do'stlari kulgi bilan so'radilar: "Nahot, bu yerda ham mansablar uchun musobaqalar bor, birinchilik to'g'risida munozaralar, zodagonlar o'rtasida kelishmovchiliklar bor?" Menga kelganda, - deb to'la jiddiylik bilan javob berdi Sezar, - Rimda ikkinchi bo'lgandan ko'ra, bu yerda birinchi bo'llishni afzal ko'rарedim".

Boshqa safar, endi Ispaniyada Sezar bo'sh vaqtida Iskandarni faoliyati to'g'risida nimanidir o'qib, uzoq vaqt hayolga botib qoldi va hatto ko'ziga yosh aylandi. Shunda hayron bo'lgan do'stlari buni sababini so'ranganlarida "Iskandar meni yoshimda qancha xalqlar ustidan hukmronlik qildi, men esa haligacha biror ahamiyatlisi qilmadim, nahotki siz uchun bu g'amgin bo'llish uchun yetarli sabab bo'lmasa - deb javob berdi.

XVII ... Uni xavf - xatarlarni sevishi, uni shuhratparastligini bilganlar uchun ajablanarli emas edi, qanday qilib u, go'yoki o'zini jismoniy kuchidan oshiq bo'lgan qiyinchiliklarga chidagani, lekin barchani hayratga qoldirar edi, chunki u oq va nozik teri bilan, zaif jismoniy tuzilishga ega bo'lib, bosh og'riqlar va tutqanoqdan azob chekar edi, aytishlaricha, unda birinchi tutqanoq Kordubada² yuz

beradi, lekin o'z kasalmandligini huzur-halovatdag'i hayot uchun bahona sifatida foydalanmadı. Lekin harbiy xizmatni sog'ayish vositası qilib, o'zini zaifligini yengish va o'z tanini mustahkamlash uchun, to'xtovsiz oshib o'tishlar, kam ovqat, ochiq havoda muntazam bo'lishga va qiyinchiliklar tortishlarga harakat qildi. Dam olish soatlaridan ish uchun foydalanish maqsadida. ko'p vaqt aravada yoki taxtiravonlarda uxladi. Kunduzi u shaharlarni, qorovul qismlari va qal'alarni aylanib chiqar edi, shu bilan birga yonida, yozishni biladigan qul, orqasidan qilichi bilan bir askar turar edi. U shunday tezlik bilan yurar ediki, birinchi marta Rimdan Rodangacha³ yo'lni sakkiz kunda bosib o'tdi. Yoshligidan u uchun otda yurush odatdag'i ish edi. U qo'lini orqaga qilib va ularni yelkasini orqasiga qo'yib, otni to'la choptirishi mumkin edi. Bu yurish paytida, u yana otda o'tirib, xat yozdirish, bir vaqt ni o'zida ikki, yoki Appiyni aytishicha, ko'p sonli kotiblarni band qilishni mashq qiladi. Aytishlaricha. Sezar birinchi bo'lib, shaharni kattaligi va ish bilan favqulodda bandlik, shaxsan uchrashishga imkon bermagani sababli, orqaga tashlab bo'lmaydigan ishlar yuzasidan do'stlari bilan xatlar vositasida suhbatlashish fikriga keldi...

Plutarx. Galliyani istilosı to'g'risida

XV. ...O'sha to'la bo'Imagan o'n yil, shu yillar davomida u Galliyada urush olib bordi, u qat'iy hujum bilan sakkiz yuzdan ko'p shaharlarni oldi, uch yuz xalqni bo'ysundirdi, uch million kishi bilan jang qildi, ulardan bir millionini janglar vaqtida yo'q qildi va shunchasini asir oldi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 243-246 срп

Plutarx buyuk Gall qo'zg'oloni to'g'risida (er. avv. 54 – 52 yillar)

XXV. ... Lekin tezda, qachonlardir Galliyada bo'lib o'tgan eng katta va xavfli urush belgilari paydo bo'ldi. Uni rejası allaqachon yetilgan edi va ta'siri kuchli odamlar orqali maxfiy ravishda jango-var qabilalar orasida tarqatilgan edi. Ularning ixtiyorida ko'p sonli qurolli kuchlar, urush uchun to'plangan katta pul mablag'lari va mustahkamlangan shaharlar va o'tish qiyin bo'lgan joylar bor edi. Qish vaqtı daryolar muz bilan, o'rmonlar qor bilan qoplanib, vodiylar

toshqin osti edi, so'qmoqlar ba'zi joylarda qalin qor qirovi ostida yo'q bo'lgani uchun, boshqalari botqoqlik va toshqin suvlar sababli, ishonchsiz bo'lgani uchun, qo'zg'olon ko'targanlar bilan Sezar hech narsa qila olmaydi deb go'yoki yaqqol bo'lib ko'rinar edi. Ko'p qabilalar ko'tarildi, lekin qo'zg'olonning o'chog'i arvern va kar-nutlarning⁴ yeri edi...

XXVII ... Shuningdek jangda tirik qolgan ko'pchilik varvarlar o'z podsholari bilan Aleziya^s shahriga kirib yashirindilar. O'zini baland devorlari, ko'p sonli qamal qilganlar uchun olib bo'lmaydigan ko'ringani uchun, bu shaharni qamal qilish vaqtida, Sezar katta xavf – xatarga duch keldi, chunki barcha gall qabilalarining saylanma kuchlari o'zaro birlashib, uch yuz ming kishi miqdorida Aleziyaga keldilar, shu vaqtda shaharni o'zida berkinganlar bir yuz yetmish mingdan kam emas edi. Ana shunday ikki katta kuch o'rtasida qisilgan va o'ralgan Sezar ikki devor qurishga majbur bo'ldi; biri shaharga qarshi, boshqasi kelgan gallarga qarshi, chunki agarda dushmanlar birlashsa, u tamom bo'lishi aniq edi. Aleziya ostidagi urush haqiqiy shon – sharaf bilan belgilanadi, qaysiki biror-bir boshqa urush shunday jasoratlari va mahoratlari qahramonlik namunalarini bermaydi. Lekin yana shunisi ajablanarligi, Sezar shahar devorlari ortida ko'p sonli qo'shin bilan jang qilib va uni yanchib, nafaqat qamal qilin-ganlar uchun, balki hatto shaharga qaratilgan devorni qo'riqlagan o'sha rimliklar uchun ham bu ishni sezdirmay qildi. Bu rimliklar g'alaba to'g'risida Aleziyadan qarama – qarshi tomonidan o'z lager-lariga oltin, kumush bilan bezatilgan, qalqon qonga bo'yalgan ko'p-gina Sovutlar, ko'pgina qadahlar, gall chodirlarini rimliklar o'z lagerlariga olib borayotganlarini ko'rdilar, erkak va ayollarni yig'i va dod-faryodlarini eshitgandan keyin bildilar. Shunday tez, tush yoki sharpa kabi bu son-sanoqsiz kuch yo'q qilinib, to'zg'itib yubo-ridi, shuningdek varvarlarning katta qismi jangda halok bo'ldi. Nihoyat Aleziya himoyachilari Sezar va o'zlariga ko'p tashvishlar tug'dirganlaridan so'ng, taslim bo'ldilar. Versingetorig hamma urush-ning rahbari, eng chiroyli qurol – aslahani taqib va ot ni boy bezatib, darvozadan chiqdi. Sezar o'tirgan tepalik atrofini aylanib chiqib, otdan sakrab tushdi, o'zini barcha qurol – aslahasini yulib tashladi va

Sezarni oyog'i ostiga o'tirdi, zafar uchun saqlab qolish uchun uni hibsga olmagunlariga qadar, u yerda o'tirdi.

-
1. so'zsiz unga - Sitserondan keyin.
 2. Korduba - Ispaniyadagi hozirgi Kordova
 3. Rodan hozirgi Rona daryosi.
 4. Arvern va karmuttlar - Luara va Sena daryolari yuqori oqimida yashagan gall qabilalari.
 5. Aleziya Sena daryosi yagini dagi gall shahri.

Svetoniy Yuliy Sezar to'g'risida

Gay Svetoniy Trankvill "Ilohiy Yuliy"

Gay Svetoniy Trankvill (70 - 160 yillar) advokat, imperator Adrianning kotibi, "O'n ikki Sezarlar hayoti tasviri" asarini yozib, bu asarda Sezardan Domisiangacha bo'lgan imperatorlar tarjimai holini yozdi.

45. Aytishlaricha, u baland bo'yli edi, oq tanli, yaxshi shakllangan, yuzi sal to'laroq, ko'zları qora, jonli, ajoyib sog'lig'i bilan ajralib turar edi: hayatını oxirida unga qo'qqisdan xushdan ketish, tungi qo'rquvlari yopirildi ... (2) O'zini badan parvarishi bilan juda ham sinchkovlik bilan shug'ullandi ...

54. Beg'arazlikni u na harbiy, na fuqarolik lavozimlarida ko'rsatdi. Ispaniyada prokonsul bo'lganida... tilanchi kabi ittifoqchilardan o'z qarzlarini to'lashga pul so'radi, luzitanlarda bir necha shaharlarni, ular uni talablariga rozi bo'lsalarda va uni oldiga darvozalarini ochgan bo'lsalarda, urushdagidek talon- taloj qildi. (2) Galliyada tortiqlar to'la bo'lgan ziyyaratgoh xudolarni ibodatxonalarini ship – shiydom qildi, shaharlarni jazolashdan ko'ra, o'lja olish uchun talon – taroj qildi. Ana shundan unda shuncha oltin to'planib qoldiki, u oltinni Italiya va provinsiyalarda og'irligi bo'yicha funt uch ming sestersiyidan sotdi. (3). Birinchi konsulligi davrida u Kapitoliy ibodatxonasidan, o'rniga shuncha tilla suvi yuritilgan mis qo'yib, uch ming sestersiy oltinni o'g'irladi. U ittifoqlar va podsholiklar bilan savdo qildi: u birgina Ptolemydan o'zi va Pompey uchun olti ming sestersiy atrofida oldi. Oqibatda ochiqdan – ochiq talonchilik va svyatstatstva unga fuqarolik urushlari xarajatlarini, zafarlar va tomoshalarni sarflarini chiqarish imkoniyatini berdi.

55. Chiroyli so'zlash va harbiy san'atda, u ularni bilimdonlaridan kam bo'lmagan shuhrat qozondi...

57. Qurol va otni mahorat bilan egalladi, uni chidamligi har qanday narsadan oshib tushdi. Yurishda u qo'shinni oldida yurdi, odatda piyoda, ba'zida otda, issiqqa ham, yomg'irga ham qaramay, bosh kiyimsiz, eng uzoq o'tishlarni ham, u ko'z ko'rмаган tezlikda, yengilgina amalga oshirar edi... Daryolarni suzib, yoki shishirilgan meshlar yordami bilan o'tar edi, shuning uchun ko'pincha o'zi to'g'risidagi xabarchilardan ham o'zib o'tar edi.

58. ...U hech qachon qo'shinni pistirma uchun qulay bo'lgan yo'ldan olib bormas, joyni oldin razvedka qilmasdan ...

59. Hech qachon, hech qanday g'ayritabiyy kuchlar uni belgilangan tadbirni amalga oshirishni qoldirish yoki boshqa vaqtga ko'chirishga majbur qila olmas edi...

60. Jangga u nafaqat hisob-kitob bo'yicha emas, balki hodisa bo'yicha ko'pincha birdan o'tishdan keyin, ba'zida ob-havo eng shafqatsiz paytda, qachon undan buni kutmagan paytlarda kirishdi...

62. Agarda uni qo'shini chekina boshlasa, uni bir o'zi ko'pincha qochayotganlarni oldiga chiqib, tartib o'rnatar edi ...

65. Askarlarni u axloqi, urug'i va boyligi uchun emas, faqat dovyurakligi uchun qadrlar edi; ular bilan muomalada bir xilda talabchan va yumshoq bo'lar edi...

67. Askarlarni qilmishlariga u hamma va ko'p ham e'tibor bermas va hamma vaqt qoidaga ko'ra jazolamas edi. Qochoqlar va g'alayonchilarni ta'qib qilib shafqatsiz jazolar edi... (2) Yig'inlarda ularga "askarlar" deb emas, "safdoshlar! " deb murojaat qilar edi...

68. Bularni barchasi bilan u askarlardan siyrak sadoqat va botirlikka erishar edi.

76. Biroq bularni barchasini uni so'zi va boshqa turdag'i ishi bosib ketadi: hatto shuning uchun u hokimiyatni suiste'mol qilishda aybdor va shu qilmishlari uchun o'ldirildi deb hisoblaydilar. Kami qolganidek, u har qanday me'yordan chiqib, unvonlarni qabul qildi: umrbod konsullik, umrbod diktaturani, axloqqa vasiylik, keyin imperator nomi, vatan otasi unvoni, podsholar haykallari o'rtasida haykal, teatrda baland joy, u hatto inson me'yorlaridan oshib ketadigan o'z sharafiga qarorlar qabul

qildi: senat va sudda oltin kreslo, sirk namoyishlarida muqaddas arava va taxtiravon, ibodatxonalar qurbanlik joylari, xudolar bilan bir qatorda haykallar, xudolarga ovqat qilinadigan joy, kohinlar, yangi luperklar⁸, uni ismi bilan oyni aytilishi; bu barcha unvonlarni u shaxsan o'zini o'zboshimchaligi bilan oldi va tarqatdi.

78. U mana bu qilmishi bilan eng katta va halokatli nafratni o'ziga qaratdi. Ko'pgina oliy faxriy qarorlarni unga taqdim qilmoqchi bo'lgan, to'la tarkibda kelgan senatorlarni u Venera⁹ ibodatxonasi oldida o'tirib qabul qildi ...

79. O'zini ochiq mensimasligi bilan senatni cheksiz haqorat qilib, u bunga boshqa qilmishini qo'shdi. Bir kuni u Latin o'yinlaridan qurbanlikdan qaytib kelayotganda, xalqni misli ko'rinnagan qarsaklari orasida olomon ichidan qandaydir odam uni boshiga oq lenta bilan o'ralgan lavr gulchambarini kiygizdi. Lekin xalq tribunlari Epidiy Marull va Sezetiyl Flav gulchambardan lentani yulishini, bu odamni qamoqqa tashlashga buyruq berdilar. Sezar podsho hokimiyatiga ishora muvaffaqiyat qozonmagani uchunmi, yoki uni gapiga qaraganda, undan o'zi bosh tortgarti sharafidan mahrum qilinganidanmi, tribunlarga qattiq xayfsan berib, ularni vazifasidan mahrum qildi. (2) Lekin shu vaqt dan u bir kuni uni podsho deb ulug'lagan plebeyga "Sezarman, podsho emasman" deb javob berishiga qaramasdan, o'zidan podsho unvoniga intilish sharmandaligini olib tashlay olmadi, boshqa safar Luperkaliyda rostral tribuna¹⁰ oldida konsul Antoniy unga bir necha marta tojni kiydirishga uringanda, u undan bosh tortdi va Kapitoliyga, Yupiter ibodatxonasiga qaytarib yubordi. (3) Buning ustiga, tez-tez mish – mishlar tarqaldi, go'yoki u Iskandariyaga yoki Ilionga ko'chib o'tish niyatida va u yerga barcha davlat vositalarini ko'chirmoqchi, Italiyani harbiylar olish¹¹ bilan holsizlantirib, Rimda boshqaruvni do'stlariga, va senatning yaqindagi kengashida kvindedemvir¹² Lusiy Kota Sezarni podsho deb e'lon qilishi taklifini kiritadi, chunki bashorat kitoblarida¹³, parfiyaliklarni faqat podsho yengishi mumkin deb yozilgan.

80. Bu fitnachilarini bunday taklifga ovoz berishga to'g'ri kelmasligi uchun o'ylangan harakatni tezlashtirishga majbur qildi. U yer va bu yerlarda ikki – uch kishi uchrashgan maxfiy yig'inlar bo'ldi, endi

hammasi birga qo'shildi. Xalq ham davlatdagи ahvoldan xursand emas edi: yashirin va ochiq yakka hokimlikdan norozi bo'ldilar, u xaloskorlarni qidirdi.

(4) Unga qarshi fitnaga oltmishdan ko'p kishi ishtirok etdi; uning boshida Gay Kassiy Mark Brut va Desim Brut turdilar. Boshida ular taraddudlandilar, uni qachon u saylovlarda tribunlarni ovoz berishga chaqirganda, Mars maydonida o'ldirish kerakmi, ikki guruhga bo'linib ular uni ko'priidan tashlab yuborib, pastda uni ushlab qolib, pichoq urushni istadilar, yoki teatrga kirish vaqtida, yoki Muqaddas yo'lida unga hujum qilish. Lekin Mart idа¹⁰sida Pompey kuriyasida senat majlisiga to'planadi deb e'lon qilinganda, hamma bu vaqt va joyni ma'qil ko'rди.

82. U o'tirdi va fitnachilar go'yoki uni olqishlash uchun o'rab oldilar. Birinchi rolni o'ziga olgan Tilliy Simbr shu vaqtini o'zida, go'yoki iltimos bilan unga yaqinroq keldi va qachon u bosh tortib, unga kutib turish ishorasini qilganda, togasini tirsagini yuqorisidan ushlab tortdi. Sezar zarb bilan qichqirdi: "Bu zo'ravonlik" – va bunda Kaska orqadan tomog'ini ostidan yarador qildi. (2) Sezar Kaskani qo'lidan ushlab grifelli bilan uradi va sakrab turishga urinadi, lekin ikkinchi zarba uni to'xtatadi. Shunda u hamma tomondan unga xanjarlar yo'naltirilganini ko'rди, boshiba togasini tashladi va oyog'ini uchigacha o'ralib, munosib yiqilish uchun chap qo'li bilan uni qatlarini tizzasidan pastga tushirdi; shunday qilib u yigirma bir zarba yedi, faqat birinchisida hatto qichqiriq emas, inqilladi, ba'zilarni aytishicha, unga tashlangan Mark Brutga "Va sen hammi, meni bolam ("Va sen hammi, meni bolam"-Sezarni na faqat Brutga mehribonligi, balki Brutni Sezar va Serviliya (xotini emas o'g'li deb hisoblanishiga ishora. Brut Sezarni o'g'li hisoblanar edi") deydi. Hamma qochib ketdi; jonsiz, yotib qoldi uch qul uni qo'llari osilganicha zambilga solib, uyiga olib ketdilar. Shuncha jarohatlardan biri, vrach Antistiyaning fikricha, ikkinchisi ko'krakga urilgani, uni o'limiga sabab bo'lган. (4) O'ldirilganni jasadini fitnachilar Tibrga tashlashga chog'landilar, mulkini musodara qilish, qonunlarini bekor qilish, lekin konsul Mark Antoniy va otliqlar boshlig'i Lepiddan qo'rqqanlari uchun bunga botina olmadilar.

Sezarni o'limidan keyin hokimiyat uchun kurash Sezarga qarshi partiyani ahvoli

D. Brutning M. Brut va Kassiyga xati

Ahvolumiz haqida xabar beraman. Kecha kechqurun menda-Girsiy bo'ldi. U Antoniy qanday kayfiyatda ekanini ochiq tushuntirdi. Afsus, eng yomon va eng umidsiz Girsiyni aytishicha, Antoniy menga provinsiya¹²ni bera olg'aydi va butun Rimda biz tomonda hech kim yo'q, hatto askarlarni va oddiy xalqni kayfiyati bizga qarshi norozi. Men o'ylaymanki, siz tushunasizmi oxirgisi yolg'on, faqat bir narsa to'g'riroq: Antoniy qo'rqtyapti, sezarchilarda hatto bizni ozgina qo'llash bilan va unda respublikada bitta ham partiya qolmaydi.

Meni xavfli ahvolim tufayli, menga va barcha biznikilarga Italiyadan chiqib ketishga, ketishning qandaydir faxrli sababi bo'lishi uchun, elchi huquqlarini berilishiga qat'iy turishga qaror qildim. U bunga erishishga va'da beradi, biroq men ishonmayman. Ularda bizga nisbatan qahr-g'azab va dushmanlik juda katta, agar hatto Antoniy bizni iltimosimizga rozi bo'lganda ham, ozgina vaqt o'tgandan so'ng, bizni vatan dushmani deb hisoblab; hatto quvg'in qilishga harakat qiladi.

Shunday qilib, meni qarorim qanday deb so'raysan? Ishni taqdiriga berish zarur. Meni o'ylashimeha, Italiyani tashlab ketish lozim, Rodosga yoki qandaydir boshqa joyga ko'chib borish zarur. Agar yana qulayroq hodisa bo'lib qolsa, Rimga qaytamiz. Noqulay hollarda quvg'inda qolamiz. Eng yomon paytda – eng oxirgi himoya-qurolga murojaat qilamiz.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 250 cnp

Mark Antoniy, Oktavian va Emiliy Lepid ittifoqi (II triumvirat – er. avv. 43 – yil)

Dion Kassiy Rim tarixi XVI, 55 – 56 yillar

Dion Kassiy Kokkeyan (eramizning 155 – 235 yillari atrofi) Vifiniya provinsiyasida tug'ilgan. Imperator Kommod davrida senator bo'ldi va boshqa mansablarni egalladi. Dion Kassiy "Rim tarixi" asarini yozib, voqealarni shaharni boshlanishidan eramizning 229-yiligacha bayon qildi. Bizgacha 80 kitobdan, to'la faqat 36-60 kitob yetib kelgan.

Muzokaralar uchun ular 13 bir o'zlar emas, teng sonli askarlar bilan uchrashdilar ... va, qo'lting'i ostida, qandaydir xanjar yo'qmi deb, bir – birlarini tintuv qildilar, sekin ovoz bilan nimadir to'g'risida gaplashib oldilar. Muzokaralarning mazmuni o'zlarini hukmronliklarini mustahkamlash va dushmanlarniyo'q qilish bo'yicha o'zaro qasamyod to'g'risida edi. Lekin, ular oligarxiyaga intifayotganlarini ko'rsatmaslik uchun va bu bilan boshqalarni hasadi va dushmanlik niyatlarinj o'zlariga tortmaslik uchun, ular shunday shartlashdilar; uni tashkil etish va boshqarish uchun davlat boshida rasmiy turadilar, albatta abadiy emas, besh yilga, barchasiga o'zlar egalik qiladilar, hatto bu haqda senat va xalqqa hisobot bermasdan; keyin ular o'zlar barcha provinsiyalarni egallab olishni istamayotganlarini ko'rsatish uchun, lavozim va unvonlarni o'zlariga kim ma'qul kelsa, xususiy tarzda berishga qaror qildilar. Oktavianga boshqaruvga eski va yangi Afrika, Sardiniya va Sitsiliya, Lepidga butun Ispaniya va Narbon Galliyasi, Antoniyga Alpning va uni orqa tomoniga yotgan, qolgan butun Galliya ...

O'zlar kuchli provinsiyalarni olish uchun va boshqalarga go'yoki, ular hammasini bosib olishga intilmayotganliklarini ko'rsatish uchun shunday qur'a tashkil qildilar. Bundan tashqari, ular o'rtaida barcha dushmanlarni yo'q qilishga kelishildi, Desim Brutni o'rniiga konsul bo'lган Lepid Rim va butun Italiyani himoyasi ostida bo'lsin, Antoniy va Oktavian Brut va Kassiyga qarshi yurish qilsinlar. Qachonki, ular buni qasam bilan mustahkamlagach, ular kelishuvni eshitib guvohlik berishlari uchun askarlarni chaqirdilar va oqilona ko'rinishdagi va xavfsiz deb aytish mumkin bo'lган mazmundagi nutq bilan ularga murojaat qildilar.

1. Luzitanlar - Pireney yarim orolining jamubi - g'arbida yashagan qabilalar.

2. funti -- o'sha vaqtida oltinni odatdag'i narxi funt oltin - 4000 sestersiy bo'lган.

3. Ptolemy - Ptolemy XII Avlet Misr podshosi, er. avv. 58 – yil Misrdan haydalgan, er. avv. 55 – yil katta pul evaziga rimliklar taxtga qayta tikladilar.

4. tatstva - davlat xazinasini, daxlsiz vositalarini er. avv. 49-yilda musodara qilinishini ko'zda tutiladi.

5. luperk - diniy bayramlardagi kohinlar.

6. Venera - sevgi va go'zallik ma'budasi.

7. tribuna – notiqlik kafedrasi.
8. kvindesemvir – 15 kishidan iborat kollegiya a'zosi.
9. kitob – qadimgi bashoratlar to'plami.
10. Mart ida – rim kalendariada oy o'rtasidagi kun nomi.
11. grifel – mumga yozadigan o'tkir metall tayoqcha.
12. Provinsiya – Brut aytayotgan provinsiya, Sezar unga bergen Sizal'n Galliyasi edi.
13. ular – Antoniy; Oktavion, Lepid.

Xрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 251 срп

Gay Svetoniy Trankvill. Похий avgustning hayot tasviri

Rimlik yozuvchi Svetoniy ermizning I asri oxirida tug 'ildi. U eramizning I asrida yashagan. 12 imperator hayotini yozdi. Uning asari Yuliy Sezar va Oktavian Avgust tarjimai hollaridan boshlanadi.

Avgustning tashqi ko'rinishi va xarakteri

U ko'rinishda chiroyli bo'lib, har qanday yoshda o'ziga tortar, hech qachon o'zini bezamas edi. U o'z sochlariiga nisbatan kam g'amxo'rlik qildi, tezlik uchun bir necha sartoroshlarga sochini tarash uchun imkon berar edi. Uning yuzi har doim tinch va ochiq edi.

Dastlab u Rim forumi yaqinida, keyin esa Palatinda yashadi, bu uy kamtarin edi. O'zining kattaligi, bezalishi bilan ko'zga tashlanmas edi-xonalarda marmar ham, parket pollar ham yo'q edi. U 40 yildan ko'proq bir yotoqxonada qishda ham, yozda ham uxladi. Qishni u hamma vaqt Rimda o'tkazdi, lekin bu vaqtida shahar, uni sog'ligi uchun zararli ekanligiga ishonch hosil qilsa ham. Agar u maxfiy yoki hech kim xalaqit bermasligi uchun shug'ullanishni istasa, unda alohida yuqori xonacha bor edi, qaysiki uni o'zini "ustaxonachasi" deb atadi. U katta va hashamatli uylarni yoqtirmas edi va qizini hatto juda katta pul turgan saroyini asosigacha buzishni buyurdi. Juda kamtarona bo'lgan shaxsiy yozgi uylarini, u haykallar va kartinalar bilan bezamadi. Terrasa (ayvon) va xiyobonlar bilan bezadi va u yerda qadimgi va juda nodir buyumlarni to'pladi... Aytishlaricha, u past va qattiq to'shalgan to'shakda uxlari edi. Kiyimni faqat xonaki tayyorlanganini kiydi, xotini, singlisi, qizi yoki nevara qizlari ishlov bergen kiyimlarni kiydi. Togani na tor, na keng bo'lmaganini kiydi. Baland ko'rinish uchun, oyoq kiyimiga qalin poshna qo'ydirdi.

Ziyofatlarni muntazam bermadi, dasturxonga u boshqalardan keyin kelib, boshqalardan oldin ketdi, shuning uchun mehmonlar u kelgancha ovqat yeyishni boshlar edilar. U ketganidan keyin ham, dasturxon atrofida qolar edilar. Dasturxonga 3 taom, eng ko‘p 6 taom berilar edi, ularni barchasi oddiy, lekin ulug‘vor quvonch bilan taklif qilinar edi. Kim jim o‘tirsa, yoki sekin suhbatalashsa, ularni umumiy suhbatachaqirar edi, ko‘ngil ochish uchun musiqachilar, aktyorlar va hatto daydi raqqoslar, ko‘proq ertak aytuvchilarni chaqirar edi.

U bayramlar va tantanalarni juda katta hasham bilan, ba’zida kulgi bilan o‘tkazar edi.

Ovqatga kelganda esa, u juda kam va oddiy yer edi. Dag‘al nonni, kichik baliq, nam pishloq, ko‘k anjirni yaxshi ko‘rar edi, vinoni juda kam ichar edi, ochligida faqat sovuq suvda ivitilgan non yoki bodring bo‘lagi, yoki vino ma’zasini beradigan quruq olmalar, yoki yangi olma yer edi.

H. H. Трухина. История древнего Рима. М., 1996. 189-191 сmp

Dion Kassiy. Rim tarixi

Dion Kassiy Oktavian senatda o‘z hokimiyatidan “voz kechgandan” keyin bo‘lgan voqeani keltiradi.

Sezar buni o‘qigan paytda senatorlarni turli xil his-tuyg‘ular chulg‘adi. Ba’zilar uni maqtashga botinmadilar, boshqalar istamadilar, lekin u o‘qigan vaqtida va undan keyin tez-tez qichqiriqlar ko‘tarildi: unga yakka hukmronlikni olishni so‘radilar. Buning maqbulligi haqida har xil vajlar ko‘rsatdilar. Qaysiki uni mutloq hokimiyatni qabul qilishga majbur qilmaguncha, uning foydasi to‘g‘risida har xil vajlarni keltirdilar. Shu vaqtini o‘zida, u mustahkam himoyaga ega bo‘lishi uchun, uni qo‘riqchilariga 2 baravar haq to‘lash to‘g‘risida qaror qildilar. U shunday qilib, go‘yoki adolatli tarzda monarxiyani o‘rnatishni istadi.

Shu yo‘l bilan u senatning va xalqning obro‘iga tayanib, o‘z hukmronligini mustahkamladi. U respublikachi bo‘lib ko‘rinish istagiда, barcha ijtimoiy jamoa ishlari rahbarligini va g‘amxo‘rligini o‘ziga oldi, u barcha provinsiyalarni boshqarmasligini aytdi. U senatga zaif provinsiyalarni qaytardi, chunki ular tinchlikda yashab, urushmas edilar, o‘ziga esa kuchlilarni oldi. Qaysiki ular ishonchsiz va xavfli

edilar, yoki chegarada dushmanlarga ega bo'lib, yoki o'zlar katta isyonlarga qobiliyatli edilar. So'zda bu, go'yoki senat imperiyaning eng yaxshi qismlaridan daromadlarni xavfsiz olishi uchun qilindi. U esa xavfda bo'lib va mehnat qildi, amalda esa senatorlar qurolsiz, urush qilishga qobiliyatsiz va faqat u qurolga ega bo'lib, askarlarni ta'minotini amalga oshirdi.

Ana shunday tarzda, senat va xalqning barcha vakolatlari Avgustga o'tdi, shundan haqiqiy yakka hokimlik ta'sis etildi. Rimliklar yakka hokimlik nomdan shunday darajada nafratlanar edilarki, o'z imperatorlarini diktator ham, podsho ham deb atamadilar. Butun davlat hokimiyati ularga tegishli bo'lgani uchun, davlat monarxiya bo'lishi mumkin emas edi.

H. H. Трухина. История древнего Рима. М., 1996. 188-189 срп

Tayanch iboralar: Sezar; Sitseron, fuqarolik ishlari, Sezarning xasadchilari, Alp, Ispaniya, Korduba, Rona daryosi, Plutarx, gall, Luara, Sena, Domisian, Aleziya, Pireney yarim oroli, Pompey, Sezetiyl Flav, Martida, Oktavian, Lepid, Brut.

3-§. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Qulchilik. Kolonlar

Kolumella "Qishloq xo'jaligi to'g'risida", 1, 1-9; 11, 111, 3

...O'z boyligini ko'paytirishning eng sof va oliyjanob usuli-qishloq xo'jaligi... Endi biz o'zimizda imeniyalarda mustaqil xo'jalik yuritishni mensimaymiz va tajribali odamni, bilmaydigan, lekin juda g'ayratli, unga noma'lum bo'lgan bilan, tezda tanishadigan vilikni qo'yishga hech qanday ahamiyat bermaymiz. Har qanday ishda bo'lganidek, yerkarni olishda ham me'yor bo'lishi lozim. Uning xo'jayini bo'lish uchun, yerni sotib olgan kishilar tasavvurini hosil qilish uchun, o'z-o'ziga yuk ortmaslik va boshqalarni bu yerdan foydalanish imkoniyatini tortib olish emas, qancha kerak bo'lsa, o'z tessarrufida shuncha bo'lishi kerak. Odadta butun mamlakatlarga egalik qiladiganlar, uni hatto o'zlar ayylanib chiqa olmaydilar, podalarni oyoq osti qilishiga va yovvoyi hayvonlarni xarob qilishiga yo'l qoyadigan yoki u yerda o'zlariga majbur fuqarolar va qul-mahbuslar ushlaydigan zodagonlar shunday qiladilar...

... Hammasi shunday tarzda tashkil etilganda, xo'jayin barcha narsa to'g'risida va ayniqsa odamlar to'g'risida g'amxo'rlik qilishi talab qilinadi. Bular yoki kolonlar yoki kishandan ozod qilinganlar yoki kishanlanganlar. U kolonlar bilan kelishuvchan va mehribon bo'lsin. To'lovlardan ko'ra, yanada qat'iyroq ishni talab qilsin, bu (kolon uchun) unga uncha og'ir bo'limgan va umuman foydaliroq. Aslida dala qayerda yaxshi ishlov berilsa, odatda u daromad beradi va hech qachon-agar tabiat ofati aralashsa, yoki talonchining zo'ravonligi – zarar, va kolon muddatini kechiktirishni so'rashga botina olmaydi. Lekin xo'jayin, kolonni majbur qilgan qandaydir bir ishda o'z huquqi to'g'risida qattiq turmasligi lozim, misol uchun to'lov kuniga, o'tin va boshqa mayda majburiyatlarga ular to'g'risidagi tashvish, qishloq xo'jaligiga xarajatlardan ko'ra ko'p tashvish tug'diradi. Bizga juda ham talabchan bo'lish to'g'ri kelmaydi, qadimgilar eng oliv qonunchilik, eng katta qyinoqdir deganlar. Boshqa tomondan hammasiga ham yon berish bo'lmaydi... Bizning xotiramizda keksa konsulyar va eng boy kishi L. Voluziy tasdiqlar edi: egasi uchun eng yaxshi imeniya bu, kolonlar tug'ilgan va beshigidan uzoq ko'nikma bilan go'yoki otasini mulki kabi unga bog'langan. Shuningdek menimcha imeniyani tez-tez ijaraga berish-yomon ish, lekin yana yomonroq bu kolon-shaharlik, yerni o'zi emas, o'z qullari orqali ishlov bersa, Sazern so'zlariga ko'ra bunday odam to'lov emas, sudlashishga olib keladi. Shuning uchun, o'troq va qishloqda tug'ilgan kolonlarni ushlashga harakat qilish kerak, agar bizni o'zimizga o'z qullarimiz orqali yerlarga ishlov berish foydasiz bo'lsa, bu faqat foya bo'ladi, qayerda iqlim sog'lom bo'lmasa va yer hosildor bo'limgan. Iqlim nisbatan sog'lom va yer yomon bo'lmasa, agar faqat haddan tashqari beparvolik yoki qulni o'g'riliqi xalaqit bermasa, har kim o'zi va hatto uni viligi kolondan ko'ra yerga puxta ishlov beradi. Har ikkala illat, shubhasiz odatda xo'jayinni aybi bilan paydo bo'ladi yoki gullab yashnaydi, u shunday (qulni) ishni boshiga qo'ymasligi kerak, yoki uni egallab turga lavozimidan olishiga g'amxo'rlik qilishi lozim.

Alohibda imeniyalarda, qayerga uni egasini borishi qiyin bo'lsa, yerni barcha toifalari a'lo holatda bo'ladi, agarda (uni) vilik-qullardan ko'ra ozod kolonlar ishlov bersa, ayniqsa uzumzor va daraxtlardan ko'ra kamroq g'alla maydonlari, kolonlarni xo'jayinligidan yemiriladi

va qullardan eng ko'p zarar ko'radi, ular ho'kizlarni chetga ijaraga beradilar, qullar ularni va boshqa mollarni yomon o'tlatadilar, yerni puxta ag'darmaydilar, o'zlarini haqiqatda ekkandan ko'ra, donni ko'proq sarflanganini ko'rsatadilar; ekinlarni yaxshi nihol berishi uchun, ekilgan yerlarga yaxshi ishlov bermaydilar, xirmonga yanchish uchun to'plangan donni har kuni aldamchilik yoki beg'amlik bilan kamaytiradilar; chunki uni o'zlarini o'g'irlaydilar va boshqa o'g'rilardan qo'riqlamaydilar, yig'ilganni ular daftarga to'g'ri kiritmaydilar, shundan kelib chiqadiki, boshqaruvchilar ham, qullar ham gunoh qiladilar, yer yana yomonlashadi. Shuning uchun agarda men aytganday xo'jayin bo'lmasa, bunday turdag'i imeniyalarni topshirish kerak.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 269-271 сmp

Kolonlar

Eramizning II asrida Rim imperiyasida davlat qullarni mehnatidam manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida ularga pekuliy berishga o'tdi. Digestlarda pekuliy to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Digestlarni ko'pchiligi mashhur huquqshunoslar Ulpian va Pavel (eramizning II asri oxiri-III asr boshlari)ning asarlari parchalaridir:

Ulpian. Digestlar, XIX, 2,14

Kim ijara shartnomasi tugashi bilan, ma'lum vaqtga ijaraga olsa, kolon bo'ladi; agar xo'jayin unga imeniyyaga qolishga ruxsat bersa, u (yerni ijaraga oluvchiga) shu shartlarda topshiradi va shunday turdag'i shatnomalar na og'zaki, na hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi lozim. Oddiy kelishuv bo'yicha haqiqiy.

Gay. Digestlar, XIX, 2, 25, 3; 6

Ijaraga oluvchi, barchasini ijara to'g'risidagi qonun bo'yicha qilishi kerak. Eng avvalo kolon o'z vaqtida ishlov berilmagani sababli, imeniya yomonlashmasligi uchun qishloq xo'jalik ishlarini muddatida bajarilishiga g'amxo'rlik qilishi lozim. Bundan tashqari, u ular butun bo'lishi uchun, villalar to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozim... Tabiiy ofatlar ijarachiga zarar keltirmasligi lozim; agar hosil o'ta zarar ko'rgan bo'lsa, lekin mo'tadil yo'qotishlarni u osoyishta o'tkazishi kerak, chunki odatdagidan baland daromad undan tortib olinmaydi. Biz buni naqd pulga ijaraga oladigan kolonlar to'g'risida aytdik: kolon-chorikor

mulkdor bilan hamkorlik huquqi bo'yicha foydani ham, zararni ham bo'lishadi.

Qullar

Pomponiy. Digestlar XV, I, 4, 1-2

Pekuliy-bu xo'jayindan alohida kirim-chiqim daftariga kiritadigan (mulk) emas, xo'jayin o'zi, o'z hisobini qulni hisobidan farqlab ajratgan mulkdir, xo'jayin qulni pekuliyini to'la tortib olishi, yoki ko'paytirishi, yoki kamaytirishi mumkin, qul nima qilganini emas, balki xo'jayin qulning pekuliyini o'rnatish uchun, nima qilganini hisoblash kerak... Shundan ko'rindiki, pekuliy xo'jayinni ruxsatsiz ega bo'lgan narsa emas, balki uning xohishi bo'yicha, aksincha qul xo'jayindan o'g'irlagani ham pekuliyga kirar edi, lekin bu bunday emas.

Ulpian. Digestlar XV, I, 7, 4

Pekuliyda har xil mulk bo'lishi mumkin, va ko'chadigan va ko'chmas...

Martsian. Digestlar, XV, I, 40, 1

Savol tug'iladi, pekuliy qanday vujudga keladi? Qadimgilar shunday aniqlaydilar: pekuliy-bu xo'jayin unga berishi majbur bo'lgan buyumlardan tashqari, qul oladigan buyumlar. Xo'jayin beradigan tunika va shunga o'xshashlar, pekuliy emas.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 271-272 сmp

Polibiy. Umumiy tarix

VI kitob. 3.4 bob... Shunday qilib, (rimliklarda) ilgari aytganimiz-dek, davlat hokimiyatining barcha uch ko'rinishi bor edi; bu ko'rinishlar o'rtasida hamma narsa shunday teng taqsimlangan va tegishli tarzda tartibga tushirilgan ediki, hech kim, hatto mahalliy aholidan ham hech kim davlat qurilishi demokratikmi, aristokratik yoki monarxiya edimi deb qat'iy qaror qila olmas edi.

VI.11.12. Va bu tabiiy. Aslida agar biz konsullar hokimiyatiga e'tiborni jalb qilsak, davlat to'la monarxiya va podsholik bo'lib ko'rindi, agar senat hokimiyatiga-unda aksincha aristokratik, agar kimdir xalq hokimiyatiga qarasa-yaqqol demokratik ko'rindi.

VI. 12. 1. Konsullar qo'shinni yurishga olib chiqmag'an paytlarida, Rimda turib, barcha davlat ishlarini bajaradilar. 2. Axir boshqa barcha

qolgan mansabdar shaxslar, xalq tribunlaridan tashqari, ularga itoat bilan bo'y sunadilar, ular hamda senatga elchilik kiritadilar. 3. Buning ustiga, konsullar muhokama qilish talab qilinadigan ishlarda senatorlarga hisobot beradilar va qarorlarni bajarilishini kuzatadilar. 4. Konsullar ixtiyorida xalqni vakolatidagi barcha ishlar kiradi, ular xalq yig'inlarini toplashlari lozim va (unga) takliflarni kiritish, ko'pchilikni qarorlarini amalga oshirishlari lozim. 5. Konsullar urushga tayyorlanishda va umuman harbiy yurishlarda deyarli yakka hokimiyatga egalar. 6. Axir ularga ittifoqchilardan nima lozim topilsa, hammasini talab qilishga ruxsat berilgan, harbiy tribunlarni tayinlashga, xizmatga yaroqlilarni tanlab, askarlarni toplash. 7. Buning ustiga, ular harbiy lagerda ularga bo'y sunadiganlardan har qanday kishini jazolash hukmiga ega. 8. Shuningdek davlat xazinasidan qancha talab qilsa, shuncha pulni sarflash ularni ixtiyorida, ularning orqasidan, ularning har qanday ko'rsatmalarini bajarishga tayyor kvestorlar yuradilar. 9. Shunda agar kimdir bu hokimiyatga e'tiborini qaratsa, (Rimda) davlat monarxiya va podsholik deb aytishi mumkin...

VI. 13. 1. Senatni ixtiyorida eng avvalo xazina turadi. Chunki u barcha kirim va chiqimga to'la xo'jayinlik qiladi. 2. Kvestorlar senatni ruxsatisiz hech qanday ehtiyojga konsullar talab qilganidan tashqari, hech nima bera olmaydilar. 3. Va boshqalarga qaraganda, eng muhim xarajat senzorlar har besh yilda bir marta jamoat inshootlarini ta'minlash va qurishga sarflanadigan va boshqalarga qaraganda, katta va eng muhim xarajatga senat xo'jayinlik qiladi va unga senzorlarga ruxsat senat tomonidan beriladi. 4. Shunday tarzda Italiyada sodir etiladigan va davlat tekshiradigan barcha jinoyatlar: xoinlik, fitna, zaharlash, mo'miyolash, o'ldirish kabilarga senat xo'jayinlik qiladi. 5. Bundan tashqari, Italiyada alohida odam yoki polis tortishuvini yechish, jazolash, yordam yoki himoyaga muhtoj bo'lsa, bu ishlarda senat chiqadi. 6. Agarda Italiyadan tashqariga kimgadir kelishuv uchun (yordamga) chaqirish uchun, (nimagadir) ruxsat uchun, urush e'lon qilish uchun bu to'g'risida senat g'amxo'rlik qiladi. 7. Shunday tarzda Rimga elchilik kelsa, ulardan kimni qabul qilish va kimga qanday javob berish kerakligiga senat javob beradi. Yuqorida aytilgan ishlarda xalq mutlaqo hech qanday qatnashmaydi. 8. Shunday tarzda, kimdir Rimga

konsul bo'Imagan paytda kelsa, davlat to'la aristokratik ko'rindi. 9.
Barcha ishlar bilan (rimliklarda) senat rahbarlik qiladi.

VI. 14. 1. Shuning uchun davlatda hokimiyatni qaysi qismi xalq qo'lida deb asosli so'rash mumkin. 2. Shu vaqtida senat aytiganga binoan, barcha ishlarga, har-xil kirim-chiqimlarni boshqarganda, konsullar bosh qo'mondon sifatida urushga tayyorlanishda va harbiy yurishlarda cheklanmagan hokimiyatni egalladilar. 3. Shu bilan birga xalqni ishtiroki uchun, hatto juda kuchli qatnashuvi uchun o'rinn qoladi. 4. Chunki davlatda faqat xalq mukofotlash vajazolash hokimligiga ega, shu bilan birga podsholiklar va ozod davlatlar, umuman insoniyatning mavjudligini sharti mukofotlar va jazolar bilan ushlab turish yotadi.

Хрестоматия по истории древнего Рима. М., 1987. 47-50 срп

Digestlar

1-kitob. 2- bob.

16-§. Podsholar haydalgandan keyin, ikki konsul (lavozimlari ta'sis qilindi), qonun asosida ular oliy hokimiyatdan foydalandi. Ular davlat to'g'risida juda g'amxo'rlik qilganliklari uchun shunday deb ataldilar. Ular o'zlariga butun podsho hokimiyatini o'zlashtirib olmasliklari uchun, qonun bo'yicha ularga nisbatan provokatsiya² huquqi va ular xalqning buyrug'isiz Rim fuqarosini o'lim jazosiga hukm qilmasliklari uchun; ularga faqat ushslash va kishanga hukm qilish qoldirildi. An'anaga ko'ra, qonun senturiy komisiyalarida er. avv. 509-yilda qabul qilingan¹ huquqi belgilangan edi va ular xalqning buyrug'isiz Rim fuqarosini o'limga hukm qilmasliklari uchun; Ularga faqat ushslash huquqi va hukm qilish huquqi qoldirilgan edi.

17-§. Keyin, senzni allaqachon o'tkazish kerakligi uchun konsularda bu (vazifa) majburiyatni bajarish uchun, vaqt yetmaganligi sababli senzorlar ta'sis etilgan edi.

18-§. Keyin xalqning yuksalishi bilan, qo'shinlar bilan tez-tez va juda shafqatsiz urushlar boshlanib ketganda, vaziyat tazyiqi ostida katta hokimiyatga ega bo'lgan lavozimni kiritishga qaror qilingan edi va shu tarzda diktatorlar ta'sis qilingan edi, ular provokatsiyaga tegishli emas edilar va hatto o'lim jazosiga hukm qilish huquqiga ega edilar. Bu lavozim oliy hokimiyatga ega bo'lganligi uchun, 6 oydan ortiq egallah mumkin emas edi.

19-§. Bu diktatorlarga (yordamchilar sifatida) otliqlar boshlig'i (qo'shib) biriktirildi...

20-§. O'sha vaqtarda, taxminan podsholar haydalgandan o'n yetti yil keyin, plebeylar patritsiylardan ketib qolganlarida, ular Muqaddas tog'da turib, plebeylar lavozimli shaxslarini o'zlariga saylaydilar. Plebiylar tribunlar deb ataldi, chunki qachonlardir xalq 3-tribga⁴ bo'lingan edi. Ularning har biridan bir (tribun) saylanar edi, chunki (barchani) saylash triblar⁵ bo'yicha o'tar edi.

21-§. Plebeylar o'z qarorlarini saqlaydigan ibodatxonalarini, kimdir kuzatishi uchun plebs tarkibidan, edil deb ataladigan, ikki mansabdar shaxs ta'sis etildi.

22-§. Keyin, erariy⁶ o'sib borishi bilan, unga qarash uchun xazinani boshqaradigan kvestorlar ta'sis etildi. Ular pul mablag'lari izlab topish va saqlash maqsadida saylanganlari uchun shunday deb ataldilar.

26-§. Keyin, plebeylardan konsullar saylashga qaror qabul qilin-ganda, ularni har ikki toifadan saylay boshladilar. O'shanda⁷, patritsiylar qandaydir afzalliliklarga ega bo'lishlari uchun, patritsiylardan ikki mansabni ta'sis etishga qaror qilindi. Kurul edillari shunday tashkil etilgan edilar.

27-§. Konsullar qo'shni xalqlar bilan urushlarga chaqirilganlari sababli, Rimda huquqni hech kim amalga oshirmas edi, pretor ham saylansin deb aytildi, chunki u shaharda sudni amalga oshirdi.

28-§. Oradan bir necha vaqt o'tgach⁸, bu pretor yetarli bo'lmadi, chunki Rimga peregrinlarning⁹ juda katta oqimi keldi va o'rnashdi, boshqa pretor saylandi, nomini peregrinlar orasidagi sud ishlarini ko'p qismini ajrim qilgani uchun o'sha nomni oldi...

32-§. Sardiniya olingandan keyin, Sitsiliyadan keyin¹⁰, hamda Ispaniya¹¹ olingandan keyin va Narbon provinsiyasidan keyin qancha provinsiya Rimga bo'ysungan bo'lsa, shuncha pretor saylandi, ular qisman shahar, qisman provinsiya ishlari bilan shug'ullandilar.

Хрестоматия по истории древнего Рима. М., 1987. 54-55 сmp

Varron Latin tili to'g'risida

V, 80: Pretor deb, huquqni amalga oshiradigan qo'shinga boshliq bo'ladigan kishiga aytildi.

V, 81: Kvestorlar o'z nomlarini tadqiqot, izlab topish so'zidan

oldilar; bular jamoa xazinasini yig'adi, qidiradi va yovuz ishlarni tekshiradi, buni endi jinoiy ishlar bo'yicha triumvirlar qiladilar.

V, 155: Komisiya (joy) deb, u yerga kuriya sababli ajrimlarni o'tkazish uchun kuriya yig'ilishlari o'tkazishga to'planadilar.

1. yurishlarda harbiy tadbirlarni boshqarishda.

2. provokatsiya Rim fuqarosini xalq yig'iniga o'lim jazosigacha bo'lgan hukmni bekor qilish uchun bo'lgan huquqi.

3. qonun senturiy komisiyalarida er: avv. 509 yilda qabul qilingan, er:avv. 449- yilda yangilangan.

4. 3-trib - podsholik davrida Rim aholisi 3-qabila yoki Tiser, Ramn va Luser urug' tribidan iborat edi.

5. saylash triblar - er:avv. VI asr o'rtalaridan Serviy Tulliy davridan Rim yerlari 3 hududiy okrugga bo'lingani bu yerda ko'zda tutiladi.

6. erariy - Rim xazinasi.

7. O'shanda - er: avv. 366-yil.

8. vaqt o'tgach - er: avv. 242- yil.

9. peregrinlar - Rimda yashovchi, rimliklar bilan ish olib boradigan, Rim fuqaroligiga ega bo'lмаган chet elliklar.

10. Sitsiliyadan keyin - er: avv. 227-yildan.

11. Ispaniya - er: avv. 197-yil.

Хрестоматия по истории древнего Рима. М., 1987. 55 срп

Sekst Pompey Fest. So'zlarni ahamiyati to'g'risida

Munitsipiylarni fuqarolari yana kim boshqa fuqarolikga ega bo'lib, rimliklarga qo'shilgan kishi, unga magistraturani egallashga ruxsat berilmas edi, faqat bir qism fuqarolik majburiyatlarini bajarishga ruxsat berilar edi, Qum, Aserra, Atella aholisi Rim fuqarolari edilar, qo'shinga xizmat qilar edilar, lekin faxrli lavozimlarni egallamas edilar.

1. Qum - Kampaniyadagi shahar, er: avv. 338-yilda uning aholisiga ovoz berish huquqisiz fuqarolik huquqi berildi

2. Aserra - Kampaniyadagi shahar, er:avv. 332-yilda uning aholisi ovoz berish huquqisiz fuqarolik huquqi berildi.

Rim huquqshunoslari munitsipiylar to‘g‘risida

I bo‘lim. Munitsipiylar fuqarolari va ko‘chib kelganlar to‘g‘risida

I. Ulpian, III asr. Munitsipiy fuqarosi kelib chiqishi bo‘yicha yoki erkinlikka chiqarishdan keyin, yoki o‘g‘il qilib olish orqali bo‘lishi mumkin. So‘z ma’nosiga ko‘ra, munitsipiylar fuqarolari deb, davlatga qabul qilingan fuqarolik majburiyatlarini boshqarishga ishtirok etadigan, biz bilan fuqarolik majburiyatlarini ijro etadiganlarga aytildi, lekin hozir biz boshqa ma’noda alohida shaharlarni, misol uchun Kapuya va Puteol fuqarolarini munitsipiylar fuqarolari deb aytamiz. Bu holda kimni ota-onasi Kapuya fuqarosi bo‘lsa, u Kapuya fuqarosi bo‘ladi, lekin uning otasi Kapuya fuqarosi, onasi Puteoldan bo‘lsa, u Kapuya fuqarosi bo‘ladi, agarda faqat tasodifan onasini vatanini alohida imtiyozga ega bo‘limasa, ana shunda u onasini vatanini fuqarosi bo‘ladi. Misol uchun, Ilion aholisiga Iliondan onasi kelib chiqqan bo‘lsa, ularni fuqarosi bo‘ladi. Delfa uchun hali bu saqlanib qolgan. Bundan tashqari, Sels xabar beradi. Buyuk Pompeyni marhamati bilan, Pontlik ona tuq-qan pontlik bo‘ladi degan qonun bilan o‘rnatalgan.

21-bob. 4. Qonuniy nikohga sep arning mulkiga tegishli, lekin agarda mulk qandaydir tarzda munitsipal vazifalarini bajarishda ishlatilsa sejni unga qo‘sish kerak emas.

22. 2. Ozod qo‘yilganlar munitsipiylarni fuqarolari hisoblanadilar, o’sha yerda ular yashashni afzal ko‘rgan joy, shu bilan birga patronni vatan hech qanday ahamiyatga ega emas va ular majburiyatlarni bajarishga u yerda va shu yerda tortiladilar.

22. 5. Senatorlar, ularni o‘g‘il va qizlari qachon tug‘ilgan bo‘lsalarda, hamda nevaralari, chevaralari va evaralari munitsipal g‘ururni saqlab qolsalarda, o‘z vatanini fuqarolari hisobidan o‘chiriladilar.

23. Germogenian, IV asr. Munitsipal fuqarolik senatorlik yoshiga yetishi bilan tugaydi, majburiatlarga kelganda, lekin hurmat-c’tiborga nisbatan vatan saqlanadi. Hatto ular ozodlikka chiqarganlar ham, o‘z tug‘ilgan joyida fuqaroga aylanadilar, askar o‘zi vatanida hech narsaga egalik qilmasa, o‘zi xizmat qilgan joyda uygaga ega bo‘ladi.

26. Pavel, III asr. Munitsipal magistrat fuqarolik ishlari bo‘yicha

sud hokimiyatiga qaraganda, oliv hokimiyat vakolatida bo‘lgan ishni bajarish huquqiga ega emas. Munitsipal magistratlarga eski huquqlarda tiklash ruxsat etilmagan.

27. Ulpian. III asr. Ozod qo‘yilgan ozod qo‘ygan mansub bo‘lgan munitsipiyni fuqarosi bo‘ladi, uning turar joyini emas, uni vatanini fuqaroligini meros olgan holda va agar uning patroni-ikki shahar fuqarosi bo‘lsa, shunda ozodlikka qo‘yilgandan keyin, u o‘sha shaharlarning fuqarosi bo‘ladi. Agar kim o‘z ishlarini koloniyalarda emas, munitsipiylarda olib borsa, u yerda sotadi, sotib oladi, bitimlar tuzadi, u yerda jamoa hayotida qatnashadi, hammomlardan foydalanadi, tomoshalarni ko‘radi, bayram kunlarini nishonlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, munitsipiyning barcha imkoniyatlaridan foydalanadi va hech qanday koloniyalarni emas. Shunda u ko‘proq u yerda yashashga ega bo‘ladi.

29. Gay, II asr. Ko‘chib keluvchi magistratlarga bo‘ysunishi lozim va u yashayotgan o‘sha joyda va o‘sha kimni fuqarosi bo‘lsa.

Хрестоматия по истории древнего Рима. М., 1987. 240-241 срп

Karakallaning 212-yildagi imperiya aholisiga Rim fuqaroligini berish to‘g‘risidagi edikti

(Dion Cassiy, 78,9,3-5)

...U boy fuqaro va jamolardan sovg‘alar talab qildi, turli xil soliqlarni kiritdi, qullarni ozod qilishga 20 qism o‘rniga 10 qismi hajmida soliq kiritdi, meros va hamma vasiyatlarga turli xil soliqlar kiritdi. U vafot qilganlar bilan yaqin aloqada bo‘lganlarga shunday vaziyatlarda meros huquqi va soliqlardan ulush olishni bekor qildi. Shuning ilinjida u o‘z davlatining barcha aholisini Rim fuqarolari qildi, so‘zda ularga hurmat ko‘rsatib, amalda shunday vosita bilan o‘z daromadlarini ko‘paytirmoqchi bo‘ldi, chunki fuqarolikka ega bo‘limganlar bu soliqlarni ko‘pchilagini to‘lashlari kerak emas edi.

Хрестоматия по истории древнего Рима. Под редакцией профессора В.И.Кузинина Москва «Висиная школа» 1987. 244 срп

Tayanch iboralar: Kolumella, kolonlar; L. Voluziy, Ulpian, Digestlar; Gay, qullar; Pomponiy, Ulpian, Pekuliy, Martsian, Polibiy, aristokratik, senator, harbiy tadbir, Kvestor; rimliklar: provokatsiya, diktator, Tiser, Ramn, Luser, erariy, munitsipal.

Rim qo'shining tashkil etilishi

Polibiy. Umumiy tarix, IV, 19-22

Polibiy (*er. avv. 200-120-yillar atrofida*) eng yirik yunon tarixchilaridan. O'z mambalariga temqidiy qaradi, tarixchini o'zi o'rghanadigan mamlakatlar va xalqlar bilan, harbiy harakatlar teatri bilan shaxsan tanishishga katta ahamiyat berdi. O'z ko'zlariga, quloglariga qaraganda ko'proq ishonish kerak deb hisobladi. Shuning uchun ko'p sayohat qildi. Rimning Makedoniya bilan uchinchi urushidan keyin garov sifatida Rimga yuborildi. Rimda u boshqa axey zodagonlari bilan birga 16 yil turdi. Polibiy 40 jildli "Umumiy tarix" asarini yaratdi, undan faqat 5 kitob qolgan.

...Qachonki belgilangan kun yangi olinganlar to'planganda, ular dan eng yoshlari va kambag'allarini tribun yengil qurollanganlarga, ulardan keyin-hastatlar, eng gullab-yashnagan yoshdagilar-principeslar, yetuk yosha bo'lgan 1200 og'ir qurollangan jangchilar, ikkinchi jangovar chiziqni tashkil qilganlar; triarilar – og'ir qurollangan tajribali jangchilar, uchinchi jangovar chiziqni tashkil etganlar; rimliklarda faqat nomlanishi va yoshiba qarab emas, qurol turi bo'yicha farqlanadigan har bir legion shunday bo'lingan edi. Jangchilarni taqsimlanishi shunday amalga oshirilar edi: triarilar deb ataladigan keksalar olti yuz kishi bo'lishi kerak edi, principes bir ming ikki yuzta, hastat ham shuncha, boshqalari esa yengil qurollanganlar turini eng yoshlari tashkil qilar edi. Agar jangchilar soni 4 mingdan oshsa, jangchilarni turlar bo'yicha taqsimoti o'zgarar edi, triariylar bundan mustasno edi, ularni soni muntazam o'zgarmas edi.

Tribunlar eng yosh jangchilarga qilich, drotik (kalta nayza) va yengil qalqon bilan qurollanishni buyurar edilar, qalqon mustahkam ishlanib, mudofaa uchun yetarlicha katta edi. Ko'rinishidan u doirasimon va eniga 3 futni tashkil qilar edi. Bundan tashqari, yengil qurollanganlar boshlariga tekis qalpoq kiyadilar, ba'zida bo'rini terisi yoki shunga o'xshash naarsani boshni yopish uchun, hamda alohida boshliqlarga bu belgi bo'yicha janglarda botir bo'lganlarni yaiqovlardan ajratish imkoniyatini berish uchun edi. Nayza4ning yog'och sopi odatda ikki

lokt' va qalnligi bir dyuym edi. Uning uchi pyaden uzunligida bo'lib, shunday ingichka va o'tkirlangan ediki, birinchi zarbadan keyin albatta qayrilar edi, chunki raqib uni qaytib otmasligi uchun, qaysiki drotikdan har ikki tomon foydalanishi mumkin edi.

Ikkinci yoshdag'i hastat deb ataladigan jangchilarga to'la qurolyarog'da yurishga buyruq beriladi. Uning tarkibida eng avvalo kengligi yassi qismiga ikki yarim fut, uzunligi 4 fut bo'lgan katta o'lchovdag'i bir pyadenden uzunroq bo'lgan qalqon kiradi. U ikki taxtadan yasalgan bo'lib, bir-biri bilan buqa yelimi bilan yopishtirilgan va tashqi tomondan dastlab bo'z bilan, keyin buzoq terisi bilan qoplangan edi, keyin qalqon uning chetlari balanddan va pastdan temir yo'llarga ega, qaysiki uni qilich zarbidan himoya qiladi va jangchiga uni yerga qo'yishga imkon beradi. Qalqon yana toshlar, sarissalar va boshqa yana har xil xavfli otiladigan snaryadlarni kuchli zarbalaridan uni himoya qiladigan temir bo'rhma bilan ta'minlangan. Qurolyarog' tarkibida qalqondan tashqari, o'ng songa taqiladigan iber6 qilichi deb ataladigan qilich kiradi. U qattiq va mustahkam tig' bilan ta'minlangan, shuning uchun u yuqori darajada kesadi va har ikki tomoni bilan og'ir zarba beradi. Bunga ikki otadigan nayzani, mis qalqon va pichoqni qo'shish kerak. Nayzalar og'ir va yengillarga ajraladi. Aylana, og'ir nayzalar eniga pyaden bo'ladi, to'rt qirralilari har tomonga shuncha. Yengil nayza o'rtacha kattalikdagi uzun dastali nayzaga o'xshaydi va uni og'iri bilan birga taqadilar. Har ikki turdag'i nayzani yog'ochini uzunligi uch lokt' atrofida. Har bir nayzani atrofi temir uch va nayza dastasi uzunligidagi ilmoq bilan ta'minlangan. Nayza uchi dasta bilan mustahkam birlashtirilgan va ish uchun juda qulay, shuning uchun uni yog'ochni o'rtasigacha tushiradi va ko'pgina temirchalar bilan mustahkamlaydilar, shuning uchun qismlarni birlashtirilgani foydalangan paytda, temir sinmagan taqdirda, hech qachon buzilmaydi; shuningdek nayza uchi asosidagi, qalnligi u yog'och dasta bilan birlashgan joyda bor-yo'g'i bir yarim barmoq keladi. Rimliklar nayza qismlarini birlashtirishga shunday e'tibor beradilar. Barcha aytilganlardan tashqari, ular dubulg'alarini uchta tik bo'lgan qizil yoki qora rangdagi deyarli uzunligi loktgacha bo'lgan pat bilan bezaydilar. Dubulg'aning ustidagi patlar boshqa qurollar bilan birga, odamni bo'yini go'yoki uzun qiladi va jangchiga

chiroyli va basavlat ko'rinish beradi. Ko'pgina jangchilar uzunligi va kengligi pyaden bo'lgan mis taxtachani-blyaxani (to'g'a) osib yuradilar, qaysiki ko'krakga taqilgani uchun ko'krak deb ataladi. Shu bilan qurol-yarog' tugallanadi. Senzorlar mulki 10 ming draxmadan ko'p deb belgilangan fuqarolar qolgan aslahalarga ko'krak o'rniga sovut qo'shadilar. Principes va triarilar ham aynan shunday qurollanganlar, faqat shu farq bilanki, triari drotiklar o'rniga nayza ega...

Rimliklar lager'ni quyidagi tarzda qiladilar: hamma vaqt lager uchun maydon tanlanishi bilan. barcha lagerni kuzatish va buyruqlar berish uchun eng qulay joy, konsul chodiri uchun ajratiladi. Konsul chodiri bo'lishi kerak bo'lgan joyda bayroq o'rnatilib, bayroq atrofida to'rtburchakli bo'shliq o'lchanadi, shuningdek uning har bir tomoni bayroqdan yuz fut masofada turadi, maydonni o'lchangan yuzasi to'rt plefra⁸. Har doim bu to'rtburchakni bir tomonidan aynan lagerni suv va oziq- ovqatlar bilan eng yaxshi ta'minlanganishi kutiladigan tomonidan Rim legionlari quyidagi tartibda joylashtiriladi: har bir legionda, biz hozir aytganimizdek, olti tribun bo'ladi, ikki konsulni har biriga ikki legion bo'yusunadi, shundan yaqqol ko'rindiki, konsullarni yurishda 12 tribun hamrohlik qiladi. Shunday qilib, barcha tribunlarni chodirlari yuqorida aytilanidek, to'rtburchak tomonga parallel to'g'ri chiziqda, undan otlar, yuk hayvonlari va tribunlarni boshqa zaxiralari uchun yetarli joy qolishi uchun, ellik fut uzoqlikda qo'yiladi. Yuqorida aytilan shakl chodirlar ortida turadi, to'rtburchakni tashqi tomoniga qaratilgan; uni biz hamma vaqt butun lagerning tomoni deb hisoblaymiz. Tribunlarning chodiri biri ikkinchisidan teng masofada va shunday uzoqlikda Rim legionlarini butun kenglik bo'yicha qamrab oladi.

Keyin yana tribunlarni chodirlarini davomiyligi bo'yicha ularni oldidan to'g'ri chiziqdan bu keng maydonni cheklaydigan yuz fut bo'shliq o'lchanadi, legionlarni turar joylari bunyod qilinadi, yuqorida belgilangan to'g'ri ikkiga bo'linadi, bo'lish nuqtasi to'g'ri burchak ostida chiziq tortiladi, uning ikki tomoni bo'yicha ikki legionning otliqlari joylashtiriladi, bir - biriga qarama-qarshi ellik fut masofada. qiya chiziq o'zaro o'rtalik o'rtasidan o'tadi.

Shunday joylashuvda butun lager teng tomonli to'rtburchak ko'rnishida bo'ladi, undan o'tkazilgan ko'chalar va boshqa qurilmalar uni

shaharga o'xshatadi. Chodirlar barcha tomondan val (to'siq) dan 200 fut uzoqlashtirilgan. Bu erkin bo'shliq katta va turli xil qulayliklar keltiradi. U lagerga qo'shinni kirish va chiqarishga juda qulay, chunki alohida qismlar o'z ko'chasidan bu erkin bo'shliqqa chiqadi, shu sababli jangchilar bir yo'lda to'qnashmaydilar va bir – birini ag'darib tashlamaydi. Shu yerga rimliklar bosib olingan hayvonlarni olib keladilar, dushmanidan olingan o'ljani olib kiradilar va bular bu yerda tunda mustahkam qo'riqlanadi. Lekin eng muhimi – buning natijasida jangchilarga juda siyrak ehtimollardan tashqari, tungi hujumlar vaqtida olov ham, uloqtiriladigan snaryadlar ham uchib kelmaydi, bularni barchasi chodirlarga ancha uzoq masofada jangchilarga hech qanday zarar yetkazmaydi.

Rimliklar askar uchun quyidagi turdag'i qilmishlarni qo'rqaqlig' va uyat- sharmandalik deb hisoblaydilar: agarida kim rag'batlantirish olish uchun tribunlar oldida yolg'ondan o'ziga faxrli jasoratni ko'rsatса, keyin yana kim o'ziga topshirilgan postni qo'rqaqlik qilib tashlab ketsa, yoki jang qizg'in paytda qo'rqaqlik qilib, qandaydir qurolini tashlasa, mana shuning uchun ayrim askarlar postda turib ko'p sonli dushmanni ko'rib, ular jang maydonidan qaytganlaridan so'ng jazo olishdan qo'rqb, o'z postini tashlab keta olmaydi. Boshqalar jangda qalqon yoki qilich yoki qandaydir qurolni yo'qotganlar, yo'qotganlarini topish umidida yoki yuvilmaydigan sharmandalikdan, o'z o'rtoqlarini qiynoqlaridan, faqat o'lim xalos qiladi degan fikrda dushman saflariga aqslizlarcha tashlanar edilar.

-
1. *uchinchi* – er. avv. 171-167 yillar;
 2. *Hastat* – *Gastatlar* – yosh yengil qurollangan jangchilar, qo'shinni birinchi chizig'ini tashkil qilganlar;
 3. *princepeslar* – *birinchilar*, asosiylar;
 4. *Nayza* – drotik.
 5. *lokt* – 1-lokt-0,5 metr;
 6. *iber* – Ispaniyada yushagan qadimiy qabila
 7. *lager* – qarorgoh.
 8. *plefra* – taxminan 30. 83 m ga teng yunon o'lcovisi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 214-217 срп

Vegetiy. Harbiy ishni qisqacha bayoni

II kitob. I-bob. Harbiy kuchlar... uch qismiga bo'linadi: otliqlar, piyodalar va flot. Otliqlar qismi qanotlar deb ataladi, chunki ular qanotlarga o'xshab, u va boshqa tomondan jangovar safni to'sib turadi. ... Boshqa turdag'i legionar deb ataladigan otliqlarning turi bor, chunki ular legion tarkibiga kiradi. Flot ham ikki turdan tuzilgan: bir xil kemalar liburnlar, boshqalari kruser lar deb ataladi.

1. Suvoriylar bilan tekisliklar himoya qilinadi. Flot bilan dengizlar yoki daryolar, piyodalar bilan tepaliklar, shaharlar, tekis va darasimon joylar. Shundan tushunarliki, davlatga hamma joyda yaroqli bo'lishi mumkin bo'lgan piyodalar ko'proq kerak; va bu askarlarning katta qismi kam xarajatlar bilan saqlanishi mumkin. "Qo'shin" nomi o'zining asosiy mashg'ulotlari, aynan mashqlari'dan oldi. Qaysiki u nima uchun bu nomni olganini hech qachon unutmasligi uchun. Piyodalarning o'zi ikki turga bo'lingan:

1. Yordamchi qismlar. 2. Legionlar.

Yordamchi qismlar ittifoqchilik va shartnoma munosabatlarda bo'lgan qabilalardan yuboriladi; Rim jasorati esa, hamma vaqt o'z kuchini doimiy legionlarda ko'rsatar edi. "Legion" atamasi eligere5 ("tanlab olish") so'zidan kelib chiqadi, bu so'zni o'zi askarlarni tanlab oladiganlardan sadoqat va harakat qilishni talab qiladi. Odatda yordamchi qismlar bo'yicha kam sonli ko'ngilli askarlar, legionlarga ancha ko'proq olinadi.

5. Shunday qilib, jasoratli, jismoniy kuchi bilan ajralib turgan yosh askarlarни sinchiklab tanlab olib, bu yerga har kunlik mashqlarni, to'rt yoki undan ko'proq oy davomida qo'shib, bizning baxtli, yengilmas hukmdorimiz buyrug'i va rahbarligi bo'yicha legion tashkil etiladi. Qachon askarlarning terisiga o'chirib bo'lmaydigan (kuydirilgan) nuqta6 belgilangandan keyin, askarlar ro'yxatga kiritiladilar va keyin odatda ularni qasam ichishga majbur qiladilar, bu harbiy qasam deb ataladi ... Askarlar imperator nima buyursa, shuni sidqidildan qilaman, hech qachon harbiy xizmatni tashlab ketmayman, Rim davlati uchun o'limdan qaytmayman deb qasam ichadilar.

2 ... Endi men, legionlar va yordamchi qismlar o'rtasidagi farq, mening fikrimga qandayligini bayon qilaman. Yordamchi qismlar

turli joydan turli miqdorda kelib, urushga borganda, bir-birlari bilan o'rganish bilan ham, tanishlik bilan ham, malaka bilan ham, ular o'zaro bo'g'lanmaganlar. Ularda jang qilish usullari har xil, ular qurolni har xil ishlataladilar⁷. Va albatta, janggacha bir-birovlaridan kuchli farq qilganlar, g'alabaga sekin keladilar. Nihoyat yurishlarda barcha askarlar bir ishora va buyruq bo'yicha harakat qilishi va saftanishi juda muhim, kim ilgari buni birgalikda va birdek qilmagan bo'lsa, bu buyruqlarni birdaniga bajarishlari mumkin emas. Lekin, bu qismlar ham, agar ularni deyarli har kun turli mashqlar bilan bir yil davomida, o'zlarini mustahkamlashga majbur qilsalar, ko'p foyda keltirishlari mumkin. Yordamchi qismlar hamma vaqt legionlarga yengil qurollanganlar sifatida, jangovar safga qo'shilar edilar. Jang vaqtida asosiy yordamidan ko'ra, qo'llab-quvvatlashga xizmat qilar edilar. Legion esa, o'zining og'ir qurollangan kogortalari bo'lган prinsiplar, gastatlar, triarilar, antesignanlar⁸ va yengil qurollangan piyodalar qismlari bo'lган, kalta nayza otuvchilar, tosh otuvchilar, balistariylar, o'zlarining tarkibiga kiritilgan legionlar otliqlarga ega bo'lib, bir xil ko'rsatmalarga bidadlikda rioya qilib va lagerni mustahkamlab, jangovar safga tizilib, jang olib borib, barcha munosabatlarda yaxlit bo'lib, hech qanday tashqi yordamga muhtoj bo'lmasdan, bunday legion odatda har qanday dushman olomonini yengishi mumkin ... 4. Barcha tarixchilarda topish mumkin, har bir konsul dushmanqa qarshi yurish qilganda, ular ko'p sonli bo'lган taqqidirlarida ham, ittifoqchilarning yordamchi qismlari qo'shimchalari bilan faqat ikki legionga qo'mondonlik qilganlar. Ularning o'rgatilganligi, o'ziga ishonchi shunday ediki, har qanday urush uchun ikkita legion to'la yetarli deb hisoblanar edi. Shu sababli, men qadimgi legionni tuzilishini harbiy qonunlar normalariga ko'ra bayon qilaman.

6. Bilish kerak, bir legionda o'n kogorta bo'lishi lozim. Lekin birinchchi kogorta harbiylarni soni bilan, qadr-qimmati bilan, boshqalardan ustun turadi. U o'ziga kelib chiqishi va ma'lumoti bo'yicha tanlangan yerlarni kiritadi. U burgutni oladi: bu Rim qo'shinini bosh bayrog'i idir, bir vaqt ni o'zida butun legionning bayrog'i hisoblanadi. U imperatorlarni tasviriga e'tiqod qiladi, boshqacha aytganda, ilohiy va haqiqiy bayroqlar. Bu kogorta sovut kiygan 1150 piyodalar, 132 otliqga ega bo'lib, "mingboshilar kogortasi" deb ataladi, u legionning boshi

hisoblanadi, undan qachon jang boshlansa, front qurila boshlanadi. Ikkinci kogorta 555 piyoda, 66 otliqlardan tashkil topib, “besh yuzlar kogortasi” deb ataladi. Bu o’n kogorta bilan shunday tarzda 6100 piyodalar, 730 otliqlarga ega bo’lgan butun legion yig‘iladi. Shunday qilib, bir legionda askar soni kam bo‘lishi mumkin emas: Agarda mingtalik faqat bir kogorta emas, qolganlarini ham yig‘ishga buyruq berilsa, ba’zida ko‘p sonli ham bo‘ladi.

7. Legionni qadimdan tashkil etilishini bayon etib, endi men asl xizmat qaydnomalarini qo‘llab, askar-prinsiplarni, ularni haqiqiy aytılıshi “prinsipylarni” unvon va martabalarini ko‘rsataman. Katta harbiy tribun muqaddas ko‘rsatma kuchi bilan, imperatorni xohishi bilan tayinlanadi. Kichik tribun o‘z nufuziga ko‘p yillik xizmati bilan erishadi⁹. Burgutdorlar deb burgutni¹⁰ ko‘taradiganlar. Opcion adoptare¹¹ (“o‘g‘il qilib olish”) fe‘lidan aytılgan, chunki agar ularni boshliqlari kasal bo‘lib qolsa, ular o‘g‘il qilib olingen va o‘rinbosarlar sifatida, odatda o‘ziga umumiy rahbarlikni qabul qiladi. Bayroqdarlar deb, bayroqni olib yuradiganlar aytıladı. Tesserarilar deb, askar chodirlari bo‘yicha tesserrlarni xabar qiladiganlar aytıladı; tesser deb, boshliqning buyruqlari aytıladı. Uning kuchi bilan qo‘sishin qandaydir ishga yoki urushga chiqadi. Kampegenlar yoki antesignanlar deb aytılıshiga sabab, ularni kuchi va botirligi bilan plas¹²da harbiy o‘quvi yaxshilanadi. Razmetchiklar¹³ deb, oldinda borib lager uchun joy tayyorlaydiganlar aytılgan. Benefisiariylar deb, tribunlarni ularga moyilligi¹⁴ tufayli yuqori ko‘tarilganlari uchun aytıladı.

Libriyalar kitobga¹⁵ askarlarga berilishi kerak bo‘lgan ratsionalni kitoblarga (libri) kiritadilar. Burg‘uchilar, gornchilar burg‘u yoki bukilgan mis asboblari va shoxlarda ovozlari bilan surnay chaladiganlar, jang boshlanganidan xabar beradilar. Qo‘sinda duplyarlar¹⁶ ikki payok oladiganlar; simplyarlar- faqat bir payok oladiganlar. Mensorlar –lagerda futlar¹⁷ bo‘yicha joy o‘lchaydigan yoki shaharlarda turish uchun kvartira topadiganlar. Ikki zanjir taquvchilar bo‘lar edilar. Qo‘yma oltin zanjir jasorat uchun mukofot edi; kim unga erishgan bo‘lsa, teng payok, seskvipliyarlar-bir yarim ulush olar edilar. Keyin nomzod-duplyarlar, nomzod-simplyarlar; bular hammasi imtiyozlar bilan mukofotlanadilar¹⁸ prinsipallar. Qolganlar xizmatchilar¹⁹ deb ataladilar,

chunki ular (umumiyl) xizmat majburiyatlarini bajaradilar.

8.Qadimgi odat belgilangan edi, legionning birinchi manipul²⁰dan birinchi darajadagi senturion²¹ (primi pili) oldinga chiqarilib, nafaqat burgut boshida turar edi, yana to'rt senturionga: birinchi qatordagi 400 askarga qo'mondonlik qilar edi. U butun legion boshlig'i sifatida tegishli hurmat va imtiyoz olar edi. Keyin gastatlarning birinchi (senturionni) ikkinchi qatorda ikki senturiy: 200 askarga qo'mondonlik qilar edi ... (prinsiplar) birinchi kogortasi senturioni bir yarim senturiyga yoki 150 askarga qo'mondonlik qilar edi. Uning ishi legionda barcha ishlarni tartibga solish edi. Shunga teng gastatlarning ikkinchi senturioni bir yarim senturiyga, 150 odamni boshqarar edi. Triarilarning birinchi senturioni yuz askarga rahbarlik qilar edi. Birinchi kogortani o'n senturiysiga 5 ordinariylar rahbarlik qilar edi. Ular qadimda katta imtiyoz va katta hurmat bilan taqdirlanar edilar, shuning uchun, legiondag'i boshqa jangchilar ishga jon-jahdi bilan har qanday mehnat va sadoqat bilan shunday mukofotga erishishga harakat qilar edilar. Alovida senturiyga ega senturionlar ham bor edi.Har o'n askar boshiga qo'yilgan o'nboshilar bor edi. Endi ular chodir bo'yicha katta deb ataladilar. Ikkinci kogorta 5 senturionga ega edi; teng ravishda uchinchi va to'rtinchi toki o'ninchigacha. Legionda hammasi bo'lib, 55 senturion bor edi. Imperatorlar qo'shinga konsulyarlardan legatlarni yuborar edilar, legionlar va barcha yordamchi qismlar tinchlik yoki urush olib borishda, ularga bo'ysunar edilar. Lekin aslida barcha ishlarni hal qiluvchi legion prefekti edi, birinchi inartabali oliy boshliq mavqeiga ega bo'lib, legion va uni muovini yo'q bo'lganda, oliy hokimiyat unga tegishli edi. Tribunlar, senturionlar va qolgan askarlar uni buyrug'ini bajarar edilar. Parollar va qo'riqchilar bo'yicha yoki yurishga jo'nash bo'yicha topshiriqlar u tomonidan berilar edi. Agar askar qandaydir huquqbazarlik qilsa, u legion prefektining sankiyasi bilan tribun tomonidan jazolash uchun jo'natilar edi. Uni boshqaruviga tegishli edi: askarlar uchun qurollar, ularni otlari, kiyimi, oziq-ovqati (payogi). Uning ko'rsatmalaridan qo'shindagi butun qattiq intizom, hamda nafaqat piyodalar, balki legionga biriktirilgan otliqlarni ham o'rgatish edi. Uni o'zi adolatli, harakatchan, kamsuqum bo'lgan holda, doimiy mehnatlar bilan unga (ishga) sodiqlik, har qanday qobililikni uqtira borib, qo'l ostidagilarni sharfi prefektni shon-shuhratida aks etishini bilgan holda, o'ziga topshirilgan legionni mukammallikga olib borar edi.

10. Lagerning prefekti ham bor edi. ammo martabasi past, lekin muhim ishlar bilan mashq'ul edi; lager joylashgan joy, to'siq va zovurlarni hajmini belgilash uning ishiga kirar edi. Askarlarni chodirlari va chaldevorlari, bor lash-lushi bilan uning ruxsati bilan joylashtirilar edi. Bundan tashqari, kasal askarlar, ularni davolaydigan tabiblar²², uning ixtiyorida edi.

1. qanoitlar - alae.

2. kruser - kuzatuvchi.

3. "Qo'shin" - exercitus.

4. mashq - exercitum.

5. eligere - "tanlash".

6. nuqta - askarni qo'liga qizdirilgan temir bilan tamg'a bosilgan.

7. ishlatadi - yordamchi qo'shingarning ko'p qismi tribun va prefektlar qo'mondonligi ostidagi piyoda kogorta va kavaleriyadan tashkil topgan edi. O'zlarini qurollanishi o'rgatilishi va intizomi bo'yicha, bu qismlar legionlardan kam farq qilar edilar:

8. antesignanlar - so'zma-so'z "bayroq oldida turadiganlar" - birinchi qatorda jang qiladigan tajribali tanlangan jangchilar.

9. erishadi - Legionda olti tribun bor edi: bir tribun latiklav, senatorlar toifasiga tegishli bo'lgan va besh tribun - avgustiklav suvoriyalar toifasiga mansub bo'lgan. Yosh senator uchun tribun - latiklav martabasi, uni mansab pog'onasini boshlanishi edi, tribun angustiklav martabasini suvoriy qoidaga ko'ra bir necha yil yordamchi qism komandiri sifatidagi xizmatidan keyin olar edi.

10. burgut - bayroqni.

11. odoptare - "o'g'il qilib olish".

12. plas - maydon.

13. Razmetchik - belgilovchilar.

14. moyillik - benefisium.

15. kitob - libri.

16. duplyar - oddiy askarlarni ikki oylik maoshiga teng ish haqi oladigan prinsipallarga aytildi

17. fut - yuza o'lchovi.

18. mukofotlanadilar - odatdagи harbiy naryad va ishlardan ozod qilinganlar.

19. Qolgan xizmatchilar - munifices.

20. manipuli - ikki senturiyidan tashkil topgan qispi manipul deyiladi.

21. senturion - primi pili.

22. tabiblar - unga bog'liq xarajatlar.

Qadimgi Rimning harbiy tashkiloti. Eramizning II-III asrlari

Rimliklar o'z davrini eng mukammal harbiy tashkilotini yaratdi. Uning eng oliv ko'rinishi va asosi legionlar edi. Bu tashkilot bir necha asrlar davomida boshqa xalqlar, mamlakatlar va davlatlar ustidan harbiy yetakchilikni ushlab turishga imkoniyat berdi. Rim qo'shinini tashkil etish to'g'risidagi malumotlar antik mualliflarning bir qancha asarlarida, jumladan Polibiyning "Umumiy tarix"ida, Yustinianning "Digestlar"ida", Flaviy Vechetsiy Renatning (IV-V asr boshlari) asarida uchratish mumkin.

Rim huquqshunoslari traktatlaridan parchalar (Yustinian Digestlari)

49. 16. 2.2. (Arriy Menandrning "Harbiy ish to'g'risida" birinchi kitobidan)

3. 1. Harbiy jazolar quyidagilar: tan jazosi, pul jarimasi, (navbatdan tashqari) naryadlar berish, boshqa qo'shin turlariga o'tkazish , misol uchun pretorian gvardiyasidan legionlarga yoki legionlardan boshqa yordamchi qismlarga o'tkazish ko'zga tutiladi, lavozimidan tushirish, sharmandali istefo. (Harbiy xizmatchilar) tosh konlariga ham, konlardi ishga ham, hukm qilinmaydilar va qiynoqqa solinmaydilar.

4. 9-10. (Arriy Menandrning "Harbiy ish to'g'risida" birinchi kitobi). Biz imperator buyrug'iga ko'ra dezertirlikdan keyin, ko'ngilli yoki yollanma asosida harbiy qismga kirganlar, harbiy jazoga tortilishlari kerak.

Lekin yanada og'irroq jinoyat harbiy xizmatga da'vo qilishga emas, undan qochish bo'ladi. Qadimda (ko'ngilli qo'shinga) chaqirilishdan bo'yin tovlaganlar, ozodlikning xoini sifatida qullikka berilar edilar, ammo endi harbiy xizmatning xarakteri o'zgarishi bilan o'lim jazosi qo'llashdan voz kechdilar, chunki qo'shin saflarining ko'p qismi ko'ngillilar bilan to'ldiriladi.

5 pr-§ 1⁴.

Hamma dezertirlar bir xil jazoga tortilmaydilar. Qo'shinni turi, xizmat muddati, unvoni, lavozimi, unga yuklatilgan majburiyatlar xarakteri va uni o'tmishtagi yurish-turishi e'tiborga olinadi; shunga teng holda aybdor bir o'zi qochdimi, yoki birortasi bilanmi, yoki ko'pchilik bilanmi va dezertirlik vaqtida qandaydir boshqa jinoyat qildimi va aybdorning keyingi xatti-harakati hisobga olinadi. (Aybdorni) taqdiri

agar u “majbur qilinganligi bo‘yicha” (qismga) qaytgan bo‘lsa, taqdiri boshqacha bo‘ladi. Agar dezertirlik tinchlik vaqtida sodir etilgan bo‘lsa, suvoriy martabasida pasaytirilishi lozim, piyoda askar qo‘sinni boshqa turiga o‘tkazilishi lozim. Urush vaqtida, sodir etilgan shunday (jinoyat) uchun, o‘lim jazosi beriladi.

6 pr-8-§^s.

Harbiy jinoyat deb, umumiyl intizomni talablarini buzadigan hamma narsa bo‘ladi, masalan qo‘rroqlik, bo‘ysunmaslik, bekorchilik. Komandirga qo‘l ko‘targanga, o‘lim jazosi berilishi kerak, jinoyatni og‘irligi komandirni unvoniga qarab o‘sib boradi. Qo‘mondonga yoki provinsiya noibiga har qanday bo‘ysunmaslik o‘lim bilan jazolanadi. Kim safda turib, birinchi bo‘lib qochsa, namuna maqsadida boshqa harbiylar ishtirokida qatl qilinishi kerak. Dushmanga (harbiy) sirlarini yetkazgan ayg‘oqchilar xoindirlar va boshlari bilan javob beradilar. Bu oddiy askarga ham tegishli, qaysiki u dushman oldiga qo‘rqqanidan o‘zini kasallikka solsa. O‘z xizmatdoshini tosh bilan yarador qilgan, qo‘sindan haydalishi kerak, qilich bilan o‘lim jazosi berilishi kerak. Agar kimdir o‘zini-o‘zi yarador qilsa, yoki boshqa usul bilan o‘zini o‘ldirishga urinsa, imperator Adrian reskriptiga ko‘ra bunday urinishni motivini aniqlash lozim, agar ayblanuvchi chidab bo‘lmaydigan azoblar, hayotdan ko‘ngli qolish, kasallik, telbalik, uyat hissi ta’siri ostida harakat qilgan bo‘lsa, u o‘lim hukmiga duchor qilinmaydi, lekin qo‘sish safidan sharmandalik bilan chetlatiladi; agarda o‘zini oqlash uchun, yuqorida ko‘rsatilgan motivlarga suyana olmasa, o‘lim bilan jazolanadi. Shunday oliy jazo chorasi, mast bo‘lish yoki yengiltak cheksiz ehtiros (ta’siri ostida) ayblanganga qo‘llanmaydi; ular boshqa qo‘sish turiga ko‘chiriladilar.

Kim, o‘z komandirini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lsada, lekin himoya qilmasa, hujum qilganga tenglashtiriladi; agarda u qarshilik ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmasa u avf qilinishi lozim.

11. (Marsian “Qoidalar” 2-kitobidan).

Qullarga o‘lim xavfi ostida har qanday harbiy xizmat ma’qul ko‘rilmaydi.

12. 1-2. (Makr “Harbiy ish to‘g‘risida” 1-kitobidan).

Qo‘sish qo‘mondoni majburiyatiga nafaqat intizom o‘rnatish,

balki unga amal qilishni nazorat qilish ham kiradi. Paternning yozishicha, kim qo'shinga qo'mondonlik qilishni anglasa, ta'tilni favqulodda siyrak berishi lozim, provinsiyadan tashqariga harbiy otlarni olib ketishga yo'l qo'ymasligi, askarlarni xususiy ishlarga, baliq ovi yoki ovga yubormasligi lozim. ... Tribunlarni yoki, kim harbiy qismiga boshchilik qilsa, uning majburiyatlariga kiradi: askarlarni lagerda ushlab turish, ular bilan mashqlar o'tkazish, (lagerni) darvozalarini kalitini saqlash, vaqt-vaqt bilan qo'riqchi postlarini aylanib chiqish, askarlarga oziq-ovqat tarqatish vaqtida ishtirok etish, (ularni) ovqatini tekshirish va tarozibonlarni suiste'mollarini oldini olish, jinoiy ishlarni o'ziga berilgan vakolat doirasida jazolash, shtab-kvartirada tez-tez bo'lib turish, xizmatdoshlarini shikoyatlarini qabul qilish, kasallar ustidan nazorat qilish.

13. 3-4. (Makr "Harbiy ish to'g'risida" 2-kitobidan).

Iste'foning uch asosiy turi mavjud: faxrli, sababli va sharmandali. Faxrli-xizmatni muddati tugashi bilan beriladi, sababli-(shunday hollarda bo'ladiki) qachonchi askar jismoniy yoki ruhiy kasal bo'Iganda, harbiy xizmatga yaroqsiz hisoblanadi; sharmandali-qachonki, askar u qilgan jinoyati uchun qasamdan ozod qilinadi. Sharmandali assoslarda iste'foga chiqarilgan, Rimda qolishi mumkin, u (buyruqda) uni obro'sini to'kadigan vaziyatlar ko'rsatilmay ozod qilingan bo'lsada, baribir u qo'shidan sharmandali iste'oga chiqarilgan hisoblanadi. Hurmatsiz askar nafaqat tribun, yoki senturion jazolab qolmay, hatto principal ham jazolashi mumkin; qadimgilar senturion uni jazolash niyatida bo'Iganiga qarshilik ko'rsatganga, sharmanda bo'lishi kerak deb hisoblaganlar, agar u senturion jezli (senturion-muntazam o'zi bilan uni hokimiyatini ramzi bo'Igan va bir vaqtni o'zida ayb qilgan askarlarni jazolash quroli bo'Igan uzum novdasidan qilingan tayoqni olib yurgan) ga yopishsa va agar u ataylab bu jezni sindirsa, yoki senturionga qo'l ko'tarsa, qo'shinni boshqa turiga ko'chirilishi lozim.

14. 1. (Pavel. "Askarlarni jazolash to'g'risida").

Qurolni sotish og'ir jinoyat va dezertirlikka tenglashtiriladi, faqat shunday holdaki, agar barcha qurol-yarog' butunlay sotilgan bo'lsa; agar (aybdor) qurol-yarog'ni bir qismini sotgan bo'lsa, (jazo) sotilganni qiymatiga ko'ra (belgilanadi).

1. *Harbiy jazo* - Modestinning "Jazolar to'g'risida" IV kitobidan.
2. o'tkazish - qo'shining imtivozi kamroq bo'lgan turiga o'tkazish.
3. *imperator* - Septimi Sever ko'zda tutiladi.
4. 5 pr-1§ - o'sha muallif, ikkinchi kitob.
5. 6 pr-8§ - o'sha joy 3-kitobdan.

Хрестоматия по истории древнего Рима. М., 1987. 283-285 сmp

Tayanch tushunchalar: Polibiy; hastatlar; drotik, Ispaniya, lokt, qirol-yarog'; principes, triarii, lager, konsul, tribun, val, Vеgetiy, legion, askar, antesignallar; avgustiklav, latiklav, tesserariy, libri, payok, manipul, senturion, dezerter.

5-§. Rim imperiyasining halokati Bagaudlar harakati

Yevtropiy "Rimning qisqacha tarixi" IX. 20.3

"Rimning qisqacha tarixi" Rim tarixchisi Yevtropiy tomonidan eramizning IV asrida yozilgan. Uning kitobida, Rimga asos solinishidan eramizning 364-yilgacha bo'lgan voqealar 10 kitobga bayon qilingan.

Shunday qilib (Diokletian) Rim davlatida oliv hokimiyatga erishdi. Qachonki Galliyada dehqonlar qo'zg'alol ko'tarib, o'z partiyalariga bagaudlar nomini berdilar, ularni yo'lboshchilari Amand va Gelian edilar. Dolektian ularni bo'ysindirish uchun Sezar Maksimian Gerkuliyni yubordi, qaysiki u aholini yengil to'qnashuvlarda bostirdi va Galliyada tinchlik o'rnatdi.

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 284 сmp

Sekst Avreliy Viktor Sezarlar. 39, 17, 19

Avreliy Viktor (er. avv. IV asrda) Karfagenda tug'ilgan. Uning "Sezarlar" asari Oktaviandan Yuliangacha Rim imperatorlarining qisqacha tarjimai hollari to'plamidir.

Aynan, qachonki Diokletian Gelian va Amand deb atalgan, qaroqchilarni to'dasini yig'ib, keng bo'shliqda dalalarda g'ayrat qilib, ko'pgina shaharlarga hujum qilayotganini bilib, shu soatdayoq sodiq do'st, yarim dehqon, lekin yaxshi va qobiliyatli harbiy boshliq Maksimianga buyruq bedi. Unga keyinchalik ilohiy e'tiqoddan Gerkuliy laqabi berilgan edi... Galliyaga jo'nab ketib, u dushmanlarni tor-mor qildi, taslim bo'lganlarni qabul qildi va tez vaqtida hammani tinchlantirdi.

Tatsit. Tarix IV kitob

Rimning eng mashhur tarixchisi Publiy Korneliy Tatsitdir (taxminan 55-120 yillar yashagan). Tatsit o‘z zamonasining eng madaniyatli, har tomonlama o‘qimishli kishisi bo‘lgan. davrining ilm-fan, adabiyot ahllari bilan yaqin va do’stona aloqa tutgan. Bir necha imperatorlar davrida, oliy davlat lavozimlarini egallagan.

Uning “Germaniya” degan asari, qadim zamonlarda Germaniya tuprog‘ida yashagan qabilalarning tarixi, madaniyati, ularning tirik-chilik usullari haqida hikoya qiladi. Bu risola Yuliy Sezarning “Gall urushi xotiralari” asari bilan bir qatorda, nemis xalqining qadimgi tarixini o‘rganish borasida nodir tarixiy manba hisoblanadi. Shuningdek, u “Tarix” hamda, “Solnomalar” deb atalgan ikki yirik tarixiy asarlari muallifi.

14. Qo‘zg‘olon qilishga qaror qilib, Sivilis² rejasini qanchalik uzoqni ko‘zlaganini ma’lum vaqtgacha oshkora qilmaslikni maqul ko‘rib, voqealarni o‘ziga foydali bo‘lgan tomonga yo‘naltirib, ularni borishini o‘zi keyin qanday harakat qilishni ko‘rsatadi deb hisobladи. Bu vaqtda, Vitelliyni buyrug‘i bo‘yicha batav yoshlарini qo‘shinga olish o‘tkazilayotgan edi. Busiz ham yengil bo‘lماган bu ishda, bu işh topshirilgan odamlarni ochko‘zligi va buzuqligi xalaqit berar edi: ular keksalar va mayiblarni bosib olar edilar, keyin ularni to‘lov evaziga qo‘yib yuborish uchun, yana bu mamlakatda barcha o‘smirlar baland bo‘yi bilan ajralib turadi, chiroyli bolalarni buzuqlikka majbur qilar edilar. Batavlar g‘azabga keldilar, deyarli tayyor bo‘lgan isyonning ilhomchilari ularni rekrut berishdan bosh tortishga ishontirdilar. Sivilis muqaddas xiyobonga ularni kechki ovqat bilan mehmon qilish bahonasida, o‘z qabilasining zodagon kishilarini va oddiy xalqdan eng qat’iyalarini taklif qildi. Qachonki kechki quvnoq bazm ta’siri ostida, ularni hissiyoti avj olgach, u so‘zlashni boshladi – oshda o‘z qabilasini shon-sharafi, keyin Rim hokimiyati ostida haqoratlar va zo‘ravonliklarga chidashga to‘g‘ri kelayotgani to‘g‘risida so‘z yuritdi.

“Qachonlardir biz ittifoqchilar edik, – dedi Sivilis, endi bizga qul kabi murojaat qiladilar. Rimdan yuborilgan legatlar boshqargan

vaqtlar allaqachon o'tdi. Ular ulkan a'yonlar bilan kelar edilar, ular kalondimog¹ edilar va baribir hozir prefektlar² va senturionlarni hoki-miyati ostiga berilganimiz yana yomonroq. Ularning har biri iloji boricha ko'proq talashga urinadi, qachonki u bizni qonimizni to'yib ichgandan keyin, uni chaqirib oladilar va uning o'rniiga boshqasini yuboradilar, u pora olish uchun yangi har xil hiyla va bahonalar topishga urinadi. Endi bizga bu safarbarlik o'g'ilni ota-onalardan, akani ukadan o'g'irlaydigan o'limnga o'xshab yopirildi. Shu bilan birga hech qachon rimliklarni ishi bunday yomon bo'limgan edi, ularning qishki lagerlarida – faqatgina keksalar va talangan o'lja bor. Boshingizni ko'taring, atrofga qarang va Rim legionlarining baland nomlari oldida titramang. Bizda – qudratli piyodalar va otliq qo'shinlar, germanlar bizning birodarlarimiz, gallar ham kabi shuni istaydilar, rimliklar bu urushni o'zları uchun foydasiz emas deb hisoblaydilar...

1. Julian - 361-363-yillarda hukmronlik qilgan.

2. Sivilis - batav qabilasi yo'lboshchilaridan biri.

3. prefekt noib.

Корней Четвёртый История. Том второй. Ленинград 1969 146-147 срп

Ammian Marsellin. Tarix XXVIII, 2, 10

Ammian Marsellin (eramizni IV asri)- Suriya Antioxiyasida tug'ilgan yunon, dastlab vatanida, keyin Rimda yashadi. Uning "Tarix" (yoki "Faoliyatlar") asaridan 18 (14-31) kitoblar saqlanib qoldi, bu kitoblarda 353-yildan 378-yilgacha bo'lgan davr tasvirlangan.

Shu bilan bir vaqtida Galliyada ochiqdan-ochiq talonchilik umumiy halokat sari yanada kuchaydi; xususan katta yo'llar xatarli bo'lib qoldi, va nimadir, qandaydir boylik bo'lib ko'rinsa, u eng qo'pol usullar bilan o'g'irlandi.

Bu kamdek, qo'zg'olon Shimoliy Ispaniyaga ko'chib o'tdi. Idatiya (V asr) xronikasida bunga qator alohida ko'rsatmalar bor. 441 yil ostida turibdi: Ispaniyaga yuborilgan Asturiy u va boshqa qo'shin yo'lboshchisi Terrakon bagaudlarini ko'pchiligini qirg'in qildi. Birinchi bor Galliyaning qishloq aholisi 283-yil va 284-yilda qo'zg'olon ko'targanda, bu nomni oldi. Qo'zg'olonning sababi Rim hoki-miyatining kuchli zulmi edi..." Frederik, podsho Teuderinning ukasi

Terrakon Bagaud'lарини Rimning buyrug'i asosida o'Idiradi" (Zosimning guvohligi bo'yicha, 407-yil bir Rim lashkarboshisi Bagaudlardan ularga barcha o'ljani berish bilan, Alp orqali erkin o'tishni sotib olishga majbur bo'ldi. Provinsiyalardagi rimlik noiblarni zulmi Bagaudlarga yangi va yana yangi inuxlislarni berdi).

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 284-285 сmp

Rim imperiyasida (er. avv. III-V asrlari) qullar va kolonlar qo'zg'oloni

Sal'vian. Ilohiy hukmronlik to'g'risida. V, 16-45

Sal'vian – Galliyadagi Massiliya 3ning yepiskopi. O'zining "Ilohiy hukmronlik to'g'risida" asarida Rim imperiyasining so'nggi davrida soliq-to'lovlar va har xil majburiyatlarni ko'payishi, hokim-noiblarning suiste 'mollari natijasida hamda boy magnatlar tomonidan dehqonlar-shahar aholisini ezilishini qoralaydi. Rim fugarolarining mavjud tuzumdan norozi bo'lib, german qabilalari yashagan hududlarga ommaviy ravishda ko'chib ketishga majbur bo'lganliklari va qachonlardir sharaflı bo'lgan Rim fugaroligidan, hamda Rim hokimiyatidan voz kechishga intilganlarini ko'rsatadi.

Ozgina kishilar uchun, davlat soliqlari-o'zining o'ljası bo'lsa, boshqalarni xonavayron qiladi. Fiskka⁴ tegishli soliqlarni undirishni, ular o'z shaxsiy daromadlari manbaiga aylantiradilar. Va, buni nafaqat oliy, balki eng quyilar ham, nafaqat hokimlar, ularga bo'ysunuvchilar ham qiladilar. Faqat shaharlarga emas, shunday munitsipiylar va qishloqlar ham borki, u yerda shuncha tiran va kuriallar bo'lmasa? Shuningdek, ular bu unvondan tasodifan foydalananlilar, chunki kuchli unvonga egadek bo'lib ko'rinishi ham kerak... Shu bilan birga kambag'allarni talaydilar, beva va yetimlarni ta'qib qiladilar – bu shunday darajadaki, ularning ko'pchiligi kelib chiqishi urug'i noma'lum bo'lmaganlardan va mo'l-ko'lchilikda tarbiyalanganlar, davlat ta'qibi g'azabidan o'lmaslik uchun, va varvarlarda Rim insonparvarligini qidirgandek, chunki rimliklar orasida varvarcha insonni tahqirlashga chiday olmaganlari uchun dushmanlarga qochib ketmoqdalar. Va ular qochib ketayotganlardan urf-odatlari va tillari bilan ajralib tursalarda,

hatto men aytishim mumkin, ularga varvar, badani, kiyimlari hidi nafratli bo'lsada, rimliklar o'rtasidagi shafqatsiz adolatsizlikdan ko'ra, biroq endi varvarlar ichida o'zlariga yot turmush tarziga chidashni afzal ko'radilar. Shuning uchun, ular hamma joyda yoki gotlarga yoki bagaudlarga yoki qandaydir viloyatlarda hokimiyatga ega bo'lgan boshqa varvarlarga ko'chib bormoqdalar. Asir hisoblanadilar, asir erkin bo'lish, erkin hisoblanishni ma'qul ko'radilar. Shuning uchun ozod bo'lib, asir bo'lgandan ko'ra: ular o'zlarini asir hisoblanishini, lekin ozod bo'lishni afzal ko'radilar. Shuning uchun ilgari rimlik fuqarolarni nomi nafaqat yuqori baholangan, shu bilan birga qimmat narxda sotib olingan, Rim fuqarolari nomi bilan endilikda mensimaydilar va uni chetlab o'tadilar va nafaqat kam qiymatli, balki jirkanch hisoblaydilar. Rim zulmini og'irligini, shunday dalilidan yaxshisi yo'q. Rimlik mavqesi hashamat va faxr keltirish mumkin bo'lgan ko'pgina obro'li odamlar va zodagonlar, Rim talablarining shafqatsizligidan shunday ahvolga tushdilarki, rimlik bo'lishni xohlamay qo'ydilar...

Endi men bagaudlar to'g'risida so'z yuritaman, qaysiki ezilgan, tahqirlangan, ahmoq, qonxo'r hokimlar tomonidan halok qilinganlar, Rim erkinlik huquqidан mahrum bo'lib, hatto rimlik deb atalish sharafini yo'qotdilar. Va biz ularni o'zlarini baxtsizliklarida ayblaymiz, ularning kulfatlari tug'dirgan ism bilan ataymiz, o'zimiz yaratgan ismni berib, ayb qo'yamiz: isyonchilar deb ataymiz, bo'Imag'ur odamlar deb, o'shalarni biz o'zimiz jinoyatga majbur qilamiz. Boshqa nima bagaudlarni tug'dirdi, bu bizning haddan tashqari jazolarimiz, hokimlarning buzuqligi, proskripsiylar (mol-mulkni tortib olish) va talonchiliklarni amalga oshirgan odamlar, majburiyatlar yig'imini o'z shaxsiy daromad manbalariga, soliqlarni – o'z o'ljalari aylantirganlari emasmi? Ular yirtqich hayvonlarga o'xshab, ularni hokimiyati ostiga berilgan odamlari ustidan boshqarmadilar, lekin ularni yedilar va boyidilar, odatda qaroqchilar qilganidek, nafaqat bu odamlarni talab va ularni qiy nab, ularni qonini so'rdilar. Va shunday bo'ldiki, hokimlarning talonchiligi bug'gan va halok qilgan odamlar, go'yoki varvarlarga yalindilar, chunki ularga rimlik bo'lishga yo'l qo'yilmadi...

Qayerda va kimda, rimliklardan boshqa shuncha bunday yovuz ishlar mavjud? Bizdan boshqa yana kimda shunday qonunsizlik hukm suradi? Franklar bu jinoyatni bilmaydilar, gunnar bu jinoyatlardan xoli, vandallarda ham, gotlarda ham bunday hech nima yo'q. Gotlardan

bo‘lgan varvarlar bundan shunday uzoqdalarki, bunday sinovlarga gotlar orasida yashaydigan rimliklar ham duchor qilinmaydilar.

Shuning uchun u yerda barcha rimliklarda bitta intilish: Rim huquqiga o‘tishdan abadiy qutulish. Rim plebsida u yerda bir umumiy yolvorish: ularga varvarlar bilan birga hozirgi vaqtida hayot kechirishga ruxsat berilish edi. Va biz gotlarni yenga olmaymiz deb yana hayron qolamiz, bu vaqtida rimliklar bizdan ko‘ra gotlarda bo‘lishni afzal ko‘radilar. Bizning birodarlarimiz, nafaqat ulardan bizga qochib o‘tishni mutlaqo istamaydilar, balki bizlarni qoldirib, ularga qochib ketadilar...

1. *Bagaud baga-kurash, kelt tilida.*
2. *kuchli zulmi edi – 454-yil ostida.*
3. *Massiliya Hozirgi Marsel shahri.*
4. *Fisk davlat xazinasi.*

Хрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 282-283 сmp

Gotlarning Rimni qamal qilishi Zosim Rim tarixchisi, V asr

Zosim V asrdagi so‘nggi Rim tarixchisi. Rim imperiyasini Avgust (er. avv. I asr) dan Alarix I(410 yil) ishg‘ol qilganigacha Rimni qisqacha tarixini yozdi.

Rimda dushmanga elchilik yuborishga qaror qilindi, qaysiki ularga yetkazishi kerak ediki, qamal qilinganlar kelishuvga rozi, fagaqt chidash mumkin bo‘lgan shartlarda. Lekin ular hali urushishga tayyor edilar, Rim xalqi qurolni oldimi, uni doimo ishlatgani uchun keyingi jangovor to‘qnashuvlarda ham u qo‘rqmaydi... Shuni aytish lozimki, rimliklar aniq bilmas edilar, u yerda Alarixni o‘zi bor edimi, uni o‘zi Rimni qamaliga rahbarlik qildimi, aniq bilmas edilar? Alarix emas, Stilixonning sobiq tarafdoi bo‘lgan boshqa varvar yo‘lboshchi, Alarixni Rim shahrida o‘zi bilan olib keldi degan, shungacha tarqalgan ovozalar shubhasiz, ularni ma’lum darajada yupantirdi.

...Elchilar Alarixga keldilar ... va senat topshirgan ishni bayon qildilar. Alarix Rim xalqi qurol taqib, jangga tayyor degan ma’lumotga alohida e’tibor berib, ularni eshitdi. Bunga javoban Alarix dedi: “Qalin o‘tni siyragiga qaraganda, oson o‘rish mumkin”. Bu so‘zlarni aytib,

elchilarga qaratib qattiq kului. Ish tinchlik to‘g‘risidagi muzokalaralarga borganda, Alarix varvar takabburligini har qanday me‘yordan oshadigan so‘zlarga murojaat qildi. U qamalni, Rim shahrida mavjud bo‘lgan oltin va kumushni, bundan tashqari shahardan u topgan barcha uy ashyolarini va undan tashqari varvarlardan bo‘lgan qullarni olmasdan turib, qamalni to‘xtatmasligini aytdi.

Qachon u buni aytganda, elchilardan biri, agar Alarix bularni hammasini tortib olsa, u oxir-oqibatda Rimda yashaydiganlarga nimani qoldiradi deb so‘radi? “Omonlik”, – javob berdi Alarix. Bunday javobni olib, elchilar qamat qilinganlar bilan nima qilish mumkinligini muhokama qilish uchun, ularga ruxsat berishni so‘radilar. Kelishuvga erishib, elchilar Alarixni aytganlarini barchaga yetkazdilar.

Yana unga elchilarni jo‘natdilar, u va boshqa tomon bilan juda uzoq so‘zlashuvlardan keyin, Alarix Rim shahrini 5000 funt oltin, 30 000 funt kumush, 400 ming ipak ko‘ylak, 3000 qizilga bo‘yalgan qo‘y terisi, 3000 funt qalampir to‘lashiga rozi bo‘ldi. Shahar xazinasida mutlaqo pul bo‘limgani uchun, senatorlar o‘z mulklari hajmiga qarab, unga to‘lov pulini yig‘im bo‘yicha keltirishlari qat‘iy zaruriyat bo‘ldi. Palladiyga har bir senatording mulkiy holatiga qarab, badalni yig‘ish topshirilgan bo‘lsada, u yoki mulkdorlar bir qismini yashirganlari uchun yoki Rim shahri to‘xtovsiz va g‘arazli yig‘imlar oqibatida. kambag‘allikka duch etilganligi uchun, barcha summani to‘liq yig‘ib ola bilmadi.

...Rimliklar nafaqat xudolar tasvirini liboslaridan mahrum qildilar, yana xudolarni ba’zi oltin haykallarini eritdilar, ularning qatoriga rimliklar “Virtus” deb ataydigan kuch haykallari bor edi. U yo‘q qilinishi bilan, hali rimliklarda qolgan butun kuch va qahramonlik yo‘q bo‘ldi. Shu vaqtdan diniy ishlarda, bobolarning odatlarda, tajribali bo‘lgan odamlarning bashoratlari amalga oshdi.

Shunday tarzda to‘lov uchun pul yig‘ilgandan keyin, imperator2ga elchi yuborishni ma’qul topdilar, u bilan bo‘lajak tinchlik to‘g‘risida maslahatlashuv uchun va uni Alarix nafaqat pul, Rim zodagonlarini o‘g‘illarini garov sifatida olishni xohlayotganini va ana shunday shartlarda nafaqat tinchlik, balki imperator bilan harbiy ittifoq ahdini tuzish va rimliklar bilan birgalikda, ularga qarshi dushmanlik niyatida bo‘lgan har qandaylarga qarshi yurish qilishiga tayyor ekanini ma’lum

qilmoqchi bo‘ldilar. Hukmdor shunday shartlarda tinchlik ahdini tuzish kerak deb hisoblagani uchun, varvarlarga to‘lov puli sanab berildi. Alarix esa, Rim shaharliklariga uch kun davomida shahar devorlarini tashqarisidagi bozorga borishga, buning uchun ularga ma’lum darvozalar orqali chiqishga erkinlik berdi, hamda gavandan g’alla olib kelish imkoniyatini berdi.

Shundan so‘ng rimlik fuqarolar yengil nafas oldilar va ortiqcha narsalarni sotdilar, o‘zlariga kundalik zaruriy narsalarni sotib oldilar, yoki ularni boshqa buyumlarga almashtirdilar, varvarlar Rimdan uzoqlashdilar va Toskanani bir necha nuqtalarida lager qilib joylashdilar. Rimdagи qullarga kelganda, ularning deyarli barchasi kundan kun shahardan qochdilar va varvarlarga borib qo’shildilar, ularda to‘planib qolgan qullar ommasi 40 minggacha yetdi.

1. “*Virtus*” – “*Qahramonlik*”, “*Kuch*”.

2. *Imperator* – *Gonoriy*.

Xрестоматия по истории древнего мира. М., 1991. 285-286 сmp

Tayanch iboralar: Diokletian, Amond, Gelian, Maksiman Gerkulit, Avreliy Viktor, Publiy Korneliy Tatsit, “Germaniya” asari, Sivilis, prefekt, Ammian Marsellin, Idatiya, Terrakon, Frederik, Teuderin, provinsiya, Sal’vian, Marsel, “Ilohiy hukmdorlik to‘g’risida” asari, fiskka, Alarix I, Gonoriy

Qadimgi Rim metrologiyasi

Uzunlik o‘lchovlari

fut = 0,2963 m

gradus – 2,5 fut = 0,74 m

mill – ming qadam - 5000 fut = 148 - 165 m

Maydon o‘lchovlari

kvadrat fut=0,088 kv.m

skripul (=10 kv. Fut)=0,088 kv.m

kvadrat akt (120 f. 120 f.)=1267,2 kv.m

yuger (=2 akta)=2534,4 kv.m

senturiya (=200 yug.)=50,364 ga

sal’tus (=4 senturiya=800 yug.)=201,456 ga

Sochiluvchi jismlar o‘lchovlari

modiy= 8,754 l

polumodiy= 4,377 l

sekstariy - 1/16 modiy= 0,547 l

gemin - 1/32 modiy= 0,274 l

Suyuq jismlar o‘lchovlari

kiaf= 0,0465 l

asetabul 1,5 kiaf= 0,0684 l

kvartariy – 3 kiaf= 0,1368 l

kotil va gemin – 6 kiaf= 0,2736 l

sekstariy – 12 kiaf= 0,5472 l

kongiy – 6 sekstariy= 3,2832 l

urna - 4 kongiy= 13,1328 l

amfora - 2 urna= 26,2656 l

mex – 20 amfora= 535,27 l

Og‘irlilik o‘lchovlari

silikva= 0,189 g

unsiya= 144 silikva= 27,288 g

funt= 12 unsiya= 327,45 g

Rim pul birliklari

1 oltin aureus (8,00 g atrofida)= 25 kumush denariyga teng

1 kumush denariy (4 g atrofida)= 4 kumush sestersiyga teng

1 kumush sestersiy (1 g atrofida)= latundan bo'lgan 2 dupondiyga teng

1 dupondiy= 2 jez assga teng

Rim xudolari

1.Yupiter – osmon, chaqmoq va yashin xudosi. Rim bosh xudosi.

2.Yunona – Yupiterning rafiqasi, nikoh va hosildorlik ma'budasi.

3.Yanus – uyga kirish va chiqish, har qanday boshlanish xudosi, ikki yuzli qilib tasvirlangan.

4.Saturn – odamlarni denqonchilikka, uzumchilikka o'rgatgan, mo'l-ko'lchilikni beradigan ekinlar xudosi.

5.Mars – urush xudosi, fuqaro jamoasi himoyachisi.

6.Neptun – namlik, dengizlar xudosi, yilqichilik homiysi.

7.Nenirva – donolik ma'budasi, hunarlar va san'atlar homiysi.

8.Venera – sevgi va go'zallik, hosildorlik ma'budasi.

9.Diana – oy va ovchilik ma'budasi, yovvoyi hayvonlar homiysi.

10.Merkuriy – savdo, foyda, chorvachilik xudosi, cho'ponlar, savdogarlar, sayyoqlar homiysi.

11.Serera – hosildorlik va dehqonchilik ma'budasi.

12.Plon – yer osti dunyosi va o'liklar xudosi.

13.Prozerpina – Platonning rafiqasi, do'zax, o'simliklar o'sishi va yer hosildorligi ma'budasi.

14.Vesta – uy o'chog'i va olov xudosi.

15.Vakx – o'simlik, uzumchilik, vinochilik xudosi.

16.Flora – o'simlik, gullar va o'smirlik ma'budasi.

17.Fortuna – taqdir, lasodif, baxt va omad ma'budasi.

18.Kons – yetilgan non va o'rim, dono qarorlar xudosi.

19.Ops – Konsning rafiqasi, ekinlar va mo'l-ko'lchilik ma'budasi.

20.Silvan yoki Favn - o'rmonlar va dalalar xudosi, podalar va cho'ponlar homiysi.

21.Tellura – yer va hosildorlik ma'budasi.

22.Vulkan – olov va temirchilik kasbi xudosi.

23.Termin – chegara, oraliq belgilari xudosi.

24.Bellona – urush ma'budasi.

25.Reya Silviya – Rimning afsonaviy asoschilari Romul va Rimning onasi.

26.Bona Dea – ezgu taqdir, hosildorlik ayol ma'budasi, ayollarining homiysi.

27.Sivillalar – afsonaviy bashoratchi ayollar.

28. *Penatlar* – uy ombori va u yerda saqlanadigan oziq-ovqatlar xudosi.

29. *Lara* – oila va xo'jalik xudosi.

30. *Manalar* – o'lgan ajdodlarning ilohiylashtirilgan ruhlari, hayot bo'lgan avlodlar homiysi.

31. *Geniy* – ezgu ruh, alohida kishining saqlovchisi.

32. *Lemurlar (larvalar)* – ajina, hayot bo'lgan avlodlarni taqib qiladigan o'lgan ajdodlarning yovuz ruhlari.

Rim provinsiyalari ro'yxati

1. Sitsiliya (er. avv. 227-yil).
- 2 Sardiniya va Korsika (er. avv. 227-yil)
- 3 Uzoq Ispaniya – Betika (er. avv. 197-yil)
- 4 Yaqin Ispaniya – Tarrakon Ispaniyasi (er. Avv. 197 yil)
- 5 Makedoniya (er. avv. 148 yil)
- 6 Afrika (er. avv. 146 yil)
- 7 Osiyo (er. avv. 130-yil)
- 8 Narbon Galliyasi (er. avv. 120-yil)
- 9 Kilikiya (er. avv. 92 –yil)
- 10 Krit va Kirenaika (er. avv. 75-yil)
- 11 Pont va Vifiniya (er. avv. 74-66 yillar)
- 12 Suriya va Falastin (er. avv. 63 –yil)
- 13 Lugudun Galliyasi (er. avv. 52-yil)
- 14 Belgika (er. avv. 52-yil)
- 15 Akvitaniya (er. avv. 52-yil)
- 16 Yangi Afrika - Numidiya (er. avv. 46-yil)
- 17 Misr (er. avv. 30-yil)
- 18 Illiriya (er. avv. 27-yil)
- 19 Axaya (er. avv. 27-yil)
- 20 Galatiya (er. avv. 25-yil)
- 21 Luzitaniya (er. avv. 19-yil)
- 22 Retsiya (er. avv. 15 –yil)
- 23 Norika (er. avv. 15 –yil)
- 24 Meziya (er. avv. 25- yil)
- 25 Pannoniya (er. avv. 10-yil)
- 26 Dalmatsiya (er. 6-yil)
- 27 Yuqori Germaniya (er. 16 –yili)
- 28 Quyi Germaniya (er. 16 yili)
- 29 Kappadokiya (er. 17-yili)
- 30 Kingitan Mavritaniyasi er. 40 -41 yillari)
- 31 Sezar Mavritaniyasi (er. 40-41 yillari)
- 32 Likiya va Pamfiliya (er. 43-yili)
- 33 Britaniya (er. 44-yili)
- 34 Frakiya er. 46 –yili)
- 35 Arabiston (er. 105 yili)
- 36 Dakiya (er. 107yili)

Tavsiya etiladigań adabiyotlar

- I. A. Karimov “Tarixiy xotirasiz-kelajak yo‘q” Toshkent.
“O‘zbekiston”. 1998-yil.
- Boynazarov F. “Qadimgi dunyo tarixi” Toshkent. 2004-yil
“Tarixchilar qadimgi O‘rta Osiyo haqida” Gerodot IV kitob. Melpamena.
Jahon adabiyoti. I-son 2007-yil.
- Историки Античности. I-II том М.,1994 г.
- Хрестоматия по истории древнего Рима:Учеб. Пособие для учителя /
Сост. Е.А.Черкасова.- М.;Просвещение ,2004г.
- История древнего востока. Тексты и документы./под ред. В.И.Кузи-
шина\,М.,2002
- Античная мифология . Энциклопедия . М.:СПб «Надгард». 2004
- Древний мир. Энциклопедический словарь(Автор-В.Д.Гладкий).М.:ЗАО.
изд.-во.Центрполиграф .2001г.
- Древний Египет. Энциклопедия \Составитель и научный редактор
В.В.Солкин\. Изд. Арт-родник.2005г
- Критическое исследование хронологии древнего мира. Том 2. Библия.
Крафт+,2000г.
- История древнего Рима в биографиях. А:Штоль Г.В.,изд:Русич,2003г.
- История государственного и военного управления . Исторические уроки
древнего Востока и Китая,а:А.И.Каменев ,изд:Балашиха.ВТУ.2006г.
- Легенды и мифы народов мира,а:Немировский А.И.,2004г
- Махабхарата. Книга шестая. Бхишмапарва. (Перевод В.Г.Эрмана) .Вья-
са,изд:Ладомир.2009-г.
- История Рима от основания до города. Автор: Тит Ливий,изд:Ладомир.2005г.
- Антрапология.Хрестоматия,А:Т.Е.Россолимо,Л.Б.Рыбалов,И.А.Моск-
вина-Тарханова,изд:МПСИ ,МОДЭК,2009г.

Mundarija

KIRISH.....	4
BIRINCHI QISM QADIMGI SHARQ	
1 Mavzu. QADIMGI MISR	
1§ Qadimgi Misr tarixi yozma manbalari.....	5
2§ Misr tabiatı	6
3§ Ijtimoiy hayot	9
4§ Istilochilik yurishlari	29
5§ Diniy e'tiqod. Tibbiyat	33
6§ Me'morchilik	36
7§ Adabiyot.	41
2 Mavzu. OLD OSIYO QADIMDA	
1§ Qadimgi Bobil podsholigi	49
2§ Ikkidaryo oralig'i madaniyati	55
3§ Qadimgi Osuriya	67
4§ Xettlar.....	80
5§ Suriya, Finikiya	94
3 Mavzu. ER. AVV. I MING YILLIKDA QADIMGI ERON VA O'RTA OSIYO	
1§ Er. avv. VI asr oxiri – V asr boshlarida Ahmoniyalar Eroni davlati	102
2§ Er. avv. VI asr oxiri – V asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari	113
4 Mavzu. QADIMGI HINDISTON	
1§ Hindistonning tabiiy boyliklari	128
2§ Adabiyot	143
5 Mavzu. QADIMGI XITOY	

1§ Xan sulolasi davrida Xitoy	151
2§ Xalq qo'zg'olonlari	156
3§ Qadimgi Xitoy adabiyoti	164
 Qadimgi Sharq metrologiyasi.....	176
 IKKINCHI QISM.	
QADIMGI YUNONISTON	
 1 Mavzu. KRIT JAMIYATI	
1§ Krit davlat tuzumi va jamiyati	177
 2 Mavzu. ER. AVV. VIII – IV ASRLARDA	
YUNON POLIS-DAVLATLARI	
1§ Sparta davlati va jamiyati	186
2§ Buyuk yunon kolonizatsiyasi	193
3§ Afina davlati va jamiyati	195
4§ Yunon-fors urushlari	203
5§ Qadimgi yunon madaniyati	209
 3 Mavzu. MAKEDONIYALIK ISKANDAR	
DAVLATI. ELLINIZM DAVRI	
1§ Makedoniyalik Iskandar davlatining tashkil topishi	212
2§ Ellin davlatlarining tashkil topishi. Ellinizm madaniyati.....	226
 Qadimgi yunon metrologiyasi.....	231
 UCHINCHI QISM.	
QADIMGI RIM	
 1 Mavzu. RIM DAVLATINING TASHKIL TOPISHI	
1§ Rim shahrini barpo qilinishi to'g'risida afsonalar	232
2§ Er. avv. V-I asrlarda Rim respublikasi	238
3§ Rim respublikasining ijtimoiy-siyosiy hayoti	248

2 Mavzu. RIM RESPUBLIKASINING QULASHI.

RIM IMPERIYASI

1§ Respublikaning tushkunligi	268
2§ Hokimiyat uchun kurash. Imperiyaning o'rnatilishi	274
3§ Ijtimoiy-iqtisodiy hayot	286
4§ Rim harbiy tashkiloti	296
5§ Rim imperiyasining halokati	308
Qadimgi Rim metrologiyasi.	316
Rim xudolari	317
Rim provinsiyalari ro'yxati	319
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.	320

Ravshan Rajabov

Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi

O'quv qo'llanma

Muharrirlar N.Jo'rayev, S.Kamolov

Tex.muharrir N.Suvonov

Dizayner O.Fozilova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

«ADIB» nashriyoti mas'uliyati cheklangan jamiyatি.

100027. Toshkent sh. «O'zbekiston» ko'chasi, 16^A uy.

Tel: (8371) 245-65-09.

Nashriyot litsensiyasi № 181. 08.12.2011.

Terishga 20.05.2013 y. da berildi.

Bosishga 5.08.2013 y. da ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/16. Offset bosma. «Times New Roman» garniturasи.

Shartli b.t. 20. Nashr-hisob t. 33,6. Adadi 500 nusxa.

Buyurtma №57.

“HIOL MEDIA” MCHJ

matbaa bo'limida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Sharaf va To'qimachi ko'chalari kesishuvi.